O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi
O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

“O‘RTA ASRLAR SHARQ ALLOMALARI VA MUTAFAKKIRLARI TARIXIY MEROSIDA SAN’AT VA MADANIYAT MASALALARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-NAZARIY VA AMALIY KONFERENSIYA TO’PLAMI

Toshkent 2024-yil 7-may

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi
O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

“O‘RTA ASRLAR SHARQ ALLOMALARI VA MUTAFAKKIRLARI TARIXIY MEROSIDA SAN’AT VA MADANIYAT MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2024

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 20-martdagi 76-son buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida 2024-yil 7-may kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida o‘tkazilgan “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy merosida san’at va madaniyat masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan.

(Maqolalardagi ma’lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas’uldir)

Mas’ul muharrir:
E.U.Shermanov,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, O‘zDSMI rektori v.b.

Tahrir hay’ati:

S.Jumayev – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor

O.Davlatov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i

Sh.Bobomurodov – Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i

A.Qo‘lqanotov, Sh.Rustamaliyeva, G.Shavkatova – O‘zDSMI doktorantlari

To‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 20-martdagi 76-son buyrug‘i hamda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining 2024-yil 26-martdagi 33-sonli buyrug‘i bilan nashrga tavsiya qilingan.

Shermanov Eldor Uralovich,
O‘zbekiston davlat san’at va madniyat instituti rektori v.b.

Assalomu alaykum, hurmatli xalqaro konferensiya ishtirokchilari, ustozlar hamda ilm ahli va hamkasblar!

Bugungi kunda jamiyatimizning ma’naviy olamini rivojlantirishda san’at ta’limining ahamiyati davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Davlatimiz tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlardan, imkoniyatlardan maqsadli foydalanish, ta’lim sifatini oshirib borish, ilg‘or xorijiy davlatlar ta’lim muassasalaridagi o‘quv, ilmiy va ijodiy jarayonlar yutuq va kamchiliklarini qiyosiy tahlil qilish bugungi davr talabidir.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 20-martdagi 76-son buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy merosida san’at va madaniyat masalalari” mavzusidagi navbatdagi xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy konferensiya tashkil etilmoqda. Ushbu xalqaro anjuman O‘rta asrlarda yashab, ijod etgan Sharq allomalari va mutaffakkirlarining san’at, madaniyat, musiqa, tasviriy san’at, me’morchilik sohalaridagi tadqiqotlar asosida yaratgan risolalarini chuqur o‘rganish, ular tomonidan yaratilgan ilmiy merosning butun dunyoda ilm, fan va madaniyatning deyarli barcha sohalari taraqqiyoti uchun zamin bo‘lganligini isbotlash, shu orqali o‘sib kelayotgan yosh avlod ongida milliy g‘urur, iftixor, Vatanga muhabbat tuyg‘ularini kamol toptirish, madaniy va intellektual merosni asrab-avaylash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Men ushbu konferensiyada sohamizning malakali mutaxasislari tomonidan buyuk ilmiy merosimizdagi san’at va madaniyat masalalalariga qaratilgan mavzular atroflicha talqin qilinishiga, fikr-mulohazalar natijasida kerakli xulosalar va takliflar ishlab chiqilishiga ishonaman.

Barcha konferensiya ishtirokchilariga muvaffaqiyatlar tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat!

Jumayev Sobirjon Saidovich,
O‘zDSMI ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor

Assalomu alaykum, hurmatli xalqaro konferensiya ishtirokchilari, aziz mehmonlar! Avvalo, bugungi konferensiyaga tashrif buyurganingiz uchun barchangizga alohida minnatdorchilik bildiraman.

O‘rta Osiyodagi ilmiy va madaniy jarayonlar mamlakatimiz olimlarining ham doimo diqqat markazida bo‘lib kelgan. Sharq allomalari hayot yo‘li va ularning ilmiy merosinini tadqiq etishda yosh olimlarning hissasi kattadir. Markaziy Osiyo, shu jumladan, Yangi O‘zbekiston insoniyat sivilizatsiyasi qaror topgan mintaqalardan biri sifatida o‘z o‘rni va salohiyatiga ega buyuk davlat hisoblanadi. O‘z davrida hozirgi zamon ilm-fanining ilk poydevorini qo‘ygan va rivojlantirgan ajdodlarimiz qadim-qadimlardan Sharq xalqlari yaratgan tafakkur, g‘oya, kashfiyotlar va donishmandlikni sinchiklab o‘rganganlar. Shuning uchun ham O‘rta asrlarda G‘arbda “Nur Sharqdan taraladi” degan iboraning paydo bo‘lishi ham bejiz emas. Buyuk sharq allomalarining ilmiy merosi mazmuni va ko‘lami shundaki, bu meros bugun ham o‘zining ilmiy-amaliy ahamiyatini yo‘qotmasdan, yangi ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Sharq va G‘arbning ilmiy dunyosi birlashgan va uyg‘unlikda rivoj topgan. Allomalarimiz faqat Osiyoning ilm-fan yutuqlari bilan chegaralanib qolmasdan, xorijlik mutafakkirlarning ham ilmiy yutuqlaridan bahramand bo‘lganlar va ularni yanada boyitishga alohida e’tibor qaratganlar.

Darhaqiqat, O‘zbekiston jahon ilm-fani rivojiga munosib hissa qo‘shgan buyuk allomalar, qomusiy olimlar va mutafakkirlar yetishib chiqqan diyordir. Bugungi kunda esa siz kabi yosh olimlar bu ishni sharaf bilan davom ettirmoqda. IX–XII asrlardagi Renessans, ya’ni Uyg‘onish davri hamda Amir Temur va temuriylar davridagi madaniy yuksalish davrlari nafaqat butun mintaqada, balki jahon ilm-fani, madaniyati tarixida chuqur iz qoldirgan davr bo‘ldi. Bu davrda yaratilgan bebaho durdonalar, boy intellektual meros namunalari asrlar mobaynida jahon miqyosida ilm-fan rivojiga xizmat qildi va intellektual meros durdonalari sifatida tan olinib, yuksak baholandi. Zero, bu borada davlatimiz rahbari nutqida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan, butun insoniyatning ma’naviy boyligi bo‘lgan bebaho merosning o‘rni va ahamiyatini o‘rganish doima dolzarb vazifalarimizdan biri ekanligini ta’kidlagan edi. Hozirgi kunda yosh avlod vakillarining bilim olishi, ilm-fan, innovatsiyalar, adabiyot, san’at va madaniyat, sport sohasidagi iste’dod va salohiyatini yuzaga chiqarishi, ularning jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Bu borada davlatimiz rahbari yoshlikdan ilm o‘rganishning bebaho ahamiyatiga urg‘u berib, buyuk allomalarimiz “Yoshlikda o‘rganilgan ilm toshga o‘yilgan naqsh kabidir” degan hikmatlarga amal qilib, ilm-fan sohasida buyuk kashfiyotlarni amalga

oshirganliklari, ana shunday qutlug‘ an’analarni davom ettirib, “yurtimizda yangi xorazmiylar, farg‘oniylar, beruniylar, ibn sinolar, mirzo ulug‘beklar, navoiylarni tarbiyalab yetkazish – nafaqat vazifamiz, balki tarix va kelajak oldidagi muqaddas burchimiz” ekanligini ta’kidlagani bejiz emas.

Biz ishonamizki, sizlarning orangizdan ham ilm-fan yo‘lida xizmat qiladigan, jahon taraqqiyotida kata iz qoldira oladigan olim-u olimalar albatta yetishib chiqadi. Allomalarimiz ilmiy merosini o‘rganish yo‘lida izlanayotgan sohasining fidoyi olimlariga mashaqqatli, ammo faxr tuyg‘usiga yo‘g‘rilgan ilmiy-pedagogik faoliyatlarida omad yor bo‘lsin!

Приветственное слово участникам
Международной научно-теоретической и практической конференции
«Вопросы искусства и культуры в историческом наследии ученых Востока и мыслителей средних веков»

Уважаемые коллеги! Поздравляю Вас с открытием Международной научно-теоретической и практической конференции «Вопросы искусства и культуры в историческом наследии ученых Востока и мыслителей средних веков».

Неоспорим тот факт, что культурное многообразие часто представляется, как абсолютно новая проблема, которую приходится решать мировому сообществу в связи со свершившейся реальностью глобализации и широких миграционных процессов, затрагивающих все больше регионов мира. На самом деле, речь должна идти только о беспрецедентном увеличении масштаба данных процессов, ибо охранительные механизмы самосохранения культур и, с другой стороны, факторы их открытости, гибкости, способности к порождению новых «гибридных» форм, стимулирующих рост и внутреннее развитие, всегда присутствовали в глобальном культурно-историческом процессе.

В этом контексте цель конференции затронуть и обозначить многие актуальные вопросы искусства и культуры в историческом и современном аспектах, оценить вклад таких выдающихся ученых и мыслителей средневекового Востока, как Абу Наср Фараби, Абу Рейхана Беруни, Мухаммед Мусо Аль Хорезми, Сафиаддина Урмави, Абдул Кадыра Мараги и др. в общечеловеческую культуру, в развитие мировой философской научно-теоретической мысли в современном культурологическом измерении.

Несомненно, доклады и выступления предложат новые направления изучения этого бесценного наследия, а сама конференция станет площадкой для обмена новыми идеями и мнениями, стимулируя изучение влияния научных идей ученых и мыслителей средневекового Востока в осмыслении мировой театральной и музыкальной культуры, а также культурологической рефлексии ученых духовного наследия, в контексте влияния на процесс формирования творческой личности. Ибо нет Будущего без глубокого осмысления и изучения Прошлого.

Я уверен, что конференция даст новый импульс и в развитие культурно-гуманитарных связей между учеными Узбекистана и Таджикистана, Вузами – Государственным институтом искусств и культуры Узбекистана и Таджикским Государственным институтом культуры и искусств им. Мирзо Турсунзаде.

Желаю всем участникам и организаторам конференции плодотворной работы, конструктивного диалога и эффективного взаимодействия.

Низоми Мухриддин Зайниддин Ректор Таджикского Государственного
института культуры и искусств
им. Мирзо Турсунзаде
доктор филологических наук, профессор

Здравствуйте, дорогие и уважаемые узбекские коллеги, гости и участники
Международной научно-теоретической и практической конференции “Вопросы искусства и культуры в историческом наследии ученых и мыслителей средневекового востока»

Мы от души признательны ректорату Государственного института искусств и культуры Узбекистана и организационному комитету, что позволили нам учавствовать в Международном научном форуме, затрагивающем на сегодняшний день актуальные вопросы и пристальное внимание к изучению исторического наследия ученых и мыслителей средневекового Востока.

Ведь народы не бывают большими и малыми, каждый народ внес свой драгоценный вклад в создание человеческой цивилизованной культуры. У каждой страны, у каждой нации есть свои заветные твердыни. Когда история народа складывается счастливо, она становиться центром культурной и политической жизни. Когда судьба преследует нацию, она бывает оплотом национальной жизни, островом надежд, залогом возрождения.

Сегодня люди ищут драгоценные камни, богатство, карьеру, должности… Найдя, все это, со временем они достанутся другим личностям или бесследно исчезнут. Но, если Вы будете на должном уровне хотя бы сохранять, то историческое культурное богатство, и то, что окружает Вас – творческих личностей, людей пера, искусства, литературы, которые вносили и вносят в мировую копилку не только своей страны, но и всей цивилизации частицу души своего народа – поэзию, музыку, зданияи построения с традиционным национальным колоритом архитектуры и, в целом человечности, то считайте себя богатым наследником земли своих предков седой старины и великих людей своей эпохи!

Все люди части тела одного,
Субстанция создания ведь одна.
Коль части тела больно будет в жизни,
Другим частям не даст покой она.
Коль безразличен ты к труду других,
Далек ты от людского эталона.

Эти исторические строки из произведения «Гулистан» Шайха Саади Ширази, написаны в персидском оригинале и других языках прямо над входом в здание ООН в Нью-Йорке

Мир Алишер Навои считал, что народы, государства должны изучать историю, традиции, ценности других народов для того, чтобы понимать их, быть ближе к ним и толерантнее во всех вопросах.

Произведение «Таърихи мулки Ачам» («История иранских шахов» с точки зрения своей эпохи было трудом, имеющим под собой научные аргументы, где приводятся данные о правителях, которые основали или благоустроили такие великие города средневековья, как Бухару, Балх, Вавилон, Мерв, Самарканд и десятки других крупнейших центров. Здесь он также обоснованно приводит

сведения об истории появления праздника Навруз, и в целом праздничнo-обрядовой культуры многих народов, проживавших в свое время на вышеприведенных территориях.

Сегодня все катаклизмы мирового уровня, происходят от того, что определенное количество населения не знают своих прав, и немаловажно - свою историю.

А изучение истории педагогического наследия – это целое богатство для современников и тех, кто преподносит это наследие седой старины будущим продолжателям, то есть созерцателям настоящей и будущей эпохи.

Желаю всем участникам Международного научного форума
доброго здоровья, благополучия, Мира Вам и нашему общему дому!

Доктор педагогических наук,
профессор Челябинского Государственного
института культуры,
Почетный профессор Государственного института
искусств и культуры Узбекистана
Сафаралиев Б.С.

Davlatov Oybek G‘aniyevich,
O‘zDSMI Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i

Assalomu alaykum, hurmatli xalqaro konferensiya ishtirokchilari, ustozlar hamda ilm ahli va hamkasblar!

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 18-yanvardagi 16-son buyrug‘iga binoan o‘tkazilayotgan “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy merosida san’at va madaniyat masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy konferensiyasiga xush kelibsizlar!

Avvalambor, ushbu nufuzli konferensiyani o‘tkazish tashabbusini qo‘llab-quvvatlagani va tashkiliy ishlarda jonbozlik ko‘rsatgani uchun institut rahbariyatiga chuqur minnatdorchilik izhor etaman.

O‘ylaymanki, mazkur konferensiya yuqori saviya va sajiyada, qizg‘in ilmiy muhokamalarga boy bo‘lib o‘tadi. Sababi konferensiyaga madaniyat va san’at sohasining eng ko‘zga ko‘ringan taniqli olimlari, soha vakillari va yetuk mutaxassislari yig‘ilgan.

Azaldan olimlar jam bo‘lgan har qanday joy “Bayt ul-hikmat”ga aylanib, haqiqiy ilm mubohasasi kechadigan, buyuk g‘oyalar muhokama qilinadigan, farahli maskanga aylanib ketgan. So‘nggi vaqtlari institutimizda bir qator ilmiy-amaliy konferensiyalar o‘tkazilib, qator dolzarb muammolar bo‘yicha ilmiy muloqotlar bo‘lib o‘tdi. Mazkur konferensiya ularning davomi sifatida madaniyat va san’at bo‘yicha ilmlarimizni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Sababi, O‘rta asrlarda ona zaminimizdan minglab olim-u shoirlar, buyuk mutafakkirlar yetishib chiqqan. Ularning ilmiy ishlari bashariyatning ma’naviy mulki hisoblanadi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Barchangizga yaxshi ma’lumki, O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy meroslarini o‘rganish barcha sohalar kabi madaniy-ma’rifiy sohaning ham ajralmas qismi hisoblanadi. Afsuski, hozirgi kunda bashariyatning ma’naviy mulkiga aylangan allomalarimizning nodir va noyob asarlarini o‘rganish, innovatsion yondashish kabi sa’y-harakatlari talab darajasida emas. Ulug‘ mutafakkirlar, olimu fuzalolar, aziz-avliyolarimizning ilmiy asarlari Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-ma’rifiy asosi, “Uchinchi Renessans” davrining bamisoli xazinasidir.

Yangi O‘zbekistonda xalqimizning ezgulikka yo‘g‘rilgan an’analari, urf-odatlarini qayta tiklash, o‘zlarining noyob asarlari hamda olamshumul kashfiyotlari bilan jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk mutafakkir va qomusiy olimlarimiz merosini yanada chuqur o‘rganish va keng targ‘ib qilish, ushbu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borish uchun har tomonlama imkoniyatlar yaratilgan. Bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan ilm-fan, texnologiya va innovatsiya sohalarini rivojlatirish va mazkur sohada xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Mazkur xalqaro konferensiyaning ham asosiy maqsadi O‘rta asrlarda yashab, ijod qilgan Sharq allomalari va mutafakkirlarining san’at, madaniyat, musiqa, tasviriy san’at, me’morchilik sohalaridagi tadqiqotlar asosida yaratgan risolalarini chuqur o‘rganib, muhokama qilish, ular tomonidan yaratilgan ilmiy meros butun dunyoda ilm, fan va madaniyatning deyarli barcha sohalari taraqqiyoti uchun asos bo‘lganligini yana bir bor ta’kidlashdan iborat.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek: “tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish ham davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir”.

Hozirgi kunda Sharq qo‘lyozmalari fondini saqlash, ta’mirlash, boyitish va muayyan tizimga keltirish, arab yozuvidagi turli mavzularga oid yozma yodgorliklar va epigrafika namunalarini tadqiq qilish, ularni asl holida, o‘zbek va xorij tillarida ilmiy izohlar, tarjimalar bilan nashr etish, ilmiy muomalaga kiritish bo‘yisha samarali ishlar amalga oshirildi. O‘zining salmog‘i va ilmiy qimmati jihatidan jahonda ma’lum bo‘lgan Sharq qo‘lyozmalari nafaqat O‘zbekiston balkim jahon hamjamiyati taraqqiyoti uchun ham katta hissa qo‘shgan.

“Hamma o‘z tarixini ulug‘laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q. Bu merosni chuqur o‘rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak”, degan edi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Joriy konferensiyaning muddosi aynan shu g‘oya, ya’ni bashariyatning ma’naviy mulkini tarannum etishdir.

Bugungi konferensiyada qabul qilinayotgan rezolyutsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi albatta, Yangi O‘zbekistonda ilm-fan salohiyatining oshishiga xizmat qiladi. Ilm yo‘lidagi sharafli va mas’uliyatli ishlaringizda sizlarga katta zafarlar, kuch-g‘ayrat va yangi muvaffaqiyatlar yor bo‘lishini tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat!

I SHU'BA
O‘RTA ASR SHARQ ALLOMALARI VA MUTAFAKKIRLARINING ILMIY TARIXIY MEROSI VA UNING UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDAGI AHAMIYATI

Viktor Aleksandrovich Alimasov,
O‘zDSMI “Madaniyatshunoslik” kafedrasi
professori, falsafa fanlari doktori

ABU MANSUR AS-SAOLIBIY O‘RTA ASR MUTAFAKKIRLARI IJODI HAQIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘rta asrda yashab ijod qilgan Abu Mansur as-Saolibiyning “Yatimat ad Dahr” asari, unda keltirilgan asarlar va O‘rta asr ijodkorlari haqidagi ma’lumotlar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *mutafakkirlar, shoirlar, ijod, ma’rifat, hurfikrlik, islom, falsafa, adolat.*

Annotation. *The present article bring the work of Abu Mansur as-Saoliby "Yatimat ad-dahr" and analisis spring, works and creative of the Middle Ages Thinkers.*

Key words: *thinkers, poets, creative, entightenment, freethinking, islam, philosophy, just.*

IX-XII asrlar O‘rta Osiyoda katta ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Arab bosqinchilarining zo‘ravonligi islom niqobida avj oldi. Islomni qabul qilmaganlar ommaviy tarzda qatl etildi. Horun ar Rashiddan keyin Movarounnahr va Xuroson hokimiyatini Tohiriylar (821-873), keyin Somoniylar hamda Safforiylar sulolasi (873-903) egalladi. Ismoil Somoniy butun Movarounnahrni birlashtirdi. Xorazmda Afrig‘iylar hukmronlik qildi, ulardan taxtni Ma’mun I tortib oldi. Ma’mun II qatl etiladi va taxtga Mahmud G‘aznaviy o‘tiradi. Keyin Xorazmni saljuqiylar bosib oladi.Ushbu ag‘dar-to‘ntarlar xalq ahvolini yomonlashuviga va qo‘zg‘olonlarga sabab bo‘ldi. Shunga qaramay, o‘sha davrda “Urganchda O‘rta Osiyo va umuman, Sharqning bir qancha yirik olim, shoir va adiblari to‘plandi. Bular orasida Abu Ali ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Abu Mansur as-Saolibiy (961-1038), Abu Sahl al-Iasihiy, Abu Nasr ibn Iroq, tabib Abul- Hasan Xammor, mashhur tarixchi Ibn Miskavayh (vafoti 1030) kabi siymolar bor edi. Bular jahon fani xazinasiga o‘zlarining o‘lmas asarlari bilan katta hissa qo‘shdilar” [1, 5 b.].

Abu Mansur as-Saolibiy 961 yili Nishopurda tug‘ilgan. U Buxoro va Samarqandda ta’lim olgan. U mashhur tarixchi olim bo‘lib yetishadi, O‘rta Osiyoda yashagan va ijod etgan olimlar, shoirlar haqida ma’lumotlar to‘plab, tazkiraciga "Yatimatad-dahr fi mahosin ahl al-asr" ("Asr ahlining fozillari haqida zamonasining durdonasi") deb nom

qo‘yadi. U arab tilidan o‘zbek tiliga o‘girilib, 1976 yili "Fan" nashriyotida chop qilingan. Saolibiy hayoti va ijodini o‘rganishga F.Deterisi (1821-1903), B. de Menar (1826-1908), R.Dvorjak (1860-1920), R.Nikolson (1868-1945), A.Ye.Krimskiy (1872-1941), mashhur akademiklar IYu.Krachkovskiy va Ye.E. Bertels, o‘zbek adabiyotshunosi I.Abdullayev katta hissa qo‘shishgan. Yuqorida "Fan" nashriyoti chop etgan kitob (to‘rtinchi qism) I.Abdullayev tomonidan nashrga tayyorlangan.

"Yatimat ad-dahr"da bizni madaniyat, san’at va ijodga, o‘rta asrlik ajdodlarimizning inson, jamiyat va axloqqa oid qarashlari qiziqtiradi. Shuning uchun biz o‘sha davrga xos bo‘lgan ijtimoiy-ma’rifiy, falsafiy va axloqiy masalalarga oid fikrlarga diqqatimizni qaratamiz.

Kitob buxorolik Abu Ahmad ibn Abu Bakr al-Kotib hayoti va ijodiga oid manbalarni keltirish bilan boshlanadi. Muallifning yozishicha, "Abu Ahmad xayri saxovatli qilib tarbiyalangan, u baxt (bilan) ozuqlantirilgan bo‘lib, saltanat tayanchi edi. Adabli, zarif va mahoratli kishilarning va Movarounnahrni yaxshi bilganlarning birinchisi edi. Iroq ahliga taqlid qilib she’r aytardi. Uning so‘zlari butun mamlakatlarni kezib yurardi" [2,101b.]. Bu tavsif zamindoshimizning qanday sifatli inson va qobiliyatli shoir bo‘lganini ko‘rsatadi. U raqiblariga qarshi she’rlar yozgan, vazirlik lavozimini egallash maqsadini yashirmagan. Natijada dushmanlari tomonidan Buxorodan quvg‘in qilinadi. Biroz vaqt Bag‘dodda turadi, keyin vataniga qaytadi. Hirot, Bo‘shanj va Bodg‘is viloyatlari hokimi bo‘lgan. Mana uning fikrlaridan namunalar: "Agar xalq orasida adolatli tadbir va hukm (chiqarish) bo‘lganda, sen (amaldor al-Jayhoniyga yozilgan hajviya) ko‘cha supirishga ham tayin etilmagan bo‘larding". "Agar birovning davlatida odamning ulushi va baxti bo‘lmasa, u bunday davlatning halokatini tilaydi". " Zamona senga yaxshi boqsa va u senga kafil bo‘lsa, sen ham yaxshilik qil". "O‘z qadahing uchun ko‘nglingni ochadigan suhbatdoshlar axtar, agar ular bo‘lmasa, ular o‘rniga mashhur kitoblarni o‘zingga suhbatdosh qil". "Axir do‘stlik fahsh va shubhali ishlardan qaytarguvchi aslzoda suhbatdoshlar orasida bo‘ladi-da" [3,104-105 b.]. Shoir adolatsizlik, shubhali ishlar, axloqsizlikdan nafratlangan. U "davlat ishlaridan chetlashtirilgani, oziq-ovqatning yetishmasligi, ko‘ziga dog‘ tushishi va yuragining g‘am-g‘ussaga to‘lishi" bois o‘limni maqtashga o‘tadi. Uning nazarida "o‘lim jamiki insofsiz kishilardan xalos bo‘lish" yo‘lidir. "Agar birovlar yashamoqni istasa, men o‘lishni va azoblardan xalos bo‘lishni orzu qilaman. O‘limda mingta fazilat bor, agar buni bilsalar edi, uning yo‘li uni sevish bo‘lardi" [4, 106 b.]. Bu nekrofillik, tanatosni ulug‘lash emas, balki hayotni baxtli ko‘rish istagi edi. As-Saolibiy buyuk zamondoshi Abu Bakr Muhammad ibn al-Abbos al-Xorazmiy haqida go‘zal va ibratli hikoyat, she’rlar, fiklar keltiradi. Uni "zamonasining eng donosi, adab dyengizi, nazm va nashrning tug‘i, fazil va idrok olamidir. Ajoyib va ibratli balog‘atni o‘zida mujassamlashtirgandi. Arablar tarixi, janglar va devonlar bilan (chuqur) tanishadi, lug‘at va she’riyatga oid kitoblarni o‘rganadi va har qanday bobidan va duolaridan keltira

olardi, adab go‘zalliklaridan eng oliy darajaga erishgandi. Mushohadasining yoqimliligi, iborasining malixligi, saxovatining yuksakligi, jiddiyligining mohironaligi va hazillarining halovatliligi bilan har qanday yig‘ilishda g‘olib chiqardi. Uning risolalar devoni jildlarga ajratilib, keng tarqalgan, she’rlari devoni ham xuddi shunday" [5, 227 b.]. Ushbu tavsifdan keyin al-Xorazmiy sifatlari va ijodi haqida to‘xtalish ortiqcha. Biroq o‘z ilmiy qiziqishimiz va mavzuga oid mutafakkirning ayrim fikrlarini keltiramiz. Mana, ular: "" Unutilgan joyda esga tushish bo‘ladi, erk berilgan joyda qoziga ro‘para bo‘linadi". Fikh ta’siri ijtimoiy fikrda juda katta bo‘lgan. "Karamli kishi tahqirlansa ham azizdir". Karamli bo‘lishga mutafakkirning da’vati bu. "Sababsiz uzr gunohdir, ishonch yo‘qolishi bilan qilingan takalluf haqoratdir". Bad amalni u qilinmasdan oldin ham qilingandan keyin ham oqlash qiyin. "Xira ko‘zning gunohi zulmatni sevish va yorug‘likni yomon ko‘rishdan iborat". Qalb xiraligi esa ojiz ko‘z gunohidan katta. "Kishilarga ma’lum bo‘lmasa ham, haqiqat haqiqatdir, ko‘r ko‘rmasa ham kunduzi kunduzdir". Har bir amal va so‘zning baxosi bor, bahosini topmaydigan narsa yo‘q. "Ko‘rganing tili aytib berganning tilidan notiqroq, voqeaning guvohi bo‘lish birov so‘zining guvohi bo‘lishdan adolatliroqdir". "Adabning mevasi katta aql, ilmning mevasi yaxshi amaldir" [6, 227-230 b.]. Mutafakkir ijodidan bunday aforistik fikrlarni va inson xulq-atvorini, amallarini go‘zal qilishga qaratilgan o‘gitlarni yana keltirish mumkin.

Saolibiy har bir olim, shoir, arbob haqida to‘xtalar ekan, diqqatini ulardagi ibratli jihatlariga qaratadi. Asr fozillaridan o‘rganishga, ilm olish va adab durdonalarini terishga chorlaydi. U shoirlardagi iqtidorni, haqiqatgo‘ylik va insonparvarlikni obyektiv ochib berishga intiladi. Abu Tayyib at Tohiriyni "Xuroson ahlining eng yaxshi va eng zarif shoirlaridan", al-Murodiyni "Buxoroning mashhur shoiri edi", al-Harroriyni "odamlar orasidan chiqqan shaytonlardan va ulfatchilikdagi rayhonlardan", al-Mutavviyni "o‘spirinlik choponini yigitlik aql-idroki va o‘rta yoshlik fazilatiga kiygizgan, adib va shoir a’yonlar martabasiga ko‘tarilgan" insondir, deb baholaydi. Tazkirada keltirilgan O‘rta Osiyo va Xurosonlik barcha mutafakkirlariga shu uslubda baho beriladi. Ming afsuski, ularning aksariyatini mutaxassislarimiz – tarixchilarimiz, adabiyotshunos va madaniyatshunoslarimiz bilmaydi. Saolibiy va I.Abdullayevning o‘tgan asrning 60-70 yillarida kam nusxada chop etilgan asarlarini keng ommaga yetkazish haqida qayg‘urish zarur. O‘rta asr mutafakkirlarining dono fikrlarini aforistik to‘plamlar tarzida nashr qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Mansur as-Saolibiy. Yatimat ad-dahr fi mahosin ahl al-asr (“Asr ahlining fozillari haqida zamonasining durdonasi). – T.: Fan, 1976.
2. O‘sha asar.
3. O‘sha asar.
4. O‘sha asar.
5. O‘sha asar.
6. O‘sha asar.

Abdunazarova Nodira Rustamovna,
O‘zDSMI “Madaniyatshunoslik”
kafedrasi katta o‘qituvchisi

SHARQ ALLOMALARINING MADANIYATGA OID QARASHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Sharq mutafakkirlari Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Ibn Xaldun, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Isxoqxo‘ja Ibratlarning madaniyat haqida qarashlari yoritilgan.*
Kalit so‘zlar: *Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Ibn Xaldun, Forobiy, Alisher Navoiy, Is’hoqxo‘ja Ibrat, madaniyat, sivilizatsiya, ma’rifat, ta’lim-tarbiya, tibbiyot, adabiyot, san’at, arxitektura.*
Abstract. *This article describes the views of Eastern thinkers Abu Ali ibn Sina, Beruni, Ibn Khaldun, Abu Nasr Farabi, Alisher Navai, Ishakhoja Ibrat on culture.*
Key words: *Abu Ali ibn Sina, Beruni, Ibn Khaldun, Abu Nasr Farabi, Alisher Navai, Ishakhoja Ibrat, culture, civilization, enlightenment, education, medicine, literature, art, architecture .*

Sharq allomalarining barcha falsafiy qarashlari, ilmiy kashfiyotlari ham milliy, ham umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lib, ularning asarlarida ilmiy asoslab berilgan ta’limotlar faqat o‘sha davr uchungina emas, ayni paytda, keyingi avlodlar, hozirgi zamon va insoniyat istiqboli uchun ham juda muhim va zarurdir. Buyuk vatandoshlarimiz inson kamolotini , bashariyat baxtu saodatini ilm-fan, ta’lim-tarbiya, ma’naviyat-ma’rifatning uyg‘unligida deb bildilar va uni ezgu ishlarga sarflashlarini orzu qildilar. Bu borada mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev shunday deb ta’kidlaydilar: “Bu asriy orzu xalqimiz erishgan Birinchi Renessansga va ilk o‘rta asrlardagi Ma’rifiy uyg‘onish davriga asos bo‘lgan, uning ma’naviy poydevori sifatida xizmat qilgan desak, yanglishmagan bo‘lamiz.

Ajdodlarimiz armonlari o‘sha davrda Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkir bobolarimiz hayoti, faoliyati asarlarida o‘z talqinini topgan adolat va adolatparvarlik g‘oyalarida mujassam bo‘ldi.

Jahon madaniyati va sivilizatsiyasiga tamal toshini qo‘ygan sharq allomalarining “madaniyat” xaqidagi talqinlarni tadqiq qilish Madaniyatshunoslik fanida hali yechilmagan muammolardan hisoblanadi. Zero, “O‘rta asrlar Sharq tarixi shundan dalolat beradiki, madaniyat va ta’lim-tarbiya, tibbiyot, adabiyot, san’at va arxitektura sohalaridagi beqiyos yuksalish, ilmiy maktablarning vujudga kelishi, yangi-yangi iste’dodli avlodlar to‘lqinining paydo bo‘lishi va voyaga yetishi – bularning barchasi birinchi navbatda iqtisodiyot, qishloq va shahar xo‘jaligining ancha jadal o‘sishi, hunarmandlik va savdo-sotiqning yuksak darajada rivojlanishi, yo‘llar qurilishi, yangi karvon yo‘llarining ochilishi va avvalambor nisbiy barqarorlikning ta’minlanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan[1]. Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Isxoqxo‘ja Ibrat kabi mutafakkirlar “madaniyat” tushunchasini madaniyatli shahar turmushi bilan bog‘liq holda ta’rif berishgan bo‘lsa, Ibn Xaldun, Ibn Sino kabi allomalar “madaniyat”

tushunchasini keng ma’noda, ya’ni jamiyatdan inson qo‘li bilan yaratilgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklar, ularning ijtimoiy va ma’naviy hayotga tutgan o‘rni va roli beqiyos ekanligini talqin qilganlar.

Birinchi guruhga allomalar “Madaniyat” tushunchasining ma’nosidan kelib chiqqan holda ta’rif berishgan. “Madaniyat” so‘zi arab tilidagi “madina” va “iyat” so‘z yasovchi qo‘shimchalari bilan bog‘liq holda hosil bo‘lib, aynan “shaharga oid” degan ma’noni anglatadi. Ba’zi olimlar “Tamaddun”, ya’ni “sivilizatsiya” so‘zining o‘zagi ham aynan “madaniyat” hisoblanadi, deb ta’riflashgan. Ushbu so‘zni yuzaga kelishi VIII asrda yashagan arablarning ijtimoiy ahvoli bilan bog‘liq bo‘lgan. chunki, bu davrda arab qabilalarning ko‘pchiligi sahroda chorvachilik bilan shug‘ullanganlar. Arabiston yarim orolida esa shaharlar soni oz bo‘lgan. Shaharda yashovchi arablar bilan sahroda yashovchi arablarning madaniyatida farq mavjud bo‘lgan. sahroiy turmushda yashovchi arablarni badaviylar, shaharda o‘troq holda yashovchi arab xalqlarini madaniy turmush deb nomlashgan.

O‘rta asr madaniyatining buyuk namoyandalari Abu Ali ibn Sino, Beruniy kabi allomalarimiz shahar turmush tarzini jamoaning yetuklik shakli sifatida talqin qilganlar. Jumladan, Abu Nasr Farobiyning fikricha, har bir inson o‘z tabiatiga ko‘ra, “oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun intiladi”, bunday yetuklikka faqat shahar jamoasi orqaligina erishiladi. Abu Nasr Farobiy: “madaniy jamiyat va madaniy shahar shunday bo‘ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo‘lgan har bir odam kasb hunarda ozod, hamma bab barobar bo‘ladi, kishilar o‘rtasida farq bo‘lmaydi. Kishilar o‘rtasida farq bo‘lmaydi, har kim o‘zi istagan yoki tanlangan kasb hunar bilan shug‘ullanadi. Odamlar chin ma’nosi bilan ozod bo‘ladilar. Biri ikkinchisiga xo‘jayin bo‘lmaydi. Odamlarning tinchlik va erkinliklariga halaqit beruvchi sulton bo‘lmaydi. Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq lazzatlar paydo bo‘ladi”[3: B.190]. Demak, madaniyat insonning, xalqning o‘z diliga yaqin narsalar bilan shug‘ullanib, ozod yashash shartidir. Ushbu “madaniy shahar” tushunchasi keyinchalik Alisher Navoiy, Isxoqxo‘ja Ibratning asarlarida ham takrorlanadi. Jumladan, Alisher Navoiy o‘zining “Hamsatul mutahayyirin” asarida quyidagi misralarni keltiradi:

Yuz na’t anga kim xulqi karim o‘ldi fani,

YA’nikim karam koni rasuli madaniy.

Ibratning “Tarixi madaniyat” asari tahlilini berishda Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy (870 – 950)ning “Fozil odamlar shahari qarashlari” nomli asarini keltirmaslik mumkin emas. Chunki bu asarda Forobiyning davlat boshqaruvi tizimi, davlat arboblari, ularning fe’li-atvorlari, ijtimoiy hayot, jamiyat, ilm-ma’rifat kabilar haqidagi qimmatli fikrlarining bayoni beriladi. Ibrat ham ushbu asardan foydalanib madaniyatga erishgan davlat qanday bo‘lmog‘i kerak, uning moddiy va ma’naviy zamini nimalardan iborat bo‘lishi kerakligi haqida fikr yuritadi. Jumladan, u horijiy davlatlarni ko‘rgan, ularning turmush tarzi bilan yaqindan tanish bo‘lgan alloma sifatida

madaniy taraqqiyotga erishgan davlatni quyidagicha ta’riflaydi: “madaniyat degan so‘z nizom va qonun ostida idora bo‘lib, xalqi ilm va hunarni bilib, qilib turg‘on kasbi ila bahuzur tiriklik qilsa, ana o‘shal yerni shahar va odamlarini madaniy derlar”[5: B.109].

Ikkinchi guruh vakillaridan Abu Ali ibn Sino dunyodagi jamiki narsalarni ikkiga ajratadi, ya’ni birinchisi insondan tashqarida va unga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud yer, osmon, yulduzlar, tabiat, bu moddiy olam; ikkinchisi – inson ongi, aql-zakovati bilan yaratilgan jamiki narsalar madaniyat deb ta’rif bergan[2: B.563].

XIV asrda yashagan Ibn Xaldunning “madaniyat” tushunchasi va madaniy taraqqiyotning ilmiy talqinlari haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir. Uning fikricha, insoniyat dastlab yovvoiylik xolatida bo‘lgan. keyin u tabiiy olamdan ajralib chiqadi va ijtimoiy kasb etadi. Insoniyat jamiyati doimo o‘zgarib borib, taraqqiyot jarayonida ikki bosqichni bosib o‘tgan. Birinchisi Bidava va ikkinchisi Xidara deb yozib qoldirgan. Bu ikkala bosqich “insonlar yashashi uchun qanday vositalar topishi” ga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Birinchi – bidava bosqichida odamlar asosan, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanadi. Ikkinchi – xidara bosqichida hunarmandchilik, savdo, fan va san’at qo‘shiladi[4: S.64]. Har ikkala bosqich bir hudud doirasida bo‘lishi mumkin. YA’ni “shahar” yoki “sahro”da emas.

XX asr boshlarida yashagan Isxoqxo‘ja Ibrat o‘zining “Tarixi madaniyat” asarini yozish davomida xalqning madaniy taraqqiyot va tanazzuli haqidagi fikrlarini kengaytirish, taraqqiyot mohiyatini tushuntirib berishni maqsad qilib oladi. Shuningdek, xususiy maktablarda ta’lim olayotgan talabalarni taraqqiyot yo‘l-yo‘riqlaridan ma’lumot olishlari, binobarin, ushbu taraqqiyot yo‘nalishlarini o‘zida aks ettirgan asar muassasa kishilariga ham foyda berishini ko‘zda tutgan holda, millatga o‘z fikr va mulohazalari orqali yordam berishini maqsad qilganligini bayon etadi. Ushbu fikr asarda quyidagicha o‘z ifodasini topgan: “bu “tarixi madaniyat” asarini yozmoqdan maqsad xalqni madaniyatga oshno qilish, ani ziddi bo‘lgan vaxshiyotni, beilm va behunarlik, taraqqiy va tanazzulni bildirish va alarni bu to‘g‘rida fikrlarini kengaytish, xusus maktablarda aqliy va fikriy yaxshi talabalarni bu yo‘llardan ma’lumot olishlari, muassasa kishilarga ham foydalik bo‘lushi va o‘qigonlar madaniyatni asosi ilan bilish va millatga qalam va fikr ilan foyda yetkuzish”[5: B.105].

Shuningdek, u o‘z asarining “muqaddima” qismida “madaniyat” so‘ziga ta’rif bera turib bugungi kunda ham ko‘plab bahs va munozaralarga sabab bo‘layotgan til muammosiga to‘xtaladi. U asr boshlarida iboralarning bir-biriga qo‘shilib omuxta til bo‘lib borayotganligidan tashvishlanib quyidagicha yozgan: “Ota-onasi turkiy, shahari turkiy, tilda forsiy. Bu madaniyat Erondan qone’ o‘tirg‘on, hattoki darslar tarjimasigacha. Hozirgacha muni hech kim bilmadi va bilsa ham qilmadi. Mana emdi muxtoriyat (bu yerda Turkiston muxtoriyati ko‘zda tutilgan – Sh.Q.) bo‘lib, o‘z qo‘limizga ixtiyor berilganidan buyon ancha muncha turkiy qilmoqdur. (Turkiy til) Rusiyo, turkiy, arabiy hammasidan ihtilot bo‘lg‘on bir omixta til bo‘lib turubdir.

Masalan, muassasa so‘zlarida “avijroqum” desak, av – rusiy, ijro – arabiy, qum – arabiy. Qani turkiy munda? “O‘lka buyruqlari” deganda ehtimol tamom turkiy bo‘lsa, emdi kam-kam bo‘lur”[5: B.108]. Asarda Isxoqxo‘ja Ibrat tomonidan ko‘tarilgan bu muammo bugungi kunda ham ahamiyatlidir. Chunki bugungi kunda o‘zbek tilining jazibasini qaytarish, unga jon bag‘ishlash fan arboblari, atamashunoslar, lug‘atshunoslar oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Ibrat o‘z risolasida asosiy e’tiborni mustaqil davlatning ham moddiy, ham ma’naviy zaminini yaratishga qaratadi. Jumladan, u davlat taraqqiyotining moddiy zamini sifatida mahalliy sanoatni rivojlantirish, sug‘orish inshootlari qurish, mamlakatda qishloq xo‘jaligini yuritish, ichki va tashqi savdo yo‘lga qo‘yish, mamlakatdagi foydali qazilmalar, ularni o‘lkada qayta ishlab chiqarishni tashkil qilish, chetga xom ashyo o‘rniga mahsulot chiqarishni tashkil qilish hamda turli ixtisoslikka, shuningdek, muhandislikka oid firmalar tashkil etish muammolarini ko‘tarib chiqadi. Shuningdek, u horij firmalari ishbalarmonlari va tadbirkorlari tajribalaridan o‘rganishga chaqiradi. Davlat taraqqiyotining ma’naviy zamini sifatida maktablar tashkil qilish, hunar-texnika, oliy o‘quv yurtlari, ilmiy-tekshirish institutlari tashkil qilish kabi vazifalarni ko‘rsatib beradi.

Xullas, G‘arbona “kultura” bilan sharqona “madaniyat” kategoriyalar o‘rtasida ham etimologik, genezis jihatdan farqlar mavjud. Ammo sharq mutafakkirlarining madaniyat haqida qarashlarini hali tadqiq qilinishi lozim. Chunki, G‘arbda XIV asrda “kultura” ma’rifat, tarbiya, ijod ma’nosida ishlatilgan bo‘lsa, Sharqda, xususan, o‘lkamizda “madaniyat”so‘zi X asrdayoq ilmiy iste’molda bo‘lgan va “shaharlik xislati”, “jamiyat boshqaruvi”, “ma’rifat”, “ruhiy fazilat” sifatida qarashlar mavjud bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yangi O‘zbekiston strategiyasi SH.M.Mirziyoyev.-Toshkent:”O‘zbekiston” nashriyoti 2021 yil.16-bet
2. Falsafa: ensiklopedik lug‘at. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.
3. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashr, 1993.
4. Ignatenko A.A. Ibn–Xaldun. – Moskva: “Misl”. 1980.
5. Is’hoqxo‘ja Ibrat. Tarixi madaniyat // O‘zR FA Sharqshunoslik instituti, qo‘lyozmalar fondi. inv. № 10117. To‘raqo‘rg‘on, 1925. – 109 varaq.

Abdurasulov Shohrux Abdunaimovich,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi
San’atshunoslik instituti kichik ilmiy xodimi,
san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ALISHER NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” DOSTONINING O‘ZBEKISTON TEATRLARIDAGI TALQINI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada buyuk shoir Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonining O‘zbekiston teatrlaridagi sahnaviy talqini tadqiq etiladi. Bunda rejissyorning yondashuvi, aktyorlik mahorati va ssenografiya masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Teatr san’ati Alisher Navoiy ijodiy merosini o‘rganish va targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynashi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, “Saddi Iskandariy”, “Xamsa”, mumtoz adabiyot, o‘zbek teatri, spektakl, rejissyor talqini, aktyorlik mahorati, ssenografiya.*

Annotation. *The article analyzes the theatrical interpretations of the philosophical and religious wiews of the great poet Alisher Navoi in the poem “Saddi Iskandari”. Particular attention is paid to the director’s approach, acting and scenography. It is emphasized that the theatre plays an important educational and popularizing role in the study and in-depth understanding of the literary heritage of Alisher Navoi.*

Key words: *Alisher Navoi, “Saddi Iskandari”, “Hamsa”, sufism, sufi liteture, classic literature, uzbek theatre, performance, director’s interpretation, acting, scenography.*

Ulug‘ shoir va mutafakkir Hazrat Alisher Navoiy ijodidagi tasavvufiy g‘oyalar, ishqiy-ilohiy tuyg‘ular o‘zining go‘zalligi, ohorliligi, badiiy-estetik ta’sirchanligi, insonni ma’naviy kamolot sari undashi va boshqa fazilatlari bilan insoniyat tafakkuri rivojida alohida o‘rin tutadi. Binobarin, shoir adabiy merosini chuqur o‘rganish, uning mohiyatidagi umuminsoniy tushunchalar, axloqiy qadriyatlar, tasavvuf falsafasini anglash komil inson tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiyning orifona qarashlarini o‘zida aks ettirgan, “Xamsa”dagi g‘oyat ibratli va muhtasham doston – “Saddi Iskandariy” hisoblanadi. Navoiy avvalgi to‘rt dostonda bayon etilgan qarashlarini umumlashtirib, xotima yasar ekan, Iskandar timsolida umrning o‘tkinchiligi, toju taxt, amalu mansabning bebaqoligi, dunyoga kelish va yashashdan maqsadni falsafiy yo‘sinda, yuksak mahorat bilan tasvirlaydi.

Ma’lumki, Sharqda Iskandar Zulqarnayn, G‘arbda Aleksandr Makedonskiy nomi bilan dovrug‘ qozongan jahongashta shaxs siymosi nafaqat tarix ilmi, balki adabiyot vakillarining ham doimiy e’tiborida bo‘lib kelgan. Yetti iqlimga dong taratgan rumlik fotih haqida Sharqning buyuk mutafakkirlari o‘lmas asarlar yaratishgan. Ammo ular Iskandar timsolida olamlarni buzishga qodir sarkardani emas, balki haqgo‘y, adolatpesha, odil shoh siymosini ko‘rishgan. Hazrat Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni ham ana shunday asarlar sirasiga kiradi. Buyuk mutafakkir

adolatparvar hukmdor Iskandar obrazini eng oliy pardalarda, yuksak xayolot bilan tasvirlaydi va uni o‘z davriga, toju taxt ilinjida “qirpichoq” bo‘layotgan temuriyzodalarga ibrat sifatida ko‘rsatadi. “O‘zining ko‘p jihatlari bilan sulton Husaynni eslatuvchi – bundan avvalgi doston qahramoni Bahrom obrazidan so‘ng, shoir shoyad kelgusidagi shohlar Iskandardek odil, olim, xalqparvar va tadbirli bo‘lsalar, degan umid bilan yonar edi ” [5. B.72.].

“Alisher Navoiy o‘z xalqining ona tilida Iskandar haqida doston yaratishga kirishar ekan, avvalo Sharq xalqlarining shu syujet bilan bog‘liq bo‘lgan barcha adabiy va tarixiy yozma manbalarini sinchiklab o‘rgandi, salaflari dostonlarini qunt bilan o‘qib chiqdi, ularning yutuq va kamchiliklariga o‘z munosabatini bildirdi” [1. B.6.]. Navoiy tasavvuridagi Iskandar adolat yalovini tik tutgan, xar ishni ilm ahli bilan maslahatlashgan holda qiladigan, oqil va dono, zakiy shaxs. Adabiyotshunos Ibrohim Haqqul yozganidek, “Navoiy ko‘p asarlarida, xususan, “Saddi Iskandariy” dostonida adolatli davr va muhitda insonning insonlik sharafi nechog‘lik yuqori ko‘tarilishi, odamlar ongida mahdudlik, ko‘nglida qo‘rqoqlik ofati joy topmasligi g‘oyatda ishonarli va va ta’sirli ohanglarda tasvirlab berilgan” [6. B.82.]. Dostondagi Iskandar oliy rutbadan emas, nasl-nasabining tayini yo‘q, onasi vafot etib yetim qolgan, oddiy tashlandiq vayronadan topib olingan go‘dak holida tasvirlanadi. Navoiy uchun buyuk muzaffarning avlodu ajdodi qiziq emas, balki uning insoniyligi, xalqparvarligi, xayrli amallari, suratiga emas siyratiga xos fazilatlari, jamiyatdagi o‘rni ahamiyatliroq.

Mustaqillik yillari ma’naviy hayotimizning barcha jabhalarida Hazrat Alisher Navoiy ijodini o‘rganish, uni xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod shuuriga singdirish borasida qator ishlar amalga oshirildi. Shular qatorida Alisher Navoiy asarlarining teatr sahnalarida talqin qilinishi ham e’tiborga molik voqealardan bo‘ldi. Boisi teatr – jonli san’at, sahnadagi voqelik bevosita tomoshabin ko‘z o‘nggida sodir bo‘ladi, ta’sir jihatidan teatr – eng qudratli san’at turlaridan biri sanaladi. Shu nuqtayi nazardan Alisher Navoiy asarlari asosida spektakllar yaratilishi muhim jarayon bo‘lib, bu ulug‘ shoir ijodining umuminsoniy mohiyatini keng targ‘ib qilish, u qoldirgan boy ma’naviy meros bilan xalqimizni oshno etish imkonini berardi. To‘g‘ri, mustabid tuzumi yillari ham teatrlarda Alisher Navoiy asarlariga murojaatlar bo‘lgan. Biroq ushbu spektakllar ko‘pincha biryoqlama talqin qilinar, ularda shoir dahosi va ijodiga yetarlicha ahamiyat berilmasdi. Bu xususida taniqli teatrshunos Muhsin Qodirov shunday yozadi: “Ko‘p hollarda kitobxon va tomoshabinlarni Navoiy darajasiga ko‘tarishni emas, balki Navoiyning didi va saviyasini yetarli odmi aholi darajasiga tushirishni o‘yladik. Ba’zan Alisher Navoiyning dostonlari atayin soddalashtirildi, ba’zan qahramonlari hukmron mafkura qarashlariga moslashtirildi” [4. B.142.].

Istiqlol yillari O‘zbekiston teatrlarida “Xamsa”ning barcha dostonlari, jumladan, “Saddi Iskandariy” ham sahnalashtirildi. Xususan, doston asosida adabiyotshunos Shuhrat Rizayev tomonidan yozilib, hozirgi O‘zbekiston davlat drama teatrida rejissyor

Bahodir Yo‘ldoshev sahnalashtirgan “Iskandar” spektakli madaniy hayotimizda voqea bo‘ldi. Spektakl nafaqat o‘ziga xos sahnaviy talqini, balki doston mohiyatidagi ishqiy-ilohiy g‘oyalar, tasavvufiy qarashlarning nozik did va teran dard ila idrok etilgani bilan qimmatli bo‘ldi. Spektaklning barcha ifoda vositalarida tasavvuf bilan ruhan yaqinlik tuyish mumkin.

Rejissyor B.Yo‘ldoshev mumtoz she’riyatni chuqur his qilishi, poeziya va teatrni bir butunlikda jonlantira olishi, shuningdek, g‘oyaviy maslakni ochishda novatorlik topilmalaridan unumli foydalanishi “Iskandar” spektaklida to‘la-to‘kis isbotlandi. Spektakl ta’sirchanligi, estetik nazokati, badiiy emosionalligini oshirish, rejissyor traktovkasi va aktyorlar ijrosiga falsafiy yuk berishda mohir rassom Georgiy Brimning xizmatlari beqiyos bo‘ldi. Ramz va metaforaga boy sahna qurilmalari, bamisoli ilohiylikka yo‘g‘rilgan naqshinkor ustunlar va mahobatli dekoratsiyalar tomoshabin e’tiborini tortadi. Ayni damda bunday tasviriy manzara sohir ovoz ila qiroat qilinayotgan muqaddas Qur’on oyatlari bilan uyg‘unlashib, ruhiyatga yanada kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

“Spektaklning voqeaviy asoslari ancha sodda: Iskandarning taxtga o‘tirishi, urushlari va o‘limi…Uning zamirida dunyo mazmuni, hayot mohiyati, hokimiyat ma’suliyati haqidagi bir qarashda oddiy ko‘rinuvchi, lekin necha ming yillardan beri yechimi yo‘q haqiqatlar xususidagi o‘y-fikrlar yotadi” [3. B.43.].

Parda ochilganda, Qur’on tilovatiga hamohang tarzda aktyor A.Rafiqov hissiyotlar tizginini bo‘shatib, “Xamsa”ning so‘nggi dostoni – “Saddi Iskandariy”ni yozishga Yaratgandan kuch-quvvat, madad tilaydi. Mashaqqatli ishni poyoniga yetkazish uchun iltijoyu tavallolar qiladi. Bu holat aktyorning qalb kechinmalari, yurak nolalariga ulanib, spektaklning umumiy dinamikasiga jo‘shqin pafos va estetik joziba baxsh etadi.

Rejissyor Bahodir Yo‘ldoshevning “Iskandar” spektaklidan ko‘zlagan asosiy maqsadlaridan biri – Alisher Navoiy siymosini xalq bilan yaqinlashtirish edi. Shu bois pyesa muallifi Sh.Rizayev doston va uning sahnaviy tili uchun zamonaviy shakl izladi, tomoshabinlar auditoriyasiga birdek tushunarli monolog va dialoglardan foydalandi. B.Yo‘ldoshev esa voqealar, falsafiy fikrlarni ramziy topilmalar, poetik mizansahnalar orqali ifodalab, ulkan dostonni ixcham va harakatchan tomoshaga aylantirdi. Agar spektakl syujetining tadrijiy rivojiga e’tibor qaratsak, deyarli barcha sahnalar shartlilikka qurilgani, makonu zamondan tortib, aktyorlar ijrosi, ssenografiya, hatto rekvizitlargacha ramziy tafakkur mahsuli ekani ko‘rinib turadi.

Aktyor E.Nosirov ijrosidagi Iskandar obrazida ulug‘ shoir ilgari surgan falsafiy qarashlar, rejissyor belgilagan g‘oyaviy maqsad mujassam. Ya’ni, toju taxt, umrning o‘tkinchiligi, mansabu martabaning vafo qilmasligi aynan Iskandar xatti-harakatlari, shaxs va hukmdor sifatidagi faoliyati orqali ayonlashadi. Ayniqsa, dostondagi g‘oyat ibratli sahna – Iskandarning tarki dunyo qilgan darvesh bilan uchrashuvi spektaklda juda ta’sirchan ifodalangan. Darvesh Navoiy bilan suhbatida bir vaqtlar shoh bo‘lganini, biroq dunyoning o‘tkinchi havaslari, yolg‘on aqidalaridan voz kechib, kamtarona

faqirlik yo‘liga kirganini so‘zlar ekan, bu yorug‘ olam hech qachon hech kimga abadiy maskan bo‘lolmasligini ta’kidlaydi. Aynan shu fikrning sahnaviy ifodasi o‘laroq oq libosga burkangan ruhlar birin-ketin darvesh atrofida aylanib, mashhur mutasavvuf alloma Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlaridan namunalar o‘qiydi. “Yassaviy so‘zlari Navoiy baytlariga jo‘r bo‘lib, uyg‘unlashgan holda hozirgi kun bilan hamohang jaranglaydi” [2.].

Iskandar boqiy dunyoga rixlat qilishidan avval shunday vasiyat qiladi: “Meni qabrga eltar chog‘da bir qo‘limni tobutdan chiqarib qo‘ying. Toki haloyiq bu holga hayrat, vale ibrat ko‘zi bilan boqsin. Bu qo‘llar shuncha mulku mamlakatni zabt etib, u dunyog‘a rixlat chog‘ida shol kishining qo‘llariday qup-quruq ketayotganini ko‘rsinlar. Alqissa, odamlar dunyo orttirish mashg‘ulotidan qo‘l tortsinlar”.

2012 yil “Saddi Iskandariy” dostoni yosh rejissyor Asqar Xolmo‘minov tomonidan monospektakl shaklida sahnalashtirildi. Ya’ni, dostondagi barcha qahramonlarni birgina aktyor – Sardor Abdumannonov ijro etadi. B.Yo‘ldoshevning monumental spektaklidan so‘ng dostonning bunday uslubda sahnalashtirilishi madaniy jamoatchilikda qiziqish uyg‘otdi.

Spektakl voqealari roviy tilidan hikoya qilinadi. Mustafo Bafoyevning “Zikr al-haq” simfonik asarlaridan yangragan sadolar ostida avansahnada yelkasiga xurjun ortib, bir nechta yoy ilgan, qo‘lida aso tutgan holda roviy paydo bo‘ladi. Ibratli hikoyatni boshlash asnosida voqelikni keyingi rivojiga xizmat qiluvchi tasviriy-dekorativ topilmalarni ishga soladi. Sahna markaziga tushirilgan baquvvat arqonlarga asoni bog‘lab, uning ustiga poyondoz shaklidagi oq matoni yozadi va dunyoga kelgan bo‘lg‘usi jahongirning shuhrat-martabasiga o‘ziga xos tarzda ishora beradi. Oq mato asta ko‘tariladi, navbatdagi ramziy uyg‘unlikni kasb etib, hukmdorlik nishonasi – taxtiravonga aylanadi. Taxt atrofidagi ilgichlarga osilgan yoylar esa umr misli “kamondan uzilgan o‘q” kabi o‘tib ketishiga ishora qiladi. Voqealarning keyingi bayoni davomida ana shu topilmalarning o‘rni almashib, to spektaklning xotimasiga qadar asar manzaralarini ramziy uyg‘unlik bilan to‘ldirib boradi.

Iskandarning otasi Faylaqus bilan vidolashish sahnasi ta’sirchan lavhalarda ochib berilgan. Bunda yana o‘sha yoy bilan bog‘liq ramziy topilma ijrochiga qo‘l keladi. Iskandar yoylarni bir-biriga kiygizib, ustidan oq matoni o‘raydi, shu tariqa ota qabri bunyod bo‘ladi. Aktyor Sardor Mannonov otasidan ayrilgan jahongirning ichki kechinmalarini ochishga kirishar ekan, qahramoni ruhiyatidagi o‘kinch, dard-alam g‘alayonini yuqori pardalarda ijro etadi.

Cpektaklda Iskandarning darvesh bilan uchrashuv sahnaga alohida e’tibor qaratilgan. Dastavval Iskandar darvesh oldida o‘zini baland tutib, uni huzuridan quvib solmoqchi bo‘ladi. Ammo darvesh o‘zining aqlli fikrlari bilan shoh qalbiga yo‘l topib, vujudidagi kibr, manmanlik hissini so‘ndiradi. Darvesh qopchig‘ida ikkita so‘ngak,

ya’ni bosh chanog‘i bor edi. U chanoqlarni hukmdorga uzatib, g‘oyat ibratli savolni o‘rtaga tashlaydi:

Qo‘lga olib kuzat sen,
Va xatoing tuzat sen.
Qaysi bosh chanoq asli,
Tiriklikda shoh bo‘lgan?
Qaysi birining nasli
Gado o‘tgan, toq o‘tgan?

Darveshning falsafiy mulohazalari Iskandar ko‘nglini yumshatadi. Shu lahzalardayoq uni ustoz deya e’zozlaydi. Boqiy dunyoni eslatib, o‘tkinchi ho-yu havaslarni jilovlab turishi uchun bosh chanoqlarni taxt atrofiga ilib qo‘yadi. Dostondagi eng ibratli g‘oyani ifoda etuvchi mazkur sahnaga yosh rejissyor o‘zgacha did bilan yondashgan. Bu borada rejissyor salohiyatiga aktyor ijrosi kuch bag‘ishlagan. Iskandar va darvesh munozarasida aktyor S.Mannonov hissiyotlar kurashining to‘fonida qoladi, ikki murakkab taqdir ruhiyatini bor bo‘yicha ko‘rsatib, o‘z ijrosida jumboqli savollarga javob axtaradi.

Iskandarning foniy dunyoni tark etishi ham ramziy shaklda talqin etiladi. Buyuk fotih uchun toj-u taxt vazifasini bajargan oq mato endi uning kafaniga aylanadi. Qudratli hukmdorning qo‘llari arqonga bog‘lanib, ikki yonga uzala tushadi, tanasi oq matoga o‘ralib, uni so‘nggi manzilga kuzatadi. Iskandar o‘zi aytganidek, boqiy dunyoga bo‘sh qo‘llar bilan, bir parcha kafan bilan yo‘l oladi.

“Saddi Iskandariy” dostonining bu ikki talqini Hazrat Navoiy ilgari surgan umumbashariy g‘oyalar, tasavvufiy qarashlarni aks ettirishga intilgani, ramziy vositalardan unumli foydalanilgani, badiiy-g‘oyaviy xususiyatlari bilan o‘zbek teatri hayotida voqea bo‘ldi. Muhimi, sahna san’atida Hazrat Navoiy shaxsi va ijodini anglash yo‘lida dadil qadamlar tashlandi. Nazarimizda, shoir asarlari asosida yangi spektakllar yaratish bugun ham zaruriyat kasb etmoqda. Sababi, Alisher Navoiy adabiy merosini o‘rganish va mohiyatini tushunish oddiy o‘quvchi uchun qiyinchilik tug‘diradi. Teatr esa xalqni Navoiy bilan yaqinlashtirishning eng ta’sirchan vositalaridan biri. Spektakl tomoshabin ongi va ruhiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi, sahnadagi jonli muhit Navoiyni osonroq tushunish imkonini beradi. Demak, yurtimizdagi mavjud teatrlar Alisher Navoiy asarlarini sahnalashtirish bo‘yicha yangi tajriba va izlanishlar olib borishi, bu jarayonda yanada faol bo‘lishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. “Saddi Iskandariy” (nasriy bayoni bilan). So‘zboshi muallifi M.Hamidova – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.
2. Ahmedov S. Sahnaga to‘kilgan mehr (“Iskandar” spektaklini ko‘rib…). // “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 1991 y, 17-son.
3. Bayandiyev T, Ikromov H, Ahmadjonova M. O‘zbek teatrida milliy g‘oya talqini. T.: 2009.
4. Qodirov M. Navoiy va sahna san’ati. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000.
5. G‘aniyeva S. Alisher Navoiy (hayoti va ijodi). – T.: O‘zR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1962.
6. Haqqul I. Navoiyga qaytish. Birinchi kitob. – T.: O‘zR FA “Fan” nashriyoti, 2007.

Samigova Gulandom Abdujabbarovna,
O‘zDSMI Axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti v.b.

AL-XORAZMIY VA RAQAMLI TARIXNING UYG‘UNLASHUVI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’lim jarayonida raqamli texnologiya va Al-Xorazmiy ixtirosi qo‘llanishining afzalliklari haqida yoritilgan. Bundan tashqari raqamli tarix xususiyatlari, maqsadlari va samaraliligi tamoyillari tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli texnologiyalar, raqamli gumanitar fanlar («Digital Humanities»), Digital History (raqamli tarix), Virginia Center for Digital History VCDH), Data mining, Virtual reality (VR), Big data analysis, metod.*

Abstract. *This article describes the advantages of using digital technology and Al-Khorazmi's invention in the educational process. In addition, the characteristics, goals and principles of effectiveness of digital history are analyzed.*

Key words: *digital technologies, digital humanities ("Digital Humanities"), Digital History (digital history), Virginia Center for Digital History VCDH), Data mining, Virtual reality (VR), Big data analysis, method.*

Bugungi kunda kishilik jamiyatining barcha jabhalarida yangi innovatsion g‘oyalar va raqamli texnologiyalarga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Ulardan foydalanish inson hayotini o‘zgartirib, uning faoliyati sifatini oshirishga yo‘l ochmoqda. Raqamli texnologiyalarning taraqqiyoti, jamiyatning turli qatlamlari, ayniqsa yoshlarning fikrlash darajasining kengayishga va axborot olish imkoniyatini osonlashtirishga xizmat qilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev birinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqida Zamonaviy innovatsion va blokcheyn texnologiyalari va sun’iy intellekt negizini tashkil qiluvchi algoritm atamasi yana bir ulug‘ ajdodimiz – Muhammad Al-Xorazmiy nomi bilan bog‘liq ekanidan sizlar albatta xabardorsiz", deb ta’kidlab o‘tgan edilar.[10]

Borlig‘imizni qamrab turuvchi har qanday texnologiyalar uchun asos sifatida xizmat qiladigan fan nomidagi “Algoritm” atamasi esa aynan olimning Al-Xorazmiy ismidan olingan.

Buyuk matematik, astronom va geograf Muhammad al-Xorazmiy VIII asrning oxiri va IX asrning birinchi yarmida yashab ijod etdi. Bu davrda Markaziy Osiyo arab xalifaligi tarkibiga kirar edi. Rivojlanib kelayotgan mavjud tuzum taqozo qilgan ijtimoiy-iqtisodiy talablar bu davrdagi taraqqiyot jarayonining asosiy omillaridan biri bo‘ldi. Qurilish, savdo-sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik va boshqa sohalarni yanada taraqqiy ettirish uchun astronomiya, geodeziya, geometriya kabi fanlarni rivojlantirish zarurati tug‘ildi. O‘sha davrning ilg‘or olimlari bu fanlarning amaliy

ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo‘lib, Muhammad al-Xorazmiy esa shu olimlarning peshqadami va yo‘lboshchisi edi.

«Algoritm zamonaviy madaniyatda mumkin bo‘lgan barcha o‘zaro ta’sirlarni smartfonlarimizdagi ilovalar orqali shakllantiradi. Biz bu so‘zni bilamiz, lekin uni tushunmaymiz. Multisensor va tasviriy ko‘rgazma yordamida biz uning kelib chiqishini va algoritmning antik davrdan to zamonaviy davrgacha jamiyat va madaniyatga qanday ta’sir ko‘rsatishini kuzatamiz. Biz zamonaviy deb hisoblaydigan texnologiyalar, masalan, sun’iy intellekt va robotlashtirilgan va avtomatlashtirilgan jarayonlar, Al-Xorazmiy tomonidan ming yil oldin ishlab chiqilgan fundamental tamoyillarga asoslanadi», – dedi ko‘rgazma kuratori Jozef Grima.

Alloma Muso al-Xorazmiy ko‘plab hind qo‘lyozma asarlarini o‘rganib chiqdi. 1 dan 9 gacha sanoq tizimini tuzgan va 0 g‘oyasi ustida bosh qotirgan hind matematigi ulug‘ alloma al-Xorazmiyga yaxshigina turtki bo‘ldi. Lekin 0 sonini son sifatida e’tirof etgan va hind sanoq tizimidan foydalanib, arab sanoq tizimiga asos solgan shaxs aynan ulug‘ alloma Muso al-Xorazmiy edi. O‘ziga zamondosh bo‘lgan olimlarga hind sanoq tizimini tanishtirish va matematika olami markaziga nol sonini joylashtirish o‘z davri matematikasi uchun inqilob bo‘ldi. Bu esa avval ilojsiz bo‘lgan o‘ta mavhum va murakkab matematik masalalarni hal qilish imkonini berdi. Shu kashfiyotning o‘ziyoq Muso al-Xorazmiyni barcha zamon va makonlarning eng buyuk matematiklari qatorida turishiga kifoya qiladi. Lekin uning yana boshqa bir katta kashfiyoti borki, bu yangilik sababli matematikadan yangi bir soha ajrab chiqdi.

Raqamli texnologiyalar (ing., Digital technology) – signallarni uzluksiz spektr shaklida emas, balki analog darajadagi diskret signallar bilan ishlaydi. Hozirda raqamli texnologiyalar – bu ma’lumot “raqamlashtirilgan”, ya’ni universal raqamli shaklda taqdim etiladigan texnologiyalar bo‘lib, ular muammolarni tezda hal qilish uchun axborotni kodlash va uzatish usullariga asoslanadi. Bunda axborot ikkilik kod shaklida uzatiladi. Kod bitlardan tashkil topgan. Bitlar 1 (birlik; signal bor) va 0 (nol; signal yo‘q) dan tashkil topgan ikkilik sonlardir. Oddiy qilib aytganda, raqamli texnologiyalar elektron hisoblash va ma’lumotlarni o‘zgartirish bilan bog‘liq barcha narsalarni o‘z ichiga oladi: gadjetlar, elektron qurilmalar, texnologiyalar, dasturlar.

Raqamli texnologiyalarning rivoji ilm-fanning yangi tarmoqlarini vujudga kelishini ta’minlamoqda.

“Raqamli tarix” (ing., “Digital History”) – raqamli gumanitar fanlarning bir bo‘limi bo‘lib, o‘tmishni o‘rganish va taqdim etish uchun raqamli media, kompyuter va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llaydi va ulardan foydalanishni o‘rganadi. Keng ma’noda uni tarixiy materiallarni to‘plash, miqdorini aniqlash, talqin qilish va baham ko‘rishga yordam beradigan komputer, Internet tarmog‘i va dasturiy tizimlarning yangi kommunikatsiya texnologiyalari bilan

ishlaydigan o‘tmishni o‘rganish, tasvirlash va sharhlash usuli sifatida tushunish mumkin [1. 23-b.].

Globallashayotgan sivilizatsiya davri – bu davr o‘zining ajabtovur texnologik o‘zgarishlar hamda fanda inqilob yasagan raqamli texnologiyalari bilan xarakterlidir.

Hozirgi davr fani – bu zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o‘quvchilar uchun interfaol usullar orqali darslarni tashkil etishni dolzarb vazifa sifatida qo‘ydi. Chunki, ta’lim oluvchi yoshlar yoshligidan boshlab, texnika vositalari bilan hamohang ravishda o‘sib ulg‘aymoqda. Tarixga yoki ma’daniy me’rosimizni o‘rganishga qiziquvchi yoshlar zamonaviy texnika yutuqlaridan foydalangan holda o‘rganishi, umuman olganda bugungi kun har bir soha raqobatbardosh mutaxassisi ta’lim berayotgan fanini zamonning ilg‘or texnikaviy vositalaridan va yangiliklardan foydalangan holda darsni tashkil etishi lozim.

Albatta, savollar tug‘ilishi tabiiy, tarixiy merosni o‘tgan davrni arxeologik manbalar, tarixiy asarlar, yodgorliklar, muzey eksponatlari, arxivlar va boshqa tarixiy faktlar orqali o‘rgansa, raqamli texnologiyani nima keragi bor? deb o‘ylashi mumkin. Biz aytmoqchimizki, aynan tarixiy merosni bugungi kun zamonaviy texnologiyalaridan foydalangan holda o‘rganish – ya’ni tarixni o‘qitish, o‘rganishni modernizatsiya qilish – ushbu fanda judda katta inqilob(o‘‘zgarish) yasaydi. Masalan, birgina misol o‘sha siz va biz tashrif buyuradigan milliy va tarix muzeylarimizdagi eksponatlarning 3D modelini yasash orqali birinchi navbatda biz jonsiz tarixni jonlantiramiz, yani tiriltiramiz, bu tarix ishqibozlari, turistlar va ko‘ngilli kishilarni jalb qilishning bir vositasi o‘laroq, ushbu muzey va eksponatlarni jahonga mashhur qilishimiz mumkin.

Raqamli tarixning paydo bo‘lishi avstriyalik tarixchi Manfred Taller (ing., Manfred Thaller) tomonidan ishlab chiqilgan manba yo‘naltirilgan ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi konsepsiyasining rivojlanishi natijasi deb ham atash mumkin. Ushbu tizim raqamli ishlov berish, uni rasmiylashtirish, talqin qilish, shuningdek, manba bo‘lmagan bilimlarga ega bo‘lgan manba tasvirini ishlashini o‘z zimmasiga oldi. Bu shunchaki tarixiy manba matnining elektron nashri emas, balki o‘quvchi foydalanishi uchun uni komputerda qayta ishlashga tayyorlash edi.

Raqamli tarix sohasidagi dastlabki ishlar raqamli arxivlar, onlayn taqdimotlar, ma’lumotlar vizualizatsiyasi, interaktiv xaritalar, vaqt jadvallari, audio fayllar, virtual olam va muhitni yaratishga qaratilgan. So‘nggi o‘ttiz yil ichida ushbu texnologiyalar tarixni o‘rganish, tahlil qilish va o‘qitish imkoniyatlarini kengaytirdi. Bugungi tashabbuslar asosan interaktiv veb-saytlar va tarix bo‘yicha dasturlarni yaratish uchun Internetdan to‘liq foydalanishga qaratilgan bo‘lib, bu sohadagi tadqiqotlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: kreativlik (yoki ijodiy qobiliyat – insonning standart g‘oyalar, qoidalar va namunalardan chetga chiqishi, yangi yechimlarni topish, g‘oyalar yaratish), turli mutaxassislarning hamkorligi, eng so‘nggi texnologiyalar, ma’lumotlarni intellektual tahlil qilish (“Data mining”), “Virtual haqiqat” (“Virtual reality”, VR) texnologiyasi, 3D

modellashtirish, gipermatn, korpus lingvistikasi (tilshunoslikning matn korpusini ishlab chiqish, yaratish va ishlatish bilan shug‘ullanadigan bo‘limi), va katta ma’lumotlarni tahlil qilish (“Big data analysis”) va h.k. [5]. Mazkur resurslardan foydalanish bu sohadagi faoliyatni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Raqamli tarix faoliyatiga quyidagilar kiradi:

➢ onlayn raqamli arxivlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish;

➢ katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish;

➢ ma’lumotlarni vizualizatsiya qilishdan foydalangan holda munosabatlarni o‘rganish;

➢ matnni tahlil qilish;

➢ og‘zaki suhbatlarni raqamli qayta ishlash va saqlash;

➢ tarixiy ma’lumotlarni xaritalar (eski va yangi) bilan birlashtirish va GIS (Geografik axborot tizimlari)dan foydalanish;

➢ tarixiy natijalarni veb-sahifalarda taqdim etish va boshqalar [6. 12–13-b.].

Raqamli tarix bo‘yicha ko‘plab nashrlarni tahlil qilgan holda, biz uning ikki asosiy yo‘nalishda ish olib borishini ko‘rsatishimiz mumkin:

1) Internet auditoriyasini, ya’ni tarmoq foydalanuvchilarining tarixiy bilimlarini chuqurlashtirish. Bunda ularni raqamli arxivlar, interfaol xaritalar, voqealar xronikasi (yilnomalar), vaqt jadvallari bilan tanishtirish;

2) Tarixchi olimlar uchun tarixni fan sifatida rivojlantirishga yordam beradigan yangi tadqiqot vositalarini yaratish [9].

Tarixchi ilmiy faoliyati davomida ko‘plab manbalar bilan birga raqamli ko‘rinishdagi katta hajmli ma’lumotlarga duch keladi. Ulardan o‘zi uchun kerak bo‘lgan qismni qidirib topish va olishi uchun mavjud matnning mazmuni va ahamiyatini tahlil qilishi lozim bo‘ladi.

Shuning uchun raqamli tarixda hisoblash usullari matn tahlilidan keng foydalaniladi. Shu bilan birga bu fanda “data science” va miqdoriy metodlar ham qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mo‘minov X. Raqamli tarix [Matn]: darslik. –Toshkent: Nurafshon business, 2022.

2. http://www.vcdh.virginia.edu/index.php?page=VCDH

3. Ayers, Edward L. The Pasts and Futures of Digital History. – USA: University of Virginia, 1999. URL: http://www.vcdh.virginia.edu/PastsFutures.html

4. Douglas Seefeldt, William G. Thomas III. What is Digital History? A Look at Some Exemplar Projects. Faculty Publications, Department of History. 98. May, 2009. – P.2. URL: https://digitalcommons.unl.edu/historyfacpub/98

5. https://en.wikipedia.org/wiki/Digital_history

6. Tillyashaykhova M.A. Innovative Technologies in Pedagogical Education / International Journal on Integrated Education/ https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE.

Кошелева Антонина Фёдоровна,
Кандидат педагогических наук, доцент кафедры
«Общестенно –гуманитарные науки и педагогика»
Государственного института искусств и культуры Узбекистана

ДУХОВНОЕ РАЗВИТИЕ КАК ОСНОВА ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ

Аннотация: *В статье рассмотрен вопрос формирования и развития творческой личности в ходе образовательного процесса творческих вузов. Изложены основы и условия формирования творческой личности, возможности ее развития на основе взаимодействия духовных и образовательных ценностей.*

Ключевые слова: *творческая личность, мировое искусство, креативный потенциал, система формирования, духовное обновление.*

Annotatsiya: *Maqolada ijodiy universitetlarning o‘quv jarayonida ijodiy shaxsni shakllantirish va rivojlantirish masalasi ko‘rib chiqiladi. Ijodkor shaxsni shakllantirish asoslari va shartlari, uni ma'naviy va ma'rifiy qadriyatlarning o‘zaro ta'siri asosida rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rsatilgan*.

Kalit so‘zlar: *ijodiy shaxs, jahon san'ati, ijodiy salohiyat, shakllanish tizimi, ma'naviy yangilanish*.

Annotation: *In the article considered question of optimization of educational process of creative high schools. Given prerequisites for the formation of a creative personality through interaction of the spiritual and educational values.*

Key words: *creative personality, the art world, creative potential, system of formation, spiritual updating.*

В духовном становлении молодежи Узбекистана в годы независимости огромное место занимают обогащение внутреннего мира, укрепление воли, целостность убеждений, которые являются основой роста духовного потенциала, укрепления нравственно – этических норм, соблюдения общечеловеческих законов морали. Жизнь человека по совести и гуманным устремлениям становится нормой для молодого поколения: интересы, проблемы и даже боль другого человека становятся личными, это рождает истинное неравнодушие, стремление помочь, созидательную идеологию.

В современных условиях невозможно формирование одинаковых, стереотипных взглядов на жизнь, её основных понятий. Сегодня утверждается многообразие стилей, методов, подходов в решении актуальных вопросов современности, при этом важнейшим является недопущение «разрушительной идеологии, отравляющей душу и сознание молодого поколения»[1].

В связи с этим важнейшее значение имеет системная идеологическая борьба против негативных явлений современности: религиозного экстремизма, терроризма, неблаговидных действий и поступков, лжи, корысти и обмана.

Проблемы развития и обучения творческой молодежи всегда были в центре внимания и остаются таковыми в любом обществе. Деятели Древнего Востока, писатели, поэты, мыслители, такие как Алишер Навои , Аль- Газали, Фаридаддин Аттар, Ибн – аль – Фарид, Джамалладдин Руми, Бахховудин Накшбанд отмечали приоритетную роль творчества в прогрессивном развитии Человечества. Они наметили пути и способы формирования нравственных основ личности, которые и сегодня являются важными и интересными, не потерявшими своей актуальности и ценности.

Известно, что только в хорошо развитом, демократическом обществе может создаваться благоприятная атмосфера, способствующая формированию и развитию духовно – развитой, творческой личности. Широкий доступ к духовным ценностям помогает преодолеть феномен отчуждения личности и создать благоприятные предпосылки для ее всестороннего и полного раскрытия. Народная педагогика как исток мудрости в деле воспитания гармоничной творческой личности всегда была и остается кладезем для очищения, роста духовного потенциала и укрепления духовности молодежи.

В наше время становится все более распространенным суждение о тесной взаимосвязи демократии и духовности: если таковая связь имеется, то демократия в этом случае будет истинной, а гражданское общество сильным и прогрессивным.[2]

Система концепции духовного развития общества стала определяющей в системе реформ нашего государства не случайно: для реализации человеком своих возможностей необходимы:

- обеспечение благоприятных условий для раскрытия его духовного потенциала;
- создание оптимальных возможностей для его свободного развития;
- неуклонное повышение социальной и творческой активности;
- действенное превращение личности в цель проводимых реформ;
- гармонизация национальных и общечеловеческих ценностей в ходе государственного строительства;
- непримиримая борьба против имеющихся идеологических и духовных угроз;
- системная разработка и реализация концепции национальной идеи и идеологии.
- последовательность в осуществлении деятельности по реализации концепции духовного возрождения общества.

В наше непростое время, когда идеологические угрозы приводятся в исполнение, существуют разрушающие, неприемлемые для нас силы, стремящиеся к дисгармонизации жизни общества, приоритетным становится

превращение реформ в сфере духовности в основу всех преобразований государственного и общественного строительства, модернизации и обновления страны, воспитания нового человека, достойного сына (дочери) своей многонациональной Родины.

Важно отметить, что даже понятие «профессиональная культура» в настоящее время расширилось. Она является частью общей культуры, представляющей усвоенный и повседневно проявляемый творческим специалистом уровень искусства профессиональной деятельности. Она отражает как достижение научной мысли, так и передачу практического опыта в интересах нравственного потенциала среды и общества в целом. Эта культура характеризуется не только нравственно – этическим потенциалом личности, но и её эмоциональными проявлениями.[3] Задача преподавателей ВУЗов сферы искусства и культуры – оптимизировать свою деятельность по реализации основных задач, предопределенных концепцией духовного возрождения общества, при этом повысив потребности своей и окружающих (обучающихся) в постоянном и неуклонном самосовершенствовании. Сформированность нравственно – волевых качеств личности специалиста, отвечающего мировым стандартам, одно из необходимых условий для решения серьезнейших задач, поставленных самой жизнью в процессе духовного обновления Узбекистана.

Список литературы:

1. Душаев А. Ж. Духовность и общество // Молодой ученый. – 2014. – №11. – С. 439-440.
2. Эркаев А. Путь развития Узбекистана, Т., Маънавият, 2013г. С.70
3. Политыко С.Д. Антропология творчества. М., 2003.
4. Культурологические основы современного образования. Элективные курсы в профильном обучении. Учебно методический комплекс / Под ред. Л.М.Мосоловой. –СПб: «СМИО Пресс», 2006. – 262 с.
5. Ананьев Б.Г. Личность, субъект деятельности, индивидуальность. Москва: Директмедиа, 2008, с.192

Курбанова Нигора Рахимджоновна,
старший преподаватель кафедры
«Общестенно –гуманитарные науки и педагогика»
Государственного института
искусств и культуры Узбекистана

ФОРМИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: *В данной статье рассматривается понятие личности как субъекта активной сознательной деятельности, обладающей конкретной совокупностью социально значимых черт характера. Представлено содержание духовно-нравственного воспитания творческой молодёжи Узбекистана в соответствии с психологическими установками формирования личности.*

Ключевые слова: *личность, индивидуальность, сознательная деятельность, творческое познание, мотивы, природные свойства, одарённость мировоззрение, когнитивные способности.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shaxsiyat tushunchasi o‘ziga xos ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan xarakterli xususiyatlar to‘plamiga ega bo‘lgan faol ongli faoliyat sub'ekti sifatida ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston ijodkor yoshlarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalash mazmuni shaxsni shakllantirish bo‘yicha psixologik ko‘rsatmalarga muvofiq taqdim etilgan.*

Kalit so‘zlar: *shaxs, individuallik, ongli faoliyat, ijodiy bilish, motivlar, tabiiy xususiyatlar, iqtidor, dunyoqarash, kognitiv qobiliyat.*

Annotation: *This article examines the concept of personality as a subject of active conscious activity, possessing a specific set of socially significant character traits. The content of spiritual and moral education of creative youth of Uzbekistan is presented in accordance with the psychological guidelines for personality formation.*

Key words: *personality, individuality, conscious activity, creative cognition, motives, natural properties, giftedness, worldview, cognitive abilities.*

Личность всегда была в центре внимания психологов и педагогов, в наше время не остыл интерес к сё изучению и, можно утверждать, ещё более усилился.

Карл Густав Юнг – создатель аналитической психологии, писал: «Моя жизнь пронизана одной идеей и сосредоточена на одной цели, а именно: на проникновении в тайну личности. Все может быть объяснено из этой центральной точки, и вся моя работа связана с этой темой» [1].

Автор личностной типологии полагал, что личность имеет активную природу и взаимодействует с себе подобными «здесь и сейчас». В связи с признанием этого, ставшего очевидным сегодня, фактора мы в своем исследовании занимаемся изучением личности для решения общекультурных проблем.

«Личность» рассматривается нами чаще всего как субъект активной сознательной деятельности, обладающей конкретной совокупностью социально значимых черт характера. При этом сами черты, с одной стороны, формируются под воздействием природных свойств человека (физиологического состояния его организма, высшей нервной деятельности, эмоций, чувств, памяти, особенностей восприятия, сознания, мышления). Играют важную роль статус, привычки, знания, опыт, коллектив, одарённость, темперамент.

Активная деятельность, направленная на всестороннее изучение окружающего мира и его полное познание – одна из важнейших составляющих личности.

Цели и мотивы устойчивого поведения человека независимо от конкретной ситуации, обусловливает его конечные цели и мотивы поведения. Их сущность определена не только устремлениями, но и природными склонностями, интересами и идеалами.

Общеизвестно, что личность формируется в раннем детстве. Но, в отличие от Фрейда, придававшего особое ранним годам жизни как решающему этапу в формировании моделей поведения личности [2], Юнг рассматривал развитие личности как непрерывный динамический процесс на протяжении всей жизни. Мы полагаем, что наиважнейший этап в формировании личности – этап становления, формирования личностных морально этических представлений следует отнести к юношескому (15-25 лет).

В Узбекистане огромное значение придается молодёжной политике, в настоящее время правительством принято около 50 законодательных актов, направленных на образования и воспитание молодёжи в соответствии с творческим потенциалом и социогенетической ориентацией.

Изучая педагогические воззрения аль-Хорезми, аль-Фароби, аль-Беруни, ибн Сина, Омара Хайама, Саади, Абдурахмана Джами, Алишера Навои, Захириддина Бабура, Юсуфа Баласагунского, Махмудхаджи Бехбуди, Абдуллы Авлони, Махмуда Кашгарского, Ахмада Югнаки и других приходим к выводу, что великие ученые-педагоги, философствуя о человеке, личности, воспитании и обучении подрастающего поколения, большое значение придавали труду, знаниям, уму, искусству слова, высоким нравственным качествам. Они хотели видеть человека всесторонне развитым, умелым, образованным [2].

Практическая деятельность образовательных учреждений Республике ведётся интенсивно. Среди многих направлений воспитательной деятельности хотелось бы выделить систему, предложенную А.Ф.Кошелевой в связи с её реальной значимостью и целесообразностью:

«Содержание духовно-нравственного воспитания молодёжи, объединяет много аспектов, среди них важнейшими на наш взгляд, являются:

опора на психологические особенности личности и учёт её индивидуальных особенностей;

первостепенность нравственных норм в процессе воспитания;

креативный подход в процессе воспитания, предусматривающий гибкость и применение форм и методов воздействия на личность;

ориентация воспитательного процесса на формирование личности, способной к самореализации и творчеству;

постоянный поиск новых путей развития гармонической личности» [3].

Значение и важность психологической устойчивости в принятии нравственно-этических норм поведения первостепенны прогрессивные по сути и проявления поведенческие реалии- итог системной воспитательной деятельности, невозможный без сформированной устойчивой жизненной позиции.

Воля и мотивация, сознание и мышления проявляются в поведении молодёжи и отражаются в мировоззрении личности. Нравственное устои формируются в ходе общения с другими людьми, индивидуальные восприятия событии, политические взгляды и убеждения характеризуют готовность молодёжи к совершению гражданси зрелых поступков.

При этом мотивационная сфера личности проявляется в поступках этой личности, достигшей определенного уровня психического развития. Личностной рост, преобразовательная деятельность, социальный рост свойственны лишь только психологически зрелой, мотивационно наполненной личности. И это стоит помнить всем, кто так или иначе связан со сложным и многогранным процессом – воспитанием современной молодежи.

Творчество в формировании личность – важнейшая составляющая. Творческое мышление оригинально, многовариантно, непредсказуемо, зачастую неповторимо. Оно проявляется в способности к смене способов действий, возможности многопланово отражения условия задачи, вариантности перехода от одного действия к другому.

В основу творчества положены убеждения, интересы, особый план действий, природные свойства индивида, темперамент, мотивы, характер, одарённость, видение мира и его восприятия.

Творческое мышление отражает и природные свойства личности: генофонд, строение центральной нервной системы и органов чувств. Они играют важную роль в реализации того творческого потенциала, который заложен в конкретной личности и отражает его скрытые возможности.

В основу творческого потенциала специалиста положены:

- гностические, конструктивные, организаторские умения;
- психологическая способность к перестройке сложившихся стереотипов;
- способы учета системы решения творческие задач;

- когнитивные способности;
- структура и содержание компетентности;
- интегративные схемы информационного обеспечения;
- индивидуальные характеристики (пол, возраст, здоровье, темперамент).

Основными свойствами творческого мышления выступают:

Цельность восприятия события во всей его многогранности;

Гибкость мышления, умение легко переходит от одного класса явлений к другому;

Способность к переносу – умения переносить решения одних задач на другие;

Умения свёртывать мыслительные операции, переходить от одной операции к другой;

Способность к оценке действий, к выбору одной из многих альтернатив до её проверки;

Развитый интеллект, позволяющий формулировать задачи и решать их различными способами.

Обладание вышеназванными свойствами может явится основой для интеллектуальной одаренностей личности, но само по себе не становится панацеей для её реализации. Необходим целый ряд условий для продуктивного поиска новых идей, использование нестандартных подходов в разработке креативных идей и проблем, чувствительность к важнейшим ключевым перспективным поискам решений в различных областях знаний, инновационных сфер, в том числе – творческих.

Список использованной литературы:

1.Юнг К. Проблемы души нашего времени. М. 1994г.

2.https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogicheskie-idei-velikih-mysliteley-vostoka-osnova-podgotovki-pedagogicheskih-kadrov

3.Фрейд З. Введение в психоанализ М, 1990г.

4.А.Ф.Кошелева // Психологические аспекты духовно-нравственного воспитания молодёжи Узбекистана // Талим, фан ва инновация // стр.111. 2022г.

Ziyoyeva Maxfuza Soataliyevna,
O‘zDSMI o‘qituvchisi

ILK RENESSANS DAVRI ALLOMALARI MA’NAVIY MEROSIDA TA’LIM-TARBIYA MASALALARINING PEDAGOGIK TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ilk Uyg‘onish davri Sharq mutafakkirlari Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, kabi buyuk ajdodlarimizning ma’naviy-ilmiy merosidagi ta’lim-tarbiya masalarining pedagogik tahlili keltirilgan. Shuningdek allomalarimiz tomonidan qo‘llanilgan didaktik vositalar, usul va metodlardan foydalanish masalalariga ham e’tibor berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Renessans, ma’naviy meros, alloma, ta’lim-tarbiya, axloqiy qarashlar, induksiya, deduksiya*

Annotation. *This article presents a pedagogical analysis of educational issues in the spiritual-scientific heritage of our great ancestors, such as Musa al-Khorazmi, Abu Nasr Farabi, Abu Rayhan Beruni, Abu Ali ibn Sina, thinkers of the East of the early Renaissance period. Attention was also paid to the use of didactic tools, methods and methods used by our scholars.*

Key words: *Renaissance, spiritual heritage, alloma, education, moral views, induction, deduction*

Mamlakatimiz mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan ilmiy, ma’naviy, madaniy sohalardagi islohotlar natijasida jahonga mashhur allomalarimiz, mutafakkirlarimiz, ma’naviy merosini, ularning diniy-irfoniy ta’limotlarini chuqur o‘rganishga alohida e'tibor qaratildi. “Buyuk adib va mutafakkirlarimiz nodir merosi, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyatini har tomonlama chuqur o‘rganish va targ‘ib etish, yoshlarimizni o‘zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash zarur” [1].

Akademik A.Saidov Renessans davrlarini tahlil qilar ekan, Birinchi Sharq Uyg‘onish davri – IX-XII asrlarda mintaqamizda yuz bergan "Ma’rifiy Renessans", Ikkinchi Renessans XIV-XVI asrlar e’tirof etilib Temuriylar davriga to‘g‘ri keladi. Shu bois, tarixda Ikkinchi Sharq Uyg‘onish davri “Temuriylar Renessansi” deb yuritiladi [2].

Ilk uyg‘onish davrining o‘ziga xoz xususiyati shaxs kamolotini ta’minlashga oid sharqona ta’limotning vujudga kelganligidadir. Bu davrda yashab ijod etgan Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Qoshg‘ariy kabi qomusiy allomalr merosi jahon ilm-fan rivojiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shildi va o‘zlarining bebaho durdona asarlarida ta’lim-tarbiyaga doir qarashlarni ilgari surganlar va fanlarning keyingi rivojiga ilk sharoitni yaratdilar.

Matematika sohasida yangilik yaratgan nazariyotchi hamda pedagog – uslubiyotchi olim sifatida Muso al-Xorazmiy tarixda qolgan. Qomusiy olim matematika fani bilan

birga falakiyot, jug‘rofiya va tarix fanlari bilan ham shug‘ullangan. Olimning “Kitob surat al-arz” (“Yer surati”), “Kitob at-tarix” va boshqa asarlarining fan va ma’rifiy pedagogik tafakkur tarixida tutgan o‘rni kattadir. Uning asarlari Sharq va G‘arb olimlari uchun tekshirish-kuzatish ishlarini olib borishda muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi [6, 91].

Uning didaktik qarashlarini pedagog olim B.Xodjayev quyidagicha tasniflaydi:

• Muso al-Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim hissa qo‘shdi. U birinchilardan bo‘lib, induktsiya, deduktsiya, sinov-kuzatisb va sinov metodlariga asos soldi;

• birinchi marta insonlar o‘rtasidagi munosabatlami matematik shakllarda ifodaladi;

• Hindlarning o‘nlik raqamlari Xorazmiy tufayli «Arab raqamlari» nomi bilan butun dunyoga yoyildi;

• Xorazmiy hindlarning falakiyot jadvallarini tahlil etib, «Xorazmiy ziji» nomi bilan mashhur astronomik jadvallar tuzdi [11, 204].

Shaxsning bilish faoliyati va uni rivojlantirish nazariyasiga alohida hissa qo‘shgan mutafakkirlardan biri Abu Nasr Forobiy (873-950)dir. Allomaning inson kamoloti haqidagi ta’limoti ta’lim-tarbiya sohasida katta ahamiyatga egadir. Mashhur yunon faylasufi Arastudan keyin Sharqda o‘z bilimi, fikr doirasining kengligi bilan nom chiqargan Forobiyni ulug‘ mutafakkir – “Muallimi soniy” –“Ikkinchi muallim” deb ataydilar [7, 80]. Abu Nasr Forobiyning asarlari «Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risida», «Fozil odamlar shahri», «Aql ma’nolari haqida», «Shaharlarni o‘rganish haqida» va boshqalar.

Forobiy ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi. Forobiy ta’lim-tarbiyaga birinchi marta ta’rif bergan olim sanaladi. Ta’lim – insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya – muayyan hunarni egallash uchun zarur bo‘lgan axloq normalari va amaliy malakalarni o‘rgatishdir, deydi olim [9, 156].

Forobiy o‘z didaktik qarashlarida shaxs fazilatlarini ikki guruhga ajratib ko‘rsatgan. Ular: tug‘ma va insonning hayotiy faoliyati davomida shakllanadigan fazilatlari. Forobiyning fikricha, tug‘ma fazilatlarga insonning o‘ta o‘tkir zehnliligi, biror narsani bilishga o‘ta qobiliyatliligi kiradi. Asosiy axloqiy fazilatlarni shaxs hayotiy faoliyati davomida egallaydi. Yuksak aql-zakovat egasi bo‘lgan insonlar ham ta’lim-tarbiyaga ehtiyoj sezadilar. Ta’lim-tarbiya jarayonida ularning bilish imkoniyati kengayadi degan g‘oyani ilgari suradi. Bunday insonlarning bilish layoqatlarini ta’lim-tarbiya jarayonida kengaytirib, ularni faollashtirishga erishish lozim deya uqtiradi mutaffakkir [3, 289-290]. Forobiy musiqani inson aql-zakovatini rivojlantiruvchi omillardan biri sifatida e’tirof etgan.

Forobiyning fikricha, ta’lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy tomondan yetuk, mukammal qilib yetishtirishga qaratilmog‘i, ta’lim tarbiyaning asosiy vazifasi – mehnat talablariga javob bera oladigan va uning farovonligi uchun kurashadigan insonni voyaga yetkazishdan iborat bo‘lmog‘i lozim. Forobiy ta’limotida mehnat tarbiyasi mehnatsevar, insonparvar, aqlli va fazilatli insonni tarbiyalashning eng muhim shartlaridan biri bo‘lib, axloqiy tarbiya bilan uzviy bog‘liq. U mehnatni, mehnat natijalarini qadrlaydigan, pok va halol, sof vijdonli, mehnatsevar, barcha ma’naviy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan insonlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Ularning hayoti davomida sog‘lom turmush kechirishiga ishonadi [8, 102].

Abu Rayhon Beruniy sog‘lom avlodni rivojlantirishni butun borliq, koinot bilan bog‘liq holda o‘rganishni tavsiya etadi. U «to‘g‘rilik va haqiqat», «yaxshilik va yomonlik», «rostgo‘ylik va yolg‘onchilik», «faxrlanish va g‘amginlik», «g‘azab va ilmsizlik», «halollik va harom», «do‘stlik va dushmanlik» kabi axloqiy kategoriyalarni kishilarning tabiati bilan bog‘laydi, taqvodorlik, to‘g‘rilik, o‘zini saqlash, dindorlik, odillik, insoniy kamtarlik, latofat, sobitqadamlik, ehtiyotkorlik, saxiylik, muloyimlik, siyosat va boshqarish ishlarida bilimdonlik, tadbirkorlik, to‘g‘ri taxmin qila bilish sifatlari haqida ham to‘xtalib o‘tadi. Shuningdek, ko‘pgina xalqlarning urf-odatlarini, turmush tarzini chuqur tahlil etadi [4, 28-29].

Beruniy o‘z ijodida ta’lim-tarbiya amaliyotida axloq-odob, tarbiya masalalariga ham katta e’tibor bergan va bu sohaga oid qimmatli fikrlar bildirib, yoshlar tarbiyasida hozirgacha foydalanib kelinayotgan usullarga zamin yaratgan. Mutafakkir tarbiya oldidagi birinchi vazifa o‘zidan tashqari butun jamoatchilikka xizmat qila oladigan shaxsni tarbiyalashdan iborat, deb hisoblaydi. Oilaga asosiy tarbiya maskani sifatida qaragan mutafakkir bu jarayonda tarbiyalovchi shaxslar obro‘sini ayniqsa yuksak baholaydi va unga komil inson shakllanishining birlamchi sababchisi sifatida qaraydi.

Butun dunyoga mashhur va ma’lum Abu Ali ibn Sino ham boshqa mutafakkirlar kabi o‘zining ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bog‘lagan holda ifodalagan yoki maxsus risolalarda talqin etgan.

Abu Ali ibn Sino ham yoshlarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerakligi haqidagi fikrlarni ilgari surgan. U guruhda o‘qitishga oid qimmatli fikrlarni ilgari surgan. Chunki guruh a’zolari bilim olish jarayonida o‘zaro hamkorlikka kirishadilar. Natijada ularning bilish imkoniyatlari kengayadi.

Ta’lim oluvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobat, muvaffaqiyatlardan qoniqish hissini shakllantirish ham ularda o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga egaligini ta’kidlaydi. O‘zaro muloqot jarayonida ta’lim oluvchilarning so‘z boyligi, mustaqil fikrlash faoliyati va shaxslararo munosabatga kirishish imkoniyatlari kengayishini ham mutafakkir alohida ko‘rsatib o‘tgan [10, 73].

Xulosa qilib aytganda, ta’lim-tarbiya tarixini yanada chuqurroq o‘rganish, bu sohaga oid darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari yaratish, ularning davr talablariga mos bo‘lishini ta’minlash pedagog-olimlarimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Shuningdek, qomusiy allomalarimizning ma’naviy merosni chuqur va har tomonlama o‘rganish ham ilmiy, ham amaliy jihatdan katta ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk allomalar adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori // Xalq so‘zi.2018-yil 15-may.

2. Akmal Saidov. Yangi O‘zbekiston va uchinchi Renessans: ma’no-mohiyati, zarurati va mushtarakligi. https://uza.uz/ 08.01.2021.

3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Xalq merosi, 1993. – 289-290-b.

4. Abu Rayhon Beruniy.Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1 jild,- T.: Fan, 1995. – 28-29-b.

5. Yusuf Xos Hojib: Qutadg‘u bilig. -T.: “Cho‘lpon”, 2007. – 15-b.

6. Hasanov S. Xorazm mutafakkirlarining ma’rifiy-pedagogik qarashlari. Pedagog. fan. Dokt. dissertasiyasi. -T.: 2000. 91- b.

7. Hoshimov K, Nishonova S. Pedagogika tarixi. Darslik II-qism. – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, T.: 2005. – 80-b.

8. Jamoldinova O. Sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlik tamoyillari amal qilishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish. Ped. fan. dokt…diss.- T.: 2015.- 102-b

9. Nishanova S. Sharq O‘yg‘onish davri pedagogik taraqqiyotida barkamal inson tarbiyasi.Pedagog. fan. Dokt. dissertasiyasi. -T.: 1998. – 156- b.

10. Pazilova M.Ye. Ajdodlarimiz merosini o‘rganish jarayonida talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari. Ped. fan. dokt...diss.- Nukus, 2022. – 283-b.

11. Xodjayev B. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. «Sano-standart» nashriyoti, T.: 2017. – 204-b.

Bekmuradova Sevara Najmitdin qizi,
O‘zDSMI tayanch doktoranti

O‘RTA ASR SHARQ ALLOMALARI VA MUTAFAKKIRLARI TARIXIY MEROSINING MILLIY TELEEKRANLARDA YORITILISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlarining hayoti va ijodi, ulardan qolgan tarixiy merosning milliy ekran san’ati asarlari sifatida talqin etilganligi, shuningdek, ushbu mavzuning bugungi kunda ekranlarimizda yoritilishi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Mutafakkir, adabiy asar, ekran san’ati, rejissura, ekranizatsiya, sifat, uslub.*

Annotation. *This state talks about the life and work of medieval Eastern teachings and thinkers, the interpretation of the historical heritage they left as a production of domestic screen art, as well as the coverage of this topic on our screens today.*

Key words*: Thinker, literary work, film adaptation, direction, quality, style.*

O‘rta asr Sharq allomalari mutafakkirlarining tarixiy merosini o‘rganish va ularni bugungi avlodga yetkazish yo‘lida adabiyot, teatr san’ati singari ekran san’atining ham o‘rni beqiyos. O‘tgan yillar mobaynida kino va televideniye ijodkorlari tomonidan buyuk mutafakirlarimiz hayoti va ijodiga bag‘ishlangan bir qator badiiy filmlar, tele va videospektakllar yaratilib, tomoshabinlar e’tiboriga havola etib kelinmoqda. Hususan, mamlakatimizning televideniye ijodkorlari tomonidan yillar davomida buyuk Sharq alloma va mutaffakkirlariga bag‘ishlangan "Ulug‘bek xazinasi" (1974 yil), "Alisher Navoiy" (1982 yil), "Xorazm shoh" (1997 yil), "Mirzo Ulug‘bek" (2000 yil), "Alg‘ul yohud Mirzo Ulug‘bek" (2008 yil) singari tele va videospektakllar yaratildi. Ushbu televizion asarlar bugunga kelib, balki, texnik jihatdan eskirgandir, ammo, mazmun jihatidan aslo o‘z qiymatini yo‘qotgani yo‘q. Tarixiy janrdagi milliy ekran mahsulotlarini yaratishda ular tajriba vazifasini bajaradi. Shu sababli, quyida ana shu teleasarlarning biri haqida kengroq mushohada yuritiladi.

O‘zbekiston Xalq shoiri Xurshid Davronning 1994-yilda yozilgan "Alg‘ul yohud Mirzo Ulug‘bek" nomli dramatik fojiasi buyuk vatandoshimiz, olim va mutafakkir, davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek hayotining so‘nggi kunlariga bag‘ishlangan. Pyesa 2013 yilda "Sharq yulduzi" jurnalida bosib chiqarilgan va "Eng yaxshi badiiy va ilmiy asarlar" tanlovi g‘olibi bo‘lgan.

Pyesadagi voqealar 1449-yilning kuzida, bir kun davomida bo‘lib o‘tadi. Birinchi parda uch ko‘rinishdan, ikkinchi parda esa olti ko‘rinishdan iborat. Pyesa ekspozisiyasida Shohruh vafotidan keyingi talotumlar oqibatida boshlangan hokimiyat uchun kurash avjiga chiqqan, shahzoda Abdullatif Mirzo otasi – Movarounnahr hukmdori Mirzo Ulug‘bekka qarshi bosh ko‘targan, saroy a’yonlari va avom orasida Ulug‘bekka nisbatan norizolik kayfiyati uyg‘ongan tahlikali davr turadi. Toj-u taxt yoki ilm-ma’rifat. Bu ikki yo‘l orasida qolgan Ulug‘bek ushbu tahlikali vaziyatda qanday

yo‘l tutish, o‘z otasiga bosh ko‘targan nomaqbul farzandiga qanday chora ko‘rish, qanday yo‘l tutsa kelajak avlod oldida, tarix oldidagi javobi, shox mas’uliyati haqida chuqur o‘yga toladi. O‘quvchi pyesadagi voqealar rivoji davomida Ulug‘bekning butun umri davomida toj-u taxt havasmandlari, fisq-u fasod, hiyonatga qarab borayotgansaroy a’yonlariga qarshi emas, jaholatga qarshi kurashishga intilganligiga guvoh bo‘ladi.

Pyesaning ikkinchi ko‘rinishida Ulug‘bek va uning sadoqatli shogirdi Ali Qushchi o‘rtasida bo‘lib o‘tadigan suhbatda "Alg‘ul" yulduzi haqida so‘z boradi. Ali ushbu yulduzga "uch kun yonib, so‘nadi-da, so‘ngra yana paydo bo‘lub, avvalgidek porlab turaveradigan g‘alati yulduz" deya ta’rif beradi. Shunda Ulug‘bek: "Ko‘ksimdagi iztirob ana shu Alg‘ulga o‘xshaydur, Ali!.. U goh so‘nib qolgandek bo‘ladi, so‘ngra yana jonimda og‘riq qo‘zg‘aydi... Kun kelib Alg‘ulning mubham siri ayon bo‘lg‘usidur... Ammo... ammo bu iztirob, bu og‘riq siridan behabar o‘tishdan qo‘rqaman", – deya javob beradi. Bundan ko‘rinib turibdiki muallif Alg‘ulni Mirzo Ulug‘bekka qiyoslaydi. Shu bilan asar g‘oyasi falsafasini ochib beradi.

"Alg‘ul yohud Mirzo Ulug‘bek" ikki pardali fojiasi asosida dastlab radiopostanovka, so‘ng 2009 yilda ikki qismli videospektakl suratga olingan. Ushbu videospektakl "O‘zbekiston" teleradiokanali mahsuloti bo‘lib, asar muallifi adib Xurshid Davrondir. Sahnalashtiruvchi rejissyor – Dilorom Karimova. Videospektaklda sahnalashtiruvchi rassom Saidakmal Rasulov, sahnalashtiruvchi tasvirchi Akmal Sulaymonov, pardozchi rassom Larisa Stalbolar hamkorlikda ijod qilishgan. Kadr orti matnni Hojiakbar Komilov mahorat bilan o‘qigan. Videospektaklda Mirzo Ulug‘bek rolini O‘zbekiston Xalq artisti Afzal Rafiqov ijro etgan.

Dastlab, sahnaviy asarning ekran uchun moslashtirilganligi – adaptatsiyasiga to‘xtalsak. Ma’lumki sahna uchun mo‘ljallangan asarni ekranga ko‘chirish bir muncha mashaqqatli. Sababi, sahna va ekran tamomila o‘zgacha tushunchalar. Ya’ni ularning spesifik tili turlicha. Sahnada rejissura, bezak va ijro shartlilikka tayansa, kino ekranda har qanday shartlilik va butaforiyadan qochiladi – uning tili hayotiy realistik. Shundan kelib chiqib, "Alg‘ul yohud Mirzo Ulug‘bek" videospektakl rejissyori oldida adaptatsiya muammosi tursa, ikkinchi masala, dialoglarga qurilgan asarning tasviriy in’ikosini topish edi. Zero, teletasvir eng muhim uchta omil – zamon, makon va harakatni talab etadi.

Ijodkorlar yuqoridagi kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida, asar matnini qisqartirishgan. Ya’ni, dialogga qurilgan sahnalarni tasvirga ko‘chirib, ba’zi bir sahnalardan esa butunlay voz kechgan holda xronametrajni qisqartirishgan. Masalan, pyesada voqealar Samarqand bozoridagi shovqin-suron, g‘ala-g‘ovurlardan boshlanadi. Videospektaklning ekspozisiyasi esa Ulug‘bekning ijod xonasiga ko‘chirilgan (bu sahna pyesaning ikkinchi ko‘rinishida sodir bo‘ladi). Yoki, Ulug‘bekning enagasi Amir Vafodorning o‘z ko‘kaldosh akasi Mirzo Ulug‘bekka qilgan xiyonatidan so‘ng, zindonda farzandi bilan vidolashuv (zaharlashi) sahnasini olaylik. Ushbu sahna pyesada

alohida ko‘rinish sifatida tasvirlanmagan. Ammo, rejissyor bu epizodga urg‘u berib jonlantirgan. Voqeani tamoshabinga dialoglar orqali emas, hatti-harakat orqali yetkazadi. Natijada, bu usul qahramon harakterini yanada yorqinroq ochishga xizmat qilgan.

Huddi shunday epizodlardan yana biri, go‘dak Ulug‘bekning bobosi Amir Temur va Saroymulkxonim huzurida kechgan xotira kadrlar (fleshbek). Bu kabi tasviriy yechimdagi muhit va personajlar qiyofalarining o‘zgarishi tamoshabinni o‘ziga jalb qiladi.

Videospektakldagi voqealar asosan inter’yerda, ya’ni Mirzo Ulug‘bek saroyida bo‘lib o‘tadi. Shoh saroyi muhitini yaratish uchun maxsus dekoratsiya qurilgan. Ekranlashtiruvchi rassom o‘sha davr muhitini yaratish uchun dekoratsiyaning arxitektura, moddiy-ashyoviy predmetlar (rekvizitlar), liboslar va grim uslubiy yaxlitligi ustida izlanganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ekranlashtirilgan asarning aktyorlar nutqidagi tili adabiy asos tilidan keskin farq qilmaydi. Pyesada so‘z eng muhim masala hisoblangani sabab, bu ekranga ham ko‘chgan. So‘z va tasvir uyg‘unligi yaxshi natijaga olib kelgan. Asar syujetida so‘z va aktyorlarning emosional holatlari muhim bo‘lganligi sababli, tasvirlar zanjirida asosan yirik va o‘rta planlardan foydalanilgan. Videospektakl davomida umumiy planlar nisbatan kam ko‘zga tashlanadi. Zero, dramaturgiya dialoglarning keskin almashinuviga qurilgan. Shuningdek, kadrlar kompozisiyasining tanlanishi, umumiy temporitm dramaturgiya rivojiga xizmat qilgan. Masalan, ekspozisiya davomida asosan statik kadrlardan, voqealar rivojlanishi natijasida panoramadan, kulminatsiyada esa harakatdagi dinamikali kadrlarga murojaat etilgan. Bu esa dramaturgiya rivojidan kelib chiqib, asar kompozision qurilmasining umumiy ritmini yuzaga chiqargan.

Umuman olganda bu kabi ham mavzu jihatidan dolzarb, ham mazmun jihatidan ahamiyatli bo‘lgan videomahsulotlarga bugungi televideniyamiz muhtoj. Milliy telekanallarimizni oldi-qochdi seriallar egallagan bir paytda, yuqoridagi vidyefilmlar va telespektakllarni bugungi zamon talabiga mos ravishda tiklash, buyuk ajdodlarimiz siymosini yangicha talqin qilish, tarixiy mavzudagi telefilm va seriallarni ishlab chiqarish maqsadga muvofiq ish bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. N.Bekmirzayev. Notiq, nutq, xulq – T.,2011. – B. 3-8,62-68
2. Belinskiy V.G. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “O‘zbekiston Davlat nashriyoti”, 1955. – B. 119.
3. O‘tayev O‘. Televideniye – davr ko‘zgusi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2010. – B. 145.

Nasimov Fotih Hilol o‘g‘li,
O‘zDSMI tayanch doktoranti

O‘ZBEK KINEMATOGRAFIYASINING SHOH ASARI “ALISHER NAVOIY” TARIXIY BADIIY FILMINING NAZARIY ILMIY TAHLILI

Annotatsiya. *XV asrda yashab, jahon tarixida o‘chmasiz qoldirgan hazrat Alisher Navoiy ijodi va hayotini tasvirlovchi yirik tarixiy badiiy kino asar “Alisher Navoiy” filmining yaratilishiga oid rejissura aspektlari, aktyorlar mahorati va badiiyatiga sharh.*

Kalit so‘zlar: *kinematografiya, operator, rejissyor, rassom, badiiy yaxlitlik, drama, kompozitor, qadriyat.*

Annotation: *Commentary on the directorial aspects of the creation of the film "Alisher Navoi", a major historical feature film depicting the work and life of Hazrat Alisher Navoi, who lived in the 15th century and left an indelible mark in world history, as well as the actors' skills and artistry.*

Keywords: *cinematography, cinematography, director, artist, artistic integrity, drama, composer, value.*

1940-yillardan tarixiy filmlar asosan tarixiy adabiy asarlarga, xalq qahramonlari, tarixiy shaxslarning hayot yo‘liga va tarixiy ertaklardagi motivlarga murojaat qilingan. Inson biografiyasi haqida hikoya qiluvchi filmlar tomoshabinlar e’tiborini doim o‘ziga jalb qilib kelgan. Katta muvaffaqqiyatlarga erishgan shaxslarning duyoqarashi, qiziqishlari, ichki olami, dramasi haqidagi tasvir bilan ifodalangan hikoyalar real voqealarga asoslanganligi bilan ham qiziqdir. Tarixiy filmlarga bo‘lgan ehtiyoj davr talabi bo‘lgani, bunga asos sifatida Komil Yormatovning: “Yaqinda men Britaniya parlamentining konservativ a’zosi Betxem degan bir janobning, umumpalatasida so‘zga chiqib Sovet O‘rta Osiyosida yarim yovvoyi ko‘chmanchi qabilalar yashaydi, deb bayon qilgani haqida o‘qib qoldim. Bu gap menga qattiq botdi. Binobarin,Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Beruniy, Rudakiy, Firdavsiy, Umar Xayyom singari ulug‘ siymolar tug‘ilib o‘sgan O‘rta Osiyo Renessansining (uyg‘onish davrining) qiyofasini filmimda ko‘rsatishni judayam xohlab qoldim” Yevropaliklar Sharq mamlakatlariga, ularning tarixi va madaniyatiga yevrosentrizm falsafasi bilan qaraydi. Sharq xalqlarining moddiy va ma’naviy madaniyati uzoq tarixga ega. Osiyo va Afrika qit’alarida ilgarilab borayotgan ijtimoiy, iqtisodiy madaniy harakatga bir qator tarixiy “kataklizmlar” g‘ov bo‘lgan.

Ikkinchi jaxon urushidan keyingi yillarda bir nechta tarixiy-biografik filmlar yaratildi. Lekin yaratilgan aksariyat tarixiy filmlarda sovet mavkurasi singdirilib tarixiy faktlardan uzoqlashgan holatlar ham yo‘q emas. K.Yormatov “Alisher Navoiy” filmida esa bunday bosim va sovet mafkurasiga mutlaqo zid holda milliy ruh bilan sug‘orilgan yuksak badiiy asar yaratdi. Film Navoiy siymosining biografiyasinigina namoish etibgina qolmay, keng ko‘lamga ega tarixiy fojeaviy voqealarni ham qamrab olib, real tarixiy asosga ega Husayn, Yodgor va Majiddin tarixiy shaxslarining taxt uchun

kurashlarini ham ko‘rsatgan. Ushbu filmni taxlil qilishda ana shu me’zonlarni hisobga olgan holda fikr yuritish kerak. Rejissyor muhim detallarga ijodiy yondoshish bilan birga, ularga tanqidiy ko‘z bilan qarashni ham unutmagan. Bu esa filmning yuksak kinematografik asar bo‘lishiga hissa qo‘shgan. Filmning muvaffaqqiyati Alisher Navoiy rolida Razzoq Xamroyev va Husayn Boyqaro rolida Asad Ismatovlarning yuksak mahorati va ijrosida namoyon bo‘lgan.

“Tarixiy badiiy filmlar kino san’atining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Tarixiy badiiy filmlar orqali o‘tmishning murakkab voqealarini, ayrim xalq qahramonlarining taraqqiyot, insonparvarlik, yorqin istiqbol uchun olib borgan kurashlarini ob’yektiv ifodalab berdilar”[1].

“Filmning muvaffaqiyat qozonishida, shubhasiz puxta dramaturgiya asosiy rol o‘ynagan. Asar kompozisiyasi uzviy chiqqan. Syujet obrazlar psixologiyasiga singdirib yuborilgan. Ssenariyning bu muhim elementlariga rejissyor mahoratining qo‘shilishi nur ustiga a’lo nur bo‘lgan. Komil Yormatovning jiddiy stilistikasi drmaturgiya va aktyorlar ijrosidagi muvaffaqiyatlarni to‘la-to‘kis ifodalab bergan”.[2]

Filmda qahramonlarni ijobiy ko‘rsatishda ortiqcha ideallashtirib yoki salbiy qahramonlarni bo‘rttirib namoiy etishda oltin o‘rtaliq saqlanganini ko‘rish mumkin. Ammo film avvalida Navoiy faoliyati va hayoti ishonarli ko‘rsatilgan bo‘lsa yakunda qahramon bir hil qolipdagi didaktik obrazga aylanib qolgan. Bu o‘rinda “Shklovskiy o‘zining tarixiy filmlarga bag‘ishlangan maqolalarining birida Navoiy obrazi u qadar muvaffaqiyatli chiqmagan degan fikrni oldinga surgan edi. Avtor bunga sabab qilib Navoiy obrazini haykalga o‘xshash, haddan tashqari monumentallashib ketganini ko‘rsatgan”.[3]

Obrazlarning bu qadar murakkab va ko‘pligiga qaramay, ortiqcha soxtalik, yolg‘onlarga yo‘l qo‘yilmagan. Alisher Navoiy tarixiy filmida Navoiy obrazini butun hayoti va qalami kuchini insonparvarlik, ezgulik, xalq baxt-saodati yo‘liga qaratgan ulug‘ shoir sifatida, ortiqcha idallashtirmagan holda namoyish etishga erishdilar. Film tarixiy –biografik janr lekin bu janrdagi aksariyat filmda tarixiy shaxsning dunyoga kelib to vafotiga bo‘lib o‘tgan davrdagi voqealar tasvirlanadi. Navoiy shaxsiyati va qilgan buyuk ishlarini birgina film bilan ochib berish mushkil albatta. Uning bolalik yillaridan kitobga ko‘ygan mexri va zukkoligi tengqurlaridan ilmda peshqadamligi kabi fazilatlari bilan ajralib turgan. Mavlono Lutfiy yosh shoir is’tedodiga yuqori baho bergan hamda Kamol Turbatiy e’tirofini qozonib, Abdurahmon Jomiy bilan yaqin bo‘lib, ijodiy hamkorlik qilgan. Otasi G‘iyosiddin Muhammad temuriylar saroyining amaldorlaridan bo‘lib, xonadonning ishonchli kishilaridan bo‘lgan. Navoiy saroy muhitida yashab, bolalik yillaridan musiqava she’riyatga mehr qo‘yib ulg‘aygan. Shoir

[1] Тешабоев.Ж Асад Исматов 52 бет Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти-1967
[2] Тешабоев.Ж Асад Исматов 54 бет Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти-1967
[3] Тешабоев.Ж Асад Исматов 55 бет Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти-1967

bo‘lajak sulton Husayn Boyqaro bilan birga o‘qib tahsil olgan. 1447- yilda Shohruh Mirzo vafotidan keyin, temuriy shaxzodalar o‘rtasida taxt uchun urash boshlanib Hirot notinch bo‘lib qoladi. Navoiy oilasi bilan Iroqqa ketadi. U yerda zamonasining yetuk tarixchisi Sharofiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi. 1452-yilda Abulqosim Bobur Mirzo Huroson taxtiga o‘tirib, notinchliklar bosiladi. G‘iyosiddin Muhammad Sabzavorga hokim bo‘lib etib tayinlangan. Bo‘lajak shoir Sa’diy Sheroziyning “Guliston”, “Bo‘ston”, asarlarini Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asarlarini ishtiyoq bilan o‘qib yod olgan. Navoiyning hayoti safar va ilm izlab ko‘plab shaharlarda o‘qib izlangan. Navoiy hayoti davomida ko‘plab madrasa, ko‘prik va honaqoxlar qurdirib, xalq farovonligi uchun qilgan davlat arbobi va shoirdir. Lekin filmga Navoiy obrazini yanada yorqin namoish etadigan ko‘plab voqealar kirmagan.

Filmda Husayn Boyqaroning sultonlik davridagi voqealar ko‘rsatilgan. Film avvalida Navoiy va Boyqaro bug‘doy boshig‘ida yuqoriga harakatlanayotgan chumolining xatti harakatini kuzatib o‘tiradigan epizodidan boshlanishi ham bejiz emas.

A.Ismatov ko‘p jihatdan o‘zi ijro etgan rolga mos tushgan edi. Uning nihoyatda salobatli tashqi ko‘rinishi temuriylar sulolasining qudratli hukmdoriga ham oddiy dehqon rollariga ham mos kelgan.

Lekin to‘laqonli obraz yaratishda birgina tashqi ko‘rinishning o‘zi yetarli emas, albatta. Agar insonga hos ichki kechinmalar, jonli tuyg‘ular ifodalanmagan bo‘lsa, hatto eng yaxshi faktura ham obrazni ifodalab berolmaydi.

Film ssenariysida obrazlar mukammal yaratilishi mumkin, lekin ana shu obraz ekranda ishonarli jonlantirib berilmasa, film muvaffaqiyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. A.Ismatov o‘ziga hos mahorat bilan Husayn Boyqaroning haqqoniy yetuk obrazini yaratib bergan. Filmda aktyorning tashqi qiyofasi, psixofizik jihatlari muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun kinorejissyorlar aktyorlarning tashqi ko‘rinishiga nihoyotda katta ahamiyat beradilar. Chunki, aktyor fakturasi kinoda obraz yaratish yoki qahramon xarakterini namoyon qilishda muhim aspektlardan biri hisoblanadi va filmning yarim muvaffaqiyati hisoblanadi.

Husany Boyqaro murakkab obraz hisoblanadi. Temuriiylar sulolasining yetuk vakili va mohir sarkardasi, qattiqqo‘l sulton bo‘lishiga qaramay, nozik did egasi mahoratli shoir hamda Navoiyning samimiy do‘sti hisoblangan. Bunday ko‘p qirrali xarakter va obrazni yaratuvchi aktyor chindan ham keng ijodiy diapazon va tajribaga ega, teran iqtidor egasi ham bo‘lishi kerak bo‘lgan. Majiddin va beklarning nayranglari o‘laroq Navoiy va Boyqaro o‘rtasidagi do‘stlik rishtaliri saroy kabi yemirilib borishi Navoiyni Astrobodga badarg‘a qilinishi bilan ko‘rsatiladigan epizodni olaylik. Navoiy so‘nggi so‘zini aytib sulton Boyqaro huzuridan chiqib ketadi. Sulton uning ortidan yurib, tushkin holatda o‘girilib; “Men yuragimni semurg‘ga berib qo‘ydim. Meni yuragimni sug‘irib oldilar. Meni Alisherdan judo qildilar” deb mayuslanib qoladi. Kadrda Husayn birdan bo‘shashib horg‘in, shubhalar iztirobidan qiynalayotgan qiyofasi

namoyon bo‘ladi. U og‘ir rug‘iy azobda, hayotining eng shirin damlari tugaganligini his qila boshlaydi va kadr qorong‘ulikka singib ketadi. A.Ismatov Husayn obraziga xos qarama qarshiliklarga to‘la, eng muhim xususiyatni bera olgan. Husayn Ismatov ijrosida og‘ir, muayyan tarixiy sharoit doirasidan chiqib ketolmagan zo‘r iste’dod egasi sifatida ijro etilgan. Aktyor o‘z qahramonining fazilatlarini qanchalik yuksak mahorat bilan ifoda etgan bo‘lsa, uning ojiz tomonlarini ham shunday ham ochiq namoish etgan. Filmda Husayn obrazi og‘ir sinovlarga bardosh berolmay, mash’um fisqu-fasodlar qarshisida bosh egishga majbur bo‘lgani hamda mustahkam xarakter egasi bo‘lmaganini yaqqol ko‘rinadi.

Filmda qahramonlar tashqi qiyofasining asta-sekin o‘zgarib borishi dramatik mazmun mantig‘iga mos ravishda ko‘rsatilgan. Filmda avtorlar tomoshabinlarga qahramonlar ichki dunyosida o‘zgarish ro‘y bergandan keyingi holatlarini mexanik ravishda ko‘rsatilgan kadrlar deyarli yo‘q. Filmning muvaffaqiyati shundaki, unda tashqi qulayliklardan foydalanib, voqealar quruqdan-quruq izoxlamaydi balki tomoshabinlarni ajoyib tarixiy drama qahramonlari bilan yashashga majbur etiladi.

Oradan ko‘p o‘tmay, Husayn mast holda nevarasi Mo‘min Mirzoni qatl etish haqidagi qog‘ozga imzo chekadi. Shahzodaning o‘limi mamlakatda o‘zaro, qirg‘in va urushlarni avj olshiga sabab bo‘ladi. Shu orqali sulton hukmdorligiga putur yetadi. Film yakunida aktyorlar A.Ismatov va R.Hamroyevlar qahramonlarning uzoq yillardan so‘ng uchrashish epizodida ham sulton va shoir xolatlarini mahorat bilan ifodalanadi. Boyqaro ham Navoiy ham nihoyatda keksayib qolganlar. Shoir oq kiyimda, hassaga tayangan g‘amgin qiyofada yuzidan goyoki nur taralayotgan mutafakkir ko‘rinishida bo‘ladi. Husayn boshdan oyoq qora kiyimda, o‘z masiyatlari va g‘am-tashvishlaridan qaddi bukilgan abgor holda ifodalanadi.

O‘rta Osiyo xususan O‘zbekiston zaminida dunyo ilm-faning tamadduni rivoji uchun O‘zining ulkan hissasini qO‘shgan mutafakkirlar, allomalar diyori ekanini aksariyat dunyo xalqlari fahmlamaydi. Komil Yormatovning bunday yirik tarixiy kinoloyihaga qo‘l urushining asosiy sabablaridan biri ham shu bo‘lgan. Alisher Navoiyning hayot va ijod sahifalarini namoyish etadigan film bilan, XV asrda Osiyo qit’asining markazida Yevropalik olimlar o‘rganib andoza olgan ilm maskani bo‘lgani, insonparvarlik g‘oyalarining vujudga kelgani haqida dunyodagi axliga bildirishni hoxlagan.

“K.Yormatov Alisher Navoiy zamonasiga oid ma’lumotlarni o‘rgandi. Olim va yozuvchilar bilan fikr almashib oldi. Navoiy zamoni, uning hayoti va ijodini tasvir etuvchi qo‘lyozmalar bilan tanishdi. Navoiy asarlarini qayta-qayta o‘qib tub mohiyati anglashga intildi. K.Yormatov o‘zbek adabiyotining asoschisi Alisher Navoiy obrazini qanday gavdalantirish to‘g‘risida ko‘p fikr yuritdi. Rejissorlik ssenariysida u Navoiyni o‘z zamonasining insonparvar olimi, shoiri va davlat arbobi sifatida gavdalantirishga muyassar bo‘ldi”

K.Yormatov “Alisher Navoiy” filmini ekranlashtirishda yangi usuldan foydalangan. Alisher she’r yozish bilan mashg‘ul ekan , rejissyor kino kamerasini, uning qarshisida tonib turgan sham va kitobga qaratadi. Bir tomondan sham yonib tugayversa, ikkinchi tomondan kitoblar taxlanaveradi. Ma’lumki bir devon va doston yaratish kishidan yillab mehnat va vaqt talab qiladi. Shunday ekan, bir dasta devon va dostonlar yaratgan kishinig ko‘p yillik umr kechirgani tomoshabinlarga tushunarli bo‘lgan va xech qanday savolga o‘rin qolmagan.

“Alisher Navoiy” filmi sovet mafkurasiga qarshi chuqur g‘oyani ifodalanganini, Navoiyning: “Mening maqsadim xalqni musibatdan qutqarishdir”, degan so‘zlari bilan g‘oya asosiga qurilganidan bilish mumkin.

1947 yil, rejissyor: K.Yormatov “Alisher Navoiy” tarixiy badiiy filmini yaratdi. “Biz bu g‘oyalarni buyuk shoir va faylasuf Navoiy bilan uning yigitlik davridagi do‘sti, bu ham o‘tkir iste’dod egasi, she’riyatni qadrlovchi, uning eng nafis jihatlarini puxta o‘rgangan shoir-sulton Husayn Boyqaro o‘rtasidagi bahsu munozaralar orqali ochib tashlashga harakat qildik.”

Eng asosiy duetimiz – Ismatov va Hamroyevlarning ijrochilik mahorati nihoyatda yuksak ekanligini ko‘rdigu, “hamla” ga loyiq “zarba” bo‘lishiga qat’iy ishonch qildik

“Alisher Navoiy” filmi, – deb yozgan edi “Iskusstvo kino” jurnali, rejissyorning etukligi va o‘ziga xos talantining natijasidir. Film o‘zbekiston tarixidagi qarama-qarshiliklar avj olgan murakkab bir davrni tasvir etishga bag‘ishlangan.

“Alisher Navoiy” kinofilmi O‘zbekiston SSRda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Komil Yormatov, O‘zbekiston SSRda xizmat ko‘rsatgan artistlar Razzoq Hamrayev (Navoiy), Asad Ismatov (Boyqaro) va Toshkent kinostudiyasi kollektivining katta g‘alabasidir. Bu-Toshkent kinematografiyasining misli ko‘rilmagan asaridir”, deb yozgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abulqosimova.X, Umarov.S Kinodramaturgiya asoslari. Toshkent 2018
2. Teshaboyev.J Asad Ismatov Toshkent 1967
3. Abulqosimova.X Kinoteleradio tarixi va nazariyasi Toshkent 2008
4. Abulqosimova.X kino san’ati asoslari Toshkent 2009

Karimova Mukaddes Abdisamatovna,
Cumhuriyet müzik ve sanat Koleji baş öğretmeni
ÖzDSMI araştırmacısı

BÜYÜK FOLKLORCU VE ETNOGRAF OLARAK KAŞGARLI MAHMUD

Açıklama. *Özbek Gelenekleri, folklor sanatında en eski zamanlardan günümüze kadar halkın kültürel etnik zenginliği olarak kendini göstermiştir. Bu makalede, XI. yüzyılda yaşamış en eski Türk dili araştırmacısı, Özbek folkloru örnekler toplama tarihinde paha biçilmez bir miras bırakan Koşgarlı Mahmud ve Türk dilinin ilk sözlüğü "Divanü Lügati't -Türk" eserinden bahsedilecektir.*

Anahtar kelimeler: *folklor, etnografya, kutlama, tören, gelenek, etkinlik, miras, yaratılış.*

Annotatsiya. *O'zbek urf-odat va an'analari eng qadimgi davrdan boshlab, xozirgi kunimizgacha xalqning madaniy etnik boyligi sifatida folklor san'tida namoyon bo'lib kelmoqda. Mazkur maqolada turkiy xalqlar jumladan o'zbek folklor namunalarini to'plash tarixida bebaho meros qoldirgan Mahmud Qoshg'ariy va "Devonu lug'otit turk" asari xususida so'z ketadi.*

Kalit so'zlar: *folklor, etnografiya, bayram, marosim, urf-odat, tadbir, an'ana, meros, ijod.*

Annotation. *Uzbek Customs and traditions have been manifested in the art of folklore as a cultural ethnic wealth of the ring since the earliest times, until the present day. This article will mention Koşgarlı Mahmud , who left an invaluable legacy in the history of collecting samples of Uzbek folklore, including Turkic peoples, and the work "Devonu lexicotit turk".*

Keywords: *folklore, ethnography, celebration, ceremony, tradition, event, tradition, heritage, creation.*

Kaşgarlı Mahmud 1008 yılında Türkistan'da doğdu. Saciye ve Hamidiye medreselerinde öğrenim gördü. İyi bir eğitim görmüş olan Kaşgarlı Mahmut, İslamiyet ile ilgili çalışmaları yakından takip ederdi. Arapça ve Farsça'yı iyi derecede biliyordu. Yaptığı araştırmalar dil ile sınırlı kalmamış, gelenek ve görenekler üzerine de incelemeler yapmıştır. Ana dili olan Türkçe'nin bütün diyalektlerini ve kollarını yerinde öğrenerek eserinde bunlara yer vermiştir. Eğitim hayatından sonra kendisini Orta Asya'yı gezmeye ve Türk dilini incelemeye verdi. Anadolu'ya da gelerek çeşitli lehçe ve dil üzerine çalışmalarda bulundu. 1072-1073 yılları arasında hazırladığı ünlü eseri "Divanü Lügatii Türk"ü Abbasi halifesine armağan etti.

Koşgarlı Mahmud Orta Asya'daki Erken Ortaçağ Kültürünün en büyük figürlerinden biriydi ve dilbilimde, özellikle Türk dili çalışmaları alanında öne çıkarak tarihe silinmez bir iz bıraktı. Özbek folklor örneklerini toplama tarihine bakıldığında, ilk al'de miras bırakan Koşgarlı Mahmud'un adından bahsetmekte fayda var. Çünkü yaklaşık bin yıl önce Özbek folkloru da dahil olmak üzere Türk halklarının durumuyla ilgili, büyüklüğümüzün kitapta getirdiği halk sözlü yaratıcılığı türlerine ait en önemli metinler sunulmuştur. Bu açıdan Koşgarlı Mahmud, XI. yüzyılda yaşamış, Türkoloji ve folklorizm disiplinlerinin gelişimine olağanüstü katkılarda bulunmuş, Türk halklarının sözlü yaratıcılığını toplamada titizlik gösteren bir bilim insanı, öğretmenidir.

Koşgarlı Mahmud 15 yıl boyunca " Divanü Lügati'i -Türk " adlı eser üzerinde yorulmadan çalıştı, uzun yıllar ülkeden ülkeye seyahat için bir kaynak topladı. Koşgari'nin kendine göre çalışması -"daha önce kimsenin bestelemediği ve kimsenin bilmediği ayrı bir sırayla bir kaynak topladı ve üst hakikatten Movaraunnahr'a, Harazm'a, Fergana'ya, Buhara'ya uzanan bölgeyi tek tek gezdi". Koşgarii, ham'da bölgede yaşayan klan ve kabilelerin yaşam biçimlerini, meskenlerini, konutlarını, geleneklerini dikkatlice inceledi. Sonuç olarak, seyahat ettiği bölgede yaşayan tüm kabilelerin yaşam biçimlerini, dillerini iyice inceledi. Devanin, yazma konusundaki eylemleri hakkında şunları söylüyor: – "Uzun yıllar Türklerin, Türkmenlerin, oksilerin, çigillerin, yagmosların, Kırgızların şehirlerini, köylerini ve meralarını gezdim, sözlükler topladım, çeşitli dil özelliklerini inceledim, tanımladım. Bunları sadece dili bilmediğim için değil, aynı zamanda bu şeylerdeki tüm küçük farklılıkları tespit etmek için yaptım. Zaten ben onların en büyük uzmanlarından, eski kabilelerden, savaş işlerinde ustanın mızraklarındandım".

Koşgarlı Mahmudun yaratıcılığı; kültür; etnografya; folklor ve etnograf araştırmacıların kapsamlı bilimsel sonuçlar çıkarmasının yolunu da açar. Çünkü Türk halklarının tarihi hakkında eski efsaneler, yaklaşık 300 atasözü ve metin, 700'den fazla şiirsel parça içerir. Şiirsel pasajın çoğu, Türk halklarının sözlü çalışmalarına özgü dörtlüklerden oluşur. "Divan" de alıntılanan şiirsel çizgilerden yaklaşık 150'si İslami döneme özgüdür -mesnevi, Kadı, Gazel, kıta parçaları, onlara Koşgarlı Mahmud–" Beyt" diyor. Kitapta 7 destan, romantik şarkılar pandetler, evrenin yaratılışına dair asotir şiirleri, doğal manzara görüntüleri, ilahiler, felsefi gözlemler yer alıyor.

Koşgarlı Mahmud Devan'da sunulan 8. yüzyıldan XI. yüzyıla kadar olan Türk şiiri örneklerinde, bir dereceye kadar, aruz'un ağırlığına geçme eğilimi hissedilir. Türk şiir örneklerinde Aruz'un ağırlıkları – rajaz, ramal, munsarih, khajaz, basit, karib, mutakarib – kullanılmış, özellikle rajaz Bahri 44 pasajda yaygın olarak kullanılmıştır. Türk halk şiirinde yaygındırlar, bu da bahr tonunun Türk şiirinin doğasına tekabül etmesinden kaynaklanan olabilir. Şarkıları daha savaşçı bir karakter olan ve kahramanlığa adanmış olan " Devan" daki destanlar şartlı olarak "Tangutlarla Savaş"," Uygurlarla Savaş"," Yabaku ile Savaş" olarak adlandırılıyor. Türk halklarının sıkıntısını, cesaretini, askeri numaralarını, siyasi mücadelesini, yiğitliğini, sevgi ve öfke duygularını canlı, gösterişli mısralarla anlatırlar. "Devan"ın yazarı, halk sözlü yaratıcılık örneklerinde sunulan kelimeleri ayrı ayrı toplayarak, onları bir yaşam tarzında nasıl uygulandıklarını büyük bir dayanıklılıkla inceledi. Türk diline yurtdışından giren kelimeler hakkındaki görüşlerini de dile getirdi. Evlilikte kullanılan araçlar, nesneler vasıtasıyla girilen kelimeler, çeşitli Çince, Rusça, Hint kıyafetleri, yiyecekler, ilaçlar isme ayrı ayrı durur ve anlamını yorumlar, bunun yerine Türk dilinde hangi kelimelerin kullanılabileceğini gösterir. Halk sözlü yaratıcılığında-masallar, efsaneler, Atasözleri ve toplar – tohum ve kabile konusuna ayrı ayrı değindi.

Zor emeğin şarkıları: Emekle uğraşan oyunlar; insanların Emekle başa çıkmalarına yardımcı olmaları açısından değerlidir; emek zorluklarını hafifletmek; eğlenmek; gençleri emeğe alıştırmak ve eğitmek. Ritüel şarkıların marşları, Bahama tarzında savaş alanında savaşırken ölen kahramanlara adanmıştır. Bahailerin yiğitliğini, cesaretini, bağlılığını ve olumlu niteliklerini övüyorlar. Ve judo'ya duyulan özlem, yasın üzüntüleriyle ifade edilir. Ağıt temasının performansının Özbek folklorunda yaygın olduğu bilinmektedir. Bu günkü ritüel ağıt örnekleri hakkında gelişigüzel yorum yapan "Birinciye Alp ülkesi" marşına göç ederken, aralarındaki madde ve biçim uyumu karşılanabilir. Bu nedenle, Marcian modelinin "Devaniyen" den konumu, konunun Özbek folklorundaki eski türlerden biri olduğuna dair kanıt sağlar.

Devan'da sezon şarkılarının jambon kayıtları var. Belirli mevsimin şarkılarının ve doğanın imajının ifade edildiği lirik türdeki şarkılar ayrılır. Bu şarkılar, eski çağlardaki insanların doğal fenomenlerinin anlaşılmasını ve bu fenomenlere karşı tutumlarını ifade eder. Doğa olaylarını iyi ve kötü ruhlarla ilişkilendirmek gibi görüşleri, yılın mevsimlerini anlamalarında da belirgindir. Yılın bir sezonu onları neşelendirirken, ikinci sezon derinden kederli. Kışın zorlukla karşılaşan, kış mevsimi için yeterli yiyecek, yem stoklamayı başaramayanlar, bahar mevsimine olumlu baktılar, kışa karşı olumsuz bir tutum sergilediler ve kışı bir korku ve sıkıntı mevsimi olarak kabul eden bahar mevsimine memnuniyetle karşı çıktılar. Kış ve ilkbahar mevsimlerinin şarkılarında yan yana gelen mücadele folklorda canlı bir şekilde ifade edilir. Mantıksal olarak inşa edilmiş bu mücadelede kış "aşılır", bahar kazanır. Doğa canlanmış gibidir, sırtlar halı benzeri çimenlik yeşilliklerle kaplıdır. Dağlardaki kar-buz erir, sular akmaya başlar, çeşitli çiçekler açılır ve yeryüzüne güzellik verir. Doğadaki bu canlanma insanları inanılmaz derecede mutlu eder, baharın zaferi insanların zevki olur. Yaratıcılar ilkbahardan aldıkları zevki şarkılarında söylediler, sezonun şarkılarını söylediler – lapar ve oyuna düştüler. Böyle bir şadiyenin gelenekleri gelişti ve" Navruz " tatilini üstlendi. Güreş ve şaka gibi halk oyunlarının da şarkı söyleme ve oyunlarla birlikte yaygın olarak temsil edildiği bir gelenek haline gelmiştir. "Navruz" tatilinde -romantik, ahlaki-eğitici şiirlere dayanan şarkılar, emek, ritüel ve kahramanlıkla ilgili şarkılar eşliğinde. Onlarda-sevgi, sadakat, insani nitelikler yüceltildi ve insanları cesur ve hırslı olmaya çağırdı. Devan'daki yüksek sanatsal şiir düzeyi, onları yaratanların çok eğitimli, zarif ve derin bir sanatsal tada sahip olduğunu gösteriyor.

Koşgarlı Mahmud'un eserinde dünya haritası daire şeklinde çizilmiştir. Merkezinde Orta Asya var. Balasogun, Şoş, Özgan, İsfijab, Marghilon gibi şehirler bölgeye katılımlarına dayanmaktadır. XI. Yüzyılın coğrafi hayal gücünü gösteren haritanın eki, Koşgari'nin zamanının en olgun allome'u, kapsamlı bir bilginin sahibi olduğunu gösteriyor. Bu nedenle," Divanü Lügati'i -Türk " deki şarkı ve atasözleri, Özbek halkının Türkçe konuşan halklarla birlikte eski bir ortak edebi eseridir. Bu kitabın asıl nüshası

günümüzde halen Ayasofya Müzesi'nde muhafaza edilmektedir. Kaşgarlı Mahmut kitabını tamamladıktan kısa bir süre sonra Kaşgar'a dönerek orada vefat etti.

Sonuç olarak, ulusal folklor gösterilerinin oluşumunda ve tarihsel gelişiminde, folkloroloji biliminin, Soha türlerinin özgüllüğünü antik dünyanın estetik düşüncesiyle bağlantılı olarak analiz ettiği sonucuna varılmıştır. Özellikle, Orta Asya halklarına ait efsaneler ve asatirler, Gelenekler ve ritüeller hakkında yazılı bilgiler, folklor çalışmaları biliminin ana kaynağına atfedilmektedir. Folklorun ilk örnekleri, insan konuşmasının ortaya çıkışıyla ilişkili ev sahibiydi ve o zamanın koşulları, insanların emek ve evlilik deneyimleri, dünya görüşleri, gelenekler ve ritüeller ortaya çıkmasında belirleyici bir rol oynadı.

Kaynakça listesi

1. Махмуд Қошғарий Девон луғот ат турк-Т:Фан,1963, 2жилд,
2. Муродова М.Фольклор ва этнография-Т.:Алоқачи, 2013.
3. Kaşgarlı Mahmut kimdir?- Türk.Yeni Akit Gazetesi.

Qurbonova Dilnoza Toxirovna,
O‘zDSMI 3-bosqich mustaqil izlanuvchisi

SHARQ MUTAFFAKKIRLARINING QARASHLARIDA OILAVIY MUNOSABATLAR MADANIYATI

Annotatsiya. *Sharq mutaffakkirlarining oila va oilaviy tarbiya haqidagi qarashlari islom mafkurasi va uning qobig‘ida shakllangan. Ushbu maqolada sharq mutaffakkirlari merosida oilaviy tarbiya masalalari hamda barkamol avlod tarbiyasiga oid ma’naviy-axloqiy qarashlar bayon qilinadi.*
Kalit so‘zlar: *oila, qadriyat, ayol, axloq, ma’naviyat, ma’rifat.*
Abstract. *Eastern thinkers' views on family and family education were formed in Islamic ideology and its shell. In this article, the issues of family education and spiritual and moral views on the education of a mature generation are described in the legacy of Eastern thinkers.*
Key words: *Family, value, woman, morality, spirituality, enlightenment.*

Asrlar davomida ajdodlarimiz Islom dini ta’limoti asosida yashab kelgan. O‘zlarining mukammal qadriyatlarini yaratganlar. Oila – qadimdan muqaddas dargoh hisoblanib, jamiyatning tayanchi, negizidir.

Tarixdan ma’lumki, zardo‘shtiylarning muqaddas kitobi “Avesto”da hamda buyuk ajdodlarimiz Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy asarlari orqali insonda yuksak axloqiy fazilatlarni kamol toptirishda oila va milliy qadriyatlar masalasi asosiy o‘rinni egallagan. Barchamizga ma’lumki, o‘zbek oilasi o‘zida millatimizga xos ko‘p asrlik ma’naviy qadriyatlar, an’analarimizni, udum va rasm-rusumlarimizni, ma’naviy-ma’rifiy hamda madaniy merosimizni saqlab keladi. Oilada shakllangan mentalitetimizga xos bo‘lgan muomala madaniyati, mehr-oqibat, muruvvat, andisha va or-nomus kabi odob-axloqqa oid his-tuyg‘ular va fazilatlarning namoyon bo‘lishida, komil insonni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Sharqda milliy qadriyatlarni farzandlar ongi va qalbiga singdirish oiladan boshlanadi. Biz oilani ilk tarbiya o‘chog‘i sifatida e’tirof etamiz. Mana shu oilaning ustuni tarbiyalanuvchilarini boshqaruvchi zot – Ona! Albatta ona yaratganning buyuk mo‘jizasidir, chunki ona avlodlar davomiyligini, oila tinchligini ta’minlaydi, barkamol avlodni tarbiyalaydi, kelajakni yaratadi. Donishmandlar jamiyatning madaniy darajasi ayollarga bo‘lgan munosabat bilan belgilanadi, deb bejiz ta’kidlashmagan. Zero, “Buyuk shaxsni buyuk ona tarbiyalaydi”-degan naql bor. Yurtboshimiz ta’biri bilan aytganda: **"Ayollarimiz hayotiy muammolarni, oila va mahalladagi o‘tkir masalalarni, ularni bartaraf etish yo‘llarini jamiyatning tomir urishini boshqalardan ko‘ra yaxshiroq biladilar. Ular o‘zlarining mehribonligi, yuksak mas’uliyat tuyg‘usi, mehnatsevarligi bilan barchaga o‘rnak bo‘la oladilar”** [1].

Darhaqiqat, ayollar oilani, jamoani, jamiyatni, millatni birlashtiruvchi kuch hisoblanadi. Ayolning ilmli bo‘lishi uning oilasi, farzandlari, qarindosh-urug‘lari va

qolaversa, butun jamiyatning ilmli, madaniyatli bo‘lishi uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Bu borada, xitoy faylasufi Konfutsiy aytgandek: “Erkak ilmli bo‘lsa – nari borsa bir kishi ilmli bo‘ladi, ayol ilmli bo‘lsa – millat ilmli bo‘ladi”[2]. Demak, qadimdanoq ayollarning ilmli, oqila, fozila bo‘lishidan butun jamiyat manfaatdor bo‘lib kelgan.

E’tirof etish joizki, oilaning ma’naviy rahnamosi – ayoldir, onadir! Donolar “Ayol bir qo‘li bilan beshikni, bir qo‘li bilan dunyoni tebratadi”, – deb aytganlari ayni haqiqatdir. Chunki, ayol oilada farzandlar tarbiyasi bilan shug‘ullanishi bilan birga, jamiyatda ham o‘z o‘rniga ega bo‘lmog‘i lozim.

Hadisi sharifdagi birgina “Jannat – Onalar oyog‘i ostidadir” degan hikmatda ayollarga bo‘lgan qanchadan-qancha hurmat ehtirom mujassam.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarining yetakchi ma’rifatparvarlari M. Behbudiy, A. Fitrat, A. Avloniy xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni borasida keng fikrlar bildirganlar. Masalan: Fitratning “Oila” asarida shunday fikrlar bor: “Biz farzandlarimizni yaxshi xulq egalari etib tarbiyalashimiz lozim, ya’ni shunday qilishimiz lozimki farzandlarimiz imonli, fidokor bo‘lib ulg‘ayib, o‘z bolalarini islom taraqqiyotiga muvofiq tarbiyalab, din va dindoshlarini halokat va xarobalik jarligidan qutqarsinlar. Bu matlabga erishish uchun xotinlarimiz va qizlarimiz – millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur” [3].

Mamlakatimizda ayolga bo‘lgan munosabat o‘z tarixiy ildizlariga ega. Ajdodlarimiz doimo ayollarni qadrlashga, ularga nisbatan hurmat, izzatda bo‘lishga da’vat etishgan. Ma’rifatparvar olim Abdulla Avloniy: “Qizlar bilim olishga hammadan ko‘proq intilishlari lozim, zero, bu bilimlar bilan ular kelajak avlodni tarbiyalaydilar”, [4] – deb yozgan edi. Darhaqiqat, yuksak ma’naviyatli va ma’rifatli, namunali odobi va tarbiyasi bilan e’tirof etilgan onalarimizning izdoshlari bugun davlat va jamiyat qurilishida, ishlab chiqarishda, ilm-fan, madaniyat, tibbiyot, ta’lim va xatto xarbiy sohada xizmatlari beqiyos.

Buyuk allomalarimiz jamiyatda insonlar o‘rtasidagi tenglik yurt rivojining asosi ekanligi to‘g‘risida bitiklarni meros qoldirishgan. Buning dalili sifatida qomusiy olimimiz Abu Rayhon Beruniy(973–1047) ning: “Tenglik va adolat hukm surgan joyda sotqinlik, aldamchi ehtiroslar va g‘am-g‘ussa bo‘lmaydi”, – degan hikmatli fikrini keltiramiz. Tarixiy manbalardan ma’lumki, buyuk sarkarda va davlat arbobi bo‘lgan Amir Temur (1336–1405) bobomiz ko‘p ishlarda rafiqasi Bibixonim bilan maslahatlashgan. Shu bois, jamiyat tayanchi bo‘lgan ayollarga e’tibor kuchaymoqda. Bugungi kunda barcha sohalarda yetuklikka erishib kelayotgan opa-singillarimiz chinakam To‘marislar avlodi ekanini alohida namoyish qilishmoqda.

“Buyuk bobokalonimiz Amir Temur bir necha yillik safarlarda bo‘lgan paytlari saltanat barqarorligini ta’minlashga Bibixonimning qo‘shgan hissasini eslasak fikrimiz

yanada asoslanadi”,[5] – deya ta’kidlaydi Z.Akromova Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Xalqimizda ota-onani oilaning qo‘sh utuni deb ataydilar. Biror sabab bilan bu ustunlarning biri qulasa, “Oila” deb atalmish muqaddas qo‘rg‘onning zalvori bitta inson uchun og‘irlik qiladi. Ayniqsa, qiz farzand tarbiyalayotgan onalar millat kelajagiga mas’ul eng katta tarbiyachilar hisoblanadilar. Zero, xalqimizda “Onasini ko‘rib, qizini ol” – degan naql bejiz emas. Oila – aslida kichik bir mamlakat. Oilada o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ayol, jamiyatda ham munosib o‘ringa ega bo‘ladi.

Milliy uyg‘onish davrining yirik mutaffakkirlaridan biri Yusuf Xos Hojibning ma’rifiy qarashlari, ma’naviy-axloqiy g‘oyalaridan keltirsak: ”Oila tarbiyasi bolaning jamiyatda munosib kamol topishini ta’minlaydigan omillardan biri bo‘lib, bola tarbiyasini yoshlikdan va milliy asosda boshlash kerak, ota-ona bunga befarq bo‘lmasligi lozim” [6: 33b].

Asrlar davomida oilaning mukammal bo‘lishida, uning funksional vazifalarida kamchilik bo‘lmasligi shart deb ko‘rilgan. Aks holda jamiyatda muayyan muammolar ko‘payishi hamda tartibsizlik, chigallik keltirib chiqarishi mumkin. Yana bir buyuk alloma Qur’oni Karim va Hadis ilmlarini mukammal egallab, fiqh islom huquqshunosligi borasida chuqur ilmga ega Burhoniddin al-Marg‘iloniyning huquqiy-ma’naviy, axloqiy qarashlarida: “Oilaning tinchligi, uning rohat-farog‘atli turmushi shu oilaning boshida turgan er-xotin o‘rtasidagi do‘stona munosabatga bog‘liq. Er-xotin totuv bo‘lib, birining ishi ikkinchisiga ma’qul bo‘lsa, birining topganini ikkinchisi ko‘paytirishga harakat qilsa, bu oilaga baraka kiradi. Ular uchun dunyo rohat uyi tinch bo‘ladi” [7: 35b], – deb ta’kidlangan.

Sharq mutaffakkirlari ijodida aks etgan umuminsoniy g‘oyalar islomiy ma’naviyat bilan hamohangdir. Oilada farzand tarbiyasi masalasi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy qarashlarida ham mavjud bo‘lib, quyidagi so‘zlari ibratlidir: “Zamondan yaxshiroq ta’lim beruvchi muallimni, insondan yaxshiroq ta’lim oladigan o‘quvchini ko‘rmadim” [8: 125b].

Ajdodlarimiz tafakkuri bilan yaratilgan barcha asarlar ma’naviy boyligimizdir. Buyuk allomalarning o‘gitlari hamda ma’naviy-axloqiy qarashlari barkamol avlodni tarbiyalashda asosiy mezon bo‘lib, oilaviy munosabatlar madaniyatida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. parliament.gov.uz

2.Konfutsiy “Sultonlarga nasihat risolasi” История китайской философии. –Moskva, 1989. -48 b.

3. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. -Toshkent: Ma’naviyat, 2020. -112 b.

4. https://mininnovation.uz/ru/news/post-372

5. Z. Akromova Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati “Ayol bo‘lish sharaf, o‘zbek ayoli bo‘lish yanada sharaf!” // O‘zbekiston ovozi -2020. 10 mar, 14-son.

Ravshanova Anora G‘ulom qizi,
O‘zDSMI magistranti
Ilmiy rahbar: p.f.n. dotsent T.D. Bayturaev

O‘ZBEKISTONDA AMIR TEMUR NASHRLARI BIBLIOGRAFIYASI

Annotatsiya. *Maqolada Amir Temur bibliografiyasining shakllanish integratsion jarayonlari o‘rganilgan bo‘lib, uning shakilantirishdagi faoliyatlar ochib berilgan. Qo‘lanmaning shaklanishida O‘zbekitondan qatnashgan yirik olimlarning bibliografik qo‘llanmaning nashrga tayyorlashdagi tahrir hayoti a’zoligi, masul muxarirligi va tuzuvchiligiga kiritilganligi o‘rganish orqali o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *shaxs, nashrlar, qidirish tanglash, tavsiya qilish, ilmiy –yordamchililik*

Аннотатсия. *В стате изучаются интегратсионные протсессы формирования библиографии Амира Темура, раскрываются мероприятия по ее формированию. Изучено, что в редаксионную жизн библиографического справочника, ответственного редактора и редактора были включены крупные ученые Узбекистана, принимавшие участие в формировании справочника.*

Ключевые слова: *человек, издатели, поисковая селекция, рекомендатсия, научная помощ.*

Amir Temur jahon tarixida qudratli va gullab yashnagan davlat barpo etgan buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatidagi darajasi doimiy izlanish olib borishga manba bo‘la oladi. Sohibqiron o‘z poytaxti bo‘lmish Samarqandni yer yuzining chinakam madaniy-marifiy va ilmiy-ma’naviy markazlaridan biriga aylantirgan. Bu ulug‘ zot qurdirgan me’morchilik va xalq san’atining javohirlari Samarqand shahridagi memoriy yodgorliklarda, mamlakatimizning boshqa joylardagi yodgorliklarida saqlanib qolgan.

Amir Temur bibliografiyasidagi adbiyotlar barcha kitobxonlar gurihlari foydalanishi mumkin bo‘lgan bibliografik qo‘lanma shakilida xizmat ko‘rsata oladi. Agar bu bibliografiyaga kiritilgan bazi bu davr bo‘yicha ilmiy kitoblari va maqolalarning avtorlari bo‘yicha faoliyatini chuqur o‘rganishni umumiy o‘rta ta’limdagi kutubxonalar faoliyati orqali o‘rganish va targ‘ibotini yo‘lga qo‘ysak bu davrni, buyuk shaxsning faoliyatini tushunish va hurmat qilish tuyg‘usini yoshlarda shakllantira olamiz. Bu esa yoshlardagi barkamollikning ularni shaxs sifatida shaklanishiga katta imkoniyat yaratadi.

Umuman Amir Temur bibliografiyasining shaklanishida integratsion jarayonlarning ham keng amalga oshirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Qo‘lanmaning shakilanishida O‘zbekitonda bu davrni o‘rgangan yirik olimlarning bibliografik qo‘llanmaning nashirga tayyorlashdagi taxrir hayoti a’zoligi, masul muxarirligi va tuzuvchiligiga kiritilganligi o‘rganish orqali baxolashimiz mumkin. Umuman bibliografik faoliyat juda kerakli faoliyat turi bo‘lishi bilan birga soha mutaxasislarining bibliografik qo‘llanmalarning mukammalligini, uning kitobxonlarining doimiy o‘sib

borishida qo‘lamaning adabiyotlarini mavzu bo‘yicha qidirgan, tanglagan, ajratib olib bibliografik ro‘yxatga kiritgan mutaxasislarning ishtiroki muhim axamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

“Amir Temur. Bibliografiya. Birinchi kitob” nomli ilmiy yordamchi retrospektiv bibliografiyasini nashrdan chiqardi. Bu bibliografik ko‘rsatkich asosan mutaxasislarga, tadqiqodchilarga va albatta keng kitobxonlarga muljalangan bo‘lib, shu davirgacha Temur va Temuriylar davri bo‘yicha nashir qilingan nashirlarning tilidan, chiqish joyidan qat’iy nazar to‘liq bibliografiyasini berishga harakat qilingan. Bibliografiyada asosiy masalalardan biri bu adabiyotlar ro‘yxatining maqsadi va kitobxonlik doirasini aniqlash bo‘ladi deb xisoblaymiz. Bu maqsad va kitobxonlik doirasini to‘g‘ri tangalash bibliografik ro‘yxatning kelajakdagi hayotini, unga bo‘ladigan murojatlarni, undan qanday va qancha foydalanishini mumkinligini belgilay oladi deb xisoblaymiz.

Adabiyotlarni bunday joylashtirish davr bo‘yicha, tarixiy shaxs bo‘yicha, uyg‘onish davri bo‘yicha qanchalik to‘g‘riligini ilmiy tahlil qilgandagini birorta xulosaga kelish mumkin. Endi bir tomondan mutaxsis kitobxon, davr bo‘yicha ilmiy ishlarni olib borayotgan tadqiqodchilar uchun adabiyotlarni bunday joylashishi qidirishda ancha vaqtini sarflashga olib kelishi mumkin. Agar adabiyotlar mazmuni bo‘yicha joylashtirilganda unda har bir tadqiqodchi o‘zining mavzusiga oid bo‘limdagi nashr bilan ishlagan bo‘lardi.

O‘zbekistonda va johonning qator mamlakatlarida Amir Temur nashrlari va u haqidagi adbiyotlar bibliografiyasi tuzilishga bir qancha xarakatlar qilingan.Uning va u xaqidagi adbiyotlar bibliografiyasining nashrga tayyorlanishi bu buyuk shaxsning tarixdagi o‘rnini ko‘rsatish bilan birga uning davrini o‘rganuvchi tadqiqodchilarga yo‘l ko‘rsatkichlar shaklida nashrga tayyorlangan.

Shuningdek bibliografiyada turli tarixiy davrlarda, turli mamlakat va tillarda Amir Temur faoliyatiga va uning davridagi turli moddiy, manaviy masallarni o‘rgangan nashrlarning bibliografiyasi berilgan. Qo‘llanmada adbiyotlarni joylashtirish bu shaxsga tegishli huquqiy nashrlar mamalakat raxbarining nutqlardagi esga olingan nashrlar va undan keyin Amir Temur haqidagi o‘zbek tilidagi nashrlar avtorlarning yoki sarlavhalarning alfaviti bo‘yicha joylashtirilgan. Birota avtorning bir nechta va har xil yillarda chiqarilgan nashrlari bibliografiyaga kiritilgan bo‘lsa adabiyotlar oxirgi chiqarilgan maqola yoki kitobidan o‘tgan davirga qarab joylashtirilgan. Bunday bitta avtorning kitoblari, maqolalarini bibliografiyada ko‘p uchratishimiz mumkin. Bunday nashrlar orqali kitobxonlar, tadqiqodchilar, mutaxasislar mamlakatimiz olimlaridan kimlar qanday mavzuni o‘rgangshanligni, chet ellik olimlardan qimlar bu davr va bu shaxs faoliyatini o‘rganganligini bilib olishlari mumkin. O‘zbek tilidagi nashrlar to‘plangan bo‘limida respublikamizda nashir qilingan kitoblar, maqolalarning bibliografiyasi berilgan.

Bibliografiyada mavzu bo‘yicha adbiyotlarni qidirishda bibliografdan soha bo‘yicha bilimni, qiziqishni, fidoiylikni talab qilgan bo‘lsa kerak. Bibliografiyani shakilantirgan jamoada bu talablar to‘liq bo‘lganki shunday ilmga, vatanparvarlik, komilikni tarbiyalay oladigan ilmiy yordamchi bibliografik qo‘llanmani shakilantira olganlar bo‘lib, qo‘llanmani mamlakatdagi barcha kutubxonalarga yetib borishiga erishishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amir Temur bibliografiyasi. B. Ahmedov, B. Qosimov, I. Niyazov, B. Bannopov, M. Zikrullaev, Y. Muhammedov. Markaziy Osiyoni tadqiq qilish Fransuz Instituti. Toshkent, 2003. – 114 b.

2. Bayto‘raev T. D. “Mintaqa san’ati tarixini o‘rganuvchi ilmiy yordamchi bibliografiya”// Kutubxona.uz №3 (51) 2021 24-28.

3. Bayto‘raev T. D. Vestnik “Bibliografiya izdaniy G.A. Pugachenkovoy kak istochnik kravedcheskoy bibliografii” №2 (47) 2021 170-174.

4. Bayto‘raev T. D. Vestnik “Bibliogafiya Babura i Baburidov” №3 (48) 2021 172-176.

Ravshanova Mahliyo Shokir qizi,
O‘zDSMI magistranti

ZAMON QAHRAMONI – O‘ZBEK ZIYOLISI

Annotatsiya. *Ushbu maqola dramaurg Qo‘chqor Norqobil qalamiga mansub “Quyoshni sen uyg‘otasan” nomli spektakl va undagi aktyorlar ijrosi haqida so‘z boradi*

Kalit so‘zlar: *teatr san’ati, dramaturgiya, spektakl, aktyor, ijro.*

Abstract. *This article is about the play "Quyoshni sen uyg‘otasan" written by dramaturg Kochkor Norqabil and the actors' performance in it.*

Key words: *theater art, dramaturgy, performance, actor, performance.*

O‘zbek oilasi deganda ko‘z oldimizga ko‘p sonli farzandlarga burkangan, ularga bosh bo‘lib yuqorida o‘tirgan ota, unga yilkadosh bo‘lgan kuyinchak ona timsoli gavdalanadi. Ayniqsa, o‘zbek oilasida otaga bo‘lgan hurmat, otaga bo‘lgan ishonch cheksizdir. Oilani bir uy deb olsak, erkak uning ustuni. Oilaning har biri unga suyanadi, undan madad kutadi. Lekin hozirgi kunda o‘zining vazifasi naqadar muhim ekanligini anglamay, mo‘may daromadni ko‘zlab, o‘zining ahli–ayolini yolg‘iz qoldirib, ularning nomusini garovga qo‘yib uzoq vaqtga chet ellarga ketayotganlar uchraydi. Ular o‘zlari qoldirib ketayotgan zaifalarning dardlarini tushunmay, yaqinlarining yuragini o‘rtab bo‘lsada, chet ellardan keladigan mo‘may daromadlarni ko‘zlayotgan ayrim nozik munosabatlarning erta barham topishiga olib kelyapti. Lekin o‘sha joydagi foyda hammaga ham nasib etayotgani yo‘q. O‘z vatanida qo‘lidan bir ish kelmagan odam, u yerda tilladan saroy qurarmidi? Axir, hamma joyda xo‘roz bir xil qichqiradiku. Ular u yerda ham omadsizlikka uchrab, xor–zorlikda qolishsa, ishsiz, makonsiz yo kimgadir qaramlikka tushib qolsa, bundan eng ko‘p aziyat chekadigan kim? Uning yo‘liga ilhaq bo‘lib turgan ayol, yuragini hovuchlab kutib turgan volidasi, jujuq farzandlari emasmi? Axir oilaning boshi bo‘lmagach, farzandlarning oshi bo‘lmagach ayol nima qilsin? Aqlli ayol o‘zi harakat qiladi, o‘z quyoshini topib, o‘z atrofini yoritadi. Aksincha bo‘lsa tarqalmas qora bulutlar uning boshida azob yomg‘irini sochadi.

Milliy Akademik drama teatrida sahnalashtirilgan dramaturg, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Qo‘chqor Norqobil, rejissyor O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Valijon Umarovning “Quyoshni sen uyg‘otasan” nomli spektaklida ham mana shu mavzu ko‘tarilgan. Mehnatkash, vafoli, shuning bilan birgalikda tadbirkor, adolatsizlikka mute bo‘lib emas, balki unga qarshi tura oladigan ayol obrazi. Umuman badiiy ijodda ayol obrazini yaratib, uni zamon qahramoni sifatida birinchi planga olib chiqish, uni sahna qonuniga solib harakatga solish ijodkordan yuksak mahoratni talab qiladi. Buning ustiga qahramon bugungi kuning ayoli ekan, biz uni

atrofimizdan topa olishimiz, ya’ni biz unga shubha qilmasligimiz kerak. Zamon qahramoni deb ko‘targanimiz quruq skeletdan emas, jonli, hayotiy bo‘lmog‘i kerak. Uning har bir so‘zida, har bir harakatida bugungi kunning nafasi gavdalanishi zarur, aks holda u qahramon bizni ishontirolmaydi, nazarda tutilgan g‘oyalar sari bizni boshlay olmaydi. Lekin dramaturg Qo‘chqor Norqobil o‘z qahramonini uzoqdan izlamagan. Uni shunchalik quruq qahramon sifatida ham olib chiqmagan, uni ko‘pchilikning orasidan axtarib, bor – boricha gavdalantirishga harakat qilib ko‘rgan va buning uddasidan chiqqan deya olamiz.

Parda ochilishi bilan ko‘z oldimizda, sahnada shovqin-suronli vokzal, undagi har tomonga intilayotgan yo‘lovchilar namoyon bo‘ladi. Rossiyaning sovug‘idan himoyalanish uchun qalin kiyimlar kiyib olgan ayol va erkak ko‘rinadi. Ular o‘rtasidagi dramatizm asta-sekin oydinlashib boradi. Shabnam (Dilnoza Kubayeva), Rossiyada besh yildan beri ishlab, uyga bir marta ham pul yubormagan eri Qodirni (Tolib Mo‘minov) olib ketish uchun kelgan. Lekin erining ketgisi yo‘q. Shabnam eriga qanchalik qaytishining zarur ekanligini tushuntirmasin Qodir bunga unamaydi. Barbod bo‘lgan ishini kimlargadir tayanib tiklashini aytadi. Shunda qat’iyat bilan Shabnam “bir kun kelib sizga bu yerlarda umringizni bekorga o‘tkazyotgangizni isbotlayman” – deya ortga qaytadi.

Shabnam (Dilnoza Ko‘bayeva) o‘z kuchiga ishongan aqlli, mehnatkash ziyoli ayol. U bu dunyoga boshqacha ko‘z bilan qaraydi. U oilaga muhabbatni, sadoqatni, sevgini qadrlaydigan irodali juftihalol. Shuning uchun ham u muhabbati uchun shahar hayotidan biz doim yashash qiyin deb o‘ylaydigan qishloqqa kelgan. Qishloqda ham yaxshi imkoniyatlar yaratish mumkin ekanlgini, bu odamning o‘ziga bog‘liqligini turmush o‘rtog‘i bilan ko‘rsatmoqchi edi. O‘zining ziyoli inson ekanligini bildirishi kerak edi/ Barcha sharoitlarni naqd qilib qo‘ygan ota–onasiga shuning uchun ham qarshi chiqqan, natijada ular undan vos kechgan edilar. Lekin Shabnam o‘z maqsadidan ortga chekinmaydi, orzu qilishdan to‘xtamaydi, u bir kuni hammasi yaxshi bo‘lishiga ishonadi. Lekin doim ham hayot biz ko‘zlagan tomonga burilavermaydi. U ishongan eri uni, jondan aziz qizini, onasini zor qaqshatib uzoq shaharga ketadiyu, ortga qaytishni o‘ylamaydi. Shabnam qanchalik qiyin bo‘lmasin oldinga qarab harakat qiladi. Yomonlarning iskanjasiga tushmay, qaynonasini, qizini birovga xo‘rlatmay ularni boqish uchun tinim bilmaydi. Sahnada uni ijro etgan aktrisa Dilnoza Kubayeva ijrosida u yanada jonli gavdalantirilgan. Qaynoq yurak ila ijro etilgan rol, bizga Shabnamning dardlarini anglashga ko‘mak bo‘lib xizmat qiladi. Aktrisaning har bir nafasidan qahramoniga tegishli iroda, iztirob ko‘rinadi. Aktrisa umuman olganda o‘sha on Shabnam bo‘lib yashay olgan. Uning bu ijrosi dramaturg Hayitmat Rasul shunday fikrlarni bildirib o‘tdi: “Dilnoza Kubayevaning bu roli o‘ta tabiiy chiqqanligi bilan ajralib turadi. U kuchli, irodali tadbirkor ayol obrazini gavdalantira olgan. Bundan tashqari aktrisa partnyorlar bilan o‘ta jipslikni ushlay bilgan. Uning qaynoq ijodi boshqa

aktyorlarning rollariga ham ta’sir qilib, obrazli chiqishi uchun bir ilig‘lik bo‘lgan”. U erining ortga qaytmaganidan o‘kinsa-da, qaynonasi Oydin momoning (aktrisa, Gulchehra Ibrohimbekova) bir nechalab «Ketaver men sendan roziman» – deyishiga qaramay u maqsadidan ortga chekinmaydi. Niyatlari sari dadil qadam tashlaydi. U besh yil iqtisod sohasida o‘qigan ziyoli. Shuning uchun biznes reja tuzadi va uning amalga oshishi uchun kuyib yonadi. Uning ishlari xuddi sehrgarning tayog‘i tekkandek birdan rivoj otib ketmaydi. Qiyinchilikka uchraydi, ayrimlar uning ayolligidan foydalanib, nafsini qondirmoqchi bo‘ladi. Ishi necha oylab kimlarningdir xonasida ko‘rilmay chang bosib yotaveradi. Lekin bular uning irodasini buka olmaydi. U maqsadiga yetmagunicha tinmay harakat qiladi.

Spektaklda Shabnamning qaynonasi Oydin momo rolini ijro etgan Gulchehra Ibrohimbekova ham o‘zining yarattgan obrazi bilan yuksak e’tirofga sazovordir. U ona, farzandini o‘ylab, uning kelmay qo‘yganidan, oilasiga bosh-qosh bo‘lmayotganidan qattiq o‘kinadi. Tarbiyada qanday kamchiliklarga yo‘l qo‘yganligi haqida o‘ylayverib yarimjon bo‘lib qolgan, besh yildan beri har kuni yo‘lga qarayverib bir ko‘zi o‘tmay qolgan. Lekin adashgan o‘g‘lini qaytarish uchun xotini borsada, uning ortga qaytmaganidan qattiq azoblanadi va butunlay ko‘z nuridan ayriladi. Spektaklda aktrisa kuchli dard ila harakat qilib o‘z qahramonining murakkab ruhiyatini ochib bera olgan. Spektaklda Oydin momo va uning qo‘shnisi Chori bobo (Q. Abdurahmonov) tilidan aytilgan o‘tgan ittifoq davri illatlari, u paytdagi qiyinchiliklar bizni hozirgi kunimizning qadriga yetishga chaqiradi.

Choribobo: …Esingdami, enalarimiz xirmon boshga yetaklab borardi. Otalarimiz urushda, biz och. Orif rais rahmatli enamga, qishloq ayollariga aytarkan, xirmonga shu o‘zlaringa, ham bolalaringa ham oyoqlaringa nisbatan ikki-uch razmer katta kalish kiyib kelinglar, bolalaring o‘zlaringning kalishlaringni kiysin derkan… Sababi katta kalish bilan xirmon oralasang, kalish ichiga don kirib qolarkan. Uyga qaytayotganda birov tekshirib o‘tirmaskan… O‘sha kalishlarda qolgan donni enalarimiz dastur xonga to‘kib, bola-baqraga qurmoch qilib berarkan. He.. ne zamonlar o‘tida. Xudoga shukur bugun to‘kin- sochinlik…Faqat osonni osti, yengilning ustidan o‘tmay ishlash kerak…

Oydinmomo: Shunga kuyaman-da… Uyingda imkoning bo‘la turib, alla qayerlarda izg‘iganing nimasi?

Lekin shuncha berilgan imkoniyatlardan foydalanmay, aksincha uni suiste’mol qilayotganlar obrazi ham spektaklda qora bo‘yoqda ko‘rsatiladi. Yo‘ldosh (Aktyor, Abor Saynazarov), qishloqda qurilgan zamonaviy sport maktabining kattasi. U yoshlarning u yerda kuchli sportchi bo‘lishini emas, balki o‘z nafsi, hamyoni to‘lishini istaydi. YA’ni «Taka bo‘lsa, sut bersin» – deydiganlardan. U Shabnamga o‘zini homiy qilib ko‘rsatib, uning visoliga yetishni xohlaydi. Shabnam uning yo‘rig‘iga yurmagandan so‘ng, alamini uning navnihol, buning ustiga kelajagi bor sportsevar qizidan oladi. Ya’ni uni musobaqa ro‘yxatidan chiqarib tashlaydi. U bilan Shabnamni

jazolamoqchi, bo‘ysundirmoqchi bo‘ladi. Lekin Shabnam hech pastlikka bormaydi. Qizini Shahar sport to‘garagiga qo‘yib, qiyin bo‘lsada birovga yalinmay o‘z yo‘lini topishga intiladi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, u qotib qolgan jussa emas, u ham bir ojiz odam. Yechib bo‘lmas chigalliklar oldida goho nochor qolib yig‘laydi ham, o‘zini qiynaydi ham. Lekin u erini biror marta ham yomon otliq qilmaydi, uni qarg‘amaydi. Chidaydi, sabrli bo‘lib hammasi yaxshi bo‘lishi uchun harakat qiladi. Oxiri, uning ishi yaxshi odamlar tomonidan, ko‘rib chiqilib, tasdiqlanadi va unga mablag‘ ajratishga qaror qilishadi. Bundan osmonlarga sapchiydi, nimagadir erishyotganidan xursand bo‘ladi.

Spektaklda Shabnamning eri Qodir (Tolib Mo‘minov) katta ahamiyatga ega. Rossiyaga shaharlik xotini birovdan kam bo‘lmasin deb qarz- qurs qilib ketgan, lekin u yoqdan restoran ochaman deb yiqqan barcha pullaridan ayrilib qolgan, buning ustiga birovga qaram bo‘lib besh yildan beri xotin, bolachaqasini ko‘rishga ham borolmayotgan odamning murakkab ruhiyatini ochib berish iste’dodli aktyordan kuchli mehnatni talab qilardi. Bu qahramonni talqin etgan aktyor Tolib Mo‘minov o‘z rolini mohirlik bilan ijro eta olgan deya olmaymiz. Vaholanki bu aktyorning turli xarakterli qahramonlarni o‘ynay olishini bilamiz. Lekin bu spektaklda unga katta o‘rin berilgan bo‘lsada, uni to‘la jonlantira olmaganini ko‘ramiz. Aksincha pyesadagi Qodir, sahnadagi Qodirdan jonliroq harakat qilgan desak xato bo‘lmaydi. Lekin bosh qahramonning qaynoq ijrosi spektakl salmog‘iga buning ta’sir qilishiga yo‘l qo‘ymagan.

Qodir kelib onasining qanday ahvolga tushib qolganini ko‘rib o‘zi bu yerga nima uchun yuborilganini ham unutadi. Boshqacha bo‘lish mumkin ham emas. Axir ona uning dardida so‘qir bo‘lib qolgan, oila azob chekmoqda. U endi boshqa manfaatni o‘ylay olmaydi. Lekin onasining qoshiga borishga yuragi betlamaydi. Qizining, ayolining ko‘zga qanday ko‘rinishga qo‘rqadi va qattiq iztiroblar changalida qoladi. Shunda unga yana Shabnam quyoshi ilig‘lik bag‘ishlaydi. Shabnamning kechirishi, qizining chempion bo‘lishi unga kuch beradi, jur’at beradi.

Ona bilan o‘g‘ilning ko‘rishish sahnasi ham rejissyor va ijodkorlar tomonidan o‘ziga xos namoyish etilgan. Ona qaytib kelgan o‘g‘ilni bag‘riga bosadi. Yig‘lay-yig‘lay uning orqasiga urib-urib o‘zicha jazolagandek bo‘ladiyu lekin uni quchib o‘kinib – o‘kinib yig‘laydi. Barcha farzandini sog‘ingan onalar kabi o‘g‘liga, uning mehr qaynog‘i cheksiz edi. Ojiz ko‘zlari bilan yuzlarini silab, o‘g‘lining diydoriga to‘yayotganini tomoshabinga singdira olgan. Farzandi ham unga tiz cho‘kib, onasining yuziga qarashga yuzi chidamay onaning oyoqlarini quchib yig‘laydi. Sahnada esa sokin musiqa yangraydi.

Spektakl musiqalarni bastalagan bastakor – O‘zbekiston san’at arbobi Alisher Rasulovning asar ruhiga xos ohanglar tanlay bilgani bilan ahamiyatga molikdir. Bu ohanglar goho bizni uzoq surxon bo‘ylariga yetaklasa, goho inson ichki manzarasini anglashga chaqiradi.

Dildoraning chempion bo‘lganini eshitib butun mahalladan odamlar yig‘ilib bayram boshlab yuborishadi. Chunki ularning qishlog‘idan ham chempion chiqqandida.

Spektaklning finali juda ajoyib, betakror berilgan. O‘sha payt teatrning qanday uyg‘unlik san’ati borligiga amin bo‘lasiz. Ya’ni musiqa, chiroqlar, raqs, rassomlik ishlari o‘ta go‘zal manzara kasb etgan va sahnaga yog‘du olib kirgandek bo‘lgan. Ayniqsa, sahna dekaratsiyasi O‘zbekiston san’at arbobi Shuhrat Abdimalikov tamonidan betakror yaratgan va eng muhimi asarning umumiy g‘oyasiga xizmat qilgan. Spektakl boshlangandan buyon to‘pto‘p qilib bog‘langan arqon ipaklari yechilib, ularga ishlov beruvchi qizlar namoyon bo‘ladi. Ular dastgohlarni harakatga keltirib mato to‘qiy boshlaydilar. Asta sekin yuqoridan ular to‘qigan turli matolar ko‘rinadi. Ularning rang-barangligi esa ko‘zimizni qamashtiradi. Turli milliy matolarimiz qadimiy dasgohlarda ishlab chiqarilib, o‘ziga xos tarzda gavdalantiriladi. Shabnamning loyihasi ishga tushgan, ya’ni u quyoshni uyg‘otgan edi. Spektakl shunday nurli yakunlanadi va bizni beixtiyor qo‘limizdan kelguncha vatan uchun xizmat qilishga, hech qachon bukilmaslikka, yangilikkka intilishdek ulug‘ g‘oyalarga chorlaydi. Spektakl oxirida tuman hokimi Zamon Ashrafovichning (Aktyor, Mehriddin Rahmatov) tilidan mana bu olovli so‘zlar yangraydi: «Bizga hech kim hech qachon tashqaridan kelib biz xohlaganimizchalik hech narsani yaratib, bunyod etib bermaydi. Biz nimaga erishsak, o‘z kuchimiz bilan erishamiz. Aql – idrokimiz bilan, mehnatimiz bilan erishamiz. Chunki vatan biz bilan! Biz o‘z uyimizni obod qilsak, demak vatanimizni obod qilgan bo‘lamiz».

Ha, har bir insonning o‘z quyoshi bor, uni uyg‘otish esa o‘zimizning qo‘limizda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yangi O‘zbekiston strategiyasi SH.M.Mirziyoyev.-Toshkent:”O‘zbekiston” nashriyoti 2021 yil.16-bet
2. Falsafa: ensiklopedik lug‘at. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti,
2010.
3. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashr,1993.
4. Ignatenko A.A. Ibn–Xaldun. – Moskva: “Misl”. 1980.
5. Is’hoqxo‘ja Ibrat. Tarixi madaniyat // O‘zR FA Sharqshunoslik instituti, qo‘lyozmalar fondi. inv. № 10117. To‘raqo‘rg‘on, 1925. – 109 varaq.

Ro‘ziyeva Zuxra Murotovna,
O‘zDSMI Farg‘ona mintaqaviy filiali talabasi
Ro‘ziyeva Fotima Murotovna
O‘zDSMI talabasi

IS’HOQXON TO‘RA IBRAT ILM-FAN, SAN’AT VA MADANIYAT HOMIYSI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jadid ma’rifatparvari Is’hoqxon to‘ra Ibratning qisman hayot yo‘li, noshir, olim, shoir, tilshunos, san’at va madaniyat arbobi shuning bilan bir qatorda sayyox, muallim, matbaachi sifatida serqirra ijodiy faoliyati, yosh avlodni zamonaviy dunyoviy ilmlar asosida savodli qilishda, yurtdoshlarini dunyo mo‘jizalaridan yangiliklaridan boxabar qilish haqida, yangilikka, komillikka yetaklashi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *kutubxona, kitob, gazeta, ilm, san’at, madaniyat,_kinoapparat*, *fotoapparat, litografik, tanbur*, *jadid*.

Annotation. *In this article, the life path of the modern enlightener Ishaq Khan Tora Ibrat, publisher, scientist, poet, linguist, art and culture figure, as well as tourist, teacher, printer, creative activity, young generation modern it is said to make them literate on the basis of worldly sciences, to inform their compatriots about the news of the wonders of the world, to lead them to innovation and perfection.*

Key words: *library, book, newspaper, science, art, culture, film camera, photo camera, lithographic, tanbur, jadid.*

O‘zligini anglagan millat buyuk ajdodlari ko‘targan yuksak g‘oyalar asosida tarbiya topadi va ularni boy ilmiy merosidan bahramand bo‘lib, ular boshlab bergan shonli yo‘lni davom ettiradilar. Buyuk tarix guvohlik beradi-ki, ona zaminimizdan yetishib chiqqan va dunyo ilmiga o‘z hissasini qo‘shgan Abu Ali ibn Sino, Ahmad al Farg‘oniy, Imom al Buxoriy, Al Hakim at Termiziy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy va Mirzo Ulug‘bek kabi qomusiy olimlar qatorida XX asr boshlarida ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan jamiyatda yangi bir davrni boshlab bergan jadid allomalari qatorida shoir, sayyox, olim, muallim, matbaachi Is’hoqxon to‘ra Ibrat nomini alohida e’tirof etmoq joiz.

Is’hoqxon Ibrat 1862 yil Qo‘qon xonligidagi Namangandan uzoq bo‘lmagan To‘raqo‘rg‘on qishlog‘ida tug‘ilgan. Boshlang‘ich ma’lumotni mahalliy madrasada hamda onasidan olgan. Keyinroq, Qo‘qonga ko‘chib o‘tib, katta madrasaga o‘qishga kiradi. 1886 yil Qo‘qon madrasasida o‘qishni tamomlab, ona qishlog‘iga qaytadi. O‘z qishlog‘ida Ibrat aholi orasida ma’naviy faoliyatini boshlaydi. Yil oxirida u boshqa maktablardan o‘qitish tizimi bilan sezilarli darajada farq qiluvchi maktab ochadi. Keyinchalik maktab barchaning e’tiboriga tushib, boshqa mahalliy maktablar ham Is’hoqxon Ibratning yangi uslubdagi o‘qitish tizimiga o‘tadi. Is’hoqxon Ibratning ta’biri bilan ayganda: “**Maktab bo‘lmasa, bu olamda madaniyat joriy bo‘lmaydi. Dunyo**

ishi uchun ilm kerak". Buning isboti o‘laroq yangi uslubdagi maktablarning qattiq tarafdori bo‘lgani va ularning soni ko‘payishi uchun kurashgani ayni haqiqat.

Uning milliy kutubxona, kitobxonlik ishlarining ilk tashkilotchisi targ‘ibotchisi sifatida ham xizmatlari beqiyosdir. U asos solgan "**Kutubxonai Is'hoqiya**" fondi bu jihatdan ancha boy bo‘lib, unda kitob berish va olish ma'lum tartib qoidalarga moslashgan edi. Ana shu kutubxonada "Turkiston viloyatining gazetasi". "**Turkestanskiye vedomost**" gazetalarining ba'zi bir boylamlari "**Tarjumon**" gazetasining hatto 1885-1886 yilgi boylamlari (to‘liq bo‘lmasada) ham bo‘lgan.

Ibrat arxividagi u darajada to‘liq bo‘lmagan parokanda kitoblar ro‘yxati shuni tasdiqlaydiki, kutubxonada ta'lim-tarbiya va o‘qitishga oid o‘zbek, rus, tatar, turk, arab, fors-tojik tillarida ko‘plab kitoblar bo‘lgan, ulardan nafaqat o‘zi, qishloq aholisi unumli foydalangan. Is'hoqxon Ibrat o‘z maktabi o‘quvchilarini kutubxonada saqlanuvchi kitoblar, darsliklar bilan ta'minlagan.

Kutubxonaning maktab o‘quvchilariga bag‘ishlangan bo‘limida S.Saidazizov, Munavvarqori, A.Avloniy, M.Behbudiy, I.Gasprinskiy,S.Gramenitskiy kabi pedagoglarning ellikdan ortiq darslik va o‘quv qo‘llanmalari bir necha nusxada, ta'lim-tarbiyaga oid yuzlab noyob kitoblar bo‘lgan. Ibrat kutubxona a'zolarining kitob olish va o‘qib bo‘lgach, uni topshirish daftarini ham joriy qilgan, a'zolarning, ayniqsa, yoshlarning kitob o‘qishlarini mutafakkirning o‘zi nazorat qilib borgan, maosh olib ishlovchi kutubxonachi tayinlagan. Afsuski, bir necha ming kitob, qo‘lyozmalar, gazeta va jurnallar boylamlarini o‘z ichiga olgan ushbu noyob kutubxona sho‘ro hukumatining dastlabki 1917–1920-yillar inqilob deb atalmish ur-yiqitlarida talon-toroj qilindi, ayniqsa, 1937-yil mash'um qatag‘onida butunlay yo‘q qilindi. Faqat mazkur kutubxonada to‘plangan kitoblar, qo‘lyozmalar hamda gazeta va jurnallar boylamlari ro‘yxatigina uzuq-yuluq holda saqlangan. [1:120-121]

San'at va madaniyat xomiysi, ixlosmandi bo‘lgan, Is'hoqxon Ibrat nafaqat san'at shaydosi bo‘libgina qolmay, musiqa san'ati asboblaridan tanburni juda yaxshi chalar edi. Mashhur Mo‘lla To‘ychi Toshmuhamedov bilan ham yaqin do‘st bo‘lgan. U chet ellardan bir qancha madaniyat ashyolari: turli mavzularda va tillarda bitilgan qo‘lyozma va bosma kitoblar, Hindistondan rus va Yevropa kompozitorlarining asarlari yozilgan "Santur"[1] nomli musiqa asbobi, bir qancha plastinkalar bilan grammofon olib keldi, hamqishloqlariga namoyish qilgan. Bundan tashqari Peterburg, Moskva, Orenburg va Ufa shaharlari sayohatidan litografik mashina bilan birga kinoapparat (sinematograf), fotoapparat, sovutgich (xolodilnik) kabi madaniyat va ilm-ma'rifat ashyolari ham olib keladi: qishloq aholisini o‘z bog‘iga, ba'zan hovlisiga bir necha bor yig‘ib, bu shaharlardagi madaniyat, maorif va xalqlarining turmush tarzi haqida ma'ruzalar, suhbatlar uyushtirar, kinofilm namoyish etar, hamqishloqlarining rasmini olib, ko‘plarga rasm olishni o‘rgatar edi, ba'zi suratlar shu kunlargacha saqlanib qolgan. [3]

U jamoat arbobi sifatida otasidan qolgan besh tanob yerda xalq uchun istirohat bog‘i yaratib, toshdan katta hovuz va o‘rtasiga favvora qurdigan, 150 tup archa va manzarali daraxtlardan xiyobon barpo etgan, Is’hoqxon to‘ra Ibrat Yevropa usulida katta imorat qurdirib, arkiga “Xushkelibsiz, Is’hoqiya bog‘iga!” deb yozib qo‘yadi, maxsus bog‘bon ham tayin etadi. Is’hoqxon Ibrat chet el sayohati davomida Istanbulda onasi Huribibi bilan farahbaxsh “**Millat bog‘i**”da dam oladilar, uzoq suhbatlashadilar. Ana o‘sha paytlarda unda xalq uchun mana shunday istirohat bog‘i tashkil etish fikri paydo bo‘lgan bo‘lsa, neajab. Bu bog‘ni qishloq aholisi 1960-yillarda ham “**Is’hoqiya bog‘i**” , “**Gulbog‘**” deb eslar edilar**.** Mutafakkir bu bog‘ni xalq uchun yaratganligini yana shundan ham bilishimiz mumkinki, bog‘ning soya-salqin joylariga o‘ltirib dam olish va 5 -6 kishi bo‘lib suhbatlashish uchun shiyponchalar, o‘rindiqlar, skameykalar yasattirdi, bog‘da dam oluvchilarga, ayniqsa, yoshlarga, bolalarga qarata gullarni behuda uzmaslikka, tartib-intizomni saqlashga chaqiruvchi didaktik she’riy misralarni chiroyli taxtachalarga yozib, gulzorning ma’lum joylariga qadab qo‘ygan. Mana, o‘sha she’rlardan ba’zi bir namunalar:

Uzmagil behuda gul, bog‘bondin andesha qil,
Ori-ori, gul uzarsan, xoridin andesha qil.
Kim ki keldi bu chamanga, to gul u zma y qo‘ymadi,
Lek har vaqt gul uzarsan, xalq xushini pesha qil.

Yoki:

Beijozal gulni uzma, boadab,
*So‘ra bog‘ bondin, senga qo‘ydim qadab***.** [1: 125]

Is’hoqxon Ibrat lirik shoir sifatida ham qalam tebratgan. Uning “**Sahar vaqti chaman ichra**” va “**Xush keldingiz**” radifli g‘azallari alohida tahsinga loyiq. Ushbu g‘azallardagi sifatlash o‘xshatishlar sodda va samimiydir. Ibrat lirikasida til, badiiy tasvir vositalari e’tiborga sazovordir. [3:30]

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, ma’rifatparvar jadidlar xayoti va ularning ijodi borasida targ‘ibot tashviqot ishlari mutassil olib borilishi, ularning ilm ma’rifat yo‘lida jon berganlari behudaga emasligi, ibratli so‘zlari, ular amalga oshirgan ilmiy izlanishlar, yozgan adabiyotlari bizgacha yetib kelgan va yetib kelmagan manbalarning ro‘yxati va bibliografik ko‘rsatkichlari tuzib borilishi, keng kitobxonlarga yoshlar ongiga ilm olish yo‘lida bor kuch-g‘ayratlarini ayamasliklari va bu ertami kechmi albatta o‘z mevasin berajagini bot-bot singdirib borish maqsadga muvofiq deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dolimov, Ulug‘bek.Jadidlar. Is’hoqxon to‘ra Ibrat [matn]: risola/U.Dolimov.-Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.-180b.

2. Is’hoqxon Ibrat. Tanlangan asarlar. – Toshkent:Ma’naviyat”, 2005.

3. "Millat fidoyilari" ko‘rsatuvi "O‘zbekiston tarixi" telekanali/ https://youtu.be/N9-iIQpWoS8?si=CkmwmgHPJwvy_Hk4

Samiyev Baxtiyor Norbobo o‘g‘li,
O‘zDSMI talabasi

ABU NASR FOROBIYNING DAVLAT BOSHQARUVIGA DOIR IJTIMOIY-SIYOSIY QARASHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, Sharq mutafakkirlari orasida “Sharq Arastusi” nomiga sazovor bo‘lgan Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug‘ Tarxon Farobiyning davlat va jamiyat boshqaruviga oid ijtimoiy, siyosiy va falsafiy qarashlari hamda hikmatli so‘zlari haqida so‘z boradi. Undan tashqari Farobiyning asarlarida keltirilgan rahbarlik fazilatlari va xislatlari haqida ham ma’lumotlar keltirilib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Davlat, jamiyat, ijtimoiy tizim, boshqaruv, huquqiy va siyosiy ong, falsafa, qonun, adolat.*

Abstract. *This article talks about the social, political and philosophical views and wise words of Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug Tarkhan Farabi, who was called the “Aristotle of the East” among Eastern thinkers. In addition, information about leadership qualities and qualities mentioned in Farabi’s works is given.*

Key words: *State, society, social system, management, legal and political consciousness, philosophy, law, justice.*

Jahon ilmiy-falsafiy merosi taraqqiyotida ma’naviy merosning takrorlanmas xazinasi hisoblangan mutafakkirlarning axloqiy, ilmiy ma’rifiy va falsafiy qarashlari, xususan, inson va uning ijtimoiy mohiyatiga oid ta’limotlari doirasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Zotan, umuminsoniy ma’naviy merosni o‘rganishning o‘zi juda katta ahamiyatga molik ilmiy ma’naviy konsepsiyadir. Bu konsepsiya jahon ilm-fani sohasida olib borilayotgan falsafa tarixi yo‘nalishidagi muhim ma’naviy merosga oid fundamental tadqiqotlarning negizi hisoblanadi. Hozirgi zamonda nazariy jihatdan takomillashib borayotgan ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishda, ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy, diniy, falsafiy va tarixiy merosdan unumli foydalanish masalasi asosiy vazifamizga aylanmoqda.

Abu Nasr Forobiy atoqli faylasuf, eron-arab ratsionalistik va siyosiy falsafasining asoschisi, ko‘plab mutafakkirlarning ma’naviy ustozidir. U ijtimoiy-falsafiy va siyosiy fikr tarixida alohida o‘rin tutadi. Al-Farobiy ijodining jozibadorligi nafaqat aniq o‘ylangan umumiy falsafiy tizimni ishlab chiqqanligida, balki uning siyosiy asarlarida siyosiy falsafaning asosiy qoidalari va tamoyillari birinchi marta aniq shakllantirilganligidadir. Shu ma’noda O‘rta Osiyoning qomusiy olimi Abu Nasr Farobiyning ilmiy, ijtimoiy-siyosiy hamda ma’naviy-ma’rifiy merosini o‘rganish – umuminsoniy qadriyatlar asosida rivojlangan inson mohiyatining zamonaviy falsafiy mohiyatini tadqiq etishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Forobiy boshqaruv tizimining markazida inson mavzusi, uning aqliy va axloqiy takomillashuvi, erkinlikka erishish, shaxsiy va ijtimoiy baxtga intilishi, insonning

farovon kelajakka intilishi turadi. Insoniyat jamiyatining, davlatning kelib chiqishi va faoliyati, uning turlari, boshqaruv shakllari, huquqning o‘rni va roli, ezgu davlatni tashkil etish tamoyillari, shuningdek, hokimiyatga ega bo‘lgan shaxsning zarur fazilatlari va xususiyatlari hozirgi sharoitda dolzarb bo‘lib qoldi. Shuni aytish kerakki, Al-Farobiyni tashvishga solgan va u o‘z asarlarida ko‘targan muammolarning hammasi ham o‘tmishga tegishli emas, uning ko‘pgina g‘oyalari bugungi kunda dolzarb va prinsipial ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, Forobiyning davlat boshqaruv borasidagi ijtimoiy, siyosiy hamda falsaviy hikmatlarini o‘rganish juda ham, katta ahamiyatga ega.

Farobiynnig inson va jamiyat, ularning o‘zaro ta’siri, davlat, siyosat, urush va tinchlik kabi masalalariga bag‘ishlangan asarlari sirasiga “Fozil odamlar shahri” haqida kitob “Baxt saodatga erishish” haqida risola, “Fuqarolik siyosati”, “Jamiyatni o‘rganish haqida”, “Urush va tinch-totuv yashash haqida”, “Davlat arboblari haqida hikmatlar” nomli asralarida inson, jamiyat, siyosat, adolat, odob-axloq, ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi fikrlari bayon etilgan.

Farobiy o‘zning “Baxt saodatga erishish” haqidagi risolasida “Davlatning vazifasi insonlarni baxt – saodatga olib borishdir, bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo‘lga kiritiladi” – deb ta’kidlaydi. Ushbu hikmatli so‘zlarda, juda katta ma’no mujassam. Sababi, har bir davlatning yuksalishi, rivojlanishi hamda uning taraqqiy topishida, o‘sha mamlakatda istiqomat qiladigan xalqning ilm va amaliy tajribasiga bog‘liq. Chunki, nazariy ilmi va amaliy tajribasiga ishongan inson hech qachon adashmaydi.

Farobiy “Fozil jamiyat va fozil shaharlar (davlat) shunday bo‘ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo‘lgan har bir dam kasb-hunar bilan shug‘ullanadi. Odamlar chin ma’nosi bilan ozod bo‘ladilar. Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzatlar paydo bo‘ladi”, – deydi. Farobiy bunday fozil jamoani boshqaruvchi podsho, rahbarlarga ham ma’lum talablar qo‘yadi. U xalq haqida doim g‘amxo‘rlik qilishi, boshqalar manfaatini o‘z manfaatidan qo‘ya bilishi zarur. Bunday jamoani idora etuvchi yoki idora etuvchilar guruhi o‘zlarida muhim olti xislatni ifodalashi kerak, ya’ni:

Adolatli bo‘lish.

Dono bo‘lish – bilimli bo‘lish.

Qonunlarga rioya etishi.

Qonunlar yarat olishi.

Kelgusini oldindan ko‘ra bilish.

Boshqalarga g‘amxo‘r bo‘lishi kerak.

Yuqorida aytib o‘tilgan olti xislatning barchasi, bugungi kun rahbar va boshliqlar uchun dasturul amal bo‘lishi lozim. Chunki, adolatli bo‘lish, davlat boshqaruvida bilim va tajribaga suyanish, xalqni manfaatini o‘zining manfaatidan ustun ko‘rish, qonunlarni yaratish, unga rioya qilish bu – rahbar uchun juda muhim xislatlar hisoblanadi. Men, shu o‘rinda, davlatimiz rahbarining qonunlarni tuzishga doir bir fikrlarini keltirib

o‘tmoqchiman, “qonunning birdan-bir manbai va muallifi tom ma’noda xalq bo‘lishi shart”. Yurtboshimizning ushbu so‘zlarini, 2023-yil 30-aprelda bo‘lib o‘tgan “Yangilangan Konstitutsiya” umumxalq referundumi orqali ham bilib olishimiz mumkin. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasi mamlakatimizda ijtimoiy, demokratik-huquqiy va chinakam xalqparvar davlatchilik sari tashlanayotgan dadil qadamlar uchun mustakam asosni yaratdi. Xalqimizning, huquqshunos ekspert va mutaxassislarning takliflari, xalqaro va xorijiy davlatlarning tajribasi inobatga olingan “Konstitutsiyaning yagona manbai va muallifi xalq bo‘lishi kerak” g‘oyasi asosida Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo‘yicha muhokamasi o‘tkazilib, jami aholidan uni takomillashtirish bo‘yicha 220 mingdan ziyod taklilar kelib tushgan va ularning har to‘rttasidan bittasi loyihadan joy olgan. Yuqorida keltirib o‘tgan rahbarlik xislatlarining yorqin ifodasidir.

Jurayev Rajabboy Zuxurovichning 2004-yili yozilgan “Abu Nasr Forobiyning siyosiy falsafasi” dissertatsiyada Farobiyning siyosiy falsafasiga oid quyidagi yangiliklarni keltirib o‘tadi, ya’ni:

Forobiyning siyosiy falsafasi Platon va Arastuning siyosiy ta’limotlariga asoslanadi, lekin ular bilan cheklanib qolmaydi. U Arab xalifaligi sharoitida va islom mafkurasi hukmronligi sharoitida shakllangan bo‘lib, fazo-zamon uzluksizligining izlarini o‘zida mujassam etgan, buning ham muammoliligi, ham ko‘tarilgan ko‘plab muammolarning yechimi ham dalolat beradi;

siyosiy falsafa tushunchasini birinchi marta al-Forobiy ilgari surgan. Bu tushuncha Platon va Aristotel asarlarida yo‘q. Al-Forobiy siyosiy falsafaning predmeti, muammolari, vazifalari va funksiyalarini ham aniq belgilab beradi;

Farobiy siyosiy falsafasi ratsionallashtirilgan, tizimlashtirilgan falsafiy ta’limot bo‘lib, bu bilan u turli diniy, qalamistik va boshqa ta’limotlardan tubdan farq qiladi;

Forobiy siyosiy falsafasi Sharq siyosiy falsafasining rivojlanishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatdi, al-Mavardiy va al-G‘azzoliydan tortib A.Donishgacha;

Forobiyning fazilatli shahar haqidagi ta’limoti ideal jamiyat – umumiy farovonlik jamiyati haqidagi ta’limotdir (zamonaviy terminologiyaga ko‘ra). Uning nopok shaharlar haqidagi ta’limoti uning davrida ko‘p bo‘lgan zolim jamiyatlar haqidagi ta’limotdir.

Abu Nasr Forobiyning ma’naviy madaniyat va shaxs barkamolligini shakllantirishga qaratilgan axloqiy qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ayniqsa, allomaning, inson o‘zining faol aql idroki, qobiliyati, iste’dodi, tafakkuri yordami bilan tabiatni, borliqni, materiyani, ijtimoiy hodisa va jarayonlar mohiyati hamda mazmunini bilish haqidagi qarashlari yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Insondagi bunday fazilatlar uning ulug‘ baxtga erishishida ustuvor o‘rinni egallaydi. Mutafakkir o‘z qarashlarida ichki ruhiy, ma’naviy kuchlar insonga tabiatni obyektiv baholashga imkon berishini isbotlashga harakat qilib, insonning ruhiy, ma’naviy kuchlari tanasining jismoniy holatiga ta’sir eta

olishini quyidagicha tushuntiradi: “Ruhan kasal odamlar ham yomon istaklari va odatlari tufayli buzilgan tasavvurlariga qarab, yomon (axloqsiz) fe’l-harakatlardan huzurlanadilar va go‘zal qiliqlarni, ishlarni yoqtirmaydilar yoki umuman go‘zallikni tasavvur qilmaydilar”. Demak, ma’naviy, ruhiy ehtiyojlar, imkoniyatlar, eng muhimi, tana yetukligi har tomonlama komil va yetuk insonning asosiy jihatlarini aks ettiradi.

Forobiy inson baxt – saodatga erishuvi uchun ularni baxtli-saodatli qila oladigan jamoa rahbari bo‘lishi kerak deydi. U fozil shahrini boshqaradigan hokim tabiatan, o‘n ikki fazilatni o‘zida jamlashi kerak deb, ta’kidlaydi. 1) sog‘-salomat bo‘lib, o‘z vazifasini bajarishda hech qanday qiyinchilik sezmasligi; 2) tabiati nozik, farosatli; 3) xotirasi mustahkam; 4) zehni o‘tkir; 5) o‘z fikrini tushuntira oladigan notiq; 6) bilim-ma’rifatga havasli; 7) taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha, o‘zini tiya oladiga bo‘lishi (qimor yoki boshqa o‘yinlardan) zavq, huzur olishdan uzoq bo‘lishi; 8) haq va haqiqatni, odil va haqgo‘y odamlarni sevadigan, yolg‘onni va yolg‘onchilarni yomon ko‘radigan; 9) o‘z qadrini biluvchi va oriyatli bo‘lishi; 10) mol dunyo ketidan quvmaydigan; 11) adolatparvar; 12) qat’iyatli, sabotli, jur’atli, jasur bo‘lishi muhimligini qayd etadi. Forobiy bu fazilatlarni har bir yetuk insonda ko‘rishni istaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, Abu Nasr Farobiyning hayotini, ijodini, boshqaruvga oid qarashlari va o‘gitlarini o‘rganishga jamiyatimiz, xalqimiz va biz yoshlar uchun ehtiyoj juda katta. Olimning chuqur falsafiy kuzatishlariga e’tibor bersak unda insonni doimo yangilik sari intilishga va yangilik ixtiro qilishga, jamiyatda o‘z o‘rnimizga ega bo‘lish bilan birga rahbarlik salohyatini ham o‘rgatadi. Men o‘ylaymanki, Abu Nasr Farobiy asarlari insonning amallariga bevosita ta’sir o‘tkazadi va bu amallar buyuk kelajagimizning yaxshi tomonga siljishiga turtki boladi. Uning hayotini nafaqat o‘rganish, asarlarini tahlil qilish va balki targ‘ib qilishimiz kerak. Ana shundagina ko‘zlagan maqsadimiz tomon qadam bosgan bo‘lamiz va kelajakda jamiyatimiz va Yangi O‘zbekistonimiz uchun bilim va salohiyatli, kuchli rahbar kadr bo‘lib yetishamiz, albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: “Xalq merosi” Nashriyoti, 1993-yil. 166-B.
2. Abu Nasr Forobiy. “Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida”. – T.: 2002. 17 – B.
3. R.Z.Jurayev. “Abu Nasr Forobiyning siyosiy falsafasi” dissertatsiya aftoreferati. 2004-yil.
4. J.Q.Yusupov. “Abu Nasr Farobiyning manaviy-axlokiy kamolot va shaxs barkamolligi haqidagi talimoti” mavzusidagi dissertatsiya aftoreferati. Toshkent-2020-yil.
5. M.Xayrullaev. “Sharq renessansi va Forobiy”. Fan va turmush, Toshket-1975. 239 – B.
6. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining Arab dunyosi va jahon madaniyati rivojiga qo‘shgan hissasi. Sharq nashriyoti. 1999-yil.
7. Ma’naviyat yulduzlari. Toshkent. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2001 – yil. 74 – 84 – B.

Saydumarova Nigina Sadriddinovna,
O‘zDSMI magistranti

MARKAZIY OSIYO XALQLARINING MA’NAVIY-MA’RIFIY, MADANIY TARIXINI ILMIY O‘RGANISH MASALALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Markaziy Osiyo davlatlari va xalqlari o‘rtasida madaniyat, ma’rifat, til, ilm-fan va ma’naviy qadriyatlarga asoslangan o‘zaro hamkorlikning tobora rivojlanib borayotganligi haqida ham ma’lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, buyuk ajdodlarimizning asrlar mobaynida yaratilgan va noyob ma’naviy mulkimizga aylangan merosi – mushtarak milliy va umuminsoniy qadriyatlarni avaylab asrash, boyitish, mustaqillik manfaatlari yo‘lida keng targ‘ib qilish, yosh avlodning mushtarak an’analarga hurmat va sadoqat, istiqlol tufayli qayta uyg‘ongan o‘zlikni anglash borasida amalga oshirilayotgan ishlarga urg‘u qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *madaniy meros, Namozgoh, Sopollitepa qazilmalari, qavm-qarindosh, “Hosil bayrami”, “Mehrjon”, Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi, baqtriya, Xorazm, Sug‘diyona, ilmiy izlanishlar natijalari.*

Abstract. *This article also provides information about the increasingly developing mutual cooperation between the countries and peoples of Central Asia based on culture, enlightenment, language, science and spiritual values. In addition, the legacy of our great ancestors, created over the centuries and becoming our unique spiritual property – careful preservation, enrichment, and wide promotion of common national and universal values in the interests of independence, respect and loyalty of the younger generation to common traditions, due to independence Emphasis is placed on the work being done to realize the reawakened self.*

Key words: *cultural heritage, Namazgoh, Sopollitepa excavations, community-kinship, "Harvest", "Mehrjon", the concept of further development of national culture, Bactria, Khorezm, Sugdiyona, results of scientific research.*

Markaziy Osiyo azaldan kishilik jamiyatining eng qadimiy markazlaridan biri bo‘lib kelganligi hech kimga sir emas. Bunday baholanish mezoni, albatta tarixiy arxeologik, poleontologik xamda antropologik tekshiruvlar natijalariga tayanadi. Ko‘plab qazilma hamda tekshiruvlar Markaziy Osiyo zaminining barcha hududlarida olib borilganligini bilamiz. Eramizdan million yillar burun bu zaminda kishilar yashab kelganligi ham isbotlangan. Tarixchi, madaniyatshunos olimlarning fikrlariga asoslanib o‘tmishdagi ajdodlarimiz madaniyati ma’lum darajada rivojlanib o‘tgaligini asos deb qabul qiladigan bo‘lsak, bu madaniyat rivojlanish kurtaklarini eng qadimiy poleolit davridan, ya’ni O‘rta Osiyoda odam zoti paydo bo‘la boshlagan – 500 ming yil avvalgi davrlarga borib yetadi. Shu bilan bir qatorda bu yarim million yil doirasidagi inson hayoti, madaniyati, rasm-rusm hamda odatlarini o‘rganish uchun xozirgi kunimizda yetarlicha sharoitlarga egamiz.[1]

[1] U.Qoraboev. "O‘zbekiston bayramlari", Toshkent, 1991-yil. 6-7-bb

Miloddan avvalgi III-ming yilliklar boshlarida, ya’ni bundan 30-26 asrlar muqaddam Markaziy Osiyoda o‘troq dehqonchilik rivoj topishi, ibtidoiy jamiyat yemirila borib quldorlik tuzumining vujudga kelishi, Sug‘d, Xorazm, Baqtriya kabi davlatlarning paydo bo‘la boshlashi, yangi diniy karashlarning shakllanishi natijasida o‘sha davrga xos bo‘lgan turmush tarzini ifodalovchi an’ana, rasm-rusumlar, marosim va bayramona qadriyatlar yuzaga kelgan. Farg‘ona vodiysining So‘x tumanida topilgan Sulungur g‘oridagi ashyoi – dalillar, Anov va Namozgoh, Sopollitepa qazilmalarining namunalari ajdodlarimizning qadimgi makonlari qanday bo‘lganligi, hayot va turmush tarzi, ma’naviy-madaniy xususiyatlari to‘grisida ma’lum tasavvurlar hosil qilishga imkon beradi. Agarda biz tarix zarvaraklarini ochishga e’tiborimizni beradigan bo‘lsak, Markaziy Osiyoda istiqomad qilgan ajdodlarimiz – saklar, massagetlar, baqtriylar, sug‘diylar, xorazimiylar o‘zlari yashayotgan qadimgi viloyatlar, tumanlarni doimo asrashga, bir-birlariga yaqin bo‘lishga intilishgan.[1]

…Dehqonchilik vohalarini o‘rab olgan dashtu-adirlarda yashovchi chorvador xalqlar saklar nomi bilan mashhur bo‘lib, ularning voha xalqlari tili, dini, kelib chiqish ildizlari, urf-odatlari bir-biriga yaqin, ular tashki dushmanga birgalashib kurashgan. Qavm-qarindosh, quda-anda bo‘lib yashashgan, bir daryodan suv ichishgan, birgalashib O‘rta Osiyoning qadimgi madaniyatini yaratganlar" degan ma’lumotga egamiz.[2]

Tarixdan kishilik jamiyati taraqqiyoti shuni ko‘rsatdiki, insonlar uchun tirikchilik manbayi tabiatdan berilgan in’omlar tashkil etgan bo‘lsa, zamonlar o‘tishi bilan kishilarning tabiat xodisalariga nisbatan faol munosabatlari uning sirlarini xolisona o‘rganishga bo‘lgan qarashlari ham shakllana borib tabiatga bo‘lgan xis va tuyg‘ulari hamda qadriyatlari ham muttasil o‘sib borganligini kuzatish mumkin. Natijada tabiat bergan in’om: noz-u ne’matlarni qayta ishlashga harakat qilingan, undan kelgan daromad va ehtiyojga bo‘lgan munosabatlari sekin asta o‘zgarib borgan. Bu xol yerga ishlov berish madaniyatini yanada rivojlantirishga, chorvachilik va boshqa soxalarda esa yangicha uslub xamda usullardan keng foydalanishga olib kelgan. Bunday xol insonda tabiatga bo‘lgan munosabatlarni tubdan o‘zgartirib, uni tabiatga ma’naviy munosabatda bo‘lishga majbur etdi, shu bilan birga ijtimoiy-xo‘jalik madaniyatining tarkib topishiga asos yaratdi.

Tarixdan bizgacha yetib kelgan manbaalarda ta’kidlanishicha kishilik jamiyati taraqqiyotida davrlar mavjudligini ko‘ramiz. (Neolit davri, tosh davri, bronza davri va xokazolar.) Masalan bronza davrlardan boshlab o‘troq dehqonchilikning vujudga kelishi va uni tez rivojlanishi natijasida bahorda mehnat mavsumiga kirishish, kuzda hosilni yig‘ib olish kabi tadbirlar yillar o‘tishi bilan an’anaga aylana boshlagan. Ma’lumki, dehqonlarning hayotida eng quvonchli voqea hosilni nes-nobud qilmay yig‘ib – terib olishdir. Yil bo‘yi kutilgan bunday jarayon, tabiiyki, dehqonlarda o‘z mehnatlariga

[1] “O‘zbekiston xalqlari tarixi” Toshkent: "Fan", 1-jild, 4-5-bb.
[2] “O‘zbekiston xalqlari tarixi” Toshkent: "Fan", 1-jild, 8-10-bb.

bo‘lgan munosabat xamda ko‘tarinkilik ruxidagi kayfiyatni vujudga keltirib, “Hosil bayrami”, “Mehnat bayrami” uchun zamin yaratilgan. Bunday xol insonning tabiatga bo‘lgan karamligiga chek qo‘yib, “Yashash uchun kurash” shiori – mehnatning natijasida vujudga keldi. Bunday xolat mehnat natijasi yutuqlarini namoyon etib inson madaniyati va san’atini rivojlantirish uchun zamin yaratgan.

Chunonchi, bunday mehnat va hosil bayramlari jarayonlarida turli chiqishlar: pantomima, yerga ishlov berish, hosilni yig‘ish kabi o‘yinli harakatlar, raqslarga xos bo‘lgan chiqishlar, biroz primitiv-soddagina ko‘rinishlarda bo‘lsada, keyinchalik bunday san’at turiga xoslik ma’lum darajada rivojlana boshlagan. Ibtidoiy jamiyat davrida jamoa va uning a’zolariga bag‘ishlangan tantanalar asta-sekin shakllanagan.

Bu davrda inson turli tosh qurollar yasash va ulardan foydalanishni o‘rgandi, kamon va o‘q-yoy, ibtidoiy sopol idishlar kashf etdi. Ibtidoiy chorvachilik va dehqonchilik shakllandi, ilk uy xayvonlari va madaniy o‘simliklar paydo bo‘la boshladi. Bu davrda ajdodlarimizning bunday hayotiy harakatlarida yerga ishlov berish va chorva xayvonlarini parvarishlash nihoyatda muqaddas bir yumush, oliy maqsadga aylangan. Tarixdan ma’lumki, kishilar turli davrlarda har xil tarzda hayot kechirib kelganlar. Moddiy hayot sharoitlari o‘zgarishi bilan ijtimoiy tuzum, ularning ongi va hayot tarzi xam, binobarin, kishilarning o‘zlari xam o‘zgara borganlar.

Milliy madaniyatimizning rivojlanish jarayoniga e’tibor bersak, xalqimiz milliy ongining rivoji va umuminsoniy madaniyatlarning o‘zaro ta’siri ostida ro‘y berganligini ko‘ramiz. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati rivojida “Buyuk ipak yo‘li”ning roli benihoyat katta bo‘lgan. Eramizdan avvalgi II ming yillikning oxiri va 1 ming yillikning boshlariga kelib, O‘rta Osiyoda Baqtriya, So‘gdiyona va Xorazm kabi madaniy jihatdan rivojlangan davlatlar paydo bo‘ldi. Mazkur davlatlarning qadimgi davr madaniy taraqqiyoti boshqa bir qator xalqlar: Eron, Xitoy va Hind madaniyatlarining ta’siri ostida ro‘y bergan. Masalan, taxminan eramizdan avvalgi I ming yillik o‘rtalariga kelib Baqtriya Hindiston bilan bo‘ladigan savdosotiqning asosiy markaziga aylandi. Savdo-sotiqning yuksalishi natijasida mustahkam qilib qurilgan qal’alar xalqning keng iste’mol va tashqi savdoga olib chiqiladigan mahsulotlar ishlab chiqaradigan iqtisodiy va madaniy markazlariga aylana boshladi. Yirik iqtisodiy markaz – shaharlarning vujudga kelib borishi uchinchi mehnat taqsimotining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

Aleksandr Makedonskiyning Markaziy Osiyo hududlarini zabt etishi natijasida yunonlar bilan mahalliy xalqlar, Yevropa bilan Osiyo o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy-madaniy aloqalar vujudga kelgan. Yunonlar Osiyoliklarning madaniyatiga, osiyoliklar esa yunonlar madaniyatiga qiziqish bilan qaray boshlaganlar. Makedonskiy qo‘shinlari bilan bosqinchilik va qirg‘in urush dahshatlari kirib kelgan bo‘lsa, shu bilan birga, o‘ziga xos yunon madaniyati ham kirib kelgan.

Yunon tili davlat tili hisoblangan. Yunon yozuvi hatto islom dini kirib kelgunga qadar ham muomalada bo‘lgan. Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari va Shimolda

yashovchi turkiy qavmlarning diniy qarashlarida yagonalik mavjud bo‘lgan. Buni qadimgi yunon, xitoy, arman tarixchilari va “Avesto” matnlari orqali aniqlash mumkin. Masalan, yunon tarixchisi Gerodot o‘zining “Tarix” kitobida “Massagetlar ichida ulug‘langan yagona xudo – bu Quyoshdir, Quyoshga ular otlarni qurbonlik qilardilar, chunki xudoga dunyodagi eng uchqur jonliqni qurbon qilish lozim deb o‘ylaydilar”, [1] deb qayd etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. U.Qoraboev. “O‘zbekiston bayramlari”, Toshkent, 1991-yil. 6-7-b
2. “O‘zbekiston xalqlari tarixi” Toshkent: "Fan", 1-jild, 4-5-b
3. http://www.teatr uz.
4. http://www.ziyo.edu.uz
5. U.Qoraboyev, G‘.Soatov ”O‘zbekiston madaniyati”
6. www.wikipediya.uz

[1] www.Wikipediya.uz

Ubaytov Oltinbek Olim o‘g‘li,
O‘zDSMI magistranti
Ilmiy rahbar: E.Shermanov,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘ZBEK MILLIY KUY QO‘SHIQLARIDA SHARQ ALLOMLARI VA MUTAFFAKIRLARI TARIXIY MEROSI VA MILLIY CHOLG‘U IJROCHILIGIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek milliy kuy qo‘shiqlarida sharq allomlari va mutaffakirlari tarixiy merosi va milliy cholg‘u ijrochiligidan foydalanish haqida fikr Yuritilgan. O‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan va hozirgi davrga qadar bir qator taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tib mukammal darajada shakllangan tanbur sozi xususida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Sharq musiqashunos olimlarining cholg‘u musiqasiga oid qarashlari, musiqiy-ilmiy merosi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Milliy cholg‘ular, tarixiy qo‘lyozmalar, musiqiy risolalar, etnograf, tarix, yakkanavozlik, jo‘rnavozlik.*

Abstract. *This article discusses the use of the historical heritage of Eastern scholars and thinkers and the performance of national instruments in Uzbek national melodies. Information is given about the tanbur sozi, which existed in the Middle Ages and was perfectly formed after passing a number of stages of development until the present time. The views of Eastern musicologists on instrumental music, musical-scientific heritage are highlighted.*

Key words*: National musical instruments, historical manuscripts, musical treatises, ethnographer, history, soloist, accompaniment.*

Musiqa madaniyatida ta’kidlangan ilk cholg‘ular eng qadimiy davr tarixi bilan bog‘liqdir. Zabardast olimlar tadqiqotlari natijasida milliy cholg‘ularimiz tosh – qoyalardagi haykalchalarda, terronota (loydan yasalgan odam va uning qo‘lidagi soz) larda, turli miniatYuralarda, yog‘och o‘ymakorligi va uy Yumushlaridagi tasvirlar orqali bizning zamonamizgacha etib keldi. Bunda yirik arxeolog, etnograf, tarixchi – manbashunos va san’atshunoslarning xizmati katta bo‘ldi.

O‘zbekiston va Tojikiston qadimgi davr musiqiy san’atida, milliy – an’anaviy cholg‘ularimiz qatoridan o‘rin olgan tanbur va dutor sozlari jahon ahamiyatini tobora o‘ziga jalb etib kelmoqda. Tanbur va dutor cholg‘ulari, zamonamiz amaliyotida bir necha dilkash nomlarga ega bo‘lib, har biri o‘zgacha oila paydo qilgan, bular: yakka, ansambl, orkestr va hatto zamonamiz milliy estrada jamoalaridan joy olib, Yuqori mavqe’larga ega bo‘lmoqda. Tanbur sozi tarixiga nazar solar ekanmiz, qadimda ularning ko‘p turlari mavjud bo‘lib, tanburlarning tuzilishi ham har xil bo‘lgan va ular ko‘pgina Sharq mamlakatlarida keng iste’molda bo‘lgan. Tanbur va dutorning “Gardon” ya’ni, Grifi Mesopotomiya uslublariga o‘xshash, ya’ni eramizdan avvalgi uch minginchi yillarga tegishliligi manbalarda ko‘rsatilgan. Markaziy Osiyoda esa eramizdan oldingi IV – III asrga Pahlavoniylar tarixida tanbur va dutor sozlari haqida

ham bir qator ma’lumotlar mavjud.

Tanbur turlari haqida shularni aytish mumkinki, SHarqda uning turli ko‘rinishlari bo‘yicha quyidagilarni keltirish mumkin. Masalan: Forobiy, Hirot, Bog‘dod, Xuroson va Buxoriy tanburlari qadimda iste’molda bo‘lganligi bizga tarixiy manba’lardan ma’lum. Allomalarimiz al-Forobiyning “Kitobul musiqiy al-Kabir” Ibn Sinoning “Nuqtadoi Jolibiy”, Abdulqodir Marog‘iyning “Maqosid al-alhon”, “Ja’mi alhon” kabi risolalarida tanbur va dutor haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilganki, bu Yuqorida aytgan fikrlarimizning yaqqol dalili bo‘lib xizmat qiladi.

Musiqashunos Amuliy asarlarida SHirvoniy va Turk tanburlarining nomlari tilga olinadi. Bundan tashqari u kamon – smichok bilan chalinadigan tanburi – nayi, ya’ni Sato sozi haqida xabar boradi. Tanbur sozining keng qamrovda ma’lum darajada baland mavqega ega bo‘lish davri asosan XVI – XVII asrlar hisoblanadi, bu esa temuriylar hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi. Tanbur so‘zining lug‘aviy ma’nosi Buxorolik yirik musiqashunos Darvishali CHangiy ta’kidlaganidek, tan – Yurak, bura – tebratish, larza ma’nolarini bildirib, inson Yuragini larzaga soluvchi soz demakdir. Tanbur sozining torlari dastlab ikkita bo‘lgan bo‘lib, hozirda unga yana bitta tor qo‘shilgan. Eron tanburlari uchta va hatto beshta tordan iborat bo‘ladi.

Keyingi davrda tanbur sozini mashhur musiqashunoslar Fayzulla Karomatov, B.SHaroshi, O.Boyko, I.Nizomiy, Murodullo Abdukarimov, A.Petrosyaits, Usta Usmon Zufarovlar tadqiq qildilar. Jahon tarixi va tasvirlardagi ko‘rinishlar orqali o‘z badiiyligi bilan bizgacha etib kelgan cholg‘ular haqida talaygina ma’lumotlar mavjud. Yuqorida aytib o‘tkanimizdek, tanbur sozining juda ko‘p turlari mavjud. Bular, tanbur kato, setor, chortor, panjtor, shishtor, sitor turlaridir. Hindlarda “Tanpura” nomli tanbursimon sozlar ham mavjud. Ular Xuroson, Eron, Buxoro, Bog‘dod, Badaxshon nomlari bilan mashhur. Tanbur va unga munosib cholg‘ularda turli xil o‘ziga xos musiqiy asarlarni ijro etish mumkin. Lekin tanbur sozi asosan xalq kuylari va SHashmaqom mushkilotlarini ijro etishga hamda mumtoz ashulalarga jo‘rnavoz bo‘lish uchun mo‘ljallangandir. Uning bunday imkoniyatlarini tadqiqotchilar T.Vizgo, G.Pugachenkova, I.Rajabov, S.Paxalovlar asoslab berdilar. Tanbur cholg‘usining tipologik genezisi haqida uning ilmda alohida tadqiqotlarga mansubligini L.G.Koval va boshqa olimlar o‘z tadqiqotlarida aytib o‘tdilar. Keyingi yillarda o‘zbek va tojik milliy musiqasi va milliy sozlari haqida yirik monografik asarlar yaratilmoqdaki, bu milliy musiqamiz va sozlarimiz tarixini o‘rganishda muhim rol o‘ynamoqda.

Jumladan, Fayzulla Karomatov va N.Nurjonovlar tomonidan yaratilgan “Badaxshon bodasining (Pomir) milliy musiqasi va cholg‘ulari” kitobi bunga misol bo‘la oladi. Ushbu asarda tanbur va dutor haqida ham keng ma’lumotlar berilgan. Bizga ma’lumki, milliy sozlarimizning sof va jarangdor ovoz chiqarishi uning yasalish texnologiyasi bilan ham bog‘liqdir. Markaziy Osiyoda, jumladan, O‘zbekistonning qator vohalarida ham soz yasovchi ustalar tomonidan ustoz-shogird tarzida turli xil

milliy sozlarni yasab sozandalarga in’om etib kelmoqdalar. XIX asr oxirida tanbur sozini yasashda asosan ikki nomdor usta faoliyat ko‘rsatib keldilar. Bular, buxorolik Usta Tohir (1883 – 1953) va toshkentlik Usta Usmon Zufarov (1892 – 1980) edilar. Ushbu ustalar milliy sozlarni yaratishda o‘ziga xos maktab tashkil qildilar, desak adashmaymiz. Usta Tohirning – Usta Abduxoliq (Qori qutti), Samarqandda Usta O‘rin singari shogirdlarni etishtirgan bo‘lsa, Usta Usmon Zufarov – Usta Xirojiddin, Usta To‘xtamurod, Usta Muhammadsiddiq, Usta Faxriddin, Usta Nabi kabi o‘nlab shogirdlarga murabbiylik qildi.

Milliy sozlarni yasovchi ustalardan katta mahorat va sabr – toqat talab qilingan. Ular bir cholg‘uni yasashda uzoq yillar uringan paytlar ham bo‘lganini, ustalar bilan bo‘lgan suhbatlar-dan angladik (Buxorolik usta K.Muqimov bilan bo‘lgan suhbatdan). Soz yasovchi ustalar asbob xom ashyosiga (yog‘ochiga) ko‘p e’tibor berganlar va unga juda ehtiyotkorlik bilan yondashganlar. Ustalar yog‘ochni tayyorlashda uni quyosh tafti, shamol, yomg‘ir, suv, qor, namlik va tuproq ta’siri, hasharotlardan asrash uchun maxsus qorong‘u uyda saqlab kelganlar. O‘rik va tut yog‘ochini tanlashda o‘rikning danagi shirin bo‘lishi, tut yog‘ochida esa tut shirin va serhosilligiga e’tibor berilgan. CHolg‘u yasash uchun yog‘ochni besh yildan yigirma yil muddatda saqlab kelganlar. SHunday qilib tanbur sozini yasashda quyidagi texnologiya qo‘llangan.

Rezanatorli korpus (Kosa xona)
Dasta (Grif)
Bo‘g‘iz, gardan
Qopqoq, zarpo‘sh (deka)
Torgir (Sim saqlovchi ilgaklar)
Quloqlar
SHaytonxarrak
Pardalar
Torlar (Simlar)
Xarrak
Noxun, zaxma



Endi shu o‘rinda bugunlik kunda iste’molda bo‘lgan tanbur cholg‘u sozining sur’atini keltiramiz:

1950 yilda akademik YUnus Rajabiy mohir tanburchi Turg‘un Alimatovga tanburni kamon orqali chalishni taklif etib, “Tanbur – sato” keyinchalik “Sato” nomi bilan ataladigan sozni ijrochiligimizda qo‘llagan edilar. (Lekin tanburni kamon bilan chalish Buxoroda XIX acrning oxirida rasm bo‘lgani manbalarda ko‘rsatilgan). “Sato” sozi kamon bilan chalish uchun yasaladi. Uni tanburdek ijro etish (ya’ni noxun bilan) mushkulroq, chunki uning xarragi tanburnikidan ancha balanddir.

O‘rta asr olimi Mahmud ash-SHeroziy XII asrlarda yozilgan risolasida tanburga o‘xshash kamon bilan chalinadigan “Kamoncha” nomi bilan mashhur bo‘lgan cholg‘u haqida ham yozadi. Bizning nazarimizda bu sato cholg‘u sozi bo‘lishi ham mumkin (N.Z.). shu o‘rinda sato cholg‘u sozining sur’atini keltirishni joiz ko‘rdik.

Xulosa

Shunday qilib tanburga oid tarixiy manbalardagi ma’lumotlar bilan imkon darajasida tanishib, bu borada ma’lum tasavvurga ega bo‘ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Cholg‘u ijrochiligi va ansambli. O‘quv qo‘llanma / Karimov O.I., -Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2019.

Cholg‘u ijrochiligi (prima rubobi, qashqar va afg‘on ruboblari). O‘quv qo‘llanma / Karimov O.I., -Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona

Kushaev, I. A. (2020). MUSIC PEDAGOGICAL DOLLARS OF DOSTON ART. *International Engineering Journal For Research & Development*, *5*(9), 6-6.

Kushaev, I. A. (2020). Bakhshi art schools and their performing features. *Scientific reports of Bukhara State University*, *3*(3), 295-299.

Кушаев, И. А., & Ахтамов, И. И. (2020). Педагогические основы традиционной профессиональной музыки (на примере искусства дастана). *Academy*, (11 (62)).

Fayzullaevich, Q. I. (2021). Culture and art values and aesthetics in formation factors. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *1*(01), 48-53.

Kayumov, I. F. (2020). Values and aesthetic factors in the formation of culture and art. *International Engineering Journal For Research & Development*, *5*(8), 8-8.

Каюмов, И. Ф., & Жураева, М. (2020). Место музыки в воспитании духовнонравственных качеств учащихся 5-7 классов общеобразовательных школ. *Проблемы педагогики*, (3 (48)).

Каримов, О. И. (2020). Значение специфических особенностей и воспитательных возможностей узбекских народных инструментов. *Academy*, (3 (54)).

Каримов, О. И. (2020). Профессиональные музыкальные взгляды будущего учителя музыки. *Вестник науки и образования*, (22-2 (100)).

Rakhmatov, N. E. (2020). Problems of Creative Approach in The Pedagogical Activity of Future Music Teachers. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, *2*(09), 659-664.

Kushaev, I. A. (2020). Musical pedagogical fundamentals of doston art. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, *10*(10), 1061- 1067.

II SHU'BA
SHARQ MUTAFAKKIRLARI VA JADID MA'RIFATPARVARLARINING SAN'AT VA MADANIYAT RIVOJIGA DOIR TARAQQIYPARVAR QARASHLARI

Abduqodirov Faxriddin Nishonboyevich,
Respublika musiqa va san'at kolleji
"Xalq cholg'ulari" kafedrasi katta o'qituvchisi

INSON MA'NAVIYATINING SHAKLLANISHIDA SHARQ ALLOMALARINING MUSIQADA TUTGAN O'RNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada inson ma'naviy tafakkurining shakllanishida musiqaning tutgan o'rni haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, milliy musiqaning inson ma'naviyatini shakillantirishdagi ahamiyati, sharq olimlarining musiqaga oid fikrlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *musiqa, sharq allomalari, qadriyatlar, xalq ijodiyoti, cholg'ular, qo'shiqchilik.*

Abstract. *This article talks about the role of music in the formation of human spiritual thinking. Also, the importance of national music in the formation of human spirituality, the opinions of Eastern scientists about music are analyzed.*

Key words: *music, oriental scientists, values, folk art, musical instruments, singing.*

Mustaqillik tufayli buyuk ajdodlarimizning boy tarixiy qadriyatlari, ming yilliklarni qamragan betakror va jozibali madaniyati tiklana boshlandi. Unitilayozgan ona tilimizga, ruhiyatimizni poklantiruvchi dinimizga qaytdik, milliy urf-odatlarimiz va an'analarimiz, milliy san'atimiz, xalq ijodiyoti va musiqamiz singari xalq ma'naviyatini ifodalovchi barcha qadriyatlarimiz qaytadan qad rostlamoqda. Ma'naviy uyg'onish samarasi odamlarning o'zligini anglash, milliy g'urur, oriyat, avlod-ajdodlarimiz o'tmishidan faxirlanish, kelajak har kimning o'z qo'lida, mexnatida va ongli faoliyatida ekanligini his qilish nomoyon bo'lmoqda. Millatimizning ma'naviy va intelektual salohiyatini, odamlarning aqliy va ruhiy madaniyatlarini yuksaltirishga xizmat qiladigan ijtimoiy va badiiy omillarini o'rganish, tadqiq etish va ularni umumlashtirish xozirgi davrga kelib o'z samarasini bermoqda. Inson ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda juda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan milliy musiqiy madaniyat va uning xalqimiz orasida tarkib topgan an'anaviy qo'shiqchilik namunalarini hozirgi zamon kishisi ma'naviyatida tutgan o'rni katta ahamiyatga ega.

Milliy musiqaning inson ma'naviyatini shakillantirishdagi ahamiyati davlat miqyosidagi ishlardan biri ekanligi Prezidentimizning har yili "O'zbekiston – Vatanim manim" qo'shiqlar bayramini o'tkazish to'g'risidagi 1996-yilgi Farmoni, "Respublikada musiqa ta'limi, madaniyat va san'at o'quv yurtlari faoliyatini yaxshilash

to‘g‘risida”gi 1997-yilgi farmonlari hamda respublika Vazirlar Mahkamasining maxsus qarorlarida o‘z ifodasini topgan. Ma’naviy barkamol insonni tarbiyalashda musiqiy madaniyati juda katta ahamiyat kasb etadi. Musiqa vositasi orqali inson Vatanga sadoqat, yetuk axloqlik, ma’naviy poklik, ruhiy yetuklik komillik ruhida tarbiyalanadilar. Musiqa – ulkan ta’sirchan kuchga ega bo‘lgan tarbiya vositasi, inson ruhiyatiga hayotbaxsh kuch bera oladigan jon ozig‘idir. U kishilarning zavqlanishi, huzurlanishi, rohatlanishi, maroqli dam olishi, taskin topishi, fikrlashi uchun yordam beradi. Qudratli kuchga ega bo‘lgan musiqa o‘z jozibasi bilan inson qalbini qamrab oladi.

Musiqiy cholg‘ular inson ma’naviyatini ohanglarda tarannum etuvchi vosita, undagi har bir kuy inson ruhiyatini poklab, komillikga yetaklaydi. Azal-azaldan bu cholg‘ular omma orasida shakllanib, mohir cholg‘u ustalari tomonidan yasalib, tobora mukammallashib kelayotgan mo‘jizaviy cholg‘ulardir. Cholg‘ularda har bir xalqning milliy g‘ururi, an’anasi, qadriyatlari o‘z ifodasini topib turadi, chunki ulardan taraladigan kuyning ohangi ham shunga moslashgan. Bular barchasi yaratilajak cholg‘ularning shakliga va milliylik mezoniga asos bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi kunga kelib yoshlarimiz san’atning cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha ustoz san’atkorlarni saboqlarini olib, milliy cholg‘ularimizda turli milliy kuylarimizni hamda jaxon klassik kuylarini mahorat ila ijro etib, chet ellarda katta – katta yutuqlarga erishib kelmoqdalar. Bu o‘z o‘rnida cholg‘u ijrochilik amaliyotining yuqori saviyaga ko‘tarilib borayotganligi va umumbashariyat madaniyatida alohida nufuzga ega bo‘lib borayotganligidan dalolat beradi.

Musiqa madaniyati bilan shug‘ullangan Sharqning buyuk mutafakkirlari musiqiy ohanglarning, ayniqsa mumtoz musiqaning inson ruhiyatiga, kayfiyatiga ta’sir ko‘rsatishini, kishi xatti-harakatlarini o‘zgartira bilishini, bemorlarni davolay olishini, insonning aqliy va axloqiy xislatlarini shakillantirishni, ularning hordiq chiqarishlari, taskin topishlari, ruhlanishlariga yordam berishni ta’kidlab o‘tadilar. Farobiy fikricha, musiqa insonni ma’naviy oziqlantiruvchi omil sifatida ham uning ruhiyatiga singib kirar ekan, shaxsni ma’lum kayfiyatlar orqali u yoki bu maqsadlarga yo‘naltirishi lozimdir. Aks holda musiqa shunchaki dilxushlik uchun qo‘llanilib, uning tarbiyaviy ahamiyati yo‘qoladi. Ruhiyat insonning ichki dunyosidir va uning yetuklik darajasi singib boruvchi omillarning xarakteri bilan bog‘liqdir. Musiqa esa, inson ichki dunyosining xissiyotli tomonlari bilan birga ma’naviy olamini butunlayicha ifoda etib, uning aqliy va iroda qudratini, yaxlit qiyofasini yarata oladi.

Shunday ekan, musiqa tarbiyaviy omil sifatida ulkan ma’suliyatni o‘z zimmasiga oladi, uning ijobiy yoki salbiy ta’sir kuchi juda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Ibn Sino musiqaga doir fikr-mulohazalarini alohida risolalardan tashqari, boshqa sohalarga, ayniqsa, tibbiyot ilmiga bag‘ishlagan asarlarida ham yozib qoldirgan. U “Tib qonunlari” asarida yozadi: “Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo‘llamoq kerak. Biri, bolani asta-sekin tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun aytish

odat bo‘lib qolgan musiqa allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo‘lgan iste’dodi hosil qilinadi”. Xulosa qilib aytganda musiqa faqat eshitish, o‘yin kulgu, yoki san’at turi bo‘lib qolmasdan, balki inson ma’naviyatini, madaniyatini rivojlantirishining muhim bir qismi sifatida ham o‘rganilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:
1. Asqarova F. Musiqa va inson ma’naviyati. – T.; 2000
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.- B.117.

Pirmatov Sherzod Tursunovich,
O‘zDSMI “Vokal” kafedrasi professori.

MUSIQALI TEATRNING TARAQIYOT BOSQICHLARI. AN’ANA VA YANGI TENDENSIYALAR

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada musiqali teatr dramaturgiyasing muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etiladi. Shuningdek, bu borada erishayotgan yutuqlarimiz va kelgusida amalga oshirish zarur bulgan muammolar xususida to‘xtalib o‘tiladi. Ushbu mavzuni axamiyatliligi, bizning davlatchilik tariximiz, boy o‘tmishimiz va madaniyatimiz, ulug‘ ajdodlarimiz ma’naviyati bugungi teatr san’ati orqali to‘lakonli ifodalanishi davrning talabi ekanligidadir.

Kalit so‘zlar: Spektakl, dramaturgiya, ohang, anana, ijod, ijro, millat, musiqa.

Annotation. This scientific article notes the importance of musical theater dramaturgy. We will also discuss the progress we have made in this regard and the challenges that need to be addressed in the future. The importance of this topic lies in the fact that the history of our statehood, our rich past and culture, the spirituality of our great ancestors are fully expressed through modern theatrical art.

Key words: Performance, drama, melody, tradition, creativity, performance, nation, music.

Ming yilliklar davomida o‘zbek an’anaviy teatri rivojlanib keldi. Zamonaviy o‘zbek teatr san’atida musiqiy teatrlar katta o‘rin egallaydi. Respublikamizdagi teatrlaring aksariyati musiqali drama va komediya teatri maqomiga ega. Musiqali teatr san’atining ildizi antik davrlarga borib taqaluvchi an’anaviy (qiziqchilar, xalq) teatrimizdan oziq olib, o‘ziga xos uslubda shakllandi. Eron, Grek, Arab istilochilari davrida ham, Mo‘g‘illar keltirgan parokandalik davrida ham, iqtisodimiz, san’atimiz, adabiyotimiz, man’aviyatimiz ko‘klarga tenglashgan Sohibquron Amir Temur va Temuriylar davrida ham, Rus bosqinchilari yurtimizni, ma’naviyatimizni, san’atimizni oyoq osti qilgan mustamlakachilik davrida ham, yakka hokimlikga asoslangan millat g‘ururi, shonu – shavkati, o‘zligi toptalgan SHo‘rolar davrida ham, an’anaviy o‘zbek teatri murakkab to‘siqlarni yengib o‘tib, o‘zligini saqlab qoldi va ravnaq topdi.

XIX asr oxirlarida XX asr boshlarda Turkistonga kelgan Ozarbayjon, Tatar, Rus va boshqa millatlar teatr truppalari Ovro‘pacha teatr ko‘rinishini olib kelishdi. Yangi san’at turi mahalliy ziyolilarni qiziqtirib qo‘ydi. “Jadidchilar” harakati a’zolari bu yangi san’at turi orqali xalq ongini yuksaltirish, marifat va ziyo tarqatish, xalqning

ma’naviyati, madaniyatini rivojlantirish yo‘lida foydalanishga xarakat qilishdi. Bu izlanishlar natijasida o‘zbek san’ati o‘zining yangi davrini boshladi. Yangi uslublar, yangidan – yangi ijodiy yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Dunyo teatr olamida yangi janr – O‘zbek musiqali drama janri yaratildi. Jahon tan olgan aktyorlar, rejissyorlar, dramaturglar, kompozitorlar, rassomlar, san’atshunoslar teatr darg‘alari yetishib chiqishdi.

O‘zbek milliy musiqali teatri o‘zining ilk qadamlarini juda muvaffaqiyatli boshladi. G‘ulom Zafariyning “Halima” asari tomoshabinlar orasida katta shov – shuvga sabab bo‘ldi. Bu aktual mavzudagi spektakl real hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan zamonaviy voqealar asosida yaratiladigan pyesalar yo‘nalishiga asos bo‘ldi. Keyinchalik bu yo‘nalishda “Gulsara” (K. Yashin), “Nurxon” (K. Yashin), “Oftobxon” (K. Yashin), “Oltin ko‘l” (O. Uyg‘un), ”Surmaxon” (B. Raxmonov), “Vatan ishqi” (Z. Fatxulin), “Farg‘ona tong otguncha” (R. Hamroyev, M. Ismoiliy romani asosida) kabi ko‘plab asarlar yozildi va katta muvaffaqiyat bilan teatrlar sahnalarida sahnalashtirildi.

“Halima”dan so‘ng yana bir yangi va keyinchalik etalonga aylanadigan yo‘nalish, “Farhod va Shirin” (G‘. Zafariy), “Layli va Majnun” (SH. Xurshid), “Tohir va Zuhra”, “Alpomish” (S. Abdulla), “Aziz va Sanam” (A. Bobojonov), “Ravshan va Zulxumor” (K. Yashin), “Oshiq G‘arib va Shohsanam” (A. Bobojonov), “Gul va Navro‘z” (S. Abdulla) kabi afsonalar, dostonlar, miflar asosida yaratilgan shoh asarlar vujudga keldi. Bu asarlar o‘zbek musiqali teatrini o‘zigagina xos an’analari paydo bo‘lishiga zamin yaratdi.

Yana bir yo‘nalishda biz mashhur tarixiy asarlarni sanab o‘tishimiz mumkin. Ulardan “Muqanna” (H. Olimjon), “Muqimiy” (S. Abdulla), “Nodira” (H. Razzoqov), “Navoiy Astrabodda” (I. Maqsumov), “Zavqiy” (K. Mahkamov), “Mashrab” (A. Tursunov) kabi asarlar tomoshabinlar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olingan.

Musiqali teatr an’analarini asoschilari G‘. Zafariy, Sh. Xurshid, K. Yashin, S. Abdulla, T. Jalilov, Sh. Shoumarov, Mannon Uyg‘ur, Yetim Bobojonov, Muzaffar Muhamedov, Zuhur Qobulov, Mahmudjon G‘ofurov, Razzoq Hamroyev, Lutfixonim Sarimsoqova, Abbos Bakirov, Soyib Xo‘jayev, Tursunoy Ja’farova kabi san’at fidoyilari qo‘ygan poydevorni keyingi avlodlar boyitib, rivojlantirishda davom etdilar. Ammo o‘tgan asrni 70 yillaridan izchillik bilan rivojlanayotgan musiqali teatr taraqqiyoti juda sekinlashdi. Yangiliklarga qo‘l urishlar kamayib ketdi. O‘ziga xos original janr yo‘nalishida o‘tgan asrning boshidagiday o‘nlab yangilik yaratuvchilar, izlanuvchilar sezilarli ravishda kamayib ketdi va bu janr rivojlanishida sekinlashuv yuzaga keldi. Dramaturglar alohida, kompozitorlar alohida ishlaydigan bo‘lishdi. Oldindagidek ikkalasi birga o‘tirib, hamkorlikda, dramaturg qog‘oz qoralasa, bastakor musiqasini yozmay qo‘ydi. Buning natijasida yangiliklar, shedevr asarlar, ariyalari xalq ichida mashhur bo‘lib ketgan spektakllar deyarli yo‘qolib ketdi. Ko‘pincha spektakllardagi ariyalar “kiritilgan nomerlarga” aylanib qoldi. Klassik va musiqali teatr qonun - qoidalari asosidagi zamonaviy hamda yangiliklarga boy asarlar sahnalashtirilmay qo‘yildi va ular o‘rnini sayoz saviyaga ega bo‘lgan “oldi – qochdi” asarlar egalladi. Aynan shu yangilikga intilish sustligi, yoshlarga ko‘pincha sharoitlar yaratilmasligi shunday salbiy oqibatlarga olib kelayapti.

Lekin bu qiyinchiliklarga qaramay san’at rivoji uchun ijod qilayotgan, an’analarni qayta tiklab ularni taraqqiyotini ta’minlayotgan fidoyi san’atkorlarimiz borligi juda quvonarli holdir.

Rejissyor Rustam Boboxonov ijodi davomida an’analarni tiklashga, yangiliklar yaratishga intildi. Rustam Boboxonov musiqali spektaklda aktyor ijrosi musiqaga qo‘shimcha emas, bu aktyorni yashash shakli ekanligini yaxshi tushunar edi. Shuning uchun ham u sahnalashtirgan spektakllarda ariyalar va tekstni ustida juda ko‘p ishlab, ariyalar kiritilgan nomerga aylanib qolmasligini ta’minlardi. Rustam Boboxonov musiqali teatr aktyorini zamonaviy ijro uslubini topishga intilar edi. U sahalashtirgan spektakllar musiqali teatrning klassik asarlari ruhida sahnalashtirdi. Bular ichida “Nurxon” keyinchalik esa “Yusuf va Zulayho” spektakli o‘zining boy ommaviy sahnalari, kostyumlari, dekoratsiyalari va shular bilan bir qatorda zamonaviy yechimi bilan ajralib turadi. Asardagi jozibali ariyalar, xorlar va raqslar bu romantik sevgi hikoyasini yanada yuksaklarga olib chiqadi. Rustam Boboxonov o‘z ijodi yo‘lida musiqali teatrning an’ananlarini qayta tiklashga va ularga o‘ziga hos yangiliklar kiritishga intildi.

O‘zbekiston xalq artisti Rustam Madiyev ham R. Boboxonov singari yangiliklar yaratishga, aktyor bilan ishlashda hech qanday detalni to‘xtalishlarsiz, analizsiz o‘tkazib yubormaslikga harakat qilardi. Rustam Madiyev o‘z ijodi faoliyatida ko‘plib yaxshi spektakllar sahnalashtirdi va mumtoz teatrimiz qonun – qoidalari asosida ishlab, spektakllarga zamonaviy ruh berdi.

O‘. Umarbekovning “Fotima va Zuhra” romani asosida yaratilgan “Fotima va Zuhra” nomli spektakl ham o‘zining puxta rejissurasi, yaxshi dramaturgiyasi va o‘ziga xos sahnaviy talqini bilan tomoshabinlar hurmatiga sazovor bo‘ldi. “Bu spektaklni ko‘rgani kelgan tomoshabinlar zaldan yig‘lab chiqib ketishar edi” – deydi Zulayho Boyxonova. Keyinchalik “Bobur sog‘inchi” tarixiy mavzudagi spektakli ham musiqiy teatr an’analarga xos tarzda sahnalashtirildi. Rustam Madiyev ham spektakllari orqali o‘zbek musiqali teatrini an’nanalarini saqlab qolish, ularni rivojlantirish va yangiliklar kiritishga intilgan ijodkor sifatida milliy teatr tarixiga kirdi.

Rejissyor Bahodir Nazarov ham o‘zining salmoqli ijodi natijasida ko‘plab spektakllarni musiqali teatr an’analari asosida sahnalashtirishga harakat qildi. Tarixiy, afsonaviy, zamonaviy mavzudagi spektakllarni ishlash jarayonida Bahodir Nazarov aktyorlar ijrosini haqqoniyligini, ariya va xorlarni mukammal ijro etilishiga intiladi. U “Namrud”, “O‘lding aziz bo‘lding”, “Bu telba xonadon”, “Oyonam - qaynonam” (O‘zbekcha raqs) kabi asarlarni musiqali drama qonun – qoidalari asosida ishlab, milliy musiqiy drama an’analarni davom ettirayapti.

Zulayho Boyxonova, Ma’suda Otajonova, Mehri Bekjonova, Boyir Xolmirzayev kabilar teatrning (40-70-yillarni) buyuk aktyorlari maktabini rivojlantirishga, ularga loyiq shogirdlar bo‘lishga intilib kelishayapti. Bu aktyorlar ortidan yetishib kelayotgan umidli yoshlar esa shular yordamida o‘zbek musiqali teatri an’analarini yo‘qotmaydi va o‘z yo‘nalishida rivojlanshga hissalarini qo‘shishadi degan umiddamiz.

O‘zbek musiqali teatrining hozirgi holatini yanada yaxshilash, yangiliklar kiritish uchun, XX asr boshlaridagi teatrimiz yo‘lboshchiliri Ovro‘padan kirib kelgan yangi teatr san’ati yo‘nalishlarini o‘zlashtirib, ularga milliy sayqallar berib, dunyoda yagona o‘zbek

musiqali dramasini shakllntirganlaridek, hozirgi kunda Yevropada juda mashhur myuzikl (janrini) yo‘nalishini eksperement holida milliylashtirib, boy an’analarimiz va zamonaviy yevropacha (rok, ayer - in – bi, tip – xor, elektron musiqa) usullarni sintezi orqali uzoq kutilgan yangilikga erishish mumkin.

Yuqorida nomlari keltirilgan rejissyorlarni musiqali teatr rivoji yo‘lida olib borgan barcha izlanishlarini qo‘llagan holda, yangi maxsus effektlarni kashf etish orqali, yangicha ekshen stilidagi spektakllarni sahnalashtirish ustida izlanishlar olib borilsa bo‘lardi, albatta, musiqali dramaning klassik asarlarini unutmagan holda. Ko‘plab Ovro‘pa teatrlarida eski, klassik spektakllarni o‘z davrida qanday sahnalashtirilgan bo‘lsa shunday holida saqlab qolib, hozirgi kun muzey spektakllari sifatida tomoshabini hukmiga havola qilish rusum bo‘lgan. Bizning teatrlarda ham el sevgan “Halima”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” kabi klassik asarlarni 20 – 40chi yillar usulida saqlab qolib, yangi myuzikl shaklidagi yoshlar bob asarlar, shunga yarasha shiddatli, maxsus effektli rejissurasi bor spektakllarni yaratgan holda tomoshabinni teatrga qaytarish kerak.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, musiqali dramaning bugungi kunda o‘rni muhim hisoblanib, iste’dodli, izlanuvchan aktyor bo‘lsagina ifodaviy sahna xatti-harakatlari orqali asarning oliy maqsadiga shakl va jon kiritadi. Bu mas’uliyatli kasb egasi tomoshabinga ezgu g‘oyalarni yetkazar ekan, o‘zi ham insoniy tuyg‘ularni hurmat qiladigan shaxs bo‘lmog‘i kerak.

Yana shuni aytib o‘tish kerakki, musiqali teatr oldida turgan kadrlar masalasiga e’tibor, o‘z navbatida O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida musiqali aktyorlarni professional darajada tayyorlashga bo‘lgan talabni oshiradi. Aktyorlarning professional tayyorgarligiga zamonaviy musiqali teatr tomonidan qo‘yilayotgan eng jiddiy va zamonaviy talablardan biri – sahnada xonanda emas, balki kuylovchi aktyorlarni tayyorlash va tarbiyalashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov M.X. O‘zbek teatr tarixi. T.: Ijod dunyosi. 2003.
2. Ibrohimov O. O‘zbek xal musiqasi. 1 jild. – T.: Ibn Sino nashriyoti. 1994.
3. Meliyev S. Musiqa va ma’naviyat. // “O‘zbeknavo”: ustozlar, yuduzlar, shogirdlar, T.: CHo‘lpon nashriyoti. 2000.
4. Jabborov A. Musiqiy drama va komediya janrlari O‘zbekiston kompazitorlarining ijodiyotida. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1999.
5. Qodirov M. Tomosha san’atlari o‘tmishda va bugun. T.: Mumtoz so‘z, 2011.
6. Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – T.: O‘qituvchi. 1981.
7. Mamadaliyev F. Milliy musiqa ijrochiligi masalalari. T.: Yangi asar avlodi. 2001.

YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” ASARIDA ILM-MA’RIFAT VA MA’NAVIYAT MASALALARI

Xamdam Ismoilov,
Tillar va adabiyot kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilk o‘rta asrlar Sharq allomalaridan biri hisoblangan Yusuf Xos Hojibning ijodi va asari haqida so‘z yuritildi, uning asari davrning gultoji bo‘lib qolganligi, hatto o‘z davrida qo‘shiq qilib aytilganligi, hozirda ham u o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi ta’kidlanadi**.**

Kalit so‘zlar: turkiy adabiyot, adib, tarix, alloma, she’riyat, hamd, na’t, muqaddima.

Annotation. The given article touches upon the creative work of the famous medieval poet of the EastUsuf Khas Khadjib, whose scientific work became a great achievement of his time, and is still being learned by young generation.

Key Words: Turkic literature, writer, historical, literary, scholar, poem, praise, introduction.

X-XII asrlarni turkiy adabiyotning ilk uyg‘onish davri sifatida ta’kidlash mumkin. Yusuf Xos Xojib ana shu ilk o‘rta asrlar davri adabiyotining mashhur alloma vakillaridan biri hisoblanadi. Adibning «Qutadg‘u bilig» asari turkiy tildagi dastlabki asar bo‘lganligi uchun xalq orasida mashhur bo‘lib ketgan. “Bu asardan ba’zi parchalar baxshilar tomonidan qo‘shiq qilib aytilganligi haqida ham ma’lumotlar bor”[3.B. 37], shuning uchun ushbu asarga batafsilroq to‘xtalish lozim topildi.

Adibning hayoti va faoliyati haqida hech bir tarixiy yoki adabiy manbalarda ma’lumotlar uchragan emas. Uning yuqorida ko‘rsatilgan asaridan ma’lum bo‘lishicha, adib taxminan 1019 yillar atrofida «Kuz-urdu», ya’ni Bolosog‘unda tavallud topadi (asarni 462 (1069) yil yozib tutatganligi, bu vaqt 50 yoshda ekanligi qayd etilgan). Adibdan bizgacha yagona «Kutadg‘u bilig» asari yetib kelgan:

Yil altmish eki erdi, turt yuz bila,
Bu so‘zi so‘zladim man tutub jan sura
Tugal o‘n sakkiz ayda aydim bu so‘z,
O‘durdum, adirdim, so‘z evdim tera. ”[2]

Bundan ko‘rinib turibdiki, asar 18 oyda 462 yili yozib tugallangan. Asarda dastlab basmala(unvon), so‘ngra esa nasriy muqaddima keladi. “Muqaddimada hamd, na’tdan keyin asarning qimmati, nomlanishi, xonga tortiq qilinishi, taqdirlanishi hamda asardagi 4 ramziy qahramon o‘rtasidagi savol-javoblar bo‘lib o‘tishi” haqida aytiladi[5.B. 112]. So‘ng yana 77 baytdan iborat she’riy muqaddima keltiriladi. Bundan keyin esa tilning foyda-zarari, bilimning manfaati va hokazolari hakida fikrlar bayon etiladi. Shundan so‘ng asosiy vokealar bayoniga o‘tiladi. Muqaddimada:

Ko‘z-urdu o‘lkasi aslida eli
Tub asli nasabdan so‘z ochdi tili.

Tug‘ilgan elidin chiqib borgani
Kitobni jam etib tugal qilgani.
Barisin bitibdir yetkazib nizom,
Bu Qoshg‘ar elinda qo‘shilmish tamom.
(Barini bitibdir ne esa kalom,
Bu Qoshg‘ar elinda tugadi, tamom).

Ushbu satrlardan adibning vatani Kuz-urdu (Bolosog‘un) ekanligi ma’lum bo‘ladi hamda adib asarini yaratish uchun yurtidan chiqib boshqa joylarga safar qilgani, ko‘plab madaniy-adabiy manbalarni o‘rgangani va Qoshg‘arga kelib asarni yozib tugatganini anglash mumkin. ““Qutadg‘u bilig” turkiyda yaratilgan birinchi eng yirik adabiy asardir. Bu asarga qadar yaratilgan asarlarning barchasi arab va forsiyda yaratilgan. Asar tez orada shuhrat qozonib, Tabg‘ach Bug‘roxon tomonidan munosib takdirlandi”[4.B.52].

Asarning tarbiyaviy ahamiyati shurdaki, davlatni idora qilish qonun-qoidalarini, mulk tutishning siru asrorlarini, ijtimoiy tabaqalar, ularning jamiyatdagi o‘rni, har bir tabaqaning axloqiy normalarini ko‘rsatib, belgilab beruvchi, davr talabiga nihoyatda mos bir asar ekanini ko‘rish mumkin.

Adib asarda aytilgan keng kamrovli fikr-qarashlarini 4 narsada mujassam etib tasvirlaydi. Bular:

Biri to‘g‘rilikka tayanch adolat,
Biri davlat erur, u qutli g‘oyat.
Uchinchi - ulug‘lik aql va zako,
To‘rtinchi - qanoat erur bebaho.

«Qutadg‘u bilig» asarini hozirda uch qo‘lyozma nushasi mavjud. “Uyg‘ur yozuvida ko‘chirilgan bir nushasi Venada, arab yozuvida ko‘chirilgan bir nushasi Qohirada va yana bir nushasi Toshkentda saqlanadi” ”[4.B. 57]. «Qutadg‘u bilig» 1971 yilda Qayum Karimov tomonidan hozirgi tilga o‘girilib nashr etilgan.

Asarda Yusuf Xos Hojib yuqorida aytilgan 4 asosni bayon qilish yoxud ta’rif-tavsif etish yo‘lidan bormaydi, balki ularni 4 inson qiyofasida tasvirlaydi va ularning har birini alohida nomlar bilan ataydi:

Adolat - Kuntug‘di - shoh - quyosh.
Davlat - Oyto‘ldi - vazir - oyga.
AQL - O‘gdulmish — vazir o‘g‘li — charog‘onlik.
Qanoat - O‘zg‘urmish - vazir qarindoshi - sergaklik.

Asosiy voqealar shu 4 obraz o‘rtasidagi savol-javoblardan iborat bo‘lib, bir qator eng asosiy masalalar ana shu jarayonda yoritib beriladi. Ana shu obrazlar o‘rtasidagi munosabatlar mazmunining uyg‘unligidan bosh masala, g‘oya, asarning «Kutadg‘u bilig» deb nomlangani sababi kelib chiqadi.

Barcha asarlarda bo‘lgani singari «Qutadg‘u bilig»da ham adibning munosabatlari, bir butun falsafiy qarashlari ziddiyatlarga to‘la bir ko‘rinishda butun asar davomida ko‘zga tashlanadi. ”[3.B. 83] Adib o‘z davrining kishisi sifatida islom dini qarashlari, islom axloqini yoklaydi:

Yomon desa bo‘lmas bu dunyo molin,

Yesa, bersa xalqqa, yoritsa yuzin.
Xudoni toat birla topmas quli,
O‘zing zo‘rla keng dunyoni kilma tor,
Toatla unutma zakovatni sen.

Yusuf Xos Hojib falsafasiga ko‘ra, hayot, umr barcha ezguliklar uchun asosiy moyadir(onasidir), shuning uchun ham u juda aziz va qimmati beqiyosdir. Amal, mansab, davlat, boylik inson umrini zoye, behuda kechishiga sabab bo‘luvchi bebaqo va bevafo narsalardir.

Yusuf Xos Hojib o‘z qarashlarida tasavvuf ta’limoti ilgari surgan fikr-qarashlar doirasidan anchayin uzoqlab ketolmaydi, ayni paytda barchasini ma’qullamaydi ham. Masalan: “Sufiylarda Xudo tabiatdan holi alohida holatda mavjud emas, ya’ni Olam Haq husni jamolining tajallisidan iborat. Olamdagi barcha narsalarda Haqdan nishon bor,”[3.B. 51] deyiladi.

Adibning qarashlarida dunyoga ma’naviy munosabat ustun darajada ko‘rinadi. Qizig‘i shundaki, adib olamda yuz berayotgan voqea-hodisalar, qarashlar, o‘z davrida mavjud o‘zgarishlarning hech birini tamoman inkor etmaydi, ayni paytda ulardan birini ajratib olib, yoklab ham chiqmaydi. Go‘yoki nimalar sodir bo‘layotgan bo‘lsa, shunday bo‘lishi kerakdek tuyuladi.

Asardan adib qarashlarini umumlashtirib oladigan bo‘lsak, adib barcha munosabatlarning asosiy mezoni ilm-ma’rifat deb olganini guvohi bo‘lamiz. Eng avvalo insonning insonligi, podshohning adolati, raiyatning osoyishtaligi, mulkning farovonligi barcha-barchasi ilm tufaylidir:

Yana bir hikmat bor: Hazrati odam, -
Bilim, aqlu idrok sabab muhtaram.
...Bilim bilan kishi judo hayvondin,
Buyukroq nima bor, qani ayt andin.

...Bilimni buyuk bil uquvni ulug‘,
Shu ikkov ulug‘lar kishini to‘liq.

...Uquv qayda bo‘lsa, ulug‘lik bo‘lar,
Bilim kimda bo‘lsa, buyuklik bo‘lar.

...Bolam tutsin desang donolik yo‘lin,
Kichiklikdan tegiz bilimga ko‘lin.

Asarda axloqiy-ta’limiy qarashlar yuksak darajada ifoda topadi. «Qutadg‘u bilig»ni aql va hikmat darsligi deb ham atashadi.

Adabiyotlar:

1. Yusuf Xos Xojib. Qutadg‘u bilig. /Q.Karimov tabdili. - T.: Fan, 1972.
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. /prof. B.To‘xliyev tabdili. - T.: Chulpon, 1990.
3. Karimov Q. Ilk badiiy doston. – T.: Fan, 1972.
4. To‘xliyev B. Yusuf Xos Hojib va uning «Qutadg‘u bilig» dostoni. – T.: Fan, 1993.
5. Mamatqulov M. Qadimgi tupkiy adabiyotda to‘rtlik va marsiya. – T.: Fan, 2006.

Umarov Mamur Botashikovich
O‘zDSMI “San’atshunoslik” kafedrasi professori, f.f.n.

MANNON UYG‘UR REJISSURASI

Annotatsiya. *Ushbu maqola ma’rifatparvar jadidlarning islom ma’naviyatini yangi bilimlar bilan boyitib, tarixiy jarayonda odamlar imon-e’tiqodi ma’naviyati, dunyoqarashini shakllantirishga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shganliklari shuningdek, ilmu-ma’rifat, ma’naviyat inson kamoloti uchun nechog‘lik muhim ekanligini yoshlar ongiga singdirishda kerak bo‘lsa o‘z jonlarini fido qilganliklari xaqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *rejissyor, dramaturgiya, teatr, ilm, bilim, ma’naviyat, madaniyat, ma’rifat, adabiyot*

Annotation. *In this article, the enlightened Jadids, realizing that without scientific knowledge it is impossible to form the spirituality of peoples, enriched Islamic spirituality with new knowledge and made a worthy contribution to the formation of the spirituality and worldview of people in the historical process. Then they sacrificed their lives.*

Key words: *science, knowledge, spirituality, culture, education, literature, drama, theater.*

Ijtimoiy hayotning hamma sohalarida, xususan, san’atda shakl va mazmunning meyoriy, namunaviy uyg‘unligi go‘zallikning asosini tashkil qiladi. Go‘zallikni yoqtiramiz, undan hayratlanamiz va aziz qadriyat deb ulug‘laymiz. Meyorning, uyg‘unlikning buzilishi xunuklikka olib keladi.

Aristotel: «Go‘zallikning eng yuqori ifodasini jonli narsalar va ayniqsa, inson tashkil etadi...» deb hisoblagan. Demak, inson tabiatan go‘zaldir va san’atning asosiy tadqiqot manbai ham insondir. San’atkor badiiy ijod qoidalariga, tamoyillariga asoslanib, insonning ichki va tashqi dunyosini maqsadga muvofiq tarzda yanada go‘zal va ulug‘vor ideal darajasida yorqin ifodalash imkoniyatiga ega. Natijada inson samimiylik, fidoyilik, vatanparvarlik, namunaviylik, ulug‘vorlilik, axloqlilik kabi go‘zallik qirralarini, komillik mezonlarini o‘zida namoyon qiladi.

Teatr san’atida go‘zallik xunuklik bilan qiyoslanganda yorqin namoyon bo‘ladi. Dramaturg qahramonning ijobiy qiyofasini badiiy ifodalash uchun unga qarama-qarshi, salbiy, xunuk qalb egasini yaratadi. Asardagi «yaxshilik» bilan «yomonlik» o‘rtasidagi kurash go‘zallik bilan xunuklik, ulug‘vorlik bilan pastkashlik o‘rtasidagi kurashga aylanadi. Bu jarayonda turli vositalardan, usullardan foydalaniladi.

San’at savodsizlik, xunuklik, tubanlikka qarshi faol kurash vositasi ekanligini jadidlar yaxshi tushunganlar. Shuning uchun ular savodsizlik, shijoatsizlik, tor dunyoqarash tufayli kelib chiqadigan salbiy hodisalar mohiyatini ochib tashlashda teatr san’atidan unumli va samarali foydalanganlar.

Teatr san’ati xunuklik ustidan estetik hukm chiqarar ekan, inkorni inkor qonuniga asoslanib, hayot haqiqatini tasdiqlaydi. Estetik ideal insonni mukammal namunaviylik sari

yo‘naltiradi. San’at go‘zallik qonuniyatlari asosida yaratiladi. Sahnada yaratilgan salbiy obraz ijtimoiy hayotdagi salbiy hodisalarga nafrat his-tuyg‘usini uyg‘otsa, ijobiy obraz estetik ideal, barkamollikni ifodalashga xizmat qiladi. Go‘zallik va badiiylikning uyg‘unligi estetik tamoyil hisoblanadi. Aniqroq qilib aytganda, «Badiiylik san’atdagi go‘zallikdir». San’atda badiiylik qonuniyatlari asosida go‘zallik yaratiladi. Teatr san’ati tabiatan sintetik san’at yo‘nalishi bo‘lganligi uchun, undagi badiiylikda estetikaning barcha kategoriyalari: go‘zallik va xunuklik, ulug‘vorlik va pastkashlik, fojialilik va kulgililik, fantastika va hayotiylik, estetik ideal, obrazlilik, xalqchillik, tarixiylik, donolik va hokazolar o‘zining yorqin badiiy ifodasini topadi.

Teatr san’atidagi estetik tamoyillar insonning ruhiyatini, ichki dunyosini ochishga yo‘naltiriladi. Aristotel «Haqiqat bor joyda go‘zallik mavjud», – deydi. G‘azzoliy go‘zal axloq haqida bunday degan — «Olloh Rasuli buyurdilar: – Sen insonsan, Olloh seni go‘zal qilib yaratdi. Sen ham axloqingni go‘zallashtir! Rasullulloh, tez-tez duo o‘qir va shunday der edilar: – Ollohim, men sendan tani sog‘liq, xotirjamlik va go‘zal axloq tilayman.

Olloh Rasuli, namoz boshlashdan oldin ko‘pincha shunday duo o‘qirdilar: – Ollohim, menga axloqning eng go‘zalini ber!». Rumiy ta’biricha, «Sevilgan kishi go‘zaldir. Go‘zallik sevimlilikning bir juz’idir. Sevimli bo‘lmoq asldir. Bu bo‘lgandan keyin go‘zallik ham mavjuddir. Majnunning zamonida ham go‘zallar bor edi va ular Laylidan husnliroq edi. Biroq, Majnun ularni sevmadi. Unga: «Laylidan go‘zalroqlarini senga ko‘rsataylik, beraylik», dedilar. Majnun esa — «Men Laylining suratini sevganim yo‘q va u ko‘rinishdangina iborat emas», deb javob beradi. Shiller: «Tom ma’nodagi adolat – go‘zallikdir»,– deydi.

Bu tamoyillarni milliy rejissura san’atida, sahnada amaliy sinovdan o‘tkazish Mannon Uyg‘ur zimmasiga tushgan edi. Rejissyor M.Uyg‘ur uchun 1919-yil yangi-yangi sinovlar, tajribalar yili bo‘lgan. Odatda bir kechaning o‘zida avval «Padarkush»ga o‘xshagan jadidlar g‘oyasini ifodalaydigan jiddiy spektakl tomosha qilinardi, so‘ngra teatr muxlislarining ko‘nglini ochish uchun, albatta, bitta yoki ikkita bir pardali komediya sahnalashtirilar edi. Komediyalarda savodsizlik, omilik ustidan kulinardi. Mannon Uyg‘ur 1919-yil 23-sentabrdagi tomoshaga rejalashtirgan spektakli uchta bir pardali komediyadan iborat bo‘lib, kecha maxsus nom bilan «Shodlik kechasi» deb atalgan edi.

Inson kulayotganda o‘zini voqelikdan ustun, ulug‘vor sezadi. U ko‘pincha qiyinchiliklar ustidan kuladi. Sahnadagi kulgi esa barchada birday qiziqish uyg‘otishi tabiiy edi. «Go‘zallikni – o‘lchovlar meyori deb belgiladik; ulug‘vorlikda – voqelik insondan ustun kelishi natijasida meyorning buzilishini kuzatdik; fojialilikda – inson yo‘qotgan haqiqat meyorini tiklash uchun kurashda voqelik qurboni bo‘lishini ko‘rdik; kulgulilikda – meyorning inson tomonidan yangidan buzilishini ko‘ramiz, lekin bu jarayonda inson voqelikdan ustun keladi va uning illatlarini, yuzaki mohiyatini ochib tashlaydi», – degan fikrda, ma’lum ma’noda, rejissura san’ati estetik tamoyillari o‘z aksini topgan.

Tasavvur va fantaziyaning uyg‘unligi – estetik kategoriyalar ichida eng kam

o‘rganilganidir. Insonning hali borliqda mavjud bo‘lmagan narsani tasavvurida «asar», «g‘oya», «qoida» shaklida yarata olish qudrati va bu badiiy to‘qimaning keyinchalik borliqqa aylanishiga insoniyat ko‘p marotaba guvoh bo‘lgan. Masalan, ertaklardagi voqealar borliqqa aylanib, uchar gilam – samolyot, oynai jahon – televizor shaklida insoniyatga xizmat qilmoqda. Inson doimo o‘zi uchun sir bo‘lgan dunyoga qiziqadi va bu qiziqishi hech qachon so‘nmaydi. Bu qiziqish uni «sirli olamga», fantastika dunyosiga yo‘llaydi.

San’atdagi har qanday fantastika aniq, bir g‘oyaning ifodasi, uning badiiy shaklidir. Teatr bu janrga murojaat qilganda, faqat jamiyat oldiga yangi muammoni ko‘ndalang qo‘yish bilan cheklanmay, uning yechimini qidiradi, ilm-fan yutug‘idan foydalanadi. Shu nuqtayi nazardan san’at, xususan, rejissura san’atida fantaziya tomoshabinlarni odatiy ko‘nikmalariga mos kelmaydigan yangi, g‘ayritabiiy, kutilmagan, xayolga kelmagan tasodif va shart-sharoit bilan to‘qnashtirishi bilan qiziqarli. Shunday sharoitda fantaziya insonni yanada go‘zal va ulug‘vor qilib ko‘rsatadi. Biz yuqorida eslatgan «Shodlik kechasi» Uyg‘urning rejissyorlik faoliyatida o‘zbek sahnasiga olib kirgan ikki yangiligi bilan qimmatli edi. Birinchidan, «Shodlik kechasi» rejissura san’atining yangi yo‘nalishini namoyon qiladigan alohida komediya janri bo‘lib ajrab chiqqan edi. Ikkinchidan, o‘zbek sahnasiga ilk bor afsonaviy-fantastik janrning kiritilishi rejissura san’ati estetik tamoyillarini yangicha «tahrir qilish»ga yo‘l ochdi.

Spektaklni ko‘rgan M.Shermuhamedov Uyg‘urning rejissyorlik mahoratiga tahsinlar aytib, «xalqning olqishlariga ko‘milib takror va batakror parda ko‘tarilib sahnaga chaqirildi... hammalari mamnun bo‘lib tarqaldilar», deb yozgan edi.

M.Uyg‘ur rejissurada amaliy tajribasi boyigan sari tatar va ozarboyjon rejissyorlaridan meros qolgan ayrim «qolip»lardan asta-sekin voz kechib, yangi ifoda usullaridan foydalana boshlagan edi. Spektaklda, odatda, ayollar rolini erkaklar ijro etgan. Shuning uchun xotin-qizlar rolini ijro etuvchilar iloji boricha sahnaning ikkinchi planiga yoki oxiriga joylashtirilar edi. Chunki ayol personajni o‘ynagan erkak ovozi, kiyimi, plastikasini o‘zgartirgani bilan yuzini grim bilan o‘zgartirish qiyin bo‘lgan. Asardagi shart-sharoitga qarab, ayol kishining sahnada bemalol, tabiiy harakat qilishiga imkoniyat yaratib berish Uyg‘ur rejissurasining yangi uslublaridan biri edi. Bu ham milliy rejissuradagi islohotlardan biriga yorqin misol bo‘la oladi.

Rejissuradagi yana bir «meros» – asar qahramonini doimo birinchi planda ushlab turishga harakat qilinishidadir. Chunki asosiy vazifa shu qahramonga yuklangan bo‘lib, u so‘zlarini tomoshabinga yetkazishga harakat qilishi kerak edi. Uyg‘ur ovozi jarangdor aktyorlar bilan ishlagan. Natijada aktyorlarning sahnada maqsadga muvofiq joylashishi ham asardagi voqealar mantig‘iga qarab hal qilingan. Shu tufayli aktyor erkin, tabiiy harakat qila boshlagan.

Dadillik bilan boshlangan va muvaffaqiyatli o‘tgan tajribalar natijasida, u asta-sekin milliy rejissuradagi eskirgan meroslardan voz kecha boshladi. Sahnada birinchi planga

chiqmaydigan epizodik rollarda ham mantiqiy o‘zgarish yuz berdi. Ularning ham maqsadga muvofiq, izchil va erkin xatti-harakat qilishiga erishildi. Milliy rejissuradagi bunday muhim badiiy-estetik o‘zgarishlar natijasida aktyorlar sahnada hayot mantig‘iga asoslanib, tabiiy xatti-harakat qila boshladilar.

«Andalusning so‘nggi kunlari», «Nodirshoh» kabi tarixiy dramalardan keyin ham Uyg‘ur «sotsializm ruhiga zid» asarlarni sahnalashtirishda davom etdi. Tanqidga uchrashiga qaramay, u G‘.Yunusning «Zahhoki moron», Fitratning «Abo Muslim» asarlarini 1919 yili «Shodlik kechasi»dan keyin sahnalashtiradi. Rejissyorning zamonaviy pyesalar ustida tinimsiz ishlashi va oradan vaqt o‘tishi bilan ularning takomillashtirilgan variantini qaytadan sahnalashtirishi o‘zbek teatrining rivojlanish jarayoniga ijobiy ta’sir etdi. Ayniqsa, tarixiy mavzular orqali xalqni ma’rifatli qilishga intilish va tarix sabog‘idan to‘g‘ri xulosa chiqarishga o‘rgatish, uning ijtimoiy oqibatlarini sahnaviy tahlil qilish orqali falsafiy mazmunni ochish rejissyor Uyg‘urning milliy rejissurasidagi asosiy estetik tamoyili bo‘lib qolgan edi.

M.Uyg‘ur 1919-yilda aql bovar qilmaydigan darajada sermahsul ijod qilgan. U dramaturg, rejissyor, grimchi, afisha yozadigan hattot, milliy dramaturglardan F.Yunus, G‘.Zafariy, A.Qodiriy, A.Badriy, Xurshid asarlarini sahnada sinovdan o‘tkazayotgan ijodkor, tatar va ozarboyjon tillaridagi sahna asarlarini milliy ruhiyatga va tilimizga moslab tabdil qila oladigan tarjimonga aylangan edi. G‘.Zafariy 1919-yili bolalar tarbiyasi mavzusida «Baxtsiz shogird» asarini yozgan. E.Ismoilovning ta’kidlashicha, 1919-yilning oktabr oyida o‘zbek teatrida Uyg‘ur rahbarligida «Bolalar teatri» repertuari dunyoga kelgan. M.Uyg‘ur va F.Zafariy hamkorlikda teatr sahnasining tarbiyaviy imkoniyatlaridan endi millat bolalari tarbiyasi yo‘lida foydalanishga bel bog‘lagan edilar. Samarali hamkorlik natijasida 1919-yil oktabrida Uyg‘urning «Turkiston tabibi», F.Zafariyning «Tilak», «Rahmli shogird», «Yomon o‘g‘il» asarlari sahnalashtirilgan. Bu hamkorlik keyin ham izchil davom etgan. 1920-yilda «Turkiston tabibi», «Rahmli shogird» va «Tilak» qayta sahnalashtirildi. 1921-yilda «Erk bolalari», «Turkiston tabibi» va takomillashgan «Erk bolalari» qayta tiklandi. 1922-yilda «Turkiston tabibi», «Erk bolalari», F.Zafariyning yangi asari «Tuyg‘unoy» va yana «Turkiston tabibi» sahnalashtirilgan. Bolalar uchun yozilgan sahna asarlari teatr sahnasidan maktab drama to‘garaklari sahnalariga ko‘cha boshladi. Ikki pedagog M.Uyg‘ur va F.Zafariyning badiiy-estetik hamkorligi bolalar teatri repertuarini shakllantirgan edi. Bolalarni san’at olamiga oshno qilgan dramaturg Zafariy asarlari yillar davomida maktablardagi estetik tarbiyaga asos va amaliy qo‘llanma bo‘lib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.Mirziyoyev. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. 2017.
2. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. T.14. –T.: O‘zbekiston. 2006. 9-10 b.
3. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. – T.:Universitet. 1998.

4. Fasafa qomusiy lug‘ati. –T. 2004. 122- b.
5. O‘zbek davlatchiligi tarixi ocherklari. –T. 2001.151-b.
6. B.Hasanov, N.Karimov. Behbudiy merosining milliy g‘oya targ‘ibotidagi ahamiyati. – T. 2014. 102-b.
7. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Muhtaram yoshlarg‘a murojaat. «Oyna» jurnali. 1914 yil. 41-son. 970-972-betlar.
8. Sh.Mirziyoyev. Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari. 2020.

Imamov Azizxon Avazxanovich,
O‘zR FA San’atshunoslik instituti ilmiy xodimi,
san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘ZBEKISTON RASSOMLARI IJODIDA BERUNIY OBRAZINING TALQINI

Annotasiya: *Ushbu maqolada milliy rangtasvirda buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy obrazini yaratish bilan bog‘liq muhim izlanishlar, ularning shakllanish va rivojlanishi tadqiq etilgan. Maqola muallifi buyuk alloma siymosi ochib berilgan tarixiy portret va kartina janridagi asarlarni tahlildan o‘tkazib, rassomlar ijodida ustuvorlik qilgan uslubiy, ikonagrafik va tipologik xususiyatlarni aniqlashga erishgan. Bu ilmiy natijalar O‘zbekiston rangtasvirida Sharq allomalarining haqqoniy timsolini tiklash jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ijodiy mezonlar, istiqbolli vazifalarni belgilash imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *tarix, rangtasvir, janr, portret, kartina, kompozitsiya, obraz, ikonagrafiya, stereotip, Renessans.*

Annotation. *In this article, important creative research related to the creation of the image of Al Beruni in the national painting, their formation and development are studied. The author of the article analyzed the works of historical portraits and paintings in which the figure of the great scientist was revealed, and managed to determine the stylistic, iconographic and typological features that were the priority in the work of the artists. These scientific results make it possible to identify important creative criteria and promising tasks in the process of restoring the true image of the great scientists of the East in the image of Uzbekistan.*

Key words: *history, painting, genre, portrait, picture, composition, image, iconography, stereotype, Renaissance.*

O‘zbekiston rangtasvirida buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy obrazini yaratish ustida olib borilgan izlanishlar o‘ziga xos tarixga ega. XX asr o‘rtalarida, jamiyat madaniy hayotidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liqlikda rivojlangan bu jarayon turli avlod rassomlari tomonidan yaratilgan rang-barang badiiy talqinlarda namoyon bo‘ladi.

Xorazmlik mutafakkirning tarixiy qiyofasini ochib berishga qaratilgan dastlabki urinishlar ikkinchi jahon urishidan keyingi yillarda amalga oshirildi. Bu davrda Vatan ozodligi yo‘lida kurash olib borgan o‘tmish qahramonlariga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi buyuk shoir va olimlarning shonli sanalariga bag‘ishlangan yubileylarni

o‘tkazish imkonini berdi. Xususan, mamalakat bo‘ylab Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi keng nishonlanishi tarixiy janrdagi izlanishlarni rag‘batlantirgan muhim ijtimoiy omillardan biriga aylandi. Bu jarayonda qo‘lga kiritilgan ilk ijodiy muvaffaqiyatlardan biri – V.Kaydalovning “Alisher Navoiy portreti” (1947) buyuk shoirning namunaviy obrazini aks ettirgan asar sifatida tasdiqlanib [1, 35-b.], Sharq allomlariga murojaat qilgan ko‘plab rassomolar uchun ikongrafik asos vazifasini bajargan.

1949-yili Beruniy yubileyi munosabati bilan O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan maxsus tanlov e’lon qilinadi. Unda o‘ttizdan ziyod rassomlar, jumladan, boshqa respublikalarda faoliyat yuritgan ijodkorlar ham ishtirok etishgan. Biroq bu jarayon o‘ziga xos murakkablikka ega bo‘lganini ham qayd etish lozim. Sababi, rassomlar ixtiyorida Beruniy obrazi haqida haqqoniy tasavvur berishi mumkin bo‘lgan manbalar, masalan, Navoiy surati aks etgan o‘rta asr miniatyuralariga o‘xshash qimmatli ijodiy material mavjud emasdi. Shu bois, buyuk olimning qiyofasini tiklash jarayonida aksar ijodkorlar musulmon allomalari uchun xos bo‘lgan umumiy stereotiplarga tayanadi.

Tanlovga taqdim etilgan ishlar orasida yosh musavvir Malik Nabiyevning “Abu Rayhon Beruniy potreti” (1949) nisbatan to‘laqonli obrazga ega asar sifatida tanlandi. Komissiya a’zolari portretdagi etnik tipajni yanada mukammalashtirish zarurligini qayd etib, yosh rassomga haykaltarosh E.Martinenkoning Beruniy byustini o‘rganib chiqishni tavsiya qilishdi. 1950-yili M.Nabiyev bu portretning qayta ishlangan namunasini havola etadi [2, 145-b.]. Biroq mazkur asar E.Martinenko tomonidan ishlangan obrazga bevosita tayanilgan holda yaratilgan, deb aytolmaymiz. Unda Beruniy sharqona naqshalar bilan bezatilgan xonada qo‘lyozmalarini bityogan ko‘rinishda tasvirlangan bo‘lib, rassom bu orqali ilm bilan mashg‘ul bo‘lgan olimning ma’naviy teranlikka ega qiyofasini ochib berishga harakat qilgan. Shunga qaramay, bu jarayonda muallif allomaning sovet mafkurasi uchun maqbul sanalgan umumlashtirilgan obrazi bilan chegaralanishga majbur bo‘ldi. O‘zbekistonda portret janrini tadqiq etgan yetakchi tadqiqotchilardan biri A.Umarov mazkur asarni ulug‘ allomaning kompozitsion portreti sifatida baholagan [3, 162-b]. E’tiborli jihati, M.Nabiyev bu yo‘nalishdagi izlanishlarini keyichalik ham davom ettirdi. 1973-yili Beruniy tavalludining 1000 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan maxsus tanlov uchun rassom eng mashhur tarixiy portretlaridan birini taqdim etadi.

Bu davrga kelib, tarixiy janrda katta tajriba to‘plashga ulgurgan musavvir o‘z oldiga Beruniyning individual sifatlarga ega realistik qiyofasini yaratish vazifasini qo‘yadi. 1950-yilda ishlangan potret uchun xos kompozitsiyani saqlab qolish orqali M.Nabiyev alloma obrazini yanada hayotiylashtirishga, tarixiy interyerni boyitib, asarning umumiy koloritni jonlantirishga erishdi.

Olim obrazi jiddiy ko‘rinishda, ruhi va vujudi fan bilan band bo‘lgan inson, kuchli ma’naviy qudrat sohibi sifatida talqin etilgan. Uning qiyofasidagi etnik xususiyatlar, sharqona salobat ushbu portretda o‘zbek xalqining tom ma’nodagi buyuk ajdodi tasvirlganini, qayd etish uchun asos beradi.

XX asrning ikkinchi yarmida Beruniy obrazi ustida yana bir qator rassomlar ham izlanish olib borishgan. 1960-yilardan boshlab, “O‘zbeksitonda asta-sekinlik bilan milliy, tarixiy va madaniy o‘zlikni anglash jarayoni avj olib, 1970-yillar va 1980-yillar boshida yanada jadal tus oladi, ... Milliy madaniyatda yuz bergan bu o‘ziga xos Renessans boshida esa ilm-fan va badiiy ijod sohasi vakillari turgan” [4, 228-b.]. Rangtasvirda, xususan, portret janrida milliy o‘ziga xoslikni ochib berish dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Bu davrda katta avlod vakillari va milliy maktabning yangi davomchilariga aylangan yosh rassomlar o‘z ijodida milliy matolar jilosini yodga soluvchi koloristik echimlarni, sof ranglar va yassi yuzali tasvir uslubini mohirlik bilan qo‘llay boshladi. Bu rang-barang izlanishlar tarixiy janrda, xususan, Sharq allomlarinin siymosiga bag‘ishlangan asarlarda ham o‘z aksini topdi.

Masalan, O‘rol Tansiqboyevning “Beruniy portreti” (1960)ni Sharq allomalari bilan bog‘liq an’anaviy tasavvurlar doirasida yaratilgan asar sifatida baholash mumkin. Klassik kopozitsiyaga ega portretda jahongashta olim ochiq osmon ostidagi shahar fonida tasvirlangan. Shunga qaramay, asarda tarixiy interer va qahramon ruhiy dunyosi o‘rtasida etarli darajada bog‘liqlik yo‘qligi seziladi. Qiziqarli talqinga ega ishlar orasida To‘ra Quryozovning “Beruniy” (1968)sini ham qayd etish lozim. Unda rassom musulmon allomalari uchun xos umumiy obraz shakllidan chekingan holda, Beruniyni Xorazm madaniy muhitining yaqqol vakili sifatida gavdalantirgan. U o‘z xujrasida qora cho‘girma va ko‘k chakmon kiygan holatda aks ettirilgan bo‘lib, olimning yuz qiyofasi aniq etnik xususiyatlarga ega. Ramziy yondashuvga asoslangan M.Pashkovskayaning “Ibn Sino, Beruniy va Masixiy” (1969) kartinasida esa milliy rangtasvirda Beruniy zamondoshlari bilan bog‘liq tarixiy motiv rivoj topishni boshlagani kuzatiladi.

1970-yilarga kelib, Beruniy shaxsiga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi natijasida, san’atda olim yashagan tarixiy davrni yanada chuqur idrok etish ehtiyoji yuzaga keldi. Xususan, Ro‘zi Choriyevning “Beruniy” (1973) asarida ziddiyatlarga boy, murakkab zamonda hayot kechirgan mutafakkirning dramatik obraziga guvoh bo‘lamiz. Oq libos kiygan Beruniy R.Choriyev portretlariga xos ko‘rinishda, ya’ni butun bo‘y basti bilan qo‘lida kitob ushlagan holatda tasvirlangan. U tun zulmatida ilm ziyosini taraqatayotgan mautafakkir rolida namoyon bo‘lib, jaholat va ma’rifat o‘rtasida davom etayotgan azaliy kurash markazidagi qahramonga aylanadi.

Sharq allomalariga keng e’tibor qaratgan rassomlar orasida Chingiz Ahmarovni ham alohida qayd etish lozim. Rassom o‘z ijodida “mahobatli rangtasvir, miniatyura va ornamental-dekorativ san’at an’analarini O‘rta Osiyo she’riyatidagi syujetlar va poetik g‘oyalar bilan o‘ziga xos ko‘rinishda ug‘unlashtirishning mutlaqo yangi, boshqalarga

o‘xshamaydigan yo‘lini topishga erishdi" [5, 95-b.]. Bu jihat rassomning monumental xarakterga ega tarixiy portretlari va kartinalarida o‘zining yorqin ifodasini topdi. Ular orasida “Ibn Sino va Beruniy” (1981) asari nafis sharqona poetikasi bilan ajralib turadi. Kartinada Xorazmdagi Ma’mun akademiyasida faoliyat yuritgan ikki navqiron olimning suhbati aks ettirilgan. Asar uchun tanlangan och sovuq kolorit, naqshinkor moviy chiziqlar qahramonlar qiyofasidagi teran tafakkur, ma’naviy yuksaklik hissini yanada kuchaytiradi. Shu bilan birga, rassom Beruniy ikonografiyasini yanada boyitishga intilganini ko‘ramiz. Umumlashtirilgan, barkamol qiyofaga ikki alloma asarda oy va er o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasdiqlovchi chizmalarni muhokama qilayotgan holatda talqin etilgan.

1970-1980-yillarda buyuk qomusiy olimning serqirra faoliyati haqida hikoya qiluvchi mavzuli kartinalar R.Rizamuxamedov (“Ibn Sino va Beruniy quyosh tutilishi arafasida” 1979-1980 yy.), R.Limakov (“Beruniy akademiya qurilishiga boshchilik qilmoqda” 1989 y.) kabi rassomlar tomonidan ham ishlangan. Shu bilan birga, rangtasvirda Markaziy Osiyolik olimlarning jahon ilm-fanidagi rolini yanada keng ochib berishga qaratilgan yangi tendentsiya shakllanadi. “Bu davr izlanishlari milliy va jahon madaniy merosini qayt baholab, undan davrga mos yo‘nalishlarini qo‘llash imkoniyatlarini ochdi. Antik dunyo, O‘rta asr madaniyati, Uyg‘onish davri san’ati an’analari rassomlarni o‘ziga jalb etdi” [6, 9-b.] Masalan, J.Umarbekovning “Inson zakovati” (1980) komopozitsiyasi va B.Jalolovning "Inson tafakkurining tantanasi” (1988) devoriy suratida Beruniy dunyoga mashhur Sharq va G‘arb olimlari bilan bir safda tasvirlangan. Har ikki asarda ham Beruniy ko‘p sonli personajlardan biri sifatida namoyon bo‘lishi mutafakkir siymosini umuminsoniy ko‘lamda idrok etishga imkon beradi.

Yuqorida tahlil etilgan badiiy jarayonlar milliy rangtasvirda Beruniy obrazi bilan bog‘liq izlanishlar ijtimoiy-madaniy omillar ta’sirida rivoj topganini ko‘rsatadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, bu yo‘nalishda olib borilgan ijodiy tajribalar natijasida turli avlod rassomlari tomonidan o‘ziga xos talqin shakllari ishlab chiqildi. Ular orasida tarixiy-realistik yondashuvlar bilan birga, ramziy-poetik, falsafiy yechimlar ham ustuvorlik qilgan.

Albatta, bu boradagi izlanishlar mustaqillik yillarida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmadi. Jamiyatda tarixiy xotirani tiklash orqali milliy o‘zlikni anglash bo‘lgan intilish birinchi navbatda, xalqning buyuk siymolariga keng e’tibor qaratishga undadi.

Biroq, o‘tgan yillar davomida Beruniy obrazini ochib beruvchi keng ko‘lamli, zamonaviy san’at bilan uyg‘un tajribalar amalga oshirildi, deb aytolmaymiz. Olim siymosi gavdalangan aksar kartinalarda eski yondashuv va qoliplar saqlanishda davom etmoqda. Mavjud holat, zamonaviy o‘zbek rangtasvirida Sharq Renessansining yorqin namoyondaliridan biri – Abu Rayhon Beruniy obrazini yangi tarixiy manbalar, badiiy

ifoda uslublariga asoslangan holda qayta idrok etish dolzarb ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мюнц М.В. В.Е. Кайдалов. – Ташкент: Госиздат УзССР, 2011. – 76 с.;
2. Изобразительное искусство Советского Узбекистана / Н.М. Абрамова, В.Н. Кедрин, С.М. Круковская, М.В. Мюнц, Г.А. Пугаченкова; Под. общ. ред. М.И. Шевердина. – Ташкент: Гослитиздат, 1957. – 250 с.;
3. Искусство Советского Узбекистана. 1917-1972 / В. Долинская, П. Захидов, Т. Кадыров, Т. Силантьева, Р. Такташ, А. Умаров, Д. Фахретдинова. науч. ред. Л.И. Ремпель. – Москва: Советский художник, 1976. – 608 с.;
4. Хакимов А. Нетленный свет. – Ташкент: “San’at”, 2018. – 400 с.;
5. Ахмедова Н. Живопись Центральной Азии XX века: традиции, самобытность, диалог. – Ташкент: SCD, 2004. – 224 с.;
6. Ўзбекистон миллий портрет санъати: Альбом / кириш мақоласи Н. Абдуллаев. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – 160 б.

Isroilova Mohina Adhamovna,
O‘zDSMI mustaqil tadqiqotchisi,
“San’atshunoslik” kafedrasi o‘qituvchisi

“O‘RTA ASR SHARQ ALLOMALARI VA MUTAFAKKIRLARI TARIXIY MEROSIDA SAN’AT VA MADANIYAT MASALLARI” (JADID DRAMATURGIYASI MISOLIDA)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada xalqlar ma’naviyatini shakllantirish ilojsiz ekanligini tushungan ma’rifatparvar jadidlarning islom ma’naviyatini yangi bilimlar bilan boyitib, tarixiy jarayonda odamlar imon-e’tiqodi ma’naviyati, dunyoqarashini shakllantirishga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shganliklari shuningdek, ilmu-ma’rifat, ma’naviyat inson kamoloti uchun nechog‘lik muhim ekanligini yoshlar ongiga singdirishda kerak bo‘lsa o‘z jonlarini fido qilganliklari xaqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *ilm, bilim, ma’naviyat, madaniyat, ma’rifat, adabiyot, dramaturgiya, teatr.*

Annotation. *In this article, the enlightened Jadids, realizing that without scientific knowledge it is impossible to form the spirituality of peoples, enriched Islamic spirituality with new knowledge and made a worthy contribution to the formation of the spirituality and worldview of people in the historical process. Then they sacrificed their lives.*

Key words: *science, knowledge, spirituality, culture, education, literature, drama, theater.*

“Ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo‘q joyda hech qachon baxt-saodat bo‘lmaydi” [1], degan edi O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov. Ya’ni ma’naviyatning yetakchi targ‘ibotchilaridan biri bu – teatr san’atidir. Chunki u bevosita tomoshabinlarga ta’sir

ko‘rsatadi. Sahnada yuz berayotgan voqealar bilan tomoshabin o‘rtasidagi ma’naviy ko‘prik vazifasini o‘tagan holda, ikki tomonlama ta’sir kuchi bilan sahnada qahramonlar qiyofasini gavdalantirayotgan har bir aktyorga va ularning harakatlarini kuzatib turgan tomoshabinga ruhiy ozuqa beradi. “Teatr minbar, ibratxona, ma’rifat o‘chog‘i, odobnomadir”[2].

Mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy sohalarda jadal sur’atda olib borilayotgan tub islohotlar bugungi kunga kelib o‘zining amaliy natijalarini bermoqda.

Albatta, bu islohotlar so‘nggi yillarda boshqa sohalar qatori, mamlakatimiz teatr hayotida ham tobora yaqqol namoyon bo‘lib bormoqda.

Hukumatimiz tomonidan teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida bir qancha qarorlar qabul qilinmoqda. Mamlakatimizdagi ko‘plab teatrlar jahon miqiyosida o‘tkazilgan festivallarda qatnashib, faxrlansa arzigulik natijalar bilan qaytishyapti. Yosh aktyorlar, rejissyorlar, rassomlar, dramaturglar teatrlarga shiddat bilan kirib kelmoqdalar. Ular teatrlarga yangicha nafas, yangicha qiyofa, yangicha shaklni olib kelishmoqda. Bu eng avvalo, respublikamizda mavjud barcha davlat tasarrufidagi teatr jamoalari o‘z repertuarlarini shakllantira olish imkoniyatiga ega bo‘lganliklari bilan izohlanadi. Natijada, teatrlarimiz repertuarida paydo bo‘layotgan yangi asarlarning mavzusi, mazmun-mohiyati, soni va solmog‘i yildan – yilga kengayib bormoqda. Keyingi yilarda teatrlarimiz sahnalarida paydo bo‘layotgan asarlarning soni ortgan sari, ularni saralash, bugungi kun tomoshabinining turli qatlamlari talab va ehtiyojlarini qondira oladigan, ayniqsa, yoshlarimiz ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ota-ona hamda mustaqil Vatanimizga mehr-muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini shakllantira oladigan, unga ma’naviy-ruhiy quvvat bera oladigan zamonaviy mavzulardagi sara asarlarni sarhisob qilib sahnalashtirish masalasi har qachongidan ham dolzarb bo‘lib bormoqda. Binobarin, teatr tomosha san’ati bo‘lganligi uchun ham, har bir teatr jamoasi avvalambor, o‘z tomoshabinining talab va ehtiyojini doimiy ravishda o‘rganib borish zarur.

Mustaqillik yillarida dramaturglarimiz misli ko‘rilmagan ijodiy erkinlikka erishdilar. Turli mavzuda, turli janrda xalqimiz hayotining turli tarixiy davrlari haqida asarlar yaratish imkoniga ega bo‘ldilar. Bu davr qadimiy an’ana va urf-odatlar hamda qadriyatlarimiz xalqimizga qaytarilganligini inobatga olsak, mustaqillikning dastlabki kunlarida dramaturglarimiz yoppasiga tarixiy mavzuga murojat etganliklari bejiz emasdek ko‘rinadi. Zero, aynan ushbu mavzu sho‘ra davrida mafkura ta’qibi ostida qolib keldi. Albatta tarixiy dramaturgiyada ham voqealar uzoq yoki yaqin o‘tmishda kechsa-da, o‘z mohiyatiga ko‘ra, ayniqsa, qahramonlarning kurashi, muammolari bilan zamonga hamohang bo‘lishi kerak. Yosh avlodni milliy g‘urur, milliy qadriyatlarimizni e’zozlash ruhida tarbiyalashda ularning o‘rni beqiyosdir. Mustaqillik yillarida tarixiy asarlarning bu qadar ko‘p yozilishi va sahnalashtirilishiga yana bir sabab – ularning davlat buyurtmasi sifatida ma’lum sanalarga mo‘ljallab yozilganligidir.

“Yoshlarimiz millatimiz sha’nini ulug‘lagan, uni dunyoga tanitgan olimu fuzalolar, davlat arboblari, shoirlar taqdiri, hayoti aks ettirilgan sahna asarlari asosida qo‘yilgan spektakllarni ko‘rib qanchalik to‘lqinlansa, jamiyatimizda shu kunlarda kechayotgan jarayonlarni, voqealarni aks ettiruvchi, istiqlolni mustahkamlash uchun kurashayotgan qahramonlarni gavdalantiruvchi zamonaviy mavzudagi asarlar ham ularni shunchalik

hayajonga soladi”. Faqat dramaturgiya va sahna ijodkorlari dolzarb va hayotiy mavzularni topa bilishi, ularni ta’sirchan ifoda vositalari yordamida talqin eta olishi kerak.

Dramaturg bir pyesani yozib sahnaga chiqargunga qadar mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tadi. Chunki asar teatr jamoasida o‘qilganda ham turlicha fikrlar bildiriladi. Dramaturg sabr – toqat bilan fikr-mulohazalarning eng muhimlariga e’tibor berib, asarni yaxshilab boradi. Bu jarayonda rejissyor, rassom, kompozitor, aktyor, xullas, barcha ijod ahli bilan hamkorlik qiladi. Asar sahna yuzini ko‘rib, tomoshabinga havola qilingandagina, dramaturg o‘z vazifasini bajargan bo‘ladi. Zamonaviy mavzularni yoritishda, afsuski, hayotda ro‘y berayotgan jarayonlarni chuqur idrok etmaslik, sahna qonun-qoidalarini yaxshi bilmaslik, konfliktning kuchli xarakterlar to‘qnashuvida emas, balki mayda maishiy mashmashalardan kelib chiqayotganligi, personajlarning quruq so‘zamolligi kabi nuqsonlar kuzatilmoqda.

Bunday nuqsonlarni bartaraf qilish uchun esa dramaturglarimiz hayotni uzluksiz o‘rganishi, insonlar, ularning hatti-harakatlari, turmush tarzini kuzatishi lozim bo‘ladi. Dramaturg xalq dardi, uning shu kundagi orzu-istaklari, muammolari, kechinmalarini his etsagina haqiqiy zamonaviy asar yaratishi mumkin.

Ma’rifatparvarlarning yetakchi namoyandasi M. Behbudiy o‘zining “Teatr nadur?” maqolasida “Teatr va’z va tanbih etguvchi hamda zararlik odat, urf va taomilni, qabih va zararini ayonai ko‘rsatguvchidir. Hech kimni rioya qilmasdan to‘g‘ri so‘ylaguvchi va ochiq haqiqatni bildirguvchidir” [3], deb aytganda teatrning qalblarni poklovchi bir maskan ekanligini va jamiyatda har bir inson teatr bilan oshno bo‘lsa mudrab borayotgan ko‘zlari ochilib, be’mani o‘ylar bilan zang bosib borayotgan ongini yuvib, turli xil yo‘llarga beixtiyoriy yurib borayotgan oyoqlarini to‘g‘ri yo‘lga solishini nazarda tutgandir.

Xalqimiz Rixsivoy Muhammadjonovni kinodramaturg sifatida yaxshi taniydi. Uning qalamiga mansub kino kartinalar o‘zbek kinosi taraqqiyotining rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shdi. Oxirgi paytda R. Muhammadjonov teatr dramaturgiyasida samarali ijod qilishni boshladi. Dramaturg tomonidan yozilgan sahna asarlari O‘zbek davlat drama teatrida birin-ketin sahnalashtirildi. Ikki pardali, to‘tr ko‘rinishdan iborat bo‘lgan “Tirik yetimlar” dramasi teatrning yosh aktyorlaridan biri Bahodir Mirsodiqov tomonidan sahnalashtirildi.

B. Mirsodiqov o‘z muxlislariga ega bo‘lgan talantli yosh aktyorlardan biri, uning rejissurada o‘zini sinab ko‘rishi va muvaffaqiyatga erishishi bevosita dramaturgiya bilan bog‘liqdir.

Dramaturgiya – adabiyot janri. Lekin u teatr vujudga kelishi evaziga dunyoga kelgan. Shunday ekan dramaturgiya teatrsiz yashay olmaydi. Yaxshi sahna asari uzoq vaqtgacha kimlarningdir stolida teatrni mahtal bo‘lib kutib turmaydi. Yaxshi asar yoniga teatrning o‘zi keladi. “Tirik yetimlar” dramasi ana shundan ta’rifga loyiq pyesadir.

Pyesasi aynan bolalar uyidagi yetimlarning hayotidan hikoya qiladi. Asarning bosh qahramonlari Butir, Bahtiyor, Baxor va Nazira ismli yigit-qizlar bo‘lib, voqealar asosan ular o‘rtasidagi bahs-munozaraga qurilgan.

Bolalarimiz – kelajagimiz deb ko‘kragimizga mushtlaymiz-u, lekin minglab bolalar o‘z ota-onalarini kimligini bilmay bolalar uyida yashayotganidan xabarimiz yo‘q. Yaxshiyam bag‘ri keng davlatimiz bor. Tug‘sang, tug‘dirsang bo‘ldi., yallo qilib yuraverishing mumkin. Davlatni o‘zi boqib olaveradi. Bizlarga nima bo‘layapti-yu, yana qaysi tubanlikka tomon yo‘l olayapmiz? Uzr, ko‘p gapirib va’zxonlik qilib yubordim. Sizlardan faqat bitta iltimos, uyga borganlaringda sekin oynaga qarab quloklaringizga razm solib ko‘ring. Yo‘q, yo‘q, bu yerda emas, uyda, uyda karaysizlar. Bu yerda birov ko‘rib qolishi mumkin”.

Pyesaning bosh qaxramoni Butir tilidan aytilgan mazkur monologni o‘qir ekansiz pyesa voqealaridan tortib, so‘zlariga mazkur monologni yozish uchun qo‘llanganiga imonimiz komil bo‘ladi. Bu bilan haqli ravishda aytishimiz mumkin-ki, dramaturg ko‘zlagan maqsadiga yeta oldi.

Pyesani o‘qiganingizdan so‘ng unda ko‘tarilgan mavzu, intriganing kuchayib borishi, dialoglarning lo‘ndaligi, yechimning kutilmagan holatda yuzaga kelishidan kino dramaturgiya elementlarini uchratasiz. Biroq, sahna san’ati qonuniyatlari chetlab o‘tilmay, unga to‘laligicha bo‘ysudirilgan. Bu esa pyesaning sahnada jonlanishida aniq isbotini topdi.

Asar 2009 yili teatrning yosh, iqtidorli aktyori Bahodir Mirmaqsudov rejissyorlik faoliyatining debyuti sifatida yuzaga keldi. Spektakl nomiga kelganda rejissyor asar nomini saqlab qolmadi, uning badiiy quvvatini yanada oshirish maqsadida unga “Davlat bolalari” deya nom berdi. Mazkur nom qaysiridir ma’noda dramaturg ko‘zlagan maqsadning to‘lalagicha ochilishiga sabab bo‘ldi.

Sir emaski, spektakl sahnalashtirmasdan avval yoki sahnalashtirilgan taqdirda ham uni ko‘rmasdan avval pyesani o‘qigan o‘quvchi undagi qahramonlar ko‘rinishini, egnidagi kiyimini, xarekterini o‘z xayoli bilan gavdalantirib oladi.

Spektakl janri, unda ko‘tarilgan mavzu jihatdan jiddiyroq o‘ylab qaralganda bunday tomoshaning yuzaga kelishi bir-biriga zid bo‘lgan xolatni vujudga keltirgan. Aktyorning sahnada tinimsiz harakat qilishi bu yaxshi narsa, lekin ko‘pgina harakatlar

oqlanmay ketgani, aktyor tomonidan topilgan impravizatsiya, bo‘rtirilgan qiliqlarning ko‘payishi evaziga ijroda bachkanalik seziladi.

Har kim qilgan ishiga qarab ajrim topadi deyishadi. Biroq, mazkur sahnani kuzatib turgan tomoshabin aynan shunday natija kutayotganligini ularning olqishlashlaridan ko‘rishimiz mumkin. Baxtiyor va Bahor Butirning aytgan gaplari haqiqatga nechog‘lik yaqin ekanligini bilish uchun sevishganlar rolini o‘ynashga rozi. Lekin sir emaski, ko‘ngllarining bir chetida Butirning hazil bilan aytgan so‘zlari chin bo‘lishiga orzumanda ekanliklari ularning holatlaridan ayon bo‘lib turibdi. Butir ularni ota-onalari kelganlarida o‘zlarini qanday tutishlarini Baxtiyor va Bahorga o‘rgatadi. Agar ular qarshi bo‘lsa ham, o‘z ahdlaridan qaytmasliklarini uqtiradi. Spektakl ichidagi spektakl boshlanadi. Avvaliga Baxtiyorning dadasi Nasliddinov (O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist H. Arslonov) diplomat ko‘targancha kirib keladi. Nasliddinov o‘g‘lini so‘roqqa tutadi. Baxtiyor dadasi berayotgan savollariga javob berarkan, aslida mazkur ishlar ushyutirilayotganini sezdirib qo‘ygandek tutilib-tutilib javob bera boshlaydi. Butir buni payqaydi va boshlagan tomoshasi oxiriga yetmasdan avval “proval” bo‘lmasligi uchun Baxtiyorga yordamga keladi va Nasliddinov savollariga hech ikkilanmasdan tezkorlik bilan javob beradi.

Nasliddinov Butirni kimligini so‘raganida o‘zini Butir Davlatovich deb tanishtiradi. Bu notanish yigitning javobi otani sergaklantiradi. Hatto soxtalik bilan Butirga dadasini tanishini aytadi. Butirni javobi esa doim naqd, u “dadamni hamma taniydi”, deya javob qilgandan so‘ng Nasliddinov ichkari honaga kirib ketadi. Oradan biroz vaqt o‘tgach Bahorning onasi Xumora (O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist T. Mirmaqsudova) kirib kirib keladi, u ham qizini savolga tutadi. Bahorning o‘rniga Butir javob beradi. Butir bilan tanishgan Xumora ichkariga kirib ketadi. Sahnada esa natijani kutib turgan yoshlar qoladi.

Butirning Baxtiyor va Bahor haqidaga hazil bilan aytgan gaplari haqiqat edi. Haqiqatning achchiq bo‘lishini ichkarida Nasliddinov va Xumoraning ko‘rishib, sahnaga umuman o‘zga qiyofada kirib kelishidan anglashimiz mumkin. Farzandlari o‘z baxtini topayotganidan mumnun ko‘ringan ota-onalar endi ularni turmush qurishiga qat’iyan qarshi. Izohsiz sabab evaziga bunday qarshilikning vujudga kelishi Bahtiyorni shoshirib qo‘yadi. Shuning uchun u otasini nima uchun qarshiligi sababini bilishga oshiqadi.

Ota esa buning sababini izohlashga ojiz, chunki qarshisida turmush qurish arafasi turgan ikki yosh uning farzandlari. Bu haqiqatni anglagan Xumora ham to‘yga qarshi, u ham qizi Bahorning savollariga javob bera olmaydi. Vaziyat taranglashadi, tabiiyki bunday damlarda tomoshani boshlagan Butirning o‘zi tomoshaga yakun yasash uchun tilga kiradi. Butirning aytgan gaplaridan Nasliddinov ham, Xumora ham bo‘yin tovlay olmasdi, chunki u ayni haqiqat so‘zlarni aytayotgandi. Baxtiyor va Bahor ota-onalarining holatlarini ko‘rib ular o‘rtasida qondoshlik rishtasi rost ekanligiga endi

tamomila ishonishadi. Ularning haqiqati ochiladi, endi navbat esa spektaklning bosh qahramoni Butirning haqiqati edi. Tomoshabin spektakl boshidan to shu choqqacha Butirni akademikning o‘g‘li ekanligiga ishongandi. To‘g‘ri, o‘zini tanishtirib Davlatovich deganida tomoshabin nimanidir sezgandek bo‘lar, lekin Butirning o‘zini tutishida, yetimlik to‘g‘risi umuman gap ochmaganligidan bu sezgi o‘z kuchini yo‘qotadi. Baxtiyor ota-onasini haqoratlagani uchun Butirga musht tushirganida uning haqiqat bulog‘i o‘z-o‘zidan ochila boshlaydi. Butir ham ular kabi yetim o‘sgan, lekin ular kabi otasi yoki onasi tirik bo‘laturib yetim qolmagan, aksincha u chin yetim, na otasini na onasi biladi. Spektakl oxirida Butir shu choqgacha yashirib yurgan haqiqati haqida monolog o‘qiydi. U monolog o‘qirkan avvalgi sahnalardagi uning xushchaqchaq kayfiyatini ko‘rmaysiz, u nima uchun kundan kunga sevgi atalmish muqaddas tuyg‘u o‘z kuchini yo‘qotib borayotganidan, buning natijasida esa bolalar uyi u kabi bolalar bilan to‘lib borayotganidan, aslida daxshatli o‘tmishini kulgisi ortiga yashirishini, bu uyalganlikdan emas, balki o‘z-o‘zini yolg‘on bo‘lsa ham ovutish ekanligini, yuragining tub-tubida yashirib yurgan alamlarini to‘kib soladi.

Spektakldagi aktyorlar ijrosiga e’tibor beradigan bo‘lsak eng avvalo Butir qiyofasiga to‘xtalish kerak. Agar biz spektakl voqealari boshidagi Butir bilan spektakl oxiridagi Butir qiyofasini solishtiradigan bo‘lsak, ular o‘rtasida juda katta farqni kuzatamiz. Aktyor A. Ahmedov ijrosidagi sahnadan sahnaga o‘tishda aktyorlik ijrosining o‘sib borishi, ayniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, holatning o‘zgarib borishi, ya’ni obraz dialektikasi ijrodagi eng katta yutuqlardan biri sifatida ko‘rinadi. To‘g‘ri biz yuqoridagi pyesani o‘qigan o‘quvchi spektaklni ko‘radigan bo‘lsa aktyorning tashqi ko‘rinishidan Butir sifatida hazm qila olmasligini ta’kidladik. Lekin, natijaga kelganda muhimi ijro ekanligi, aktyorning ijrosi qad-qomatdagi tomoshabin hazm qila olmaydigan jihatlarni yengib o‘tib, tomoshabin ko‘ngliga yo‘l topa olishi, bu aktyorlik maktabidagi ulug‘ haqiqat ekanligining yana bir bor guvohi bo‘lamiz.

Qolgan aktyorlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, Baxtiyor qiyofasida gavdalangan S. Mansurov ijrosidagi sun’iylik, bu sun’iylik deklamatsiyaga aylanib qolganligini spektakl oxirigacha ko‘rishimiz mumkin. Bahor rolini o‘ynagan Yo. Yuldosheva ijrosiga keladigan bo‘lsak, u Nazira qiyofasida gavdalangan N. Toshmatovaga nisbatan kuchli emosiyaga ega aktrisa sifatida o‘zini ko‘rsata oldi. Baxtiyor va Bahorning ota-onasi qiyofasida sahnada jonlangan H. Arslonov va T. Mirmaqsudovalarning ijrosi yosh aktyorlarga nisbatan orttirilgan tajriba evaziga o‘zining tabiiyligini ta’minladi.

Rassom ishiga keladigan bo‘lsak, biz spektaklda hayratomuz sahna jihozini ko‘rmadik. Balki bunga sabab bu ishni ham o‘z zimmasiga olgan rejissyorning ko‘proq voqealarni shartli ravishda to‘laqonli ochilishiga bergan urg‘usidir. Agar spektakl g‘oyasidan kelib chiqqan holda rassom ishida ramziy detallar topilganda aktyorlarga yanada erkinlik tug‘ilardi va spektaklning ta’sirchanligini oshirishda o‘z kuchini ko‘rsatardi.

Debyutant rejissyor ilk sahnaviy ishi bilan o‘zida rejissyorlik qobiliyati shakllanganligini ko‘rsata oldi. Mazkur spektakl 2010 yili “Barkamol avlod yili”ga bag‘ishlangan “Yosh rejissyorlarning “Debyut – 2010” III – respublika ko‘rik festivali”da qatnashdi. Festivalda spektakl taniqli teatr mutaxsisslaridan iborat hakamlar hay’ati tomonidan munosib baholandi. Rejissyor mazkur spektakli uchun “O‘zbekteatr” IICHB diplomi va Respublika kasaba uyushmasi “Faxriy yorlig‘i” bilan taqdirlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.Mirziyoyev. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. 2017.
2. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. T.14. –T.: O‘zbekiston. 2006. 9-10 b.
3. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. – T.:Universitet. 1998.
4. Fasafa qomusiy lug‘ati. –T. 2004. 122- b.
5. O‘zbek davlatchiligi tarixi ocherklari. –T. 2001.151-b.
6. B.Hasanov, N.Karimov. M.Behbudiy merosining milliy g‘oya targ‘ibotidagi ahamiyati. – T. 2014. 102-b.
7. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Muhtaram yoshlarg‘a murojaat. «Oyna» jurnali. 1914 yil. 41-son. 970-972-betlar.
8. N.Karimov. Mahmudxo‘ja Behbudiy. – T. 2010. 1-b.
9. O‘sha manba. 5-b.
10. O‘sha manba. 22-b.
11. Sh.Mirziyoyev. Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari. 2020.

Lukmanova Taxmina Subxonovna,
Abu Ali ibn Sino nomidagi
Buxoro viloyati axborot-kutubxona markazi
Umumiy o‘quvchilar sektori mudiri

SHARQNING DONISHI VA GAVHARI TARATGAN ZIYO

Annotatsiya. *Har qanday xalq, birinchi navbatda, fidoyi o‘g‘lonlari, mutafakkir zotlari, insoniyat tamadduniga ulkan hissa qo‘shgan olimu ulamolari bilan g‘ururlanadi. Shu jihatdan olib qaranganda, o‘zbek xalqining g‘ururi, chindan-da, tog‘lardan baland. Zero, bizning yurtimizda tug‘ilib voyaga yetgan, o‘zining nihoyatda serqirra ilmiy-ijodiy faoliyati bilan dunyo ahlini lol qoldirgan buyuk bobolarimiz nomi har birimizning qalbimizni faxru iftixorga to‘ldiradi. Shu jumladan ham ushbu zamin rivojiga o‘zining beminnat hissasini qo‘shgan Ahmad Donishning ilmiy izlanishlari, bizgacha yetib kelgan qimmatga ega bo‘lgan asarlarining tub mohiyatini anglagan holda ularning merosini o‘rganib hayotga tadbiq etish barchamizning yelkamizda turgan eng muhim mas’uliyatli vazifalarimizdan biri hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *dars, “Nodir voqealar”, asarlar, ilmiy izlanishlar, she’riyat, donish.*

“Har bir musulmon odam eng avval o‘ziga zarur bo‘lgan ilmlarni o‘qishi farzdir.
Shundan so‘ng tirikchilik uchun biror kasb-hunar o‘rganish lozim…”
Ahmad Donish

Mustaqillik xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniy merosini erkin o‘rganish hamda undan bahramand bo‘lish imkoniyatini beradiki, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Ulug‘bek, Bobur Mirzo va boshqalarning davlat, siyosat va ijtimoiy hayot boshqaruvi mavzusida yozgan ilmiy mushohadalari hamda ularning asarlarini o‘rgana boshladik. Ana shunday buyuk ajdodlarimizdan biri 1827-yil Buxoroda tug‘ilib yashab o‘tgan hamyurtimiz Ahmad Donishdir. U kishining to‘la nomi – Ahmad Mir Nosir ibn Yusuf al Xanifiy as Siddiqiy al-Buxoriy bo‘lgan, jahonda esa u kishi Ahmad Donish nomi bilan mashhurdir. Ahmad Donishning nasablari Hazrat Abu Bakr Siddiqga borib tarqaladi.

“Donish” (“bilim” ma’nosini beradi). Ahmad Donish 16 ta kitobning muallifi hisoblanadi. Donish taxallusi bilan she’rlar yozgan. Bu zoti sharif buyuk faylasuf, pedagog, tarixchi, shoir, astronom, matematik, me’mor, kalliograf. Bir so‘z bilan aytganda, Ahmad Donish qomusiy bilim egasi bo‘lgan. U har tomonlama hayotini, odamlarni, ularning turmushlarini, dunyo barpo etilganini, odamlarning hayot kechirganlarini o‘rganadigan, oilaviy hodisalarni tahlil qiluvchi inson bo‘lgan. Ulug‘ olim amir va amaldorlarni ma’rifatli bo‘lishga chaqiradi, davlatni adolatli, oqilona boshqarish uchun, avvalo, ularning o‘zlari donishmandlik fazilatlariga ega bo‘lishlari kerak, deydi.

Ahmad Donish yoshligidan she’riyatni yaxshi ko‘rar edi. U 9 yoshligida Sa’diy, Jomiy va boshqa shoirlarning she’rlarini yoddan bilardi. Keyinchalik o‘zi quyidagi satrlarni yozgan: “She’r yozish xususiyat, she’r yozish xususiyatiga ega bo‘lgan shaxs kata hurmatga loyiq, lekin yozilgan she’r xalq uchun xizmat qilishi kerak”. Amirlikda bolalar maktabda ko‘pincha diniy kitoblarni yodlashar edilar. Maktabni tamomlaganlar madrasaga kirib ko‘p yillar o‘qir edilar. Buxoro amirligida XIV asrdan boshlab ta’lim qoidalari va fanlarni o‘qitish uslublari o‘zgarmagan edi. Ahmad Donish yozadiki, Buxoro madrasalarida maktab talabasi uchun kerakli fanlarni o‘qitish yomon darajada bo‘lgan. Dars berish usullari ham eskirgan edi. Dars beruvchi mudarrislarning bilimi ko‘pincha pastligi sababli, o‘qitadigan darslarning sifati qoniqarsiz bo‘lgan. Eski maktabning bunday kamchiliklariga qaramay, ayrim madrasani tugatganlar juda ham bilimli bo‘lgan.

Bunday talabalar mustaqil o‘qib bilimga ega bo‘lganlar. Shunday yuqori bilimli shaxslar qatoriga Ahmad Donishni ham qo‘shish mumkin. Ahmad Donish zamonasining eng bilimli va dunyo qarashi yuqori bo‘lgan shaxs edi. Madrasani tugatgandan keyin Ahmad Donish o‘qituvchi bo‘lib ishladi va xalq orasida katta obro‘ga ega bo‘ldi. Ahmad Donish 1836–1841-yilgacha o‘g‘il bolalar maktabida o‘qiydi va 1841-yilda o‘qishini davom etish uchun madrasaga o‘qishga kiradi.

O‘sha paytlarda Buxoro madrasalarida o‘qish 16–19 yil davom etardi. Bundan 8 yil arab grammatikasini bilib olishga va qolgan 11 yilni talabalarga islom dini tomonidan ruxsat etilgan holda tabiiy fanlar, ritorika, logika, fiqih qoidalari va boshqa ko‘pgina shariat qoidalarini bilish, davlat ruhoniy lavozimlarida ishlaydigan shaxslar zarur bo‘lgan fanlarni o‘qitar edi. Ahmad Donish yashagan hayotini tushunish uchun u yashagan o‘sha davrni yodga keltirish kerak. Mir Arab madrasasida Ahmad Donish o‘z shogirdlariga ma’ruza o‘qir edi va uning shu yerda hujrasi ham bor edi. Shuningdek, Mir Arabda Buxoroning eng kuchli mudarrislaridan biri Qozikalon ham dars berar edi.

Ahmad Donishning asosiy asari **“Nodir voqealar”** bo‘lgan. Katta hajmli **“Nodir voqealar”** asari o‘sha zamonga doir maqolalar to‘plamidir. Risola Ahmad Donishning Peterburgga qilgan ikkinchi safaridan keyin 1868–1873-yillar o‘rtasida yozilgan hech qayerda chop etilmagan, chunki Buxoroda o‘sha vaqtlarda bosmaxona mavjud bo‘lmagan. Kitob yozilishi davomida varaqalarini qaytarib olmaganligi sababli, varaqalarning ko‘plari yo‘qolgan. Ahmad Donishning astronomiya, matematika, kalleografiya, adabiyot, she’riyat, filosofiya va boshqa fanlarga doir yozilgan asarlaridan faqatgina bir nechtasi bizgacha yetib kelgan, xolos. Ahmad Donish yozadi: “Agar boshqalarga ijod uchun tinch joy kerak bo‘lsa, men g‘am-g‘ussadan ozod bo‘lish uchun o‘rtoqlarim oldida, hattoki qabristonlarda ham varaqlarni to‘ldirar edim, lekin mening yozishlarim boshqalardan kam emas edi”. Ahmad Donish o‘zining **“Nodir voqealar”** deb nomlangan kitobida: “Buxoro amirligidagi hokimlar, qozilar, beklar ko‘ngillari istagan hamma narsani o‘zlariniki qilib oladilar, xalqning rizqini

o‘zlashtiradilar”, deb yozadi. U yana: “Hukmdor – mulkdorlar orasida ichkilikbozlik, buzuqlik, qimorbozlik avj olganligini, kambag‘al kishilar esa o‘zlarini qayoqqa urishlarini bilmasliklarini, amir va vazirlar ruhoniy ulamolar va amaldorlar hammasi bir to‘da kallakesarlar bo‘lib, bir-birining qo‘llariga suv quyishlarini”, ta’kidlaydi. Shuningdek, Buxoro amirligida yashaydigan dehqonlarning og‘ir hayotini yozib, amir amaldorlarining dehqonlardan katta soliq olayotganliklarini, dehqonlarning hosildan olayotgan bug‘doylari kelgusi yilgacha yetmasligini, ozgina tomorqasiga dehqon qiynalib suv topolmasligini, yer haydash, hosilni olib borish uchun biron asbob va uskuna bo‘lmasligini, hosil bo‘lmagan paytda xalq orasida ochlik bo‘lganlarini yozgan.

Ahmad Donish o‘zi yashagan yillarda amirning qattiq zulmi, mutaassiblikning eng yomon tartib o‘rnatgan vaqti bo‘lgan. Ahmad Donishning davrida Buxoro amirligining yerlari Rossiyaga qo‘shildi. U o‘zining asosiy asarlarini XIX asrning ikkinchi yarmida, ya’ni Buxoro amirligi Rossiyaning koloniyasi bo‘lgan paytda yaratgan. Ahmad Donish 16ta kitobning muallifi hisoblanadi. Uning kitoblari **“*Navodir-ul* vaqoe”** (“Nodir voqealar”), **“Tarjimai ahvoli amironi Buxoro”** (“Buxoro amirlarining tarjimai hollari”), **“Me’yori tadayyun”**, **“Risola fi a’mol al-kurra”** (“Globusdan foydalanish yo‘llari”) va boshqa asarlari mutaxassislar uchun qimmatbaho bo‘lib, ular o‘sha davrga oid noyob ma’lumotlarga ega bo‘lgan nodir kitoblar hisoblanadi.

Ahmad Donish o‘zining **“Nodir voqealar”** asarida inson dunyoga qurish, yaratish uchun keladi, **“tog‘larni kesish, ariqlar chiqarish, konlar topish bilan dunyoni obod qilish kerak”**, deb yozadi. Dunoviy ilmlar, ma’rifatning ijtimoiy hayotdagi o‘rni haqida u shunday deydi: “Odam yaratilgandan so‘ng uning tuganmas baxti ilm va ma’rifatda”. Ahmad Donishning **“Nodir voqealar”** kitobida bir nechta hikoyalarni keltirgan. U Rossiya poytaxti bo‘lgan Sankt-Peterburgdagi safar taassurotlari asosida **“Navodir-ul vaqoe”** (“Nodir voqealar”) asarini yozgan. Hikoyalarning qahramoni Fransiya poytaxti bo‘lmish Parij shahri hayotini bilar edi. London va Peterburg shaharlarida yashagan, shu joylardagi savdo-sotiq, madaniyat, xalqlarning hayotini biladigan shaxs etib ko‘rsatgan. Shu bilan birga Ahmad Donish o‘zi **“Nodir voqealar”** kitobida kimyo sohasidagi, qishloq xo‘jaligi, texnikada bo‘lgan yangiliklar, tabiat hodisalari, insonning uzoq umr ko‘rishi, koinotning kelib chiqishi, oy va quyosh tutilishi, zilzila haqida fikr yuritgan holda yozgan. **“Tarixi saltanati xonadoni mang‘itho”** asarida mang‘itlar sulolasining 100 yillik hukmronligi tahlil va tanqid qilingan. Ahmad Donish yozadiki, Yevropa davlatlari hamda Rossiyada bu yangiliklar ilmiy izlanishlar natijasida paydo bo‘lganligi, shu sababli, Buxoro xonligi davlat tuzumini Rossiya davlat tuzumi bilan qiyoslab ko‘radi va amirlikni boshqarish va idora tizimlarini to‘la isloh qilish lozim, deb yozadi.

Ahmad Donish uyida haftaning chorshanba, payshanba va juma kunlari shogirdlari va yaqinlarini to‘plab, ular bilan ustoz sifatida suhbatlar o‘tkazar, she’rlar o‘qishni tashkil qilar, rubob va boshqa cholg‘u asboblarida musiqalar chalib nazm kechalarini uyushtirar edi. Ahmad Donish o‘z shogird va yaqinlari bilan o‘tkazgan davralarda qiziq

mavzular, suhbatlar o‘tkazib dolzarb masalalar, xalq ahvolini yaxshilash uchun zarur bo‘lgan muammolarni ham ko‘rib chiqqan. Alloma Buxoroda ilmni hamda ma’rifatni rivojlanishi uchun fidokorlik qilar edi, bu esa uning dunyoqarashi ortib borishidan dalolat berar edi. U xattotlik, rassomlik va naqqoshlikni yaxshi bilgan, munajjimlikdan va boshqa qobiliyatlarini sezgan amir Nasrulloxon nazariga tushgan. Shundan so‘ng uni 1857–1869, 1874-yillar mobaynida Buxoro amiri elchilarining mirzosi sifatida Rossiya poytaxti bo‘lgan Sankt-Peterburgga yuboradi. Elchilik safaridan qaytgandan keyin 1870–1873-yillarda **“Risolai dar nazmi tammadin va taovun”** (“Madaniyat va jamiyat tartibi haqida risola”) asarini yozgan. Ahmad Donish Sankt-Peterburgga birinchi marta 30 yoshida, ikkinchi marta esa 41 yoshida, oxirgi marta esa 57 yoshida borgan.

Buxoro amirligi ma’rifat, fan va san’atning rivojlanishiga yo‘l qo‘ymagan. Chet davlatlar, shu qatorda Rossiyadan keladigan fan yangiliklari to‘g‘risidagi ma’lumotlar Buxoroning taraqqiyparvar ziyolilariga qiyinchilik bilan yetib kelardi. Buxoroda O‘rta asrlarga xos tuzumning barcha salbiy xislatlari saqlanib qolgan edi. Ahmad Donish o‘z kitoblarida Buxoroda ko‘pgina ziyolilar amirning jabr qilishiga chidaolmasdan Buxoroni tark etib, qolganlari esa Buxorodan ketishga tayyor ekanligi yozilgan.

Ahmad Donish o‘z ustida ishlab bo‘sh vaqtlarda kallografiyani (husnixatni) o‘rganib olgan. Toshkentdagi Sharqshunoslik institutida Ahmad Donishning bir nechta kallografik ishlari saqlanib kelinmoqda. Xattotlik allomaga yashash uchun ashyo bilan ta’minlaydigan hunari bo‘lgan. Madrasada olgan bilimlaridan qanoat qilmasdan ilm olish sa’natlarini o‘rganib chiqqan. Masalan, Ahmad Donish shoir, musiqachi, rassom, astronom va tabib ham bo‘lgan. U kishi o‘zining ilmiy ishlarida, masalan, filosofiya, adabiyotshunoslik va badiiy adabiyotda yangi g‘oyalarini rivojlantirgan. Buxoro amirligining bilimli ziyolilari uchun uning asarlari obro‘li bo‘lgan. Uning yaqinlari ensiklopedik ilmga ega bo‘lgan. Ahmad Donishni “farishta” deb atar ham edilar. Uning yozgan asarlarida yangilikka intilishligi ko‘rinardi. U dili va jon qo‘ri bilan Buxoroda yangiliklar bo‘lishini xohlar edi. Buxoroda yashagan vaqtlarida o‘zi yozgan va chiroyli qilib muqovalashdan o‘tkazilgan kitoblarini bozorga chiqarib sotganini qo‘shnilari bir necha marta ko‘rganlar.

Ahmad Donish nasihat qilgan: “Yosh avlodga ilm-fanni o‘rgating, chunki ular hayotni yaxshi tomonga o‘zgartiradi. Ilm-u fan yer qatlamidagi boyliklarni inson uchun ishlatilishiga, yangi yerlarni ochishda, mamlakatni obod qilishda, xalq hayotini yaxshi tomonga olib borishiga olib keladi. Hayotni davom ettirish uchun kerakli oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, kasblar o‘rganish, uylar qurish, “olamni o‘zgartirish kerak, bu uchun xizmatlaringizni ayamanglar”. Olim fan va texnika yutuqlarini xalq xizmatida ishlatish, tabiatni o‘rganishga yoshlarni chaqirgan. O‘z asarlarida yerning shar shaklida ekanligini, planetalarning aylanishini, quyosh va oyning tutilishini, yer qimirlashining sabablarini tushuntirib bergan va ularni yanada o‘rganish zarurligini aytib o‘tgan.

Hozirgi kundagi Buxoro temiryo‘llarining tarixi bevosita Ahmad Donishga borib taqaladi. Chor Rossiyasi Kogondan Buxoro shahri orqali Chorjo‘ga qadar temiryo‘l o‘tkazmoqchi bo‘lgan. 1884-yilda qurulishi rejalashtirilgan temiryo‘l tarixi ham chiziladi va Buxoroni o‘sha paytdagi hukumdori Amir Nasrulloga taqdim etiladi. Amir esa Ahmad Donishdan maslahat so‘raydi va zakiy Ahmad Donish hujjatlar bilan tanishib, hukmdorga: “Mabodo, ish shu tarix asosida amalga oshsa, ko‘plab qadimiy obidalarimizga ziyon-zahmat yetadi. Bu biz uchun maqbul tarix emas”, deb o‘z fikrini qo‘rqmasdan ro‘yirost bildiradi. Bu gaplarni eshitgan Amir: “Unda Kogondan Chorjo‘ga qadar kuriladigan temiryo‘lining tarixini o‘zingiz chizasiz. Toki ortiqcha sarf-xarajatga qolmaylik”, deb Donishning yelkasiga zalvorli mas’uliyatni yuklaydi. Ahmad Donish yuqorida ta’kidlaganimizdek: astronomiya, musiqa, tarix, adabiyot, falsafa, geometriya, matematika sohlaridan ham chuqur bilimga ega bo‘lgan inson, shu tariqa yangi tarix chizadi. Unda temiryo‘lining qadimiy Buxoro shahrini chetlab o‘tishi ko‘zda tutilgan edi. Xuddi shu loyiha asosida barpo qilinadi.

Agarda bu ishga qo‘l urilmaganida juda ko‘plab necha ming yillik tarixga ega, o‘zining jozibasi, salobati bilan qad rostlab turgan, milliy faxr va g‘urur tuyg‘ularini berib turuvchi manzilgohlarimiz bizgacha yetib kelmagan, shahrimiz adjodlari aqlu zakovati bilan yaratgan merosini bir qismidan ayrilardi. Jumladan, Govqushon madrasasi, Qo‘shmadrasa, No‘g‘ay karvonsaroyi, birinchi savdo toqi quyisidagi qadimiy hammom va boshqa ko‘plab inshootlar buzulib tashlanishi mumkin edi. Shu yurtning fidoyisi sifatida tezda anglay olgan, shuningdek, Ahmad Donishga oid ma’lumotlar izlab topilsa, asarlari chuqurroq o‘rganilsa, u qoldirgan meros xalqimizga xolisona yetkazilsa, ma’naviy hamda madaniy hayotimizga tatbiq qilishi bilangina taraqqiyotga erishish mumkin. U kishi 1885-yilda bo‘lajak voqealar – Buxoro amirlik tuzumining yo‘qotishini 35 yil oldin aytib bergan. “Tirik qolganlar ko‘radiki, amirning xalq azobidan topilgan boyliklari kofirlarga etadi va amirning mansabdorlari o‘ldiriladi”, deb yozgan Ahmad Donish. O‘z davrining ma’naviy boyligi sifatida nodir asarlar, risolalar qoldirgan allomaning hayoti va ijodi haqida risolada so‘z yuritiladi.

1897-yilda Buxoroda vafot qilgan va shahardagi Behistiyon qabristonida dafn etilgan. Zero Ahmad Donish aytganidek, inson doimo ilm yo‘lida bo‘lishi, o‘z yurti taraqqiyotiga befarq bo‘lmasligi, doimo vatanparvarlik, yurtga bo‘lgan muhabbat va sadoqat bilan yashamog‘i, doimo yaxshilarni, yaxshiliklarni izlamog‘i lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аҳмад Дониш. Рисола ё мухтасаре аз таърихи салтанати хонадони манғития. – Сталинобод, 1960. 203-б.

2. Камол А. Встречи Ахмеда Дониша с П.И.Пашино. – Народы Азии и Африки, 1963. №6. С.144–146.

3. Раджабов З. Ахмад Донишо России и русской культуре. – Сталинабад, 1961. С.144.

4. Раҳмонов Т.Э. Икки тарихий сиймо: Аҳмад Дониш ва Садриддин Айний [Матн]. – Бухоро: “Дурдона”, 2015. 84-б.

Dilshod Mamajonov,
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI VA MILLIY UYG‘ONISH YO‘LIDAGI FAOLIYATI

Jadidizm XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlarida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tataristonda keng quloch yoygan ijtimoiy – siyosiy, ma’rifiy harakatdir. «Jadid» arabcha so‘z bo‘lib, «yangi» degan ma’noni anglatadi . Jadidchilik dastlab 1980 – yillarda Krimda Ismoilbek Gasprinskiy (1851 – 1914) boshchigida qrim tatarlar orasida shakllangan. Gasprinskiy 1884-yilda Qrimdagi Boqchasaroy shahrida jadid maktabini ochib, bolalarni savodini chiqarishni boshlagan. Gasprinskiy 1893-yilda Toshkentga kelib mahalliy ziyolilar bilan uchrashib, so‘ngra Samarqandga boradi. Shundan keyin Buxoroga borib, Buxoro amiri Abdulahadni qabulida bo‘lib, uni jadid maktabini ochishga ko‘ndiradi. Shunday qilib Mo‘minxo‘ja Vobkendiy va g‘ijduvonlik Domla Fozil ko‘magida «Muzaffariya» yangi usul maktabini ochishga erishadi.

Shuningdek, Turkistonlik ziyolilar ham ta’limni isloh qilish maqsadida jadidchilikni yoqlab yangi usul maktablarini ochishga kirishishdi. 1893-yili Samarqandda birinchi bo‘lib Husaynov, 1898-yili Qo‘qonda Salohiddin domla, 1899-yili Toshkentning eski shaxarida Mannon Qori, Andijonda Shamsiddin domla, 1900-yili Buxoroda Jo‘raboy qori homiyligida jadid maktablari ochildi. 1903-yili M.Behbudiy o‘z mablag‘i hisobidan Jomboyda ochgan maktabida jadidlardan Hoji Muin va Abdulqodir Shakuriylar muallimlik qilishgan. 1907-yilida Namanganni To‘raqo‘rg‘on tumanida Isxoqxon to‘ra Ibrat tomonidan yangi usul maktabi tashkil etilib, 1911-yilga kelganda Turkistondagi jadid maktablari soni 63 taga yetgan bo‘lsa, 1917-yil boshlariga kelib 100 ga yaqin jadid maktablarida 5 mingdan ortiq bolalar ta’lim olishgan.

Jadid maktablari asosan 1 – 4 sinfdan iborat boshlang‘ich maktablar bo‘lib, unda diniy va dunyoviy ta’lim berilgan. Jadid maktablaridan farqli o‘laroq avvallari yakka o‘qitish usulidan foydalanilgan bo‘lsa, endilikda sinfda dars berish usuliga o‘tilib, qur’on, hadis, matematika, geografiya, ona tili, rus tili, arab tili, jismoniy tarbiya va boshqa fanlar o‘qitila boshlangan.

Jadid maktablarida kambag‘al oila farzandlari tekinga o‘qitilgan. O‘ziga to‘q oilalar esa o‘z xohishi bilan pul bergan. Bundan tashqari jadidlar o‘z shaxsiy va xayriya jamiyatlari mablag‘ bilan maktablarni ta’minlab turgan.

Jadidlar harakatining rivojlanishini asosiy sabablaridan biri bu ularning o‘z iqtisodiy asosiga ega bo‘lganligida edi. Jadidlar turli xil xayriya va boshqa madaniy – ma’rifiy jamiyatlarini tashkil etish orqali, badavlat kishilarning homiylik mablag‘larini jalb qilib, millat manfaati yo‘lida sarflashga e’tibor berishgan. Masalan, Toshkentlik

Sayidkarim Sayidazimboy o‘g‘li, turkistonlik Saidnosir Mirjalilov, andijonlik Mirkomil Mirmo‘minboyev va boshqalar jadidchilik harakati rivojlanshiga o‘z moliyaviy yordamini ayamagan.

Jadidlar ushbu xayriya mablag‘lari hisobidan iste’dodli yoshlarni xorijiy mamlakatlarga o‘qishga yuborish, jadid maktablarini qo‘llab – quvvatlash, o‘quv qo‘llanmalar va darsliklar yaratishgan.

Shuningdek, Xiva shaxrida 1904-yili «Jamiyati xayriya» tashkiloti tuzilib, uni mablag‘lari hisobiga 1904-yil 10-noyabrida Xivada dastlabki jadid maktabi ochilishiga erishilgan. 1908-yil Buxoroda «Buxoroi sharif shirkati» tuzilib, darsliklar nashr etish va kitob savdosi bilan shug‘ullandi. Shu yili jadidlari tomonidan Buxoroda ma’rifiy jamiyat – «Tarbiyai atfol» («Bolalar tarbiyasi») tashkil etgan.

Bu jamiyatning asoschilari Abduvohid Burhonov, Mukammil Burhonov, Hamidxo‘ja Meqriy, Ahmadjon Abdusaidov va boshqalar. Jamiyat a’zolari soni 100 ga yaqin bo‘lib, ularni Muhiddin Mansurov, Sadr Ziyo moddiy jihatdan qo‘llab – quvvatlagan. Jamiyat yordami bilan 1908-yilda 14 ta, 1911-yilda 15 ta, 1912-yilda 30 ta buxorolik va turkistonlik yoshlar Istanbulda tahsil olgan. «Tarbiyai atfol»ning ko‘magi asosida Fitratning «Munozara», «Hind sayyohi bayonoti» va «Sayha» asarlari, shuningdek, S.Ayniy, A.Burhonov, Ikrom domla va boshqalarning kitoblari Turkiyada nashr etilib, Turkistonda tarqatilgan.

1909-yilda xayriya jamg‘armalarini tashkil etish faollashdi. Abdulla Avloniy ham «Jamiyati xayriya» tuzib, yetim bolalarni o‘qitgan. 1909-yili Toshkentda Munavvarqori tomonidan «Jamiyati Imdodiya» tuzgan. U ham miskin va ojiz talabalarga yordam berib, yoshlarni chet elga o‘qishga yuborishga yordamlashgan. «Ko‘mak» xayriya jamiyati ham Toshkentda 1909-yilda tashkil etilgan bo‘lib, uning ta’sischilari Munavvarqori Abdurashidxonov, Nizomqori Hasanov, Abdulla Avloniy, Basharulla Asadullaxo‘jayev va Toshxo‘ja Tuyoqboyevlar bo‘ldi. «Ko‘mak» jadid maktablariga katta yordam ko‘rsatadi va istedodli yoshlarni xorijga o‘qishga yuborishga ko‘maklashgan. Xorijdagi ta’lim yoshlar dunyoqarashida tubdan burilish yasadi.

Millatning savodini chiqarib, ularni milliy uyg‘otish borasidagi ma’rifatparvar ziyolilarni bunday jiddiy ishlarini chippakka chiqarmoqchi bo‘lgan bolshevikparastlar 1923 yilda Toshkentning Xadra mavzesida joylashgan Navoiy nomidagi ta’lim-tarbiya texnikumida “Mafkura maydonida kurash” mavzusida ma’ruza uyushtirib unda Munavvar Qorini tanqid qilishib, jadidlarni boylarning malaylari sifatida talqin etishgan. Unda so‘zga chiqqan Munavvar Qori: “Jadidlar yangilik tarafdorlari, xalq bolalarini ilmli, ma’rifatli qilishda jonimiz, molimizni ayamadik. Tez va oson bilim berish yo‘llarini qo‘lladik.

Ilgarigi qo‘llanilgan usullar o‘rniga yangi usul qo‘llab, tez savodli va bilimli qila boshlaganimiz uchun bizlarni yangichilar, ya’ni jadidlar deb atashdi. Bu ishimizni amalga oshirishda turli kimsalar yordam berishdi. Moddiy yordamni boylar berdi. Bu

yordamlarni o‘qituv ishlariga, kitob chiqarish, joy ta’mirlash kabi ishlarga sarfladik. Bu ishimizga rahmat o‘rniga “boy malayi” deyish biz uchun haqorat, deb qat’iy javob bergan edi.

Rus amaldorlari, musulmon mutaassiblarini jadid maktablarining ochilishi va faoliyat yuritishiga qarshiligiga qaramay, jadidlar kalta matonat va fidoiylik bilan o‘z ishlarini davom ettirishgan.

Jadidlar maktab uchun dastur, qo‘llanma va darsliklarni ham o‘zlari yaratganlar. Jumladan, Saidrasul Saidazizov (1866 – 1933) 1902-yilda «Ustodi avval» darsligini, Mahmudxo‘ja Behbudiy «Risolai asbobi savod» («Savod chiqarish kitobi», 1904), «Risolai jug‘rofiyai umroniy» («Aholi geografiyasiga kirish», 1905), «Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy» («Qisqacha umumiy geografiya», 1906), «Kitobat ul-atfol» («Bolalar xati», 1908), «Amaliyoti islom » (1908), «Tarixi islom» (1909) kitobini, Abduqodir Shukuriy «Jomi’ ul-hikoyat» (1907), «Zubdat ul-ash’or» (1907) o‘quv qo‘llanmalarini, Munavvarqori Abdurashidxonov «Alibi avval» va «Adib us-soniy» (1907), «Usuli hisob», «Tarixi qavm turk» va Qur’onni qiroat bilan o‘qish usuliga oid qo‘llanmasi – «Tajvid» (1911), «Havoyiji diniya» (Shariat qonunlari to‘plami), «Tarixi anbiyo», «Tarixi islomiya» (1912) , «Yer yuzi», ya’ni «Jug‘rofiya» (1916 – 1917), 4 qismdan iborat «O‘zbekcha til saboqligi» darsliklarini yaratib nashr etishgan. Shu bilan birga Abdulla Avloniy ham «Birinchi muallim» (1911), «Ikkinchi muallim» (1912), «Turkiy guliston yoxud axloq» (1913) va boshqa ko‘llanma va kitoblarni yaratib nashr ettirgan.

Turkistondagi jadidchilik harakatini maqsadi bolalarning qiyin o‘qitish tizimiga nisbatan yangi uslub asosida o‘qitishga o‘tishdangina iborat bo‘lmay, ayni vaqtda, milliy – ma’rifiy taraqqiyot va milliy istiqlol muammolarini ham o‘z ichiga olgan edi.

Bu harakatning vujudga kelishida O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida keng quloch yoyib rivojlangan turli oqimlar va Turkiyadagi «Ittihodiy va taraqqiy», «Yosh turklar» harakatining ta’siri katta bo‘ldi.

Xususan, Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga kelishi va taraqqiy etishila Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy, Saidahmad Siddiqiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Xo‘jayev, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov, Tavallo, Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev, Abdulvohid Burhonov, Sadriddin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov, Obidjon Mahmudov, Isxoqxon to‘ra Ibrat, Hamza, Cho‘lpon, Muqammadsharif So‘fizoda, Ashurali Zohiriy, Polvonniyoz Hoji Yusupov, Bobooxun Salimovlar katta rol o‘ynagan.

Turkiston jadidlarini o‘ziga xos jihatlariga qaraydigan bo‘lsak, jumladan Toshkent, Samarqand va Farg‘ona jadidlari Rossiya imperiyasi mustamlakasiga qarshi turib mamlakatni mustaqil bo‘lish tarafdori bo‘lgan.

Buxoroda esa jadidlar tarkibi shahar aholisining ziyolilari, mullavachchalar, mayda do‘kondorlar, ma’murlar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat edi. Jadidlar dastlab

soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqishgan bo‘lsa, keyinroq ular Buxoro amirligi tuzumi doirasida islohotlar o‘tkazish talabi bilan chiqishgan. XX asr boshlarida Buxoro jamiyati 2 guruhga: Ikrom domla rahbarligidagi taraqqiyparvarlar va Mulla Abdurazzoq boshchiligidagi qadimiylarga bo‘lingan edi. Jadidchilik amirlikdagi og‘ir muhit ta’sirida o‘z taraqqiyotini tezlashtirishi natijasida, 1910-yildan boshlab jadidlar harakati tashkiliy tus oldi va «Tarbiyai atfol» maxfiy jamiyati negizida «Yosh buxoroliklar» (1910 – 1920) partiyasini tashkil topishiga olib keldi.

Xivada XX asr boshlarida shakllana boshlagan jadidchilik harakati o‘z muhitidan kelib chiqib, boshqacharoq shaklda vujudga kelib, asosan ikkita oqimdan iborat bo‘ldi.

Birinchisi o‘ng oqim bo‘lib ular o‘zlarida xonlikdagi savdo – sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarni birlashtirgan edi. O‘ng oqimga Xiva xoni Asfandiyorxonning bosh vaziri Islomxo‘ja boshchilik qilib ular o‘z oldilariga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda ijtimoiy – iqtisodiy islohotlar o‘tkazish orqali erkin bozor munosabatlarining rivojlanishiga keng yo‘l ochib berishni maqsad qilib qo‘ygan edi. Ikkinchi so‘l oqim esa mayda sarmoyadorlar, hunarmandlar va xalqning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan bo‘lib, unga qozikalon Bobooxun Salimov rahbarlik qildi. Ular Xiva xonligida yangi usul maktablari tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligini o‘stirish bilan birga, xon tuzumiga qarshi kurash ham olib borganlar. 1914-yil avgustda jadidchilik «Yosh xivaliklar» partiya tusini olib xonlikda katta ijtimoiy – siyosiy kuchga aylandi.

Shunday qilib, jadidlar xalq milliy – ozodlik harakatiga g‘oyaviy – mafkuraviy va tashkiliy rahbarlik qilishga erishdi. Bu esa jadidlarni Turkistonda katta ta’sirchan ijtimoiy – siyosiy kuchga aylanganligidan dalolat beradi.

Inobat Hamroyeva,
Buxoro viloyati AKM
O‘lkashunoslik – axborot sektori mudiri

ABU ALI IBN SINO – BUYUK QOMUSIY OLIM

Annotatsiya. *Ibn Sino dunyoqarashining shakllanishida qadimgi Sharq madaniyati,yunon falsafasi,Movarounnahr halqlarining tarixiy tajribalari,boy madaniy merosi va ilm – fan rvoji asosiy omillar bo‘lib, xizmat qilgan. Ibn Sino o‘zining butun bilmi va hayotini inson salomatligi va farovonligini saqlashga,tabiat va jamiyat qonunlarini yechishga,adolat va haqiqat uchun kurashga bag‘ishlagan buyuk olimlarning asarlari ko‘p asrlardan beri butun insoniyat uchun bitmas- tuganmas bilim manbai vazifasini o‘tab kelishi bilan birga, hozir ham ular madaniy taraqqiyotga va inson salomatligini saqlash ishiga xizmat qilmoqda.*

Kalit so‘zlar: *kitob, Abu Ali ibn Sino, risolalar, tibbiyot, kutubxona, qo‘lyozma,qo‘llanma, tarix, merosi, olim, buyuk, Avitsenna,*

Shul xoki siyohdin to avji Zuhal.
Har nechaki mushkulot erur, etdim hal.
Ochdim necha zanjir-zanjiri makru hiyal,
Yechdim necha bir tugun,faqat qoldi ajal...
Abu Ali ibn Sino

Ajdodlarimizdan bizga meros bo‘lib qolgan jonajon Vatanni,zaminni sevish va ardoqlash,ajdodlarimiz merosini va milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash tuyg‘ularini shakllantirish uchun, avvalam bor oilada, so‘ng esa maktab, mahalla va jamiyatda namunaviy, mo‘tadil ma’naviy muhit bo‘lmog‘i lozim.

Istalgan muhit va sharoitni yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha imkoniyatlar yurtimizda bisyor.Qaysi bir jabhani olmaylik,aynan o‘sha yo‘nalish bo‘yicha butun dunyoga dong‘i taralgan alloma-yu,ajdodlarimizni fahir bilan tilga olish mumkin.

Ajdodlarimizdan ko‘pchiligi ma’lum bir soha bo‘yicha emas,balki turli sohalar bo‘yicha yetuk, mashhur mutahassis bo‘lishi bilan birga, ularning aksariyati tarixda nom qoldirgan tashkilotchi,davlat va jamiyat arbobi sifatida ham tanilib kelganlar.

Ana shnday qomusiy olim, halqparvar inson,ayniqsa tabobat olamida buyuk nom qozongan bobokalonimiz Abu Ali ibn Sinodir.

Markaziy Osiyo halqlari madaniyatini o‘rta asr sharoitida dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqqan buyuk mutafakkirlardan biri Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn Sino bo‘lib, u Yevropada Avisenna nomi bilan mashhurdir.

Ibn Sinoning hayot yo‘li o‘zi yozgan tarjimai holi va shogirdi Juzjoniy tomonidan qoldirilgan manbalardan ma’lum. Ibn Sinoning ilmiy qiziqishlari, dunyoqarashining shakllanishida qadimgi Sharq madaniyati, yunon ilmi, falsafasi, Markaziy Osiyo xalqlarining mustaqillik uchun olib borgan kurashlari muhim rol

o‘ynadi. Ibn Sino tarjimai holida Forobiyning “Metafizika maqsadlari”, “Fususul-hikam” kabi muhim risolalarini qunt bilan o‘rgangani, ulardan keng foydalanganini ta’kidlab o‘tadi.

Ibn Sino asarlarining umumiy soni 450 dan oshadi, lekin bizgacha faqat 160 ga yaqin asari yetib kelgan. Ko‘p risolalari shaharma-shahar ko‘chib yurish, urushlar, saroy to‘polonlari, turli falokatlar tufayli yo‘qolib ketgan.

Ibn Sino asarlari o‘rta asrlarda Yevropada ilmiy til hisoblangan lotin tiliga, u orqali Yevropaning boshqa tillariga tarjima etilgan. Ibn Sino ilmiy risolalardan tashqari chuqur falsafiy mazmunli badiiy obrazlar va ma’lum voqealar orqali ifoda etuvchi “Tayr qissasi”, “Salomon va Ibsol”, “Hayy ibn Yaqzon” kabi falsafiy qissalar yaratgan.

Ibn Sino zamonasining yetuk shoiri ham bo‘lgan. U Sharq, xususan, fors she’riyatida ruboiy janrining asoschilaridan biri bo‘lib, ruboiylari o‘zida chuqur falsafiy xulosalarni ifodalaydi. Ibn Sino arabcha qit’alar ham yozgan.

Ibn Sino tabobat masalalarini ommabop holda nazm bilan izohlovchi “Urjuza” nomli tibbiy asar yaratdi. Uning Aristotel (Arastu) ta’limoti xususida Abu Rayhon Beruniy bilan va o‘zining shogirdi – ozarbayjonlik mutafakkir Baxmanyor bilan yozishmalari fan olamida mashhur.

Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi asarlaridan “Kitob al-qonun fit-tibb” (“Tib qonunlari”), “Kitobul-qulanj” (“Ichak sanchiqlari”), “Kitobun-nabz” (“Tomir ko‘rish haqida kitob”), “Fujul-tibbiya joria fi majlisih” (“Tib haqida hikmatli so‘zlar”), “Tadbirul-manzil” (“Turar joyning tuzilishi”), “Fil-hindubo” (“Sachratqi o‘simligi haqida”), “Risola fidasturit-tibbiy” (“Tibbiy ko‘rsatmalar haqida risola”) kabi asarlari mavjud. Uning tibbiyotga oid qomusiy asari ”Kitob al-qonun fit-tibb” 5 mustaqil katta asardan tarkib topgan bo‘lib, ularning har biri ma’lum sohani izchil, har tomonlama yoritib beradi.

“Qonun” 800 yil davomida hakimlar uchun asosiy qo‘llanma bo‘lib keldi.O‘rta asrlar “Qonun” Sharqdagina emas, balki G‘arb mamlakatlarining universitetlarida ham talabalar uchun tibbiyotdan yagona qo‘llanma edi.

Ibn Sino o‘zining boy va serqirra ilmiy merosi bilan keyingi davr Sharq va Fapb madaniyatining rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Sharqning Umar Xayyom, Abu Ubayd Juzjoniy, Nasriddin Tusiy, Fariduddin Attor, Ibn Rushd, Nizomiy Ganjaviy, Fahriddin Roziy, at-Taftazoniy, Nosir Xisrav, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Ulug‘bek, Bedil, Bahmanyor ibn Marzbon kabi mutafakkir va olimlari o‘z asarlarida Ibn Sino ta’limoti va ilmiy g‘oyalarini davom ettirdilar.

Yevropada allomaning asarlari XII asrdan boshlab lotin tiliga tarjima qilinib, unversitetlarda o‘qitila boshlandi. Yevropaning mashhur faylasuf va tabiatshunos olimlaridan Jordano Bruno, Gundisvalvo, Vilgelm Overnskiy, Aleksandr Gelskiy, Albert fon Bolshtedt, Foma Akvinskiy, Rojer Bekon, Dante va boshqalar Ibn

Sinoning ilg‘or fikrlaridan o‘z ijodlarida foydalandilar va uning nomini hurmat bilan tilga oldilar.

Ibn Sino ilmiy merosini o‘rganish ishlari yangi davrga kelib jadal tus oldi va natijada chet el hamda O‘zbekistonda mahsus ilmiy yo‘nalish – sinoshunoslik vujudga keldi. «Tib qonunlari»ning lotincha tarjimasi to‘liq holda 40 marta nashr etildi. Uning ayrim qismlari nemis, ingliz va fransuz tillariga tarjima qilindi, olimning falsafiy va boshqa sohalarga oid asarlari ham jahonning bir necha tilllrida nashr etildi, uning ijodiga oid qator yirik tadqiqotlar yaratildi. Jahonning turli kutubxonalarida Ibn Sino asarlarining qo‘lyozmalari saqlanadi. shu jumladan, O‘zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik insitutida ham alloma qalamiga mansub 50 asarning 60 ta qo‘lyozmasi mavjud. Yevropa olimlari Ye. Bishmann, Yu. Ruska Karra de Vo,X. Korbin, Kruz Xernandez, L. Garde, A. M. Guashon, X. Ley, P. Morividj, J. Saliba hamda arab turk va eron olimlari M. U. Najotpiy, A. N. Nodir, J. Sh. Kanavotiy, Caid Nafisiy, Yahyo Maxdaviy, Umar Farrux, E. Ixsono‘g‘lu. F. Rahmon, M. Muso, H. Fapaba, M. Shohvardiy va boshqalar. Ibn Sino ijodini o‘rganishga ma’lum hissa qo‘shdilar. Rossiyalik olimlardan U.E.Bertels, A. Ya. Borisov, I. S. Braginskiy, S. I. Grigoryan, B. A. Petrov, B. A.Rozenfeld, V. N. Ternovskiy, A. V.Sagadeyev, M. M. Rojanskaya, Tojikiston olimlaridan S. Ayniy, M. Dinorshoyev, T. Mardonov, N. Rahmatullayev,A. Bahouddinov, Yu. Nuraliyev bu yo‘nalishning rivojlanishiga xizmat qildilar. O‘zbekistonda Ibn Sino asarlarini tarjima va tadqiq etishda sharqshunos olimlar S. Mirzayev, A. Murodov, A.Rasulov, U. I. Karimov, Yu. N. Zavadovskiy, A. A. Semyonov, M. A. Salye, P. G.Bulgakov, Sh. Shoislomov, E. Talabov, H.Hikmatullayevlar ulkan ишlarni amalga oshirdilar. T. N. Qori-Niyoziy, I. M. Mo‘minov, M. M. Xayrullayev, M.N. Boltayev, A. Ahmedov, G. P. Matviyevskaya, V. K. Jumayev, N. Majidov, O.F.Fayzullayev, M. B. Baratovning monografiya va maqolalarida Ibn Sino ijodining turli qirralari tadqik etilgan. Rus astrologi M. M. Gerasimov bir tarixiy shahslar qatori Ibn Sinoning kalla suyagi asosida haykal portretini yaratgan. Andijon tibbiyot insituti xodimlari (Yu. O. Otabekov, Sh.Hamidulin, Ye. S. Sokolova) Ibn Sinoning ilmiy asoslangan timsolini xaykal – byustda tasvirladilar (1965). O‘zbekistonlik rassom S. Marfin Ibn Sino badiiy portretini ishlagan (1968). Ibn Sino haqida «O‘zbekfilm» studiyasi ijodkorlari (rej. E. Eshmuxamedov; O. Agishev, E. Eshmuhamedov ssenariysi) “Dahoning yoshligi» tarixiy-biografik badiiy filmini (1984) yaratdilar.

O‘simliklarning birinchi ilmiy tasnifini yaratgan mashhur shved botanigi Karl Linney (1707-78) doimo yashil bo‘lib turuvchi bir tropik darahtni Ibn Sino sharafiga Avisenna deb atadi. O‘zbekiston yerida topilgan (1956) yangi mineral Ibn Sino nomi bilan Avisennit deb ataladi. Buxoro shahrida Buxoro tibbiyot instituti (1990) Ibn Sino xiyoboni (2014 yil buyuk olim nomi bilan ataluvchi favvora xiyoboni ochildi) va Afshona qishlog‘ida Ibn Sinoga xaykal o‘rnatdi, Afshona tibbyot kolleji (2006),

Belgiyaning Kortreyk shahrida ham Ibn Sinoga qo‘yilgan (2000) haykal bor. Afshonada Ibn Sino muzeyi ochildi. O‘zbekiston va Tojikistondagi tibbiy oliy va o‘rta bilim yurtlariga, nashriyot (Ibn Sino nomidagi nashriyot),sanatoriy,shifoxona, kutubxona, maktab, ko‘cha, jamoa xo‘jaliklari, turar joy mavzelariga Ibn Sino nomi berildi. Tojikistonda fan sohasida katta yutuqlarni taqdirlash uchun Ibn Sino nomidagi respublika davlat mukofoti ta’sis etilgan. O‘zbekistonda Ibn Sino xalqaro jamg‘armasi tuzildi (1999 y) «Ibn Sino» va «Sino» nomli halqaro jurnallar nashr qilindi.

Abu Ali ibn Sino o‘limidan oldin o‘z holini ifodalaydigan bir qasida yozadi, unda mana shu bayt ham bor:

Men ulug‘ bo‘lganimda keng shahar sig‘dirolmay qoldi,
Qimmatim oshganida xaridorsiz qoldim”.

Abu Ali ibn Sino ilmiy va amaliy ijodiga masub bo‘lgan bebaho merosdan bahramand bo‘lish sanoqsiz avlodlarga nasib etadi va bu meros asrlar osha vaqt o‘tsa – da, o‘z qiymatini, buyukligini, dolzarbligini saqlab qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Irisov A. Xakim Ibn Sino [Matn]/ A. Irisov. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – 102 b.

2. Ibn Sino. Tibbiy o‘gitlar. – Toshkent, 1991. – 192 b.

3. Abu Ali ibn Sino tugilgan kunining 1000 yilligiga. Maqolalar to‘plami. – T.: Fan , 1980. – 199 b.

4. Ibn Sino, Abu Ali.Urjuza yoki 1326 bayt tibbiy o‘git [Matn]/ A. A. Ibn Sino; mux.B.Rustamov, ras. A. Kiva. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino,1999. -159 b.

6. Ibn Sino xalkaro o‘kishlari. Avicenna`s international readings/ Avisennovskiye mejdunarodnыye chteniya: ilmiy-amaliy anjumani tezislari/tezisы nauchno-prakticheskoy konferensii/ Red. Sh.B. Irgashev. – Toshkent: Izdatelstvo medisinskoy literaturы imeni Abu Ali ibn Sino, 2000. – 110 b.

7.Kodirov A. A., Soipov U.T. Abu Ali Ibn Sino o‘rta osiyolik buyuk medik-olim. – T.: 1980. – 144 b.

Xudoyev G‘ani Muhammadovich,
O‘zDSMI “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi”
kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

QADIM SAMARQAND SHARQ VA G‘ARB ALLOMALARI NIGOHIDA

Annotatsiya. *Mazkur maqolada navqiron Samarqandning qadim ildizlari, turli sulolalar hukmronligi davridagi bunyodkorlik va shaharsozlik ishlari hamda voha aholisining tili va diniy e’tiqodi, shuningdek an’anaviy turmush tarzi kabi bir qator omillar Sharq va G‘arb olimlarining ilmiy asarlari timsolida qiyosiy o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *Samarqand, hukmron, sulola, Amir Temur, so‘g‘d, Marokand, madaniyat, markaz.*

Bizga tarixdan ma’lumki, ko‘hna Samarqand o‘z davrida yirik mamlakatlarning poytaxti sifatida madaniyat va san’at markazlari o‘laroq rivoj topganligi yozma manbalardan ma’lum. Jumladan, “Samarqand jahonning eng qadimiy shaharlaridan bo‘lib 2700 yildan ortiq tarixga ega”[1].

“Samarqand” so‘zining kelib chiqishi to‘g‘risida bir qancha taxmin va gipotezalar mavjud. Sharq mualliflari “Samarqand” so‘zining birinchi qismi, ya’ni “Samar” so‘zi shu shaharga asos solgan yoki shaharni bosib olgan kishining nomi deb hisoblab, bir qancha sun’iy ta’riflarni taklif etdilar. Biroq tarixda bunday ismli kishi to‘g‘risida ma’lumotlar aniqlanmagan. So‘zning ikkinchi qismi “kent” (qand) – qishloq, shahar degan ma’noni bildiradi. Ba’zi yevropalik olimlar, bu nom qadimdan qolgan, sanskritcha “Samarya”ga yaqin, ya’ni “yig‘ilish”, “yig‘in” so‘zidan kelib chiqqan deb izohlaydilar. Antik mualliflarning asarlarida shahar Marokanda deb atalgan. Bu haqiqatga ancha yaqin bo‘lib, Marokanda – Samarqand atamasining yunoncha aytilishidir[2].

Antik davr ilmiy manbalarida Flaviy Arrian, Kursiy Ruf, Plutarx, Strabon, Pliniy Sekund, Klavdiy Ptolemey asarlarini tahlil qilgan tarixshunos olimlar Marokand shahriga tarixiy va jug‘rofiy o‘rganishlar zamirida to‘g‘ridan to‘g‘ri ishoralar berganligini qayd etib o‘tishgan[3].

Abu Bakr Narshaxiyning “Buxoro tarixi”[4] asarida Buxoro va Samarqandning nomlari arabchada Foxira va Samaron deb nomlanishi hamda ulug‘lanishi xususida quyidagicha bayon etiladi: “... Xoja imom, zohid voiz Muhammad ibn Ali Nujobodiy

---

1 O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (“S” harfi). – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. www.ziyouz.com kutubxonasi. 96-b.

2 O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (“S” harfi). – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. www.ziyouz.com kutubxonasi. 96-b.

3 Пьянков И.В. Древний Самарканд (Мараканды) в известиях античных авторов (Собрание отрывков и коментарии). [Ответсвенной редактор Б.А.Литвинский]. – Душанбе: изд-во «Дониш», 1972. – 7 с.

4 Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far an-Narshaxiy. Buxoro tarixi. (fors tilidan A.Rasulev tarjimasi, mas’ul muharrir A.O‘rinboyev). Meros turkumi to‘plamidan. T.: Kamalak nashriyoti, 1991.

rahmatli Salmoni Forsiydan bir hadis rivoyat qilgan. Salmonning aytishicha payg‘ambar (xudo unga o‘z rahmat va salomini yo‘llasin) shunday degan: Jabroil (unga xudoning rahmatlari bo‘lsin) aytganki, kun chiqish tomonda bir joy bor, uni Xuroson deydilar, uning uchta shahrini qiyomat kuni yoqut va marjon bilan ziynatlab keltiradilar; ulardan nur chiqib turadi; u shaharlarning tevaragida farishtalar ko‘p bo‘lib, ular tasbeh va takbir aytadilar, kelinni kuyov uyiga olib borgandek u shaharlarni e’zoz va ikrom bilan mahshargohga olib keladilar. Bu shaharlarning har birida yetmish mingdan bayroq. Har bir bayroq tagida yetmish mingtadan shahid (yotgan) bo‘ladi va har bir shahidning shafoati bilan forscha so‘zlovchi va xudoni bir deb biluvchi yetmish ming kishi azobdan qutuladi. Qiyomat kuni u shaharning har tarafi: o‘ng va so‘li, oldi va orqasi o‘n kunlik yo‘l bo‘lib, bularning hammasida shahidlar turadi. Hazrat payg‘ambar (xudo unga rahmat va salomini yo‘llasin), Ey Jabroil! U shaharlarning nomlarini menga ayt, – deb so‘radi; Jabroil (unga xudoning salomi bo‘lsin), shaharlarning birini arab tilida Qosimiy, forschada Yashkard deydilar; ikkinchisini arabchada Samaron, forschada Samarqand deydilar; uchinchisini arabchada Foxira, forschada Buxoro deydilar, deb javob berdi”[1].

Samarqand vohasining yoshi xususidagi ilmiy qarashlar juda qadimiyligi bilan ahamiyatlidir. Jumladan, “Samarqandning Afrosiyobidan topilgan namunalar Fransiyada radiokarbon tadqiqot usulida o‘rganilib, ular miloddan avvalgi VIII asrga, aniqrog‘i 2750 yoshga taalluqliligi isbotlandi”[2].

Samarqand miloddan avvalgi IV asrdan milodning VI asrgacha Sug‘d davlatining poytaxti bo‘lgan. Arxeologik qazishmalardan ma’lum bo‘lishicha, yuqori paleolit davrida ham Samarqand hududida odamlar yashaganligi qayd etiladi[3].

Samarqand bunyod bo‘lganidan buyon u O‘rta Osiyoning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida katta mavqega ega bo‘lib keldi. Shaharning Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashganligi, bu yerda qadimdan hunarmandchilikning shoyi to‘qish, mashhur Samarqand qog‘ozi ishlab chiqarish, kulolchilik, temirchilik, novvoylik, qandolatchilik, badiiy kashtachilik va boshqa turlari hamda savdo-sotiq ishlarining rivojiga turtki bo‘ldi. Samarqandda qadimdan ravnaq topgan hunarmandchilik turlari mahallaguzarlarning nomlarida saqlanib qolgan. Jumladan, “So‘zangaron” (igna tayyorlovchilar), “Kamongaron” (o‘qyoy yasovchilar) va boshqa nomlar hozirgi kungacha yetib kelgan[4]. Va ayni kunlarda ham turli soha vakillari kasb koriga atab nomlangan ko‘chalar saqlanib qolinganligini ko‘hna va qadim shaharlar – Samarqand hamda Buxoroda ham ko‘rish mumkin (Buxoro shahrida “telpakfurushon”, “toqi zargaron” va h.k.).

---

1 Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far an-Narshaxiy. Buxoro tarixi. (fors tilidan A.Rasulev tarjimasi, mas’ul muharrir A.O‘rinboyev). Meros turkumi to‘plamidan. T.: Kamalak nashriyoti, 1991. 102-103-betlar.

2 O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (“S” harfi). – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. www.ziyouz.com kutubxonasi. 98-99-betlar.

3 O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (“S” harfi). – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. www.ziyouz.com kutubxonasi. 101-bet.

4 Ma’lumot uchun qarang: Abu Tohirxo‘ja. SamariY. / Meros turkumidan. T.: Kamalak nashriyoti. 1991.

Qadim Samarqandning etnik kelib chiqishi va undagi muloqot tili asosan fors-tojik tillarida bo‘lganligi qadim manbalarda quyidagicha keltiriladi. Abu Rayhon Beruniy “Osor al-boqiya” asarining “Sug‘dlar oylaridagi bayramlari xususida so‘z” deb atalgan o‘ninchi bobi sug‘dlarning yil bo‘yi nishonlanadigan bayramlariga bag‘ishlangan. Ilk o‘rta asrlarda hozirgi O‘zbekistonning Samarqand, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlari, Tojikistonning shimoli-g‘arbiy hududlari yerlari Sug‘d, aholisi sug‘dlar deb atalgan. Sug‘dlar ham forslar va xorazmiylar kabi otashparast-zardushtiy edilar. Ularning tillari xorazmiy tili kabi sharqiy eroniy tillar guruhiga kirgan va g‘arbiy eroniy tillar guruhiga kiruvchi fors va tojik tillaridan ancha farq qilgan[1].

Buyuk ipak yo‘lini bog‘lovchi ko‘hna Samarqandni qadimdan turli mamlakatlarning azim shahar bilan aloqalarida ham anglash mumkin: eramizning “VI – VII asrlarda ko‘hna madaniyat markazi sanalgan Samarqandda chet mamlakatlar bilan turli aloqalar yo‘lga qo‘yilganligi, jumladan, bu davrda Samarqand Hindiston, Eron, Misr va Vizantiya davlatlari bilan savdo sotiq qilganligi bayon etiladi”[2].

Bejizga, Samarqandni “Qadimgi Sharqning jannati”, “Sharqiy musulmon olamining bebaho durdonasi”, “Sharqning Rimi” kabi ulug‘vor nomlarda, turli soha olimlari (tarixchi, geograf, shoir va b.) tomonidan e’tirof etilishi ayni haqiqat[3].

Tarixiy Samarqandning yoshi qadimiyligi to‘g‘risida juda ko‘p yozma manbalarda ma’lumotlar keladi. Ulardan Muhammad an Nasafiyning (XI) “al-Qand fiy zikri ulamoi Samarqand”, Haydar as-Samarqandiyning (XII) “Qandiyai Xurd”, Abu Tohirxoja Samarqandiyning (XIX) “Samariya”, Xitoy tarixchisi Chjan Syan, yunon va rimlik tarixchilar Arrian, Kursiy Ruf va boshqa ko‘plab mualliflarning asarlarida bu haqda qimmatli ma’lumotlar yozib o‘tilgan. Shu bois o‘rta asrlardan Sharqda ommalashib ketgan maqollardan birida “G‘arbda Rim, Sharqda Samarqand” deyilgan. Samarqand va Rim insoniyat taqdiridagi buyuk xizmatlarini nazarda tutib “Boqiy shaharlar” nomini olganlar[4].

Samarqand shahri ko‘p bora qayta qayta qurilganligi xususida Abu Tohirxo‘ja Samarqandiyning “Samariya”[5] asarida kelgan quyidagi ma’lumotlar e’tiborni o‘ziga jalb etadi. Ilk bora “Samarqand qo‘rg‘onini boshlab Kaykobud o‘g‘li Kaykovus (taxm. er.av.gi VI – V asr) soldirdi. Samarqand qo‘rg‘onining ikkinchi imorati Maliki Tubba’dandir (Malik Tubba’ Yaman va Arabiston podshohlaridan bo‘lgan), uchinchi imorati maliki Iskandardandir (er.av.gi 336-323-yy.), to‘rtinchi imorat Amir Temur Ko‘ragon tomonidandur”[6]

---

1 Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar *(Osor al-boqiya). Yetti jildlik tanlangan asarlar.* 1-jild. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2020. 27-b.

2 O‘zbekiston milliy ensiklopediyasidan (“S” harfi). – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. www.ziyouz.com kutubxonasi. 96-bet.

3 Алескеров Ю.Н. Самарканд (страницы истории). – Т.: Изд-во.: “Узбекистан”, 1967. – 5 с.

4 O‘zbekiston milliy ensiklopediyasidan (“S” harfi). – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. www.ziyouz.com kutubxonasi. 96-bet.

5 Abu Tohirxo‘ja. SamariY. / Meros turkumidan. T.: Kamalak nashriyoti. 1991.

6 Abu Tohirxo‘ja. SamariY. / Meros turkumidan. T.: Kamalak nashriyoti. 1991. 16-17-betlar.

Samarqand, ayniqsa, Amir Temur (1370-1405) va Mirzo Ulug‘bek (1409-1449) zamonida beqiyos rivojlandi, gullab yashnadi. Ashtarxoniylar hukmronligining so‘nggi yillarida, ayniqsa XVIII asrning 30-40-yillarida, o‘zaro feodal kurashlarning avjga minishi va Eron hukmdori Nodirshohning (1736-1747) xuruji oqibatida yana vayron bo‘lib tushkunlikka yuz tutdi[1].

“Samarqandning hozirdag‘i obodonlig‘i hijriy 1195-yili (mil. 1780), ya’ni Shomurodbiyning bekligidan boshlong‘on bo‘lub, hijriy 1285-yilda (mil. 1809), ya’ni Shomurod hukumatining oxirgi yilida bir shahar yo‘sunig‘a kirguzildi. Ushbu yilda Shomurod Samarqand shahrida 24 guzar (mahalla) bino qilib O‘ratepa, Hovas, Zomin va boshqa yoqlardan ko‘churulub keltirilgan kishilarni shu guzarlarda o‘rnashdurdi. Samarqand Chorsusidag‘i toq, Poyqavoq, Shohizinda, Qalandarxona va So‘zangaron darvozalari ushbu tarixda imorat qilindilar”[2].

Shuningdek, Abu Tohirxo‘ja Samarqandiyning “Samariya” asarida Samarqandning turlicha nomlanishidan tortib uning jug‘rofiy tuzilishi, iqlimi, tog‘lar, ariq va daryolar, mashhur g‘orlar, masjid va madrasalar, ulug‘ avliyolar mozorlari xususidagi qimmatli ma’lumotlar berilgan[3].

“IX – XII asrlarda Sharqda yuz bergan madaniy inqilobda Markaziy Osiyo shaharlarining muhim rol o‘ynashiga yana bir sabab, XVIII asr o‘rtalaridan boshlab Samarqandda qog‘oz ishlab chiqarishning joriy qilinishi bo‘ldi”[4]. “X asrga kelib Suriyadagi Tarablus, Tabariya va Damashqda ham qog‘oz ishlab chiqarila boshlandi, lekin Samarqand asosiy qog‘oz ishlab chiqarish markazi bo‘lib qolaverdi”.[5]

“Shuning uchun ham xalifalikning Sharqida ko‘plab kitob yozish imkoniyati bo‘lgan va yirik-yirik kutubxonalar yuzaga kelgan. Qisqa muddat ichida Markaziy Osiyoning Buxoro, Samarqand, Marv, Gurganch va Kot shaharlari yirik madaniyat markazlariga aylandi”[6]. Buning natijasida mazkur shaharlarda ulkan kutubxonalar qadroslaganligi; kitobxonlik madaniyati rivojlanganligini shu zamindan yetishib chiqqan buyuk allomalar faoliyatida anglash mumkin.

Abdulkarim as-Sam’oniyning “al-Ansob” (Nasabnoma) asarida VIII – XII asrlarda O‘zbekiston hududida yashab ijod etgan olim va fozil insonlar xususida qiziqarli maanbalar bayon etilgan[7]. Jumladan, Samarqand va Buxorolik 100 dan ortiq muhaddis, tarixchi va o‘z davrining ilg‘or fikrli namoyondalari haqidagi biografik ma’lumotlar

---

1 B.Ahmedov, A.Juvonmardiyev. Abu Tohirxojaning “Samariya” asari haqida / Abu Tohirxo‘ja Camarqandiy. SamariY. – T.: Kamalak nashriyoti. 1991. 7-b.

2 Sadriddin Ayniyning “Samariya”ning ahamiyati nomli maqolasidan. 1926-yil, 29-mart. Ma’lumot olingan manba: Abu Tohirxo‘ja. SamariY. / Meros turkumidan. T.: Kamalak nashriyoti. 1991. 13-14 betlar.

3 Ma’lumot uchun qarang: Abu Tohirxoja Samarqandiy. Samariya /“Meros” turkumidan. T.: “Kamalak” nashriyoti, 1991. 12-81-betlar.

4 Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar *(Osor al-boqiya). Yetti jildlik tanlangan asarlar.* 1-jild. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2020. 8-b.

5 Мец А. Мусульманский Ренессанс. – С.372.

6 Мец А. Мусульманский Ренессанс. – С.372. *Iqtibos olingan manba:* Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar *(Osor al-boqiya).* 1-jild. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2020. 8-b.

7 Abdulkarim as-Sam’oniy. Nasabnoma (al-Ansob). – T.: www.madrasa.uz. 2017. – 273 b.

bilan bir qatorda hadis ilmidan yaxshigina xabardor bo‘lgan fozil insonlar haqidagi ma’lumotlarni ko‘ramiz. Jumladan, hadis ilmining peshvosi Imom al-Buxoriy o‘zining Sahihi Buxoriy asarini jamlashda bularning bir qanchasidan hadislar rivoyat qilganligi e’tiborlidir[1].

Abdulkarim as-Sam’oniyning “Nasabnoma” asarida Madina asli arabcha so‘z bo‘lib “shaharda muqim yashovchi”, “shaharlik” degan ma’nolarni anglatishi bilan birga, “Madina” so‘zi quyidagi 8 ta shaharga berilgan nisbat ekanligiga ham ishora beradi, bular: Madinai Munavvara, Bag‘dod, Isfahon, Nishopur, Marvdagi ichki qal’a, Buxoro, Samarqand hamda Nasaf shaharlari ekanligi qayd etiladi[2]. Tabiiyki, VIII – XII asrlarda yuqorida nomlari keltirilgan shaharlar singari, ko‘hna va qadim Samarqand shahri ham ilm-ma’rifat markazlari bo‘lganligi ayni haqiqat.

Filologiya fanlari doktori, professor Bohodir Ermatov o‘zining “Amir Temur G‘arbiy Yevropa adiblari nigohida” ilmiy monografiyasida “Sohibqiron Amir Temurning bunyodkorlik ishlari, mardonavor yurishlari, davlatchilik asoslari va boshqa jihatlari haqida xorijiy mamlakatlarda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqidagi 80 dan ortiq ilmiy va adabiy manbalar haqida ma’lumotlar beradi[3].

Bunda bir qator fransuz olim va adiblarining Amir Temur va Temuriylar poytaxti Samarqand saroyi xususidagi ilmiy va badiiy qarashlari tahsinga loyiq. Xususan, De Klavixoning Sohibqiron Amir Temur saroyi – Samarqanddagi taasurotlari[4], A.Kristianning XV asr Temuriylar mamlakatining yuragi bo‘lgan Samarqand saroyining nufuzi xususidagi ilmiy mulohazalari[5], Milena Nokovichning “Pluie d'or sur Samarkand” (“Samarqandda oltin yomg‘ir”, roman)[6] kabi ilmiy va badiiy adabiyot namunalari Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar davri – xorij adiblarining ilmiy qarashlarida Samarqand saroyining yuksak nufuzini belgilab beradi.

Bu kabi madaniy jabhalarda yuksak inshootlar qurilishiga keyingi davr Temuriyzodalar ham katta e’tibor qaratganlar. Buni keyingi davrlarda mamlakatning markaz shaharlaridan bo‘lgan Samarqandda bunyod etilgan yuksak madaniyat maskanlari misolida ham ko‘rish mumkin.

Amir Temurning to‘rtinchi farzandi Shohruh Mirzoning o‘g‘li 1411-1449-yillar Movorounnahrning hukmdori sanalgan Mirzo Ulug‘bek mamlakat poytaxti Samarqandda ilm-fan va madaniyatning ravnaqi uchun ulkan ishlarni amalga oshirdi.

---

1 Ma’lumot uchun qarang: Abdulkarim as-Sam’oniy. Nasabnoma (al-Ansob). – T.: www.madrasa.uz. 2017. 50-60-bb.
2 Abdulkarim as-Sam’oniy. Nasabnoma (al-Ansob). – T.: www.madrasa.uz. 2017. 73-b.
3 Ma’lumot uchun qarang: Ermatov B. Amir Temur G‘arbiy Yevropa adiblari nigoxida. MonografiY. – T.: “Navro‘z” nashriyoti, 2019. – 256 b.
4 Clavijo Ruy Gonzalez de. La route de Samarkand au temps de Tamerlan. – Paris: Impremerie Nationale, 2006.
5 Aercke Kristiaan. Au miroir des peurs occidentales/ Samarcande 1400-1500. La cite-oasis de Tamerlan: coeur d'un Empire et d'une Renaissance. – Arles: Autrement, Janvier. 1995.
6 Nokovitch Milena. Pluie d'or sur Samarkand. – Paris: Delville. 1993. – 352 p.

Aynan Mirzo Ulug‘bek hukmronlik qilgan yillarida Samarqand – Sharqning eng gullab yashnagan davriga aylangan edi[1].

Muarrix Abdurazzoq Samarqandiy Mirzo Ulug‘bek tomonidan o‘z davrida poytaxt Samarqandda bunyod etilayotgan madrasini o‘z ko‘zi bilan ko‘rganlarini quyidagicha tasvirlaydi: “Samarqand shahrining ichida, shaharning o‘rtasi va (shahar) maydonining markazida, Arki Oliyga yaqin joylashgan Sarduatik deb ataladigan mavzeda (Ulug‘bek) bir-biriga ro‘baro‘ madrasa va xonaqoh bino qilib, bu ikki maqomni qurib tamomlash borasida bir necha yil davomida say-harakatlar ko‘rsatdi. Ularning balandligi va bezaklari baland osmonning g‘ashini va Chin suratxonasining rashkini keltirar, binolarning mustahkamligi va ustunlarning nozikligi bilan Haramon hay’ati va tav’aman suratini eslatar edi. Xaqiqatan ham u ikki imoratning latofatini yozuv qalami va bayon raqami bilan tasvirlash mumkin emas”[2].

Amir Temurning ilm-ma’rifat, adabiyot, san’at va madaniyatga bo‘lgan yuksak e’tibori, Sohibqirondan keyingi barcha Temuriyzodalarga ham ko‘chgan edi. Ularning poytaxt shahar Samarqandga qilgan ma’naviy va madaniy bunyodkorlik ishlari bu zamindan ulug‘ shoir va san’atkorlarni yetishib chiqishiga ulkan xizmat qildi.

Temuriy shahzodalardan bo‘lgan Husayn Boyqaroning do‘sti, maslakdoshi, keyinchalik Husayn Xuroson yurtiga podshoh bo‘lganda uning o‘ng qo‘l vaziri sifatida faoliyat olib borgan Mir Alisher Navoiyning Samarqand zamini bilan kechgan kechinmalari uning “Alisher Navoiy asarlari bo‘yicha tayyorlangan qomusiy lug‘at”dan o‘rin olgan.

O‘zbek mumtoz adabiyotining asoschisi, g‘azal mulkining sultoni Hazrati Mir Alisher Navoiyning Samarqanddagi faoliyati quyidagi iqtibosda namoyon bo‘ladi: “Navoiy XV asrning 60-yillarida Samarqandga ilm o‘rganish maqsadida borib, u yerda Fazlulloh Abullays Samarqandiy kabi yirik olimlar huzurida saboq olgan”[3].

Navoiyning Samarqand ilmiy-adabiy muhitiga bo‘lgan yuqori rag‘batini o‘zining “Majolis un-nafois” asaridagi 30 ga yaqin samarqandlik ijodkorlar haqida ma’lumot berib, ularning ijodidan namunalar keltirganligida ko‘rish mumkin.[4]

XVI asrda Shayboniy hukmdorlardan bo‘lgan “Abdullaxon ham (1540) Temur singari Movarounnahrning ko‘pgina shaharlarida, xususan, Buxoro, Samarqand va Toshkentda juda ko‘p binolar (madrasalar, masjidlar, xonaqohlar), rastalar, bog‘lar va ayrim suv inshootlari qurdirgan”[5]. Bundan anglashiladiki, Temuriy shahzodalardan

---

1 Ma’lumot uchun qarang: Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa’dayn va majmai bahrayn (Ikki saodatli yulduzning chiqish va ikki dengizning qo‘shilish joyi). Fors tilidan tarjima, so‘zboshi va izohlar muallifi A.O‘rinboyev. – T.: O‘zbekiston”, 2008. – 632 b.

2Samarqandiy, Abdurazzoq. Matlai sa’dayn va majmai bahrayn (Ikki saodatli yulduzning chiqish va ikki dengizning qo‘shilish joyi). Fors tilidan tarjima, so‘zboshi va izohlar muallifi A.O‘rinboyev. – T.: O‘zbekiston”, 2008. 376-377-b.

3 Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at. Birinchi jild. – T.: Sharq nashriyoti, 2016. 497-b.

4 Manbaa uchun qarang: Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at. Birinchi jild. – T.: Sharq nashriyoti, 2016. 497-b.

5 Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma (Sharafnomayi shohiy). Birinchi kitob. – T.: “Sharq” nashriyot- matbaa konserni bosh tahririyati. 1999. 11-bet.

keyin ham Samarqand hududida ulkan bunyodkorlik ishlari davom ettirilganligini ko‘ramiz.

Xulosa qilib aytganda, bir qancha sulola va mamlakatlarning poytaxti bo‘lgan ko‘hna Samarqand vohasi zamonlar osha o‘zining markaz maqomida qadim tamaddunning poydevori o‘laroq bir qancha alloma va avliyolarni kashf qilgan, butun dunyoga ulug‘ sarkarda va davlat arboblari bilan dong taratgan, bir qancha mamlakatlarni va xalqlarni hamda millatlarni adolat va islom arkonlari ostida birlashtirgan ilm va madaniyat markazi bo‘lgan ko‘hna va navqiron zamin sanaladi. Shunday ekan, bu zaminning hali ochilmagan qirralari yuksak madaniyat va san’at qatlamini Sharq va G‘arb olimlari ilmiy manbalari asosida o‘rganilishni talab etadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa’dayn va majmai bahrayn (Ikki saodatli yulduzning chiqish va ikki dengizning qo‘shilish joyi). Fors tilidan tarjima, so‘zboshi va izohlar muallifi A.O‘rinboyev. – T.: O‘zbekiston” nashriyoti, 2008.

2. Abu Bakr Narshaxiy. Buxoro tarixi. (fors tilidan A.Rasulev tarjimasi, mas’ul muharrir A.O‘rinboyev). Meros turkumi to‘plamidan. T.: Kamalak nashr., 1991.

3. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar *(Osor al-boqiya). Yetti jildlik tanlangan asarlar.* 1-jild. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2020.

4. Abu Tohirxo‘ja. Samariya / Meros turkumidan. – T.: Kamalak nashr. 1991.

5. Abdulkarim as-Sam’oniy. Nasabnoma (al-Ansob). – T.: www.madrasa.uz. 2017.

6. Алескеров Ю.Н. Самарканд (страницы истории). – Т.: Изд-во.: “Узбекистан”, 1967.

7. Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at. Birinchi jild. – T.: Sharq nashr., 2016.

8. Aercke Kristiaan. Au miroir des peurs occidentales/ Samarcande 1400-1500. La cite-oasis de Tamerlan: coeur d'un Empire et d'une Renaissance. – Arles: Autrement, Janvier. 1995.

9. Ahmedov B., Juvonmardiyev A. Abu Tohirxojaning “Samariya” asari haqida / Abu Tohirxo‘ja Samarqandiy. Samariya. – T.: Kamalak nashr. 1991.

10. Пьянков И.В. Древний Самарканд (Мараканды) в известиях античных авторов (Собрание отрывков и коментарии). [Ответсвенной редактор Б.А.Литвинский]. – Душанбе: изд-во «Дониш», 1972.

11. Sadriddin Ayniyning “Samariya”ning ahamiyati nomli maqolasidan. 1926-yil, 29-mart. / Abu Tohirxo‘ja. Samariya / Meros turkumidan. T.: Kamalak nashriyoti. 1991. 13-14 betlar.

12. Clavijo Ruy Gonzalez de. La route de Samarkand au temps de Tamerlan. – Paris: Impremerie Nationale, 2006.

13. Мец А. Мусульманский Ренессанс. – С.372.

14. Nokovitch Milena. Pluie d'or sur Samarkand. – Paris: Delville. 1993. – 352 p.

15. Ermatov B. Amir Temur G‘arbiy Yevropa adiblari nigohida. Monografiya. – T.: “Navro‘z” nashr., 2019.

16. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (“S” harfi). – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. www.ziyouz.com kutubxonasi.

17. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma (Sharafnomayi shohiy). Birinchi kitob. – T.: “Sharq” nashr., 1999.

D.M.Malikova,
O‘zDSMI “Vokal” kafedrasi professori v.b.

ABU ALI IBN SINONING MUSIQAGA OID QARASHLARI

Anotatsiya. *Ushbu maqolada buyuk alloma Abu Ali ibn Sinoning musiqa sohasidagi ilmiy qarashlari, musiqaning ahamiyati, uning rivojlanishiga hamda musiqaning estetik jahatlarini ochib berishga qo‘shgan hissasi haqida so‘z boradi. Musiqaning yosh avlodni ma’naviy-estetik tarbiyasidagi ahamiyati va ularda musiqiy ijro orqali axloqiy dunyosini har tomonlama o‘stirish, oliyjanob fazilatlarini kamol toptirish haqida fikrlar yozilgan.*

Kalit so‘zlar: *musiqiy tafakkur, usul, silsila, musiqiy vazn, o‘zan, psixologiya, xonanda, sozanda, bastakor, terapiya.*

Annotation. *This article talks about the scientific views of the great scientist Abu Ali ibn Sina in the field of music, the meaning of music, his contribution to its development and the disclosure of the aesthetic aspects of music. It is also written about the importance of music in the spiritual and aesthetic education of the younger generation, the comprehensive development of their moral world through musical performance, and the development of noble qualities.*

Key words: *musical heritage, rhythm, series, musical size, channel,singer, psycholog, yinstrumentalist, bastakor, therapy.*

Musiqiy tafakkurning barcha turlari ijtimoiy – tarixiy xususiyatlarga ega, ya’ni ma’lum bir tarixiy davrga tegishli. Ana shu tarzda turli davrlar uslubi paydo bo‘ladi. Musiqa – insonga ruhiy-hissiy ta’sir etish kuchiga ega bo‘lishi bilan xarakterlidir. Agarki, o‘quvchiga kuy yoki qo‘shiq ta’sir etibdimi, albatta musiqiy hissiyot va psixologik kechinma paydo bo‘lishi kuzatiladi. Musiqaning insonni axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg‘ularini rivojlantirish bilan birga ijodiy qobiliyatlarini rag‘batlantirish vositasi sifatidagi roli juda muhim. Bu san’at turi tarbiya vositasi sifatida nafaqat ulkan ta’sir kuchiga ega, balki inson ruhiyatiga hayotbaxsh kuch bera oladigan jon ozug‘idir. Insonning go‘zallik tuyg‘usini taraqqiy ettirmay turib, ma’naviy barkamollik haqida gapirib bo‘lmaydi. Musiqa ana shu nozik tuyg‘ularni shakllantiruvchi va tarbiyalovchi qudratli quroldir.

Mustaqillik sharofati bilan Markaziy Osiyo va islom dunyosida yashab o‘tgan Sharq mutafakkirlarining ma’naviy merosini o‘rganish,tiklash va rivojlantirish, xalqimizning ma’naviy olamini yuksaltiruvchi omillardan biriga aylandi. Inson ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda juda katta imkoniyatlarga ega bo‘lgan milliy musiqiy madaniyat namunalarining hozirgi zamon kishisi ma’naviyatida tutgan o‘rni katta ilmiy ahamiyatga ega.

Musiqaning kuchli ruhiy-hissiy ta’sir vositasi ekanligi va ma’naviy ahamiyati sharq allomalari asarlarida alohida ta’kidlangan. Buyuk olimlar Abu Nasr Forobiy, Abu Ali

ibn Sino, Al-Kindiy, Faxriddin ar-Roziy, Maxmud ibn Ma'sud ash-Sheroziy, Zaynobiddin al-Xusayniy, Najmiddin Kavkabiy Buxoriy, Abdulqodir Marog'iy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Abdulhaq ad-Dehlaviy, Darvish Ali Changiy Buxoriy va boshqa allomalar musiqaning tarbiyaviy ahamiyati to'g'risida qimmatli fikrlar bayon etganlar.

Barchamizga ayonki, kuy – qo'shiqqa, san'atga muhabbat bolalaikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Eng muhimi, musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda. **"Biz ajdodlarimizning yorqin xotirasini asrab-avaylab, qalbimizda, yuragimizda asraymiz"**[1] – deydi, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev.

O'rta Osiyo uyg'onish davrining zabardast allomalari bir qancha sohalar qatorida musiqa bilan bog'liq bo'lgan qarashlari va nazariyalari bilan musiqa sohasiga ulkan hissa qo'shadilar. Shunday zabardast alomalardan biri Abu Ali ibn Sinodir. Buyuk olim dunyo tibbiyotining asoschilaridan bo'lgan Abu Ali Ibn Sino "Tib qonunlari" kitobida musiqaning ruhiy ta`sir kuchiga baho berib, go'dakning tarbiyasidagi ahamiyatini oddiygina ta`riflaydi. "Go'dakning vujudi chiniqishi uchun ikki narsa zarur: biri uni asta qimirlatib tebratish; ikkinchisi ona qo'shig'i (allasi). Bu ikki narsaning bola tomonidan idrok etilishi uni jismoniy mashqlar va musiqaga moyil qiladi. Ulardan birinchisi tanga, ikkinchisi esa – qalbga tegishli."[2] Tarbiya tizimida musiqa san'ati yetakchi o'rinda turadi. U bolani musiqiy dunyo qarashining shakllanishi va mustahkamlashi yo'lida asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Biz ko'proq Ibn Sino deganda tabobat olamining eng yirik donishi, olimi va tabibini ko'z oldimizga keltiramiz. Lekin bugun biz ushbu maqolada Ibn Sinoning musiqa sohasiga qo'shgan salmoqli fikrlari, qarashlari va estetik tafakkurning taraqqiy etishida musiqaning o'ziga xos xususiyatlarini ochib bergan alloma sifatida tanishga harakat qilamiz. Shuni aytish joizki, Ibn Sino o'zining estetik qarashlarida musiqa bilan axloq muammolarini bir-biriga uzviy bog'laydi. U musiqaga oid 5 ta asar yozgan. Uning eng katta asari "Jome' ilm- al-musiqiy" (Musiqa bilimiga oid to'plami) dir. U bu asarida idealistik qarashlarini to'g'ridan- to'g'ri rad qilishdan boshlaydi, shu bilan birga musiqaning progressiv yo'nalishlarini qo'llab – quvvatlash, idealistik qarashlardan muhofaza qilishda O'rta asrlar sharoitida juda katta ilmiy matonat ko'rsata olgan. Shuningdek, har bir qismida musiqashunoslikning yangidan – yangi masalalarini ko'taradi va hal qiladi. Olim musiqa asoslarining ustuvor tamoyillari boshqa fanlar bilan bog'liqligi va uning muhim jihatlarini o'rganish uchun fizikaning asosiy qonun-qoidalariga amal qilish lozimligini tajriba va amaliyotga bog'liqligini ta'kidlaydi. Ibn

[1] Sh.M.Mirziyoyev"Erkin va faravon, demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz" O'zbekiston NMIU, 2016 y 5 bet
[2] Petrov.B.D. "Ibn Sina-velikiy sredniaziatskiy uchenniy ensiklopedist", Abu Ali ibn Sina. Kanon vrachebnoy nauki. Tashkent, 1981

Sino musiqa asarining eng muhim shartlaridan biri deb, she’riyat va musiqaning vazni ular mazmunini chambarchas bog‘lanishligini aytib o‘tgan. She’riyat va musiqa orasidagi ko‘prik vazn ekanligini ta’kidlab, vazn masalalariga, musiqa va she’riyat tabiiy uyg‘unlashuvi muammolariga alohida e’tibor bergan. Bu borada uni Aristotel an’analarining davomchisi, musiqa va she’riyat masalalarini Sharq madaniyati zaminida davom ettirgan donishmand deyish mumkin. Aynan “Kitob ush shifo” asarining so‘zboshisida musiqaning estetik xususiyati haqida gapirib, bu san’at turining axloqiy tarbiyadagi ahamiyatiga, she’riyatning kishilarga go‘zal fazilatlar singdirish imkoniyatlariga to‘xtalib o‘tadi, “she’riyat tasavvurga ta’sir ko‘rsatuvchi nutqdir” deb ta’kidlaydi.

Shuningdek, uning estetik tarbiya borasidagi qarashlarida quyidagi fikrlarini kuzatishimiz mumkin: **“Har bir narsani bilish, u narsaning sabalari bo‘lsa, shu sabablarni o‘rganish orqali hosil bo‘ladi va kamolga yetadi.”**[1] Bu bilan u kamolga yetishni, mukammallikni, yetuklikni insonning ichki go‘zalligi va ezgulikka intilishida ifodalaydi. Eng ahamiyatlisi shundaki, Ibn Sino o‘zining tibbiyotga oid katta-katta asarlarida, ayniqsa, ruhiy kasalliklarni davolashda musiqaning hissiy ta’sir kuchini ko‘rsatgan va alohida “shifo dasturi” sifatida bunday davolash usullarini tavsiya etgan. Uning “Qitab ush- shifa’”, “Qitab un -najat” asarlarida bir qancha misollarni uchratishimiz mumkin.

Abu Ali Ibn Sino o‘zining musiqa haqidagi asarlarida tom ma’noda al-Farobiyning musiqaviy – estetik qarashlarini yanada rivojlantirdi va uni yuqori bosqichga ko‘tardi. Buxoro va keyinchalik Ibn Sino yashab ijod etgan Urganch, Ray, Xamadon kabi markaziy shaharlarda bastakorlar, ustoz xonanda va sozandalar ijodining barq urishi, musiqa tafakkurining yuksak namunalaridan bo‘lgan maqomlarning joriy qilinishi musiqa ilmiga ham katta ehtiyoj tug‘dirdi. Ibn Sino asarlari esa bu borada bebaho ahamiyat kasb etadi. Musiqa ilmiga oid masalalarini ko‘plab asarlarida o‘z ifodasini topishini chuqurroq o‘rganish uchun esa, afsuski, ularning hammasi ham bizgacha yetib kelmagani, haligacha fanga ma’lum emasligi albatta achinarli hol.

Inson tabiati shundayki, u yoqimli va go‘zal narsalar, his va tuyg‘ulardan orom oladi, huzur topadi va ilhomlanadi. Ibn Sino musiqaning ruh bilan birgalikda tanaga ham shifobaxsh ta’sir ko‘rsatishi haqida aytib o‘tgan. U musiqani ham fiziologik, ham psixologik nuqtayi nazardan o‘rgangan. Ushbu jihatlarga alohida e’tibor bergan holda, Ibn Sino **“Jome’ ilm-al-musiqiy”** asarida tovushning sezgi organlariga ta’siri, uning yoqimli va yoqimsizligiga, tovushni eshitganda maroqlanish yoki nafratlanish masalalariga ham alohida to‘xtalib o‘tgan. Shuningdek, musiqaning paydo bo‘lish sabablari, uning inson ma’naviy hayotida qanchalik zarurligi musiqiy tafakkurning taraqqiylanishiga munosib ko‘rsatgan sabablari haqida mulohazalarini uchratish

[1] 111 Vatandosh allomalarimiz “Insoniy fazilatlar haqida hikmatli so‘zlar” Yangi asr avlodi.Toshkent, 2019 y 121 bet

mumkin. Tovushlar haqidagi mulohazalari ketganda, inson fizik jihatdan nutqlardagi tovushlarni eshitishga moslashganligini qayd etadi. Bu borada u til va nutq masalalariga ham alohida to‘xtalgan holda quyidagicha ta’kidlaydi: “Alloxning insonlarga in’om etgan baxtlaridan yana biri inson nutqidir. Inson o‘zining ana shu nutqidagi tovush ohanglari orqali o‘z hissiyotlarini izhor etadi”**.**

Ibn Sino tovushlar tabiatini o‘rganibgina qolmay, ularning kelib chiqish mexanizmlarini ochib berishga harakat qiladi. Har qanday tovush qo‘shiqchilik san’ati talablari asosida namoyon bo‘lishini aytib, tovushning tabiiy xususiyatlari ayni paytda inson faoliyatiga hamohangligini uqtiradi.

Ibn Sino fikriga ko‘ra inson qalbi o‘z tabiati bilan bir-biriga monand bo‘lgan tovush va ritmlarni yoqtiradi. Sababi tovush insonni ham hayvonni ham turli vaziyatlarga ko‘ra hayajonlantiradi. Insonlarning ovozlari ham biror ma’noni ifodalab, kishi ruhiga ta’sir etishi mumkin, shundan rang-barang fe’l-atvorlar sodir bo‘ladi. Olim fikricha mana shunda ovozning baland-pastligi, ayniqsa musiqiy ovozning darajasi qanday bo‘lishi kishi ruhiyatiga ta’sir etishda ahamiyat kasb etib, musiqa fani tovushlarining bir-biriga muvofiq yoki nomuvofiq joylashgani haqida bahs yuritishi mumkin. Yana shuni alohida ahamiyat bilan: “musiqaning ikki o‘zani bo‘ladi: biri kuy yaratish bo‘lsa, ikkinchisi unda ritm mavjudligidir.” deb ta’kidlaydi. Bu bilan Ibn Sino musiqa fani mana shu ikki xil tarmoqdan o‘sib, unib rivoj topishini va mukammallashini ko‘rsatib qo‘ydi. Zero, u har bir mulohaza va fikrlarini aniq bir mantiqqa tayangan holda bildirigan. Misol uchun uning ushbu fikri bunga yaqqol dalildir: **“Aql tarozusida tortib ko‘rilmagan har qanday bilim asossizdir. Shu bois mantiq ilmini o‘rganmoq juda muhim.”**[1]

Xulosa qilib aytganda, O‘rta Osiyo mutafakkirlari o‘z davrida musiqaning inson ma’naviy hayotidagi bir qancha o‘rinlarini ko‘rsatish bilan birga bu sohada buyuk silsilani vujudga keltirdilar. Ibn Sinoning bu borada qilgan bir qancha aytish joiz bo‘lsa, buyuk ishlari beqiyosdir. Donishmandning musiqaga oid asarlarini Sharq ilk uyg‘onish davri musiqa madaniyati qay darajada bo‘lganligini ko‘rsatib turuvchi bir mezon, estetik tafakkurning naqadar taraqqiy etganligidan dalolat beruvchi manba sifatida baholash mumkin.

Abu Ali Ibn Sinoning metodologik ahamiyatga ega bo‘lgan ta’limotlari hozirgi kunda ham o‘ta dolzarb bo‘lib, noyob qo‘lyozmalarini o‘rganish, tadqiqot ishlarini olib borish, yangi sifatlar bilan boyitib amalda ya’ni musiqa ilmi va ta’lim tarbiyasida keng qo‘llash katta ahamiyat kasb etadi. Zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda psixologiya fanida ham “musiqa terapiya”, “art terapiya” degan tushunchalar omma orasida ham keng qo‘llanilmoqda. Bu davolash usuli insonning ham ongini, qaysidir ma’noda asab tolalarini ham ruhini muvozanatga kelishida samarali foyda bermoqda. Bu jarayonlarni esa Ibn Sino allaqachon o‘z tajribalarida isbotlab, tadbiq etgan.

[1] 111 Vatandosh allomalarimiz”Insoniy fazilatlar haqida hikmatli so‘zlar” Yangi asr avlodi.Toshkent,2019 y 207bet

Haqiqatdan ham, insonga mohir sozandaning sozidan taralayotgan har qanday xazin, yoqimli kuyni eshttirib, har qanday doridan ham yaxshi ta’sir etishini va unga shifo ato etishini, ruhining taskin topishini olimlarning keltirgan ilmiy nazariyalaridan ma’lum bo‘lganligini guvohi bo‘lamiz.

Ha, buyuk allomaning ma’naviy merosi tasodifiy emas, aksincha, tabiiy ravishda asosli va mohiyatan mavjud bo‘lib, ularning mukammal ilmiy- nazariy va amaliy faoliyatlari tufayli yaratilgan. Shuning uchun ham hozirgi o‘zbek qo‘shiqchiligi va musiqasi o‘zining o‘q ildizlari bilan ana shu Uyg‘onish davrining taraqqiyotiga bog‘liqdir desak, mubolag‘a bo‘lmas.

Bugungi kunda yurtimizda san’at sohasida olib borilayotgan islohotlarni keng targ‘ib etish va oldinga qo‘yilgan masalalarni hal qilish, ko‘zlangan maqsadlarni amalga oshirishda milliy musiqamizni yanada rivojlantirish, yosh avlodni yetuk, har tomonlama bilimli mutaxassis qilib tarbiyalsh, musiqa ta’limini izchil takomillashtirish borasida buyuk allomalarimizning, shu qatorda Ibn Sinoning boy tajribaga ega bo‘lgan musiqashunoslik va qo‘shiqchilik ilmidan foydalanish juda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

Musiqa o‘zining betakror tabiati bilan yoshlarning ma’naviy dunyosiga katta ta‘sir etadi. Ularning badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga milliy g‘urur va milliy iftixor tarbiyasini amalga oshirishda ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o‘stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqilligi va tashabbuskorligini tarbiyalashga xizmat qiladi. Uning bu kuchidan mazmunli va unumli foydalanish har bir musiqa mutaxassislarining muqaddas burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev “Erkin va faravon,demokratik O‘zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz.” O‘zbekiston NMIU, 2016 y
2. M.Umarov “Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi” Yangi asr avlodi 2009 y
3. 111 Vatandosh Allomalarimiz. “Insoniy fazilatlar haqida hikmatlar” Yangi asr avlodi, T.: 2019
4. “Musiqa psixologiyasi” “Musiqa nashriyoti”, Toshkent 2005 y
5. “100 Mumtoz Faylasuf” Yangi asr avlodi, Toshkent 2018

Umarxodjayev Bosit Bohodirovich,
O‘zDSMI mustaqil tadqiqotchisi

JADIDLARNING SAN’ATGA OID QARASHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, jadid ma’rifatparvarlarining san’at va uning sohalariga oid qarashlari haqida yozilgan. Ayniqsa, Abdurahmon Vodiliyning san’at tushunchasi va uning mohiyati borasidagi fikrlari ilk bora tahlil qilindi. Shuningdek, teatr san’ati haqida Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Zafar Rahmat, Abdulhamid Cho‘lponning qarashlari, Abdurauf Fitrat, G‘ulom Zafariy, Sayiid Alixo‘jalarning musiqaga oid fikrlari tadqiq qilindi. Jadidlar o‘z g‘oyalarini san’at sohalari orqali targ‘ib qilishga harakat qilganligi xulosa sifatida berilgan*.

Kalit so‘zlar*: jadid, san’at, teatr, musiqa, tahlil, tadqiq, xulosa.*

Jadid ma’rifatparvarlarining ilmiy, tarixiy merosini o‘rganish masalasi – Yangi O‘zbekistonning ajralmas davlat siyosatiga aylandi. Chunki, turli tazyiqlar va mafkuraviy to‘siqlar, qatag‘on to‘lqini bo‘lmaganida aynan ular Uchinchi Renessansni yuzaga kelishiga sababchi bo‘lar edilar. Shu bois, ularning haqiqiy hayotini, faoliyatini o‘rganish bilan birga, jadidlarning madaniy merosini ham chuqur tadqiq qilinmog‘i lozim. San’at bevosita jadidlarning madaniyat sohasini bir bo‘lagi va targ‘ibot qismi sifatida e’tirof etilgan. Shu bois, jadidlarning san’at va uning teatr, musiqa kabi sohalariga oid qarashlarini o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

Jadidlar san’atni xalq va millatning oliy ma’naviy ko‘zgusi sifatida bilishgan. San’at orqali jadidchilik g‘oyalarini xalqning ruhiyatiga ta’sir etishini anglashgan. Shu bois jadid mutafakkirlaridan biri Abdurahmon So‘fiyev ya’ni Vodiliy (1893-1965) san’at tushunchasi haqida shunday yozgan: “Yerda o‘tayotgan hayotimizni san’atsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. San’atsiz umr – suvsiz qaqragan sahrodir. Hatto suvsizlikdan quvrab yotgan sahro ham san’at hayoti bilan bog‘langan chog‘da ko‘z o‘ngimizda cheksiz go‘zallik ochadi, yolg‘izlik hissini, bilgisiz iztiroblar o‘rnini yuksak shuur qamrab oladi”[1]. San’at – inson ma’naviy olamining tarjimoni, u inson tuyg‘usiga ta’sir qilish bilan kishini ma’naviy jihatdan tarbiyalaydi. Bugungi kunda san’at insonlarga va ayniqsa yoshlarga ko‘tarinki ruh berishi, ularni ijodkorlikka, bunyodkorlikka yo‘naltirishi bilan ahamiyatlidir. Abdurahmon Vodiliy san’at haqida o‘z fikrlarini davom ettirib, shunday yozgan: “Har qanday san’at asari san’atkorning yuragida, ko‘zlarida, aqlida uzoq vaqt yuradi. Tilining uchida olib yurgan noyob gavhar – san’at asari bo‘ladi. U noyob gavharga aylanguncha uzoq vaqt o‘tadi. Keyin uzoq vaqtlar yashashga haqli”[2].

Teatr – san’atning ajralmas bir qismidir. Jadidlar eng avvalo, o‘z g‘oyalarini shu teatr vositasida targ‘ib qilishni boshlagan. 1914 yilning 27 fevralida o‘zbek xalqining

---

1 *Водилий.* https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abdurahmon-vodiliy-dunyoni-izladim-bormu-deb-imonga-yol.html
2 *Водилий.* https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abdurahmon-vodiliy-dunyoni-izladim-bormu-deb-imonga-yol.html

madaniy hayotida unitilmas voqea ro‘y bergan. Ikki ming kishilik teatr zalida tomoshabinlar to‘la bo‘lgan va teatr pardasi ochilishi oldidan Toshkent jadid ma’rifatparvarlari rahbari Munavvarqori Abdurashidxonov so‘z olib, shunday degan: “Jamoat!... Bizni Toshkand shahrida bir necha marotaba milliy tiyotrlar o‘ynalgan bo‘lsa ham, holis Turkiston tilida hanuz bir tiyotr o‘ynalmag‘onlig‘i barchamizga ma’lumdir. Shu sababli ba’zi kishilarimiz tiyotrg‘a, ehtimolki, o‘yinbozliq yoxud masxarabozliq ko‘zlari ila boqurlar. Holbuki, tiyotr sahnasi har tarafi oynaband qiling‘on bir uyg‘a o‘xshaydurkim, unga har kim kirsa, o‘zining husn va qabihini, ayb va nuqsonini ko‘rib, ibrat olur. Va bu sahnada ko‘ziga yomon ko‘ringan past odatlardin va buzuq axloqlardin uzr qilmoqg‘a harakat qilur. Binoan alayh, tiyotrni buzuq kasallarining eng yoqimli da’vosiga o‘xshatgan kishi yolg‘onchi bo‘lmasa kerak, deb o‘ylayman”[1]. Abdulla Avloniy ham teatr haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: “Tiyotr har bir millatning yamon urf-odatlarini yo‘q qilmak uchun, o‘zini ahvolini tuzatmak uchun boqadurg‘on oynasidir”[2]. Agarki tarixiy davrning yomon urf-odatlarini bilib, uni tuzatishda teatr “ibratxona” vazifasini bajargan. Millat “o‘zining husn va qabihini, ayb va nuqsonini ko‘rib” o‘zgarishi, tarbiyalanishi, boshlangan yangi zamonga moslashishi kerak bo‘lgan ommaning kattagina qismi teatrni g‘azab va nafrat bilan qarshi olganini eslasak, jadidlarning milliy teatrni barpo etish yo‘lidagi faoliyatini tarixi qahramonlik, deb baholash mumkin.

“Padarkush” – o‘zbek dramaturgiyasining ilk namunasi, o‘z davri ijtimoiy manzarasining yorqin solnomasi sifatida qog‘ozga tushdi. Muallif drama janrini “milliy fojia” deb atadi. YA’ni asr boshida Turkistonda yuzaga kelgan savodsizlik, jaholat illatlarini millat oyog‘iga tushov bo‘layotgan, uni taraqqiyotdan ortga tortayotgan fojia sifatida baholadi va xalqni yakdil bo‘lib, ushbu ma’naviy qutquga qarshi kurashmoqqa chorladi.

Jadid ma’rifatparvarlardan biri Zafar Rahmat, “Xalq ibodat qilg‘onda o‘zining gunohiga iqror qilub, kelajakda iymon qilmoqg‘a tavba qilg‘on kabi, teatr sahnasidagi adabiyotni ko‘rgach yaxshilardan bularg‘a tirishar, sahnada o‘ynag‘on o‘yinlar zamong‘a muvofiq bo‘lub, xalq orasinda tarala boshlag‘on ba’zi yomonlig‘, ezmaliq balolarin qutuluv choralarin ko‘rsatgan yo‘llarindin iborat bo‘lub, artistlarning orastaliklari orqasinda xalqning fikrin ma’lum yong‘a tayandirub, umum ishimizg‘a ham odillik birla turuvg‘a qiziqtirdi”[3]. Abdulhamid CHo‘lpon esa “...sanoye’ nafisaning eng oliy qismi. Ulsiz bir millatni bor deb bo‘lmas. Madaniy millatlarning o‘sish darajalarini bilmak uchun tarozuga solganda, tarozuning o‘rtasida yarqirab turadirg‘on sanoye’ nafisa va uning bir qismi bo‘lg‘on teatrdir”, deb yozgan[4].

---

1 Абдурашидхонов М. Танланган асарлар. – Тошкент., 2005. – Б. 153-154.
2 Тиётр хусусида мунозара / Абдулла Авлоний А. Танланган асарлар. Тошкент, 1998. 221-бет
3 Зафар Раҳмат. Театрни нечук англарға // “Иштирокиюн” газетаси. 1919 йил 11 июл.
4Абдулҳамид Сулаймон. Иш вақти – ишлаш вақти // “Турон” газетаси. 1917 йил 22 апрель.

O‘zbekiston azaldan sharq musiqa madaniyatining beshiklaridan biridir. Jadid ma’rifatparvarlardan Abdurauf Fitrat, Abdulhamid CHo‘lpon, Sadriddin Ayniy, G‘ulom Zafariy, Hamza, Muhiddin qori Yoqubovlarning asarlarida milliy musiqa merosiga va madaniyati tarixiga oid maqola va risolalar yozishgan. Abdurauf Fitratning risolasida Markaziy Osiyo musiqa ilmining tarkibiy tuzilishi, fan predmeti, tadqiq usullari mufassal yoritib berilgan[1]. G‘ulom Zafariy ijodiy merosining asosiy qismi o‘zbek milliy musiqasi va uning tarixi tadqiqiga bag‘ishlangan[2]. Sadriddin Ayniy o‘z maqolalarida Ota Jalol, Ota G‘iyos, Qori Kamol, Qori Najm, Miratojon tanburnavoz – “Tillaoxun”larning o‘zbek va tojik musiqasi rivojiga qo‘shgan hissalarini ta’riflagan. “Ko‘mak” jamiyati a’zosi Sayyid Ali Usmonxo‘jayev o‘zbek milliy musiqa merosini asrab qolish masalasini birinchi bo‘lib ilgari surgan. O‘zining “Endigisini qo‘ldan bermaylik” maqolasida shunday yozgan: “Hozir Toshkentda Turkiston musiqasiga butun vujudi bilan berilgan musiqa professori Uspenskiy bor. Bu o‘zida bo‘lgan iqtidorini, ilm o‘qub yetishtirgan butun kuchini Turkiston musiqasining majnuni, Uspenskiy fransuzlar ruhida musiqa yoza olaturgan musiqiy shoiri bo‘lsa ham Turkiston musiqasi uchun mana shu iste’dodini yo‘qotdi. Musiqashunoslarcha aytganda yerga ko‘mdi”[3]. “XX asr boshlarida o‘zbek va tojik xalqlari musiqa san’ati boyliklarini dastlab professor V.A.Uspenskiy notalashtirishga kirishdi va u notaga olgan Shashmaqom nashr etildi”[4]. V.A.Uspenskiyning mazkur kitobi Shashmaqomni nafaqat san’at, balki ilm sifatida o‘rganish yo‘lidagi dastlabki qadam bo‘ldi. To‘g‘ri, ilk tajriba xatoyu kamchiliklardan xoli bo‘lmagan. Lekin keyingi yillarda maqomni ham amaliy, ham nazariy jihatdan puxta biluvchi musiqashunoslar safi kengayib borgach, kamchiliklar asta-sekin barham topdi.

O‘zbek musiqa merosini to‘plashda Y.Rajabiy (1897-1976)ning xizmatlari nihoyatda katta. U 1935 yildan boshlab kuy va qo‘shiqlarni, maqomlarni to‘play boshladi. Shuning natijasi o‘laroq YE.Romanovskaya, A.Akbarovlar 1939 yilda tuzgan “O‘zbek xalq qo‘shiqlar” to‘plamidan Y.Rajabiy notaga solgan 29 ta ashula va qo‘shiqlar o‘rin oldi. Y.Rajabiy avvalo keng madaniy jamoatchilikka o‘tkir shirali ovozga ega bo‘lgan iste’dodli xonanda sifatida tanilgan edi. U aytgan «Girya», «Nolish», «Ko‘cha bog‘i», «Eshvoy», «Kurd», «Qalandari», «Shahnozi Gulyor», «Bayot», «Qaro ko‘zim», «Dugohi Husayni», «Chorgoh», «Miskin», «Nasrulloyi» kabi maqom yo‘llaridagi ashulalar, u tiklagan «Subhidam», «Yolg‘iz», «Sayqal», «Segoh», «Dugoh» va boshqa qadimgi o‘zbek kuy va ashulalari hamon tinglovchilarga estetik zavq bag‘ishlab, dillarga orom berib kelmoqda.

Xullas, o‘zbek milliy madaniyatining muhim tarkibiy qismiga aylangan – san’atning teatr, musiqa, me’morchilik san’ati, raqs, tasviriy va amaliy san’at namunalari XX asrning boshlarida ham ma’lum bir bosqichni boshdan kechirdi. O‘sha

1 Фитрат А. Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи. – Тошкент: Фан, 1993.
2 Ғулом Зафарий. Ўзбек мусиқаси тўғрисида // Аланга журнали, 1930. – Б. 10.
3 Саййид Али Хўжа. Эндигинсини қўлдан бермайлик // Қизил байроқ газетаси. 1922 йил. 2 февраль.
4Ражабов И. Мақомлар. – Тошкент: San’at, 2006, 41-бет.

davrning yetuk mutafakkirlaridan bo‘lgan jadidlar ham bu san’at sohalarini rivojlantirish borasida ko‘p qayg‘urgan. Shu bois, ularning san’at borasidagi qarashlari, qimmatli so‘zlari hali yana ko‘p bora tadqiq qilinadi, degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Водилий.https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abdurahmon-vodiliy-dunyoni-izladim-bormu-deb-imonga-yol.html
2. Абдурашидхонов М. Танланган асарлар. – Тошкент., 2005. – Б. 153-154.
3. Тиётр хусусида мунозара / Абдулла Авлоний А. Танланган асарлар. Тошкент, 1998. 221-бет
4. Зафар Раҳмат. Театрни нечук англарға // “Иштирокиюн” газетаси. 1919 йил 11 июл.
5. Абдулҳамид Сулаймон. Иш вақти – ишлаш вақти // “Турон” газетаси. 1917 йил 22 апрель.
6. Фитрат А. Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи. – Тошкент: Фан, 1993.
7. Ғулом Зафарий. Ўзбек мусиқаси тўғрисида // Аланга журнали, 1930. – Б. 10.
8. Саййид Али Хўжа. Эндигинсини қўлдан бермайлик // Қизил байроқ газетаси. 1922 йил. 2 февраль.
9. Ражабов И. Мақомлар. – Тошкент: San’at, 2006, 41-бет.

Bobomurodov Shavkat Do‘stmuhammad o‘g‘li,
O‘zDSMI mustaqil izlanuvchisi

JADIDLARINING MATNI TOPILMAGAN PYESALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadid allomalari, xususan, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat kabi taniqli dramaturglarning sahna uchun yozilgan va o‘ynalgan, ammo matni topilmagan asarlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: jadidlik, pyesa, san’atshunoslik, sahna, tadqiqot

Abstract. This article talks about works written and performed for the stage, but the text of which has not been found, by famous playwrights such as Abdulhamid Cholpon, Abdurauf Fitrat.

Key words: jadidism, play, art history, stage, research

Bugun mamlakatimizda davlat siyosati darajasida faol targ‘ib qilinayotgan, milliy g‘oyamizga asos g‘oya o‘laroq ko‘rilayotgan, Uchinchi Renessansning debochasi sifatida e’tirof etilayotgan jadidlik harakati xalqni cho‘ng maqsadlar atrofida birlashtirish, davlatchilik, maorif, matbuot va boshqa sohalarda samarali islohotlar o‘tkazish vazifalaridan tashqari jamiyatda madaniyat va san’at sohalarining ahamiyatini munosib baholash, u orqali milliy o‘zlik g‘oyalarini faol singdirish kabi funksiyalarni amalga oshirishga xizmat qiladigan harakatga undovchi kuchdir. Darhaqiqat, jadidlar o‘zlarining xalqni uyg‘otish g‘oyalarini aynan san’at, xususan teatr san’ati vositasida amalga oshirishga uringani ham bejiz emas. Ta’kidlash joiz, mamlakatimizga Yevropa tipidagi professional teatrning kirib kelishiga aynan jadidlar ulkan hissa qo‘shdi, faol xizmat ko‘rsatdi.

Jadidlik harakati namoyandalari xalq turmush tarzini, ijtimoiy muammolarini o‘zida aks ettiruvchi dramatik asarlarni hali milliy drama truppalari shakllanmay turib yoza boshlashdi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” (1911), A.Samadovning “Mahramlar” (1910) kabi asarlari shular jumlasidan. Mahalliy teatr truppalarimiz o‘z faoliyatini milliy dramalarimiz namoyishi bilan (1913-yil Samarqand, 1914-yil Toshkent) boshlagani ham jadidlar g‘oyasining naqadar xalqona ekanini anglatadi.

Taassufki, davr talato‘plari, ayniqsa stalin qatag‘oni degan qora nom bilan tarixda qolgan o‘tmishimizning eng ayanch kunlarining rutubati bois jadid allomalarining bir qancha sahna asarlari yo‘qotildi, boshqa mualliflar nomida qolib ketdi, yetarlicha saqlab qolinmadi. Bu pyesalarning nomi haqida o‘sha paytda chop etilgan gazeta-jurnallar orqali bilishimiz mumkin, ammo matni bilan tanishishning imkoni yo‘q. Keyingi yillarda adabiyotshunoslik va san’atshunoslik ixtisosliklari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida ayrim ana shunday asarlar shaxsiy va davlat arxivlaridan qidirib topildi, e’lon qilindi. Jumladan, Cho‘lponning “Yana uylanaman” komediyasi matni ilmiy va adabiy jamoatchilikka ma’lum emas edi. 2021-yilgi qidiruvlarga ko‘ra Cho‘lponning “Yana uylanaman” komediyasi matni professor D.Quronov tomonidan “Rossiyskiy gosudarstvenniy arxiv literaturi i isskusstvo” (RGALI)ning VTO Kabinet internatsionalnix narodov SSSR bo‘limi (inv.№59/IV)da borligi aniqlandi va qo‘lga kiritildi. Mazkur komediya rus tilida bo‘lib, yozuv mashinkasida yozilgan, 33 betdan iborat. Asar muallifi Cho‘lpon ekanligi birinchi betda qayd etilgan. Sarlavhasi dastlab o‘zbek tilida “Pul undirish” ili “Yana uylanaman” deb yozilgan, so‘ngra qavsda “Снова хочу женится” deb yozib qo‘yilgan. Professor D.Quronovning keyingi aniqlashiga ko‘ra L.Sverdlinning shaxsiy arxivida “Хочу женится” nomli pyesaning yana bir varianti mavjudligi ma’lum bo‘ldi[1].

Yuqoridagi ma’lumotning o‘ziyoq san’atshunoslar va adabiyotshunoslar oldida hali ochilmagan katta qo‘riq turganini anglatadi. Xususan, Abdulhamid Cho‘lponning yigirmaga yaqin sahna asarlari, Abdurauf Fitratning xorij safari paytida yozgan va bizgacha yetib kelmagan pyesalari, boshqa jadid allomalarining dramatik asarlarini topish, tadqiq etish bugungi kunning faol g‘oyasi bo‘lgan jadidlik harakatini teranroq anglashga, o‘sha davr muhitini chuqurroq his etishga ko‘mak beradi.

Cho‘lponning “Yana uylanaman” komediyasi sahnada o‘ynalgani haqida aytilsa-da, bu haqda yetarlicha faktlar mavjud emas edi. Filologiya fanlari doktori Dildoraxon Abdullayeva hamda Andijon viloyati tarixi va madaniyat davlat muzeyi katta ilmiy xodimi Iskandarshoh Madgaziyevlarning olib borgan izlanishlari natijasida “Yana uylanaman” komediyasining sahnada namoyish etilishi haqida “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1928-yil 13-yanvar juma kungi (913) 11-sonida e’lon berilgani aniqlangan.

[1] D.Abdullayeva, I.Madgaziyev. Cho‘lpon dramaturgiyasi: noma’lum dramalari va yangi topilgan komediyasi haqida. Adabiy meros ilmiy jurnali, 2022-y. 2-son. 129-b.

Pyesaning e’lon matni quyidagicha: “O‘zbek davlat truppasi tomonidan ma’lum Yusuf qiziq hikoyasidan Cho‘lpon asari o‘ynaladi: “Yana uylanaman”. Biletlar hozirdan boshlab sotilur. Bilet baholari 40 tiyindan bir so‘m 50 tiyingacha”[1]. Anglashiladiki, asar faqat pyesa sifatida yozilibgina qolmay, sahnada ham muvaffaqiyatli o‘ynalgan, o‘z davrining tomoshaga o‘ch odamlarining adabiy didiga, fikriy jo‘shqinligiga o‘z hissasini qo‘shgan.

Mazkur sahna asarining so‘ngida quyidagicha izoh yozilgan: “Bu pyesa o‘zbek shoiri, dramaturg, O‘zbek davlat drama teatrining adabiy xodimi Cho‘lpon (Sulaymonov) qalamiga mansub. Asar teatr studiyasiga oid shaklda yozilgan va sahnalashtirilgan. Postanovkachi Sverdlin. Pyesa 1927-28-yildagi teatr repertuariga kiritilgan, asar matniga postanovkachi va badiiy rahbar Tixonovich tomonidan o‘zgartirishlar kiritilgan. Keyinchalik asar repertuardan olib tashlandi, boz ustiga muallif qatag‘onga uchragan va teatr xodimlari safidan, dramaturgiyadan chiqarib yuborilgan edi”[2].

“Yana uylanaman” komediyasi o‘zbek adabiyoti, o‘zbek dramaturgiyasi uchun yangi topilma hisoblanadi. Asarni ilmiy va adabiy jamoatchilikka yetkazish, uni tahlil va talqin qilish zarurati bor. Cho‘lponshunoslikka oid adabiyotlarda “Buxoro jallodlari”, “Ov”, “Siniq oyna”, “Ikki dunyo”, “Oktyabrgacha o‘n yil” asarlari ham Cho‘lponga nisbat beriladi. Biroq ularning Cho‘lpon qalamiga mansubligiga doir fakt va materiallar yetarli emas[3].

Yana bir matni topilmagan asar 1916-yilda yozilgan “Begijon” pyesasi bo‘lib, ushbu dramatik asar XX asr boshlarida Xorazmda madaniyat va ma’rifatga oid ko‘pgina asarlarni to‘plab, nashr qilish bilan birga, bu yo‘nalishda tadqiqot ishlarini ham olib borgan jadid yetakchilaridan biri Mulla Bekjon Rahmon haqida yozilgan. Istanbul seminariyasida o‘qigan Mulla Bekjon 1913–1918-yillarda Turkiyada diniy va dunyoviy bilimlarni puxta egallab, Ismoil G‘asprali boshchiligidagi yosh turklar harakati bilan yaqindan tanishadi. Natijada Xivaga qaytgach, yosh xivaliklar harakati safiga qo‘shilib, ma’rifatparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qila boshlaydi.

“Jadid” gazetasining 2024-yil 3-maydagi 19-sonida san’atshunoslik fanlari nomzodi Botir Matyaqubov shunday ma’lumot keltiradi: “Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, Bekjon Rahmon o‘g‘li Abdurauf Fitratning yaqin maslakdoshi bo‘lgan. Adabiyotshunos olim, professor, H.Boltaboyevning ta’kidlashicha, Fitratning Buxoro amirligining o‘sha paytdagi tuzum va hayoti tanqidiy yoritilgan “Begijon” (1916) pyesasi aynan Bekjon Rahmon o‘g‘liga bag‘ishlangan ekan. Ammo bu asar ham bizgacha yetib kelmagan”[4].

---

1 D.Abdullayeva, I.Madgaziyev. Cho‘lpon dramaturgiyasi: noma’lum dramalari va yangi topilgan komediyasi haqida. Adabiy meros ilmiy jurnali, 2022-y. 2-son. 129-b..

2 Cho‘lpon A. Asarlar. 3 jildlik. I jild. – B. 196-198. 33-b.

3 D.Abdullayeva, I.Madgaziyev. Cho‘lpon dramaturgiyasi: noma’lum dramalari va yangi topilgan komediyasi haqida. Adabiy meros ilmiy jurnali, 2022-y. 2-son. 131-b..

4 “Jadid” gazetasining 2024-yil 3-maydagi 19-soni

O‘zbek teatr san’atining dastlabki milliy asari va ilk milliy dramamiz haqida so‘z borganda mutaxassislar “Padarkush” dramasi bilan birga “Mahramlar” asarini ham tilga olishadi. Hatto “Mahramlar”ning avvalroq yozilganini ta’kidlashadi. Bu o‘rinda taniqli akademik Naim Karimovning “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 2011-yil 29-sonida chop etilgan “O‘zbek teatrining to‘ng‘ich asari” maqolasida, jumladan, shunday deyilganini keltirish o‘rinli: “Milliy teatrimizning tamal toshi haqida so‘z borganda birinchi milliy dramatik asarimiz sifatida Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” asari tilga olinadi. Jadidchilik harakati va adabiyotini boshlab bergan kishining teatrga, san’atning xalq ommasiga o‘sha vaqtda eng katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan turiga e’tibor qaratmasligi mahol edi. O‘zining tarix oldidagi missiyasini chuqur his qilgan adib 1911-yili birinchi o‘zbek dramasi – “Padarkush”ni yozib, Turkistonda yangi adabiyot va san’at turiga tamal toshini qo‘ydi. Shuni ham unutmaslik lozimki, 1911-yili, Behbudiy asaridan bir oz avval qo‘qonlik muallim Abdurauf Samadovning “Mahramlar” pyesasi risola shaklida nashr etilgan. Bu tarixiy fakt, ayrim ijodkorlar nazarida, Behbudiyni o‘zbek dramaturgiyasining otasi, “Padarkush”ni esa birinchi o‘zbek dramasi deyishimizga monelik qiladi. Lekin “Mahramlar”ning dastlab “O‘liklar” nomi bilan tatar tilida yozilgani, muallifning o‘zi ham tatar millatiga mansub bo‘lgani, ayniqsa, mazkur asarning “Padarkush”dan keyin namoyish etilganini nazarda tutsak, Behbudiyning o‘zbek teatr san’atiga, xususan, o‘zbek dramaturgiyasiga asos solgan ijodkor ekanligi kundek ravshan bo‘ladi. Qolaversa, “Mahramlar”ning sahnalashtirilishi Turkiston xalqlari madaniy hayotida “Padarkush” namoyishidek ulkan tarixiy voqea bo‘lmagan”[1]. Ammo pyesa Turkistonda ilk dramalarni o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qilishi mumkinligi bilan qimmatlidir.

Shuningdek, Cho‘lponning nomlari ma’lum, lekin matni topilmagan quyidagi dramatik asarlari haqida ham qisqacha ma’lumotlar mavjud:

1. “Boy” (1914), Cho‘lpon dramatik asarlarining birinchisi sifatida ko‘rsatiladi.

2. “Cho‘rining isyoni” (1919-20), O.Sharafiddinov mazkur pyesaning 1926-yilda sahnaga qo‘yilganini “Qizil O‘zbekiston” gazetasi (1926-y. 5-iyun)dagi “So‘nggi kunning bo‘lib o‘tgan tomoshalari” nomli maqola orqali aniqlaydi.

3. “Cho‘pon sevgisi” (1921) pyesasi she’riy drama shaklida yozilgan.

4. “Xalil farang” (1921). Ushbu 4 pardali dahshatli fojia 1921-yil 24-martda “Andijon eski shahar “Sharq yulduzi” teatri binosida Andijon okrug o‘zbek davlat diram truppasi” tomonidan qo‘yilganligi aks etgan afisha Andijon viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi fondida saqlanadi.

[1] «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasining 2011-yil 29-son

5. “O‘ldiruvchi” (1922). Cho‘lpon dramalari nashridagi izohlarda adibning 1920-yillarga qadar bo‘lgan davrda yozilgan kichik pyesalari qatorida mazkur asar “O‘ldirguvchi” shaklida zikr etiladi.[1]

6. “Uzun quloq bobo” (1923). Asarni oqqa ko‘chirish uchun truppa artisti olib, uni yo‘qotib yuborganini Cho‘lponning o‘zi ham ta’kidlab yozadi.

7. “Qorovul uyqusi” (1927). Cho‘lpon bu pyesani “so‘zsiz o‘yin” deb ataydi.

8. “O‘rtoq Qarshiboyev” (1928-29).

9. “Hijrat” (1936-1937).

10. “Avaz” (1936). Ushbu dramani Sirojiddin Ahmad nashrga tayyorlab, “San’at” jurnalida chop ettiradi.[2]

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkin, jadid dramaturgiyasining ilk namunalari ko‘proq o‘rganilishi, bu borada izchil tadqiqotlar olib borilishi jadidlik g‘oyasini chuqurroq o‘rganishda, ilm-fanga, madaniyat va san’atga tashna ajdodlarimizning boy tafakkur merosi bilan yaqindan tanishishda muhim ahamiyatga ega. Bu esa san’atshunoslar va adabiyotshunoslar oldiga mas’uliyatli vazifalar qo‘yadi. Zero matni topilgan har bir dramatik asar biz uchun tengsiz adabiy boylikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.Abdullayeva, I.Madgaziyev. Cho‘lpon dramaturgiyasi: noma’lum dramalari va yangi topilgan komediyasi haqida. Adabiy meros ilmiy jurnali, 2022-y. 2-son. 129-131-betlar.
2. Cho‘lpon A. Asarlar. 3 jildlik. I jild. – B. 196-198. 33-b.
3. “Jadid” gazetasining 2024-yil 3-may, 19-soni.
4. «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasining 2011-yil 29-son
5. Cho‘lponning badiiy olami. – Toshkent: Fan, 1994. 132-b.
6. Ahmad S. “Avaz” dramasi. – Toshkent: “San’at” jurnali. 1990. №5.

[1] Cho‘lponning badiiy olami. – Toshkent: Fan, 1994. 132-b.
[2] Ahmad S. “Avaz” dramasi. – Toshkent: “San’at” jurnali. 1990. №5.

Ashirmetova Xusnora Farhod qizi,
O‘zDSMI magistranti

IMKONYATI CHEKLANGAN FOYDALANUVCHILARGA MAXSUS KUTUBXONA-AXBOROT XIZMATINI KO‘RSATISH SOHASIGA NAZAR

Annotatsiya. *Jamiyatda yuksak ma’naviy qadriyatlarning qaror topishi axborot-kutubxona muassasalari oldiga shaxsga e’tiborni kuchaytirish, uning umummadaniy darajasini oshirish, ma’naviyatini yuksaltirish, odob-axloq jihatdan tarbiyalash kabi vazifalarni amalga oshirish vazifalarini qo‘yadi. Ushbu maqolada davlat siyosati darajasida imkoniyati cheklangan kutubxona foydalanuvchilari, kitobxonlarimiz uchun axborot-kutubxona muassasalarida yaratilgan shart-sharoitlar haqida ma’lumotlar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *milliy madaniyat, virtual, onlayn va offlayn, raqamlashtirish, konstitutsiyaviy huquq, axborotdan foydalanish madaniyati, komunikatsiya.*

Abstract. *The establishment of high moral values in the society imposes on information-library institutions the tasks of increasing attention to the individual, raising his general cultural level, raising his spirituality, and educating him in terms of manners. This article provides information about the conditions created in information-library institutions for library users and readers with disabilities at the level of state policy.*

Key words: *national culture, virtual, online and offline, digitization, constitutional law, culture of information use, communication.*

Hozirgi jamiyatda axborot-kutubxona muassasalari axborot olish, madaniy-ma’rifiy va ta’lim muassasasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Milliy madaniyatni chuqur anglash, uning rivoji va evolyutsiyasini tahlil qilishda respublikaning universal fondga ega bo‘lgan axborot-kutubxona muassasalari alohida ahamiyat kasb etadi. Ta’lim muassasalari maqomini oshirish, tarmoq ilmiy axborot-kutubxona muassasalarining ilmiy va axborot salohiyatini, shuningdek, axborot-kutubxona sohasida davlat-xususiy sheriklikni, mamlakatdagi xususiy va raqamli (virtual) axborot-kutubxona muassasalari tarmog‘ini rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh qilishning hozirgi sharoitida axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirishning maqsad va vazifalari mamlakatda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarga va xalqaro amaliyotga mos bo‘lishi zarur. Shu munosabat bilan fuqarolarning axborotdan erkin foydalanish bo‘yicha konstitutsiyaviy huquqlarini, shu jumladan milliy qadriyatlar va jahon madaniyati, amaliy va fundamental bilimlardan bahramand bo‘lishini ta’minlaydigan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko‘rsatishning sifat jihatdan yangi tizimini yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Bu esa, axborot-kutubxona faoliyatiga, kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish, fondlarni to‘ldirish va saqlash, kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish, ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy faoliyat, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va rag‘batlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirishga jiddiy ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi.

Aholiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish, axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi PQ-4354-son qaroriga binoan:

Quyidagilar aholiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni sifat jihatidan yanada rivojlantirish sohasidagi asosiy vazifalar etib belgilandi.

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va zamonaviy umumjahon tendensiyalarini hisobga olgan holda axborot-kutubxona faoliyatini isloh qilish;

aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha ijtimoiy kafolatlarni sifatli ta’minlash hamda zamonaviy talablarni hisobga olgan holda, axborot-kutubxona muassasalarini rivojlantirish maqsadida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

hududlarda aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko‘rsatishni barqaror rivojlantirishga ko‘maklashish;

axborot-kutubxona muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shu jumladan yangi bino va inshootlarni qurish, mavjud binolarni rekonstruksiya qilish, ularni zamonaviy uskunalar bilan ta’minlash;

kutubxona sohasida davlat-xususiy sheriklikni, xususiy va elektron (virtual) kutubxonalar tarmog‘ini rivojlantirish;

kutubxonalar faoliyatining samaradorligini va foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish (shu jumladan, pulli xizmat ko‘rsatish) tezkorligini oshirish uchun elektron kitoblar tarqatishga ixtisoslashgan internet-resurslar bilan hamkorlikni kengaytirish;

axborot-kutubxona muassasalari xavfsizligini hamda milliy va jahon madaniy merosining bir qismi sifatida axborot-kutubxona fondlarining yaxshi saqlanishini ta’minlash;

jamiyatning axborot madaniyatini, tariximizga va milliy madaniyatga qiziqishini shakllantirish va kuchaytirish, mutolaa madaniyatini oshirish va targ‘ib qilish kabi vazifalar shular jumlasidandir.

Bundan tashqari kitobxonlarga yanada qulayliklar yaratish maqsadida endilikda har bir tuman (shahar) markazlarida axborot-kutubxona markazlari bunyod etilishi ham yuqoridagi qarorda o‘z aksini topgan. Yangi tashkil etilayotgan axborot-kutubxona markazlarining asosiy vazifalari etib esa quyidagilar belgilangan.

Aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko‘rsatish uchun sifat jihatidan yangi va qulay shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ularning ilmiy, ta’lim, axborot va madaniy ehtiyojlarini qondirish;

Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga ijtimoiy moslashuv va reabilitatsiya, mustaqil ta’lim olish va muloqot doirasini kengaytirish vositasi sifatida axborotdan foydalanish imkoniyatlarini yaratish;

Foydalanuvchilarga har qanday (bosma, multimedia va raqamli) tashuvchilarda, shu jumladan Internet tarmog‘ida sifatli axborot manbalaridan foydalanish imkoniyatini yaratish;

O‘z axborot-resurslarini yaratish va ularni sifatli to‘ldirib borish orqali kitobxonlarga an’anaviy xizmat ko‘rsatish usulidan ularni zamonaviy axborot-kutubxona xizmatlari bilan ta’minlashga o‘tish;

Aholiga axborot-kutubxona xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha masofadan xizmatlar ko‘rsatishni rivojlantirish va modernizatsiya qilish shular jumlasidandir.

Yangi bunyod etilayotgan axborot-kutubxona markazlarini kitobxonlar uchun har tomonlama qulay shaklda joylashtirish hamda ularni kompyuter texnikasi va boshqa turdagi orgtexnika, mebel, shu jumladan maxsus mebel, shuningdek, tegishli kutubxona uskunalari bilan jihozlash bo‘yicha talablar jaxon standartlari asosida ishlab chiqildi, va bunda imkoniyati cheklangan shaxslarga xizmat ko‘rsatish uchun o‘quv zallarini maxsus kompyuter jihozlari va boshqa qo‘shimcha vositalar bilan ta’minlashga ham alohida e’tibor qaratildi.

Bugungi kunda respublikada eshitish va gapirishda nuqsoni bo‘lgan shaxslar soni 27 mingdan oshgan. Shundan 7 mingdan ortig‘ini 16 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etadi. Bu esa ushbu aholi qatlamini davlat tomonidan kafolatlangan ta’lim, ish joyi bilan ta’minlash hamda ularga qulayliklar yaratish chora-tadbirlarini samarali amalga oshirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Bu borada ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish xarajatlari YAIMga nisbatan 2 baravarga oshib, kam ta’minlangan nafaqa oluvchi oilalar qamrovi 5 barobarga ko‘paydi hamda nogironligi bo‘lgan shaxslar va nogironligi bo‘lgan bolalarning parvarishi bilan band bo‘lganlar uchun yangi nafaqa turlari joriy etildi. Tan olish kerak, bu borada hali qilinishi kerak bo‘lgan ishlar talaygina. Uzoqqa bormaylik. Oddiygina yo‘lda harakatlanishda imkoniyati cheklanganlar uchun qulayliklar hamma joyda ham mavjud emas. Qolaversa, yo‘l ko‘rsatuvchilar, suxandonlar va professional surdotarjimonlar xizmatlarini taqdim etish masalasi to‘liq o‘z yechimini topgani yo‘q.

Bundan tashqari, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, korxonada 20 dan ortiq xodim ishlasa, o‘sha korxona 3 foizli kvota asosida nogironligi bor shaxslarni ishga olinishi belgilangan bo‘lsa-da, bu tizim to‘liq nazorat qilinmayotganini tan olish zarur. Prezidentimizning 2023-yil 6-iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” farmoniga muvofiq, kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy himoya tizimini yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilganligi ham quvonarli

xolat. Bu Farmon doirasidagi keng ko‘lamli ishlar imkoniyati cheklangan qatlamning ijtimoiy himoya, yashash va nafaqa olish kabi talablarini yaxshilashga xizmat qiladi. Lekin, baribir, ularning ta’lim va tarbiyasi masalasi o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. www.Lex.uz O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi PQ-4354-son qarori

2. www.Lex.uz O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” farmoni

3. Nabiyeva, G. A. (2021). Imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim-tarbiya olishlari. Scientific progress

4. Poroshina, G. P. (1985). Organization and contents of labor training in boarding school for mentally retarded in summer time. Defektologiya.

Berdiyeva Iroda Xudayshukurovna,
O‘zDSMI tayanch doktoranti

JADID MA’RIFATPARVARLARINING YOSHLAR TA’LIM – TARBIYASIGA OID MA’NAVIY – MA’RIFIY QARASHLARI

Annotatsiya. *Maqolada yoshlar talim-tarbiyasiga oid tizimni tashkil etish jarayonida jadid ma’rifatparlik harakati namoyondalari Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abdulla Avloniyning ma’naviy-ma’rifiy ilmiy merosining o‘rni va ahamiyati masalasi yoritib berilgan. Ushbu jadidlarimizning ko‘plab ta’lim – tarbiyaga oid asarlaridagi qarashlari va ulardan hozirgi globallashuv jarayonlarida yosh avlodni tarbiyalashdagi ta’sir etish imkoniyatlari o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *jadid, ma’rifatparvarlik, globallashuv, transformatsiya, hikmat va ibrat, ta’lim-tarbiya, davlat, jamiyat, sivilizatsiya, liberal tizim, demokratiya, fuqarolik, axloq-odob.*

Abstract. *In the article, the role and importance of the spiritual and educational scientific heritage of Mahmudhoja Behbudi and Abdulla Avloni, representatives of the modern enlightenment movement, is highlighted in the process of organizing the system of youth education. The views of these moderns in many works on education and their influence on the education of the young generation in the current globalization processes were studied.*

Key words: *Jadid, enlightenment, globalization, transformation, wisdom and example, education, state, society, civilization, liberal system, democracy, citizenship, ethics.*

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan dunyo ulkan o‘zgarishlar, yangilanishlar davri bo‘lishi bilan birga, barcha soha xodimlarining oldiga mas’uliyatli vazifalarni ham qo‘ymoqda. O‘zligini anglashga intilayotgan har qanday millat, dastlab, buyuk ajdodlari, ulug‘ siymolari va ularning tarixda tutgan o‘rni va xizmatlarini qadrlashi, shuningdek, ular qoldirgan merosdan bahramand bo‘lishi lozim. Bugungi yosh avlod

nafaqat hozirgi zamon ilmi, balki buyuk ajdodlari hayoti va faoliyatini ham o‘rganishlari zarur.

Chunki mustaqilligimiz asoschisi, Respublikamizning birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov ta’biri bilan aytganda: “O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q”. Ayniqsa, barkamol avlod tarbiyasida jadidlar faoliyatining muhim xususiyati shunda ediki, avvalambor Turkistonni o‘rta asrga xos tarqoqlikdan ozod qilish, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish hamda ma’rifatparvarlik kabi masalalar edi. Bunday g‘oyalar avvalambor yosh avlodni milliy, ma’naviy hamda g‘oyaviy jipslashtirish, ularni o‘lka taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi bilan yashashga jalb etish kabilarda aks etadi. Turkiston jadidchiligidagi asosiy g‘oyaviy-nazariy yo‘nalish Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Cho‘lponlar tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, Turkiston xalqi va davlatini qurish, zamonaviy taraqqiyot yo‘lidan borish, yoshlarni bilimli va ma’naviyatli qilishni taklif etganlar.

Ma’rifat tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bu harakatning tarixiy ahamiyati nihoyatda katta bo‘lgan. Bu davrlarda jamiyatning ma’naviy inqirozi chuqurlashgan bo‘lib, milliy madaniyatni ko‘tarmay, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo‘lmay ma’rifat, tarbiyaviy ishlarni keng yo‘lga qo‘ygan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotga imkoniyat yaratib bo‘lmas edi. Jadidlar, ya’ni, ma’rifatchilar millatning ma’naviy kamoloti yo‘lida o‘zining butun kuchi va iste’dodini safarbar etishga tayyor bo‘lgan fidoyilar edi. Ma’rifat hodisasi aniq ifodalangan yuksak axloqiy mazmunga ega. Ma’rifat – og‘ir ijtimoiy sharoitlarda ta’lim-tarbiya manfaati yo‘lida amalga oshiriladigan ijtimoiy ahamiyatga ega ijobiy faoliyat.

Ma’rifat jamiyat taraqqiyotining eng muhim davrlari bilan chambarchas bog‘liq. Bu birinchi navbatda, ma’lum bir mamlakat, mintaqa yoki xalqning ta’limi rivojlanishining dastlabki bosqichi bilan bog‘liq. Shuningdek, ma’rifatparvarlikning o‘ziga xos xususiyatidir. Ma’rifat aniq individuallik kabi xarakterli xususiyat bilan ajralib turadi va ta’lim (pedagogik) sulolalarning shakllanishini va izdoshlarning mavjudligini nazarda tutadi. Ma’rifat hodisasi pedagogik jamiyatda ma’rifatning umume’tirof etilgan (dunyo) va mintaqaviy modellarining dialektik uyg‘unligini nazarda tutadi. Jadidchilik harakatining yirik namoyondasi, ma’rifatparvar olim, milliy jumhuriyat g‘oyasining asoschilaridan biri, yangi maktab nazariyotchisi, mohir pedagog, o‘zbek dramaturgiyasini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir va jurnalist Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodi kelajak avlod uchun juda muhim va dasturulamal hisoblanadi.

U kishining bizga qoldirgan barcha milliy-madaniy me’roslari, sahnalashtirilgan va biz yoshlar sevib mutolaa qiladigan asarlari bizning milliy ma’naviyatimiz va mafkuramizni doimiy ravishda yuksaltirib, rivojlantirib kelmoqda.

Mahmudxo‘ja Behbudiy jamiyat, millatni uyg‘otishda matbuotning o‘rnini nihoyatda yuqori baholaydi va shu bois ham u 1913-yilga kelib matbuot ishlari bilan jiddiy shug‘ullana boshlaydi. Jumladan, u 1913-yilning aprel oyidan boshlab “Samarqand” gazetasini, yana shu yili 20-avgustdan “Oyna” jurnalini tashkil etib, unga muharrirlik qiladi. Bu jurnal ma’rifat va ma’naviyat tarqatishda asosiy o‘ringa ega bo‘ladi. Unda millat va uning haq-huquqlariga daxldor bo‘lgan turli dolzarb masalalarga bag‘ishlangan turkum tanqidiy-tahliliy maqolalarning doimiy tarzda chop etilishi Mahmudxo‘ja Behbudiy jasoratining birgina ko‘rinishini belgilaydi. Tillarning o‘zaro munosabatiga bag‘ishlangan “Til masalasi” maqolasi yoki adabiy tanqidga katta o‘rin berilgan “Tanqid saralamoqdur” maqolasi ana shunday dolzarb maqolalar sirasiga kiradi. Bir so‘z bilan aytganda, muallif shu yo‘l orqali ijtimoiy tuzum tufayli vujudga kelgan har qanday illatlarni yo‘q qilish imkonini izlaydi. Shu yo‘l orqali xalqini ziyoli va savodli qilishni, qullik, savodsizlik va milliy yopiqlikdan ozod etish, jahon hamjamiyati bilan birgalikda qadam tashlash va rivojlanishni istaydi.

Bilim va ko‘nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg‘ayrat yoshlar oilada axloqiy tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘ygandagina yuzaga chiqadi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya o‘z-o‘zidan shakllanib qolmaydi, uni shakllantirish uchun ota-onalar farzandlari bilan shug‘ullanishlari va o‘zlari ham yaxshi xulq-atvorga ega bo‘lishlari xususan, o‘z atrof-muhitlariga befarq bo‘lmasliklari lozimdir. Buning aksini biz “Padarkush” dramasi orqali ko‘rishimiz mumkin. Behbudiyning adib sifatida ma’naviy-axloqiy tarbiya masalasi o‘sha davr kishisi nuqtayi nazaridan ko‘ra olganini ifodalaydi.

Abdulla Avloniyning ta’lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o‘zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘langan. Adibning boy pedagogik merosi ta’lim-tarbiya masalalarini rivojlantirish, uni o‘quvchilar qalbida shakllantirishda, axloqiy va ma’naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashda milliy maktab hamda qimmatbaho manba bo‘lib xizmat qilganini o‘rganib chiqish davr talabiga aylanmoqda. Abdulla Avloniy doimo o‘zining barcha asarlarida “tarbiya”, “ta’lim” hamda “ma’naviyat” masalalariga katta e’tibor beradi. Abdulla Avloniyning Vatan, uning taqdiri, o‘tmishi, istiqboli haqidagi qarashlari, uning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-axloqiy o‘ylari bilan chambarchas bog‘liqligi jihatidan ham diqqatga sazovordir. “Har bir kishining tug‘ilib o‘sg‘on shahar va mamlakatini shul kishining Vatani deyilur. Har kim tug‘ilg‘on, o‘sg‘on yerini jonidan ortiq suyar” – deydi Abdulla Avloniy.

Vatanparvarlik tuyg‘usi har bir insonning o‘z ona uyiga, Vatanga, boshqacha aytganda, sof shaxsiy munosabatini ifodalaydi. Vatanga muhabbat – qadriyat munosabati obyekti, ya’ni, vatanparvarlik “obyektiv” bilan bir qatorda “subyektiv” qadriyatdir. Obyektiv qadriyat sifatida vatanparvarlik o‘z negizida yaxshilik, haqiqat, adolatli hodisa sifatida qaraladi. Subyektiv qiymat sifatida u jamoat ongi va

madaniyatida mustahkamlangan me’yoriy g‘oyalarni ifodalaydi. Milliy, milliy va ijtimoiy qadriyatlarni shaxsiy qadriyatlarga aylantirish shaxsning faol faoliyati asosida amalga oshiriladi. Ushbu faoliyat shakllari inson hayotining turli sohalarida namoyon bo‘ladi. Mamlakatda har bir fuqaroning ta’lim va mehnat faoliyati alohida ahamiyatga ega bo‘lib, uning davomida ijtimoiy tajriba almashiladi va bu jamiyat tizimi o‘zlashtiriladi.

Ma’rifatparvar bobomiz “Tarbiya-pedagogika, ya’ni, bola tarbiyasining fani demakdir. Bolaning salomat va saodati uchun yaxshi tarbiya, tanni pok tutmoq, yosh vaqtida maslakni tuzatmoq, yaxshi xulqlarni o‘rgatmoq tabiblardek kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilg‘oni kabi tarbiyachi bolaning vujudidagi jahl markaziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berib katta qilmog‘i lozimdir” – degan ushbu hikmatli so‘zlarini hozirgi integratsion jarayonlarda ham ahamiyati juda katta ekanini aytish mumkin.

2024-yilning 6-mart kuni O‘zbekistonda Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya o‘tkazildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev konferensiyaning ishtirokchilariga o‘z tabirigini yo‘lladi.[1] Mazkur anjuman jadidchilik harakati g‘oyasi, maqsad va vazifalarini izchil o‘rganishda yangi insaydlar, harakatning ma’rifat va noshirlik sohasidagi hissasi, milliy davlatchilik shakllanishi bo‘yicha ijtimoiy-siyosiy sa’y-harakatlari, shuningdek, jadidlarning ilmiy va madaniy merosi, ularning tadqiqotlari bugungi kun yoshlari tarbiyasida nechog‘lik ahamiyatga ega ekanligining yana bir isbotidir. Davlatimiz rahbarining ezgu tashabbusi bilan “Jadid” gazetasi chop etildi. Ushbu nashr Vatan va xalq manfaatlari yo‘lida jon fido qilgan millat oydinlari – jadid bobolarimiz hayoti va faoliyatini keng targ‘ib etishda o‘ziga xos tafakkur maydoni bo‘lib xizmat qiladi.[2]

Ko‘rib turganimizdek, hozirgi qaytarilmas jarayonlarda zamon va tarix bir joyda turmaydi, ammo biz ayni vaqtda yosh avlodning ta’lim-tarbiyasi bilan yaqindan shug‘ullanmasak, ular ongiga milliy madaniyatimiz va ma’naviy qadriyatlarimizning xulq-atvorini singdirmasak, sog‘lom turmush tarzini ommalashtirmasak, jamiyat tanazzuliga aylanadi. Bu muammoni hal qilish uchun jamiyatdagi barcha shaxslar Prezidentimiz hamda hukumatimiz tomonidan chiqarilgan qaror, farmon va qonunlarni, ya’ni, 2016-yil 14-sentabr kuni imzolangan O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni, 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi

[1] https://daryo.uz/k/2023/03/06/shavkat-mirziyoyev-jadidlar-merosini-organishga-bagishlangan-xalqaro-konferensiya-ishtirokchilariga-tabrik-yolladi

[2] https://uza.uz/oz/posts/jadid-gazetasi-birlashmoq-davrining-minbari_553851

Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmoni, 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son “Ma’naviy ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida” Qarori, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-sentyabrdagi 736-son “Ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi 310-son **“**2022-2023 yillarda O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida**”** Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktyabrdagi 558-son “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amaliyotga tadbiq etish hamda bajarish samaradorligini oshirsak, kelajak avlod, hech qachon adashmaydi, balki milliy qadriyatlarimiz hamda madaniyatimizni asrab-avaylashga o‘z hissasini qo‘shadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, biz yuqorida to‘xtalib o‘tgan mutafakkirlarimizga, ularning asarlariga e’tiborimizni kuchaytirishimiz kerak. Maktablar uchun alohida shunday asarlar, yetuk shaxslar darsliklarini yaratish, kutubxonalarda bu asarlarni yanada ko‘paytirishimiz kerak. Chunki hozirgi zamon yoshlari kimlarning avlodlari ekanligini doimo his qilishi lozim. Bu asarlar shunchaki tarix bo‘lib qolib ketmasin, ularni kelajakka tadbiq qilaylik. Axir nega tarixni o‘rganamiz?, tarixda qilgan xatolarimizni qaytarmaslik uchun emasmi?.

Butun dunyoga O‘zbekiston buyuklar yurti ekanligini bildiraylik. Ajdodlarimizni fikrlarini bugungi kunimizga tadbiq etadigan bo‘lsak, yurtimiz rivoji uchun hissa qo‘shgan bo‘lamiz. Bizning yurtimizda bunday dono insonlarning son-sanog‘i yo‘q, ularning merosini o‘rganish biz uchun ham farz ham qarz.

Sababi milliy ma’naviyatimiz va milliy o‘zligimizni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar jamiyatimiz va butun yoshlarimiz ongida boshqacha qarash g‘oyasini uyg‘otadi va yetuk intelektual salohiyatli kadr bo‘lib yetishishiga turtki bo‘ladi. Xususan, adiblarimizning yuqoridagi hikmatli so‘zlari, oltingga teng bo‘lgan nasihat va

o‘gitlari bizga meros qilib qoldirilgan. Shunday ekan jadidlarimizning har bir fikrlari bizning hayotimizda dasturulamal bo‘lishi lozim. Zero, Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aytganlaridek, “Ma’naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy va ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustakam bo‘lsa xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo‘ladi”. Shunday ekan, ma’naviy-ma’rifiy poydevorimizni doimo mustahkamlab boraylik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – B 298
2. https://uza.uz/posts/191156
3. Abdurashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b.
4. Aliyev A. Mahmudxo‘ja Behbudiy.–Toshkent:–Yozuvchi. 1994-yil
5. O‘zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar mavzusidagi ko‘p tarmoqli ilmiy-amaliy, onlayn konferensiya materiallar to‘plami. Toshkent-2020-yil. 259-b.
6. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. “O‘qituvchi”, Toshkent-1992.
7. Avloniy Abdulla. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. 2-jild. Toshkent. Ma’naviyat, 1988. 93-b.
8. V.Alimasov. Madaniyat falsafasi. Toshkent-2018. 34-37-betlar.
9. Q.Nishonboyeva. “Madaniyatning millatlararo va umumbashariy muammolari”./O‘quv qo‘llanma./Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”. 2020, 192 b.
10. “Ma’naviyat qarashlar izohli lug‘at”. Toshkent. G‘ofur G‘ulom nashriyoti. 2009. 309 – b.
11. Lex.uz
12. Daryo.uz
13. Uza.uz

Мирсаидова Дилором Иззатуллаевна,
Государственный институт искусств
и культуры Узбекистана

ВЗГЛЯДЫ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ И СОВРЕМЕННЫХ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ НА РАЗВИТИЕ ИСКУССТВА И КУЛЬТУРЫ И КАК ИСКУССТВО ДУБЛЯЖА ВЛИЯЕТ НА РАСПРОСТРАНЕНИЕ ЭТИХ ВЗГЛЯДОВ

Annotatsiya. Maqolada Sharq mutafakkirlari va olimlarining madaniyat va san’at sohasiga qo‘shgan hissasi va rivojlanishi jarayoni mavzusi ko‘rib chiqiladi. An'analar, zamonaviylik, madaniy almashinuv. Shuningdek, dublyaj san'atining madaniy almashinuvga ta'sirini ko‘rsatadigan filmlardan misollar.

Kalit so‘zlar: dublyaj, akustika, tovush, nutq, mutafakkir, ovoz muhandisi, kino, til.

Abstract: This article touches on the topic of the process of contribution and development in the field of culture and art by Eastern thinkers and scientists. Traditions, modernity, cultural exchange. As well as examples from films demonstrating the influence of the art of dubbing on cultural exchange.

Key words: dubbing, acoustics, sound, speech, thinker, sound engineer, film, language.

Аннотация. В данной статье затронут тема про процесс вклада и развития в сфере культуры и искусства со стороны восточных мыслителей, учённых. Традиции современность , культурный обмен. А так же примеры из фильмов демонстрирующие влияние искусства дубляжа на культурный обмен.

Ключевые слова: дубляж, акустика, звук, речь, мыслитель звукорежиссер, фильм, язык.

Восточная философия и современные просветители по всему миру продолжают вносить ценный вклад в развитие искусства и культуры, выражая прогрессивные взгляды и подходы к этой теме. В своих учениях и исследованиях они обращаются к древним мудростям, а также к современным тенденциям, стремясь к гармонии между традицией и инновациями. Давайте рассмотрим некоторые из ключевых идей, высказанных восточными мыслителями и современными просветителями относительно развития искусства и культуры. Синтез традиции и современности: Восточные мыслители подчеркивают важность сохранения традиций и наследия своей культуры, но при этом признают необходимость приспособления к современным условиям. Они утверждают, что искусство и культура должны быть живыми, развивающимися силами, которые могут адаптироваться к изменяющемуся миру, сохраняя свою уникальность и ценность.

Искусство как средство просвещения и трансформации: Восточные мыслители и современные просветители видят искусство как мощное средство образования и трансформации общества. Они призывают к использованию искусства для расширения сознания, стимулирования критического мышления и

пробуждения эмпатии. Искусство, по их мнению, способно перекроить представления о мире и помочь людям понять друг друга лучше. Глобальный диалог и культурный обмен: Восточные мыслители и современные просветители призывают к развитию глобального диалога и культурного обмена через искусство. Они утверждают, что встреча различных культурных традиций стимулирует творческий обмен и взаимное вдохновение, что в конечном итоге обогащает мировое искусство и культуру. Эксперимент и новаторство: Современные просветители и восточные мыслители признают важность экспериментов и новаторства в искусстве. Они поддерживают творческий подход и поощряют художников и культурных деятелей к исследованию новых форм, тем и техник, чтобы привнести свежий взгляд и энергию в мировое искусство.

Этика и ответственность: Восточные мыслители подчеркивают важность этики и ответственности в искусстве и культуре. Они призывают художников и культурных деятелей к осознанному использованию своего творчества для достижения высоких целей, таких как справедливость, равенство и мир. Искусство, согласно их мнению, должно быть средством для привнесения позитивных изменений в общество. Эти идеи способствуют развитию более толерантного, вдохновляющего и взаимопонимающего общества через искусство и культуру. И естественно здесь хотелось бы немного рассказать об искусстве дубляжа который играет немалую роль в просвещении, развитие и изучении мыслей, взглядов восточных мыслителей.

Искусство дубляжа, или озвучивания, играет важную роль в мировом культурном контексте, особенно в современной эпохе глобализации. Связывая тему прогрессивных взглядов восточных мыслителей и современных просветителей с искусством дубляжа, мы можем рассмотреть, как этот вид искусства служит средством культурного обмена, трансформации и понимания. Культурный обмен и синтез: Искусство дубляжа позволяет адаптировать кинематографические и телевизионные произведения для аудиторий различных культур и языков. Восточные мыслители и просветители признают важность такого культурного обмена и синтеза, поскольку это способствует углублению взаимопонимания и уважения между различными культурами. Искусство как средство просвещения: Дубляж не только обеспечивает доступ к зарубежным кинематографическим и телевизионным произведениям, но также может быть использовано для распространения идей и ценностей, которые поддерживают прогрессивные взгляды восточных мыслителей и просветителей. Это может включать в себя распространение идей о толерантности, равенстве и мире.

Глобальный диалог и новаторство: Искусство дубляжа также может служить площадкой для глобального диалога и новаторства. Переводчики и актеры, работающие в этой области, могут вносить свой вклад в творческий процесс,

привнося свежие идеи и подходы к адаптации историй и персонажей под разные культурные контексты.

Этика и ответственность: При дубляже важно учитывать этику и ответственность перед аудиторией. Восточные мыслители и просветители призывают к использованию искусства дубляжа для распространения положительных ценностей и поддержания культурной чувствительности, чтобы избежать искажений и негативного влияния на восприятие оригинального произведения. Связывая искусство дубляжа с прогрессивными взглядами восточных мыслителей и современных просветителей, мы видим, что этот вид искусства имеет потенциал стать мощным инструментом для культурного обмена, трансформации и понимания. Путем использования искусства дубляжа для распространения прогрессивных идей и ценностей мы можем способствовать созданию более гармоничного и взаимопонимающего мирового сообщества.

Давайте рассмотрим несколько примеров фильмов, которые отражают восточные мысли и идеи, а также были озвучены на разные языки, демонстрируя влияние искусства дубляжа на культурный обмен:

1. "Ганди" (1982) – Этот биографический фильм о Махатме Ганди, великом индийском лидере и мыслителе, представляет идеи мирного протеста и ненасилия. Он был озвучен на множество языков, что позволило аудиториям по всему миру понять и оценить жизнь и учение Ганди.

2. "Путешествие китайца в Индию" (2017) – Этот китайский фильм рассказывает историю путешествия китайского монаха в Индию в VII веке для изучения буддизма. Фильм подчеркивает идеи духовного поиска и просветления, а его озвучка на разные языки позволяет зрителям разных культур увидеть уникальную перспективу на буддийскую философию.

3. "Сила воды" (2011) – Этот японский фильм, режиссированный Хаяо Миядзаки, исследует тему экологии и взаимосвязи между человеком и природой. Его озвучка на разные языки позволила аудиториям по всему миру проникнуться глубокими мыслями об уважении к окружающей среде и гармонии с природой.

Эти фильмы представляют лишь небольшую часть кинематографического наследия, которое отражает восточные мысли и идеи, а также демонстрируют влияние искусства дубляжа на культурный обмен и взаимопонимание между различными культурами.

Когда речь заходит о узбекских мыслителях, их вклад в мировую культуру и философию нельзя недооценивать. Вот несколько примеров фильмов, основанных на работах или о жизни узбекских мыслителей, которые могли бы быть озвучены на разные языки, чтобы распространить их идеи и влияние:

1. "Бабур" (2019) – Документальный фильм «Захириддин Мухаммад Бабур» был снят киностудией «Синтез фильм» по заказу Национального агентства

«Узбеккино» совместно с Военно-техническим институтом Национальной гвардии. Данный исторический документальный фильм был снят по поручению Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева. Этот узбекский исторический фильм рассказывает о жизни и правлении Захириддина Мухаммада Бабура, основателя Монгольской империи и автора автобиографического произведения "Бабур-нама". Фильм подчеркивает идеи о лидерстве, культурном разнообразии и толерантности.

2. "Узбекистан – страна света" (2015) – Этот документальный фильм представляет красоту и богатство культуры Узбекистана через объектив камеры. Фильм описывает историю, архитектуру, искусство и фольклор Узбекистана, демонстрируя его вклад в мировую культуру.

Эти фильмы, основанные на работах узбекских мыслителей или отображающие культуру и традиции Узбекистана, могут быть озвучены на разные языки, чтобы распространить идеи и ценности, заложенные в их сюжетах. Такой подход к озвучиванию позволяет привнести культурное разнообразие и понимание в мировое кинематографическое сообщество. К сожалению, на данный момент не существует множество широко известных фильмов, целиком посвященных жизни и творчеству многих известных учёных и мыслителей. Однако их вклад в узбекскую и мировую культуру можно увидеть через различные художественные и документальные работы, в которых их идеи и наследие оказывают влияние на сюжет и образы.

Например, некоторые узбекские фильмы и сериалы могут включать в себя персонажей, сюжетные линии или отсылки к творчеству Алишера Навои и Мирзо Улугбека, позволяя зрителям понять и оценить их вклад в узбекскую культуру и историю. Кроме того, документальные фильмы и телепередачи могут рассказывать о жизни и достижениях этих выдающихся узбекских мыслителей и лидеров, раскрывая их влияние на развитие науки, литературы и культуры не только в Узбекистане, но и в мире. Хотя конкретных фильмов, полностью посвященных им, может быть недостаточно, их наследие продолжает вдохновлять и влиять на узбекское кино и культуру в целом, а также оставлять свой след в мировом культурном наследии.

Литература:

1. Ovoz rejissorligida dublyaj va ovozlashtirish san’atining rivojlanish istiqbollari D.Mirsaidova – Oriental Art and Culture, 2023
2. Узбек дубляж санъати – Ташкент 2023 г.

Ibodullayev Azizbek Maxsudbek o‘g‘li,
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy
musiqa san’ati instituti talabasi

ABDURAHMON JOMIY IJODIDA MAQOM MASALALARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sharqning ulug‘ allomasi Abdurahmon Jomiyning “Risolai musiqiy” asari va uning o‘zbek milliy musiqasi rivojiga qo‘shgan xissasi xususida atroflicha bayon qilinadi. O‘n ikki maqom tizimi va uning bugungi maqomlarimizning shakllanishida tutgan o‘rni, musiqiy terminlar, arab va fors tilshunosligidagi ahamiyati hamda bugungi kundagi mavqei yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, musiqa, “Risolai musiqiy”, o‘n ikki maqom.*

Abstract. *This article describes in detail the work of Abdurrahman Jami, the great scholar of the East, “Music booklet” and his contribution to the development of Uzbek national music. The twelve status system and its role in the formation of our current statuses, musical terms, significance in Arabic and Persian linguistics and its status today are covered.*

Keywords: *Abdurahman Jami, Alisher Navoi, music, “Music booklet”, twelve statuses.*

O‘rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati tarixida XIV-XV asrlar samarali natijalarni berdi. Sababi bu davrda tarix sahnasiga Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar saltanati kirib keldi. Temuriylar davri insoniyat sivilizatsiyasi rivojida muhim rol o‘ynaydi. Bu davr mobaynida siyosiy, iqtisodiy-harbiy, hududiy-ma’muriy, ma’naviy-madaniy, ilm-fan rivoji bir pog‘onaga ko‘tarildi.

Musiqa san’atining rivoji she’riyat rivoji bilan bog‘liqlik tomonlari bor. She’riyat musiqa taraqqiyotiga samarali ta’sir etganidek, musiqa ham she’riyat rivojiga samarali ta’sir qiladi, bastakor shoirning she’riga kuy yaratadi, shoir bastakorning kuyiga moslashtirib she’r yaratadi. Musiqa va she’riyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatishda XV asr shoiri Ahmadiyning “Sozlar munozarasi” asari e’tiborni tortadi. Majoziy xarakterda yozilgan bu asarda sozlarning munozarasi hikoya qilinadi: Tanbur o‘z san’ati bilan maqtanadi, ud tanburning maqtovlarini rad etib, o‘zini ta’riflashni boshlaydi. Tanbur, ud, chang, qo‘buz, rubob va boshqa sozlar o‘zaro munozaralashadilar.

Shoir bir tomondan sozlarning o‘ziga xos fazilatlarini ko‘rsatadi, ikkinchi tomondan esa majoziy ko‘rinishda maqtanchoq, mutakabbir odamlarni qoralaydi.

O‘rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati tarixida XIV-XV asrlar samarali natijalar berdi. Musiqa madaniyatining rivoji asosan Samarqand va Hirot shaharlari bilan bog‘liq bo‘ldi. Temuriylar sulolasining deyarli besh asrlik hukmronligi mobaynida xonanda va sozandalar rasmiy-diplomatik, harbiy va boshqa tantanalarning qatnashchilari bo‘lib, xalq tomoshalari, bayrmalar ularning ishtirokida o‘tkazilardi. Temuriylar saroyida ko‘plab olimlar, shoirlar, musiqachilr xizmat qilar edilar. Ana shunday musiqashunoslardan biri Abdurahmon Jomiydir. Sharqning ulug‘ allomasi,

shoir va musiqashunosi Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad Jomiy 1414-yilning 7-noyabrida Hirot yaqinidagi Jom shahrida tavallud topgan. Abusaid Mirzo, Sulton Xusayn va Hazrat Alisher Navoiy Jomiy Hazratlarini o‘zlariga ustoz deb bilishgan. Atoqli o‘zbek shoiri, akademik G‘afur G‘ulomning aniq ta’rificha, Hazrat Alisher Navoiy va Mavlono Jomiy “biri biriga ustoz, biri biriga shogird” bo‘lgan. Ilmiy muhitda, ziyolilar davrasida tarbiya olgan. Arab tili, ilohiyot, tasavvuf, she’r qoidalari, astranomiya, matematika, medetsina, adabiyot tarixib bilan bir qatorda musiqa fanining ham yirik arbobi bo‘lib yetishdi. Masalan, Mavlono Jomiy o‘zining “Musiqa risolasi” deb atalmish musiqashunoslikka oid ilmiy ishida buyuk san’atkor sifatida namoyon bo‘lgan.

Abdurahmon Jomiy sharq xamsachilik ijodiyotida ham o‘z so‘zini ayta olgan va jahonda qo‘l bilan sanay oladigan xamsalardan birining muallifidir. Garchi “Xamsa” o‘zi “beshlik” degan ma’noni bersada, Jomiyning yetukligi va tafakkuri natijasi sifati dostonlar jamlanmasi yettitaga yetkazdi. Shoirning “Musiqa risolasi” orqali biz uni yetuk musiqashunos olim sifatida kashf etamiz.

Risolaning muqaddimasida Mavlono Jomiy musiqa ilmi va san’ati bilan yoshligidan tanishligini aytib yozadi: “Yigitlikning boshida tahsil orasida u ilm bilan ham shug‘ullanib, ohang tuzishda ham, ijroda ham xotirani rivojlantirgan edim”.

“Musiqa so‘zi X-XV asr musiqashunoslikka oid arab manbalarda va so‘ng fors manbalarda ham ikki ma’noni anglatadi. Ulardan birini Forobiy so‘zlari bilan aytilsa, “Musiqa” deb talaffuz etiladigan so‘z ma’nosi “Kuylar”dir. “Kuy” esa turli nag‘malarni yoqimlilik (konsonanslik) xususiyatiga ega bo‘lgan muayyan shaklga solingan ko‘rinishidir. Ikkinchi ma’nosini Ibn Sino so‘zlari bilan aytilsa, “Qanday qilib kuy bastalashni bilish maqsadida turli tonlarni o‘zaro qo‘shilaolishligi yoki qo‘shila olmasligi hamda ular (tonlar) orasida o‘tadigan vaqt holati borasida hisob-kitob yurituvchi matematik fan musiqadir”. Demak, “Musiqa” so‘zini X-XV asr musiqashunoslikka oid arab va so‘ng fors manbalarda ikki ma’noni anglatgan ekan:kuy va kuy bastalash haqidagi ilm. Abdurahmon Jomiyning “Musiqa risolasi”ning atalishidagi ikkala so‘z ham arab tili orqali fors tiliga kirib kelgan so‘zlardir. Abdurahmon Jomiyning “Musiqa risolasi” ikki bo‘limga: kompozitsiya ta’limoti, ritm ta’limotiga taqsimlanadi. 22 fasldan iborat.

Umuman, risolada qo‘llanilgan musiqashunoslik terminlarining, tarkiban 70% arabcha yoki arabchadan o‘zlashtirib olingan hisoblanadi. Jomiy o‘z risolasida “O‘n ikki maqom” nomlanishlari va tartibi shunday beriladi: Ushshoq, Navo, Busalik, Rost, Husayniy, Hijoz, Rohaviy, Zangula, Iroq, Isfahon, Zirafkand, Buzurg. Har bitta maqomning nomlanish va tarixi mavjud.

Abdurauf Fitrat “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” kitobida yozadi:

“Navoiyning zamondoshi bo‘lg‘on Jomiydan qolg‘on “Naqsh-i mullo” bu kungacha saqlangan ekan” va “Naqsh-i mullo”ga izoh berib deydi: “Eshonlarning

xonaqohlarida o‘qilaturg‘an bir kuy”. Demak, Mavlono Jomiy olim-musiqa nazariyotchisigina emas, balki musiqa amaliyotchisi-bastakor ham bo‘lgan. Hatto u yaratgan kuylar, yaqin yaqinlargacha – Abdurauf Fitrat zamonida ham mashhur bo‘lgani, saqlanganligi e’tirof etilgan.

Abdurahmon Jomiyning “Musiqa risolasi” ikki bo‘limga: kompozitsiya ta’limoti, ritm ta’limotiga taqsimlanadi. 22 fasldan iborat. Ammo, fasllarga nom qo‘yilmagan. Filologiya fanlari doktori, professor, musiqiy-manbashunos olim Zokirjon Oripov “X-XV asrlar Markaziy Osiyo musiqa manbashunosligi” monografiyasida har bir fasl bilan tanishib chiqib, ularda o‘rganilgan mavzularga asoslanib har biriga nom bergan. Birinchi bo‘lim kompozitsiya ta’limoti bo‘lib, unda musiqiy tovush “nag‘ma”, interval, “tetroxord”, “pentaxord”, “lad” borasida bahs yuritilsa, ikkinchi bo‘lim ritm ta’limoti deb atalib, unda umuman ritm ta’limoti tushinilishi bilan birga, amaldagi ritm masalalari, jumladan ritmik shakllarning tuzilishi, urma sozlarda, odatda doira sozida vokal va cholg‘u musiqasiga jo‘r bo‘lib, ritmni ifoda etib turish usullari o‘rganiladi. Abdurahmon Jomiyning “Musiqa risolasi” da tahlil etib o‘tilgan “O‘n ikki maqom” Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino va o‘zgalar o‘z asarlarida sanab o‘tgan 84 jamlar (lad birikmalari) orasidan tanlab olingan bo‘lsa, “Shashmaqom” yasalishida “O‘n ikki maqom”dan foydalanilgan. Demak, Mavlono Jomiy “O‘n ikki maqom” tizimini rivojlantirishdagi katta xizmatlari orqali XVIII asr oxirlarida shakllanib, o‘zbek va tojik xalqlari orasida tarqalgan “Shashmaqom” rivojiga ham bevosita aloqador. Abdurahmon Jomiyning “Musiqa risolasi” da nafaqat nazariy musiqaga, balki amaliy musiqaga ham e’tibor jiddiylashgani yaqqol seziladi.

Mavlono Jomiy Urmaviydan farqli ravishda “davr” atamasi qatorida “maqom” tushunchasini keng ishlatadi. Jomiy risolasida ritm-iyqo masalasi to‘liqroq yoritilgan, maqomlarning hissiy ta’siri haqida ham qiziqarli fikrlar bayon etilgan. Asar Navoiyning iltimosiga ko‘ra Jomiyning keksayib qolgan vaqtida yozilgan asardir. Va buyuk alloma tomonidan juda ham yuqori baholangan.

“Musiqa risolasi”ning noyob qo‘lyozma nusxasi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi Beruniy nomidagi sharq qo‘lyozmalar markazi jamg‘armasida, Jomiyning “Kulliyoti” (“To‘la asarlar to‘plami”) tarkibida mavjud. Asar 1960-yili A.N.Boldirev tomonidan rus tiliga tarjima qilinib, V.M.Belyaev tomonidan musiqashunoslik tahlili berilgan. Abdurahmon Jomiyning “Musiqa risolasi” asari XV asrda joriy bo‘lgan maqomlarni o‘rganishda, musiqa nazariyasi va amaliyoti masalalarini tushunishda noyob manbadir. Ushbu risola o‘sha zamonda yaratilgan va bizgacha yetib kelmagan boshqa musiqa risolalari mazmunini ko‘rsatib beruvchi asardir. Mavlono Jomiy “yetuk san’atkorlar orasida amalda bo‘lgan o‘nlab usullar haqida ma’lumot berib, usullar yaratishda hech bir chegara va cheklanishlar yo‘qdir”,- degan fikrni aytadi. Temur va Temuriylar davri musiqa amaliyoti va nazariyasini o‘rganishda, maqomlarning tadrijiy rivojini tahlil etishda Abdurahmon Jomiyning forsiydagi

musiqashunoslikka oid asari naqadar qimmatli bo‘lgani kabi, zamonaviy o‘zbek musiqasining ustuvor asosi-maqomlarni o‘rganishda shu qadar qimmatlidir.

“Maqom” tushunchasini fanga kiritib, bugungi davrda jahon musiqiy jamiyat e’tiborini tortayotgan maqom ijodiyoti uchun muhim nazariy manbalardan birini yozib qoldirgan. Yangidan hayotda qaytayotgan maqomlarimizning nazariy asoslarini o‘rganish, manbalar va aniq faktlar bilan ishlash, uni targ‘ib qilish va rivojlantirish har bir musiqa vakilining burchidir. Chunki o‘zbek xalq musiqasi takrorlanmas xoldagi uchta maqom turi (Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari)ni o‘z bag‘riga qamrob olgan. Milliy maqom san’atini rivojlantirish, Yangi O‘zbekistonning san’at va madaniyat sohasida yangi yutuqlarga erishish, Uchinchi Renesansni yaratish yo‘lida barcha chora-tadbirlarni qo‘llash asosiy vazifalardan bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Z.Oripov. X-XV asrlar Markaziy Osiyo musiqa manbashunosligi. Monografiya. Toshkent. 2017.

Sh. Ayxodjayeva, Ch. Ergasheva, A.Zokirov. O‘zbek musiqasi tarixi. Darslik. Toshkent. 2021.

T.G‘ofurbekov. Temuriylar davri musiqa madaniyati. Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat va san’at. Toshkent. 1996.

A.O‘rinboyev, L.Epifanova. Jomiy asarlari qo‘lyozmalarining katalogi. Toshkent. 1965.

N.N.Shodmonov. Abdurahmon Jomiyning musiqiy terminlari: Filologiya fan. Nomzodi dis.avtoref. Sharqshunoslik instituti. Toshkent. 1997.

Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent. 1993.

Pardayeva Madina Maqsud qizi,
O‘zDSMI magistranti

TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI VA UNING TUGATILISHINING ASOSIY OMILLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Turkiston o‘lkasida tom ma’nodagi uyg‘onish davri deya e’tirof etiladigan jadidchilik harakatining vujudga kelishi va ushbu faoliyatning yakunlanishiga sabab bo‘lgan holatlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Jadidshunos olimlarning fikr hamda mulohazalari ham maqoladan o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar. usuli jadid, “bosmachilik”, “Yosh buxoroliklar”,“Yosh xivaliklar”, “Sotsializm zafari”, Jadidizm mafkurasi.

Abstract. This article provides information about the emergence of the Jadidism movement, which is recognized as a literal renaissance period in Turkestan, and the circumstances that led to the end of this activity. The article also includes the opinions and comments of historians.

Key words: Jadid method, “printing”, “Young Bukharas”, “Young Khiva”, “Triumph of Socialism”, ideology of Jadidism.

The Jadidism movement, which began in Turkestan at the end of the 18th century, was a manifestation of the long-standing disputes and negotiations on cultural issues in a new form. The Jadidism movement was not a new way of adapting education and training to the surrounding European civilization, but an expression of studying European civilization and serving it to the national culture. The cultural struggles that started at the end of the 18th century and spread to all parts of Turkestan at the beginning of the 20th century showed that the debates in the field of education and training, which had been going on since the end of the 18th century, were now enriched with the ideas and conditions of the new era. The struggle for renewal in Turkestan began with the dreams of organizing education in a new way.

In Turkestan, especially in the city of Bukhara, the issue of "how science should be taught in madrasahs" has been the cause of discussion and controversy among scientists for more than 200 years.

The Jadidist movement in Turkestan did not lag behind in creating its own literature. With Jadidchik literature, a new era in the history of Turkestan literature began. In the period of modernist literature from the beginning of the 20th century to 1937, such great poets and writers worked, among them the following figures are particularly well-known: Mulla Nafas, Avliyo Quli, Miskin Qilich, Kamil Khorazmi, Muhammad Aminkhuja Muqumi, Zakirjon Furqat, Mufti Mahmudho. Jah Behbudi, Ibraihim Ko‘nanboy-Abay, Muryoqub Dulat, Abdurauf Fitrat, Ashurali Zahiri,

Tavallo, Ubaydulla Zavqi, Abdulhamid Suleiman Cholpon, Avaz O‘tar, Abdulla Avloni, Hamza Hakimzada Niyazi, Sadriddin Ainiy, Abdulla Qadiri-Julqinboy , Mulla Qilich, Mukhtar Avaz, Kasim Tinistan, Mag‘jon Jumaboy and others. k.

It should also be noted that the representatives of Jadidchik Literature called to open a front against national ignorance and to find a way to independence.

Jadidists paid special attention to theater productions. Behbudi's play "Padarkush" paved the way for dramaturgy in Jadidist literature. According to Behbudi, it is out of the question for an uneducated, ignorant child to be the murderer of his father. Abdurauf Fitrat has a great role in the improvement of the dramaturgy of the Jadidism of the next period. Fitrat took the theme of his dramatic works from the history of Turkestan and tried to connect the youth to the national life of Turkestan by "telling the history".

Jadidchik literature probably influenced the Turkish literature of today's Turkestan. Unfortunately, Jadidist thoughts and literature have not been deeply studied by Turkologists anywhere in the world.

The Jadidic movement was a front of activity that continued under the control and hostile policies of the government of Tsarist Russia and the Bukhara Emirate. Czarist Russia was afraid of Jadidism, because Jadidism was moving to the point of mobilizing young people against the Russian government through national education. Religious fanatics in Bukhara and in Turkestan in general saw Jadidism as a movement hostile to Islam. The Amiri of Bukhara and his government played the role of the most serious enemy of Jadidism. The fear of Jadidism was great in Bukhara Emirate. Wherever they saw a fighter and noticed his activities, they would kill him there. Despite this, the militant activities in Bukhara Emirate continued vigorously.

Until 1917, the cultural struggle in Turkestan consisted of two currents among the Turkestans. Intellectuals were divided into groups of modernism and antiquity. The Russian government was the worst enemy of both of them. But the ancients did not understand this. The influence of the ancients was great. Nevertheless, modernity has taken on the essence of an unstoppable thought process. However, the Jadidist movement could not build an organization until 1910. The Russians did not allow the establishment of cultural organizations. The Jadidist movement did not take the character of an organization. According to one of the prominent representatives of Jadidism, Faizullah Khoja, the Jadidism movement took the character of an organization after 1910 when the entire Muslim East began to wake up under the influence of the Turkish and Iranian revolutions. (Fayzulla Khojayev. "K istorii revoldyutsiy v Bukhara". Tashkent, 1926. 6 pages.) Jadidism in colonial Turkestan could not take the form of an organization until 1917. But in 1910, Jadidists in the semi-colonial Emirate of Bukhara secretly established an organization called "Jamiyati tarbiai atfol". In 1911, in Istanbul, a committee consisting of Abdurauf Fitrat,

Muqumiddin Bekjon and Sadiq Ashur's son, who were sent as students from Turkestan (and Bukhara), built the "Bukhara Marifat Society". This society helped the material and spiritual problems of students sent to Istanbul from Turkestan and Bukhara Emirate. There is information about the 17-article charter, members and activities of the society...

After the February revolution of 1917 in Russia, Turkestan fighters created an organization called "Shuroi Islam" under the leadership of Munavar Qori. This organization was the first and open organization in their cultural life. On the one hand, "Shurai Islam" worked to revive the cultural life in all parts of Turkestan, and on the other hand, it developed the concept of Turkestan administration. Jadids of Turkestan under Russian rule entered into close relations with Jadids of Bukhara Emirate. Jadidists tried to gain national autonomy (autonomy), at least in Turkestan, with the help of their "Shurai Islam" organization. Since 1917, the Russian Soviet government has been working together with the Jadidists. The Jadidists were happy to be freed from Tsarist Russia. And they were able to continue their national cultural policies in the early period of Soviet power. By the summer of 1918, the newspapers "Turk eli", "Turk sozi", "Ulug Turkistan", "El Bayroghi", "Cholpon" of Jadidchi had managed to express their national ideas. The Soviet officials who cooperated with the Jadidists even expressed the opinion that "Communism was able to enter the field in Turkestan through Jadidism." The Soviet authorities closed the newspapers of the Jadidists mentioned above. Since 1918, they have published ten newspapers on their own. Jadidists began to express their opinions through Soviet newspapers.

Jadidists in Bukhara Emirate and Khiva Khanate: they are known as "Young Bukharas", "Young Khivas" and were influenced by the "Young Turks" movement in the Ottoman Empire. A group of them cooperated with the Soviets, even with weapons, with the intention of destroying the Bukhara Emirate and the Khiva Khanate and building a republic in their place. On the issue of working together with the Soviet communist regime, the Jadids are divided into two groups. A group of Jadidists did not agree with the occupation of the semi-independent states of Bukhara and Khiva by the Soviets, but some Jadid leaders supported the attack of the Soviet Red Army on Bukhara and Khiva. When the Soviet Russian army occupied these two countries in 1920, they relied on the Jadidists, and the Jadidists also became their weapons.

The Soviets put an end to some open activities of the Jadidist movement. However, among the intellectuals of Turkestan, they could not get rid of the spirit of Jadidism until now. After 1956, some Turkestan historians and writers raised the question of the construction of the Jadidism process as a historical event. Some of them openly wanted to defend the idea of Jadidism. The communist regime was obliged to open a front against them. Sh.Rashidov, the first secretary of the Communist Party of Uzbekistan, expressed the demands of the regime in this way.

"Some people want to defend Jadidism and its idea along with the struggle against Stalin's personality. We cannot condone this and we will not allow it. During the cult of personality, some Jadidists and their close teachers, writers and journalists were subjected to pressure. Later they were pardoned. However, Jadidism, which was counter-revolutionary and counter-revolutionary, was not forgiven. Pan-Islamism and Pan-Turkism were the basic ideas of Jadidists. Whoever defends Jadidism is defending the enemy."

References:
Boymirza Hayit. Turkistonda jadidchilik va uning tugatilishi
Vadud Mahmud. Tanlangan asarlar & Bahodir Karimov. Munaqqid haqida so‘z
B. Kasimov "Literature of the Uzbek National Renaissance"
Mahmudhoja Behbudi. Two articles about Ismail Gasprali
Abdullah Avloni. Brief History of Prophets and History of Islam
Ismoil Gaspirali: Sultonlar Suhbati
www. kh-davron.uz

Shahnoza Rustamliyeva Rustamali qizi,
O‘zDSMI tayanch doktoranti

JADID MA’RIFATPARVARLARINING XOTIN-QIZLAR TA’LIMI BORASIDA AMALGA OSHIRGAN ISLOHOTLARI

Annotatsiya. *Maqolada 20-asrda xotin-qizlar ta’limi masalasiga jadidlar tomonidan qaratilgan e’tibor, ular tomonidan amalga oshirilgan islohotlar va ularning Turkistonlik xotin-qizlar hayotida tutgan o‘rni bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *jadidlar, ma’rifat, Turkistonlik xotin-qizlar, ta’lim, yoshlarga e’tibor, yangi usuli maktablar.*

Abstract. *The article describes the attention paid by the Jadids to the issue of women's education in the 20th century, the reforms implemented by them, and their role in the life of Turkestan women.*

Key words: *moderns, enlightenment, Turkestan women, education, attention to youth, new method schools.*

Taraqqiyparvar jadidlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatida bugungi kun nuqtayi nazari bilan aytganda eng yirik loyiha bu o‘lkaning eng ilg‘or va fikri uyg‘oq yoshlarini xorijda tahsil olishiga qaratilgan sa’y-harakatlar edi desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Jadid taraqqiyparvarlari tomonidan o‘zbek yoshlari Turkiya, Germaniya, Rossiyaning Ufa, Qozon, Saratov va Qrim shaharlarida tahsil olishi uchun moddiy va ma’naviy tomonlama barcha shart-sharoitlar yaratib beriladi. Tarixdan bizga ma’lumki Andijonlik tijoratchi Mirkomil Mirmo‘minboyev XX asrda Turkistonlik yoshlarning haqiqiy

homiysi, bugungi kun ta’biri bilan aytgandi o‘z zamonasining sahovatpesha metsenati edi. Ammo bu hali hammasi emas, millatning ertasini o‘ylab molidan, kerak bo‘lsa jonidan ham voz kechib, har qanday xatarga ko‘ksini qalqon qilgan bu insonlar haqida hali aytilmagan gaplar, yozilmagan asarlar, ma’lum qilinmagan, to‘liq o‘rganilmagan jihatlar bisyordir. Shunday atoqli taraqqiyparvar shaxslardan biri bu – Saidnosir Mirjalilov hisoblanadi. Saidnosir Mirjalilov (o‘zbek adabiyotining zabardast vakili Oybekning turmush o‘rtog‘i Zarifa Saidnosirovaning otasi edi.) 1884-yili Turkiston shahrida tug‘ilgan. Avval eski maktabda, so‘ng rus-tuzem maktabida o‘qidi, madrasa ta’limini ham oladi. Yoshligidan tadbirkor va mehnatkash bo‘lgan Saidnosir Mirjalilov tujjorlik faoliyatini kichik bir gazlama do‘konini ochishdan boshlaydi. U savdo ishlari bilan bir paytda jadid taraqqiyparvarlari g‘oyalari bilan tanishadi va Turkiston shahridagi ilk jadid maktabini tashkil etadi. 1914-yil 25-desyatina yerida 40-50 ming rubl puli bilan xususiy paxta tozalash zavodini quradi. 1914-1917-yillar davomida u Turkiston shahrining taniqli savdogari va boylaridan biri sifatida shuhrat qozonadi. Hatto, 1914-yil Sankt-Peterburg shahrida o‘tkazilgan musulmon vakillar syezdida ham ishtirok etadi.

O‘sha davrda ziyoga intilganlar orasida bir nechta xotin-qizlarimiz ham bor edi. O‘zbek ayoli chet davlatga u yerni tilini yaxshi bilmay, lekin ilm izlab, har qanday qiyinchiliklarni gardaniga olib yo‘lga otlanishi o‘sha davr uchun katta jasorat aslida. Chunki, O‘zbekostonda 1920-yillar boshlaridagi murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyat xotin-qizlarni maktablarga jalb etish ishiga to‘sqinlik qilardi. Xususan, 1921-1922 yillarda BXSR va XXSRda bir necha qizlar maktablarda ta’lim olardi xolos. Keyingi yillarda esa ushbu ikki respublikalarda 3 tadan xotin-qizlar maktablari ish olib bora boshladi.[1] Turkiston maktablarida qizlar ko‘proq fors va turk she’riyatini o‘rganib yozuvga kam e’tibor berilgan.[2] Ularga umuman dunyoviy bilimlar o‘rgatilmagan va dunyoviy ishlarga aralashishlari, dunyoviy ilmlarni olish mumkin bo‘lmagan. Ayrim joylarda qizlar maktabi bo‘lsada ota-onalar ularni bir yil ta’lim olganidan keyinoq maktabdan chiqarib olgan. Qizlar juda erta turmushga berib yuborilgan. Jadidlar yangi usuli maktablarda o‘g‘il va qiz bolalarni bir yerda ta’lim olishini yo‘lga qo‘ya boshlaydilar. Shunday maktablardan birida Abdulqodir Shakuriy Samarqandda dars berdi. Qizlarni o‘qitishga uning xotini ham ko‘mak bergan.[3] Tabiiyki, o‘sha davrdagi bu yangicha usul mahalliy boylar, ruhoniylarning noroziligiga sabab bo‘lgan. Shunday bo‘lsada bunday maktablar Turkistonning boshqa hududlarida ham ochila boshlagan. Arxiv hujjatlariga ko‘ra, bunday maktablardan Toshknetdagi Eshonxo‘ja Xonxo‘jayev yangi usuli maktabida 3 nafar, Sobirjon Rahimovning maktabida 15 nafar qiz tahsil

1 O‘zR MDA. R-56-fond, 1-ro‘yxat, 185-ish, 36-sahifa; O‘zR Prezidenti huzuridagi arxiv, 14-fond, 1-ro‘yxat, 352-ish, 85-sahifa.
2 O‘zR MDA. 47-I-fond, 1-ro‘yxat, 333-ish, 16-orqa varaq.
3 O‘zR MDA. 1-I-fond, 31-ro‘yxat, 943-ish, 23-sahifa.

olgan. [1] Demakki ilmga bo‘lgan ishtiyoq, yuksalish, ma’naviy-ma’rifiy jihatdan o‘sishga intilish shu darajada yuqori bo‘lganki, bu ayol-qizlar ta’lim olish yo‘lida o‘zga bir davlatga borishga ham tayyor bo‘lgan. 20-yillarning boshlarida O‘zbekistonda xotin-qizlar ta’limi ular uchun maxsus ochilgan maktablarda tashkil etildi. Keyinchalik o‘g‘il va qiz bolalarning birga ta’lim olish tizimiga ham asta-sekin o‘tila boshlandi. Masalan, 1923-yilda Buxorodagi 12 ta maktab-internatda 300 nafar o‘g‘il va qiz bolalar birgalikda ta’lim olgan. Xorazmda esa bunday maktablar soni 10 taga yaqin edi.2

Bu davrda mahalliy hokimiyatlar ham xotin-qizlar ta’limini yaxshilash uchun turli tadbirlarni amalga oshirishga harakat qildilar. Shunday tadbirlardan biri Toshkentning eski shahar qismida 1922-yil 16-24-mart kunlari o‘tkazilgan “Ta’lim haftaligi” bo‘ldi. Haftalikda 100 dan ortiq xotin-qiz ishtirok etdi. Unda sho‘rolar ta’lim tizimining “ulug‘ligi” va eski ta’lim tizimining “zararliligi” ta’kidlandi. Haftalik oxirida esa, eski maktab va undagi o‘qish usullari ustidan teatrlashtirilgan sud o‘tkazildi.3 Xotin-qizlarni ommaviy ravishda “ochish” kompaniyalari tufayli ularning erlari bilan munosabatlarida muammolar yuzaga kela boshladi. Sovet hukumati bergan “erkinlik” ana shunday natijalarni bera boshladi. 3 4 kun darslarga borib, ajralish to‘g‘risida “maslahatlar” olgan xotin-qizlar qaytib bunday maskanlarga borishdan bosh tortishdi.4 20-yillarda xotin-qizlarning savodsizligini tugatish maqsadida ochilgan savodsizlikni tugatish maktablarining ochilishidan savod chiqarish emas, balki maishiy muammolarni hal etish kabi siyosiy maqsadlarni ko‘zlaganligi ayon bo‘ladi. Bu esa oilalardagi ajralishlarning soni ortishiga olib keldi. Bundan kelib chiqib, jadidlar ta’limning haqiqiy shakli zarur ekanligini, nafaqat erkaklar, balki ayollarni ham ziyoli qilish muhim ekanligini xalqqa singdirishga harakat qiladilar. Yangi usuli maktablarda jadidlar xotin-qizlar ham erkaklar bilan teng huquqli bo‘lib, ular o‘rtasida farq bo‘lmasligi, teng huquq va majburiyatlarga ega bo‘lishlari kerakligini ta’kidlaydilar. Ular ***“Xotunlar ilmli bo‘lmoqlari lozim. Ilmli bo‘lmagan kishi tarbiya usulidan albatta mahrum bo‘ladi. Bolalar tarbiyasi xotunlarga maxsus bir vazifa bo‘lgani uchun tarbiya qiluvchilarning bilim darajalari yuqori bo‘lmog‘ini taqozo etadi”***,5 – deya ta’kidlashgan.

Jadidlarimizning xotin-qizlarning ma’orif masalasi muhim ekanligi, ularning jamiyatda erkaklar bilan teng tarzda ta’lim olishi zarurligini bot-bot ta’kidlangan maqolalalarini o‘sha davr matbuotida ko‘p uchratish mumkin. Jadidchilik harakating namoyondalaridan biri Abdurauf Fitrat: ***“Kelajak avlodlarimizning ongsiz, irodasiz, tarbiyasiz, nodon va johil bo‘lmasliklari uchun xotin-qizlarimizni o‘qimishli, sog‘liqni saqlash va bolalar tarbiyasidan xabardor bo‘lishlari kerakligi zarur.***

[1] O‘zR MDA. 47-I-fond, 1-ro‘yxat, 1148-ish, 149-orqa sahifa.
[2] Q. Nishonboyeva dissertatsiyasi. O‘zR MDA. 3-47-fond, 1-ro‘yxat, 404-ish, 124-sahifa.
[3] “Известия”/ Toshkent/, 1922-yil, 7-aprel.
[4] O‘zR Prezidenti huzuridagi arxiv. 58-fond, 1-ro‘yxat, 2115-ish, 9-sahifa.
[5] Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. – T.: O‘qituvchi, 2002. 31-sahifa.

Oiladagi mushkul vazifa go‘dak tavalludidan so‘nggi er-xotin bo‘yniga tushadigan farzand tarbiyasidir” – deb ta’kidlaydi. [1] U o‘zining “Oila” asarida ham xotin-qizlarimizning avvalo tibbiy madaniyatini oshirish zarur ekanini, uch bosqichga bo‘lingan bola tarbiyasida (farzandni tarbiya qilishda uch xil tarbiya usuli: badan tarbiyasi, aql tarbiyasi va axloqiy tarbiya eng muhimidir deydi muallif) birinchi galda jism tarbiyasi turadi deydi. Asarda muallif badan tarbiyasi bolaning to 7 yoshga to‘lguniga qadar ota-onaning mas’uliyati bo‘lib, u bolaning sog‘lom, har xil odatlardan saqlangan holda, kamolotga yetkazishda muhim ekanligini uqtiradi. Farzandning ilk kunlaridan uni yuvintirish, yo‘rgaklash, uxlatish soatlariga ahamiyatli bo‘lish, buni muntazam va to‘g‘ri bajarilishi bo‘yicha ketma-ket dasturul amal ham berilgan. Xususan, bolaga qaysi payt qancha miqdorda sut berish, uning uyqu vaqti, beshikda yotgan payti erkin harakatlanishini ta’minlash va boshqa shunga o‘xshash muhim jihatlar alohida ta’kidlab o‘tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Nishonboyeva Qunduz Vahobovna. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. “O‘zbekistonda xotin-qizlar masalasini hal etishning madaniy jihatlari (20-30 yillar). Tajriba va oqibatlar. Toshkent – 1998., UDK: 396/575.1/09/

Rajabova Dilora Nazarovna “Turkiston jadidlarining qarashlarida yoshlar va xotin-qizlar masalalari” 07.00.02. – “O‘zbekiston tarixi” mutaxassisligi tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Toshkent – 2003-yil. 105-sahifa. UDK. 342.31(575)(09)+396+37+035.4

Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. – T.: O‘qituvchi, 2002. 31-sahifa.

Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – T.: ma’naviyat. 2000-yil. 5-sahifa.

Sherali Turdiev “Ular Germaniyada o‘qigan edilar”. 9-14 sahifalar. Toshkent – 2006

Qor qo‘ynida lolalar”. Qatag‘on etilgan ayollar haqida ocherklar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi «Shahidlar xotirasi

[1] Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – T.: ma’naviyat. 2000-yil. 5-sahifa.

Ozoda Shobilolova Shoxobiddinovna,
O‘zDSMI “Tahririyat va nashriyot bo‘limi” muharriri, mustaqil izlanuvchi

O‘ZBEK MILLIY AKADEMIK DRAMA TEATRIDA JADIDCHILIK HARAKATLARI: KECHA VA BUGUN

Annotatsiya. *O‘zbek Milliy akademik drama teatri qariyb 110 yillik tarixga ega dargoh. Teatrning poydevori Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, G‘ulom Zafariy kabi ma’rifatparvar ziyolilarimiz nomi bilan bog‘liq. Professional teatr yuzaga kelishida jadidchi bobokalonlarimizning hissasi va xizmati katta, albatta. Mazkur maqolada, Milliy teatrning rivoji va istiqlol davrida jadidchilik harakatlari xususida so‘z ketadi.*

Kalit so‘zlar: *teatr, rejissyor, dramaturgiya, tadqiqot, jadidchilik, ijodiy jarayon, istiqlol.*

Annotation. *This article examines the 110-year history of the Uzbek National academic drama theater. The organization of the theater is closely connected with the names of such educators as Abdullah Avloni, Mahmudhoja Behbudi, Abdurauf Fitrat, Abdullah Kadiri, Chulpan, Ghulam Zafari and others. The development of professional theater is undoubtedly connected with the names of the jadid intellectuals.*

Key words: *theater, director, dramaturgy, research, Jadidism, creative process, independence.*

Respublikamizda O‘zbek Milliy akademik drama teatri bosh teatr hisoblanishi bejiz emas. Professional o‘zbek teatrining tuprog‘i aynan shu dargoh bilan bog‘liqdir. 110 yillik tarixga ega “Otaxon” teatr ko‘plab teatr munaqqidlari va tadqiqotchilarning ilmiy-nazariy ishlariga manba bo‘lgan va manba bo‘lib kelmoqda. Ilmiy nuqtayi nazardan bu teatr kashf etilgan. Teatrga aynan bag‘ishlov tarzda teatrshunos olim, akademik Mamajon Rahmonovning “Hamza” (O‘zbek davlat akademik drama teatri tarixi) birinchi kitob (1914–1960-yillar), san’atshunoslik fanlari doktori, professorlar Mamajon Rahmonov, Muhabbat Tulaxujayeva, Eldor Muxtorov hammullifligida “O‘zbek Milliy akademik drama teatri” (1960–2000) monografiyalari bu yo‘ldagi katta, yirik tadqiqot natijasi bo‘ldi. Jumladan, “Istiqlol va Milliy teatr” (to‘plam 2002), Milliy teatr 100 yilligiga bag‘ishlangan “O‘zbekiston teatr san’ati: tarix, taraqqiyot va istiqbol” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami (2014) teatr tadqiqotchilar diqqat-e’tiborida ekanligini tasdiqlaydi.

Mamajon Rahmonovning “Hamza” (1914–1960) ilmiy asarida teatr tuprog‘idan tortib, yaxlit imorat jarayonigacha bo‘lgan bosqichlar batafsil yoritilgan, chuqur tahlil etilgan. Birinchi bob: Toshkentda “Turon” nomidagi birinchi milliy teatrning tashkil

topishi (1914–1917-yillar) mavzusida dastavval Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyati bilan yaqindan tanishamiz. *“Turkistonda XX asr boshida yangi o‘zbek teatr yaratish yo‘lidagi to‘lqin A.Avloniyning ham yuragiga kirib bordi. U o‘z atrofiga teatr havaskorlarini to‘plab, 1913-yilning oxirida Toshkentda o‘z truppasini tashkil qildi”*[1], – yozadi olim. Yozmishlardan anglashiladiki, 1917-yildan 1930-yilgacha “Turon” teatr truppasida anchayin siljish, jonlanish bo‘ladi. Monografiyaning “Ulg‘ayish” deb nomlangan ikkinchi bobida mazkur sanalar 1917–1930-yillarda Mannon Uyg‘urning tashabbuskorligi, tashkilotchiligi, pedagogikasi, o‘ziga xos rejissurasi haqida keng ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

O‘n uch yillik ijodiy jarayon xaritasida H.H.Niyoziy (“Zaharli hayot” rejissyor: N.Xontalshenskiy; 1918-yil), (“Boy ila xizmatchi” rejissyor: M.Uyg‘ur; 1920-yil), (“Iffat qurbonlari” rejissyor: M.Uyg‘ur; 1920-yil), A.Fitrat (“Chin sevish” 1920-yil, rejissyor M.Uyg‘ur; “Hind ixtilolchilari” 1921-yil, rejissyor M.Uyg‘ur; “Abulfayzxon” 1926-yil, rejissyor Kamol 1; “Arslon” 1928-yil, Rejissyor M.Uyg‘ur), Cho‘lpon (“Xalilfarang 1921-yil, rejissyor: M.Uyg‘ur; “Yorqinoy” 1921 va 27-yillar, rejissyor: M.Uyg‘ur; “Mushtumzo‘r” 1928-yil, rejissyor M.Uyg‘ur, M.Muhammedov), Xurshid (“Farhod va Shirin” 1924 va 1927-yillar, rejissyor: M.Uyg‘ur) dramaturgiyasi yetakchilik qilgan. Bu davrda Mannon Uyg‘ur ham o‘zini dramaturgiyada sinab ko‘radi. *“Turkiston tabibi” (1919-yil), “Fanniy uy” (1919-yil), “12 soatlik hokimiyat”, “Muhabbatli bolalar” kabi maishiy va siyosiy tashviqot mavzularida bir pardali pyesalar yozdi”*[2]. Mazkur asarlar sahnada uzoq yashamagan bo‘lsa-da, yangi tashkil etilgan “Karl Marks” (1919-yil) truppasining tarix zarvaraqlariga muhrlandi.

Tadqiqotchining guvohlik berishicha: *“1919-yilning iyun oyiga kelib “Turon” truppasi o‘z-o‘zidan tarqalib ketadi. Truppadan ketib qolgan ozmi-ko‘pmi tajribaga ega bo‘lgan artistlar zamirida Uyg‘ur 1919-yilning iyul oyida eski shahar ustalar jamiyati qoshida “Karl Marks” teatrini tashkil etadi”*[3]. Bu ham truppa hayotida evrilish, yangilanish, ko‘tarilish davri bo‘ldi. Truppaning bosh rejissyori M.Uyg‘ur repertuarga xorij asarlarini ham olib kiradi. Bular Shillerning **“Makr va muhabbat”** (1921-yil, rejissyor: Kamol 1), Husayn Jovidning **“Shayx San’on”** (1923-yil, rejissyor: M.Uyg‘ur), **“Moral”** (1923-yil, rejissyor: M.Uyg‘ur), Molyerning **“Xasis”** (1925-yil, rejissyor: V.S.Konsel), Gogolning **“Revizor”** (1926-yil, rejissyor: V.S.Konsel), Karlo Gotsining **“Malikai Turandot”** (1927-yil, rejissyor: R.N.Simonov), Karlo Goldonining **“Ikki boyga bir malay”** (1927-yil, rejissyor: V.Tixonovich), S.Livitanning **“Hukm”** (1929-yil, rejissyor: V.A.Demert va F.Umarov), V.V.Ivanovning **“Bronepoyezd 14-69”** (1929-yil, rejissyor: V.A.Demert), A.Faykonning **“Portfelli kishi”** (1929-yil,

1 Rahmonov M. Hamza (O‘zbek davlat akademik drama teatri tarixi). Birinchi kitob (1914–1960-yillar). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2001-y. 9-b.
2 O‘sha manba. 26-b.
3 O‘sha manba. 19-b.

rejissyor: P.A.Alekseyev) asarlari edi. *Teatrning katta ijodiy muvaffaqiyatlari "Hind ixtilolchilari", "Makr va muhabbat", "Iblis", "Shayxi San'on" spektakllarida namoyon bo'ldi"*[1].

Har o'n yillik madaniy hayotda, albatta, bir davr hisoblanadi. Tadqiqotda ma'lum bo'lishicha, 1917-yildan 1930-yilgacha teatr ulg'ayish pillapoyalariga yetdi. Demak, teatr katta sinovli bosqichni marralar bilan yengib o'tdi. O'ttizinchi yillar ijodiyotida teatr ham yo'qotdi, ham topdi. Ijod taraflama nisbat beradigan bo'lsak, o'ttizinchi yillar qaltis bir davr bo'ldi. Bir guruh adabiyot va san'at vakillari partiya zo'ravonligining tazyiqiga uchradilar. Aniqrog'i qatag'on qurboni bo'ldilar. Teatrning poydevoriga g'isht qo'ygan: Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, G'ulom Zafariy, Ziyo Said kabi adiblar ijod bag'ridan, adabiyot olamidan ayovsiz yulqib tashlandilar. "Xalq dushmani" tamg'asi bilan taqdirlari temir panjaraga bog'landi. Ijod mahsullariga qora chiziq tortildi.

Mamlakatimizda istiqlolning hur shamoli barcha soha, barcha jabhada imkoniyat eshiklarini ochdi. Teatr hayotida ozodlik shamoli baralla kuylash, o'ziga bek o'zbekka ulug' ajdodlarni, allomalarni yod etish erkinligini berdi. Milliylikni tarannum etish fursati yetdi. *"Erkin ijod qilish, milliy qadriyatlar va asriy ma'naviy boylikni to'laqonli va ishonarli tarzda ifoda etadigan o'ziga xos davr keldi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, teatr san'ati repertuarda, aktyorlar ijrosida, sahna stilistikasida milliy an'analarni zamon talablariga binoan shakllantirishni asosiy vazifasi deb bildilar"*[2].

Istiqlol davri teatr repertuarini tahlil qilar ekanmiz, chindan ham spektakllarning mazmun-mohiyatida, shakl-shamoilida yangilanish, o'zgarish jarayonlariga guvoh bo'lamiz. "Moziyga qarab ish ko'rmoq xayrlidir", degan ibora bu davrda o'z tasdig'ini topdi. Tarix kitobi mustahkam ishonch va e'tiqod bilan varaqlay boshlandi. Endi emin-erkin o'tmishni quduqdan tortish, ajdodlarimiz bilan faxrlanish, milliy urf-odat, qadriyatlarimizni tarannum etishdek ijodiy izlanishlar yo'lga qo'yildi. *"Mustabid tuzum paytida qatag'on qilingan millat fidoyilarining sahnalashtirish man etilgan asarlari sahna yuzini ko'ra boshladi, ular to'g'risida ham spektakllar yaratildi"*[3]. Bular, Cho'lponning **"Yorqinoy"** (rejissyor: N.Otaboyev, 1994-y.), Fitratning **"Abulfayzxon"** (rejissyor: M.Azimov, 1994-y.), A.Qodiriyning **"Mehrobdan chayon"** (rejissyor: T.Azizov, M.Abdullayeva, 1994-y.), Usmon Azimning **"Kunduzsiz kechalar"** (rejissyor: V.Umarov, 1997-y.), Nodira Rashidovaning **"Usmon Nosir"** (rejissyor: M.Azimov, 2000-y.) asarlari edi. Qatag'on qurbonlarining nomi repertuardan o'rin olishi, badiiy siymosi sahnada gavdalanishi istiqlolning birlamchi ne'matidir.

San'atshunos olim Sh.Rizayev shunday yozadi: *"...Mustaqillik mafkurasi haqidagi tushunchaning ijtimoiy maydonga qo'yilgani fikriy bahslar asnosida haqiqatni oydinlashtirishga, tarix va tafakkur rivojini tabiiy ko'rinishlarida tadqiq etib*

1 O'sha manba. 37-b.
2 Istiqlol va Milliy teatr (To'plam). – T.: "Yangi asr avlodi", 2002-y.
3 Istiqlol va Milliy teatr (To'plam). – T.: "Yangi asr avlodi", 2002-y. 34-b.

baholashga imkon yaratadi. Garchi bu jarayon, ma'lum ma'noda jaholat, tarafkashlik bilan ma'rifat, bilimdonlik mubohasalari shaklida davom etayotgan bo'lsa hamki, oxir-oqibat fikriy ranginlikka, haqqoniy va xolis tushunchalarga yo'l ochishi aniq. Binobarin, bu yo'l millatning ijtimoiy ongi shakllanishida, madaniy darajasi yuksalishida muqarrar bir yo'ldir"[1]. Madaniy meroslarida el-yurt ozodligi, istiqlol nashidasi uchun kurash jabhalariga otilgan, oxir-oqibat mustaqillik armoni bilan shahid ketgan ma'rifatparvarlarimizning xotirasi badiiy tiklanishi teatr hayotidagi ikkinchi tamoyil, deyish mumkin. Jumladan, Cho'lponning **"Yorqinoy"** (rejissyor: N.Otaboyev, 1994-y.), Abdulla Qodiriyning **"Mehrobdan chayon"** (rejissyor: T.Azizov, M.Abdullayeva, 1994-y.), Nodira Rashidovaning **"Usmon Nosir"** (rejissyor: M.Azimov, 2000-y.) asarlari bilan Hamza teatri istiqlol in'om etgan ne'matni muqaddas bilib ijodiy izlandilar. Ma'rifatparvar bobokalonlarimizning asarlari mustaqillik davri teatr sahnasida qad rostlashi, hayotdan beshafqat yulib tashlangan tanu joni ozodlik shamoli bilan bo'y ko'rsatishi ijodiy erkinlikdan, baxtiyorlikdan dalolatdir. Teatr hayotidan olib aytadigan bo'lsak, istiqlol haqiqatni yuzaga chiqazdi, qora tarixni inkor etib, armonli ketgan qalblar nolasini tingladi, bu nolani xalqqa havola etdi. O'tmishdagi qora dog'lar asossiz ekanligini badiiy usul va vositalar orqali oydek ravshan qildi. Teatr badiiyat olami. Badiiyat ko'ngilga yo'l, degani. Vatan fidoyilarini istibdodning temir panjalaridan olib, gul bargiga o'rab sahnada namoyish etish naqadar ulug' va go'zal ish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahmonov M. Hamza (O'zbek davlat akademik drama teatri tarixi). Birinchi kitob (1914–1960-yillar). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001-y.

2. Istiqlol va Milliy teatr (To'plam). – T.: "Yangi asr avlodi", 2002-y.

3. O'zbekiston teatr san'ati: tarix, taraqqiyot va istiqbol (ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami). – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014-y.

4. Istiqlol va Milliy teatr (To'plam). – T.: "Yangi asr avlodi", 2002-y.

5. Rizayev Sh. Jadid dramasi. – T.: "Sharq", 1997-y.

[1] Rizayev Sh. Jadid dramasi. – T.: "Sharq", 1997-y. 3-b.

Umarov Kamoliddin Xusniddin o‘gli,
O‘zDSMI tayanch doktoranti

JADIDCHILIK HARAKATI: O‘ZBEK TEATRI TARAQQIYOTIDA IJTIMOIY-MADANIY JARAYONLAR

Annotatsiya. *Bugun biz bunyod etayotgan yangi hayot, yangi jamiyatning ma’naviy asoslarini yanada mustahkamlashda teatr san’ati muhim ahamiyatga egadir. Maqolada jadidchilik harakatining o‘zbek teatri taraqqiyotida turgan o‘rni, o‘sha davrda kuzatilgan ijtimoiy-madaniy jarayonlar haqida fikr yuritilgan. Keltirilgan ma’lumotlar asosida jadidchilik davrida teatr san’atidagi amalga oshirilgan islohotlar to‘g‘risida tahliliy ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.*

Kalit so‘zlar: *Jadidchilik harakati, o‘zbek teatri, ijtimoiy-madaniy jarayonlar, integratsiya, taraqqiyot, jadid, modernizatsiya, xalqaro madaniy aloqalar, spektakl, ijtimoiylashuv.*

Annotation. *Today, the art of theater plays an important role in strengthening the spiritual foundations of the new life and society that we are creating. The article examines the role of the Jadid movement in the development of the Uzbek theater and the sociocultural processes observed at that time. Based on the information provided, one can have analytical information about the reforms carried out in theatrical art in the modern era.*

Key words: *Jadid movement, uzbek theater, sociocultural processes, integration, development, Jadid, international cultural relations, performance, socialization.*

“Inson va jamiyat hayotida, xalqning ma’naviy dunyosini, ongu tafakkurini yuksaltirishda teatr san’atining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev

Teatr hech qachon o‘zining ijtimoiy xususiyatlaridan alohida bo‘lolmaydi u har doim jamiyat hayoti bilan, o‘zi mansub va mavjud bo‘lgan jamiyatning bir bo‘lagi sifatida faoliyat yuritadi. Bu ham mafkuraviy tomondan, ham madaniy tomondan jamiyatning bir bo‘lagi sifatida, jamiyatda bo‘layotgan voqea-hodisalarning ishtirokchisi hamda ifodachisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Mustaqillik teatr san’atida uzoq yillik tarixga ega bo‘lgan ijtimoiy-madaniy jarayonlarning yangi davrini boshlab berdi. Yangi siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar teatr san’atining ham yangicha tamoyillar asosida rivojlanishini talab qilishi, tabiiy. Xususan, mafkuraviy yangilanishlar davrida zamon va tarixga ob’yektiv munosabat bildirish talabi qo‘yildi. Taraqqiyotning bozor iqtisodiyoti yo‘liga o‘tgan jamiyatning teatrga munosabati va zamonaviy jarayonlarning badiiy ijodga ta’siri

oldingidan o‘zgacha ko‘rinish oldi. Bu esa, mustaqillik davri ijtimoiy-madaniy jarayonlarida teatr san’atining tutgan o‘rnini, dastavval, uning tarixiy-nazariy xususiyatlari asosida ko‘rib chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Jadidchilik harakatining asoschisi Ismoil G‘aspirali o‘zbek jadidchilari harakatiga ta’sir qildi va o‘rnak ko‘rsatdi. G‘aspirali doimiy ravishda o‘zbek jadidchilik harakatining ilg‘or namoyandalari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Tavallo, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Hamza va boshqalar bilan uchrashib, o‘zbek, tatar, tojik bolalari uchun yangi uslubli maktablarni tashkil qilishda, matbuotchilikni rivojlantirishda va o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlarini amaliyotga chiqishida ko‘maklashar edilar.[1] Ular eski turmushni, urf-odatlarni, maktablarda ta’lim-tarbiya usulini isloh qilish, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy yuksaklikka olib chiqishga qaratilgan dasturning asosiy yo‘nalishini ishlab chiqdilar.

A.Avloniy, Munavvar qori, M.Behbudiy, Cho‘lpon va boshqa bir qator ziyolilarimiz XIX asr oxiri – XX asr boshlarida teatrchilik harakatini amalga oshirishga kirishdi. Natijada 1914-yili Samarqand va Toshkentda birinchi dramaturgiya namunasi hisoblangan Behbudiyning “Padarkush” asari asosida ilk spektakllar sahna yuzini ko‘rdi. Keyingi yillarda yevropa tipidagi zamonaviy teatr shakl va usullarini o‘rganish, ijodiy o‘zlashtirish, ularni milliy tomosha san’ati tajribalari asosida qo‘llash, realistik teatr unsurlarini spektakl talqinida mujassam etishga intilish kuzatildi. 1914-1924- yillar teatr san’ati uchun tom ma’noda ijodiy izlanishlar hamda professional shakllanish davriga aylandi.

Birinchi o‘zbek milliy teatr truppasi 1913-yili “Turon” nomi bilan Toshkent shahrida tashkil topgan. Dastlab kichik tarjima sahna asarlari qo‘yib, ma’rifiy tadbirlar uyushtirib rasmiy faoliyatini 1914-yil 27-fevralda Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” fojiasi asosida sahnalashtirilgan spektakli bilan boshlaydi. Teatrning tashkilotchilari Toshkent shahrining o‘lka miqyosidagi baobro‘ jaded ziyolilari bo‘lib, Turkiston uchun yangilik bo‘lgan teatr ishlarini san’atning bu turi rivojlangan mamlakatlar tajribasini puxta o‘rganib amalga oshirishga qaror qiladilar. Ular ishni teatrning tarkibiy tuzilishi, ijrochi kuchlar – aktyor va rejissorlarning vazifalari, ijodiy, tashkiliy, moliyaviy ishlarni boshqarish, teatr jamoasi haq-huquqlarini o‘zida ifodalovchi hujjat – teatr Nizomini yaratishdan boshlaydilar.

XX asrning 20-yillari juda murakkab davr bo‘lib, unga nisbatan yengil, bir yoqlama qarab bo‘lmaydi. O‘sha davr siyosiy-ijtimoiy holatini anglagan holda imkon qadar xolis munosabat bildirish lozim. Tadrijiy ravishda millat istiqloli sari intilayotgan jadidlarning harakatlarini 1917-yildan bolsheviklarning hokimiyat tepasiga kelish jarayonlari uzib qo‘ydi. Bu davr O‘zbek teatri, xususan, dramaturgiyasi g‘oyaviy (jadidlar hamda

[1] M.Umarov. “Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi”. “Yangi asr avlodi”. 2009-yil 278-b.

sovetlar o‘rtasidagi) kurash maydoniga aylandi va qaysidir ma’noda o‘zida haqiqiy demokratik tamoyillarni namoyon qildi.

Sho‘rolar davrida o‘zbek teatr san’ati targ‘ibotchilik rolini, kishilarni hukmron mafkura nuqtayi nazaridan tarbiyalash funksiyasini bajardi. Ehtimol shu bois mumtoz merosga murojaat etishda asarlarning zohiriy tomonlari ko‘proq e’tiborda bo‘lib, botiniy jihatlarga diqqat qaratilmagandir. Aslini olganda teatr insonnni shaxs sifatida shakllanishiga yordam beruvchi, kishining botiniy xis-tuyg‘ularini uyg‘otish, fikrlash va mushohada qilishi uchun imkoniyat, shart-sharoit yaratib berishga qodir bo‘lgan qudratli kuch bo‘lmog‘i lozim[1]. Bu borada xalq ijodiyoti va mumtoz adabiyot munosabatlarini chuqur o‘zlashtirishi muhim o‘rin tutadiki, ana shunda hayotning butun silsilasi, dramatik, poetik ko‘rinishi, oq-qora va turfa ranglardagi ifodasini idrok qilish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Oktabr to‘ntarishidan keyin sobiq Rossiya imperiyasining barcha o‘lkalarida birin-ketin sho‘ro hukumati va uning tartiblari o‘rnatila boshlandi. Sho‘ro hukumati xalqni ikki sinfga bo‘lib yuborgandi. Biri ishchi va kambag‘al dehqonlar sinfi ikkinchisi esa mulkdorlar sinfi. Ana shu mulkdorlar sinfining mol-mulkini musodara qilib, davlat ixtiyoriga o‘tkazish, egalarini esa sinf sifatida tugatish, xususiy mulkka egalikni yo‘q qilish sovet davlatining birlamchi vazifalaridan edi.

Bu vazifalar hamma sohada bo‘lganidek, san’at va madaniyat sohasida ham birin-ketin amalga oshirildi. Xususiy hisoblangan jamoat va tomosha binolari, kutubxonalar, ular bilan bog‘liq mulk va jamoalar – teatr to‘dalari, musiqa, sozanda va xonanda uyushmalari, sirk va dorbozlik bilan shug‘ullanuvchi guruhlar hisobga olinib davlat ixtiyoridagi idoralarga bo‘ysundirilib, davlat ko‘rsatmalariga binoan ish yuritadigan qilib qo‘yildi. Sho‘rolar tuzumining o‘rnatilishi qonuniy tarixiy jarayon, kommunistlar partiyasi esa xalqlar xaloskori sifatida baholanib, kechagi va bugungi kunni qarama-qarshi sinflar kurashi nuqtayi nazaridan baholash va tahlil qilish davlat mafkurasi maqomini oldi. Qarama-qarshi sinflar kurashini ijtimoiy fan, adabiyot va san’at tomonidan aks ettirishda rus ishchilari sinfini mazlum ommaning, xususan, rus bo‘lmagan xalqlarning peshqadam og‘asi sifatida, kommunistlar partiyasi va sovet davlati rahbarlarini dohiy, sifatida targ‘ib va ta’rif etish adabiyot va san’atning bosh vazifasi etib belgilandi. [2]

Boshqa sohalarda bo‘lgani kabi, maorif va madaniyat, san’at sohalarida ham barcha ko‘rinishdagi ijodiy jamoalar va ularning ko‘chmas mulklari birin-ketin hisobga olingach, davlat tasarrufiga o‘tkazildi. Chunonchi, “Sovetskiy Turkestan” gazetasining 1918-yil 16-avgust sonida bosilgan maqolada ochiq-oydin shunday deyilgan edi: “Teatr daromad keltiruvchi tashkilot sifatidagina emas, avvalo, zamonning siyosiy-badiiy maqsadlarini to‘g‘ri anglab, yuz berayotgan hodisalarga mos ravishda javob topa bilishi,

[1] Tojiboyeva O. Epos va teatr. Birinchi kitob. – T.: San`at jurnali nashriyoti, 2015. – 236 b.
[2] Tursunov T., XX asr o‘zbek teatri tarixi, – T.,2009. 60-61 b.

ommaning san’atga bo‘lgan tashna qalbini qondira olishi bilan davlat muassasasi bo‘lishi kerak”.[1]

Jadidchilik harakati hamda o‘zbek jadid dramaturgiyasi haqida san’atshunos olim Sh.Rizayev ham o‘zining tadqiqotlarida muhim ma’lumotlarni keltirib o‘tadi. Olimning fikricha, o‘zbek jadid dramaturgiyasi va teatrining shakllanishi, avvalo, ijtimoiy hayot taqozosi va ehtiyoji tufayli sodir bo‘lgan[2]. 1911-yilda Maxmudxo‘ja Behbudiy “Padarkush yoxud O‘qumagan bolaning holi” nomli “3 parda 4 manzarali milliy, birinchi fojia”sini yozadi. Ushbu asar 1913-yili Samarqandda alohida kitob holida chop etiladi. “Padarkush” pyesasining e’lon qilinishi bu Behbudiy yoki Samarqand shahri ziyolilari uchun ahmiyatli bir hodisa bo‘lmay, butun Turkistonda ijtimoiy-madaniy hayotning yanada jonlanmog‘i uchun, teatr havaskorlari negizida yangi-yangi ma’rifatchi jamoalar maydonga kelishi uchun turtki bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.Umarov. “Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi”. “Yangi asr avlodi”. 2009-yil 278 b.
2. Tojiboyeva O. Epos va teatr. Birinchi kitob. – T.: San`at jurnali nashriyoti, 2015. – 236 b.
3. Tursunov T., XX asr o‘zbek teatri tarixi, – T.,2009.
4. Sh.Rizayev. “Jadid dramasi”//Mas’ul muharrir N.Karimov/. – T.: Sharq, 1997. – 320 b.

Xakimova Maxsuda Boxadirovna,
O‘zDSMI magistranti
Ilmiy rahbar: Nishonboyeva Qunduzxon Vahobovna
Tarix fanlari nomzodi dotsent

NOMODDIY MADANIY MEROS MILLIY QADRIYAT SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada nomoddiy madaniy meros, uning yo‘nalishlari, tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlarning milliy qadriyat ekanligi haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Nomoddiy madaniy meros, reprezentativ ro‘yxat, milliy qadriyat, tabiat, koinot, marosim, urf-odat.*

Abstract. *This article provides information about intangible cultural heritage, its directions, knowledge and traditions of nature and the universe as a national value.*

Key words: *Intangible cultural heritage, representative list, national value, nature, universe, ceremony, tradition.*

O‘zbek xalqining o‘tmishi uzoq tarixga borib taqaladi. Bu davr ichida xalqning ham moddiy, ham ma’naviy madaniyati jahon sivilizatsiyasining o‘lmas namunalariga

[1] Tursunov T., XX asr o‘zbek teatri tarixi, – T.,2009. 61 b.
[2] Sh.Rizayev. “Jadid dramasi”//Mas’ul muharrir N.Karimov/. – T.: Sharq, 1997. – 35-b.

aylandi. Xususan, o‘zbek xalqining nomoddiy madaniy merosi asrlar osha ajdodlar tomonidan sayqallanib, xalqning bebaho mulki bo‘lish bilan bir qatorda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirishning muhim sub’ekti sifatida baholandi. Zero, nomoddiy madaniy meros insonni tarbiyalaydi, ulug‘laydi. Tabiat va hayot go‘zalligini ochib beradi. Unga mehr-muhabbat munosabatini oshiradi.Nomoddiy madaniy meros degan ibora hayotimizga kirib kelganiga uzoq vaqt bo‘lgani yo‘q. Ushbu iboraning ko‘pchilik tomonidan tushunilishi bir oz qiyinroq kechayotganligini bois uning tilimizga kirib kelish tarixi to‘g‘risida bir oz to‘xtalamiz. Jamiyatning rivojlanish sur‘ati uning tashqi muhit, ya’ni boshqa jamiyatlar bilan aloqalarning qay darajada yo‘lga qo‘yilganligi, iqtisodiy va ijtimoiy almashuvlarining samarasiga bog‘liq. Hech bir jamiyat yopiq holda keskin o‘sish sur’atlariga erishishi mumkin emas.

Globallashuv jarayonidagi moddiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda ma’naviy sohada yuz berayotgan yo‘qotishlar ko‘p vaqtdan buyon dunyo hamjamiyatidagi ilg‘or kishilarni tashvishga solib kelayotgan bo‘lsada, dunyo miqyosida bunday yo‘qotishlarning oldini olish va tegishli choralar ko‘rish masalasiga alohida e’tibor o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Ma‘naviy qashshoqlashuv, “standart madaniyat” yoyilishining oldini olish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkilotining fan, ta‘lim va madaniyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi YUNESKO tashkilotining tashabbusi bilan yangi bir jarayon boshlandi va bu jarayon har bir millat, xalq, jamiyatning o‘zligini ifodalovchi, shu bilan bir qatorda boshqalarni kamsitish yoki tan olmaslik xususiyatlaridan holi bo‘lgan ma‘naviy boyliklarini asrash va kelajak avlodga yetkazishni maqsad qilib oldi.[1]

Shunday qilib, turli xalqlarda turlicha nomlanadigan, aslida esa o‘zlikni namoyon qilish shakllari, usullari bilan bog‘liq bilim, tajriba va ko‘nikmalar “nomoddiy madaniy meros” iborasi bilan ifodalana boshlandi. Dunyo miqyosida nomoddiy madaniy meros va uning muhofazasi masalalari YUNESKOning 1989-yildagi “An’anaviy madaniyat va folklorni muhofaza qilish” bo‘yicha tavsiyalaridan boshlandi. 1994-yildan milliy tizimlar (davlatlar) tomonidan nomoddiy madaniy merosni o‘zida saqlovchi va boshqalarga yetkazuvchilarning rasman tan olishini va ular tomonidan ushbu merosning kelgusi avlodga yetkazilishiga ko‘maklashish maqsadida “Insoniyatning yashovchi (tirik) durdonalari” Dasturi boshlandi. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha xalqaro konvensiya Ta‘lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti (YUNESKO)ning Parij shahridagi 32-sessiyasida (2003-yil 15-oktabrda) qabul qilingan. Konvensiya 9 ta bo‘lim 40 ta moddadan iborat. Konvensiya talablaridan kelib chiqqan holda 2010-yil 7-oktabrda Vazirlar Mahkamasi tomonidan Davlat dasturi tasdiqlandi. Konvensiyaning maqsadlari sifatida quyidagilar qayd etilgan: nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish;

tegishli hamjamiyatlar, guruhlar va alohida shaxslarga mansub nomoddiy madaniy merosni hurmat qilish;

nomoddiy madaniy merosning muhimligiga va mahalliy, milliy va xalqaro miqyosda uning umum tomonidan tan olinishiga e‘tiborni jalb qilish;

xalqaro hamkorlik va yordam ko‘rsatish.

Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 23-fevraldagi 47-sonli qarori bilan “Nomoddiy madaniy meros obektlarining ro‘yxatini yuritish to‘g‘risidagi nizom” tasdiqlangan va shu asosida mamlakatimizda 4 xil ro‘yxat yuritilmoqda.

1. Insoniyat nomoddiy madaniy merosining Reprezentativ ro‘yxatiga tavsiya etilayotgan obektlar ro‘yxati.

2. Zudlik bilan muhofaza ostiga olinishi lozim bo‘lgan nomoddiy madaniy meros obektlarining ro‘yxati.

3. Nomoddiy madaniy meros obektlarining milliy ro‘yxati.

4. Nomoddiy madaniy meros obektlarining mahalliy ro‘yxati.

Unga asosan nomoddiy madaniy meros quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

- o‘zlikni namoyon etishning og‘zaki an’analari va shakllari;
- ijro san‘ati;
- jamiyatning urf-odatlari, marosimlari, bayramlari;
- tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar;
- an’anaviy hunarmandchilik bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalar.[2]

Biz yuqorida nomoddiy madaniy meros tushunchasi, uni asrab-avaylash,saqlash va targ‘ib etish bo‘yicha to‘xtalib o‘tdik. Endilikda Nomoddiy madaniy merosni milliy qadriyat sifatidagi qismiga e’tibor berib o‘tsak.

Milliy qadriyatlar-har bir millatning o‘ziga xos xususiyatlari, xossalari, belgilari, alomatlarini ifodalovchi falsafiy tushuncha bo‘lib, o‘sha millat bosib o‘tgan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shakllangan milliy madaniy meros xazinasiga qo‘shgan hissasini, ulushini ifodalaydi. Xuddi shu milliy o‘ziga xoslik, o‘ziga moslik, millat madaniyatida, adabiyotida, san‘atida, tilida, dinida, tarixiy xotirasida, yashash ishlash va fikrlash tarzida, urf-odatlarida, rasm – rusumlarida, bayramu-sayillarida o‘z ifodasini topadi. Milliy qadriyatlar milliy ma‘naviy madaniyat ifodasi bo‘lib, har bir millatning insoniylik xazinasiga qo‘shgan munosib hissasining hosilasidir. Qadriyatlarni xalq ijod qiladi, ular xalqning bebaho oltin merosi.Demak qadriyatlarni saqlovchi ham, hayotga joriy qiluvchi ham,eskilarining ma’no-mazmunini yanada sayqallashtiruvchisi va boyituvchisi ham zamon hamda davrlar, ajdodlar va avlodlar talab-ehtiyojlarini va tajribalari asosida asta-sekin yangidan-yangilarini yaratuvchisi va turmushga tadbiq etuvchisi ham ana shu ijodkor xalqdir. Nomoddiy madaniy merosning 4-yo‘nalishi Tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar va uning tarkibiga kiruvchi barcha qadriyatlar bu bizning milliy qadriyatlarimiz hisoblanadi.

Tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar deganda, biz an’anaviy xalq taqvimlari, kunning botishiga qarab kelgusi kunning qanday kelishini taxmin qilish, oyning turishiga qarab keyingi kunning ob-havosi qanday kelishi haqida fikr bildirish, hayvonlar harakati

orqali sodir bo‘ladigan voqealarni bashorat qilish, quduq qazish o‘rni yoki imorat qurish joyini aniqlash, milliy sartaroshlik, an’anaviy tabobat, imoratsozlik, miroblik bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalar, pazandalik san’ati kabilarni tushunamiz.[3]

O‘zbek xalqi qadim zamonlardan dehqonchilik, bog‘bonlik, chorvachilik bilan shug‘ullangan. Dehqonchilik ham, chorvachilik ham tabiat muruvvati va injiqliklari bilan bog‘liqdir. Erta bahordan kech kuzgacha dehqon dalada mehnat qiladi. Qishda esa yerga iloji boricha ko‘proq nam singdirish choralarini ko‘radi. Chorvador esa yil davomida chorvani boqish, semirtirish, ko‘paytirish bilan band bo‘ladi. Binobarin, yil fasllarining qulay kelishi dehqon xirmoniga baraka beradi, chorvador mehnati samarasini ro‘yobga chiqaradi. Shuning uchun otalar va momolar yomg‘ir chaqirish, yomg‘ir to‘xtatish, shamol chaqirish va to‘xtatish tajribasini ipidan ignasigacha keyingi avlodga meros qilib qoldirishga odatlangan. Natijada, o‘nlab marosimlar yuzaga kelgan. Marosimlar esa, albatta, so‘zning sirli ta’siri bilan yashagan, amalga oshirilgan.

O‘zbek mavsumiy marosim folklori asosini yil fasllarida o‘tkaziladigan marosimlar tashkil etadi. Bahorgi mavsum marosimlari: loy tutish, shox moylash, Navro‘z, yomg‘ir chaqirish, darvishona; yozgi marosimlar: choy momo; kuzgi marosimlar: shamol chaqirish; qishki marosimlar: yap-yusunlardan iboratdir. Bundan tashqari, yozgi to‘qson, chilla, qishki to‘qson, chilla, ayamajuz, hut-yut deb nomlanadigan o‘nlab udumli muddatlar ham ma’lum darajada marosim ko‘rinishlariga ega. Masalan, loy tutish marosimida muayyan hududda yashaydigan aholi ariqlarni tozalash, dalaga suv chiqarishni osonlashtirish uchun hasharga chiqadi. Shox moylar marosimi bahorda qo‘sh chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan. Dehqonlar yil davomida ekin-tikin mo‘l-hosil berishiga umid qilib, birinchi qo‘sh haydaydigan ho‘kiz shoxiga zig‘ir moyi surganlar.Marosimda dehqonchilik piri – Bobodehqondan mo‘l hosil bo‘lishini tilab niyat qilishgan. Yomg‘ir chaqirish bilan bog‘liq “Sust xotin” marosimi, asosan, bahorda yomg‘ir yog‘magan paytlarda o‘tkazilgan. Bu marosim ba’zi bir joylarda ayollar, ba’zi bir joylarda erkaklar ishtirokida o‘tkazilgan. Yuqorida keltirib o‘tilgan marosimlar tabiat bilan bog‘liq bo‘lib, marosimlar xalq hayotining tarkibiy qismi sifatida milliy urf-odatlar singari qadrlanadi.

Bu marosimlardan tashqari Xalq tabobati bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalar ham keltirib o‘tish joizdir. Qir-adir va dalalarimizda tabiiy holda o‘sadigan giyohlarimiz ham tabiatning bizga bergan eng yuksak in’omidir. Zeroki tibbiyotda inson salomatligi uchun foydalaniladigan dorivor o‘simliklar bebaho boyligimiz nomoddiy madaniy merosimiz hisoblanadi. Quyida ba’zilarini keltirib o‘tish mumkin. Xalq tabobati bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalar

O‘simlik: Aloy: Xalq meditsinasida qo‘llanilishi: Aloy bargidan va uning shirasidan turli kasalliklarni: oshqozon va o‘n ikki barmoq ichak yaralari. o‘pka silini va boshqalarni davolashda foydalaniladi. O‘pka silini davolashda alloy bargini (yoki uning shirasini) asal va cho‘chqaning ichki vog‘i bilan aralashtirib pishiriladi va bemorga iste’mol qilishga beriladi.

O‘simlik: Anjabor: Xalq meditsinasida qo‘llanilishi: O‘simlik yer ostki qismidan tayyorlangan qaynatmani me’da ichak kasalliklarida, ayniqsa ich ketganda hamda qon to‘xtatuvchi don sifatida iste’mol qilish buyuriladi.

O‘simlik. Beshbarg: Xalq meditsinasida qo‘llanilishi: Ildizpoya yoki o‘simlikning yer ustki qismidan tayyorlangan damlama yoki qaynatma qon to‘xtatuvchi dori sifatida hamda og‘iz og‘riganda og‘izni chayishda, me’da-ichak kasalliklarida ishlatiladi.

O‘simlik:Anjir:Xalq meditsinasida qo‘llanilishi: Anjir mevasi va undan tayyorlangan damlama yumshatuvchi dori sifatida yo‘tal va ko‘kyo‘tal kasalliklariga davo qilinadi. Bulardan tashqari, lattani mevaning issiq damlamasida namlab, yaraga qo‘yiladi. Shamollash kasalliklarida esa, tomoqni chayish uchun ishlatiladi.

O‘simlik: Behi: Xalq meditsinasida qo‘llanilishi:Meva qaynatmasi va pishirilgan meva me’da ichak kasalliklarida ovqat hazm bo‘lishini yaxshilovchi, jigar, qon tupurish kasalliklarini davolashda hamda qusishga qarshi ta’sir qiluvchi. burishtiruvchi, siydik haydovchi, qon to‘xtatuvchi dori sifatida qo‘llaniladi. Urug‘idan tayyorlangan qaynatma ich ketishi, qon tupurishni davolaydi.

Xalqimizning tabiat bilan bog‘liq qadriyatlarini bilish, ularga chuqur e‘tibor bilan qarash va e‘zozlash har bir inson uchun ham qarz, ham farzdir. Chunki tabiat sog‘lom-inson sog‘lom, tabiat dardli- inson nosog‘lom, tabiat farzandi bo‘la turib uning o‘ziga xos madaniy-ma’rifiy qadriyatlarining qadriga yetmaslik insoniylikdan emas.O‘zini madaniyatli va ma’rifatli deb bilgan har bir kishi, yosh-keksaligi, ayol-erkakligi va kasb-amalidan qat‘iy nazar, yon-atrofni o‘rab turgan muhit 4 unsur yer, suv, havo,tuproq, shuningdek o‘t giyohlar, dov-daraxtlar, katta-kichik jonli-jonsiz narsalar haqida qayg‘urishi, jon kuydirishi, qisqasi tabiat chiroyiga chiroy, tarovatiga-tarovat qo‘shishni vijdoniy burch, iymon-e‘tiqod ishi deb bilmog‘i lozim. Mustabid tuzum davrida “Tabiatdan in’om-ehson kutib o‘tirmaymiz. Uni o‘zgartirish-bizning burchimiz, g‘oyasi asosida tabiatga juda ko‘p zararlar keltirildi. Hozirgi kunda ham tabiatga yetkazilayotgan zarar o‘z aks ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sayfullayev B, Yo‘ldosheva S, Eshonqulov J, Ashirov A, Toshmatov O‘. Nomoddiy madaniy meros – folklor ijro san‘ati an‘analari. O‘quv qo‘llanma. – T.: Navro‘z, 2017. . 2.O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi Yunesko ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi, 2017.

3. O‘zbek milliy folklor san‘ati va etnomadaniy qadriyatlar. O‘quv qo‘llanma. – T.: Navro‘z, 2014

Amondulloyev Zikrillo Mussoyevich,
O‘zDSMI talabasi
Ilmiy rahbar: Vahidov Yusuf Kadirovich
O‘zDSMI “Cholg‘u ijrochiligi va
musiqa nazariyasi” kafedrasi dotsenti v.b.

O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARINI TA’LIM JARAYONIDA QO‘LLASHNING MAQSAD VA MOHIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek xalq cholg‘ularining ta’lim jarayonida qo‘llanilishining maqsad va mohiyati haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Shuningdek, cholg‘u ijrochiligida pedagogik mahorat va pedagogik uslublarning qo‘llanishi xususida fikr-mulohazalar bildirib o‘tilgan. Bundan tashqari, yosh avlodni milliy musiqa san’atimizning u yoki bu turiga qiziqishi uyg‘otish asosan musiqa murabbiylari va o‘qituvchilarning bilim darajasi va pedagogik mahoratlarini oshirishga oid ilmiy izlanishlar yoritib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *xalq cholg‘ulari, milliy qo‘shiqchilik, pedagogik mahorat, ustoz-shogird, tajriba almashinuvi, musiqa tarbiyasi, kuy, qo‘shiq, hissiyot.*

Abstract. *This article provides information about the purpose and essence of the use of Uzbek folk instruments in the educational process. Also, opinions were expressed about the use of pedagogical skills and pedagogical methods in musical instrument performance. In addition, scientific research on raising the level of knowledge and pedagogical skills of music coaches and teachers to arouse the interest of the young generation in one or another type of our national music art has been highlighted.*

Key words: *folk instruments, national singing, pedagogical skill, teacher-student, exchange of experience, music education, song, emotion.*

Yoshlar tarbiyasi davrimizning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Shu sababli tarbiya masalasida musiqiy tarbiya sohasiga kengroq to‘xtalmoq lozim. Bizga ma’lumki, musiqa tarbiyasi bevosita estetik tarbiya sirasiga kiradi. Barcha turlari, xususan, aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, vatanparvarlik, ekologik, tarbiya ham bevosita bog‘liqdir. Musiqiy tarbiyasiz tarbiyaning bu turlarini ham to‘laqonli amalga oshirib bo‘lmaydi. Qo‘shiqlarimizda ilm olishga rag‘bat, axloq-odob, vatanparvarlik ruhi va boshqa insoniy xususiyatlar aks etib turmas ekan, bu tarbiyalarni quruq so‘zlar bilan amalga oshirish murakkab masaladir. Modomiki shunday ekan, musiqiy tarbiyaning asosiy turlaridan biri hisoblangan cholg‘u ijrochiligi ham barcha tarbiya turlariga o‘z-o‘zidan bog‘liq.[1] Yoshlarning milliy cholg‘ularimizga qiziqishi, bu milliyligimizga qiziqishi demakdir. Yosh avlodni milliy musiqa san’atimizning u yoki bu turiga qiziqishi uyg‘otish asosan

[1] Abralova M, Galiyeva D.Qo‘shayev A. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi,2018.

musiqa murabbiylari va o‘qituvchilarning bilim darajasi va pedagogik mahoratlariga bog‘liq. Bundan tashqari yosh avlod asosiy tarbiyani oilada oladi. Demak, bu ota-onalarimizning musiqiy dunyoqarashiga, qolaversa, radio, televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalari faoliyatiga, bayram tadbirlari, to‘y-marosimlari va boshqa omillar sifat darajasiga bog‘liq ekanligi hammaga ravshan bo‘lishi kerak. Ko‘pchilik olimlar va tarbiyachi amaliyotchilar estetik tarbiyaga badiiy idrok, did va ehtiyojlarni tarkib toptirish vositalari, shakllari hamda usullarning tizimi sifatida qarab kelganlar, bu esa estetik tarbiyaning shaxsda faqat badiiy jihatlarini tarkib toptirishga qaratilgan bir tomonlama mazmunini ifodalaydi. Bunday tushunish esa, ko‘ngilsiz natijalarga olib kelishi mumkin. Ya’ni, bu so‘zning tor ma’nosida “estetik” boshqacha qilib aytganda badiiy shakllarini yaxshi biladigan, tashqi go‘zallikni xolis idrok etadigan, lekin ma’naviy jihatdan qashshoq, hayotdagi hatti-harakatlardagi hamda, san’at asarlarining mazmunidagi go‘zallik va xunuklikni ko‘ra olmaydigan hamda anglamaydigan kishilarni yetishtirishimiz mumkin.[1]

Musiqaning barkamol insonni tarbiyalashdagi roli juda katta ekanligi ma’lumdir. Musiqa insonning ma’naviy dunyosiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Birinchidan, texnikaning tezkor rivoji va jarayonida o‘zlashtirish lozim bo‘lgan axborotlarning ko‘payishi inson aqlini takomillashtiradi va hissiyotlarini ma’lum darajada qashhoqlashtirishi ham mumkin. Ana shu hol yuz bermasligi uchun mamlakatimizda shaxsni har tomonlama uyg‘un kamol toptirishga barcha tadbirlari qo‘llanmoqda.[2]

Bu vazifani amalga oshirishda musiqa insonning ongi va ma’naviy dunyosiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xuddi shu sababli u inson uchun ma’naviy go‘zallikning, qalbi poklikning, umidsizlikka tushmaslik, bag‘ritosh va xudbin qilib qo‘ymaslikning oldini olish omildir. Bu o‘rinda hamma narsa insonning qanday musiqani tinlashga va uning mohiyatini qanchalik to‘g‘ri baholashiga bog‘liq. Bugungi globallashuv davrida musiqa, estetik tarbiya madaniy hayotimizda tobora keng o‘rin olmoqda. Shunga ko‘ra, mamlakatimizda musiqa madaniyatini rivojlantirishga, yoshlarni estetik tarbiyalashga jiddiy e’tibor berilmoqda. Demak, musiqa fani o‘qituvchi va murabbiylari ham estetik tarbiya oldiga qo‘yiladigan talablardan, yaxshi turmush tarzi bilan bog‘lab, yosh avlod qalbida vatanparvarlik, ozod va obod kelajak tuyg‘ularini shakllanishiga munosib hissa qo‘shmog‘i zarur. O‘zbek milliy cholg‘ulari milliy tilimiz, urf-odatlarimiz, an’analarimiz va milliy kiyimlarimizdek har birimiz uchun qadrli bo‘lmog‘i, ularni zamonaviy nuqtayi nazardan o‘rganish, yoshlarga o‘rgatish o‘zini shu el farzandi deb hisoblovchi fuqaroning muqaddas burchi bo‘lmog‘i lozim.

Cholg‘u ijrochiligini o‘rgatish jarayoniga alohida faoliyat sifatida qarab muayyan ta’limiy-tarbiyaviy vazifalardan kelib chiqib aytish mumkinki, bu o‘rinda asosiy diqqat talabalarni ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, san’atdagi go‘zallikni tushunish va his

[1] Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. – Toshkent, 2011
[2] Akbarov I. “Musiqa lug‘ati” Toshkent: “San’at”, 2017.

etishga o‘rgatish, o‘zbek va qardosh xalqlar madaniyati va san’atida alohida nom qoldirgan, jahon xalqlari va kompozitorlari asarlari bilan tanishtirishga qaratilmog‘i lozimdir. Ushbu yo‘nalishda faoliyat olib borayotgan pedagoglar bilan suhbatlarimizda shu narsaga ishonch hosil qildikki, talabalarga cholg‘uni havaskorlar darajasida chalishni, har qanday asarni notalari bo‘yicha mustaqil o‘rganishlari uchun yetarli darajada musiqa savodini, tahlil qilish va varaqdan o‘qishni o‘rgatish zarur. Bo‘lajak o‘qituvchilar musiqani muntazam diqqat bilan tinglashlari, uni nazariy tahlil qilishlari, varaqdan o‘qib o‘rganish malakalariga ega bo‘lishlari shart.

O‘qituvchi cholg‘u ijrochiligini o‘rganish jarayonidagi musiqiy ijrochilik faoliyatini har xil turlarini talabaning asosiy repertuari atrofiga jamlaydi va o‘rganilayotgan asarlar bilan bog‘laydi. Musiqani varaqdan o‘qish va (pedagogning ijrosida hamda texnik vositalar yordamida eshitish orqali) tinglash uchun janr-uslub belgilari bo‘yicha talabaning asosiy ijrochilik repertuari bilan asarlar tanlanadi. Asarlarning obrazli mazmunini, kompozitsion tuzulishini va musiqiy ifodaliligini tahlil qilish bilan bog‘liq topshiriqlar ijroning badiiy sifatini (dinamikasi, artikulyatsiyasi, nyuanslari, ijro texnika)lari va ijro uslublarini izlashga qaratiladi. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lgan o‘qituvchilarning ta’kidlashiga ko‘ra, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining yetuk mutaxassislar bo‘lib yetishishlarida birgina cholg‘uni mukammal o‘rganishning o‘zi yetarli emas. Shu sababli talabalarga har bir cholg‘u, uning o‘ziga xos xususiyatlari, ular yordamida ijro etiluvchi kuylarni maromiga yetkazish yo‘llari haqida ma’lumot berish foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abralova M, Galiyeva D.Qo‘shayev A. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2018.
2. Avliyoqulov N.X. “Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari”. – Toshkent: 2011.
3. Azizxo‘jayeva N. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2016.
4. Azizxo‘jayeva N. “O‘qituvchi mutaxasisligiga tayyorlash texnologiyasi» –Toshkent: 2020.
5. Akbarov. I. “Musiqa lug‘ati” Toshkent: “San’at” 2017.
6. Asilov M. “Dutor darsligi” Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2020.
7. Asqarov A. “O‘zbekiston xalqlari tarixi” – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2022.
8. Axatova D.A. “Pedagogika fanlarini o‘qitishda innovatsion usullardan foydalanish”. – Buxoro: “Pedagogik mahorat” jurnali, 2015.

Xudaybergenova Malika Oybekovna,
O‘zDSMI tayanch doktaranti

ABDURAUF FITRATNING “O‘ZBEK KLASSIK MUSIQASI VA UNING TARIXI” ASARI – MUMTOZ MUSIQANING NAZARIY MEROSI SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abdurauf Fitrat faoliyati, o‘zbek klassik musiqasi rivoji va bugungacha yetib kelishi, klassik musiqaning merosi sifatida san’at – madaniyat yo‘lida qo‘shgan hissasi haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbek jadidlari, jadidchilik, shashmaqom, Viktor Uspenskiy, Abdurauf Fitrat, “O‘zbek klassik musiqasi ham uning tarixi” usul, parda, mushkilot, nasr.*

Annotation. *This article provides information about the activities of Abdurauf Fitrat, the development of Uzbek classical music and its arrival to this day, and the contribution of classical music to art and culture as a legacy.*

Keywords: *Uzbek jadids, jadidism, shashmaqom, Victor Uspensky, Abdurauf Fitrat, "Uzbek classical music and its history", method, tone, mushkilot, prose*

Bizda “g‘arb musiqasi”g‘a qarshi “sharq musiqasi” degan so‘z yuradir. Bu kun bu so‘zdan anglashilg‘an ma’no turk, arab, fors millatlarining musiqalaridir. [1]

Asrlar osha rivojlanib, sayqal topib, keng quloch yoygan o‘zbek san’ati va madaniyati bugungi kunda “o‘zbek” millatini dunyoga tanitishda asosiy vosita his oblanadi. Har bir millatni millat bo‘lib shakllanishida muhim rol o‘ynovchi tili, adabiyoti, urf – odat va qadriyatlari, yashash tarzi va kelib chiqishini bir deganda ular ijod qilgan san’at namunalaridan bilib olish mumkin. Ya’ni, san’at – til, makon va zamon tanlamaydi, har bir ijod mahsuli bebaho. Uning bebaholigini asrlar va yillar oshsada xalq tili va dilidan tushmasdan shu kungacha yetib kelishi, o‘zida biz bilgan va bilmagan uzoq tarixdan boxabar qilish kabi sifatlar belgilaydi.

Bugun o‘zbek millati mustaqil va ozod diyor. Ammo tarixiy ma’lumotlarga yuzlanar ekanmiz, ota – bobolarimiz, ularning ota – bobolari, ajdodlarimiz o‘tmishda o‘z tili, dini, madaniyat va san’atini saqlab qolish va avlodlarga o‘zgarmay yetkazishda jonbozlik qilganini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni sobiq Sovet tuzumi davrida yangi madaniyat oqimi asnosida o‘zgarishlarga uchrayotgan eski qadriyat va qarashlar, ma’naviyat va madaniyatni, o‘zbek avlodlarga o‘zgarishsiz yetkazish yo‘lida ko‘plab insonlarning mehnati singan. Milliy san’at va madaniyatimizni rivojlantirishga sezirarli hissa qo‘shgan arboblarning bu yo‘ldagi chekkan zahmatlarini o‘qib o‘rganish – biz yoshlarning asosiy burchimizdir.

“Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha: جديد jadīd – yangi) – XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakatdir.[2]

Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi tarixi. T.: „Fan“, 1993.

O‘zbek jadidlari oddiy xalq ongini, haq – huquqi va ilmini rivojlantirish yo‘lida mustabid tuzum bilan kurashlar qilishgan. Xususan, san’at va madaniyat rivoji uchun sezirarli darajada hissa qo‘shgan, o‘zbek tarixchisi, filolog, tarjimon, yozuvchi, dramaturg va shoir, zamonaviy o‘zbek tili va adabiyoti asoschilaridan biri, O‘rta Osiyo jadidchiligining taniqli vakili, birinchi o‘zbek professori(1926), jadidchilik milliy ma’rifatparvarlik harakatining tarafdori bo‘lmish – Abdurauf Fitrat shular jumlasidandir. Klassik musiqaning rivojlanishi va asrlar osha o‘z ahamiyatini yo‘qotmasdan kelajak avlodga yetib kelishida jadidlarning, xususan, Abdurauf Fitratning faoliyati ahamiyatlidir. Sababi, Abdurauf Fitrat madaniyat, musiqani rivojlantirish, ota – bobolarimiz aytgan ashula va kuylarni yoshlarga yetib kelishida jonbozlik ko‘rsatgan. “O‘zbek klassik musiqasi tarixi” kitobi, “O‘zbek musiqasi to‘g‘risida” kabi qator maqolalar muallifi bo‘lib, adabiyot, she’riyat bilan bir qatorda o‘zbek mumtoz musiqasining saqlanib qolishiga ham o‘z hissasi qo‘shgan.

“Fitratning san’atshunoslikka oid xizmatlari tahsinga sazovordir. U 1921-yil Buxoroda Sharq musiqasi maktabini tashkil etib, bu maktabning birinchi direktori lavozimida ishlaydi. Maktabga mumtoz musiqa bilimdonlari (sozanda, xonandalar) bilan birga Viktor Uspenskiy singari musiqashunoslarni ham taklif etdi. U shu vaqtdan boshlab “Shashmaqom” kuylarini to‘plash va notaga yozib olish ishlariga rahbarlik qildi. Fitratning tashabbusi bilan ota Jalol va ota G‘iyosdan Buxoro Shashmaqomi V. Uspenskiy tomonidan ilk bora notaga olinib, nashr etildi. Fitrat “Shashmaqom”, “O‘zbek musiqasi to‘g‘risida” maqolalari va “O‘zbek klassik musiqasi ham uning tarixi” (1927) risolasi bilan XX asr o‘zbek musiqashunoslik fanini boshlab berdi.”[3]

Ushbu kitobda o‘zbek musiqasi, yo‘nalishlari, maqom turkumlari, usullar, sharq va g‘arb musiqasi haqidagi mulohazalari, umuman olganda o‘zbek milliy kuylaridagi

tovush va pardalardan tortib to turkiy xalqlar musiqasi haqida ma’lumotlar berilgan. Xususan, har bir maqomning cholg‘u(mushkilot) va aytim(nasr) qismlari va ularning sho‘balarigacha ma’lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari ushbu asarda o‘zbek milliy cholg‘ulariga ham ta’rif berilgan bo‘lib: tanbur, rubob, dutor, qo‘buz – qovuz, chang, g‘ijjak, nay, qo‘shnay, surnay, balabon, karnay, doira, nog‘ora cholg‘ulari haqida ma’umotlar keltirilgan. Abdurauf Fitrat o‘zbek klassik musiqa va uning tarixi haqida izlanishlar olib borar ekan, o‘zbek musiqasining o‘ziga xos mahalliy uslublari va ularning turlichaligiga ham izoh bergan. Bunda har bir mahalliy uslubga yondashishda, o‘sha hududning ilmli kishilari va mashhur sozandalari, xonandalari ma’lumotlaridan foydalangan. Ustoz har bir yig‘ilgan ma’lumotni manbaasini ham ko‘rsatib o‘tgan bo‘lib, ushbu ma’lumotlar kim tilidan yozib olingani va bu shaxs qanday faoliyat bilan shug‘ullanishi haqida ham ma’lumotlar kiritilgan.

Asarda “Musiqamizning tarixiga bir qarash”nomli turkiy musiqaning tarixiy o‘rganilishi bo‘yicha tarixiy, tahliliy xulosalar keltirilgan. Bunda arab istilosidan tortib to Xorazm tanbur chiziqlarining ixtiro qilinishigacha bo‘lgan o‘zbek musiqasining rivojlanish tarixi, Amir Temur davrida musiqaga bo‘lgan e’tibor va Navoiyning turkiy musiqa va kuylarga bergan tahliliy fikrlari yozilgan.

Xulosa o‘rnida ustozning “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” kitobidan so‘ng so‘zni keltirib o‘tsak: “Ovro‘pa musiqasi o‘zining eng keyingi davrig‘a borib yetkan. Bundan ilgari bora olmaydi. Ovro‘pa musiqa olimlari o‘z ishlarini ilgari bostirishqa tirishadirlar, turli yo‘llar tushunib axtaradirlar. Ko‘blari bizning sharq musiqiyimizg‘a murojaat qilib, shuning asoslaridan foydalanishdan boshqa chora qolmag‘anin so‘ylaydirlar”, – deb, ushbu fikriga izoh qilib, “Bularni Rusiya San’at Akademiyasining haqiqiy a’zosi professor Belyayev e’tirofig‘a tayanib aytaman” deb yozganlar[1,b.52].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – T.: Fan, 1993, B.5
2. «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati», 1987, 11 – dekabr (tabdilchi N. Karimov)
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Jadidchilik#cite_ref-EL_2-0
4. Adib Xolid. O‘zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob. Toshkent Akademnashr 2022 – 60 bet. ISBN 978-9943-7575-4-7.

Zariyev Javohir Ural o‘g‘li,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi

O‘ZBEK MA’RIFATINING YALOVBARDORLARI YOXUD BUYUK JADIDLARIMIZ

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek ma’rifatchiligiga va madaniy muhitiga hissa qo‘shgan jadidlar faoliyatini qisqacha yoritib o‘tamiz. Shuningdek, ularning jamyatdagi qaysi sohaga qay darajada o‘rin tutishi ham alohida e’tibor markaziga olinadi. Hamda ularning merosini o‘rganish orqali O‘zbekistonda jadidlar qatlamidek buyuk yoshlar qatlamini kashf etish ham ko‘zda tutiladi va buning natijasida O‘zbekistonda uchinchi renessansni yaratish ezgu maqsadligi aytib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *Jadidlar, yalovbardorlar, ma’naviy muhit, uchinchi Renessans, sharq dunyosi.*

Annotation. *In the article, we briefly describe the activities of the moderns who contributed to Uzbek enlightenment and cultural environment. In addition, special attention is paid to their place in the society. Also, through the study of their heritage, it is envisaged to discover a great youth group in Uzbekistan, like the generation of the ancients, and as a result, the noble goal of creating a third renaissance in Uzbekistan is mentioned.*

Key words: *Antiquities, patrons, spiritual environment, third Renaissance, Eastern world.*

Jadilar! Bular kimlar o‘zi?! Bu siyosiy qatlam shunday ilm sohiblaridan tuzilganki, ular XIX asr oxiri XX asr boshlarida ilm-ma'rifat, ta’lim, madaniyat qolaversa, erkinlik go‘yalarini targ‘ib qilish bo‘yicha musulmon olami va sharq dunyosida bamisoli po‘rtanadek otilib chiqdi. Hamda shu davrdagi ma'naviy soha va ta'lim tizmiga hatto siyosiy sohaga ham ulkan hissa qo‘shdi. Hozirgi kunga kelib, muhtaram Prizidentimiz tomonidan xalqimiz baxt-saodati va vatanimiz mustaqilligi yo‘lida o‘z jonlarini fido qilishgan buyuk jadid bobolarimizning ilmiy, ma'rifiy va adabiy merosini saqlab qolish yo‘lida juda ko‘plab say-harakatlar olib borilmoqda. Bu harakatlarning tag zamirida esa, yoshlarimizga marifatparvar jadidlarimiz haqida ko‘proq ma'lumot berish, ularning boy tarixiy merosini chuqur o‘rganish kabi g‘oyat ezgu vazifalar yotadi. Bundan tashqari, biz ularning ilmiy xazinasini o‘rganish orqali davlatimiz rahbari ilgari surgan “Yangi Ozbekistonda Uchinchi Renessans” goyasining ildizlari aynan shu jadidlar harakati hamda IX-XII aslarda yashab o‘tgan yetuk allomalarimizga borib tarqalishini bilib olishimiz mumkin. Keling, ma’rifatparvarlarimizning hayoti hamda ijod yo‘llariga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Samarqanddagi jadidlar harakatining eng yirik namoyondalaridan biri hamda “O‘rta Osiyo jadidlarining otasi” deya nom olgan Mahmudxo‘ja Behbudiydir. Behbudiy Turkistonda ma’rifat va erkinlikning ilk yalovbardorlaridan edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy serqirra istedod sohiblaridan biri

bo‘lib, u pedagogika, jurnalistika, noshirlik va siyosat sohalarini juda yaxshi bilar edi. Hatto, shu davrdagi siyosatchi hamda davlat rahbarlaridan biri Fayzulla Xo‘jayev Behbudiy haqida shunda yozib qoldirgan edi: “Siyosiy, ijtimoiy faoliyati va bilimlarining kengligi jihatdan Turkistonning o‘sha vaqtdagi jadidlardan unga teng keladigani yo‘q deb o‘ylaman”. Darhaqiqat, Behbudiydek dunyoni zamondoshlaridan ko‘ra ko‘proq anglay olgan bobomizning hayoti va faoliyat yo‘lini chuqur o‘rganishimiz darkor. Keyingi ma’rifatparvar bobokalonimiz bu Munavvar qori Abdurashidxonovdir. U insonning hayot yo‘li va ma’rifat nurlarini o‘rganish barchamiz uchun manfaatli bo‘ladi.

Chunki, Munavvar qori Abdurashidxonov nafaqat o‘zi kabi munavvar bo‘lgan ilm nurlarini qolaversa, islomiy hayot sirlari haqidagi o‘gitlarini ham meros qoldirgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Munavvar qori Toshkentning Shayx Xovandi Tohur dahasida tug‘uladi. Ilk bilimlarini onasi Xosiyatxon ayadan o‘rganadi. Onasi esa, o‘z davrining o‘qimishli, ilmli va fozila ayollaridan biri bo‘lib, barcha farzandlarini ilmli qilib voyaga yetkazadi. U 15 yoshga to‘lganda hadis va fiqh sohasidagi ilm peshvolaridan biriga aylanadi. U jadid namoyondalari ichida shunday bir buyuk shaxsga aylandiki, Toshkentda uni tanimaydigan va bilmaydigan odam yo‘q edi. Turkistondagi ta‘lim va madaniyatning beshigi hisoblangan Toshkentda yana bir mashhur jadid bobomiz Abdulla Avloniy tavallud topgan. Avloniyning tarix va jadidlar harakati oldidagi xizmati benihoya ulkan va mazmunlidir. U jadidlarning o‘qitish va ta‘lim tizmidagi yangi maktablar yaratish sohasiga behisob hissa qo‘shish bilan bir qatorda jadid maktablari uchun “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Tarix” kabi o‘quv darsliklarini yaratdi. Hamda o‘zi ham uzoq yillar mobaynida sharafli kasblardan biri bo‘lgan o‘qituvchilik bilan shug‘ullandi. “Abdulla Avloniy o‘z davrida kishilarda va yosh avlodda chin axloqiy xissiyotlarni tarbiyalashi istadi. U ta’lim va tarbiya, ilm va ma’rifat olish yo‘li orqali vatandoshlarining baxtli va saodatli bo‘lishini orzu qildi”, – deya yozgan edi, akademik yozuvchimiz Maxsumov. Mana shu so‘zlarning o‘zi Avloniyning millat kelajagi haqida qay darajada qayg‘urganligining yaqqol misoli hisoblanadi. Endi esa, yoshlik chog‘laridan ilm olishga ruju qo‘ygan aytish joiz bo‘lsa, jadidlar qatlamining eng “mitti jadidi” deyish mumkin. Nega aynan Abdulhamid Cho‘lponga bu nomni berdik? Kening, faktlarga yuzlanamiz. Jadidlar harakati eng yuqori pallaga 1910-yil siyosiy tusga kirgan payt Abdulhamid atiga 13 yoshda edi.

U yosh bo‘lishiga qaramasdan millat marifatini uyg‘otish yo‘lida hech qachon bosh ekmadi va chekinmadi. Abdulhamid Cho‘lpon shaxsiyatiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, u adabiyotga mehr qo‘ydi. Shu orqali butun bir xalq hatto insoniyat uchun o‘lmas asarlar yaratdi. Darvoqe, Cho‘lponning “adabiyot yashasa millat yashaydi” degan jumlasi barcha millatlar uchun adabiy chaqiriqqa aylandi. Alloh bergan tug‘ma iste’dod va yaratuvchanlik qobiliyati ma’nosini anglatuvchi Fitrat taxallusini olgan Abdurauf Abdurahim o‘g‘li azim Buxoro shahrida tug‘uladi. Abdurauf Fitrat Buxoro shahridagi

eng bilimli va qobiliyatli jadidlarning biri edi. Fitrat dastlab o‘z mahallasidagi maktabda, so‘ngra Mirarab madrasasida tahsil oladi. Bu yerda olgan bilimlari Fitratda shoirlikka muhabbat tug‘dirdi. Natijada, uning yozgan she’rlari insonlar qalbida abadiy muhrlandi. Bu esa Fitratning Buxorodagi reputatsiyasiga ijobiy tasir ko‘rsatdi.

Xulosa qilib aytadiganda, millatimizning bunday ma’rifatli qatlami umrining oxirgi daqiqalarigacha xalq dardini o‘z dardi sifatida bilishdi va mavjud tuzumga qarshi ham manaviy ham siyosiy jihatdan mardonavor kurashdi. Zero, ular o‘z maqsadlariga mutasib tuzum sababli erisha olmagan bo‘lsada, ularning ezgu amallari mangu xotiramizda qoladi. Shu jumladan, biz ularni faqatgina xotiralarimizda saqlamasdan, ularning manaviy xazinasini boyitishga o‘z hissamizni qo‘shaylik. Zotan aynan shu harakatlarimiz O‘zbekiston uchinchi renessansini yaratishga poydevor bo‘lsin!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Avloniy
2.https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Mahmudxo%CA%BBja_Behbudiy
3. https://oliymahad.uz/36485
4. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Jadidchilik

III SHU’BA
MARKAZIY OSIYO XALQLARINING MA’NAVIY-MA’RIFIY, MADANIY TARIXINI ILMIY O‘RGANISH MASALALARI

Musallam Abdujabbarova,
O‘zDSMI dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi
Xolbek Haydarov,
O‘zDSMI o‘qituvchisi

O‘ZBEKISTON BADIIY MADANIYATI RIVOJIDA MILLATLARARO MUSHTARAKLIKNING ROLI

Annotatsiya. *Maqolada, O‘zbekiston xalqining badiiy xalq madaniyatiga turli millat ziyolilarining qo‘shgan hissasi va ularning o‘rni haqidagi ma’lumotlar berilgan. Ayniqsa, o‘zbek xalqining xalq ijodiyoti, an’anaviy teatri, qo‘g‘irchoq teatri, sirki, folklor an’analarini rivojlanishida tutgan o‘rni turli manba va adabiyotlardagi ma’lumotlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan turli millat ziyolilarining O‘zbekiston badiiy madaniyatidagi faoliyati ham o‘rganilgan. Respublikada faoliyat olib borayotgan turli millatlar folklor jamoalarining ishlari ham tadqiq qilingan.*

Kalit so‘zlar: *turli millatlar, mushtaraklik badiiy madaniyat, xalq ijodi, teatr, qo‘g‘irchoq teatri, san’at, tahlil, xulosa.*

O‘zbekiston Respublikasida yuzdan ortiq millatlar istiqomat qilishadi. Ushbu millatlar orasida tatarlar, qozoqlar, qirg‘izlar, tojiklar, barcha turkiy xalqlar kabi o‘zbeklarga tili yaqin, dini bir, an’ana va marosimlari o‘xshashdir. Hozirda Respublikada barcha millatlar milliy madaniyat markazlari o‘z faoliyatlarini olib borish bilan bir qatorda O‘zbekistondagi siyosiy va iqtisodiy jarayonlarda qatnashishi bilan birga, madaniyat va san’ati rivojiga ham o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

Jahon tarixi va islom olamida o‘ziga xos o‘rin tutgan xalqlar (tatarlar, o‘zbeklar, qozoqlar, qirg‘izlar, turkmanlar)ning tili, dini va etnik mansubligi bir bo‘lganligi, kelib chiqishi va tarixi ham o‘zviy bog‘liq ekanligi juda qadimdan ularning ma’naviyati, madaniyati, san’ati, qadriyatlari va urf-odatlari, qolaversa badiiy madaniyati an’analarining ham mushtarakligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib keldi.

Masalan, XIV asrlardan boshlab tatarlar O‘zbekiston hududiga kirib kela boshlagan. Ular haqida turli tarixiy manbalarda ko‘plab ma’lumotlar mavjud. Ispan elchisi Klavihoning estaliklarida ma’lumotlar berilgan. Buxoro va Samarqand madrasalari, boy kutubxonalari turkiy xalqlar, jumladan, tatarlar uchun ilm-fani, madaniyat va ma’rifat o‘choqlari, sharq qo‘lyozmalari durdonalarining markazi,

mashhur ulamo va fuzalolar yurti sifatida juda qadrli bo‘lib, ularning bilimga chanqoq vakillari shu yerda ta’lim olib, kamolga yetishgach, o‘z yurtlarida mudarris, muftiy va boshqa mas’uliyatli vazifalarda xizmat qilar edilar. Butun Volga va Ural bo‘yi mintasidagi madrasalarning asoschilari Buxoro madrasalarining bitiruvchilari edi[1]. Bular jumlasiga Abu Nosir Kursaviy (1776-1812), Shahobiddin Marjoniy (1818-1889)larni misol tariqasida keltirish mumkin.

Tatar savdogarlari esa savdo ishlari uchun kelishgan. Masalan, 1740-yilda Toshkentga kelgan tatar savdogari Shubay Arslonov, 1794-yilda Burnashev, 1829-yilda Qo‘qonga kelgan B. Shafeyev, T. Smagilov, G. Zubarev kabi tatar savdogarlarini misol tariqasida keltirish mumkin. Shuningdek, O‘zbekiston hududida tatarlarning No‘g‘ayqishloq, No‘g‘ay mahallalari vujudga kelgan. Bu haqda, Qo‘qon tarixchisi Muhammad Aziz Marg‘iloniyning “Tarixi Aziziy” va tatar tarixchisi Qurban Ali Ayaguziyning “Tavorihi hamsai sharqi” nomli asarlar ko‘plab ma’lumotlar berilgan.

Tatar madaniyatining O‘zbek xalqi madaniyati bilan assimilyatsiyalashuvi ham kechgan. Jumladan, O. Suxareva, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent va Samarqand ayollari orasida tatarcha uslubdagi milliy kiyimlar, oyoq kiyimi mashhur bo‘lgan. 1902-yilda Yangi Buxoroda Mulla Nur Vohidov nomidagi tatar maktabi ochilgan.

O‘zbek qo‘g‘irchoq teatridagi qo‘g‘irchoqlar orasida tatar Do‘htir Botirshin qiyofali qo‘g‘irchoq XX asr boshlarida o‘zbek bolalari orasida mashhur bo‘lgan. Uning boshida pastakkina kungara oq jun telpak bo‘lib, ustida harbiy mundir, belini qizil tasma bilan bog‘lab, ustidan zar jiyakli qora kamzul kiyib olgan. Yuzi jigarrang, soqol-mo‘ylovi, qoshlari oqargan, yashil ko‘z. Unga qarab tutib millatini, mansabini, xarakterini bemalol ajratib olsa bo‘ladi: harbiy mansabdor, xarakteriga ko‘ra badjahl va sovuqroq, lekin aslida mehribon va zahmatkash odam[2]. Shubhasizki, bu qo‘g‘irchoq tarixiy shaxsni gavdalantirgan. 1907-yilda R.A. Komarov tomonidan yozilgan qo‘g‘irchoq ta’rifida do‘xtir Botirshin hali hayot bo‘lgan. Demak, o‘zi hayotligidayoq qo‘g‘irchoq teatri personajiga aylangan. Qisqasi, Botirshinning tarixiy shaxsligi, uning vrachlik qilganligi sir emas. Biroq, uning Turkistonga qanday kelib qolganligi va nima sababdan qo‘g‘irchoq teatri personajiga aylanganligi muammo bo‘lib kelayotgan edi. Ana shu muammoni kuchimiz yetganicha yechishga urindik. Tarixiy manbalarda, Muhammad Botirshin (1833 – 1912) 1858-yilda fligel-adyutant, polkovnik N. Ignatov raxbarligida Xivaga kelgan rus missiyasiga tarjimonlik qilgan, shu bilan birga, doktorlik ham qilgan[3].

---

1 Хабутдинов А.Ю. Медресе мусульман округа Оренбургского магометанского духовного собрания как общенациональный университет // Pax Islamica/ XX09. № 1(2). – 73.

2 Қодиров М., Қодирова С. Қўғирчоқ театри тарихи. – Тошкент: Талқин, 2006. – Б. 70

3 Игнатов Н. Миссия в Хиву и Бухару в 1858 г. СПб, 1897. – С. 13; Шодмонова С. Первый городской врач Туркестана М.Х. Батыршин: штрихи к портрету // “Гасырлар авазы – Эхо веков”. № ½, 2014. – С. 232-236.

1867-yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgach, u Toshkentga kelgan xamda tilmochlik va tabiblik faoliyatini davom ettirgan. U mahalliy aholi orasida, ayniqsa, bolalarga mehribon bo‘lib, ularni davolashda xizmat qilgan. Shu bois, u o‘zbek bolalari orasida mashhur edi.

“Mayramxon sirki” deb nom olgan badiiy guruhning nomi tatar qizi Latofatxonning nomi bilan bog‘liqdir. Latofatxon Qo‘qon shahrida katta bo‘lgan bo‘lib, o‘zbek yigiti Azimjonga turmushga chiqqan. Azim cho‘qindi nomi bilan mashhur bu yigit xalq oldida “sirli sandiq” nayrangini ko‘rsatsa, Mayramxon “Ufori”, “Qandi navo”, “Mavrigi”, “Dilhiroj” kabi xalq raqslarini namoyish qilib, tomoshabinlarni lol qoldiradi. Kelishgan qaddi-qomatiga yarasha atlas yoki harir shohi ko‘ylak, uning ustidan zarrin kamzul yoki nimcha kiyib, boshiga durra bog‘lab olgan bu shahlo ko‘z, bodom qovoq, qora soch, oqbadan, gajakdor juvonni, bu shirinso‘z, nazokatli, iste’dodli raqqosani hamma o‘zbek xotin-qizlari ham yaxshi ko‘rib qolgan edi[1].

Teatr san’ati Turkiston xalqlari orasida keng tarqalishida tatar ma’rifatparvarlari va teatrshunoslarning hissasi katta xisoblanadi. Bu borada o‘zbek teatr namoyondalarining tatar teatr san’ati vakillari bilan yaqindan hamkorlik qilishgan. X. L. Kumisnikovning yozishicha, tatar professional teatrining paydo bo‘lishi va uning shakllangan davri 1905-yilga to‘g‘ri keladi. 1906-yilda tatar milliy teatri tashkil topgan. Joriy yil 22-dekabrdan o‘z gastrollarini boshlagan. Ular keyinchalik Turkistonga birinchi bo‘lib tatarlarning mazkur teatr truppasi tashrif buyurgan. Turkistonning yirik shaharlarida “Baxtsiz kuyov”, “Uch xotin bilan turmush”, “Xo‘ja va g‘ulom”, “Uyam yoki ko‘z yoshi” kabi sahna asarlarini qo‘ygan[2].

Tatar teatrida ayollarning ishtiroki o‘sha davr uchun muhim hodisa hisoblanib, boshqa turkiy xalqlar madaniy hayotida xotin-qizlar orasida bu darajada ijtimoiy faollik kuzatilmagan edi. Fikrimizcha, tatar ayollari o‘rtasidagi bunday faollikning o‘sishida, ularning Yevropa madaniyatiga yaqinligi va bu borada tatar dramaturglarinigg ham o‘ziga xos hissalari katta bo‘lgan. Shunday dramaturglardan biri Fotih Amirxon bo‘lib, uning ijodidagi asosiy g‘oya – tatar ayollarining taqdiri masalasi hisoblanagan. O‘zbek teatri rivojiga hissa qo‘shgan tatar aktrisalaridan Saodat Yenikeyeva, Sohibjamol Izzatullina-Voljskaya, Fahriya Kudasheva, Faxriniso Samitova, Ummigulsum Bolgarskaya kabi aktrisalarning nomlarini keltirish mumkin.

1917-yil voqealaridan keyin esa O‘zbekiston xududida tatar tilida bir nechta gazeta va jurnallar nashr etilgan. Tatar milliy kutubxonalari, professional teatrlari, tatar maktablari uchun o‘qituvchilar tayyorlaydigan o‘quv instituti mavjud edi. Bu davrda yozuvchilar xonasida bir necha o‘nlab tatar yozuvchilari ham istiqomat qilishgan.

---

[1] Қодиров М. Масҳарабоз ва қизиқчилар санъати (Фарғона анъанавий театри). Тошкент: Фан, 1971. – Б. 94.

[2] Рахмонов М. Ҳ.Ҳ. Ниёзий ва ўзбек совет театри. – Тошкент: Ўздавнашр, 1959. – Б. 62.

Tatar teatri jamoasi Turkistonda sahna asalarini qo‘yar ekan, Ularining e’tibori o‘zbek xalq badiiy madaniyati namunalariga tushdi. 1922-yilda yosh tatar dramaturgi Burnash Patxiy “Tohir va Zuhra” asarini inssenarovka qilib chiqdi. Asar 2-mart kuni Toshkentdagi “Kolizey” binosida sahnaga qo‘yilgan. Biroq, bu spektakl yevropacha uslubda sahnaga qo‘yilgani tanqid qilindi. Muallifga sahnada qo‘yilayotgan asar qaysi millat urf-odat va turmush tarziga xos bo‘lsa, shu tarzda aks ettirilishi lozimligini ta’kidlangan. Tatar ijodkorlari bu spektakl ustida bir yil ishlab 1923-yil 2-oktabrida “Kolizey” teatr binosida qayta qo‘yilgan. Mazkur namoyish haqida “Turkiston” gazetasida e’lon qilingan maqolada, pyesaning qayta namoyishida ancha joylariga o‘zgartirishlar kiritilganligi muvaffaqiyat garovi bo‘lganligi qayd etilgan. 1924-yil 18-noyabrida “Yusuf va Zulayho” qissasi Toshkentdagi “Xalq dumasi” binosida Turkistonda safarda yurgan teatr truppasi tomonidan qo‘yilgan.

XX asrning 90-yillarda O‘zbekistonda Tatar jamoat markazi (Toshkent), milliy madaniy birlashmalarning tatar nashri (Olmaliq, Buxoro), O‘zbekistonda “Yashlek”, “Leysan” (Olmaliq), “Beznen Miras” (Toshkent), “Shatliq” (Samarqand) kabi tatar xalq ansambllari faoliyat olib bormoqda. Toshkent shahrining markaziy ko‘chalaridan biriga atoqli tatar shoiri Abdulla To‘qay nomi berilgan.

O‘zbekistonda badiiy madaniyatning rivojiga tatarlardan san’atshunos olim, akademik M. Bulatov, me’mor X. Muxamedshin, haykaltarosh CH. Axmarov, san’anshunoslik fanlari doktori, professor R. Taktash, SSSR xalq artisti G. Izmaylova, xalq artisti V. Axmadeyev, badiiy filmlar rejissyori R. Batirov, kinodramaturg A. Agishev, kompozitor R. Vildanovlarning hissalari kattadir.

Mustaqil O‘zbekistonda badiiy xalq madaniyatida tatar xalqi an’analarining davom etishi, ikki qardosh xalqning bir-biriga yaqin va do‘stlik munosabatlariga katta ta’sir qilmoqda. O‘zbekistonda barcha millatlarning folklor jamoalari qatorida tatar an’anaviy folklor jamoalari ham faoliyat olib borishmoqda. Jumladan, Farg‘ona viloyati Quvasoy shahridagi “Ak chechaklar” bashqirt -tatar folklor xalk ansambli 1986-yildan beri faoliyat yuritib kelmoqda. Shuningdek, 2013-yilning fevral oyida Toshkent shahar tatar madaniy-ma’rifiy markazining Sergeli tumani filiali negizida tatar xonandasi – Buxarova Maryam Sharifulovna boshchiligida “Izge nur” tatar folklor-etnogrfik ansambli tashkil etilgan. “Izge Nur” ansambli jamoasi 15 kishidan iborat bo‘lib, ular ansamblga qo‘shilishdan oldin turli kasblarda faoliyat olib borishgan. Ularning aksariyati o‘qituvchi va shifokorlardir. Biroq ular xalq folklor ixlosmandlaridir. Jamoa a’zolarining o‘rtacha yoshi 55-80 yoshdir.

“Izge Nur” folklor ansamblining vazifasi tatar xalqining tili, madaniyati, urf-odat va an’analarini asrab-avaylash, shuningdek, yosh avlodni tarbiyalash hamda tatar folklorining asoslarini, xalq klassikasi durdonalarini, xalq musiqa merosini o‘rganishdan iborat.

“Izge Nur” jamoasi Toshkent viloyati ta’lim va madaniyat markazlarida o‘tkaziladigan barcha tadbirlarda, shuningdek, o‘zbek xalqining bayramlarida, Mustaqillik kuni kabi tadbirlarning doimiy ishtirokchisi xisoblanadi. Shuningdek, bu ansambl O‘zbekiston telekanallari, jumladan, “Dune buylab”, “Madaniyat va ma’rifat” va boshqa telekanallarida namoyish etilayotgan ko‘plab teleko‘rsatuvlarida qatnashadi, radiodasturlarni yozib olishda ishtirok etadilar. “Izge Nur” jamoasi o‘z repertuarini doimiy ravishda kengaytirib, yangilab boradi, yangi qo‘shiq va pyesa kompozitsiyalarni o‘rganadilar. Ular har bir chiqishga puxta tayyorgarlik ko‘rishadi, faqat mana shu maftunkor ijrochilarga xos bo‘lgan asarga "shifo" qo‘shib, tomoshabinlarni yana bir bor o‘z chiqishlari bilan hayratga solish uchun yangi liboslarning har bir detalini o‘ylab ko‘rishadi. Ansamblning o‘zining musiqiy rejissyori-ssenariy muallifi, vokal o‘qituvchisi va xoreografi xisoblanadi. Sabantuy tatar-boshqird bayrami, O‘zbekistondagi tatar xalqining tili, madaniyati va san’atini rivojlantirishga qo‘shgan ulkan hissasi uchun “Izge nur” ansambli turli darajadagi diplomlar, badiiy jamoa raxbari Maryam Buxarova 2015 yilda Butunjahon tatar kongressining medali bilan taqdirlangan. O‘zbekiston Respublikasida tatar tili, urf-odatlari, madaniyati va tatar xalqining tarixini saqlash va rivojlantirishga qaratilgan ishlarga qo‘shgan ulkan hissasi uchun M.SH. Buxarova Tatariston Respublikasi Prezidenti R. Minnixanov tomondan taqdirlangan.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan Marat Hakimov faoliyati davomida u tatar madaniyat markazi tomonidan o‘tkazilgan barcha yirik tadbirlarda faol ishtirok etadi. U 2018-yilda “Sabantuy”, Toshkentdagi eng yaxshi saroylardan biri “Turkiston”da tatar tili, san’ati va Tatariston kuniga bag‘ishlangan tadbir o‘tkazdi. 2016-yilning 23-oktabr kuni Tataristonda o‘tkazilgan “Dunyo xalqlari qo‘shiqlari” nomli yakkaxon konsertini o‘tkazdi.

“Sabanto‘y” – bu tatar xalqining an’anaviy to‘ylaridan biridir. Shu to‘y 2017, 2019-yillarda Toshkentdagi Mirzo Ulug‘bek parkida keng miqyosida o‘tkazildi. Unda nafaqat tatarlar, balki butun O‘zbekistondagi boshqa xalqlar ham bu tadbirda qatnashdilar. O‘zbekiston Respublikasi va Tatariston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist Marat Hakimov, Boshqirdistondan F. Xaldarov, Tatariston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist R. Bikbulatova, Tatariston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi R. Mannyapova, Tatariston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi R. Gizatullina, mashhur xonandalar M. Buxarova, R. Gainanov, Z. Maqsudov, I. Gimranova, G. Adigamova, K. Baxtiyarova va boshqalar hamda “Yashlek”, “Izge nur”, “Laysan”, “Miras”, “Duslik”, “Xandugastar”, “Agidel” va boshqa tatar folklor-etnogrfik jamoalari o‘zi chiqishlari bilan qatnashdilar.

Ma’lumki, barcha millat vakillari va o‘zbek xalqi azaldan yonma-yon, o‘zaro qo‘shnichilikda, yaqin munosabatda yashab kelishgan. Bu do‘stlik xoh Volga va Ural bo‘ylarida, xoh Markaziy Osiyoda bo‘lsin doimo hamfikrlikda, totuvlikda, qadimdan to

shu kunlargacha davom etib kelmoqda. Bugungi kunda ko‘pmillatli O‘zbekiston diyorida barcha millatlar o‘z an’ana, urf-odatlari milliy xalq ijodi, badiiy xalq san’atlari bilan o‘z o‘rniga ega bo‘lib, ular yurtimizda o‘tkazilayotgan davlat tadbirlarida o‘zlarining milliy xalq-etnografik jamoalari chiqishlari bilan o‘zbek xalqining olqishlariga sazovor bo‘lib kelmoqdalar. Ular jamoat va davlat siyosatini o‘zbek xalqi bilan birgalikda amalga oshirmoqdalar. Bir so‘z bilan aytganda, barcha millat vakillari o‘zgarayotgan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyotiga birga qadam tashlashmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xabutdinov A.Y. Medrese musulman okruga Orenburgskogo magometanskogo duxovnogo sobraniya kak obshenatsionalniy universitet // Pax Islamica/ XX09. № 1(2). – 73.
2. Qodirov M., Qodirova S. Qo‘g‘irchoq teatri tarixi. – Toshkent: Talqin, 2006. – B. 70
3. Ignatov N. Missiya v Xivu i Buxaru v 1858 g. SPb, 1897. – S. 13; Shodmonova S. Perviy gorodskoy vrach Turkestana M.X. Batirshin: shtrixi k portretu // “Gasirlar avazi – Exo vekov”. № ½, 2014. – S. 232-236.
4. Qodirov M. Masharaboz va qiziqchilar san’ati (Farg‘ona an’anaviy teatri). Toshkent: Fan, 1971. – B. 94.
5. Raxmonov M. H.H. Niyoziy va o‘zbek sovet teatri. – Toshkent: O‘zdavnashr, 1959. – B. 62

Ibrohim Abdurahmonov,
San’atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

O‘ZBEKISTON TASVIRIY VA AMALIY SAN’ATIDA MIFO-EPIK HAMDA FOLKLOR MAVZULAR TALQINI

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston tasviriy va amaliy san’atida mifo-epik hamda folklor mavzularning vujudga kelishi, taraqqiyot bosqichlari va rivojlanish dinamikasi atroflicha tahlil qilingan. Unda mavzu doirasidagi masalalar qadimgi zamonlardan o‘rta asrlarga qadar bo‘lgan katta davr qamrab olingan.*

Tayanch tushunchalar: *mif, tasavvur, epos, petroglif, kandakorlik, haykaltaroshlik, primitivizm, terrakota, tumor, sfinks, xumo, grifon, metafora, shartlilik, ramz.*

Annotation. *Article Uzbekistan fine and applied arts mytho-epic Hamda folklore thematic study of culture, development of literature and analysis of environmental dynamics. While in other countries, such as India, it currently does not exist.*

Base concepts: *myth, imagination, epic, petroglyph, candor, sculpture, primitivism, terracotta, amulet, Sphinx, Humo, Griffon, metaphor, conditionality, symbol.*

Ajdodlarimizning dastlabki mifologik tafakkuriga oid sodda uslubda ishlangan tasvirlar – daralar, g‘orlar, qoyalar va toshlarga chizilgan suratlardagi turli marosim sahnalarida ifodalangan. Mezolit davriga oid bunday tasvirlar garchi san’at asari darajasida ishlanmagan bo‘lsada, ajdodlarimizning borliq haqidagi mifologik tasavvurlari sodda, primitiv shakllardagi ifodaviy talqinlari o‘z ifodasini topgan.

Zarautsoy suratlari shakli va mazmuniga ko‘ra qandaydir sehrli marosimlar ifodalangan bo‘lsa, ayrim petrogliflarda ramziy geometrik shakllar chizilgan. Sarmishsoy darasi qoyatosh suratlarida “Nur” mavzusi silliq, shishasimon toshga o‘yish uslubida ishlangan. Pastdan tepaga qarab rivojlanib borgan kompozisiyada odamlarning harakatlari bir mavzu, bir g‘oya atrofida birlashtirilgan. Eng pastdagi suratda tizzalab o‘tirgan odamning nur yoki olov chiqarish jarayoni, ikkinchisida mash’alani qo‘lida ko‘tarib ketayotgan kishi, keyingisi tandirda non yopayotgan inson tasviri, eng yuqorida quyosh va uning markazida qo‘lini beliga qo‘yib o‘tirgan qabila boshlig‘i qiyofasi ifodalangan. Pastdagi g‘aroyib jonzot ustida turgan odamlar boshidan yana uch qavatli ramziy tasvirlardan ajdodlarimiz zulmatni yoritgan quyoshni, nurni ulug‘lashlari va o‘z yo‘lboshchilarini ham quyoshday barchaga birdek yorug‘lik ulashuvchi zot sifatida ardoqlashganligini anglash mumkin. Suratlarning ba’zilarida mahalliy aholi e’tiqodiy qarashlari asosidagi Mirrix marosimlari tasvirlanganligi aniqlangan.

Miloddan avvalgi XX-VII asrlar – bronza davrida ilk shaharsozlik sivilizatsiyasi vujudga kelib, rangli metallardan yasalgan maishiy buyumlar, nozik taqinchoqlar shakli va bezagida ajdodlarimizning mifologik tasavvurlariga oid tasvirlar ishlangan. Bu davrlarda mifologik tasavvurlar doirasi kengayib, o‘tganlar ruhi bilan bog‘liq qarashlar ifodalana boshlangan. San’atda o‘troq holda yashovchi shahar madaniyati bilan birga ko‘chmanchi dashtliklarga xos hayvonlar tasvirlari yetakchilik qilgan. Miflarga oid dastgohli va terrakota haykallar asosan loy, tosh, marmar va suyakdan yasalgan. Oltin, kumush, mis va bronzali kichik terrakota haykallar qolipga quyish uslubida ishlangan.

Miloddan avvalgi oldingi II mingyilikdan boshlab tosh va bronzadan nafis buyumlar, tumorlar, muhrlar va ayollarning magik mavzudagi taqinchoqlari yasalgan. Bandixontepa, Jarqo‘ton, Qiziltepa harobalaridan topilgan sodda ko‘rinishdagi tosh va sopol haykalchalar, maishiy buyumlar ko‘rinishi va bezagida ajdodlarimizning mifologik tafakkuriga oid sharpasifat qiyofalar ifodalangan. Sopollitepadan topilgan bronza to‘g‘nog‘ichning tepa qismida tog‘ echkisi qiyofasidagi “hayvonot uslubi” nihoyatda oddiy shaklda hayotiy talqin qilingan. Bu davrlarda bronzadan yasalgan bejirim maishiy buyumlar, idishlar, taqinchoqlar shakli va bezagida ko‘chmanchi qabilalar e’tiqodiga oid lavhalar, syujet va voqeliklar sodda uslubda realistik talqin qilingan.

Miloddan avvalgi VI-IV asrlar- eron ahmoniylari davrida yurtimizda qurilgan binolar, saroylari devoriga o‘z davrida mashhur bo‘lgan “Odatida va Zariadna” afsonalariga mos syujetlar ishlangan. Miloddan avvalgi V asrga mansub Xorazmdagi Sulton-Uvaystog‘ obidasidagi kapitelda ikki tomonga qarab turgan odam boshi ko‘rinishi realistik talqin qilingan. Kapitel uslubiy jihatdan Persepol va Suza saroylariga monand ishlangan. Tosh ustundagi tasvirda odam yuzli qo‘y boshli g‘ayritabiiy mifologik qiyofa yaratilgan.

Miloddan avvalgi V-IV asrlar san’atida sak-skif qabilalarning “hayvonot uslubi”da ishlangan buyumlari va qimmatbaho sovg‘alari ishlanish texnikasi va badiiy uslubiga ko‘ra boshqalaridan ajralib turadi. Ammo, amudaryoning yuqori oqimidan topilgan “Amudaryo xazinasi” turkumidagi turli xil qimmatbaho buyumlar ichida sher boshi dastali tilla idish shahar madaniyatiga hos bezakdorlik, nafislik, aniq talablar asosida qat’iy tartibda saroy uchun ishlangan.

Antik davr san’atida ellinistik miflarga oid qahramonlar obrazlari hayotiy haqiqatga biroz yaqinlashtirilib talqin qilingan. Ellinizm an’analarida yunon miflari – Zevs, Afrodita, Afina, Eros, Nika, Silen va Satirning ko‘p sonli ravon-nafis timsollari san’at tarixida alohida o‘rin tutadi. Afsonaviy qahramonlar timsolida Gerakl, Romul va Rem tasvirlangan haykallar mahalliy aholi orasida mashhur bo‘lgan.

Antik (qadimgi) davr san’atidagi mifologik mavzularni shartli ravishda ikkita tarixiy bosqichga-ellinizm (miloddan avvalgi IV-II asrlar) va Kushon davri (I-IV asrlar)ga ajratib tadqiq etish mantiqan to‘g‘riroq. Antik davr san’atida ellinlar badiiy an’analari ta’siri o‘z izlarini qoldirgan. Yunonlar o‘zlari istilo qilgan barcha hududlarga G‘arb mifik qarashlar, urf-odatlar va dinlarini ham olib kirgan. Mifologik qahramonlarning timsollari mahalliy qiyofalarga o‘xshatib ishlanishi natijasida mahalliy aholi orasida ularning ta’sirchanligi oshgan. Uzoq davom etgan madaniy transformatsiya jarayonlari san’atda ham o‘z aksini topa boshlagan.

Milodiy I asrlardan Kushon podsholigi davri haykaltaroshligida yovuzlik, zulm va kulfat timsolidagi bahaybat maxluq – Baqtriyalik Zahhok timsoli marmarsimon ohaktoshdan ishlangan bo‘lib, mahalliy alomatlarga boy talqin qilingan. Zahhok dev tasviri o‘z mohiyatiga ko‘ra dualistik g‘oyalarni mujassamlashtirgan. Bunda haykaltarosh biroz mahalliy elementlarni kiritgan. Yuz, ko‘z, og‘iz va burunning holatida shunday xususiyatlar kuzatiladi.

Kushon podsholigi davrida mifologik mavzularga alohida e’tibor qaratiladi. Xususan, I-asrda hukmdorlar tomonidan zarb etilgan oltin tangalarda qo‘lida farovonlik «Moh» ilohi tasviri tushirilgan oltin tangada xudolarning odam ko‘rinishidagi qiyofaviy tasviri ko‘chmanchilar madaniyatiga hos oddiy, sodda, hayotiy va real uslubda talqin qilingan. Ammo, ayrim hollarda bir qator mahalliy xudolar-miloddan avvalgi I asrga oid Baqtriyaning qanotli “Xvanida” ilohi, Fayoztepadan topilgan alebastrli odam boshi ko‘rinishidagi quyosh ma’budining qiyofalari yunonlarga xos qatiy tartib asosida dekorativ uslubdagi talqinlari yaratilgan.

Kushon podsholigi davri san’atida mifologik mavzular turli badiiy shakl va uslublarda ifodalana boshlagan. Inson-hayvon-qush, (arslon) sher boshli, burgut qanotli, ba’zida tanasi sher yoki odamnikiga o‘xshash afsonaviy jonzotning bo‘rtma, o‘yma tasviri yoki haykalchalar ko‘rinishidagi va ularning badiiy bezagida aks ettirilgan. Bunday obrazlar san’at tarixida grifonlar deb ataladi. Vatanimizda grifonlarning uch xil ko‘rinishdagi tasvirlari ishlangan:

1. Sher grifon – qanotli sher ko‘rinishidagi tasvirlar.

2. Burgut grifon – burgut boshli, qanotli yirtqich qush tasvirlari.

3. Tanasi odamnikiga boshi qush yoki arslonnikiga o‘xshaydigan grifonlar kushon podshohligi davri san’atining o‘ziga xosligini asoslaydi. Unda tasvirlangan hayvon – yer, qush-osmon, inson esa ularning hukmdori, rahnamosi sifatida talqin qilinadi. Bularning barchasi olamning mohiyati uch negiz – yer, samo va tirik jonzotlardan iboratligini anglatadi.

Kushon podsholigi hududlarida buddaviylik bilan birga vujudga kelgan miflarga mansub obrazlar o‘ziga hos badiiy talqinlariga ega. Ayritom frizida «Parinirvana jataka» buyuk o‘lim afsonasi turkumidagi mifologik obrazlar ifodalangan. Rivoyatlariga ko‘ra, beshta buyuk musiqa asbobining ovozi vafot etgan Buddaga muloyim oxanglar bilan orom bag‘ishlagan, donatrislar esa uni oxirgi yo‘lga muattar gullar bilan kuzatganlar. Frizda uslubiy jihatdan Gandxara maktabi san’atiga xos afsonaviy lavha aks ettirilgan. Sh.R.Pidayevning aniqlashicha, Termiz shahridan uncha uzoq bo‘lmagan amudaryo tubidan topilgan I-II aslarga oid marmarsimon ohaktoshdan ishlangan frizdagi bo‘rtma tasvirda mazkur afsona mohiyati ifodalangan. Bu holat mahalliy aholining afsona mohiyatini anglashni osonlashtirgan.

Ilk o‘rta asrlar ko‘hna Sug‘d va Xorazm san’atida mifo-epik va folklor mavzular ifodalangan yodgorliklar o‘ziga hosligi bilan ajralib turadi. Sug‘d hududlaridan topilgan turli ko‘rinishdagi haykallar, maishiy buyumlar, devoriy tasvirlarning aksariyatida geometrik va o‘simliksimon ramzlar, afsonaviy qahramonlar, diniy, samoviy, antromorf, zoomorf va ornitamorf mavzular ifodalangan. Samarqand viloyati Toyloq tumanidan topilgan VII-VIII asrlarga mansub alebastrdan ishlangan odam boshi shaklidagi ossuariy qopqog‘idagi tasvir Sug‘d va Eron sosoniylari san’atining ta’sirida saroy madaniyatiga xos dekorativ uslubda talqin qilingan. Shuningdek, xalqa shaklidagi idishlar orasida qoshiqchali kosachalar, laganlar, tutqichli ko‘zalar, xumlar va ularni ishlashda qo‘llaniladigan qoliplar ko‘p topilgan. Ularning aksariyatida ilk o‘rta asrlar miflariga oid tasvirlar ishlangan bo‘lib, shakl plastikasi va uslubiy o‘ziga hosligi islomga qadar bo‘lgan tasvirlar tizimidan dalolat beradi.

VIII asrga oid Varaxsha saroyidagi ganchdan yasalgan frizlarda ikkita o‘ymakor sirrin haykalchasi bu borada boy ma’lumot beradi. Ulardan birida chap oyoqlarini oldinga qo‘yib, bir qator tizilishib yurib ketayotgan afsonaviy qushlar tasviri badiiy bezak sifatida ishlatilgan. Saroy devorlariga ganchda ishlangan ayol-qush tasvirlari garchi turli texnologiya va ashyolarda bajarilgan bo‘lsada, mohiyatan bir xil mazmunga ega.

Yirtqich jonzotlar mavzusi Varaxsha saroyi «qizil zal»idagi devoriy suratida grifonning tuyadagi chavandozga hujumi tasvirida mahalliy, xind-gandxara san’ati va eron eposiga hos qahramonlik mavzusi ifodalangan. VII asr oxiri VIII asr boshlariga oid mazkur lavha Ermitajda saqlanadi. Saroyning ganchli peshtoqida shoxli ilon-ajdahoning

o‘yma tasviri alohida qiziqish uyg‘otadi. Ushbu obraz mahalliy ko‘chmanchi qabilalar miflarida keng tarqalgan bo‘lib, keyinchalik o‘rta asrlar epik dostonlaridan ham o‘rin olgan.

IX asrga kelib Movarounnahr tasviriy san’atida badiiy, g‘oyaviy va uslubiy o‘zgarishlar ro‘y beradi. Tirik jonzotlar qiyofasini tasvirlamaslik g‘oyalari targ‘ib qilinishi oqibatida qadimdan davom etib kelayotgan mahobatli yodgorlik haykaltaroshligi va devoriy rasmlar asta-sekin barham topa boshlaydi. Keyinchalik umuman unutilishiga olib keladi. Ularning o‘rnini turli ramziy naqshlar egallaydi. Amaliy san’at turlaridagi bezaklar islom badiiy estetikasi shakllanish jarayonlarida muhim hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

IX–XII asrlar amaliy san’atida mifo-epik va folklor mavzulari ildizlari bevosita qadimgi va ilk o‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan samoviy, astral, zoomorf, antropomorf tasavvurlarga borib taqalsada, bu davrlarda arablar istilosidan keyin vaziyat tubdan o‘zgara boshlaydi. A.Hakimovning yozishicha, arab halifatligiga asos solingach, Movarounnahr hududlarida arab yozuviga o‘tiladi. Ularning ta’sirida o‘rta asrlarda mahalliy epos birmuncha rivojlanadi, lirik-romantik poeziyadagi miflarga oid obrazlar taraqqiy etishi bilan kinoya va metaforaning badiiy tili vujudga keladi. Mifologik mavzudagi ko‘plab obrazlar davr taqozosiga ko‘ra qayta mazmunlashtiriladi. Mahalliy xalq san’atida keng ommalashmagan, magik qarashlarga hech qachon aloqador bo‘lmagan ayrim ertakona mazmundagi yangi mavzular tizimi paydo bo‘ladi.

Tadqiq etilayotgan davrlarda san’at namunalaridagi asrlar davomida vujudga kelgan mifo-epik va folklorga oid tasvirlar mohiyati o‘zgaradi, naqsh elementlari bevosita islom estetik qarashlari asosida qayta mazmunlashtirilishi natijasida yangi g‘oyaviy talablarga javob beruvchi tasvirlar turkumi vujudga keladi. Mavzuga oid tasvirlar g‘oyaviy-estetik nuqtayi-nazardan turli badiiy yodgorliklar va maishiy buyumlar ko‘rinishi, shakli, ularning ichki va tashqi bezagida ifodalangan. Ammo ularni g‘oyaviy-badiiy tahlil qilish birmuncha murakkab jarayon. Bularning barchasi tasviriy va amaliy san’atda “O‘rta asrlar musulmonlik san’ati” nomli yangi badiiy uslub shakllanib, asta-sekin rivojlanishi uchun yaxshigina shart-sharoit yaratilganligini tasdiqlaydi. Shunday bir murakkab jarayonlarda ayrim hukmdorlar tomonidan qurilgan hashamatli saroylar, yangi qasrlar, mehmonxona va hammomlarning devorlariga dunyoviy mavzular bilan birga qisman mifologik lavhalar ham ishlanadi. XI asrda Termizshohlar saroyining qabul zali devoriga va peshtoqiga ishlangan ganch pannoda bir boshli ikki tanali devsifat g‘ayritabiiy jonzotlar ramziy tasviridan ajoyib kompozisiya hosil qilingan. Mistikaga oid tasvirda proporsiyalar aniq bo‘lib, eron sosoniylari davriga hos uslub qo‘llanilgan. Qoraxoniylar davriga oid Samarqand saroyi devoriga afsonaviy yirtqich hayvonning yugurib ketayotgan rangli tasviri nihoyatda nafislik bilan ishlanganligi shundan dalolat beradi. Ammo tasviriy san’atning mahobatli

haykaltaroshlik an’analari butunlay barham topadi. XX asr boshiga qadar haykaltaroshlikning oldingi mavqei tiklanmadi.

Amaliy san’at turlarida mavzuga doir tasvirlarni yaratishda ramzlar va majozlarning shartli tilidan foydalanilgan. Turli targ‘ibotlarga qaramay tirik jonzotlar tasviri mato va maishiy buyumlar yuzasida qisman ifodalangan. Aksariyat hollarda sirli ramzlar xalq orasida tumor sifatidagi ahamiyatini saqlab qolgan. Shu boisdan abrli matolardagi ilk timsollar tanib bo‘lmaydigan darajada o‘zgarib, to‘laligicha bezak kompozisiyasiga aylantiriladi. Masalan, “oqqush”, “qo‘chqor shoxi”, “yo‘lbars dumi”, “ot tuyoq”, “chayon”, “ilon izi” singari bezaklar shular jumlasidandir.

Shunday qilib, qadimgi davr san’atidagi lavhalarning turli tarixiy bosqichlardagi mazmuniy va uslubiy rivoji IX-XII asrlarda ertakona syujetlardagi mohiyatini saqlab kelgan. Ular ushbu davr idishlari va maishiy buyumlarida tasviriy folklor bezak naqshi shaklida o‘z aksini topgan. Ermitaj kolleksiyasida XI asr boshiga oid xurosonlik ustalar yasagan kumush likopcha markazida taxtda chordona qurib o‘tirgan afsonaviy hukmdor sahnasi ifodalanishi ham yuqoridagi mulohazalarni tasdiqlaydi.

Islomga qadar davrlarga mansub bo‘lgan tumorlar, chiroqdonlar, isiriqdonlar, medal’onlar, ko‘zgular va boshqa maishiy buyumlar ko‘rinishi va tashqi bezagi islom kirib kelgach, yangi mazmun bilan boyitilib, maxsus ziynatlangan. Ramziy naqsh bezaklarida qushlar, hayvonlar, hasharotlar va suv unsurlari jonzotlarining qiyofalari yoki ularning uslublashtirilgan o‘ziga hos tasvirlari yuksak badiiy mahorat bilan ishlangan. O‘rta asr islom dunyosi, musulmonlikgacha bo‘lgan rivoyatlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan qator yarimmorfli tasvirlar qayta mazmunlashtirilgan. Ular shakli va mazmuniga ko‘ra islom rivoyatlari asosida o‘zida eski va yangi tasviriy qiyofalarning uyg‘unlashish jarayonlarini boshidan kechirgan.

O‘zbekiston tasviriy va amaliy san’atida mifo-epik hamda folklor mavzular qadimgi zamonlardan o‘rta asrlarga qadar bo‘lgan davrlardagi rivojlanish dinamikasini shartli ravishda ikkita bosqichga ajratib o‘rganish mantiqlidir.

1. Islomga qadar bo‘lgan qadimgi davr san’atida dastlab mifologik tafakkurning primitiv shakldagi ifodaviy talqinlari yaratilgan bo‘lsa, keyinchalik ko‘pxudolik asosida vujudga kelgan mifologik qarashlar yetakchilik qilib, unda mahalliy va ellin xudolari, otashparaslik va buddaviylikga oid ilohlar, mabudalar va rohiblarning ikonografik tasvirlari yaratilgan. “Hayvonot uslubi” keng qo‘llanilgan. Ilk o‘rta asrlar san’atida mahalliy va eron afsonaviy qahramonlarning ichki olami, ruhiy kechinmalari ifodalangan tasvirlar o‘ziga hos talqin qilingan.

2. Islom davrida mifologik mavzular yangi islom estetikasi shakllanish jarayoni kesimida ifodalangan. Qadimgi va ilk o‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan tasvirlarning genetik kodlari butunlay yo‘qolib ketmagan, balki ular abstraktlashadi. Bir qator mifologik obrazlar islom estetik talablari asosida qayta mazmunlashtirilishi natijada tamomila yangicha badiiy tasvir uslubi-“islom san’ati” vujudga kelgan. Qiyofaviy tasvir

tili o‘rnini ramziy naqsh estetikasi egallaydi. Arab halifaligi ta’sirida mahalliy epos birmuncha rivojlanib, lirik-romantik poeziyadagi miflarga oid obrazlar taraqqiy etishi bilan kinoya va metaforaning poetik tili vujudga kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Karomatov H.S. O‘zbekistonda moziy e’tiqodlar tarixi. –Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi matbaa nashriyot uyi, 2008.
2.Kultura i iskusstvo drevnego Uzbekistana. –//Katalog vыstavki v dvux knigax. Kniga 2. –Moskva: Vneshtorgizdat, 1991.
3.Pidayev Sh.R. Qadimgi O‘zbekistonda buddaviylik va buddaviy meros. –Kitob-albom. Toshkent: O‘zbekiston, 2011.
4.Pugachenkova G.A. Rempel L.I. Istoriya iskusstv Uzbekistana s drevneyshix vremen do seredinы devyatnadsatogo veka. –Moskva: Iskusstvo, 1965.
5.Rempel L.I. Syep vremeni: vekovыye obrazы i brodyachiye syujetы v tradisionnom iskusstve Sredney Azii. –Tashkent: izdatelstva im. G.Gulyam, 1987.
6.Rempel L.I. Xudojestvennaya kultura Sredney Azii IX-nach. XIII vv. i problema «musulmanskogo iskusstva» –T.: Izdatelstvo literaturы i iskusstva imeni G.Gulyama. 1983.
7.Trever K.V. Otrajeniye v iskusstve dualisticheskoy konsepsii zoroastrizma. –//Trudы otdela Vostoka (gosudarstvennogo Ermitaja). T. I. Lyeningrad: 1939.
8.Shagalina N. Qadimgi O‘rta Osiyo san’atida obraz transformatsiyasi. –//San’at., 2010. №2.
9.Shishkin V.A. Varaxsha. –Moskva: Akademii Nauk,1963.
10.Shternberg L.Ya. Pervobытnaya religiya v svete etnografii. –Leningrad: 1936.
11.O‘lmasov A.F. Janubiy o‘zbekiston me’morchiligida shakl va badiiy obrazlar talqini. –//San’at jurnali, 2011. №4.
12.Hakimov A.A. O‘zbekiston san’ati tarixi: qadimgi davr, o‘rta asrlar, hozirgi zamon. –Toshkent: Zilol buloq, 2022.
13.Hakimov A.A. Markaziy Osiyo san’atida gedonizm. I qism. Qadimgi va ilk o‘rta asrlar san’ati. –//San’at jurnali, 2010. №2.
14.Hakimov A.A. O‘zbekiston mahobatli san’ati va haykaltaroshligi: tarix va zamonaviylik. –//O‘zbekiston tasviriy san’ati antologiyasiga so‘zboshi. Toshkent: San’at jurnali nashriyoti, 2011.
15.Hakimov A.A. Islom dinining badiiy merosi. –//Moziydan sado jurnali, 2006. №2.
16.Hakimov A.A. Klassicheskoye iskusstva islama. –//V knige “Keramika. Xudojestvennaya kultura Syentralnoy Azii i Azerbaydjana IX-XV vekov”. Tom-I. Samarkand-Tashkent: 2011.
17.Hakimov A.A. Torevtika kak fenomen xudojestvennoy kulturы. –//V knige “Xudojestvennaya kultura Syentralnoy Azii i Azerbaydjana IX-XV vekov”. Tom II. Samarkand-Tashkent: 2012.
Hakimov A.A. Izobrazitel’no-ornamentalnыye obrazы i motivы prikladnogo iskusstva. –//V knige “Xudojestvennaya kultura Sredney Azii IX-XIII vv”. Tashkent: 1983. –S.104.

Fayziyev To‘rabek Raufovich,
O‘zDSMI “Madaniyat va san’at menejmenti” kafedrasi mudiri, t.f.n., dotsent

“BOBURNOMA” ASARINING ILMIY-MA’RIFIY, TARBIYAVIY AHAMIYATI

Annotosiya. *Bu maqolada o‘rta asrlarda yashab ijod qilgan buyuk shoh va shoir, publisist bobokalonimiz Zahriddin Muhammad Boburning shoh asari – “Boburnoma” haqida fikrlar yuritiladi. Mutaffakkir bobomizning murakkab hayoti va barakali ijodining sarchashmalaridan biri bo‘lgan “Boburnoma”ning yaratilishi va undagi bebaho turli sohalarga oid ma’lumotlarning ilmiy – ma’rifiy, tarbiyaviy ahamiyatiga qisqa izoh berishga harakat qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Vatan, sadoqat, ona-yurt, el-ulus, odat, ta’lim – tarbiya, shaklu- shamoyil, qo‘shin, yasoq, mashvarat, jangu- jadal, ijod, ruboiy, g‘azal va h.k.*

Annotation. *This article tells about the work of Zahiriddin Muhammad Babur, the great king, poet and publicist of medieval origin, "Baburnom". We have tried to briefly explain the scientific and educational significance of "Boburnoma", one of the most important events in the complex life and blessed work of the great thinker, as well as invaluable information related to various fields of science, geography, ethnography, management, nature and so on.*

Keywords: *Homeland, loyalty, fatherland, el-ulus, custom, upbringing, portrait, army, soldier, assembly, war, creativity, ruboi, gazal, etc.*

Bu yil mamlakatimizda buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 541 yilligi keng nishonlandi.

Bobur (to‘liq ismi Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo) – o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste’dodli sarkarda, boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shoh bo‘lgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yilning 14 fevralida Andijonda, Farg‘ona ulusining hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida dunyoga keldi.

Bobur – buyuk podshoh, mumtoz shoir, nazariyotchi adabiyotshunos, faqih, tilshunos, san’atshunos, etnograf, hayvonot va nabotot olamining bilimdoni sifatida ko‘p qirrali faoliyat va ijod sohibi edi.

Zahiriddin Muhammad Bobur O‘rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she’riyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan adib, shoir, olim bo‘lish bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solgan. Boburiylar Hindistonda 332 yil hukmronlik qildilar.

Bobur Hindistonda ko‘plab ijtimoiy xayrli ishlarni amalga oshirib, mamlakat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Jumladan, ilm-fan, adabiyot, me’morchilik, shaharsozlik, dehqonchilik, bog‘dorchilik va boshqa sohalarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratib, Hindiston ravnaqi uchun o‘zining hissasini qo‘shdi. Bobur o‘zining

ma’lum va mashhur asarlari bilan tarixnavis adib, lirik shoir va ijtimoiy masalalar yechimiga o‘z hissasini qo‘shgan olim sifatida xalqimiz ma’naviy madaniyati tarixida munosib o‘rin egallaydi.

She’rlarining umumiy hajmi 400 dan ortib, shulardan 120 ta g‘azal va 231 ta ruboiy, shuningdek, tuyuq, qit’a va boshqa qo‘l yozmalari o‘rin olgan.

Asarni yozishda Bobur turli xil badiiy usul va til vositalaridan mahorat bilan foydalanadi, joylar manzarasi, topografiyasi, ob-havosi, o‘simliklar dunyosi, aholisi, xalq va qabilalarning urf-odatini bilimdon olim, adib va shoir, geograf va tabiatshunos, tarixchi va etnograf, benazir tilshunos va san’atshunos sifatida bayon qiladi. Bobur o‘zining “Boburnoma” asarida O‘rta Osiyoning yirik shaharlari, Xuroson, Eron, Afg‘oniston va Hindistonni batafsil tasvirlab beradi. Uning Farg‘ona, Andijon, Samarqand, Buxoro, Kobul, G‘azna, Balx, Badaxshon, Dehli, Lahor va boshqa shahar va hududlar haqidagi ma’lumotlari bebahodir, chunki muallif bu shaharlarning geografik joylashuvi, o‘sha davrdagi savdo-iqtisodiy roli haqida tasavvur beradi [2].

Zahiriddin Muhammad Bobur toponimika fanining rivojlanishi uchun muhim tadqiqotlar qilgan qomusiy bilimlar egasidir. Uning «Boburnoma» asarida O‘rta Osiyo xalqlari ishlatgan geografik terminlar va ularga berilgan izohlar bilan boydir. Hindistonda 332 yil hukmronlik qilgan Boburiylar sulolasi bu yurt hayotining barcha jabhalarida o‘zining boy me’rosini qoldirgan. Ma’lumki, Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari Hindistonda ilm-fan, madaniyat, savdo, memorchilikni rivojlantirgan, ulkan maqbaralar, qal’alar, shaharlar bunyod etgan.

Toj Mahalni ham Boburning nabirasi Shohjahon qurdirgan. Boburiylar merosi bo‘lgan ushbu yodgorlik o‘zbek va hind xalqlarining tarixi mushtarakligi, ikki mamlakat aloqalari mustahkam asosga ega ekani ifodasidir. Toj Mahal dunyoning yetti mo‘jizasidan biri sanaladi. Mashhur majmua YUNESKO ning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur qoldirgan bebaho ilmiy-ijodiy meros nafaqat milliy madaniyatimiz va xalqimiz adabiy-estetik tafakkurining shakllanishida, balki jahon adabiyoti, ilm-fani va davlatchiligi tarixida alohida o‘ringa ega. Zahiriddin Muhammad Boburdan qolgan ijodiy merosning eng muhim va eng yirigi O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan va adabiy tilning yorqin namunasi bo‘lgan "Boburnoma" asaridir.

Asarning asli nomi "Boburiya" bo‘lsa – da, uni "Voqeanoma", "Tuzuku Boburiy", "Voqeoti Boburiy" deb atadilar, keyinchalik asar "Boburnoma" degan nom bilan mashhur bo‘lib ketdi. "Boburnoma" memuarlar (esdaliklar) to‘plamidir. Bu tarixiy – badiiy asar 1494 –1529 yillardagi voqealarni, Movarounnahr, Xuroson, Afg‘oniston va Hindistonda ro‘y bergan va ko‘pida Boburning o‘zi ishtirok etgan o‘zaro feodal urushlarni o‘z ichiga oladi. Aftidan, Bobur siyosiy faoliyatining dastlabki yillaridan boshlab voqealrni xotira sifatida qayd etib borgan, keyinchalik bu qaydlar "Boburnoma"

ning yaratilishiga asos bo‘lgan. Boburning "Boburnoma" ni qachon yozishga kirishgani ma’lum emas. Biroq asarning ayrim o‘rinlari uning ko‘proq qismi Hindistonda yozilgani yoki qayta tahrir qilinganini ko‘rsatadi.

"Boburnoma" ning XVII – XVIII asrlarda ko‘chirilgan nusxalari Leningrad, Kalkutta, Agra, Haydarobod, Manchestr, London, Edinburg va boshqa joylarda saqlanadi. "Boburnoma" 1857 yilda Qozonda turkshunos rus olimi N.Ilminskiy tomonidan nashr etiladi. 1905 yil ingliz olimasi A.Beverij xonim "Boburnoma" ning Haydarobodda topilgan qo‘lyozmasining faksimiliyasini nashr ettiradi. Asar Turkiyada ham nashr ettirilgan. Asardan parchalar bir necha xrestomatiyalarda nashr ettirildi. 1948-49 yillarda ikki kitob holida, 1965-66 yillarda uch tomlik tarkibida, 1990 yilda alohida kitob holida chop etildi.

"Boburnoma" asari bilan Sharq va G‘arb olimlari alohida qiziqishgan. Uni eng kamyob va nodir asarlardan hisoblagan ko‘pgina G‘arb olimlari tadqiq etib o‘rganganlar, tarjima qilganlar. Jumladan, G‘arb tarixchi olimlardan Elfinston Boburning bu asari haqida shunday yozadi: "Bu memuarlarda buyuk turk podshosining hayoti batafsil tasvirlangan, uning shaxsiy his – tuyg‘ulari har qanday mubolag‘adan, pardadan holi. Uning uslubi oddiy va mardona, shuningdek, jonli va obrazli. o‘z zamondoshlarining biografiyalarini, ularning qiyofalarini, urf-odatlarini, qiliqlarini oynadek ravshan tasvirlaydi. Bu jihatdan u ("Boburnoma") Osiyoda yagona, chinakam tarixiy tasvir namunasidir..." "Boburnoma" bir necha tillarga tarjima qilingan. Akbarshoh davrida (1586).

"Boburnoma" fors tiliga tarjima qilinib, unga miniatyuralar ishlangan.

Bu tarjimaning nusxalari ko‘p. Asar 1705 yilda Visen tomonidan golland tiliga tarjima qilinib, Amsterdamda bosiladi. Djon Leyden bilan V.Erskin "Boburnoma" ning o‘zbekcha va forscha nusxalarini solishtirib, uni ingliz tiliga tarjima qilishga va 1926 yilda Londonda nashr ettirishgan. A.Keyzer "Boburnoma" ning inglizcha tarjimasi asosida uni qisqartirilgan holda nemis tiliga tarjima qilinadi va bu tarjima 1828 yilda Leyptsigda bosiladi. Frantsuz olimi Pave de Kurteyl tarjima qiladi. Bu tarjima 1871 yilda Parijda nashr etiladi. "Boburnoma" ni rus olimlaridan dastlab N.I.Pantusov, S.I.Polyakov, V.Vyatkinlar tarjima qilgan bo‘lsalar, u keyinchalik M.Sale tomonidan rus tiliga to‘la tarjima qilindi va ikki marta nashr etildi. O‘zbek adabiyotshunoslari tomonidan "Boburnoma" ning ko‘p jihatlari tadqiq etilgan. Bu sohada olib borilgan tadqiqotlar A.Fitrat, H.Yoqubov, Y.Fulomov, V.Zohidov, I.Sulton, M.Shayxzoda, F.Sulaymonova, A.Qayumov, H.Hasanov, N.Mallaev, S.Hasanov, X.Nazarova, P.Qodirov, R.Nabiev, X.Qosimov, F.Salomov, S.Jamolov, N.Komilov, A.Abdug‘ofurov, I.Haqqulov, H.Qudratullayev, tarixchi olimlardan S.Azimjonova va boshqalarni nomi bilan bog‘liq.

"Boburnoma" tarixiy manba sifatida alohida qimmatga ega. Unda XV asrning oxiridan XVI asrning 30 – yillariga qadar ro‘y bergan tarixiy voqealar aks ettiriladi. Asar

1494 yil voqeasi tasviri bilan, Samarqand hukmdori Sulton Ahmad Mirzoning Farg‘onaga hujumi, Umarshayx Mirzoning halok bo‘lishi va 12 yoshga qadam qo‘ygan Boburning taxtga chiqishi bilan boshlanadi. Asarda voqealar doirasi kengayib, chuqurlashib, murakkablashib boradi [3].

Muallif Movarounnahrdagi, keyinroq Xuroson, Afg‘oniston va Hindistonda voqealarni bayon qiladi. Faktik materiallarning ko‘pligi, boyligi, aniqligi va to‘laligi, tarixiy voqealarning asosan obektiv, beg‘araz va rostgo‘ylik bilan bayon etilishi, xronologik izchillik, ifodaning soddaligi va ravonligi "Boburnoma" ning tarixiy manba sifatidagi afzalliklarini tashkil etadi. Shu jihatdan qaraganda "Boburnoma" o‘tmishning ko‘pgina tarix kitoblari va memuarlaridan ustun turadi. "Boburnoma" da tarixiy voqealar asosan obektiv bayon etiladi. "Boburnoma" sodda uslub, ravon, shirali va boy til bilan yozilgan, jonli manzaralar, portret va xarakterlar, original badiiy til vositalari bilan badiiiylashtirilgan asardir.

Aynan mana shu afzal jihatlari bilan "Boburnoma" uzoq zamonlardan buyon tarixchilarning va boshqa olimlarning diqqat – e’tiborini o‘ziga jalb etib, yuksak baholanib kelmoqda. "Boburnoma" XV-XVI asr tarixiy hodisalari bilan tanishish va ularni umumlashtirish, Sharq feodal jamiyatining xususiyatlarini belgilash va yoritishda juda ko‘p xarakterli faktlar, ma’lumotlar beradi. "Boburnoma" o‘zbek adabiyoti tarixida badiiy prozaning eng birinchi yirik namunasi hisoblanadi. Bu asar adabiyotimizda prozaning rivojlanishiga uzoq vaqt ijobiy ta’sir etib keldi.

Dadil aytish mumkinki, bu asarda badiiy prozaning deyarli ma’lum darajada barcha elemayentlari bor. Muallif o‘z asarining ko‘p qismlarini xuddi ana shu planda yozadi, o‘z boshidan kechirgan va ko‘rganlarini, o‘zining atrofidagi yoki tarixiy aloqador bo‘lgan odamlarni, bu odamlar nima qilgan bo‘lsalar – ularning barchasini tasvirlaydi. Mazkur asarda muallifning juda chuqur bilimi, badiiy salohiyati va mahorati namoyon bo‘ladi. "Boburnoma" da qahramonlarning harakatlar bilan voqealik uzviy va chambarchas bog‘lanib ketadi. Muhimi shundaki, bu voqealarning barchasida Boburning hayoti va faoliyati, uning harbiy yurishlari yetakchilik qiladi. Ular o‘quvchiga shunday yetkazib beriladiki, asarning ba’zi joylari badiiy umumlashma darajasiga ko‘tariladi. "Boburnoma" ning syujeti juda murakkabdir. Bobur syujetni rivojlantirishda Sharq adabiyotida keng tarqalgan bayon ichiga bayon kiritish usulini qo‘llaydi. Mazkur usul turli mavzularni qamrab olishga, konfliktning kuchayishiga va asarning serqirra bo‘lishiga imkoniyat beradi.

Muhimi shundan iboratki, Bobur ko‘pincha badiiy umumlashma va voqealikni realistik aks ettirish orqali yuksak mahoratga erishadi. Bu jihatdan "Boburnoma" da bayon qilingan 1502- 1503 yil voqealarini o‘z ichiga olgan bobning (ikkinchi yarmida yolg‘iz qolgan Boburning dushmanlar ta’qib qilar ekan, u barcha xavf-xatarni bilgani, tushungani holda uzoq vaqt katta masofani ajal bilan yonma-yon bosib o‘tganligi) tasviri ajralib turadi. Muallif epizodik hodisalarni aks ettirganda ham shu usulni qo‘llaydi.

Voqealarni tasvirlagan adib ularning ko‘pida bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi, voqealar Boburning o‘z obrazi orqali bir-biri bilan ulanadi, o‘ziga xos syujet chizig‘ini yaratadi. Shuning uchun ham "Boburnoma" juda yengil o‘qiladi, kitobxonni o‘ziga maftun etadi [2].

“Boburnoma”ning yana eng ahamyatli tomoni shundan iboratki, muallif voqea hodisalarni, unda ishtirok etgan tarixiy shaxslarning tavsiflarini, portretini, iqlimni, tabiat peyzajlarini, geografif muhitni hech mubolag‘asiz asl holatda aks ettirgan. O‘rta asrlarda yashab, ijod qilgan ko‘plab shoir va ijodkorlardan farqli o‘laroq, amaldoru shohu – sultonlarning hayoti, faoliyati, davlat boshqaruvi hamda yurishlaridagi voqiyliklar badiiy to‘qimalarsiz to‘g‘ri – relistik faktlar bilan ochib berilgan. Misol tariqasida Zahriddin Muhammad Boburning padari buzrukvorlari Umarshayx mizo va buyuk mutaffakkir bobomiz Alisher Navoiy hazratlarining portretlariga bag‘ishlangan yozuvlarni ko‘ramiz: “ Past bo‘yluq, tegirma soqolliq, ko‘ba yuzliq, tanbal kishi edi. To‘nni bisyor tor kiyar edi, andog‘kim bog‘ bog‘laturda qornini ichiga tortib bog‘latur edi, bog‘ bog‘log‘ondin so‘ng o‘zini qo‘ya bersa, bisyor bo‘lur edikim, bog‘lari uzulur edi. Kiymoqda va yemoqda betakalluf edi. Dastorni dastorpech chirmar edi… Pokiza e’tiqodliq kishi edi, besh vaqt nomozni tark qilmas edi…Ramazon oyining to‘rtida jordan kabutar va kabutarxonalar ila uchub, shunqor bo‘ldilar. O‘ttuz to‘qquz yoshlar erdi.” “Alisherbek naziri yo‘q kishi edi. Turkiy til bila to she’r aytibturlar, hech kim ancha ko‘p va xo‘b aytg‘on emas. ..... “Forsiy nazmda “Foniy” taxallus qilibtur, ba’zi abyoti yomon emasdur, vale aksar sust va furuddir” degan tanqidiy fiklrlarni ham aytib o‘tgan edilar[1].

Mirzo Bobur “Boburnoma” asarida vatan ta’rifini, uning so‘lim go‘shalari, mehmondo‘st xalqi haqida ajoyib fikrlar bildirib o‘tadiki, bu joylarning toponomik ta’riflari va tabiati sog‘inch hissi bilan to‘ldirib tasvirlaganini guvohi bo‘lamiz: “Andijondurkim, Farg‘ona viloyatining poytaxtidur. Oshlig‘i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo‘lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas. Andijonning noshpotisidin yaxshiroq noshpoti bo‘lmas. Uch darvozasi bor. Arki janub tarafida voqe bo‘lubtur. To‘qqiz tarnov suv kirar. Bu ajabturkim, bir yerdan ham chiqmas… Ov qushi dog‘i ko‘p bo‘lur, qirg‘ovuli behad semiz bo‘lur… Eli turktur. Elining lafzi qalam bilan rostdur”[1]. Zahriddin Muhammad Boburning hayoti va adabiy faoliyati Movarounnahrda siyosiy hayot nihoyat murakkablashgan feodal guruhlarning boshboshdoqlik harakatlari avjiga chiqqan va Temuriylar davlatining inqirozi davom etayotgan bir davrga to‘g‘ri kelgan edi. Bunday murakkabliklar in’ikosini «Boburnoma»da ko‘rgan bo‘lsak, shoir ruhiyatida qanday aks etgani esa, uning she’rlarida namoyon bo‘ladi. Movarounnahrni birlashtirishga urinishlari natija bermagach, Bobur ruhan qiyinalgan, amaldorlarning xiyonatlari ta’sirida umidsizlikka tushgan kezlardagi kayfiyati she’rlarida aks etgan. Keyinchalik o‘z yurtini tark etib,

Afg‘oniston va Hindistonga yuz tutganda Bobur she’riyatida Vatan tuyg‘usi, Vatan sog‘inchi, unga qaytish umidi mavj ura boshladi [5].

Tole’ yo‘qki jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishnikim, ayladim xatolig‘ bo‘ldi,
O‘z yerin qo‘yib Hind sori yuzlandim,
Yorab, netayin, ne yuz qorolig‘ bo‘ldi.

Shu bilan birga Bobur lirikasida she’riyatning asosiy mazmuni bo‘lgan insoniy fazilatlar, yor vasli, uning go‘zalligi, unga cheksiz muhabat, hijron azobi, ayrilig‘ alamlari va visol quvonchlari nihoyat go‘zal va mohirona ifoda etilgan.

Xazon yaprog‘i yanglig‘ gul yuzung hajrida sarg‘ardim,
Ko‘rub rahm aylagil, ey lola ruh, bu chehrai zardim.
Sen ey gul, qo‘ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,
Ayog‘ingga tushub bargi xazondek muncha yolvordim.

Bobur o‘z lirik she’rlarida har doim odamlarni yaxshilikka, adolat, insonparvarlikka, yuksak insoniy tuyg‘ularni qadrlashga chaqirdi:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.
Yaxshi kishi ko‘rmag‘ay yomonlig‘ hargiz,
Har kimki yamon bo‘lsa, jazo topqusidur [4].

“Boburnoma” badiiy, tarixiy, yodnoma asar sifatida adabiyotshunos va tarixchi, tilshunos va urfshunos, tabiyat va jug‘rofiya sohasi, shuningdek, yana bir qator mutaxassislarga qimmatli ma’lumatlar bera oluvchi bebaho asardir. Shuning uchun ham bu asar turli davrlarda yashab, turfa tillarda so‘zlashgan sharqshunoslar diqqatini jalb etdi, dunyo kengliklarida aks-sado berib keldi. “Boburnoma” madaniy hayotga doir keltirilgan dalillarning mohiyati va ilmiy qimmati nutai nazardan g‘oyat muhim bo‘lib, bevosita shu vazifani zimmasiga olgan tazkiralari bilan bemalol raqobat qila olishga qodir asarlardandir.

Mazkur asar, eng avvalo, o‘z muallifning keng qamrovli faoliyati va ijodiyoti haqida mukammal tasavvur hosil qila olishi bilan qadirlidir. Bundan tashqari bu tarixiy asar necha asir o‘tgan bo‘lsada o‘z qadir-qimmatini yo‘qotgan emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. ”Boburnoma” Toshkent-1990 y. Nashrga tayyorlovi: P. Shamsiyev.
2. Vohidov R.J., Eshonqulov H.P., “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” Toshkent-2006 y.
3. Sirojiddin Sayyid “Shoirligi shohligidan, shohligi shoirligidan ulug‘”// Vatanparvar № 6, 2012.02.10.
4. Xolmonova Z. ”Boburnoma”- misilsiz qomus // Vatanparvar № 6, 2012 yil 10 fevral.
5. Ibrohimov A. “Boburnoma” va “Devon”// Guliston 2011/1.

Mavrulova Munisa Abduxalilovna,
O‘zDSMI “Madaniyat va san’at mendjmenti” kafedrasi
dotsenti v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

YOSHLARIMIZNING MA’NAVIY-MADANIY EHTIYOJLARINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: *Maqolada milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur, milliy qiyofa, milliy xarakter kabi jihatlarning shaxs mafkuraviy immuniteti shakllanishidagi o‘rni haqida fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, maqolada mafkuraviy immunitetning tarkibiy qismi asosini tashkil qiluvchi insonparvar g‘oyalar, e’tiqod, o‘zini-o‘zi qaror toptirish kabi jihatlarga psixologik yondashuvlar haqida fikrlar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *g‘oya, mafkura, immunitet, psixologiya, tarbiya masalalari, shaxslararo munosabatlar, ma’naviy taraqqiyot, indikator, jamiyat, ma’naviy muhit, aksiologiya.*

Abstract: *The article discusses the role of aspects such as national identity awareness, national pride, national image, and national character in the formation of the individual's ideological immunity. Also, the article describes psychological approaches to aspects such as humanitarian ideas, beliefs, and self-determination, which form the basis of the component of ideological immunity.*

Key words: *idea, ideology, immunity, psychology, educational issues, interpersonal relations, spiritual development, indicator, society, spiritual environment, axiology.*

Bugun shaxs tarbiyasi, inson kamoloti, darajasi bashariyat kelajagini belgilab beruvchi asosiy omilga aylanganligi hech kimga sir emas. Moddiyotning inson ruhiy holatidan ustun qo‘yilishi, ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat ma’naviy ustunlariga qarshi harakatlari, turli ma’naviy, mafkuraviy, g‘oyaviy tahdidlarning tobora ortib borishi, axloqsizliknng ommaviy tarzda kuchayib borishi-bularning bari insoniyati jar yoqasiga keltirib qo‘ymoqda.

Afsuski, bunday noxush holatlar mamlakatimizda ham tez-tez uchrab turibdi. Shu ma’noda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlariga quloq tutishni maqsadga muvofiq deb bildik. “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va havflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, aholi barcha qatlamlarining axloqiy tarbiyasiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Negaki, mamlakatimizdagi mavjud uzluksiz ta’lim tizimi aholining beshdan bir qismini qamrab olgan. Ushbu tizim qamrab olgan bolalar va o‘smirlardan tashqari, aholining katta qismi orasida ma’naviy-ma’rifiy tarbiya ishlarining tizimli yo‘lga qo‘yilishi va bu borada yuksa samaradorlikka erishish o‘tkir zaruratga aylanmoqda. Ha, haqiqattan ham, bugun ta’lim, tarbiya, aholi orasida olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar, ta’bir joiz bo‘lsa, aytish kerakki, millat va davlat taqdirini hal qiladigan muhim omilga allaqachon aylanib bo‘ldi. Qayerda mazkur

masalaga davlat ahamiyatiga ega zarurat sifatida e’tibor berilayotgan bo‘lsa, o‘sha joyda tinchlik, barqarorlik, bardavom rivojlanish bor. Ushbu masalaga qayerda bee’tibor munosabatda bo‘linsa, o‘sha joy, shubhasiz, tartibsizliklar, tahdidlar, inqirozlar, maskaniga aylanib qolmoqda. Bunga misollar juda ko‘p. Bugun O‘zbekiston hukumati aholini, ayniqsa, yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor bermoqda, jamiyat taraqqiyotini kishilar axloqiy madaniyati bilan uyg‘unlikda ko‘rmoqda. Ammo, afsuski, dunyoning qator hududlarida yuz berayotgan ommaviy axloqsizliklar, t’lim-tarbiyani tashkil etishdagi xatolar mamlakatimizga ham ta’sir etmasdan qolmayapti.

Shuning uchun ham biz Yangi O‘zbekistonni barpo etish barorbarida erishishimiz bo‘lgan barcha yutuqlarimizni tarbiya, olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligi bilan bejizga bog‘lamayapmiz. Tarbiya ishidagi samaradorlik, bizning fikrimizcha, eng avvalo, tarbiyalanuvchining ehtiyoji bilan bog‘liq. Shu ma’noda inson va jamiyat taraqqiyoti asosi, uni rivojlantirishga yo‘naltirilgan kuch va omil ehtiyoj ekanligini aslo unitish mumkin emas.

Ehtiyoj muayoyan tizimining shunday ichki qonuniy hosilasi hisoblanadi. U ehtiyojning sohibi, egasi bilan muhit o‘rtasidagi aloqadan kelib chiqadi va oqibatda o‘zining real mavjudlik holati, faoliyati uchun, zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy quvvat, energiya, axborot komponentlarini oladi. Biologik va ijtimoiy tizimlar o‘zini o‘rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhit bilan bo‘ladigan o‘zaro aloqa va munosabatlarida o‘zlariga xos faolliklari tufayli turli nomutanosiblik va ziddiyatlarni bartaraf etib boradi. Shuning uchun ham ijtimoiy ehtiyoj mavjud tizimining ichki ziddiyatlarini hal qilishga qaratilgan faoliyatga, harakatlarga qodirligi bilan chambarchas bog‘liq. Ehtiyoj tushunchasi muayyan ijtimoiy tizim qonunlari asosida kelib chiqadigan zaruriyatining ko‘rinishi, namoyon bo‘lishini, organizm, inson shaxsi, ijtimoiy gurux, millat, xalq, jamiyatning mavjudligi va rivoji uchun ob’yektiv ravishda zarur bo‘lgan faolitni yuzaga chiqaruvchi ichki sababiyatni belgilaydi.

Ijtimoiy hayotda ehtiyoj su’yektining ob’yektiv xossasi bo‘lib, uning zaruriy parametrlari, real, haqiqiy ahvoli bilan ob’ktiv xossasi bo‘lmish ehtiyoj o‘rtasida bo‘lgan ziddiyat shaklida, ya’ni shu ijtimoiy hodisa mavjudligining sub’yektiv shart-sharoiti sifatida namoyon bo‘ladi. Kishilarning yashashlari va inson sifatida kamol topishlari uchun zarur bo‘lgan barcha narsalar ularning hayotiy ehtiyojlarini tashkil etadi

Yuqorida bildirilgan fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, ehtiyoj har bir ongli insonning rivojlanish, kamolga yetishi uchun imkon beradigan imtiyoz. Odatda ehtiyojlar tabiiy va madaniy turlarga bo‘linadi. Tabiiy extiyojlar bizning tana a’zolarimizning rohatlanishi, ovqatlanish, dam olish uxlash kabi, holatlarga bog‘liq bo‘lsa, madaniy-ma’naviy ehtiyojimiz chegarasi juda keng, tuganmas hisoblanadi. Ya’ni, tabiiy ehtiyojlarimizni qondirishda ma’lum chegaralar mavjud bo‘lsa, madaniy ehtiyojlarimiz darajasi o‘ta rang-barang.

Ma’naviy-madaniy ehtiyojlar odatda shaxs va jamiyat, shaxslararo munosabatlar, madaniy-ma’rifiy aloqalar o‘rnatish usullari bilan bevosita bog‘liqdir. Shuningdek, o‘qish, bilim olish, tajriba orttirish, o‘zini-o‘zi rivojlantirishga intilish ham inson madaniy-ma’naviy ehtiyojining muhim jihatlari hisoblanadi. Shu narsani ta’kidlash lozimki, insonning tabiiy ehtiyojlari, ularning qondirilishi masalasi madaniy ehtiyojlarga qaraganda aniqroq. Madaniy ehtiyoj va uning qondirilishi jarayoni ko‘pchilik uchun mavhumroq narsaga o‘xshaydi. Aslida-chi? Aslida, kishi madaniy ehtiyoji aniq bo‘lgani kabi, uning qondirilish jarayoni ham mavhum emas, u aniq-ravshan holat hisoblanadi.

Madaniy ehtiyojning mavjudligi va uning qondirilishga bo‘lgan intilishga bo‘lgan intilish, har qanday harakat pirovardnatijada insonning ma’naviy qiyofasi shakllanishiga olib keladi. Shaxs ma’naviy qiyofasining o‘zagini uning ma’naviyati tashkil etishi hammaga ma’lum. Biroq, bugungi kunda ma’naviyat, ma’naviy-ma’rifiy ishlar haqida so‘z ketganda mazkur atamalarga chap ko‘z bilan qarovni, ularning imkoniyatlariga shubha qiluvchilar ham topilayotganligi, aslida, xavotirli holat. M’naviyat, ma’rifatning inson mavjudligini eng muhim ko‘rinishi ekanligini e’tiborga oladigan bo‘lsak hech shubhasiz, ularga shubha bilan qarovchilar aslida kaltabin, millat va mamlakat taqdiriga befarq odamlar ekanligini sezish qiyin emas. To‘g‘ri, ma’naviyat, inson ma’rifati o‘zgarmaydigan narsa emas. Ayniqsa, bugun Yangi O‘zbekistonni barpo etish asnosida tarbiya, ma’naviyat masalalariga qo‘yiladigan talablar ham o‘zgarib bormoqda. Yangi sharoit, shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamon kishilar ma’naviy-madaniy ehtiyojlarga ham o‘zining ta’sirini o‘tkazmasdan qolmayapti. Bularning bari ma’naviyat kabi o‘ta muhim fenomen hodisaning mazmun-mohiyatini real zamon va makonda aniqlab olishni talab etmoqda.

Bu haqida muhtaram Prezidentimiz quyidagilarni yozadi: “Afsuski, hali oramizda milliy g‘oya va ma’naviyatning mohiyatini to‘liq aniq yetmagan, “ma’naviyat o‘zi kerakmi-yo‘qmi?”, deb yurganlar ham bor. Milliy g‘oya deganda, eski sovet mafkurasining hayoliga keltirib, “labiga uchuq toshadiganlar” ham yo‘q emas. Ma’naviyatimiz biz uchun hayot-mamot masalasi ekanligini mutlaqo unutmaslik lozim. Axir, bugungi dunyoda axloqsizlik ma’naviy ommaviy tus olayotgan, yoshlarimiz tafakkur tarzida asosan moddiy masalasiga urg‘u berilib, ming yillar davomida shakllangan, davrlar sabog‘idan o‘tgan milliy qadriyatlarimizga nisbatan bepisandlik munosabatlari kundan-kun kuchaygan hozirgi davrda ma’naviyatni inkor etish mumkinmi?

Shuning uchun ham mamlakat rahbari kuyunchaklik bilan “Hech qachon unutmasligimiz kerak: ma’naviyat – bu, avvalo, insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat va e’tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo‘lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlardir. Bir so‘z bilan aytganda, ma’naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor

qanchalik mustahkam bo‘lsa, xalq ham davlat ham shuncha kuchli bo‘ladi”, deb ta’kidlagan edi.

Haqiqatdan ham yuqorida qayd etilgani ma’naviyat – fazilat. U barcha yutuqlarimiz, jamiyatni ijtimoiy-madaniy barqarorligini ta’minlashning poydevori hisoblanadi. Ta’kidlash lozimki, bunday natijaga erishish o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Buning uchun uzoq, mashaqqatlimehnat qilish talab qilinadi. Millatimiz o‘tmish tarixiga e’tibor qiladigan bo‘lsak, asrlar davomida shaxs kamoloti, jamiyat ma’naviy hayotini barqarorlashtirib eng dolzarb muammo bo‘lib kelgan. Shu ma’noda yurtimizda yashab, ijod qilgan yuzlab mutafakkir-allomalarimizning tarbiyadan ko‘zlagan asosiy maqsadi, oddiyroq, jo‘nroq qilib aytganda, yomon odamni yaxshi odamga, yaxshi odamni go‘zal sifatli insonga aylantirishdan iborat bo‘lgan, desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Yoshlarimiz ma’naviy-madaniy extiyojlarini shakllantirish o‘ta qiyin jarayon hisoblanadi. Ayniqsa, bugun mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni qurish, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishga kirishar ekanmiz, bu jarayonlarni jamiyat a’zolari, ayniqsa, yoshlar ma’naviyatini madaniyat darajasini oshirmasdan amalga oshirish aslo mumkin emas.

Shu ma’noda O‘zbekiston Prezidenti ShavkatMirziyoyev tomonidan 2019 yilda ilgari surilgan g‘oya – “Besh muhim tashabbus”ni alohida takidlash kerak, deb o‘ylaymiz. Ushbu tashabbus bugun butun diyorimizda keng yoyildi, yoshlar orasidakatta nufuzga ega ijtimoiy-ma’naviy harakatga aylandi. Minglab yigit-qizlarimiz mazkur tashabbus asosida madaniyat, sa’noatning turli jabhalarida o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini sinab ko‘rmoqdalar. Ayniqsa, jamiyatda kitobxonlik madaniyatini oshirish borasidagi ishlar o‘zining real natijalarini bermoqda. Bu borada ko‘plab ko‘rik tanlovlar o‘tkazilmoqda, badiiy asarlarni muhokama etish hollari esa an’naga aylanib bormoqda.

Aslida, “Besh muhim tashabbus” yoshlarimizning ma’naviy-madaniy ehtiyojlarini shakllantirish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri, deyish mumkin. Joylardagi “Besh muhim tashabbus” markazlarining tashkil etilishi esa mazkur jarayonining yanada jonlanishiga, ommaviy tus olishiga sabab bo‘lmoqda. Ma’naviy-madaniy ehtiyojlar tabiiy ehtiyojlardan farqli o‘laroq insonning ilmiy-ijodiy, amaliy faoliyati natijasida sekin-astalikbilan shakllanib boradigan hodisa hisoblanadi. Bu jarayonda san’atkorning ma’suliyati alohida ahamiyat kasb etadi. San’atkor ma’suliyati, eng avvalo, xalqqa xizmat qilishda, uning ma’naviy ehtiyojini qondirishda, kayfiyatni ko‘tarishda bilinadi. Shu ma’noda qayd etish lozimki, o‘zini san’atkor deb bilgan shaxs, deylik, qo‘shiqchi o‘z ashulasida biror-bir g‘oyani ifoda eta olmasa, uni tom ma’nodagi san’atkor, deyish qiyin.

Biz yuqorida ma’naviy-madaniy ehtiyoj o‘z-o‘zidan shakllanadigan jarayon emasligini bot-bot aytgan edik. Haqiqatdan ham shunday. Madaniy ehtiyoj ob’yektini o‘rganish, tahlil qilish, to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish, regulyasiya qilish asosida shakllanishi

mumkin. Aks holda bir tomondan yoshlarimizning sof milliy madaniyatdan yiroqlashishiga, boshqa tarafdan, milliy mazmunga yot soxta asarlarning ko‘payib ketishiga imkon berishimiz mumkin.

Bugungi kunda ma’naviyat, ma’naviy-ma’rifiy ishlar haqida so‘z ketganda mazkur atamalar chap ko‘z bilan qarovchi, ularning imkoniyatlariga shubha qiluvchilar ham topilayotganligi, aslida, xavotili holat. Ma’naviyat Ma’rifatning inson mavjudligining eng muhim ko‘rinishi ekanligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, hech shubhasiz, ularga shubha bilan qarovchilar aslida kaltabin, millat va mamlakat taqdiriga befarq odamlar ekanligini sezish qiyin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:
1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2022. -255-bet.
2. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining joriy arxivi. Ijtimoiy-ma’naviy muhitni baholash texnologiyasi. – 27 bet.
3. Xudojestvennaya kultura i razvitiye lichnosti: problemы dolgosrochnogo planirovaniya. – M,. 1987. -27-39-betlar.
4. Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: “Ma’naviyat”, 2022. -252-bet.
5. O‘zbekiston yoshlari: holati va istiqbollari. 2018-2022 yillar. Milliy hisobot. –Toshkent, 2023. -60-bet.
6. Qiyom Nazarov. Jahon falsafasi qomusi. – Toshkent, “Ma’naviyat”, 2023. – 750 bet.

MUQIMIY IJODIGA DOIR

Nasiba Turg‘unova,
O‘zDSMI dotsenti, san’atshunoslik fanlari doktori (PhD)

Annotatsiya: Farg‘ona vodiysida kamol topgan Muhammad Aminho‘ja Muqimiy ijodiga qiziqish har doim ham yuqori bo‘lgan. Uning g‘azallari o‘z davrida ko‘plab san’atkorlar tomonidan kuyga solingan edi. Xususan, yallalarda, mumtoz ashulalarda va Farg‘ona-Toshkent maqomining ashula yo‘llarida Muqimiy g‘azallaridan keng foydalanilgan. Qolaversa, san’atkor ayollar ijodida ham Muqimiy she’rlariga bastalangan aytim namunalari bisyordir.

Kalit so‘zlar: an’ana, maqom, xonanda, hofiz, musiqali drama.

Abstract: Interest in the work of Muhammad Aminkhodji Mukimi, who grew up in the Fergana Valley, has always been high. His ghazals were set to music by many artists during his time. In particular, Mukimi ghazals were widely used in yallahs, classical songs and songs of Fergana-Tashkent status. In addition, many songs based on Muqimi's poems were created in the works of women.

Key words: tradition, makom, singer, hafiz, musical drama.

XIX-XX asr mobaynida Farg‘ona viloyatidan ko‘plab shoiru fuzalolar yetishib chiqqanligi barchamizga ma’lum. Bu o‘lkaning ulug‘ mutafakkir shoiri bo‘lmish Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy tavalludiga (1850-1903) qariyb 174 yil bo‘lsada, hanuz uning sermahsul ijodini o‘rganish davom etib kelayapti. Albatta, bu quvonarlidir.

Ta’kidlash joizki, muhtaram Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev 2017-2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021

yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi”, “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017 yil 31 maydagi PQ –3022-son qaroriga muvofiq muzeylarda mikrofilm, mikrofisha shaklida saqlanayotgan alohida qimmatli va noyob arxiv hujjatlarini raqamlashtirish va ularning elektron bazasini yaratish ishlarini olib borish nazarda tutilgan. Ushbu tadbir o‘laroq, “Qo‘qon” davlat muzey-qo‘riqxonasining Muqimiy xujra muzeyi filiali 2027 yil mukammal tamirlash ishlari olib borilishi rejalashtirilganligi ham Muqimiy ijodiga bo‘lgan munosib ehtirom desak yanglishmaymiz. Bu tadbirning ilk qadami sifatida “Muqimiy” kinofilmi tomoshabinlarga havola etildi.

Qizining o‘limi oldidan Allohga murojaat sahnasi bo‘lib, bu yerda rejissyor aktrisadan oddiy, samimiy, past ovozda u bilan muloqot qilishni istagan edi. Lekin S.Rametova uchun bu sahnani yaratish juda qiyinchilik tug‘dirdi. Sababi aktrisaning ichki holati, kechinmasi, o‘z-o‘zi bilan bo‘lgan muloqoti unsiz, sokin va faqat alloh bilangina bog‘lanuvchi aloqa akdemik ijro bilan almashib qolaverdi. Ayni sahna rejissyor kutgan natijani bermadi.

Spektaklda ishlatilgan barcha ifoda vositalari, ya’ni, sahna bezaklari, liboslar, aktyorlar ijrosi asar mukammalligi uchun xizmat qilgan. Uvaysiy-S.Rametova, Nodira-Z.Ashurova, Quyoshxon-L.Eltoyeva ijrosida kamchiliklar sezilmagan. Lekin shunga qaramay, til bilan bog‘liq bir-ikki muammolar bo‘lganini ta’kidlash lozim. Yuqorida ta’kidlanganidek, asar she’riy, dramatik dostondir, barcha dialog va monologlar nazmiy uslubda. Shuning uchun bo‘lsa kerak, asar matnini o‘zlashtirishda ba’zi qiyinchiliklar sezildi. Lekin S.Rametova, Z.Ashurova, L.Eltoyeva tomonidan ijro etilgan qahramonlar katta tayyorgarlik, kuch va tajriba ustiga qurilganini ko‘rinadi.

Aktrisalar talqin etayotgan qahramonining holatiga to‘laqonli kirishib, nutq va holat uyg‘unligini mujassam etgan. Ijroda siqiqlik yo‘q, rollar to‘liq kechinmaga tayanib talqin etilgan. Aktrisalarning ijrosi faqat ko‘rsatib berishdan iborat bo‘lib qolmay, balki ijodiy erkinlikda, juda yengil talqin orqali taqdim etilgan.

Pyesa mukammal bo‘lmasa-da adabiy asosni Valijon Umarov o‘zining sahnaviy topilmalari, aktyorlar ijrosi bilan to‘ldirdi. Spektaklda S.Rametova, Z.Ashurova, L.Eltoyeva bir-biridan rang-barang rollarni ijro etdi.

Spektaklda tanlangan musiqa ham uning badiiy yaxlitligini ta’minlagan. Rejissyor urushning daxshatini, xalq boshiga tushgan fojeani musiqa, chiroq va sekinlashtirilgan sahna (sahnani aylanishidan oqilona foydalangan holda) unumli foydalangan.

Xulosa, sahnada xarakter yaratayotgan aktrisaning holati, nutqidagi ohang, imo-ishorasi, ichki va tashqi harakati bir-biriga uyg‘un, mutanosib bo‘lishi lozim. Shuningdek, obraz yaratishda aktrisaning nutqi, tana tuzilishi, yuz ifodasi, ko‘z ishoralari, ichki tuyg‘u va kechinmalari, aql-tafakkur hamda idroki asosiy vosita sifatida yordam beradi. Aktrisaga shuningdek, grim, libos, ba’zan niqob ham qo‘l kelishi mumkin.

Spektakl yakunida rejissyorning topilmasi ham e’tirofli bo‘ldi. Sahna aylanib, sahna markazida Uvaysiy va butun spektakl voqeasi tomoshabin ko‘z oldida yana bir bor gavdalanadi. Mazkur yakuniy sahnada teatr va kinoning o‘zaro bog‘liqligi kuzatildi. Ya’ni kinematografda qo‘llanuvchi sekinlashtirilgan kadr sahnada ham jonlanadi. Ya’ni, qahramonlar hayoti bilan bog‘liq eng muhim voqealar ayni sahna aylangan paytda Uvaysining ko‘z oldida gavdalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:
1. Rahmonov M., To‘laxo‘jayeva M., Muxtorov I. O‘zbek Milliy akademik drama teatri tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. -268 b.
2. To‘laxo‘jayeva M. Teatr tanqidchiligi. – Toshkent: San’at, 2015 . – 410 b.
3. Muxtarov I. Teatr i klassika. – Tashkent: izdatelstvo literaturы i iskusstva im. Gafura Gulyama,1988. -176 s.
4. Muxtarov I. Teatr i yego aktyorы. – Tashkent: Fan, 1989. – 146 s.

Eshqurbonova Aziza Bozor qizi
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MULOQOT MADANIYATIGA OID NAZARIY QARASHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada muloqot madaniyati va nutq odobi haqidagi sharq allomalarining qarashlari yoritilgan. O`zbek xalqining o`ziga xos muloqot odobi masalari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *nutq madaniyati, nutqiy etiket, muloqot odobi, muloqot maydoni.*

Muloqot qonun-qoidalari, muloqot odobi kabi masalalar uzoq vaqtdan beri insoniyatni o‘ylantirib kelgan muammolardan hisoblanadi. Kishilar qadim zamonlardan buyon so‘zning kuchidan xabardor bo‘lib kelganlari tarixiy manbalardan ma’lum. Sharqona tafakkurda ham muloqot madaniyati jamiyat taraqqiyotining yetakchi omillaridan biri sifatida qaralib, muloqot odobi va madaniyati falsafiy va ma’naviy- axloqiy asarlarida jiddiy talqin qilingan.

O‘zbek xalqi asrlar davomida shakllangan milliy muloqot madaniyati, nutq odobiga ega. Muloqotning samarali amalga oshirilishi – muloqot etikasi faylasuflar, mantiqshunoslar bilan birgalikda tilshunoslarni ham qiziqtirib kelgan. Sharq allomalarining nutq odobi masalalarini o‘rganishga doir qarashlari diqqatga sazovar. Ular tomonidan yaratilgan qadimiy yozma yodgorliklarda muloqot odobi, til va nutq madaniyati masalalari keng yoritilgan. Sharq madaniyatining noyob asarlari hisoblangan “Qutadg‘u bilig”, “Hibatul-haqoyiq”, “Qobusnoma” asarlarida muloqot odobi me’yorlariga rioya qilish, nutqda so‘zlarni o‘rinli va maqsadli qo‘llash, ortiqcha gapirmaslik, yolg‘on so‘zlamaslik, rost gapirish haqida ibratli fikrlar bildirilgan.

Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida yaxshi hukmdor sifatlari haqida to`xtalib, “… bunday shahr hokimi tabiatan nozik farosatli bo`lib, suhbatdoshlarning so`zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg`ab olishi, shu sohada umumiy ahvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi” shuningdek, “o`z fikrini ravshan tushuntira olish maqsadida fasohatli ifodalay olishi zarur”[1] kabi fikrlarni bildirib o`tadi. Abu Rayhon Beruniyning bebaho asarlari sahifasida so‘z, uning ahamiyati, so‘zni to‘g‘ri qo‘llash va so‘z qo‘llash me’yorlari, tildagi o‘zlashma so‘zlar va bevosita nutq madaniyati va til estetikasiga aloqador bo‘lgan mulohazalar ham mavjud. Beruniyning ta’kidlashicha, tilning asosiy vazifasi kishilarning o‘zaro muloqotini ta’minlashdir, ya’ni “Til – so‘zlovchi istagini eshituvchiga yetkazuvchi tarjimondir”[2]. Buyuk mutafakkir Ibn Sino ham muloqot madaniyati xususida mulohaza yuritib, inson tili shunchaki muloqot qilishdan iborat bo‘lmasdan, balki muloqot egalariga muayyan axloqiy va estetik ta’sir etishni inobatga olib, quyidagicha yozadi: “Kishi nutqining kuchi shundaki, u boshqa kishilarga ham ta’sir qila oladi”[3]. Nutq madaniyati, nutqning sifatiga xos belgilaridan tashqari nutq texnikasi, notiq amal qilishi lozim bo‘lgan ba’zi talablar haqida ham Ibn sononing qimmatli fikrlari mavjud. Masalan, nutqiy faoliyatda ovozdan o‘rinli foydalanish yuzasidan shunday maslahat bergan: “Ovozni yo‘qotmaslik, nafas olish organini ishdan chiqarmaslik uchun, avvalo, o‘qishni past ovoz bilan boshlab, keyinchalik asta-sekin kuchaytirish, lekin kuchli ovoz bilan o‘qish ham uzoq davom etmasligi kerak”[3].

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida til, til odobi, nutq, muomala, yaxshi va yomon so‘z, yoqimli va mayin so‘z, ezmalik va chaqimchilik, to‘g‘ri va yolg‘on so‘z haqida aytilgan fikrlar uchraydi.[4] Husayn Voiz Koshifiy ham asarlarida muloqot odobi masalalariga to‘xtalib, suhbat, gapirish odobida o‘n olti (martabaga yetganlar uchun – sakkizta va martabaga yetmaganlar uchun – sakkizta) tamoyilga amal qilishni qayd etadi: “Agar martabaga erishganlar suhbatda qaysi qoidalarga amal qilishi kerak, deb so‘rasalar, aytgil, quyidagi sakkiz qoidani esda saqlashlari kerak: birinchidan, har kimning ahvoliga qarab, munosib so‘z aytsin. Ikkinchidan, dagallik qilmasdan, lutf va muloyimlik bilan gapirsin. Uchinchidan, gapirayotganda, tabassum qilib, ochilib gapirsin. To‘rtinchidan, ovozini baland ko‘tarmasin, eshituvchilarga malol kelmaydigan qilib gapirsin. Beshinchidan, odamlarga nafi tegadigan ma’noli gaplarni gapirsin. Oltinchidan, agar so‘zning qimmat-qadri bo‘lmasa, uni tilga olmasin, chunki uluglarning so‘zi bamisoli urug`dir, agar urug` puch yoki chirigan bo‘lsa, uni qayerga ekmang, unib chiqmaydi” va martabaga yetmaganlarning suhbat odobi ham sakkizta: “birinchidan, so‘ramagunlaricha gapirmasin. Ikkinchidan, gapirayotganda ovozini baland ko‘tarmasin. Uchinchidan, gapirayotganda o‘ngu so‘lga qaramasin. To‘rtinchidan, g`arazli va kinoyali gaplarni gapirmasin. Beshinchidan, qattiq gapirmasin va betga choparlik qilmasin. Oltinchidan, pushaymon bo‘lmaslik uchun o‘ylab gapirsin. Yettinchidan, odamlar gapini bo‘lib, so‘z

qotmasin. Sakkizinchidan, ko‘p gapirmasin. Chunki ko‘p gapirish aqli noqislik belgisidir. Oz bo‘lsa ham, ammo soz gapirishni shior etsin”.[5]

So`z bilimdonlarining o`z farzandlariga nasihat tarzida bitilgan asarlarida nutq odobi haqida ham qimmatli fikrlar bayon etilgan. Jumladan, Kaykovus kishilarni o‘rinli va oz so‘zlashga, o‘ylab, mulohaza bilan fikr yuritishga da’vat qiladi. Kaykovus avvalo so‘zning, so‘z san’atining ahamiyati va mavqeini yuqori qo‘yadi. U yozadi: “Bilgilkim, hamma hunarlardan so‘z hunari yaxshi...”. Kaykovus so‘z hunarining quroli bo‘lmish til va so‘zlarning qadrini ham yuqori baholaydi: “So‘zni juda ham qimmatli deb bilgil, chunki (so‘z) xor narsa emasdir”. Shuningdek “Qobusnoma” asarida keltirilgan “Nomaqbul rostni aytishdan parxez qil”[6] kabi ibratli fikrlari bilan to‘g‘ri so‘zlikni olqishlab, yolg‘on so‘zni qoralaydi. Boburning “Boburnoma”dagi “Takalluf qilay deysan, ul jihattin mug`laq bo`ladur. Bundan nari betakaluf va ravshan va pok alfoz bila biti: ham senga tashvish ozroq bo`lur ham o`qug`uchiga”[7] kabi nutq ododbi borasidagi qimmatli fikrlar bayon etilgan. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg`u bilig”dagi “So`ramasdan oldin nogoh so`z desang, ne ajab, eshitib dakki, pand yesang”[8], Ahmad Yugnakiyning “Nekim kelsa erga tilidin kelur, Bu tildin kim edgu, kim aqir bo`lur”[9] kabi mulohazalari o‘zbek xalqining nutq odobi, muloqot madaniyati haqidagi qarashlari qadimiy tarixga ega ekanligidan dalolat beradi.

Shuningdek, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida ham nutq odobi masalalari o‘rtaga tashlangan. Uning she’rlari va “Xamsa” asarida to‘g‘ri so‘zlash, yolg‘on gapirmaslik, nutqda so‘zlarni o‘rinli qo‘llash haqida qarashlari bayon etilgan. Chunonchi:

So‘zda, Navoiy, ne desang, chin degil,
Rost navo nag‘maga tahsin degil.[10]

kabi fikrlari yuqoridagi fikrimiz dalilidir. Shu bilan birga nutqning zerikarli, uzundan-uzoq holatda emas, balki so‘lovchi o‘z niyatini qisqa bayon etishi ahamiyati va bayon etilayotgan fikrning haqiqatga bo‘sunishi kerakligi haqidagi fikrlar ham Navoiy asarlarida ta’kidlanadi. Ushbu qoidalarni bugungi kunda ham ibrat bo‘la oladigan fikrlar desak yanglishmagan bo`lamiz.

Bugungi kunda ham til madaniyati, madaniy nutq, notiqlik san’ati masalalari o`zbek tilshunosligida ilmiy muammo sifatida tadqiq qilinib kelinmoqda. Dastlab til madaniyati va madaniy nutq masalalari notiqlik san’ati, nutq odobi, nutq etikasi doirasida tahlil qilindi. Bu yo‘nalishdagi ilk ishlar sifatida A.Ahmedov, S.Inomxo‘jayev, H.Jalilovlarning notiqlik san’ati, Sh.Rahmatullayevning nutq ko‘rki, M.Sodiqovaning nutq etikasi, O‘.Usmonovaning talaffuz madaniyati masalalari tahliliga bag‘ishlangan ishlarini ko‘rsatish mumkin . Keyinchalik ushbu masalalar B.Umurqulov, E.Begmatov, B. O‘rinboyev, A.Soliyev, A.Orifova, R.Qo‘ng‘urov, S.Karimov, T.Qurbonov, Y.Tojiyev, M.Tursunpo‘latov, T.Qudratov, E.Qilichev, B.Qilichev, R.Jumaniyozov, R.Rasulov, N.Husanov, Q.Mo‘ydinov, N.Mahmudov va

boshqa olimlarimizning ishlarida yanada rivojlantirilib, nutq madaniyatining dolzarb muammolari bo‘yicha muayyan yutuqlarga erishildi.

Umuman, har bir til jamiyatida kishilarning nutqiy muloqot olib borishiga qo‘yiladigan o‘ziga xos qoidalar majmuyi mavjud. Ular, tabiiy ravishda, jamiyatda belgilangan odob-axloq me’yorlari bilan bog‘liq holda shakllangan bo‘lib, nutqiy muloqotning yozma va og‘zaki turlarida o‘zaro farqlanadi. Muloqotning o`zaro mushtaraklik kasb etadigan mantiqiylik va izchillik, aniqlik va lo`ndalik, haqqoniylik va mutanosiblik, samimiylik va muloyimlik[11] kabi qonun- qoidalari borki, bu qoidalar barcha uchun barobar hisoblanadi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, har bir millatning o‘ziga xos madaniyati bor, bu esa fikrlashning xilma-xilligini belgilaydi. V.fon Gumboldt ta’biri bilan aytganda esa “Har bir til egasida o`sha tilning milliy ruhi yotadi”[12]. Til esa tafakkurning tashqi ifodasi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, turli tillarda so‘zlovchi xalqlar turlicha fikrlaydilar, turli dunyoqarashga va turli qadriyatlarga ega bo‘ladilar. Shu jihatdan ularning muloqot madaniyati ham turlicha bo‘ladi. Tafakkurning milliy o‘ziga xosligi milliy til bilan emas, milliy voqelik bilan belgilanadi. Har bir milliy til shu millat madaniyatining ko‘zgusi bo‘lib, uning dunyoqarashi, mentaliteti, milliy harakterini, urf-odatlarini , odob-axloqini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent. Yangi asr avlodi, 2020.- B.244.
2. Abu Rayhon Beruniy. Hikmatlar. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1973. – B. 46.
3. Rahimov S. Abu Ali ibn Sino ta’lim va tarbiya haqida. – Toshkent: O‘qituvchi, 1967. – B. 52-86.
4. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” – Toshkent. B.323.
5. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy. To‘plam: Komil inson haqida to‘rt risola (N.Komilov tarjimasi). -T.: Ma’naviyat, 1997.B.227-228.
6. Kaykovus Unsurulmaoliy. Qobusnoma.- Toshkent: O`qituvchi,1986.- B.41.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent. Yulduzcha, 1990.- B.312.
8. Yusuf xos Hojib. Qutadg`u bilig. Abduhamid Pardayev tadbili.- Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.- B.103.
9. To`xliyev B., Abdurahmonova B. Adabiyot.(Majmua). 1-kitob.- Toshkent. 2013.- B.98.
10. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami// Hayrat-ul abror. XX tomlik. VII tom. – Toshkent: Fan, 1991. – B.212.
11. Манджиева Э.Б. Формульные выражения традиционного этикета в русской и калмыцкой лингвокультурах: Дисс. .. канд. филол. наук. – Волгоград, 2009. – С. 175.
12. Гумьболдт В.фон. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – С.83.

Fotima Mamajonova,
Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI doktoranti

RASSOMLAR IJODIDA MUMTOZ ADABIYOT TALQINI

Annotatsiya*:* *Mazkur maqolada bugungi kunda yashab ijod etib kelayotgan rassomlar ijodida mumtoz adabiyot talqini haqida so‘z boradi. Rangtasvir namsunalaridan kelib chiqqan holda, ular nega aynan diniy bog‘liqlikda ifoda etilganligi hamda badiiy meros mavzusi yosh ijodkorlar ijodidagi ahamiyatga ega jihati haqida ham batafsil fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *kartina, tasavvuf, kompozisiya, syujet, kolorit, polotno, Tavhid.*

Rangtasvirda rassomlar to‘xtalishi mumkin bo‘lgan mavzular xilma-xil. Ayniqsa, Mustaqillik davrida milliy qaxramonlarni ulug‘lash, qadriyatlarga zamonaviy ruhda murojaat, shuningdek, badiiy merosni o‘z asarlarida talqin etish rassomlarni yanada qiziqtira boshladi. Qolaversa bugungi kun rassomlari ijodiga oid syujetlarda ham o‘z aksini topmoqda.Tarixisiz kelajak bo‘lmaydi, deganlaridek, bugungi zamonaviy san’at negizi, tarixiy madaniyat va qadriyatlarimiz jam bo‘lgan milliy san’atimizga borib taqaladi, undan oziqlanadi. Nafaqat yetuk rassomlar balki, shakllanib kelayotgan yosh avlod esa, bu yo‘nalishdagi mavzularga qo‘l urish orqali, katta bir millat va necha ming yillik davom etayotgan qadriyatlarga dahldorlikni his qiladilar va ijodiy rangbaranglikka erishadilar.

Yosh ijodkorlarning badiiy adabiyotning mavzulariga doir kompozisiyalar yaratishidagi ijobiy jihatlarini quyidagicha baholash mumkin:

1. Tarixiy mavzuga qo‘l urishdan oldin rassom ushbu mavzuni to‘laqonli o‘rganadi va tahlil qiladi. Bu esa tabiiyki rassom dunyoqarashi kengayishi, millat tarixi va milliyligiga dahldor bo‘lgan tarixdan xabardor bo‘ladi.

2. Ijodkor badiiy merosni rangtasvirda talqin qilish orqali ularning barhayotligida, keyingi yosh avlodga yetib borishida ko‘prik vazifasini bajaradilar.

3. Mumtoz badiiy adabiyot syujetlarini o‘zida jamlagan, lirik ohangdagi rangtasvir namunalari tomoshabinni, adabiyotga, musiqa va rangtasvirga bo‘lgan muhabbatni shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

4. Badiiy asarlarda keltirilgan diniy va falsafiy fikrlarni tahlil etishi va o‘rganishi, to‘g‘ri talqin etish uchun, teranroq fikr yuritishi, tasviriy san’atning yosh vakillarida tarbiyaviy va ahloqiy jihatlarni shakllanishida katta omil vazifasini o‘taydi deb hisoblaymiz.

Rassomlartomonidan ishlangan, mumtoz adabiyotga bag‘ishlangan rangtasvir namunalarini ko‘zdan kechirarkansiz, asosan diniy-falsafiy mushoxadaga chorlovchi kompozisiyalar turkumiga duch kelasiz. Bu bevosita mumtoz adabiyotning din bilan bog‘liqligi bilan ifodalanadi. Shu o‘rinda savol tug‘ilishi tabiiy! Nega mumtoz

adabiyotda diniy qarashlar asosiy g‘oyani egallagan edi, degan savolga quyidagicha javob berish mumkin. Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Ashraf Marog‘iy, Abdurahmon Jomiy, Amir Shayxim Suhayliy,Gulshahriy, ochiq Poshsho, Shahidiy, Muhammad Fuzuliy, Alisher Navoiy, Yusuf xos Hojib, Farididdin Attor, Mahmud Qoshg‘ariy, Abulqosim Firdavsiy, Abu Abdulloh Ro‘dakiy, Gulxaniy, Ogahiy, Atoiy, Uvaysiy, Nodirabegim, Anbar Otun, Zebunniso, Lutfiylar mumtoz adabiyotning yorqinnamoyondalaridan sanaladilar. Mumtoz fors adabiyotining rivoji, asosan IX-XV asrlar, ya’ni Islom mintaqa madaniyati davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrda Tavhid “islom ma’rifatchiligi” – yagona Allohga sig‘inish, Alloh yaratgan borliqning yagonaligi, Alloh ato etgan tafakkurga tayanib, borliqni o‘rganish va anglab yetish g‘oyasi ustunlik qiladi[1]. Badiiy adabiyot ham yagona g‘oya ostida yanada rivoj topa boshladi. Ayni shuning uchun bu davr adabiyoti diniy qarashlarga asoslangan holda shakllandi. Ulamolar arab, fors va turkiy tillarda ijod qilishdi. Endigi navbatda islom e’tiqodi asosida tasavvuf g‘oyalari adabiyotda ustunlik qila boshladi. Ular diniy aqidalar, Qur’on oyatlarini real hayot bilan moslashtirib talqin etish orqali o‘quvchini ma’naviy komillikka va adolatga yetishishini ta’minlashni ko‘zda tutganlar hamda eng asosiysi, ular tomonidan egallangan diniy bilimlar bilan yanada ko‘proq odamni tanishtirish va ortidan ergashtirish bo‘lgan.

Aynan shu jixatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri rassom qalamiga ko‘chadi:Jamoliddinov Temurg‘olib. “Xamsa”. 1989-1990. Chingiz Axmarov. “Layli va Majnun”. 1947.Niyozali Holmatov. “Hamsa” asari muallifi Alisher Navoiy. 2009-2016. m.m.Tasavvuf turkumidan. “Semur- adirdagi Majnun”. 1996.m.m. Akmal Ikromjonov. “Sevishganlar. Layli va Majnun” 1991. m.m. 100x85.5. “Cho‘milayotgan Majnun” 2020. m.m. 85x80. “Uchrashuv. Layli va Majnun” 2021. m.m. 125x115. G‘ofur Qodirov. “Layli va Majnun”. 1999.m.m.80x179. Baxodir Jalolov. “Majnun sahroda”. 2002. q.q. 30x42. “Umar Hayyomning tushi”. 1999.q.q. 21x29.5. “Umar Hayyom ruboiylariga bag‘ishlov”. 2000.q.q. 21x29.5. “Naqshbandiy xotirasiga”. 1996. Akmal Nur. “Qays” 2006-2007.m.m. Ortiqali Qozoqov. “Layli va Majnun”. 1993.m.m. 60x70. Jamol Usmonov. “Alisher Navoiy va Farididdin Attor”. “Mansab talashgan qushlar”. Lison ut Tayr asariga bag‘ishlanadi. Shayh San’on. 1998.m.m. Behzod Xodjimetov. Shayh San’on. 2006. Feruza Erkaboyeva. “Lison ut Tayr”. 2007. m.m.190x238. Fayzulla Axmadaliyev. “Yassaviy”. 2005. “Yassaviyga bag‘ishlov”. 2008. “Naqshbandiy”. 2009. Yana ko‘plab o‘zbek rassomlari asarlarini misol qilishimiz mumkin. Mazkur asarlar aksariyatidagi, kompozisiyalarida sokinlik saqlab qolinganligiga guvoh bo‘lamiz. Polotnolardagi kolorit va tasvir ifodasida lirik ohang mavjud. Mazkur syujetlarda adabiyot, musiqa va raqs umumlashadi.

[1] “Бадиий адабиёт ва тасаввуф тимсоллари”. Тошкент Давлат Шарқшунослик институти. Тошкент.: “РаззоқовО.Д.” 2010. Б-198.

Akmal ikromjonov. Layli va Majnun. "Sevishganlar"m.m., 100x85.5. 1991.

Hozirgi kunda milliy ma'naviyatimiz rivojini san'at namunalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. O‘zbek rassomlarining keyingi yillardagi samarali ijodi, yangi-yangi yutuqlarning qo‘lga kiritilishi, qadriyatlar va tariximizga doir mavzularga qo‘l urishi, san'at ustalarining bu sohada qilayotgan mehnati va izlanishlaridan darak beradi.

Shuni aytish kerakki, yuqorida ko‘rib chiqilgan rangtasvir namunalarida, undagi ifoda, ko‘rinish yangicha yo‘nalishni taklif etsa-da, g‘oya va asar mazmuni o‘tmish falsafasi bilan boyitilgan.Birinchidan, san'atning qaysi turi bo‘lmasin, xattoki so‘nggi zamonaviy uslubda ham g‘oyaviy jihatdan milliy an'analar negizini o‘zida namoyish etaveradi. Ikkinchidan, bugungi kunda ijod qilayotgan rassomlar qalbida millatning boy o‘tmishi, moddiy hamda nomoddiy merosiga bo‘lgan muhabbat hali-hanuz saqlanib qolinganligi tomoshabin qalbida iliqlik uyg‘otishi tabiiy. Ayniqsa bu kabi mavzular targ‘ibotchilari yil sayin yosharib borayotganligi quvonarli holat. Ko‘rinib turibdiki, prezidentning "Kelajak yosh avlod qo‘lida" degan fikrlari o‘z isbotini topmoqda. Zero xalq an'analarini saqlash, millat ma'naviyatini g‘oyaviy boyitishda yoshlarning o‘rni katta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chingiz Axmarov. Albom. Toshkent:. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1979.
2. "Badiiy adabiyot va tasavvuf timsollari". Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti. Toshkent.: "Razzoqov O.D." 2010. B-198.
3. Ijodimiz haqida gapirsak. Albomlar turkumi. 1 jild. – Toshkent: "Kartografiya". 2006. 93 b.
4. S.Abdullayev. O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi. Badiiy ko‘rgazmalar direksiyasi. Toshkent: 2006.
5. Ijodimiz haqida gapirsak. Albomlar turkumi. 3 jild. – Toshkent. "San'at nashriyoti". 2008. 91 b.
6. B.Djalal. Sukunat shoxidi hayrati. Katalog. Toshkent: "O‘zbekiston Badiiy akademiyasi". 2008. 103 b.

Shamuratova Nozima Ismoil qizi,
O‘zDSMI tayanch doktoranti

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MUSTAQIL TA’LIM OLISH HAQIDA ILMIY QARASHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Sharq olimlarining ilmiy pedagogik qarashlari, islom sivilizatsiyasi davrida o‘z-o‘zini rivojlantirishning foydalari haqida atroflicha yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *mustaqil ta’lim, umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyat, milliy tafakkur, islom madaniyati, pedagogik faoliyat.*

Abstract. *This article provides comprehensive coverage of the scientific pedagogical views of Eastern scientists as well as the benefits of self-development in the era of Islamic Civilization*.

Key words: *independent education, universal values, national value, national thinking, Islamic culture, pedagogical activity.*

O‘zbek madaniyatidagi Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlarini taxlil qilar ekanmiz, Sharq Renessansi deb nom olgan IX–XV asrlarda Markaziy Osiyo ma’naviy madaniyati rivojlanishida muhim davr hisoblanib faylasuf, tarixchi, pedagog, matematik olimlar o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlari bilan samarali ijod qilishgan. Ilm-fanni dindan ajralish jarayonida asosiy fanlar va falsafiy va pedagogik tushunchalarni yaratilishi ta’lim, o‘qitish va o‘rganish uchun katta imkoniyatlar eshigini ochdi, ushbu davrning eng katta yutuqlaridan biri “Ma’mun akademiyasi” (IX asr, Bag‘dod, “Baytul hikma”) tashkil etilishi Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari uchun ma’naviy madaniyat sohasiga qo‘shgan barchamizga tanish bo‘lgan allomalar Muhammad al-Xorazmiy (787–850-yillar), Abu Nasr Forobiy (870–950-yillar), Al-Kindiy (800–870-yillar), Abu Rayhon Beruniy (973–1050-yillar), Abu Ali ibn Sino (980–1037-yillar) va boshqalarning ijodiga ijobiy ta’sirini ko‘rsatgan.

Sharq mutafakkirlari o‘z asarlarida pedagogik qarashlarida ta’limni ular fan sifatida emas, balki boshqa fanlarga o‘rgatish san’ati, hunarmandchilik sifatida tushunishgan. Shu boisdan ta’lim amaliyoti ta’lim usullari, qoidalari, tamoyillari, metodlari va shakllari asosida tashkil etilsa ham maxsus didaktik nazariya yaratilmagan.

O‘rta asr Sharqining bilimdon mutafakkirlari yoshlarni kasbiy va axloqiy jihatdan tarbiyalanishiga katta ahamiyat berishgan. Bo‘lajak olim sifatida har bir yetuk shaxs maxsus ta’limga ega bo‘lishi talab etilgan, shu bilan birga o‘z ustida ishlamagan olim yetarli bilimga ega bo‘la olmagan. Bo‘lajak olimni o‘z ustida qay tartibda ishlashi haqida ham allomalarimizda turli xil qarashlar bo‘lgan. Jumladan, Muhammad al-Xorazmiy bilim olishda talabalarning shaxsiy kuzatishlariga hamda olgan bilimlaridan foydalanishga katta e’tibor berish zarurligi hamda izlanuvchilarning ilmiy manbalarni to‘plash, ulardan foydalanish va kuzatganlarini tushuntira olish malakalarini hosil qilishiga katta baho bergan.

Mustaqil ta’limdan ko‘zlanadigan natija aslida kerakli bilimlarni o‘zlashtirish, bo‘lajak mutaxassisning kasbiy ko‘nikma, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat bo‘lib, nazariy material bo‘yicha olingan bilimlarni amaliy jihatdan mustahkamlash, shu bilan birga o‘zini-o‘zi tarbiyalashga bo‘lgan ehtiyojini oshirishdan iborat bo‘lib bunda shaxsning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirish va vaziyatni tahlil qilish hamda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalari ham shakllanadi [1].

Hozirgi kunda ham aynan ushbu ko‘nikmalarni shakllantirish dolzarb masalalardan biri sanaladi, hamda ilmiy salohiyatini oshirishda Sharq olimimiz Muhammad al-Xorazmiy ***“Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va-l muqobala”*** asarida olim insonlarni uch guruhga ajratganligini ko‘rishimiz mumkin. Birinchi toifadagi olimlar o‘zidan avvalgilar qilgan ishlarini amalga oshirishda boshqalardan o‘zib ketadi va uni o‘zidan keyin qoluvchilarga meros qilib qoldiradi. Ikkinchi toifa olimimiz o‘zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi va bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi, tushunarsiz bo‘lgan joylarini tushunarliroq qiladi. Uchinchi toifadagi olimlar ayrim kitoblarda nuqsonlar topadigan va sochilib yotganni to‘playdigan odam bo‘lib, u o‘zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo‘ladi, takabburlik qilmaydi va o‘zi qilgan ishidan mag‘rurlanmaydi” [2]

Allomalarimizdan yana Abu Nasr Forobiy, Al-Kindiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Musliqiddin Sa’diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylar ham ta’lim bo‘yicha o‘z qarashlarida ta’limning ilmiyligi, ongliligi, ko‘rgazmaliligi, tushunarliligi, ketma-ketligi, muntazamligi, moslashuvchanligi va mustaqilligi, shuningdek, bolaning individual xususiyatlari, layoqati va qobiliyatlarini hisobga olish, ta’limni insonparvarlashtirish, o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo‘lishlariga alohida ahamiyat qaratadilar [3]. Ularning fikrlaricha, yaxshi o‘qituvchi boshqalardan bir jihati bilan farq qiladi, ya’ni u o‘zi ega bo‘lgan bilimlarni yoshlarga beminnat o‘rgatadi, har bir ishda ularga namuna bo‘la oladi.

Sharq Uyg‘onish davrining buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniyning ta’kidlashicha, ta’limda ko‘rsatmalilik muhimdir. Chunki u ta’limni ishonchli, aniq va qiziqarli qiladi, kishining kuzatish qobiliyati va tafakkurini rivojlantiradi. Ta’lim ilmiy asosga qurilishi kerak. Uning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” [4] asarida aniq bo‘lmagan faktlarni aniqlamasdan xabar qilishdan saqlanish kerakligi aytiladi. O‘rta asrlarda Sharqda mutafakkirlar odatda o‘qish va tafakkur kombinatsiyasi orqali ko‘pincha falsafa, ilohiyot va fan kabi turli fanlardan matnlarni o‘qish va o‘rganish uchun uzoq vaqt sarflashardi. Ushbu matnlar odatda o‘sha davrning taniqli olimlari tomonidan yozilgan va mutafakkirlar ularda keltirilgan g‘oyalarni sinchkovlik bilan tahlil qilib, mulohaza yuritishgan. O‘qishdan tashqari, murakkab tushunchalarni tushunishni chuqurlashtirish usuli sifatida tafakkur va meditatsiya bilan ham shug‘ullanishgan. Ular ko‘pincha hayotning mazmuni, koinotning tabiati va boshqa

chuqur savollar haqida o‘ylab, jimgina mulohaza yuritishda vaqt o‘tkazishardi. Bundan tashqari, o‘rta asr Sharqidagi ba’zi mutafakkirlar turli mavzularni tushunishni yanada rivojlantirish usuli sifatida yozish va munozara kabi amaliyotlar bilan ham shug‘ullanishgan [5].

Shunday qilib, o‘rta asr Sharq mutafakkirlari tomonidan o‘z ustida ishlash, mustaqil bilim olishlari bo‘yicha quyidagi xulosaga kelsak bo‘ladi. Sharq mutafakkirlari o‘z-o‘zini anglashning rivojlanishini asosiy sharti sifatida shaxsning axloqini shakllantirish va birinchi navbatda munosabatlar etikasi, deb bilishadi. O‘zlarining bilish imkoniyatiga boshqalarning bilim darajasiga qarab baho berishgan hamda olgan bilimlaridan foydalanishga katta e’tibor berishgan. Mustaqil ilm olishda o‘rgangan bilimlarini nafaqat umumiy nazariy jihatlarni muhokama qildilar, balki uni takomillashtirishning amaliy imkoniyatlariga harakat qilishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidova Z., Sultaova D. Mustaqil ta’limning shakllari, usullari va ustuvorliklari. https://www.oriens.uz/uz/conference/article/mustaqil-talimning-shakllari-usullari-va-ustuvorliklari
2. Davurova G. Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari pedagogika nazariyasining metodologik asosi sifatida._ https://scienceweb.uz/publication/1059
3. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. –T.:
“Sano-standart’ nashriyoti, 2017 yil. 416-bet.
4. Yo‘ldashev Sh.I. Talabalarning mustaqil ta’limining zamonaviy o‘quv jarayonida ahamiyati va o‘rni bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: 2022.
5. Zakhidova Dilfuza A. Learned thinkers of the medieval East on the ideal person // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. 2010. №. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/learned-thinkers-of-the-medieval-east-on-the-ideal-person (дата обращения: 22.04.2024).

Сапарбаева Севара Абатбаевна,
Государственная академия хореографии Узбекистана
магистрант кафедры руководитель хореографических коллективов

РАЗРАБОТКА ТВОРЧЕСКИХ ПРОЕКТОВ-НАПИСАНИЕ ЛИБРЕТТО СОЗДАНИЕ СЦЕНАРНОЙ И ХОРЕОГРАФИЧЕСКОЙ ДРАМАТУРГИИ

Если выражаться правильно то в танце, как и в каждом виде искусства, художественная правда находит свой, специфически присущий только ему, конкретно чувственный облик, обусловленный своими выразительными средствами, которыми являются пластика человеческого тела, танцевальная лексика, рисунок танца, музыка, сценическое оформление танца. Работа над любым хореографическим произведением начинается с замысла, с написания программы этого произведения.

А значит программа и либретто – это не одно и то же. Либретто – это краткое изложение действия, описание уже готового хореографического произведения, в котором есть лишь необходимый материал, нужный зрителю. Однако в балетоведческих работах употребляется именно слово либретто. У автора есть ряд задач в написании программы излагать сюжет, определять время и место действия, раскрывать в общих чертах образы и характеры героев. Удачно задуманная и написанная программа, играет большую роль для последующих этапов работы балетмейстера и композитора. В том случае, если в основу сюжета автор программы берет литературное произведение, он обязан не только сохранить сюжет и образы первоисточника, сохранить характер и стиль, но и найти соответствующее решение сюжета в хореографическом жанре. В связи с этим автору программы приходится иногда менять место действия, идти на сокращения и дополнения, если они не искажают характер и идею произведения.

Развитие образа и характера, конфликт все это должно работать на идею, на основную мысль, заложенную в программе. Неисчерпаемый источник для танцевальных произведений – сама жизнь. В окружающей действительности неисчислимое множество характеров и образов, жизненных явлений, которые могут стать основой сюжета, тогда автор сам волен определить, в каком жанре хореографии его сочинение будет раскрыто наиболее полно. Окружающая действительность помогает балетмейстеру при создании образов наших современников.

Автору программы следует всегда помнить, что танец в хореографическом произведении – это в первую очередь средство создания образа: именно танец должен раскрывать тему, идею спектакля, его сюжетные коллизии. Поэтому

крайне важно при выборе сюжета мысленно видеть средства его сценического воплощения в хореографическом произведении. Основа будущей работы закладывается автором программы. Он создает основу драматургии будущего хореографического произведения, он должен уметь в образах героев раскрыть образ эпохи, образ современника, выявить типичные черты и черты индивидуальные, свойственные только данному герою, данному персонажу, автором программы, либретто гложет быть любой творческий человек, знающий специфику хореографического искусства, чаще всего им является балетмейстер.

Композиционный план это развернутый хореографический сценарий будущего балетного спектакля или концертного номера, включающий в себя режиссерскую разработку хореографической программы: сюжетная основа, идея и тема, место, время действия, музыкальный материал, рисунок танца, хореографический текст, костюмы и декорации, освещение и бутафория все мельчайшие детали будущего хореографического произведения. В нем разрабатывается сюжетная основа, говорится, какими средствами на сцене будут раскрываться образы действующих лиц, как будут раскрыты идея и тема.

В композиционном плане указывается место, время действия эпизода или сцены, костюмы и декорации, освещение, все мельчайшие детали будущего хореографического произведения. При прочтении композиционного плана перед нами должна возникнуть картина будущего хореографического произведения. Прежде чем приступить к работе, автор композиционного плана должен изучить материал, который берется в основу сюжета программы. Изучение жизни, быта народа, национальных черт, обычаев и обрядов также поможет балетмейстеру-автору композиционного плана. Культура народа, социально-экономические условия его жизни – все это важно знать и использовать в работе над произведением. Большое внимание следует обратить на литературные источники, исторические, архивные материалы. Заложенная в программе схема будущего хореографического произведения, находит в композиционном плане свое развитие: хореографические образы приобретают зримые черты, разрабатывается действие, через которое раскрываются характеры героев. Автор композиционного плана должен донести через действие, через сценические образы идею произведения, создать эмоциональную атмосферу, образный строй. Он также должен указать примерную длительность, хронометраж, номера отдельных его частей. Длительность номера может указываться в секундах или количестве тактов, музыкальный размер.

Литература

1. И.В.Смирнов. Искусство Балетмейстера. Москва. «Просвещение» 1986 г.
2. Р.Захаров. Сочинение танца. Москва «Искусство». 1989 г.
3. И.Г.Горлина. Искусство Балетмейстера. Ташкент. «Fan ziyosi». 2022 г.
4. Р.Захаров. Записки Балетмейстера. Москва 1976 г.

Gulnoza Shavkatova,
O‘zDSMI tayanch doktoranti

TEATR PEDAGOGIKASINING MA’NAVIYATIMIZ SHAKLLANISHIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ma’naviyatni shakillantirishda teatr san’atining ahamiyati, spektakllarimizning yoshlarning dunyoqarashini shakillantirishdagi o‘rni va zamonaviy jamiyatimizda ma’naviyatga qaratilayotgan e’tibor alohida ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *teatr, ma'naviyat, yoshlar, spektakl, madaniyat, pedagogika, ta'lim, dunyoqarash, komillik.*

Annotatsiya: *The importance of theatrical art in the formation of spirituality, the role of our performances in the formation of the world outlook of young people and the attention paid to spirituality in modern society are emphasized*.

Keywords: *theater, spirituality, youth, performance, culture, pedagogy, education, worldview, perfection.*

Ma’naviyatni yuksaltirish, uni yuksak tafakkur bilan boyitish-milliy mustaqillikni mustahkamlashning muhim shartidir. Shu bois davlatimizning madaniy-ma’rifiy siyosati asosida har bir fuqaroda yuksak ma’naviy salohiyatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Millatning kamolotga erishishi, taraqqiy etishi ham bevosita milliy ma’naviyatga asoslanadi. Ma’naviyat milliy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi, aqliy-intelektual, hissiy-emotsional irodaviy salohiyatidir.

2021-yil 19-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligida o‘tkazilgan videoselektrda ma’naviyatga shunday ta’rif beradi: **“Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”**.[1]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonli “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida Ma’naviyat konsepsiyasi ishlab chiqildi[2]. Konsepsiyaning ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilab olindi:

- ma’naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;

[1] Xalq so‘zi, 2021 1-son, 2-b
[2] Lex.uz

- tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda avvalo, onaning homiladorlik davrini to‘g‘ri tashkil etish, go‘daklar va bolalarni ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarni belgilash;

- yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish;

- homiladorlik davridan boshlab 30 yoshgacha davom etadigan uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-ona, tarbiyachi, o‘qituvchi, uzluksiz ta’lim muassasalari va mahalla jamoatchiligining o‘zaro samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish;

- aholining farzand tarbiyasi bo‘yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma’naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o‘tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish;

- ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, internet jahon axborot tarmog‘i orqali tarqatilayotgan g‘arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg‘unchi g‘oyalarga karshi sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish.

Ma’naviy tarbiya shakillanishida teatr san’atining ahamiyati katta. Yosh avlod qalbiga vatanparvarlik, fidoiylik, mexr-oqibat kabi tuyg‘ularni singdirishda spektakllarimizning o‘rni beqiyos. Farzandlarimiz teatr sathiga qadam qo‘yar ekan, avvalo unda tomoshabin madaniyati shakillanadi, jamoa joylarida o‘zni tutish odobiga e’tibor qaratadi. Jonli voqealar tasvirlanayotgan spektakllarimiz orqali esa, o‘z zamon qahramonini yaratadi, qoralanayotgan yomon illatlardan uzoq yurishga, komillik sari intilishga intiladi.

Milliy teatr san’atimizning asoschisi buyuk taraqqiyparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy 1914-yili “Oyna” jurnalida “Teatr nadur?” maqolasida teatrga shunday ta’rif beradi: “Teyotr nimadur? Javobig‘a teyotr ibratnamodur, teyotr va’zxonadur, teyotr ta’zir adabidir. Teyotr oyinadurki, umumiy hollarni anda mujassam va namoyon suratda ko‘zliklar ko‘rub kar-quloqsizlar eshitib, asarlanur. Xulosa: teyotr va’z va tanbih egguvchi hamda zararlik odat, urf va taomilni, qabih va zararini ayonan ko‘rsatguvchidur. Hech kimni rioya qilmasdan to‘g‘ri so‘ylaguvchi va ochiq haqiqatni bildurguvchidir. «Qul-al-haqqa va lav kona va maroan» mazharidur. Ayni zamonda yana tamoshogoh va yoinki ko‘ngul ochguvchi milliy va adabiy jam’iyatlarni boisidur. Hikoyat va yoinki nasihat kitoblarinda ba’zi bir hodisani bayon qilingandurki, o‘qub, asarlanib, lazzat olinadur. Ammo teyotrg‘a maxsus bir hodisa va yo voqea va hikoyatni fe’lan qilib ko‘rsatiladurki, muning ta’siri eshitkandan ziyodadur. Shunidan kay bud monandi diydan – eshitmoq qachon ko‘rmoq kabidur. Yana teyotrda savodsiz odam ko‘zi ila ko‘rub, ko‘zsiz odam eshitib, kar mushohada etib, ibrat va lazzat olar. Xulosa:

teyotr bir nav’ maktab hukmindadur.”[1] Behbudiy teatr ibratxona ekanligini ta’kidlar ekan, uni maktab darajasiga tenglashtiradi. Sahnadagi aktyorlarni esa muallimlar deb ataydi.

Tarixdan ma’lumki, ma’naviy dunyoqarashni shakillantirishda san’atning, xususan, teatrning ro‘li beqiyos bo‘lgan. Markaziy Osiyo hududida teatr san’ati jadidlar say harakatlari orqali rivojlandi. Jadidlar ma’naviyati va vujudga kelgan yangi o‘zbek teatr san’ati mustamlakachilikka, qaramlikka, zo‘ravonlikka, qarshi kurashish jarayonida shakllangan ijtimoiy hodisadir. Jadidlar tarix maydoniga ma’rifatparvarlik, milliy ozodlik harakatlari g‘oyalari bilan kirib keldilar. Xalqning qalbini uyg‘otish, ma’naviyatini shakillantirish, yoshlar savodxonligiga oshirish kabi maqsadlarga erishish uchun ular teatr va maorifni rivojlantirish yo‘lini tanladilar. Jadidlarning ma’naviy hayotni, xalq ta’limini tubdan isloh qilish g‘oyasi ilg‘or, nisbatan yangi, zamonaviy dunyoqarash bo‘lib xalqda ozodlik va erkinlik tuyg‘ularini uyg‘otish asosida jamiyatni taraqqiy ettirish, rivojlanayotgan xalqlar qatoriga kirish orzusini paydo qiladigan milliy mafkuraga yo‘g‘irilgan edi. Maqsadlariga tinchlik, avvalo ta’lim sohasini isloh qilish maktab, madrasa, gazeta, jurnal, teatr san’atini targ‘ib qilishdan boshladilar. Yangi usul maktabi asoschilari qatorida Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Cho‘lpon, Munavvar qori, G‘ulom Zafariy, Fayzulla Xo‘jayev, Mannon Uyg‘ur kabi fidoiylar yetakchilik qilishdi. “Bu ma’rifatparvarlarning merosini o‘anishda qimtinib “Jadidlarning estetik qarashlari” deb emas, balki baralla: “Jadidlar estetikasi” deb, uni chuqur, ilmiy asosda o‘rganadigan va tadqiq etadigan davr keldi. Chunki, millatimizning faxri bo‘lgan bu fidoyi insonlar: birinchidan, milliy ozodlik, erkinlik, ma’naviyat va ma’rifat g‘oyalari va mafkuralar uchun jonlarini tikkan edilar; ikkinchidan, tom ma’noda, ziyoli, ijodkor, siyosiy harakat tashkilotchilari, milliy g‘oya tashviqotchilari va faol amaliyotchi bo‘lganlar; uchinchidan, go‘zallik qonunlarini anglagan, unga amal qilgan va shu qonunlar asosida yashab, ijod etgan, ko‘plab shogirdlar tayyorlagan edilar. Ularning estetik merosi muayyan tizimga ega bo‘lib, “Jadidlar estetikasi” degan yuksak ilmiy-nazariy merosni tashkil qiladi va bum eros jahon madaniyati tarixidan munosib o‘rin oldi. Bu merosni hozirgi davr yoshlarining estetik ideallari tarkibiy qismiga aylantirish uchun uni har tomonlama o‘rganish hamda xolis baholash zarur”[2]- deb ta’rif beradi, professor Mamurjon Umarov.

Darhaqiqat, teatr san’ati qudratli tarbiya vositasidir. Ayniqsa bolalar va yoshlar tarbiyasida uning o‘rni beqiyos katta. Chunki teatr tomoshabinga yuzma-yuz turgan holda uning xis-tuyg‘ulariga, ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbek milliy teatri san’ati vujudga kelgandan buyon ma’rifat markaziga aylandi. Shu kunga qadar necha buyuk

[1] M.Rahmonov “O‘zbek teatr tarixi” 2001-yil

[2] “Mannon Uyg‘ur va milliy teatr etetikasi”- M.Umarov, Toshkent 2006, 11-b

san’at darg‘alari teatr sahnalarida tomoshabinlar uchun ko‘zgu vazifasini o‘tadilar. Zero inson o‘z nuqsonlarini ko‘zgudagina to‘liq anglab yetishi mumkin.

Teatr san’atida bolalar repertuarini Mannon Uyg‘ur va G‘ulom Zafariyning badiiy hamkorligi shakillantirdi. Mannon Uyg‘urning teatrga bo‘lgan muhabbati uni pyesalar ustida tinimsiz ishlashga, tomoshabinlar uchun yangiliklar yaratishga, hamkasblarini ijodiy qirralarini ochishga, dolzarb va mazmunli asarlar ustida ishlashga turtki berardi. U dramaturg, rejissyor, grimchi, asarlarni sinovdan o‘tkazadigan ijodkor va qaysidur ma’noda tarjimonga aylangan edi. G‘ulom Zafariy 1919-yili bolalar tarbiyasi mavzusida “Baxtsiz shogird” asarini yozgan. E.Ismoilovning ta’kidlashicha, 1919-yilning oktabr oyida o‘zbek teatrida Uyg‘ur rahbarligida “Bolalar teatri” repertuari dunyoga kelgan. Ma’rifatni avvalo murg‘ak qalblardan boshlash kerakligini, yangi unib o‘sib kelayotgan nihol parvarishini boshidanoq to‘g‘ri yo‘naltirish lozimligini anglab yetgan jadidchilarimiz, bolalar uchun pyesalar yaratishga kirishdilar. Mannon Uyg‘ur bolalar adabiyotiga doir “Turkiston tabibi” G‘ulom Zafariy esa “Tilak”, “Rahmli shogird”, “Yomon o‘g‘il”, “Erk bolalari” kabi asarlar yaratdi.

Afsuski, bugungi kunda teatrlarimizdagi pedagogik tarbiyaga bo‘lgan e’tibor bor oz sustlashgan. Millatimiz kamoloti ma’naviy tarbiyaga asoslanar ekan, bugungi tarbiya o‘chog‘i hisoblanmush teatr maskaniga farzandlarimizni jalb qilish masalasi eng ilg‘or masalalardan biri bo‘lmog‘i lozim. Nafaqat muallimlarimiz balki ota-onalarimiz ham bu masalaga chuqur yondoshishlari, farzandlarini kichik yoshdaligidanoq teatr maskaniga olib borishni odat qilishlari kerak. Shundagina farzandlarimizning teatrga, adabiy kitoblarga qiziqishlari ortib, ma’naviy tarbiyasi shakillana boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” 2008.
2. M.Umarov “Mannon Uyg‘ur va milliy teatr estetikasi” 2006.
3. M.Rahmonov “O‘zbek teatr tarixi” 2001-yil
4. Xalq so‘zi, 2021-yil 1-son, 2-bet
5. www.lex.uz

Kamola SULEYMANOVA (MAHMUDOVA),
O‘zDSMI doktoranti

BUYUK AJDODLARIMIZNING BOLALIK HAYOTLARI HAQIDA ANIMATSION FILMLAR YARATISH MASALASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘rta asr Sharq allomalari mutafakkirlarining ilmiy tarixiy merosini o‘rganish va bolalarda vatanparvarlik, milliy g‘urur, qonunlarga hurmat va islohotlarga dahldorlik g‘oyalarini tasvirlovchi animasion filьmlar yaratish masalasi mulohaza qilingan va takliflar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *kino, animatsiya, ssenariy, janr, qahramon, obraz, kadr, texnologiya, uslub.*

Kinematografiyada animatsiya janri dastlab kinoning texnik imkoniyati sifatida, keyinchalik ko‘ngilochar shou timsolida, vaqtlar o‘tib bolalar uchun yaratiladigan kino janri ko‘rinishida, bugun esa o‘zining alohida tur va janrlariga ega alohida san’at sifatida taraqqiy etdi. O‘zbek animatsiyasida milliy “kontent”ni yaratish bugungi kunning dolzarb muammosi sanaladi. Nafaqat bolalar balki turli yoshdagi tomoshabinlar uchun kontent yaratish bir qancha bosqichlarni o‘z ichiga oladi, har bir bosqich uchun esa alohida mutahassislar talab qilinadi. Bunday natijaga erishishda horijiy mutahassislarning ilmiy, ijodiy tajribalarini o‘rganish talab etiladi.

Animasion film yaratishda ssenariy puxtaligi multfilm muvofaqqiyatini belgilaydi. Bugungi dinamik hayot fonida yangi mediaolam shakklanib animatsiya uning asosini tashkil qilmoqda. Insoniyat sivilizatsiyasida o‘ziga xos hissa qo‘shib kelayotgan animatsiya nazariyasi, tilini tushunish masalasida bir qancha olimlar tadqiqotlar olib bordi. Bugungi kunda, animatsiyaga ko‘ngilochar format timsolida emas, aksincha namuna darajasidagi kartinalar yaratish maqsadga muvofiq, bu haqda chet ellik mutahassilar shunday yozadi, “biz hikoyalarimizni bolalarga ham, kattalarga ham qiziqarli bo‘lishiga harakat qilamiz”.[1, b. 83] Animasion film muvaffaqqiyatida film muallifining qadriyatlari, o‘ziga xos bo‘lgan urf odatlari, qarashlari, muayyan hodisaga bo‘lgan munosabati qatorida novatorlik mahorati ya’ni tomoshabinga fikrni yetkaza olish bilim va ko‘nikmalari talab qilinadi. Masalan, yaponiya animatsiya maktabida shakllangan afsonaviy obrazlarga boy animasion filmlari millatga xos an’ana, qadriyatlari, diniy va dunyoviy qarashlari, rang barang qiziqarli syujetlarga aylantirish asosida ravnaq topdi.

Animasion qah janrida atrofdagi predmetlar jonlanishi hamda fantastik, ilmiy fantastik, jangovor film janrlariga xos bo‘lgan saruzasht, bolalar va o‘smirlar tomosha qiladigan ulg‘ayish mavzusidagi filmlarni qamrab oladi. [2, b.95]

Animasion film ssenariysini shakllantirish bir qancha bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu bosqichlarni amalga oshirishdan asosiy maqsad badiiy asarni animasion film

ssenariysiga aylantirish ko‘zda tutiladi. Undan oldin muallif adabiy asar g‘oyasi animasion film formatiga mos kelishi yoki aksincha tasvirga olish orqali ko‘rsatsa bo‘ladigan fikrni tanlamasligi lozim. Negaki animatsiya baddiy film yoki televizion novellalardan bir necha barobar yuqori moddiy harajatlarni keltirib chiqaradi. Animatsiya shunchalik cheksizki unda qog‘oz va qalam orqali hikoya qilishdan to universal kompyuter dasturlarini talab qiladigan murakkab tasvirlarni yaratish mumkin. Tadqiqodchilar adabiy nuqtayi nazardan zamonaviy animatsiyani yaratishda bir necha tendensiyalarni sanab o‘tadilar:

• Poetik jihatdan ifodalilikni oshirish uchun bir necha janrlarning aralashmasidan foydalanish;

• Ekranlashtirilayotgan asarni ta’sir kuchini oshirish uchun metafora, giperbolizatsiya, ramzlar kabi turli adabiy vositalardan foydalanish;

• Klassik asarlardan foydalanish. [3, b.72]

Krivulya N. o‘zining tadqiqod ishida shunday yozadi: “adabiy manbalarga murojaat qilish animatsiyaning folklyor kelib chiqishini yashiradi. Folklyor elementi o‘z mohiyatiga ko‘ra filmlarning semantikasini chuqurlashtirmaydi, chunki tashqi ko‘rinishidan farq qiluvchi epik matnlar asosan ma’lum strukturaviy izomorfiya va semantik ma’nolarning umumiyligini ifodalaydi”.[4, b.22] Turli folklyor matnlarga murojaat ma’lum bir ma’noni takrorlash va to‘ldirish elementini o‘z ichiga oladi. Xalq ijodiyoti animatsiyaga yaqin bo‘lib, uning badiiy va teatral kelib chiqishini belgilab berdi, ya’ni, ommaviy madaniyatning ta’siri asosida shakllangan. Uzoq vaqt davomida animatsiya ekran san’atining periferik sohasi sifatida qabul qilingan va bolalar auditoriyasiga mo‘ljallangan multfilmlarga e’tibor qaratish ustunlik qilgani tufayli “yuzaki” baho berilgan. Adabiy makon nafaqat tekis varroqlarning chegarasini ochishga, balki semantik chuqurlikni qo‘shdi va jonlantirilgan matnni “yuqori” san’at doirasiga o‘tkazdi. Shunday qilib, yevolyusion uzluksizlikni yashirish, niqoblash aytilayotgan fikrning tub ifodasi kadrga ko‘chirishga hizmat qildi va diqqatni g‘oya yukiga qaratdi.

O‘zbek animatsiyasida zamonaviy milliy multqahramonlar yaratishda dramaturgiyasi puxta ssenariylar, kreativ mushohadali rejissyor animatorlar tayyorlash, dunyoning yetakchi studiyalarida tajriba almashish, soha mutaxassislari ishtirokida animasion filmlar muhokamasini muntazam o‘tkazish, eng sara milliy filmlarni telekanallar va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng targ‘ib qilish zarurati yuzaga keladi. Bu borada yosh avlodni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalash, ularning dunyoqarashini shakllantirishda animasion filmlarning ssenariysini shakllantirish talab etiladi. Shunday ekan, buyuk ajdodlarimizning bolalik hayotlari haqida animasion fil’mlar yaratishda muallif tarixiy voqealarni tadqiq qilishi; qahramon xarakterni rivojlanish yoyini ishlab chiqishi; bolalarni ham, kattalarni ham qiziqtira oladigan tarixiy voqea hamda ta’lim beruvchi syujet tanlashni e’tiborga olish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar
1. Asenin S.V. Mudrost ыmыsla: Mastera multiplikasii o sebe i svoyem iskusstve. – Moskva: Iskusstvo, 1983.
2. Makki R. Istoriya na million dollorov. Master klass dlya ssenaristov, pisateley i ne tolko. Per. s angl. 3-ye izd., Moskva: Alpina non-fikshn, 2011.
3. Kolbыsheva I. Animasionnoye kino v sovremennoy obrazovatelnoy srede. Nauchnaya statya. Cyberleninka.ru 2019.01
4. Krivulya N.G. Osnovnыye tendensii avtorskoy animasii Rossii 60-90-x godov. Avtoreferat dissertasii na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata iskusstvovedeniya. – Moskva: VGIK. 2001.

Xakimova Nigina Olimjon qizi,
O‘zDSMI tayanch doktaranti

ALISHER NAVOIY ASARLARI O‘ZBEK MILLIY QO‘G‘IRCHOQ TEATRI SAHNASIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyning tilimiz rivojiga qo‘shgan hissasini, ilmiy asarlarining mohiyatini, ma’no-mazmunini, ijodi va merosini o‘rganish va mazkur asarlarni teatr sahnasida turli xil tillarda sahnalashtirib, chet ellik mehmonlar uchun ham namoyish etilishi lozimligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy ijodi, xamsa, dostonlar, teatr, spektakl va turizm.

Annotatsion. This article explores the contribution of the great thinker Alisher Navoi to the development of our language, the essence, meaning of scientific and artistic works, creativity and heritage, and considers that these works should be staged on the stage of the theater in different languages and presented for foreign guests.

Keywords: Alisher Navoi’s heritage, Hamsa, epics, theater, stage performance and tourism.

“Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak,
avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak,
mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak,
shoirlarning sultonidir”.[1]

Mutafakkir bobomizning “**Odamiy ersang, demagil odami, Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami”** degan satrlarida qanchalik chuqur ma’no bor. Ya’ni, bu dunyoda insonlarning dard-u tashvishlarini o‘ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir. Xalqning g‘amidan uzoq bo‘lgan insonni odam qatoriga qo‘shib bo‘lmaydi, deya uqtiradi ulug‘ bobomiz.[2]

Alisher Navoiy – davlat arbobi, faylasuf va ulug‘ shoirligi, uning nafaqat adabiyot sohasiga qo‘shgan hissasida emas, balki har bir sohada o‘zining izlanishlari bilan ijod

[1] **“**Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” I.A.Karimov
[2] “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” Sh.M.Mirziyoyev

qilib, turli xil yo‘nalishlarga oid asarlar yozib, o‘zidan ulkan ma’naviy meros qoldirganligi bilan ham ifodalanadi. Navoiy ijodining salmoqli qismi nasriy asarlardan iborat. Ular ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy va ilmiy-falsafiy yo‘nalishlardadir. Adabiyot, san’at, musiqa, falsafa, tarix, davlat boshqaruvi va hattoki iqtisodiyot sohalarida ham izlanishlar olib borib, ilmiy risolalar yozadi. “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Vaqfiya”, “Tarixi mulki Ajam”, “Tarixi Tabariy”, ”Shoxnoma” asarlari shular jumlasidandir.

Uning g‘azallari va ruboiylari esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri inson qalbiga yetib borib, qalbni va ongni poklaydi, inson ruhini esa tiniqlashtiradi.

“Inson qalbining quvonch-u qayg‘usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi.

Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg‘usi ham bizning ong-u shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko‘p bahramand etsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma’rifiy qurolga ega bo‘lamiz.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g‘ururi, sha’n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san’atkoridir.” [1]

Buyuk shoir va mutafakkir, so‘z mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy barcha turkiy xalqlarning buyuk shoiridir. Buyuk shoir Xurosonda, uning poytaxti Hirotda yashab o‘tdi. Qadim zamonlardan, shu jumladan, Navoiy yashagan davrda ham Xuroson va Movarounnahr bir mamlakat bo‘lib, bir taxt egasi ixtiyorida kelgan, aholisining asosiy qismini turkiy xalqlar tashkil etgan. Zahiriddin Muhammad Bobur “Navoiy tili – Andijon shevasi bilan rost”ligini aytadi. Binobarin, biz – o‘zbeklar turkiy xalqning eng qadim bo‘g‘inini tashkil etgan va bugun o‘zbek millati bo‘lib shakllangan buyuk xalq sifatida Navoiyning bevosita vorislaridirmiz. Navoiydek jahoniy zotga avlodlik va vorisik hissi har bir o‘zbekning qalbini g‘urur va iftixor tuyg‘ulari bilan to‘ldiradi.

Mana biz bu yil Navoiy tavalludining 583-yilligini nishonladik. Yarim asrdan ortiq vaqt o‘tgan bo‘lsa ham Navoiy ijodi hali-hamon o‘rganilmoqda. Asarlari tahlil qilinib, g‘azallari kuyga solinmoqda. Dostonlari esa sahnada va ekranda jonlantirilmoqda.

Alisher Navoiyning ko‘pgina asarlarining ilmiy tanqidiy matni ishlab chiqildi. «Devoni Foniy» va boshqa asarlarining nodir nusxalari topilib, nashr etildi. XX asrda Alisher Navoiyning chinakam sahnaviy hayoti boshlandi. Izzat Sulton va Uyg‘un «Alisher Navoiy» dramasini (1945, 1948), I. Mahsumov bastakorlar Y.Rajabiy va S.Jalil bilan hamkorlikda «Navoiy Astrobodda» musiqali dramasini (1967) yozdilar. Alisher

[1] **“**Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” I.A.Karimov

Navoiy obrazi kinoekranda ham mujassamlashdi. Alisher Navoiy dostonlari asosida yaratilgan «Farhod va Shirin» musiqali dramasi (1937), «Layli va Majnun» operasi (1942), «Suhayl va Mehri» baleti (1967), «Dilorom» operasi (1958), «Iskandar» dramasi (1991) teatr san'atining eng yaxshi asarlaridan bo'lib qoldi.[1] "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin", "Sabba'i sayyor", "Saddi Iskandariy" va "Lison ut-tayr" dostonlari asosida sahnalashtirilgan spektakllar yuqoridagi fikrimizning isbotidir. Bu asarlar ayniqsa, qo'g'irchoq teatrlari sahnasida sahnalashtirilishi quvonarli hol albatta.

Teatrlarimiz mumtoz asarlarga qo'l urar ekan, Alisher Navoiy ijodiga murojaat qilmasliklarining iloji yo'qdir. Qashqadaryo viloyat qo'g'irchoq teatrida Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni asosida dramaturg Xayitmat Abdurasulning qo'g'irchoq teatri uchun yozilgan inssenirovkasi "Qush tili" spektakli rejissyor Sh.Yusupov tomonidan sahnalashtiriladi. "Lison ut-tayr" dostoni hajman 193 bob, 3666 baytdan iborat. Mazkur spektakl esa dostonning asosiy qismi bo'lgan 14-bobni o'z ichiga oladi.

Mazkur bobda barcha qushlar majlis qurmoq uchun yig'iladilar. Lekin majlisda o'rin talashib, janjallashib qolishadi. Shunda ular agar bir adolatli podsho bo'lganda, bahsga hojat qolmagan bo'lardi, deb o'ylaydilar. Shu vaqt Hudhud degan qush shunday podshoh borligini, uning nomi Simurg' ekanligi va Simurg'ning huzuriga bormoqchi bo'lganlar uzoq hamda mashaqqatli yo'lni bosib o'tishlari zarurligini aytadi. Qushlar Hudhud boshchiligida yo'lga tushadi. Bir necha kun yo'l yurgach, mashaqqatli safar ularni toliqtiradi. Ular ortga qaytmoqchi bo'ladi va birin-ketin Hudhudga o'z uzrlarini ayta boshlaydi. Hudhud esa ularga ibratli hikoyatlar so'zlab berib, arosatdan olib chiqib ketadi. Ular uzoq yo'l mobaynida turli xil vodiylardan o'tadilar. Nihoyat vodiylar so'ngida faqat o'ttizta qush qolganligi ma'lum bo'ladi. O'ttizta qush forschada "Si murg'" degan ma'noni anglatadi. Bu qushlar qayerga boqmasinlar, u yerda o'zlarining akslarini ko'ra boshlaydilar. Doston so'nggida qushlar o'zlaridagi Simurg'ni kashf etadilar.

Shuningdek, tadqiqot muallifining fikricha, "Mantiq ut-tayr"dagi g'oyaga ko'ra, undagi qushlar Simurg'ning soyasi, xolos. Ya'ni ular Simurg'ga intilganlaridagina ahamiyatli. Qushlar (insonlar)ning bu dunyodagi hayoti hijron va ayriliqda. Navoiyda esa ularning yaratilishi hijron va ayriliqda emas, balki Yaratganning hikmatidadir. Attor dostonida qushlar so'nggi vodiyda Simurg' bilan birlik kasb etadilar, Navoiy dostonida esa riyozat chekish asnosida poklanib, o'zlaridagi Simurg'ni kashf etadilar.

Dostondagi bazi qushlarni ramziy timsollar sifatida quyidagicha talqin qilish mumkin:

Tovus – dunyo go'zalligiga mahliyolik.

Qarchig'ay – hokimlik qilish istagi.

[1] http://tafakkur.net/alisher-navoiy.haqida

Bulbul – foniy dunyo oshig‘i.

Kaklik – o‘z raftoru amallariga mahliyo bo‘lish.

Burgut – maqsadsiz kuch-qudrat.

Tovuq – fikriy, ma’naviy parvozdan mahrumlik.

Bundan kelib chiqadiki, ko‘pchilik Haqqa yetishish davosi bilan bir yo‘lga kirishi mumkin, lekin hamma ham bu yo‘ldagi imtihon va sinovlardan o‘ta olmasligi mumkin ekan. Asardagi falsafiylik va haqqa intilishni ifodalovchi g‘oyalar nafaqat yosh tomoshabinlarni, balki yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo‘lgan tomoshabinlar uchun ham ahamiyatliligini yo‘qotmaydi.

Navoiy ijodidan yana bir doston, ya’ni “Farxod va Shirin” dostoni Buxoro viloyat qo‘g‘irchoq teatrida 2022-yilda davlat buyurtmasi asosida rejissyor Shomurod Yusupov tomonidan sahnalashtiriladi. Asar muallifi Hayitmat Rasul, sahnalashtiruvchi rassom esa Zavqiddin Yodgorov.

«Farxod va Shirin» – turkiy xalqlar adabiyotlarida an’anaviy mazmunga ega bo‘lgan va bir necha ijodkorlar tomonidan qalamga olingan ishqiy qissa va dostonlardan birining nomi.

Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni u yaratgan «Xamsa»ning ikkinchi dostoni bo‘lib, unda Farhod oddiy tosh yo‘nar oshiq emas, balki xoqonning o‘g‘li, aniqrog‘i, Xo‘tan mamlakati podshosining qarilikda ko‘rgan yakkayu yagona farzandi bo‘lib, yoshligidan fanning barcha sohalariga qiziqqan, harbiy bilimlarni, ayniqsa, toshyo‘narlik, kasbini egallashga uringan. U Shirinni, otasi xazinasidagi sehrli oynada ko‘rib, darhol sevib qoladi. Unga erishish uchun turli mashaqqatlarni boshidan kechiradi. U Arman elida Shirin uchun qazilayotgan ariqni bitkazish ishlarida o‘zining nimalarga qodir ekanini ko‘rsatadi. Ammo bosqinchi Eron hukmdori Xusrav bilan kurashda hiyla bilan qo‘lga olinib, qahramonlarcha halok bo‘ladi. Uning sevgilisi Shirin esa uning jasadi ustida jon beradi.

Spektaklni tomosha qilar ekansiz, dostondagi asosiy g‘oya va voqea o‘z o‘rnida qolganini guvohi bo‘lamiz. Asar yaxlit va butun holda sahnaga olib chiqilgan. Voqealar ketma-ketligi, tasviriy yechim, musiqiy bezak va albatta aktyorlar ijrosi spektakldagi bir butunlikni xosil qila olgan. Qo‘g‘irchoqlar, ularning liboslari ham ma’lum ma’noda spektaklning mavzusini ochib berishga xizmat qila olgan. Fikrimiz dalili misolida, Farxodning Chin xoqoqining, Shirin arman yurtining malikasi ekanligi muhokama va sharhlarsiz qo‘g‘irchoqlarning yuz tuzilishi va kiyimlarida aniq namoyon bo‘ladi.

O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatri sahnasida ham sahnalashtiruvchi rejissyor Shomurod Yusupov boshchiligida Alisher Navoiy “Xamsa”si turkumidagi “Sabbai sayyor” dostoni asosida yaratilgan yangi spektakl –“Bahrom va Dilorom” spektakli sahnalashtirildi. Asar dramaturg To‘ra Mirzo tomonidan asosiy mavzu va g‘oya saqlangan holda, sahna uchun qayta ishlandi. Asar g‘oyasi ikki qalb o‘rtasidagi ishqni

tasvirlash bilan cheklanib qolmay, balki insoniy tuyg‘ular haqida, muhabbat va iztirob, nafs va kibr, ezgulik va yovuzlik kabi illatlarni ham o‘zida saqlab qoladi.

Asar uchun tanlangan sharqona musiqa, musiqaga xos qizlar xorining jozibador raqslari, mahoratli aktyorlar jamoasi, sharqona uslubda ishlangan qo‘g‘irchoqlar xilma xilligi hamda asar g‘oyasini ochishga xizmat qiluvchi tasviriy yechim va voqealar ketma ketligining uzluksizligi natijasida spektakl ko‘plab davlatlarda o‘tkazilgan festivallarda qatnashib, yuksak e’tiroflarga sazovor bo‘lib, nominatsiyalarda faxriy o‘rinlarni egallab kelmoqda.

Navoiy ijodi asrlar oshsa-da, o‘z mavzusining dolzarbligi va g‘oyasining teranligi bilan bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan. Biz bugun Alisher Navoiy ijodisiz xech bir fan taraqqiyotini tasavvur qila olmaymiz. Asrlar osha yashab kelgan, bizgacha yetib kelgan merosni o‘qib-o‘rganib, targ‘ibotini oshirish, yoshlarni Navoiy ijodi bilan tanishtirish va bizdan keyingi avlod uchun ham yetkazib berish bizning asosiy vazifalarimizdan biridir.

Navoiy hayoti va ijodi teatr sahnalari va kinolentalarga muhrlanmoqda. Lekin ularni sonini va sifatini oshirib, nafaqat o‘zbek tilida, balki rus, ingliz va boshqa tillarda ham sahnalashtirib, filmlar yaratib, ularni dunyo bo‘ylab targ‘ib qilish kerak. Misol uchun, teatrlarimizda tarixiy va milliy asarlarimiz ingliz tilida yaratilsa va spektaklga xorijdan kelgan mehmonlar, sayyohlar taklif qilinsa, mana shu bir soat vaqt oralig‘ida spektakl tomosha qilgan tomoshabin O‘zbekiston tarixi, urf-odati va millati, shu bilan birga tarixiy siymolari bilan qisman bo‘lsa-da, tanishgan bo‘lar edi. Va bu tarjima spektakllar bilan chet elga gastrol safarlariga chiqish ham qulaylik tug‘dirar edi. Axir bugungi kunda chet tillarni o‘rganishga e’tibor kuchaygan va har bir yosh kadr kamida bitta chet tilini bilishi zamon talabi bo‘lib turgan bir davrdamiz. Bugun shu imkoniyatlardan foydalanib, tariximizni, madaniyatimizni va ajdodlarimizning oltinga teng merosini yoyishga intilishimiz zarur.

Mustaqillikka erishgach, xalqimiz Navoiy hayoti va ijodini chuqur o‘rgandi. 1991-yilda Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi tantanali nishonlandi. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti ta’sis etildi. Toshkentda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘i barpo etildi va bu bog‘ o‘rtasida shoirning salobatli haykali qad ko‘tardi. Shoirning 20 jildli mukammal asarlar to‘plami nashr etildi. Mamlakatimizda Alisher Navoiy xotirasi yuksak darajada e’zozlanadi. Bir viloyat, shahar, oliy o‘quv yurti (Samarqand davlat universiteti), Toshkentdagi Davlat kutubxonasi, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti, Adabiyot muzeyi, Toshkentdagi Katta akademik opera va balet teatri, San’at saroyi, Toshkentdagi metro bekati, o‘nlab ko‘chalar va jamoa xo‘jaliklari uning nomi bilan atalgan. Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag‘ishlab haykaltaroshlar, rassomlar va bastakorlar asarlar yaratishgan. Har yili Alisher Navoiy tug‘ilgan kun – 9 fevralda ilmiy-an’naviy konferentsiya o‘tkazilib, Alisher Navoiy merosini o‘rganish sohasida qilingan yillik

ishlarga yakun yasaladi.[1] Yangi san'atimiz va adabiyotimizning yo'li porloq va uzoq. Bu yo'lda Navoiy siymosi bizga doimo rahnamo va uning boy ijodiy merosi aso bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islom Karimov/ „Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch'' Toshkent „Ma'naviyat'' 2015y/47b
2. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil
3. http://tafakkur.net/alisher-navoiy.haqida
4. T.Tursunov "XX asr o'zbek teatr tarixi"/"Toshkent" 2010-yil
5. M.Qodirov "Sehr va mehr"/ G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti/Toshkent-1980
6. "Teatr" jurnali 2016-yil/1-son
7. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 2009 yil 11-soni
8. A. Qayumov/ Alisher Navoiy (Mashhur siymolar hayoti)/Toshkent Kamalak,1991y

Azizaxon Ismanova,
O'zDSMI mustaqil tadqiqotchisi
Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori,
professor I.J.Yuldashev

SAN'AT, MADANIYAT VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARI ORQALI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MILLIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada kelajak egalari bo'lgan yosh avlodni yetuk va barkamol, insonparvar bo'lib voyaga yetishida o'zbek xalq ertaklarining ahamiyati muhim ekanligi yozilgan.

Abstract: This article says that the meaning of Uzbek folk tales is important so that the young generation, who are the masters of the future, grows up mature, comprehensively developed and humane.

Kalit so'z: ertaklar, qahramon, bog'cha, san'at, madaniyat, tarbiya, to'garak.

Key words: fairy tales, hero, kindergarten, art, culture, education, circle.

Millatning kelajagi hisoblangan yosh avlodni har tomonlama yetuk inson qilib voyaga yetkazilishi, ularning tarbiyasi, ma'naviy kamol topishi kabi dolzarb masalalar davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi va pedagoglari oldida turgan mas'uliyatli vazifadir. Bugungi kunda, yurtimiz kelajagi bo'lgan yosh barkamol avlodni tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularning bilim olishiga, hunar o'rganishiga ko'mak berishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yosh avlodni munosib tarbiyalash eng avvalo, Ota-ona va oila bilan bir qatorda bolalar bog'chasi tarbiyachi hamda pedagoglariga ham bog'liq. Bolalarning so'z

[1] http://tafakkur.net/alisher-navoiy.haqida

boyligini oshirish, nutqini rivojlantirish, xotirasi, musiqiy qobiliyatini o‘stirish bilan bog‘liq o‘tkaziladigan barcha mashg‘ulotlarda, xususan musiqa mashg‘ulotlarida o‘yin, mulьtimediya
va innovasion texnologiyalardan samarali foydalanishga ham bog‘liq. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishda asosiy maqsad, ularni jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk, madaniyatli, mehnatsevar, vatanparvar, odob-ahloqli insonlar qilib voyaga yetkazishdan iborat.

“Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda asosiy manbalardan biri bo‘lgan “Ilk qadam ” davlat dasturida ilk yoshdan olti-yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni jismoniy, ijtimoiy-hissiy, nota o‘qish va savodga tayyorlash, aqliy rivojlantirish bo‘yicha pedagogik vazifalar asosida har bir yosh guruh bolalari o‘quv yili ohiriga kelib egallashlari lozim bo‘lgan malaka va bilimlarining zaruriy hajmi berilgan.

Yosh bolalarni xar tomonlama kamol toptirish va tarbiyalash turli vositalar hamda musiqa mashg‘ulotlari, tadbirlar, ertaklar orqali amalga oshiriladi. Musiqa mashg‘ulotlari, bayram ertaklari, innovasion texnologiyalar, multimediya, elektron darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va slaydlardan foydalanib, bog‘cha bolalarini nutq madaniyati va dunyoqarashi shakllantiradi.

Bolalar atrof-muhitni to‘g‘ri anglashda o‘zlarini o‘rab turgan narsalarni, yuz berayotgan xodisalar, kuy va qo‘shiqlarni, raqslarni, harakatlarini bajarishga qiziqadilar. Ulug‘ alloma Abu Nasr Farobiy “Aql xaqida risola”, “Kitobul ahloq” va o‘zining bir qancha asarlarida “Har bir kishi a’lo darajada tarbiya olmog‘i kerak va chuqur bilimga ega bo‘lmog‘i lozim. Atrof-muhitdan barcha narsa va xodisalarni bilmog‘i uchun, musiqa va tarbiya vositalari orqali bolalarda ilk yoshdan eng yaxshi fazilatlarni uyg‘otmoq lozim” – deb aytib o‘tgan.

Bolalarda bog‘cha yoshidan berilgan ta’lim-tarbiya to‘g‘ri olib borilishi kerak, chunki bog‘cha yoshidan olib borilgan bilimlar, musiqiy mashg‘ulotlar, didaktik o‘yinlar, topishmoqlar, kuy va qo‘shiqlar, ertaklar, o‘zaro muomala madaniyatlari bola qalbida butun umr muhrlanib qoladi. Bolalarning nutqini o‘stirish, musiqiy qobiliyatini, xotirasini rivojlantirishda turli o‘yinlar, mashg‘ulotlar, raqs harakatlari, ertaklar, o‘zbek xalq kuy va qo‘shiqlari muhim ahamiyatga ega. Bolalarni komillik sari yetaklashda, tarbiyaning ko‘plab omillari qatorida musiqa tarbiyasining ham ahamiyati katta. Bola musiqa bilan ilk bor oilada, ona allasi orqali tanishib, umrbod musiqadan madad topadi, ma’naviy ozuqa oladi. Zero, kuy va ohang ta’sirida ezgulikka intilish, go‘zallikni asrash, vatanga sadoqat, tabiatga muhabbat xis tuyg‘ulari asta-sekin rivojlanib boradi.

Onasi bag‘rida bola hali yurishni, so‘zlashni bilmay turib, musiqani eshitib orom oladi, sho‘x musiqani eshitib turli qo‘l harakatlarini bajarib, musiqaga munosabatini bildiradi. Onasidan alla eshitgan bola esa odobli, mehribon, mehnatsevar, halol inson bo‘lib voyaga yetadi. Yaxshi, mayin, chiroyli musiqa bola miyasini, asab tuzilishining rivojlanishiga ko‘mak beradi. Ilk musiqani bolalar ongida shakllantirish va musiqaga

qiziqishini uyg‘otish albatta bog‘chadan boshlanadi. Ayniqsa bog‘chalarda o‘zbek xalq kuy va qo‘shiqlarini bolalarga o‘rgatish, ularda qiziqish uyg‘otadi, chunki bolalar o‘zbek xalq musiqasi bilan, ona allasi, televideniya, radio, mahallalarda bo‘ladigan to‘ylar, madaniy tadbirlar va marosimlar orqali tanish bo‘ladilar, bu esa ularni qalbini quvonch va zavqqa to‘ldiradi.

Bolalar bog‘chasida o‘tkaziladigan musiqa mashg‘ulotlarida ham, bola musiqani tinglab idrok qiladi undan zavq va ma’naviy ozuqa oladi. Mashg‘ulotlarda bolalarni qo‘shiq kuylash raqs elementlarini bajarish, chapak chalish va cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lishi ularda yanada qiziqish uyg‘otadi, chunki bolalar serharakat o‘yinlarga, erkalatishga, shirin so‘zga moyil bo‘ladilar. Raqs harakatlari orqali bola ma’lumotlarni tez qabul qiladi. Milliy xalq qo‘shiqlaridan “Kovushim”, “Chamanda gul”, “Oftob chiqdi olamga”, “Boychechak”, “Non yopkanda mening oyim”, “Oyijon boshginam og‘ridiyo” kabi qo‘shiqlar bolalarda milliy urf-odatlarimizga hurmat tuyg‘usini shakllantiradi.

Bolalarni o‘zbek xalq cholg‘u asboblarida musiqa chalishga o‘rgatish ularda fikrlash doirasini rivojlantirish, notalarni o‘rganish, musiqa cholg‘ularni chalish usullari bilan tanishtirish, ritm tuyg‘usi, jamoada chalish odatlarini shakllantiradi, o‘zbek xalq musiqasiga, milliy cholg‘u sozlariga qiziqishi va mehr-muhabbati uyg‘onadi. Ular musiqaning sirli olamini kashf etib, cholg‘u va sozlar ovozlarini, turli ohangdosh kuy va musiqalarni bir-biridan farqlay boshlaydilar. Musiqa jo‘rligida qo‘shiq ayta olish, raqsga tushish, raqsga tushganda harakatlarni moslashtira olish, musiqani tinglab tahlil qilish kabi bilimlariga ega bo‘la boshlaydilar.

Bundan tashqari bola bog‘chasida o‘tkaziladigan musiqiy bayram ertaliklari bolalarga ijobiy ta’sir etib, bayramlarning tarbiyaviy kuchi o‘z g‘oyasiga ega bo‘lib ularda unutilmas xotiralar qoldiradi, bolalar dunyoqarashini badiiy va ma’naviy tomondan boyitadi. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar yaxshi shakllanib, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni qadrlaydigan odobli, aqlli, har tomonlama yetuk jismonan sog‘lom, jamiyat oldida masuliyatni his qiladigan insonlar bo‘lib voyaga yetadilar.

Bola o‘zidagi xohish va istaklarini rasm chizish orqali ham namoyon qiladi. Aksariyat xollarda bolalarga qog‘oz va qalam berilsa, ular ko‘pincha oilaning rasmini chizadi. Bolaning chizgan rasmi orqali uning kelajakda kim bo‘lib yetishishi va u nimalarga qizishini bilish ham mumkin.

Albatta, maktab yoshigacha bo‘lgan bolalarning ta’lim olishi, ularning tarbiyasi bilan shug‘illanish, sog‘lig‘i haqida qayg‘urish, ertangi kun egalarining dunyoqarashini shakllantirish dolzarb masaladir. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi bilan shug‘illanish barchamizning, xususan Madaniyat muassasalari xodimlarining ham vazifalaridan biridir. Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyalanuvchilari har tomonlama

sog‘lom, ongli, fikrli va dunyoqarashi, ma’naviyati go‘zal bo‘lib tarbiyalanishida madaniyat va san’atning o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining madaniyat va san’atga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish va ularning ochilmagan qirralarini keng namoyon eta olishi uchun madaniyat markazlarida faoliyat yuritayotgan barcha to‘garaklarni, shuningdek, teatr studiyalarining roli ham kattadir.

Bolalarning hayotiga yanada quvonch bag‘ishlab, manaviy va tarbiyaviy ozuqa berish uchun avvalo bolalarning ruhiyatiga ijobiy ta’sir etadigan, ularni tarbiyalashga qaratilgan yangi spektakllarni yaratish va ularni bolalarga zamonaviy talqinda eng yorqin ranglar bilan havola etish hozirgi zamon talabidan biridir.

Oltin vodiy ertaklari nomli ertaklar to‘plamidagi “Mehribonlik” nomli ertakka to‘xtalsak. Bu ertakda qadim zamonda bir boy bo‘lib, uning bittayu bitta o‘ta rahmdil qizi bo‘ladi. U yolg‘iz farzand bo‘lishiga qaramay otasi juda xasis bo‘lib, qiziga ko‘p zulm o‘tkazar edi. Boy har kuni ovga borardi. Ovga ketishidan oldin qiziga yarimta non berib ketar edi. Bir kuni boy ovga ketayotib qopqon olish esidan chiqib uyiga kelayotganida yo‘lda bir nochor otaxon qo‘lida yarimta non bilan ketayotganligini ko‘rib undan nonni qayerdan olding deb so‘raydi. Otaxon esa boyning uyini ko‘rsatib ana shu uyda bir rahmdil qiz bor ekan, o‘sha berdi deb javob beradi. So‘ngra boyning jahli chiqadi va uyga kirib qiziga nega gadoyga non berding deb dabdag‘a qilib uning o‘ng qo‘lini tirsagidan kesib tashlaydi va o‘rmonga olib borib yolg‘iz o‘zini qoldirib ketadi.

Shu kuni o‘rmonda shahar podshosi ov qilib yurganida bir chetda o‘tirgan qizga ko‘zi tushib qoladi va uni saroyga olib ketadi. Qiz juda go‘zal va odobli bo‘lib voyaga yetadi. Qizning aql, axloq va odobda yagonaligini bilgan shoh uni o‘g‘liga olib beradi. To‘ydan so‘ng qiz chap qo‘li bilan shahzodaga choy uzatsa u choyni olmaydi qiz esa bundan juda hafa bo‘lib yig‘lab o‘tirsa, oldida o‘sha non bergan nochor otaxon paydo bo‘ladi, u aslida sehrgar bo‘lib, qizga qarab yig‘lama qizim mana shu xumga o‘ng qo‘lingni tiq deb xumni qoldirib o‘zi g‘oyib bo‘ladi. Qiz xumga qo‘lini tiqishi bilan qo‘li bus-butun oltin qo‘lga aylanib qoladi. Qiz g‘oyat hursand bo‘lib ertasiga shahzodaga oltin qo‘li bilan choy uzatganida shahzoda ham benixoya hursand bo‘lib qizning oltin qo‘lidan choy oladi. Qiz va shahzodaning hursandligini ko‘rgan podshoh ularga qaytadan qirq kechayu qirq kunduz to‘y qilib beradi. Qiz umri davomida ko‘plarga yaxshilik qilib, murodu maqsadiga yetadi.

Ushbu ertakda insonlarga yaxshilik qilish, ayniqsa, keksalarga mehr ko‘rsatib yordam berish kerakligi, insonlar bir-birlariga mehribon bo‘lishlari kerakligi ko‘rsatilgan. Umuman olganda bunday tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘zbek xalq ertaklari juda ko‘p.

Madaniyat markazlarida faoliyat olib borayotgan teatr studiyalari “Zumrad va Qimmat”, “Mehribonlik” va yana ko‘plab tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan ertaklarni

zamonaviy usulda sahnalashtirib, shu asosda spektakl namoyish etishsa, undagi ijobiy qahramonlarda yanada ko‘proq yaxshi fazilatlar mujassam qilinsa, murg‘ak tamoshabin ongida va tasavvurida ijobiy fikr paydo bo‘ladi.

O‘z-o‘zidan ayon bo‘lmoqdaki, bolalar ko‘proq sahnada ko‘rganlariga amal qilishar ekan. Buning uchun madaniyat markazlarining to‘garak rahbarlari nafaqat aktyorlardan, balki maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilaridan iqtidorlilarini tanlab olib, ular ishtirokida asarni sahnalashtirilsa, bu maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilar uchun ham qiziqarli ham maroqli bo‘lar edi.

Bolalarni kattalarga bo‘lgan hurmat, hattoki o‘z tengdoshini ham kerak bo‘lsa “***Siz***” deya chaqirishi, undagi jamiki yaxshi fazilatlar mujassam bo‘lishiga undaydi. Buni avvalo oilada ota-ona, so‘ng maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari bolaga doimiy o‘rgatib borishlari zarur.

Shuningdek, bolalarni madaniyat markazlari tomonidan tashkil etiladigan katta-kichik tadbirlarga jalb etib, bolajonlardagi san’atga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirib borish ham yaxshi samara beradi. Madaniyat markazlari bolajonlar uchun ularning yoshiga mos bo‘lgan spektakllar, konsert dasturlari, rang-barang, qiziqarli tomoshalar tashkil etishlari kerak. Bu bolada o‘zgacha ijobiy ruh paydo bo‘lishiga olib keladi.

Dovidxonov Mahmudxon,
O‘zDSMI tayanch doktaranti

ABU NASR FAROBIYDA TIL, MANTIQ VA MADANIYAT O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR

Annotatsiya: *Forobiy tilning jamiyatda paydo bo‘lishi va rivojlanishini madaniy taraqqiyotga parallel jarayonda muhokama qiladi. Til turli bosqichlarda rivojlanish jarayonini kuzatib boradi, oxir-oqibat falsafiy tafakkurda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan darajaga yetguncha tobora mukammallashib boradi. Til taraqqiyotining eng malakali bosqichi falsafiy til bosqichi bo‘lib, unda haqiqat aniq ifodalanadi. Bu borada Forobiy tilning jamiyatlarda aloqa vositasi sifatida qo‘llanilishidan boshlab, falsafiy darajada qo‘llanilishigacha bo‘lgan rivojlanish jarayonini tasvirlaydi. Borliq, tafakkur va so`z bir-biriga to`la javob beradigan bu bosqichda madaniy tuzilma ham malakali darajaga yetadi..*

Kalit so‘zlar: *til, mantiq, madaniyat, jamiyat, falsafa..*

Annotation: *Farabi takes the emergence and development of language in a society in parallel with the cultural progress. Language, in various stages, until it reaches after all a level that can be used in the philosophical thought, followed by a process of ever trained with. The perfect stage in the development process of language is the stage of “philosophical language” that the truth can be clearly expressed in it. Farabi arrays this modes of thinking as sophistic, dialectic, rhetoric, poetic and demonstration. Among this thinking methods truth can be acquired and mentioned only with demonstration. Indeed, in the process described by Farabi, the language is not saved from the ambiguity at the level of rhetoric and poetic. To get rid of from this ambiguity will be held at the level of nutk. Being thought of this further step with the promise to meet each other exactly, but regains the cultural structure of a competent level*.

Keywords: *language, logic, culture, society, philosophy*

Til jamiyatning madaniy rivojlanish jarayonidagi muhim faktordir. Chunki insonlar til vositasida kishilik tarixida bir-birlari bilan muloqatga kirishganlar, axborot almashganlar o‘zaro ta’sir o‘tkazganlar. Shuningdek, til ijtimoiy hayotda zaruriy ehtiyoj, o‘zi dunyoga keltirgan madaniyatning “onasi”, sivilizatsiyaning bir elementi hisoblanadi[1].

O‘rta asrlarda mumtoz islom tafakkurida tilning tabiati, vazifasi, uning ahamiyati haqida faylasuflar o‘rtasidahi turli bahslar mavjud va bu bahslardagi Farobiyning ta’siri, o‘rni aniqlashni taqazo qiladi. Avvalo, islom madaniyatida “Allohning kalomi” deb bilingan musulmonlarning muqaddas kitobi “Qur’oni Karim” faqatgina e’tiqod sistemasi emas edi, balki, u islom geografiyasidagi barcha madaniy elemantlar asosida yangi islom madaniyatini vujudga kelishiga asos bo‘ldi[2]. Qur’onni to‘g‘ri tushunish uchun arab tilining qonun-qoidalarini yaxshi bilmoq, eng kamida arab tili gramatikasini sohibi bo‘lishi talab etilardi. Shunday qilib, til haqidagi tadqiqotlar islom madaniyatining asosiy farqlovchi xususiyatlarda biriga aylanadi. Shu nuqtayi nazardan Farobiy islom madaniyatini tushunishda, anglashda, o‘rganishda gramatikasini birinchi o‘ringa qo‘yadi.

1 Doğan Aksan. “Her yönüyle Dil-Ana Çizgileriyle Dilbilim”. TDK Yay., Ankara 1995, 64-sahifa.
2 Toshihiko Izutsu, Selahattin Ayaz. Kur’anda Dini ve ahlaki kavramlar. Istanbul, 1997. 15-55-betlar.

Farobiy qadimgi yunon tilidagi klassik falsafiy atamalarning arabcha muqobillarini topish hamda arab tilini falsafa tiliga aylantirishdagi harakatlari diqqatga sazovordir.[1] Farobiy mantiq va falsafani o‘zi yashab turgan islom madaniyatining til tabiatiga moslashtirishga harakat qildi.

Shu bilan birga, islom dini, madaniyati haqidagi fikrlarini o‘qir ekansiz, u bahsga kirishganda yoki fikrlarini, falsafiy mushohadalarini bayon etganda, muammolarni yechish bo‘yicha taqdim etgan manbalarda ilohiyotchilarchilar yoki fiqhchilar kabi Qur’on oyatlaridan keltrimas edi. U Aflotun (Platon) va Arastu (Aristotel) asarlaridan yechim uchun muqobil variatnlarni taqdim qilsada, o‘zi yashayotgan (islom) madaniyat qadriyatlariga mos keladigan yechimni topishligi bilan ilm ahlini diqqatini tortib keladi.

Forobiy tilning jamiyatda vujudga kelishini antropologik va tarixiy nuqtayi nazardan muhokama qiladi. Uning fikricha, ijtimoiy hayotning asosini birinchi navbatda majburiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan tashkilot tashkil etadi. Forobiy falsafasida “majburiy jamiyat” (el-medinetü’z-zaruriyye) deb ataladigan bu ibtidoiy shakldagi ijtimoiy tuzilmaning belgilovchi omili hayotning davom etishi uchun zarur bo‘lgan, har bir shaxs birdek ega bo‘lgan umumiy bilimdir[2].

Forobiy ta’rifiga ko‘ra, jamiyatning madaniy rivojlanishini ikki muhim nuqtasi bor. Bulardan birinchisi, o‘sha jamiyatdagi nazariy bilimlar; Ikkinchisi, amaliy san’atning paydo bo‘lishi va rivojlanishi bilan bog‘liq. Bular bir-biriga parallel bo‘lganidek, til taraqqiyoti ham ana shu umumiy madaniy taraqqiyotga parallel bo‘ladi. Darhaqiqat, til shakllanishining birinchi bosqichi sezgi predmetlari va hissiy ma’nolarni bildiruvchi so‘zlarning paydo bo‘lishidir. Ikkinchi bosqich – bunday so‘zlarning ko‘payishi. Shu darajadaki, jamiyat o‘sishi, ijtimoiy ishtirokning kengayishi va ijtimoiy ehtiyojlarning ortishi bilan bu jamiyatda qo‘llaniladigan so‘zlar ham ko‘payadi. Oxir-oqibat, o‘sha jamiyatning ziyolilari, so‘zlarni tartibga soladi va ijtimoiy tuzilma murakkablashib, bir so‘z ustida kelishish qiyin bo‘lgan konsensusga erishib bo‘lmaydigan ba'zi holatlar uchun kerakli so‘zlarni belgilaydi.

Shunday qilib, bu kishi bu jamiyatning “til yaratuvchisi” (vâziu lisan) bo‘ladi. Bu shaxs boshidanoq jamiyatning mavjud bo‘lishining zaruriy ehtiyoji bo‘lgan har bir narsa va holatga so‘z qo‘yib, odamlarni boshqaradi. Bu jarayon jamiyat tomonidan seziladigan olam haqidagi nazariy bilimlarni ko‘rsatuvchi so‘zlarni ilgari surishi bilan boshlanadi va jamiyat amaliy san’atning har biriga xos bo‘lgan narsa va vositalar, nihoyat, har bir obyekt uchun qo‘yadigan so‘zlar bilan davom etadi[3]. Ya’ni, Farobiy bu nuqtada ikki xil muhim masalani o‘rtaga qo‘yadi. Birinchisi, til yaratuvchisi, jamiyatning mavjud bo‘lishining zaruriy ehtiyojlarini anglab, uni vujudga keltiradigan fidoiylar bu jamiyatning ziyolilari, ilm-fanga bee’tibor bo‘lmagan qatlami ekanligini urg‘ulamoqda. Ikkinchidan esa, madaniyatning vujudga keltirishdagi eng tamal asos bu til ekanligini, til esa voqelikda amaliy san’atning o‘ziga xos murakkab ko‘rinishi ekanligini ta’kidlab o‘tmoqda.

Forobiyning til va madaniyat o‘rtasidagi munosabat haqidagi fikrlari alohida ahamiyatga ega. Darhaqiqat, jamiyatda qo‘llaniladigan til bo‘yicha ma’lum bir

---

1 Soheil M.Afnan. Philosophical terminology in Arabic and Persian. Leiden E.J., 1964/

2 Farabi, Kitâbü Ârâ-i Ehli’l-Medîneti’l-Fâzıla, neşr. Albert Nasri Nader, Dâru’l-Meşrık, Beyrut 1991, 132-bet

3 Farabi, Kitâbü’l-Hurûf, 138-sahifa

malakaga ega bo‘lish o‘sha jamiyatni boshqarishga malakali va malakali rahbarning bo‘lishini talab qiladi. Hatto, ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi “jamiyat”da ham bunday rahbar bo‘lmagan taqdirda jamiyat ichida murosa uchun vositachi topish mumkin emasdek. Ehtimol, ijtimoiy yarashuvning eng muhim jihati tildagi konsensusdan boshlanadi. Tildan unumli foydalanadigan yetakchi til bo‘yicha consensus qila oluvchi hisoblanadi.

Bundan tashqari, ma’lum bir ma’noni ifodalash uchun qo‘llangan so‘z o‘rniga yaqin yoki uzoq o‘xshashlik tufayli unga aloqador boshqa so‘z bilan almashtirib, boshqa ma’no ifodalanadi. Shunday qilib, tilda metafora va o‘xshatishlar paydo bo‘ladi. Bunga turli ma’noga ega bo‘lgan so‘zlarning ma’nosini tushuntirish, ularni gapda bir-birining o‘rnida qo‘llash, ma’nolarini kengaytirish, tartibga solish va bezash orqali erishiladi. Shunday qilib, avvalo notiqlik san’ati, so‘ngra bir jarayonda she’r san’ati shakllanadi. Shunday qilib, jamiyatda nutq so‘zlaydigan, she’r o‘qiydigan, yod biluvchi qatlam paydo bo‘ladi. Bu odamlar o‘sha jamiyatning notiqlari va notiqlari sifatida ularning til bo‘yicha birinchi olimlari va ma'murlari va hokimiyatlariga aylanadilar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tilning shakllanish jarayonida avval belgi va tovushlar, so‘ngra so‘z va gaplar, nihoyat, yozuv paydo bo‘ladi. Bu taraqqiyotga parallel ravishda ijtimoiy hayotda tilga oid san’atning besh turi paydo bo‘ladi: notiqlik san’ati, she’riyat san’ati, she’r va nutqlarni yodlash/ko‘chirish san’ati, grammatika va yozuv san’ati[1].

Forobiy til muammosi bilan shug‘ullanar ekan, o‘z davri tilshunoslaridan farqli tarzda tilning jamiyatdagi madaniy vazifasi va o‘rnini falsafiy nuqtayi nazardan asosiy muammo sifatida ko‘rib, til haqidagi tushunchani shu yo‘nalishda rivojlantirdi. Shu jihatdan aytish mumkinki, Forobiy o‘z asarlarini arab tilida yozgan bo‘lsa-da, tilshunoslikka oid umuminsoniy tushunchalarni arab grammatikasi (nahiv) muammolaridan tashqari rivojlantirdi. Tilshunoslikning bu tushunchasi bir qator tarixiy, shuningdek, tarkibiy taqqoslashlarni o‘z ichiga oladi. U ibtidoiy shakldagi his-tuyg‘ularga asoslangan tildan tortib, xayoliy/poetik, chalg‘ituvchi/sofistik, ishonarli/notiqlik, mudofaa/argumentar va falsafiy tilgacha bo‘lgan turli ifoda shakllari bilan bog‘liq. Bunday qiyoslashda Forobiyning asosiy e’tibori tilning madaniy faoliyat bilan uzviy bog‘liqligini kuzatishdir. Bu jihatdan Forobiy tilni jamiyatda hukmron bo‘lgan kognitiv va madaniy darajaning in’ikosi sifatida ko‘radi.

Shu tariqa jamiyatdagi barcha madaniy faoliyat eng mukammal shaklga etadi. Darhaqiqat, tilning insonga xos bo‘lgan taraqqiyot jarayonida muloqot va belgilar tizimi bo‘lishdan tashqari, haqiqatni ifoda eta oladigan tuzilishga ega bo‘lishi haqiqatan ham muhim bosqichdir. Shu nuqtayi nazardan jamiyat tilidagi noaniqlikni bartaraf etish shu jamiyatda hukmron bo‘lgan tafakkur tarzini mukammallashtirish bilan birga borishi kerak.

Jamiyat madaniyati asosiy ehtiyojlarni qondirish bilan chegaralanib, tuyg‘u va tasavvurga asoslangan ma’lumotlar bilan qanoatlansa, o‘sha jamiyatning mantiq tilini shakllantirishi va umuminsoniy mahsulotlar ishlab chiqarishi mumkin emas. Boshqa tomondan, jamiyat tili falsafiy darajaga yetgan bo‘lsa, bu tilda borliq va tafakkur birligi to‘la ro‘yobga chiqsa, demak, barkamol ijtimoiy hayot barpo etilgan.

[1] Farabi, Kitâbü’l-Hurûf, 141-145-betlar

Masalaga shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo‘lsak, til bilan bog‘liq muammolar bilan bir qatorda hal qilinishi kerak bo‘lgan asosiy muammo ham fan va san’atda qo‘llaniladigan fikrlash usullari bilan bog‘liq, deyish mumkin. Til va tafakkurni bir-biridan ajratib bo‘lmaganidek, barcha madaniy ishlab chiqarishlarda erishilmoqchi bo‘lgan malaka ham bir-biridan ajralmasdir.

Davlatov Oybek G‘aniyevich,
O‘zDSMI Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i
Mamasolixov Akbar Obloberdi o‘g‘li,
O‘zDSMI Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi muhandisi

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MUSIQA SAN’ATIGA OID QARASHLARI

Annotatsiya. *Maqolada Sharq mutafakkirlarining asarlarida musiqa san’atining inson hayotiga ta’siri va musiqaning ahamiyati haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, mutafakkirlarimizning musiqaga oid fikrlari bayon etilib, tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *mutafakkir, ta’lim-tarbiya, musiqa san’ati, milliy qadriyat, yoshlar tarbiyasi,*

Musiqa madaniy xayotimizda keng o‘rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san’at turi. Musiqa tarbiyasi, nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo‘lib, atrofdagi go‘zal narsalarni to‘g‘ri idrok etishga va qadrlashga o‘rgatadi. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma’naviy dunyokarashini shakllantiradi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lib, o‘quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va g‘oyaviy-ahloqiy tarbiyalashning muhim vositasi hisoblanadi. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nosir al-Farobiy “Bu fan tanning sog‘ligi uchun foydalidir,” – degan edi.

Bobomiz Shayx Sa’diy aytgan edi: “Musiqa odam ruhining yo‘ldoshidir”. Musiqa insonga tez ta’sir etuvchi emotsional hissiyotni faol rivojlantiruvchi vositadir. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, umrbod musiqadan zavq topadi va madad oladi. Musiqa inson ruhiyatini ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadi. Musiqadan turli ozuqa olish

uchun inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go‘zallikni his eta oladigan, o‘z kasbiga, Ona vataniga mehr ko‘ygan bo‘lishi kerak. Sharq mutaffakirlari ham musiqa san’atining inson ma’naviy olamini, badiiy estetik didini oshirishdagi o‘rni haqida o‘z asarlarida alohida ta’kidlab o‘tganlar. Ularning nazdida musiqa san’ati – ahli bashariyatni yaxshilikka da’vat etguvchi ilohiy kuch sifatida ham qaralgan. Musiqa – ilohiy kuchga ega bo‘lgan san’at turi. U inson qalbining ruhiy quvvatlanishida, komil inson bo‘lib shakllanishida o‘z ta’sirini sezilarli o‘tkazadi. U bashariyatning hamisha ijodiy yo‘ldoshi bo‘lib, uning quvonchli, shod-u hurram, hattoki, qalbiga hasrat to‘lgan, tushkunlikka tushgan vaqtlarida ham madad beragan, taskin bergan. Musiqa madaniy xayotimizda keng o‘rin tutib, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa tarbiyasi, nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo‘lib, atrofdagi go‘zal narsalarni to‘g‘ri idrok etishga va qadrlashga o‘rgatadi. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma’naviy dunyokarashini shakllantiradi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lib, o‘quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va g‘oyaviy-ahloqiy tarbiyalashning muhim vositasidir. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nosir al-Farobiy “Bu fan tanning sog‘ligi uchun foydalidir” – degan edi.

Bobomiz Shayx Sa’diy aytgan edi: “Musiqa odam ruhining yo‘ldoshidir”. Musiqa insonga tez ta’sir etuvchi emotsional hissiyotni faol rivojlantiruvchi vositadir. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, umrbod musiqadan zavq topadi va madad oladi.

Musiqa inson ruhiyatini ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadi. Musiqadan turli ozuqa olish uchun inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go‘zallikni his eta oladigan, o‘z kasbiga, Ona vataniga mehr ko‘ygan bo‘lishi kerak.

Buyuk mutaffakkir A.Navoiy o‘z asarlarida musiqa tarbiyasining qirralarini chuqur o‘rganib, shunday dedi: “Musiqa jamiyat hayotining muhim negizidir. Faqat musiqagina odamning qalbiga tiniqlik, mutanosiblik va o‘z-o‘zidan qanot tuyg‘usini olib kiradi va uni baxtiyor qiladi”. Al-Forobiy fikricha: “Musiqa – nodir san’at, ezgulikka yetaklovchi kuchdir” , “Kimki ilm hikmat o‘rganmoqchi bo‘lsa, avvalo o‘zi ma’naviy barkamollika erishmog‘i lozim” – deydi Abu Rayxon Beruniy. “Har kimki hikmat o‘rganman desa, yoshlikdan boshlasin, ilmli va dono kishilardan saboq olsin, shundagina u komillik darajasiga yetadi”.

Forobiy musiqani uch turga ajratadi: lazzat yetkazadigan, his-hayajon ifodalovchi va tasavvur uyg‘otuvchi. Ayni paytda Forobiy “uch xususiyatning barchasiga ega bo‘lgan musiqa, shubhasiz, nisbatan yetuk bo‘ladi. Bunday musiqa faqat vokal bo‘lishi mumkin”, degan edi. O‘zi ko‘p qirrali musiqashunos va olim vokal musiqaning uch turinigina emas, o‘zida rang-barang (musiqiy va poetik) ijod turlarini ham mujassamlashtirili, butun to‘laligi bilan chuqur mazmun ifodalashga to‘la ishongan edi. Forobiy “Musiqa haqida katta kitob” degan ko‘p jildi asari bilan u musiqa ilmini nazariy,

amaliy jihatdan yoritib, musiqani inson ahloqini tarbiyalovchi sihat-salomatligni mustahkamlovchi vosita deb qaragan.

Ayniqsa, uning amaliy fazilatlar, san'at masalasida u quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "qanoatbaxsh so'zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g'ayrat, qasd-intilish harakatga aylantiriladi". Shuningdek, Abu Ali ibn Sino "Musiqa bilimiga oid to'plam" asarida tovushning sezgi a'zolariga ta'siri, uning yoqimli va yoqimsizligi, tovushni eshitganda lazzatlanish yo nafratlanish hissining paydo bo'lishi haqida to'xtalib o'tib, musiqaning kishi hayotida qanchalik zarurligi haqida bayon etgan. Olimning fikricha, inson tabiatan yoqimli narsalar orqali yengil tortsa, uning aksida oromi yo'qolib, nafrati paydo bo'lishiga olib keladi deb hisoblaydi.

Abu Nasr al Farobiy, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Qutbiddin Sheroziy, Sayfiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Ahmadiy, Kavkabiy, Darvesh Ali Changiy kabi mutafakkirlar o'z asarlarida musiqaga katta e'tibor berganlar. Hazrat Alisher Navoiyning kupqirrali ijodida ham musiqaga doir kator masalalar o'z ifodasini topgan. Navoiyning musiqa sohasidagi faoliyati hali yetarli o'rganilmagan va bu borada atroflicha ilmiy tadqiqotlar olib borilishi lozim. Shoirning "Mahbubul qulub" asaridagi sozanda va xonandalarga bag'ishlangan qismda qator boshqa asarlaridan musiqaviy-estetik qarashlarini aks ettiruvchi dalillar aks etgan. Navoiyning asarlari bilan tanishar ekanmiz, musiqa san'atiga taalluqli qator masalalarga duch kelamiz. U yirik madaniyat arbobi sifatida, san'atning barcha sohalarini yuksak badiiy did bilan baholay olgan. Shu bilan birga musiqa amaliyoti va nazariyasi masalalarida ham chuqur bilimdon bo'lgan. Shu bois u o'zining asarlarida musiqaga doir atamalarni ongli ravishda, tushungan xolda ishlatadi. Bunday atamalar Navoiy davridagi musiqaning nazariy va amaliy masalalari bilan bog'lik bo'lib, zamonasining musiqiy hayotini yoritishda qimmatli manba hisoblanadi.

Alisher Navoiy ijodi nixoyatda serqirra. U musiqa ilmida ham mahorat sohibi ekani bizga ma'lum. Shoir talay asarlari, jumladan, "Holoti Pahlavon Muhammad", "Xamsa", "Xazoyin ul-maoniy", "Majolis un-nafois", "Mahbub ul-kulub"da musiqa ilmiga tegishli muhim fikr-mulohazalarini bayon etgan. Bu uning musiqa san'atiga befarq bo'lmaganidan dalolat beradi. Shoirning musiqaga munosabatini, shartli ravishda, shunday tasnif qilish mumkin:

- musiqiy atamalar qo'llashi;
- zamonasining musiqiy jarayoniga, bu soha namoyandalariga munosabati;
- san'atkorlarga bergan bahosi.

Navoiy "Xamsa"da ko'proq musiqiy hayot bilan bog'liq tasvirlarda ishqiy lahzalar ifodasida musiqaga murojaat qiladi. Navoiy musiqa yaratuvchilari va ijrochilarini o'z asarlarida ta'riflab keltiradi. U musiqa yaratuvchilariga nisbatan bastakor, pardasoz,

navosoz, nag‘masoz, nag‘mapardoz, ohangsoz; ijrochilarga nisbatan esa mug‘anniy, mutrib, ohangnavoz, nagmaogoz, nag‘makash, ahli soz, ahli nag‘ma atamalarini ishlatadi. Uning asarlarida naqsh, nag‘ma, qo‘shiq, surud, savt, peshrav, kor, amal, navo, parda, lahn, iqoa kabi tushunchalarni uchratamiz. Xullas, Navoiy musiqa ilmini chuqur idrok etuvchi alloma sifatida ham qadrli. Sharq mutaffakirlari nazdida musiqa san’ati Vatanparvarlik, ota-onaga hurmat, milliy qadriyat va an’analarni yoshlar tafakkuriga jo qilguvchi ta’lim-tarbiyaning o‘tkir omilkor ta’siri deb hisoblagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kalliev A. Sharq mutaffakirlari nazdida musiqa san’ati//jur. Sohibqiron yulduzi №4. – Qarshi, Foto ekspress. 2022.
2. Islomov D. Milliy “g‘um” nima? //jur. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Xabarlari №3. – Toshkent.: 2019. Donishmand ziyosi. – 99B. (64-66)
3. Turanazarov N. Musiqa o‘qitish metodikasi va maktab repertuari.: – Termiz. TerDU. 2006. 92 bet.
4. Muzafarova S. Musiqa ilmiga oid qarashlarning yoshlar tarbiyasiga estetik ta’siri//jur. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti xabarlari №2. – Toshkent.: Donishmand ziyosi, 2021. – 97 B. (35-37).
5. Turanazarov N. Musiqa o‘qitish metodikasi va maktab repertuari.: – Termiz. TerDU. 2006. 92 bet.
6. Sharipova G., Asamova D., Xodjaeva Z. Musiqa o‘qitish nazariyasi va maktab repertuari. – Toshkent: 2014. – 108 bet.
7. Jamolova D. O‘rta asr sharq allomalarining musiqiy qarashlari //jur. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Xabarlari №3. – Toshkent.: 2019. Donishmand ziyosi. – 99B. (60-63).
8. Kozimov J. Sharqona ma’naviyat va musiqiy meros.// jur. Ta’lim muammolari №4. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2014. – 80 b. (54-55)
9. Jamolova D. Navoiy va musiqa. // jur. Tafakkur №4. – Toshkent. Sharq. – 95 b.

Abdiyev Rustam Oltinboyevich,
O‘zDSMI magistranti

ZIYORAT TURIZMINING IJTIMOIY-MA’NAVIY TAVSIFI VA XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada ziyotgohlarning madaniyat turizmida tutgan o‘rni va xalqning etnografiyasi, madaniy me’rosi bilan bog‘liqligi haqida so‘z boradi

Kalit so‘zlar: ziyoratgoh, turizm, etnografiya, madaniy meros.

Ziyoratgohlar xalqning turmush tarzi, madaniy va ma’naviy hayotini rivojlantirishga, ular ongida ma’naviy fazilatlarni o‘stirishga xizmat qiluvchi muhim ob’ekt sifatida qarash jamiyat nuqtayi nazaridan masalaning ijtimoiy-ma’naviy tavsifi va xususiyatlarini yanada kengroq ochishda muhim ahamiyatga egadir. Zero, ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolarga tashrif buyurgan kishilar eng avvalombor o‘tganlar ruhi oldida bosh egib, ularni xotirlash, ular ruhiga duolar qilib eslashi muhimligi masalaning eng muhim ijtimoiy-ma’naviy jihatidir. Chunki ularning barchasi madaniy meros ob’ektlari sanaladi. shu bois ham ziyorat turizmining ijtimoiy-ma’naviy xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Bugungi globallashuv davrida mamlakatimiz va xalqimizning boy moddiy va ma’naviy merosi hisoblangan ziyorat turizmining jamiyat ijtimoiy-ma’naviy hayotida tutgan o‘rni borasida ilmiy tadqiqot ishlarini jadallashtirish ijtimoiy falsafa yo‘nalishi uchun ham asosiy tadqiqot ob’ekti hisoblanadi. Bunda ilmiy tadqiqot ishini ijtimoiy-ma’naviy jihatdan yoritishda quyidagi ikki jihatni e’tiborga olish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bizningcha, ziyorat turizmi mavzusini ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan ilmiy tadqiq etishda ma’lum nazariy-metodologik tamoyillar, ilmiy hamda g‘oyaviy qarashlarga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor berish zarur:

- ziyoratgohlar va ziyorat turizmi yo‘nalishiga xalqning milliy va umuminsoniy qadriyati hamda muqaddas ma’naviy merosi sifatida qarash lozim;
- ziyoratgohlar va ularda mujasssamlashgan moddiy va ma’naviy merosimizga chuqur hurmatda bo‘lish, ularning ijtimoiy hayotimizda sodir bo‘layotgan jarayonlar nuqtayi nazardan tadqiq etish muammosi ma’lum dialektik qonuniyatlarga asoslanishini to‘g‘ri anglash muhim;
- ziyorat turizmi insonlar ongida ijtimoiy-ma’naviy merosga hurmat tuyg‘usini shakllantiruvchi muhim manba, xalqni g‘oyaviy-mafkuraviy jihatdan jipslashtiruvchi soha ekanligini to‘g‘ri tushunish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy-falsafiy yo‘nalishda ziyorat turizmining ijtimoiy-ma’naviy xususiyatlari borasida ilmiy tadqiqotlarni tashkil etishda muqaddas ziyoratgohlarning o‘rni katta dedik. Chunki ular bizning ilmiy tadqiqot mavzuimiz uchun asosiy tadqiqot ob’ekti hisoblanadi. Umuman, ziyoratgohlarsiz mazkur mavzu doirasida masalani ilmiy tadqiq etib bo‘lmaydi. Darhaqiqat, ilmiy tadqiqotlar ham asosan ziyoratgohlarni tadqiq etish, mazkur maskanlarga kishilarning ziyorat uyushtirishlarini to‘g‘ri tashkil etish va to‘plangan ilmiy ma’lumotlar asosida ilmiy tadqiqotlarni olib borishni taqozo etadi. Bu esa ma’lum ilmiy tahlillar asosida amalga oshirilishi lozim.

Tadqiqotchilar tarixiy-etnografik hamda ijtimoiy-ma’naviy jihatdan ziyoratgohlar, ya’ni ziyorat turizmi ob’ektlarini quyidagi ikki turga bo‘ladilar:

1) Islom dinigacha shakllangan ziyoratgohlar;

2) Islom dini bilan bog‘liq ziyoratgohlar[1].

Birinchi turga mansub ziyoratgohlar o‘zida islomgacha bo‘lgan e’tiqod va qarashlarni aks ettirib, turli narsa va buYumlarni muqaddaslashtirish yoki ularga topinish elementlari uchraydi. Masalan, maqbara yoki qabrni aylanishda afsungarlik udumlarining bajarilishi, vafot etgan shaxsning ruhiga bo‘lgan e’tiqod, ya’ni animizm izlarini uchratish mumkin bo‘lsa, qabrlar yoki ziyoratgohdagi turli buyumlarni tavof qilishda qadimgi totemizm, fetishizm, zardushtiylik elementlarini kuzatishimiz mumkin.

Ya’ni, xalqimiz ma’naviy ehtiyojini qondirish va diniy nuqtayi nazardan taskin topish yo‘lida turli qadamjo va ziyoratgohlarga tashrif buyuradi hamda u erda turli marosimlarni bajarib, bu boradagi zimmasiga tushgan vazifalarni bajarganlik hissini o‘zida shakllantiradi, – deya qayd etadi bu borada F.Akchaev[2].

Ziyorat turizmini muhim ma’naviy qadriyat sifatida qarab, uning o‘tmishiga nazar tashlasak, azaldan xalqimiz ziyoratgohlarni qadrlagan, ularga hurmat bajo keltirgan. Jumladan, “Avesto”da ta’kidlanganidek, “odamlar uchta joyga ko‘proq borishlari kerak: donolar uyi, odillar uyi va muqaddas olovli ibodatxonaga. Donolar uyiga aqlliroq hamda ixlos-u e’tiqodda yanada mustahkam bo‘lmoq uchun, odillar uyiga ezgulik va yovuzlikni farqlash hamda o‘zidan yovuzlikni yiroqlashtirish uchun, olovli ibodatxonaga esa o‘zini vujudsiz iblisdan saqlash uchun tez-tez borib turmoq lozimdir”[3]. Ushbu fikrlarda axloqiy poklanishning zarur shartlari bayon etilgan.

Bu borada A.Sarimsoqovning yozishicha, zardushtiylar Navro‘z bayramini katta tantana va xursandchilik bilan nishonlashga harakat qilishgan. Bayram kuni erta tongdan

---

1 Abidova Z. Xorazm vohasi ziyoratgohlari va qadamjolari. Tarix fani bo‘yicha falsafa dokt disertatsiY. Toshkent, 2018., Akchayev F. Jizzax vohasi muqaddas qadamjolari va ziyoratgohlari. (Etnosotsiologik tadqiqot). Tarix fani bo‘yicha falsafa dokt dissertatsiY. -T.. 2019.

2 Akchayev F. Jizzax vohasi muqaddas qadamjolari va ziyoratgohlari. (Etnosotsiologik tadqiqot). Tarix fani bo‘yicha falsafa dokt dissertatsiY. -T.. 2019. – B 55.

3 Ugrinovich D.M. Psixologiya religii. -M., 1986. – S.92. Yana qarang: “Avesto” va uning insoniyat tarixidagi o‘rni // Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. – T.: “Fan” 2001.-185 b.

odamlar olamdan o‘tgan ajdodlarini xotirlaganlar, muqaddas joylar – mozorlarni, ota-onalari, qarindosh-urug‘larini ziyorat qilganlar. So‘ngra bayramni sayilgohda davom ettirganlar. U erda turli tomoshalar: ko‘pkari-uloq, kurash, dorbozlik o‘yinlari kechga qadar davom etgan. Bolalar turli ranglarga bo‘yalgan tuxumlarni urishtirib, varrak uchirish musobaqalarini o‘tkazganlar[1].

Hatto o‘z davrida buyuk allomalar va diniy ulamolar ham ziyoratgohlarga alohida hurmat bajo keltirib, ularni tavof aylashni muqaddas burch, deb bilganlar. Masalan, o‘rta asrlarda avliyolar tarixini o‘rganishda tasavvuf adabiyoti va tazkiranavisligining o‘ziga xos o‘rni bor. Bu davrda ziyoratgohlar va ularning asosiy ob’ekti bo‘lgan avliyolar to‘g‘risidagi ma’lumotlar tazkiralarda yoritilgan. Masalan, Xorazm vohasida mashhur bo‘lgan Sulton Uvays Qaraniy va Yusuf Hamadoniy kabi bir necha avliyolar va ularning xislatlari shoir, mutafakkir va tazkiranavis Fariddin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asarida tilga olingan[2].

Alisher Navoiy o‘zining “Nasoyim-ul muhabbat” asarida avliyolarga batafsil ta’rif berar ekan, o‘z asarida qator avliyolar hayoti va faoliyati bilan bog‘liq qimmatli ma’lumotlarni keltirib o‘tgan. shoir asarda Sulaymon Boqirg‘oniy haqida ma’lumot berib o‘tar ekan, jumladan: “Hakim ota ismi Sulaymondur va Ahmad Yassaviyning shogirdidur”, – deb yozgan. Navoiy mazkur asarida “Uvaysiy” istilohi to‘g‘risida malumot keltirib, Sulton Uvaysiy nomi birinchi bo‘lib tilga olinadiki, bu ulug‘ insonga bo‘lgan cheksiz mehr-muhabbat va hurmat ramzi ekanligini ta’kidlaydi[3].

Hatto buyuk hukmdorlar ham muqaddas qadamjo va ziyoratgohlarni tavof aylab, ularni asrab-avaylaganlar. Birgina Amir Temur davlat boshqaruvida islom dini va shariat arkonlarini qattiq tutib unga amal qilgan. Mamlakat hududidagi ko‘plab aziz-avliyolarni qabrlarini obod qilib, ularni ziyoratgohlarga aylantirganligini biz tarixiy manbalarda uchratamiz. Jumladan, o‘zining o‘gitlarida “Avliyolar, din peshvolarining mozorlari va maqbaralariga vaqfdan mablag‘ ajratsinlar. U erlarni gilam, taom va chiroq bilan ta’minlasinlar”[4], – deb farmon chiqarganligi buning isbotidir.

Amir Temur aziz-avliyolar, shayxlar va sufiylarga cheksiz mehr-saxovat ko‘rsatib, ular uchun maqbaralar, masjidi jome’lar, darveshlar makon topgan xonaqohlar qurilishida bosh-qosh bo‘lgan. Ya’ni, ziyorat qilish odati Sohibqironning ezgu g‘oyasiga aylanganligini quyidagi hikoyatda ham ko‘rishimiz mumkin. “Aziz avliyolar, sahobalar maqbaralarini, qutlug‘ qadamjolarni ziyorat etmoqni ham farz, ham qarz bilur erdim. Qayda bo‘lmay, ziyoratgohlar oldida otdan tushib, tahorat olgach, yalang oyoq bilan

---

1 Sarimsoqov A. O‘zbeklarning taqvimiy marosimlari (Farg‘ona vodiysi materiallari asosida) nom. dis. T.:-2010.- B. 61-63.

2 Fariddin Attor. Tazkirat ul-avliyo. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2013. – 464 b.

3 Alisher Navoiy. Nasoyim-ul muhabbat. Tom – XV.- Toshkent:1968. – B. 63–187

4 Amir Temur o‘gitlari. So‘z boshi va nashrga tayyorlovchi B.Ahmedov. -T., O‘zbekiston. 2007. 35-bet.

borib, ziyoratni o‘rinlatdim. Arkon-u davlat, barcha mulozimlarim ham ziyoratgohlarni ana shunday tavof etmoqni odat bilishdi”[1], – deyiladi.

Xususan, donolik, odillik va ibodatning insonni ma’naviy etuk, yaxshilik e’tiqodiga sodiqligini mustahkamlashdagi amallar sanab berilgan. Bunda fikrlar bir-birini tasdiqlovchi va o‘zaro zid tushunchalar orqali ifodalanib, mantiqan yaxlit bir nuqtaga qaratiladi – ezgulikka intilishga da’vat etadi. Chunonchi, donolar dargohi (uyi) aql va e’tiqod maskani ekani, odillar dargohida yovuzlikning daf etilishi, ibodat esa yomon ruh, iblisdan saqlanish (poklanish)ga xizmat etishi ta’kidlanadi.

Ikkinchi turga mansub ziyoratgohlar (ziyorat turizmi ob’ektlari) islom dini bilan bog‘liq holda shakllangan ziyoratgohlar bo‘lib, ular asosan mashhur diniy ulamo va avliyolar nomi bilan bog‘liq holda vujudga kelgan. Chunki ziyorat turizmi rivojlanishi uchun o‘sha davlatda eng avvalombor boy ma’naviy meros ob’ektlari, muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlar bo‘lishi zarur. Chunki, ziyoratgohlar insonlar ko‘p to‘planadigan, ma’naviy poklanadigan, diniy-ma’rifiy maskanlardir. O‘zbekistonda Yuzlab bunday katta-kichik masakanlar mavjud bo‘lib, ular qatorida Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom at-Termiziy, Dorus Saodat, shohi Zinda, Amir Temur, Hazrati Imom (Xasti Imom), Zangi Ota, Kaffol shoshiy, Baxoviddin Naqshband, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Pahlavon Mahmud, Yusuf Hamadoniy, Sulton Uvays, Abu Hasan Nuriy (Nurota) kabi yirik ziyorat turizmi ob’ektlarini alohida keltirib o‘tish mumkin. Ushbu muqaddas maskanlarga har yili minglab vatandoshlarimiz va xorijlik sayyohlar hamda mehmonlar tashrif buYuradilar.

Ziyoratgohlar azaldan kishilar ongida ma’naviyatni shakllantirish, ezgulik manbai sifatida kishilarni mehr muravvatga chorlovchi ilohiy kuch vazifasini o‘tab kelgan. Ayniqsa yashashdan umidini uzib, hayotga befarqlik bilan qaray boshlagan insonlar uchun ziyoratgohlar so‘nggi umid manzili bo‘lib xizmat qiladi. Umuman, ziyoratgohlarni saqlab qolinishi ma’naviy merosimizni asrab avvaylashda muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, ziyorat turizmi ob’ektlari azaldan kishilarda muhim ijtimoiy-ma’naviy tuyg‘ularni shakllantirishda muhim rol o‘ynagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abidova Z. Xorazm vohasi ziyoratgohlari va qadamjolari. Tarix fani bo‘yicha falsafa dokt disertatsiY. Toshkent, 2018.,
2. Akchayev F. Jizzax vohasi muqaddas qadamjolari va ziyoratgohlari. (Etnosotsiologik tadqiqot). Tarix fani bo‘yicha falsafa dokt dissertatsiY. -T.. 2019. Akchayev F. Jizzax vohasi muqaddas qadamjolari va ziyoratgohlari. (Etnosotsiologik tadqiqot). Tarix fani bo‘yicha falsafa dokt dissertatsiY. -T.. 2019. – B 55.
3. Ugrinovich D.M. Psixologiya religii. -M., 1986. – S.92. Yana qarang: “Avesto” va uning insoniyat tarixidagi o‘rni // Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. – T.: “Fan” 2001.-185 b.

[1] Temurnoma. Amir Temur Ko‘ragon jangnomasi. So‘z boshi va lug‘atlar bo‘yicha nashrga tayyorlovchi P.Ravshanov. -T., CHo‘lpon. 1990. 52-bet.

4. Sarimsoqov A. O‘zbeklarning taqvimiy marosimlari (Farg‘ona vodiysi materiallari asosida) nom. dis. T.:-2010.- B. 61-63.
5. Fariddin Attor. Tazkirat ul-avliyo. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2013. – 464 b
6. Alisher Navoiy. Nasoyim-ul muhabbat. Tom – XV.- Toshkent:1968. – B. 63–187
7. Amir Temur o‘gitlari. So‘z boshi va nashrga tayyorlovchi B.Ahmedov. -T., O‘zbekiston. 2007. 35-bet.
8. Temurnoma. Amir Temur Ko‘ragon jangnomasi. So‘z boshi va lug‘atlar bo‘yicha nashrga tayyorlovchi P.Ravshanov. -T., CHo‘lpon. 1990. 52-bet.

Shaxrizoda Beknazarova,
O‘zDSMI magistranti
Ilmiy rahbar p.f.n. dotsent T.D. Bayturayev

QADIMGI MADANIYATLAR TARIXIGA OID NASHRLAR, ULARNING BIBLIOGRAFIYASI

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistondagi qadimgi madaniyatlar tarixiga oid nashrlar ulardagi o‘rganilgan joylar,tarixiy yodgorliklar bu nashr larning xillari va turlari nashir o‘rganilgan. Shuningdek ushbu mavzudagi bibliografik qo‘llanmalarni tuzish uslubiyati, mavzulardagi bibliografik qo‘lanmalarning axamiyatiga ham maqolada aloxida to‘xtalib o‘tilgan

Kalit so‘zlar: tarix, yodgorlik, shaxs, bibliografiya, nashir, tanglash, joylashtirish

Qadimgi madaniyatlar tarixiga oid nashrlarda terimchilik, ovchilik, dexqonchilik, chorvachilik madaniyatlari va ularning rivojlanishidan shakllangan shaxarlar madaniyati, davlatlar tarixi keng va har tomonlama o‘rganiladi. Bu mavzularni o‘rganishda tadqiqodchi va ilmiy xodimlardan mavzular bo‘yicha nashr qilgan kitoblar, maqolalar bilan to‘liq tanishishni talab qiladi. Bunday mavzularni o‘rganishni O‘zbekistondagi arxeologik yodgorliklarni o‘rgangan olimlar Ya.G‘ulomov, A.Asqarov, M.Ye.Masson, A.S.Sagdllayev, G.A.Pugachenkova, E.V.Rtveladze, M.I.Filanovich, Yu.F. Buryakovlarning nashirlariga tuzilgan shaxs ko‘rsatkichlari orqali chuqur o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Buday bibliografik qo‘llanmalarda aloxida olimlarimizning maьlum davr oralig‘ida nashr qilingan nashrlari bibliografiyasi berilgan bo‘lib, ulardagi bibliografiyalash uslubiyati asosan mavzulardagi nashirlarni to‘liq bibliografiyalashni talab qiladi.

Buday bibliografiyalarda shuningdek olimlarning nashr etilgan, ilmiy nashrlarga yozilgan taqrizlar, rahbarlik qilgan ilmiy ishlarning bibliografiyasi ulaning xronologiyasi bo‘yicha to‘liq berilganligi bilan katta axamiyatga ega bo‘ladi. Bunday shaxs bibliografiyalarida tarixiy yodgoliklar bo‘yicha nashr qilingan barcha turdagi va xillardagi nashrlarning shaxsga taalluqli qismi bo‘yicha to‘liq malumotni olishi mumkinligi imkoniyati yaratilgan.

Bunday shaxs bibliografiyalardan Ya.G‘ulomovga bag‘ishlangan qo‘llanmasini taxlil qilsak, bu yo‘nalishdagi bibliografiyaning shaklllanish va rivojlanish bosqichlari xaqida to‘liq maьlumot olishimiz mumkin. Kitobxonlar agar ushbu olimning nashrlari bo‘yicha tuzilgan shaxs bibliografiyasi bilan tanishsalar O‘zbekistondagi arxeologiya fanining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini kitoblar, maqolalardagi ma’lumotlar orqali bilib olishlari mumkin. Agar bu ma’lumotlarni viloyat va tumanlardagi taьlim muassasalariga yaqinlashtirilsa qadimshunoslikni bilish, o‘rganish bilan birga unga bo‘lgan qiziqishni ham o‘stirishimiz mumkin bo‘lardi deb xisoblaymiz. Qadimshunoslik tarixini o‘rganib kelayotgan olimlarimizdan biri akademik t.f.d. professor A.Asqarovning nashrlariga tuzilgan bibliografiyaning axmiyati ham aloxida o‘rganilishga loyiq deyishimiz mumkin. Mamlakatimizdagi eng qadimgi tosh davri va undan keyingi davrlar madaniyati tarixiga oid ilmiy nashrlar bibliografiyasini ushbu avtorning adbiyotlariga tuzilgan bibliografiyadan olishimiz mumkin. Akademik t.f.d. professor M.Ye.Masson nashrlarining bibliografiyasi O‘zbekiston va O‘rta Osiyo arxeologik yodgorliklarni o‘rganish orqali nashr qilingan ilmiy nashrlari bibliografiyasi bilan birga, arxeologiya taьlimini O‘zbekistonda tashkil etilshi va ushbu dargohda arxeologiya fanini rivojlanishiga hissa qo‘shgan olimlarning faoliyati ularning ilmiy va ilmiy ommabop nashrlari haqidagi maьlumotlarni keng kitobxonlar uchun ham o‘rganish mumkin bo‘lgan darajada berilgan. O‘zbekiston qadimshunosligida sanat yodgorliklarni o‘rgangan olima akademik s.f.d. professor G.A.Pugachenkovaning nashrlari ilmiy kitob, maqolalari, ilmiy ommabop kitoblari, maqolalri, spravka (yo‘l ko‘rsatkich) nashrlarini ko‘rsatishimiz mumkin. Olima sanat namunalarini buyumlardan, Arxitektura yodgorliklaridan, tanga pullardan, zargarlik namunalaridan uy ro‘zg‘or buyumlari orqali o‘rganganligini ko‘rishimiz mumkin.

Uning ilmiy faoliyatini ko‘rsatuvchi bibliografik qo‘llanmalar G.A.Pugachenkovaning ilmiy faoliyati bo‘yicha tuzilgan bibliografik qo‘llanmalarni alohida taxlil qilinishi O‘zbekitsonda sanat tarixi bo‘yicha ilmiy–yordamchi baibliografiyaning rivojlanish bosqichlari bilan ko‘rsatishimiz mumkin. G.A.Pugachenkovaning ilmiy faoliyati orqali nashr qilingan ilmiy kitoblari va maqolalari jahondagi barcha ilmiy markazlarning ilmiy tadqiqodlar uchun manba sifatida xizmat qila oladi deyishimiz mumkin.

O‘rta Osiyo va O‘zbekistonda buddaviylik dining shakllanishi va rivojlanishini G.A.Pugachenkova tadqiqodlari orqali nashr qilgan ilmiy kitoblardagi va ilmiy maqolalari O‘zbekistoning ilmiy kitoblarida va aloxida mavzularda tashkil qilingan ilmiy-nazariy konferensiyalar to‘plamlarida maqola sifatida nashir qilinganligi bilan ularning bibliografiyasini tashkil qilingan. Bu olimaning ilmiy faoliyatini ochib beruvchi bibliografik qo‘llanmalar uning shogirdlari tomonidan tuzilgan bo‘lib, bu qo‘llanmalardagi adabiyotlarini qidirish, tanglash va ularni qo‘llanmalarda joylashtirish ilmiy ish olib boruvchilarning mavzulari bo‘yicha nashrlarni qidirishni osonlashtirishga

mo‘ljalangan deya olamiz. Qo‘llanmalarga kiritligan har bir, ilmiy kitob, maqolaning ilmiy ahamiyatini qo‘llanmaning avtorlari yaxshi bilganlar va ilmiy faoliyatini to‘liq yoritish maqsadida uning redaktorlik faoliyatiga taluqli bo‘lgan nashrlarning bibliografiyasini ham to‘liq berilishiga erishganliklarini aloxida ko‘rsata olamiz. Shuningdek bu olimaning ilmiy nashrlarga yozgan taqrizlarining bibliografiyasi ham aloxida berilgan. Bu nashrlarning bibliografiyasini berish orqali orqalaridan yetishib kelayotgan olimlarga bunday nashrlarning axamiyatiga ham aloxida ahmiyat berish kerakligiga yo‘nalish bera olingan deya olamiz.

Shuningdek bunday bibliografik qo‘llanmalarda olimlarning o‘rgangan ilmiy nashirlari bilan birga yodgorliklar bo‘yicha yaratilgan xujjatli filmlardag ulaning ishtiroki bo‘yicha ham bibliografiyasi berilgan bo‘lib, ularning ilmiy ishlarni olib borishlari bilan birga ularni targ‘ib qilish, ularni jamiyat azolariga targ‘ib qilishga ham o‘z xissalarini qo‘shganlarini ko‘ra olamiz.

Ilm fanda asosiy etibor bunday olimlarning faolliyatlarni ko‘rsatish bilan birga ularning rahbarligida yozilgan dissertatsiyalarning bibliografiyasi ham xronologiyasi bo‘yicha berilgan bo‘lib, ularning yosh olimlarning o‘sishdagi ishtirokini o‘rganishga yordam beradi.

O‘rta Osiyo va O‘zbekiston moddiy va ma’naviy madaniyati tarixini o‘rgangan yirik olimlardan biri akademik t.f.d. professor E.V.Rtveladzening nashirlariga tuzilgan bibliografiyaning axamiyatiga ham aloxida to‘xtalib o‘tishimiz mumkin. Olimning O‘rta Osiyo va O‘zbekiston moddiy va ma’naviy madaniyati tarixiga oid 800 dan ortiq nashirlari movjud bo‘lib, ulardan 30 tasi ilmiy kitob va monografiyalardan iborat. U 1990-yillar oxirida Toxariston arxeologik ekspedisiyasini tuzib, O‘zbekiston janubidagi yodgorliklarni tadqiq qilishni qayta boshlagan. E.V. Rtveladze vatanimiz arxeologik yodgorliklari bo‘yicha nashir qilingan kitoblari Angliya, Vengriya, Germaniya, Gruziya, Eron, Italiya, Rossiya, AQSH, O‘zbekiston, Fransiya, Janubiy Koreya, Yaponiya va dunyoning boshqa mamlakatlarida movjud ekanligi uning izlanishlarining axmiyati kattaligini bildiradi. U turli davirlarda Vashington, Kioto, Leningrad, London, Moskva, Nikosiya, Osaka, Parij, Stokgolm, Turin, Tokio, Syurix va dunyoning boshqa bir qator shaharlaridagi universitet va ilmiy muassasalarda Markaziy Osiyo tarixidan ma’ruzalar o‘qigan. Mamlakatimizdagi ilk o‘rta asr numizmatikasining fundamental masalalarini ishlab chiqgan olimlardan biridir.

Adabiyotlar:

1. Bayturayev T.D. Tarixiy o‘lkashunoslik nashrlarining yoshlar mutolaa madaniyatiga taьsiri//O‘zDSMI xabarlari.-2023 №1(24).- b.125-128.

2. Bayturayev T.D. Bibliografiya izdaniy Abdumajida Madraimova kak,posobiye po izucheniyu istorii iskusstva narodov Sredney Azii// ”INFOLIB”.№1(33).- s.45-49.

3. Mamontov A.V., Щyerba N.N.Krayevedcheskaya bibliografiya:Ucheb.dlya bibl.fak.in-tov. – M.:Kn.palata,1989. – 216 s.

Sitora Umarova,
O‘zJOKU magistranti.

OAVNING JAMOATCHILIK ONGIGA PSIXOLOGIK TA’SIR ETISH USULLARI, SHAKLLARI, VOSITALARI

Annotatsiya: *Ijtimoiy media tuzilishi birinchi navbatda shaxsga, keyin esa ijtimoiy tuzilishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Garchi bu qat’iyat ba’zan ongsiz bo‘lsa-da, ommaviy axborot vositalarining umuman jamiyatga yo‘naltiruvchi ta’siri borligi inkor etib bo‘lmaydigan haqiqatdir. Zero, tadqiqotda ommaviy axborot vositalarining jamiyatni qanday shakllantirishi borasida so`z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Ommaviy axborot vositalari, jamiyat, ijtimoiy media, ijtimoiy ong, psixologik ta`sir.*

Abstract: *The structure of social media plays a decisive role first in the individual and then in the social structure. Although this determination is sometimes unconscious, it is an undeniable fact that the mass media has a guiding influence on society as a whole. After all, the research talks about how mass media shape society.*

Key words: *Mass media, society, social media, social consciousness, psychological influence.*

Ijtimoiy hayotning paydo bo‘lishi bilan boshlangan muloqot faoliyati dastlabki davrlarda og‘zaki ravishda amalga oshirilgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan yozuvning ixtiro qilinishi va rivojlanayotgan tuzilmalar tufayli yozma shaklga aylandi. Yozuv ixtiro qilingandan so‘ng yozma materiallarni ko‘paytirish bilan bir qatorda ma'lumotlar, yangiliklar va boshqalar to‘plangan. Elementlarni yozma shaklda tarqatish faoliyati boshlandi. Ushbu boshlanish hozirgi ma'noda ommaviy kommunikatsiya yoki ommaviy axborot vositalari faoliyatini anglatadi. Davom etayotgan jarayonda media vositalari ham yozma, ham vizual bo‘lib, ommaviy axborot vositalari faoliyatida vizual materiallardan foydalaniladi.

Insoniyatning o‘zgaruvchan va rivojlanayotgan texnologik tuzilma doirasida sanoat jamiyatiga o‘tishi bilan ijtimoiy muloqotda texnologiyaga asoslangan media tuzilmasi birinchi o‘ringa chiqdi. Bugungi kunga yaqinlashganda, axborot jamiyatiga o‘tish bilan raqamli yoki virtual muhitda taqdim etilgan aloqaga o‘tish sodir bo‘ldi. Ijtimoiy hayotning yangiliklar ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy hayotga kiritilgan ommaviy axborot vositalarining ta'sirini yetkazish uchun tayyorlandi. Adabiyotlarni o‘rganish natijasida yaratilgan tadqiqotning yakuniy qismida ommaviy axborot vositalarining ta'siri va ularni hal qilish bo‘yicha takliflar mavjud.

Ommaviy axborot vositalarining hozirgi mavqeiga nazar tashlasak, uning ham inson, ham jamiyat hayotida juda muhim mavqega ega ekanligi ko‘rinadi. Darhaqiqat, rivojlanayotgan texnologiyalar bilan keng tarqalgan media tuzilmalar kundalik hayotning har bir jabhasida axborot beruvchi va yo‘naltiruvchi kuch bo‘lish xususiyatiga

ega bo‘ldi. Media tuzilmalarida texnologiyadan foydalanish bilan ommaviy axborot vositalari har qanday sharoitda aloqani ta'minlash funksiyasiga erishdi.[1]

Ijtimoiy media – bu odamlar o‘zlari haqidagi fikrlar, g‘oyalar va ma'lumotlarni almashish uchun umumiy joy. Ijtimoiy media atamasi boshqa odamlar bilan bog‘lanish va ular bilan munosabatlar o‘rnatish, ishonchni mustahkamlash va ushbu munosabatlardagi odamlarga taklif qilinadigan mahsulot sotib olishga tayyor bo‘lganda u yerda bo‘lish uchun bu texnologiyalardan samarali foydalanishdir.[2]

Ommaviy axborot vositalari va uning madaniyatga ta'siri bo‘yicha tadqiqotlarda ba'zi tadqiqotchilar ommaviy axborot vositalarining shaxs, madaniyat va jamiyatga ta'siri nuqtayi nazaridan o‘z-o‘zidan paydo bo‘lish haqida gapirishlari ko‘rinadi. Biroq, ushbu ta'sir elementi bo‘yicha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, umuman olganda, o‘zini shakllantirish mumkin emas va manipulyatsiya va buzilish odatda ongli ravishda amalga oshiriladi. [3] Ommaviy axborot vositalari va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarga oid ayrim tadqiqotlarga ko‘ra, ommaviy axborot vositalari va media tuzilmasi ichida, ayniqsa, teleko‘rsatuvlar joriy tartib nuqtayi nazaridan bir tarmoq vazifasini o‘taganligi aytiladi. Bu fikrni ilgari surayotgan tadqiqotchilarning fikricha, ommaviy axborot vositalari yoki ommaviy axborot vositalariga kiritilgan vositalar odamlarning ijobiy va umumiy qabul qilingan his-tuyg‘ulari, e'tiqodlari, fikrlari va xatti-harakatlariga o‘zgaruvchan ta'sir ko‘rsatmaydi. Aksincha, ommaviy axborot vositalari odamlarda mavjud bo‘lgan qadriyatlar va hissiyotlarni saqlaydigan va mustahkamlaydigan ta'sirga ega. Biroq, aytib o‘tilganidek, boshqa tadqiqotlar ushbu tadqiqotlarda olingan natijalarni bekor qiladi.

Shaxsning atrofidagi boshqa shaxslar bilan o‘zaro munosabati, jamiyat va madaniyatda oldingi avlodlardan o‘tib kelgan va bugungi kungacha saqlanib qolgan ijtimoiy qadriyatlar va me'yorlarni shaxsga o‘tkazish va o‘rgatish sifatida tavsiflangan narsa bu ijtimoiylashuvdir. Ijtimoiylashuv tuzilmasi doirasida shaxslar jamiyat tomonidan ularga yuklangan rollarni, bu rollar natijasida olingan maqomlarni, ular ko‘rsatishi kerak bo‘lgan xatti-harakatlar turlarini, shuningdek, jamiyat va boshqa shaxslarning jamiyatdagi umidlarini o‘rganadilar va o‘zlashtiradilar.

Jamiyat uchun sotsializatsiyaning eng aniq jihati shundaki, u shaxs va jamiyatning integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Bundan tashqari, jamiyat tomonidan qabul qilingan qadriyatlar bilan ulg‘aygan shaxslar jamiyat tomonidan qabul qilingan insoniy o‘ziga xoslikka ega bo‘ladilar. Bu masala shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabat nuqtayi nazaridan ham, jamiyat mavjudligida ham juda muhimdir. Ommaviy axborot vositalarining ijtimoiylashuvga asosiy ta'siri, ushbu tuzilmani yaratuvchi yaxlitlik, madaniy transfer va mavjudlikning davomiyligi kabi masalalarda ko‘rsatadigan xizmatidan kelib chiqadi. Darhaqiqat, barcha yoshdagi shaxslar ommaviy axborot vositalarining ijtimoiylashuvga inkor etib bo‘lmaydigan ta'siriga duchor bo‘lishlari ma'lum. Shu nuqtayi nazardan, media vositalari orqali bu masalaga ongli yoki ongsiz

ravishda xizmat qilish mumkin. Biroq, yana bir bor ta'kidlash joizki, shaxslarning ijtimoiylashuviga barham berish, ijtimoiylashuvda kamchiliklarni yuzaga keltirish, madaniy borliqni silkitish kabi masalalarga ham ommaviy axborot vositalari orqali erishish mumkin.

Jurnalistikaning birinchi galdagi o‘rganadigan, murojaat etadigan obyekti, asosiy axborot manbai, qolaversa, iste’molchisi ham buyurtmachisi ham, nazoratchisi ham insondir. Muayyan bir jamiyatga xos muammolarni o‘rganishda avval inson ruhiyatiga, jamoatchilikning fikr-mulohazalariga murojaat etish maqsadga muvofiq. Hozirgi o‘ta murakkab, ziddiyatli sharoitda inson fenomenini o‘rganish jurnalistika sohasining dolzarb vazifalaridir. Chunki hozirgi zamon kishisi axborotning globallashuvi kuchaygan, mobil aloqa tarmoqlari mislsiz tezlikda rivojlanayotgan murakkab kommunikativ sharoitda yashayapti. Ommaviy kommunikatsiya jarayonlari nafaqat insonning turmush tarzini, balki ruhiy olamini ham o‘zgartirib yubormoqda. Jurnalistlar ana shu o‘zgarishlarni tushungan holda zamondoshlari bilan muloqotga kirishishga yordam beradigan psixologik bilimlarga tez-tez murojaat etyaptilar. Shundan kelib chiqib ta’kidlash joizki, jurnalistika psixologiyasining bosh vazifasi – jamiyatdagi ijtimoiy-psixologik muammolarning ommaviy kommunikatsiya vositalarida o‘ziga xos talqinlarini, auditoriyani axborot bilan ta`minlash jarayoni bilan bog‘liq psixologik holatlarni, OAVning turli ijtimoiy guruhlar bilan munosabatiga doir psixologik xususiyatlarini o‘rganishdan iborat. [4]

Bugungi kunda ham ijtimoiy, ham texnologik sohalardagi o‘zgarishlar bilan aloqa omili an'anaviy ommaviy axborot vositalari bilan bir qatorda ijtimoiy media orqali ham qizg‘in amalga oshirilgan bir tuzilishga ega bo‘ldi. Bu o‘sish shunchalik keng qamrovli bo‘ldiki, odamlar ommaviy axborot vositalarida aks ettirilganidek, shaxsan boshdan kechira olmaydigan voqealarni o‘rganish va baholashni boshladilar.[5] Ommaviy axborot vositalariga bog‘liq bo‘lgan ushbu baholash masalasi jamoatchilik fikri sifatida belgilangan umumiy nuqtayi nazarni ommaviy axborot vositalari tomonidan boshqarilishiga imkon berdi. Bu borada afzallik yoki kamchilik deb aytish mumkin bo‘lgan narsa an'anaviy va hozirgi media tuzilmalaridagi farqlardir. Darhaqiqat, ushbu tuzilmalar yetib bora oladigan auditoriyaga e’tibor qaratsak, hozirgi media tuzilmasi an’anaviyga qaraganda ancha katta auditoriyaga ega ekanligi ko‘rinadi. Bu holat paydo bo‘lgan fikrning tabiatiga qarab salbiylikni ham keltirib chiqarishi mumkin. Yana jamoatchilik fikri nuqtayi nazaridan, kuchli media tuzilmalarining noto‘g‘ri yo‘nalishiga duchor bo‘lish natijasida haqiqatda mavjud bo‘lmagan narsalarni qabul qilish orqali shaxslarning noto‘g‘ri yondashishlari mumkin, bu esa ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik fikriga nisbatan eng muhim kamchiliklaridan biridir. Bundan tashqari, soxta yangiliklarning virusli tarqalishi, bu yerda shaxslar almashishga ruxsat berilgan media tuzilmalari ostida ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik fikrini

shakllantirishdagi ta'siri bilan birga, nazoratning yetishmasligi nuqtayi nazaridan salbiy tuzilma paydo bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

O‘tmishdan to hozirgi kungacha insonlar uchun samarali yo‘l-yo‘riq vositasi bo‘lib kelgan ommaviy axborot vositalari ko‘lami kengaygani tufayli bugun o‘z samarasini yanada oshirdi. Ayni paytda ommaviy axborot vositalari ham ijtimoiy, ham individual tarzda o‘zining rahbarlik faoliyatini oshirishda davom etmoqda. Ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy va individual yo‘naltirilgan faoliyatini umuman foydali yoki zararli deb baholash to‘liq bo‘lmagan yoki noto‘g‘ri baholash bo‘ladi. Aslini olganda, ijtimoiy mediadan samarali foydalanish, ham madaniy uzatish, ham shaxslar o‘rtasidagi ijtimoiy majburiyatni oshirish, jamiyatning zarur nuqtalarida birlik va hamjihatlikni ta'minlash uchun chaqiruvlarda katta afzallik beradi. Shu tariqa odamlarga ancha qisqa vaqt ichida yetib borish va qisqa vaqt ichida kerakli yoki kutilgan natijaga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Soydan, E. ve Alpaslan, N. (2014). “Medyanın Doğal Afetlerdeki İşlevi”, İstanbul Sosyal Bilimler Dergisi
2. Ortiqova Y.Interaktiv jurnalistika.-T.: “Mumtoz so‘z”, 2011
3. Safko, L. (2012). The Social Media Bible: Tactics, Tools, and Strategies for Business Success. 3.Edition. New Jersey: Wiley.
4. Barrett, O. ve Braham, P. (1995). Media, Knowledge and Power, London: Routledge.
5. Kaya, A. R., (1999). Medya, Toplum, Siyaset, (Ed. Kemal Alemdar), Medya Gücü ve Demokratik Kurumlar, İstanbul: Afa Yayınları.

Gavhar Normatova,
O‘zDSMI magistranti

SHARQ MUTAFAKKIRLARI VA JADID MA’RIFATPARVARLARINING SAN’AT VA MADANIYAT RIVOJIGA OID QARASHLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqola jadidchilik harakati asoschisi Munavvar Qori Abdurashidxonovning fan, ta’lim va madaniyat sohalari rivojiga qo‘shgan hissasi, bu yo‘lda amalga oshirilgan ishlarning natijalari haqida yozilgan. Bundan tashqari 2023-yil Toshkent shahrida o‘tkazilgan “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjumanning mazmun-mohiyati haqida ham ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Demokratiya, maorif, so‘z erkinligi, jadidshunos olimlar, ilm-fan, milliy qadriyatlar, islohotlarga daxldorlik tuyg‘usi, strategiya, mafkura.*

Abstract: *This article is written about the contribution of Munavvar Qori Abdurashidkhanov, the founder of the Jadidism movement, to the development of the fields of science, education and culture, and the results of the work done in this way. In addition, information is also provided about the content of the international scientific conference on the topic "Jadidlar: ideas of national identity, independence and statehood" held in Tashkent in 2023.*

Key words: *Democracy, education, freedom of speech, historians, science, national values, sense of belonging to reforms, strategy, ideology.*

"At the moment when our country is entering a new, high stage of its development, we need mature personnel who have been brought up in the spirit of national values along with the achievements of Western science like our ancestors."

Sh.Mirziyoyev

In addition to the ideological ideas of Munavvar Qori Abdurashidkhanov, an enlightener in the history of Uzbekistan, as well as the establishment of European-style folk medicine, reforming existing madrasas and teaching secular sciences in them, promoting the idea of training national intellectuals. It can be said that the reforms he implemented in the country are worthy of special recognition. The First President of our country, I.A. Karimov, summed up the views of our great ancestors on the mutual harmony of education and training: "Education cannot be separated from education, and education from education – this is an oriental view, an oriental philosophy of life." had emphasized. Therefore, education is of primary importance in the formation of human personality. It includes the educational process, all educational activities. Only when any education is combined with upbringing, it becomes the basis for mature spirituality, bringing up a spiritually mature and perfect person.

Although the influence of Munavvar Qori Abdurashidkhanov's ideology was banned at that time, it still has not lost its power and relevance for today. It is no exaggeration to say that his views and ideas are reflected in our national pedagogical

system. In addition, in addition to the study of worldly sciences, the perfect acquisition of religious knowledge leads to the awakening of the human conscience, and in this process, the ability to protect oneself and others, to perfect one's faith, and in such a system, personnel do not deviate in every way. receive education and training.

Munavvarqori Abdurashidkhanov's educational-pedagogical views are the most relevant: "Those who prioritize the issues of science, education and culture, education and training, and new schools" – or, "Advanced Muslim intellectuals of the country, The main cause of the backward level of development and social and colonial oppression was sought primarily from the lack of enlightenment of the people, therefore, education and enlightenment were considered as the main way to solve problems. As a result of this, at first, the task of educational reform was in the center of attention of the Jadids. Munavvarqori Abdurashidkhanov justified the necessity of implementing these reforms not only theoretically, but also by opening schools taught in a new way, building libraries, reading rooms, writing textbooks, and putting their ideas into practice. they did great things" – he says. Munavvarqori introduced his own programs and textbooks for modern schools opened in Tashkent, based on which he organized public classes and exams.

The main purpose of this is, firstly, to demonstrate to the people that the claims of bigoted ancients who slander modern schools are groundless, and secondly, to encourage knowledge, a new teaching method, and a modern lifestyle among the people. was a wake up call. That's why Munavvarqari invited students' parents to Sharia-religious leaders, as well as scientists, poets, and enlightened rich people, who gained a lot of attention in the country, to the exams. We have the "Invitation Letter" he sent to Ishaq Khan Ibrat and Hamza Hakimzada. Here is one of them: "Dear Mr. Ishaq Khanhoji! From May 1907, the annual examination of students at the "Konia" school in the Tarnovboshi neighborhood of Tashkent began. We sincerely hope that if you attend the examination meetings with the principals of modern schools, the teachers and students will be pleased with you. Your friend Munavvar Qori. March 15, 1907".

Munavvarqori Abdurashidkhanov is responsible for daily educational activities of Jadid schools, organizing annual graduation exams, teaching talented young teachers the way of "usuli savtiya" and providing schools with modern textbooks and study guides. led a continuous process. His work was supported by great thinkers of his time.

President Shavkat Mirziyoyev, in his address to intellectuals on September 30, 2020, on the occasion of the Day of Teachers and Trainers, touched on the movement and personalities of Jadidism. According to the words of the President, these selfless and passionate people have devoted their whole lives to the idea of national revival, they have put all their strength and capabilities to take the country out of ignorance and backwardness, to save our nation from the mire of ignorance. mobilized. In this way, they also sacrificed their dear lives. In fact, recognizing the enthusiasm and attention to

education of our grandfathers, modern thinkers, their ways of life should be a program for us. Nowadays, attention to education has increased in our country. Every family made use of the conditions created by our country for the education of their children and formed their own views on education. The practical work on increasing the coverage of higher education institutions and the creation of a system of social justice and transparency established from the entrance exams will once again increase the confidence of our people in the future, work effectively for the development of the country, and contribute to it. are adding. In this place, the life path and lessons of our great modern thinkers serve as a beacon illuminating our path. After all, according to them, the reform of lower and higher schools is the reform of the nation.

After all, as our president noted, "It is natural that the legacy of our enlightened ancestors serves as a foundation for the legal democratic state and civil society that we are building today. Whether someone likes it or not, our people must follow the path shown by our ancestors. Because their ideas and programs are in full harmony and harmony with the strategy of building New Uzbekistan."

LIST OF REFERENCES:

1. B. Kasimov "Literature of the Uzbek National Renaissance"
2. Mahmudhoja Behbudi. Two articles about Ismail Gasprali
3. Abdullah Avloni. Brief History of Prophets and History of Islam
4. www. kh-davron.uz

Tuyg‘unov Doniyor Mirzayevich,
mustaqil izlanuvchi

O‘ZBEK TEATR SAHNALARIDA SHE’RIY DRAMALAR TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tarixiy she’riy dramalari hamda uning sahna talqinlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘rta asrlar, Sharq allomalari, teatr, spektakl, she’riy drama, rejissyor, sahna asari, aktyor.

O‘rta asrlar va mutafakkirlari tarixiy merosida san’at va madaniyat masalalari alohida ahamiyatga ega. Bu mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari orqali yanayam kengroq ma’lumotga ega bo‘lishimiz tabiiy. Zamonlar beshigini tebratgan ona sharq allomalari-yu mutafakkirlarining yuksak ilm-u salohiyatidan suv ichadi. O‘tmish kelajakka integratsiya ko‘prigi vazifasini o‘taydi. Ma’naviyat, ma’rifat, ta’lim, tarbiya ulug‘lar zakosidan toblanadi, takomil topadi.

Milliy va xorijiy teatr sahna san’atidan ma’lumki, teatrlar repertuarlarini shakllantirishda faqatgina dramatik asarlar asos bo‘lavermaydi. Adabiyotning bir qator tur va janrlari bir-birining shakllanishiga sabab bo‘ladi. Drama janri boshqalariga nisbatan bir muncha murakkab, qolaversa asar yozilgandan keyingi taqdirini muallif emas, balki rejissyor mahorati va tomoshabinlarning fikri belgilaydi. Sahnalashtirish uchun dramatik asarlar yetarli bo‘lsa-da, har bir rejissyor o‘z ijodi repertuarida mumtoz va lirik asarlar bo‘lishini xohlaydi. Millatning tarixini, madaniyatini, ma’naviyatini o‘zgartirmasdan, uni noto‘g‘ri taqin qilmasdan tomoshabinga yetkazish eng muhim masalalardan biridir.

Badiiy adabiyot – san’atning ajralmas bir qismidir. Hayotni aks ettirish uchun rassomga rang, kompozitorga ohang, operatorga kamera kerak bo‘lganidek dramaturgning ham muhim quroli so‘zdir. Adabiyotning lirik, epik, dramatik turlari asosiy tur hisoblansa ham, hozirgi kunga kelib ijodda qorishiq turlar ham o‘z aksini topmoqda. Aytaylik, liro-epik tur. Doston, she’riy hikoya, she’riy qissa, she’riy dramalar mana shu turga mansubdir.

Lirikada qahramonning his-tuyg‘ulari, kechinmalari tasvirlansa, dramada mana shu kechinmalar harakatlar, voqealar orqali ifodalanadi. Lirik dramada esa so‘zlar qofiyali tarzda ifoda etiladi. Qahramonlarning monolog, dialoglarini she’r ko‘rinishida, she’riy shaklda talqin qilishi tomoshabinlarda ta’sir kuchini orttiradi.

O‘zbek teatr sahnalarida bir qancha she’riy dramalar ma’lum va mashhur. Jumladan, “Sohibqiron” Amir Temur (muallif Abdulla Oripov, rejissyor Olimjon Salimov), “Jaloliddin Manguberdi” (muallif Nazar Eshonqul, rejissyor A.Xolmo‘minov), “Nodirabegim” (muallif Turob To‘la, rejissyor Baqodir

Yo‘ldoshyev), “Mirzo Ulug‘bek” (muallif Maqsud Shayxzoda, rejissyor Valijon Umarov), “Piri Koinot” (muallif Hayitmat Rasul, rejissyor Valijon Umarov). Maqola davomida yuqorida keltirib o‘tilgan she’riy dramalarning mazmuniga to‘xtalib o‘tamiz.

Sahnalashtirilgan she’riy dramalarning asosiy qismi tarixiy shaxslar hayotiga oid. Turob To‘la qalamiga mansub “Nodirabegim” tarixiy dramasi ham shular jumlasidan.

Tariximizning "eng kir va qora" davri – XIX asr o‘rtalarida uch xonlik orasidagi o‘zaro ziddiyatlar, mayda gina-kudurat va yer talashishlar oqibatida jaholat g‘olib kelib, ezgulik g‘orat etilayotgan kezlari shoirai davron, Qo‘qon malikasi Nodirabegimning mamlakat birligi va davlat mustahkamligi uchun kurashlari aks etgan spektakl musiqali teatr hayotida muhim hodisa bo‘ldi. O‘zbekiston xalq artisti Zulayho Boyxonova talqinida Nodirabegim – mamlakat malikasi, demakki, yurt onasi sifatida xalq dardi bilan yashayotgan, goh hukmdor o‘g‘lining xatolaridan iztirob chekayotgan, el-ulus osoyishi va ravnaqi haqida o‘ylayotgan oqila bir ayol. Farzandini xatolar-u xatarlardan asrash niyatida ixtiyorsiz siyosatga aralashgan Nodirabegim, dunyo ishlaridan bezib charchaganida, suyukli yori Amir Umarxon ruhidan quvvat oladi, nafosat majlislari, nazm mushoiralaridan taskin topadi. Spektaklda ana shu holatlar mumtoz musiqa va xoreografik kompozitsiyalar bilan yo‘g‘rilgan ramziy-xayoliy, go‘zal mizansahnalarda o‘z ifodasini topgan. Tomoshabin davlat yuki bilan onalik tuyg‘ulari o‘rtasida, siyosat bilan nafosat orasida muvozanat topolmayotgan jafokash ayolning yozg‘irish va azoblaridan mutaassir bo‘ladi[1].

Ushbu sahna asari dramatik to‘qnashuvlarga to‘la. Birgina Nodirabegimning Muhammadalixon, vazir, amir, Roziq kabilar bilan bo‘ladigan konflikti tomoshabinni qattiq hayajonga soladi. Spektaklning muhim jihatlaridan biri, unda bosh qahramon Nodirabegimni faqatgina shaxsiy hayot yo‘li yoritilibgina qolmay, o‘sha davr xalqining orz-u umidlari hamda malikaning oddiy xalqqa munosabati va e’tibori ham yaqqol namoyon etilgan.

Nodiraning ham shoira, ham ona, ham davlat boshqaruvidagi shaxs sifatida uning har tomonlama odil bo‘lishga intilishlari ajoyib tarzda o‘z ifodasini topgan asar deb bemalol aytishimiz mumkin. Nodira timsoli bugungi kun onasi, rahbar ayol timsoli qanday bo‘lishi kerakligi haqida yorqin aks ettirilgan.

Yana bir buyuk siymo Mirzo Ulug‘bek haqida O‘zbek Milliy Akademik Drama teatrida Maqsud Shayxzoda qalamiga mansub “Mirzo Ulug‘bek” dramasi sahnalashtirildi. Mazkur tarixiy spektaklda buyuk bobokalonimiz Mirzo Ulug‘bekning olim, shoir, ilm-fan homiysi sifatida amalga oshirgan ishlari, davlat boshqaruvidagi tutgan yo‘li, ma’rifat ahliga munosabati haqida bayon qilinadi. Spektaklda bosh rollarni O‘zbekiston xalq artistlari Erkin Komilov, Yayra Abdullayev, O‘zbekistonda xizmat

---

1 *Rejissyor Bahodir Yo‘ldoshyev siyratiga bir nazar. Shuhrat Rizo, «Tafakkur» jurnali 2007-yil, 2-son.*

ko‘rsatgan artistlar Fathulla Ma’sudov, Lola Eltoyeva, Behzod Muhammadkarimovlar mohirona ijro qilgan.

Temuriylar sulolasining buyuk avlodi, olim, adolatli shoh Mirzo Ulug‘bek Amir Temur asos solgan va meros qoldirgan Movarounnahrni 40-yil odillik bilan boshqargan. Ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan. Ilmga, falakiyot sirlarini o‘rganishga o‘zini, hayotini, umrining eng totli damlarini baxsh etgan. Lekin siyosatiga qarshilik qilgan, tinchlik va ilmiy rivojlanishdan ko‘ra, mutaassiblik, urush va bosqinchilikni qo‘msaydiganlar ham bor edi uning davlatida. Ularning eng boshida turgan shaxs ham aynan Ulug‘bekning farzandi Abdulatif edi. Dramaning bosh mavzusi ota va o‘g‘il o‘rtasidagi o‘ta nozik va keskin ziddiyatlar, ma’rifatga intilish va unga qarshi johillikning kurashi, adolat va adolatsizlik katta masala bo‘lib turardi.

Spektaklda ziddiyatlar qurshovida qolgan shoh Mirzo Ulug‘bek toj-u taxtdan voz kechib, o‘zini ilmga bag‘ishlaganiga, biroq spektakl so‘ngida o‘z farzandi tomonidan qatl etilganiga guvoh bo‘lamiz. Bu tarix qilgan xatolardan xulosa chiqarish va tarbiyalash, tarbiyalanish borasida san’at vositasi orqali pedagogik ta’lim-tarbiya berkitilganini anglash mushkul emas.

Valijon Umarov Hayitmat Rasul asari asosidagi “Piri Koinot” spektaklini sahnalashtirdi. “Piri Koinot” spektakli o‘zida romantik pafosga aktyorlik talqini, shoirona lirik muhit hamda stenografiyadagi mahobatli, hayratlanarli tomoshaviy obrazni mujassam etgani bilan ajralib turadi. Spektakl voqealari asosini ulug‘ olim al-Farg‘oniy hamda unga qarshi bo‘lgan eskicha qarashga ega, xudbin kuchlar o‘rtasidagi ziddiyat tashkil etadi. Bu esa sahnadagi harakatlarning o‘ziga xos bosimini ifoda etadi[1]. Ushbu spektakl astronomiya, matematika, geometriya va boshqa ilmiy yo‘nalishlarda kashfiyotlar qilgan qomusiy olim Ahmad al-Farg‘oniy haqidadir. Sharqda olimni al-Farg‘oniy, Yevropada Alfraganus nomi bilan tanishadi. Uning hayoti hamda ilmiy faoliyati haqida judayam oz ma’lumotlar saqlanib qolgan. Ko‘plab ilmiy yangiliklar qilgan olim Bag‘doddagi “Baytul Hikma”da faoliyat olib borgan. Va o‘sha yerdagi o‘zining hasadgo‘y hamkasblari tomonidan nobud qilinadi. Sahnada Farg‘oniy rolini G‘aybulla Hojiyev mahorat bilan ijro qilgan.

Mana shu dramatik asarlar hamda ularning sahna talqinlaridan ko‘rinib turibdiki, hamma vaqt ham ilm ahliga oson bo‘lmagan. Qahramonlarning ichki kechinmalari ruhiy olami, o‘sha davr muhitini ochib berish albatta, yaxshi. Ammo dramatik asar, mahoratli rejissyor hamda iste’dodli aktyorlar tandemi juda muhimdir. Misol keltirilgan she’riy dramalar va ularning sahna talqinlari ham mana shu jihatlardan holi emas. Millatimiz o‘tmishi haqida so‘zlovchi ushbu spektakllar nodir asarlardir.

1 Jo‘ra Mahmudov. XX asr rejissurasi namoyandalari – Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O‘zMK. 2015.

Sharqona qarash va sharqona tarbiyaning eng oson va ijobiy ta’sir usulining samarali yo‘llaridan biri – san’at va badiiy adabiyot orqali metodidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rejissyor Bahodir Yo‘ldoshyev siyratiga bir nazar. Shuhrat Rizo, “Tafakkur" jurnali 2007-yil, 2-son.

2. Jo‘ra Mahmudov. XX asr rejissurasi namoyandalari. – Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O‘zMK. 2015.

Xurramov Abbos Baxramovich,
O‘zDSMI magistranti,
Ilmiy rahbar: ***Azamjon Maxmudov Muxtorovich,***
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

SHARQ MUTAFAKKIRLARI VA JADID MA’RIFATPARVARLARINING SAN’AT VA MADANIYAT RIVOJIGA DOIR TARAQQIYPARVAR QARASHLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada, jadidchilik harakati va uning namayondolari haqida ma’lumotlar berilib o‘tilgan, hamda jadid ma’rifatparvarlarining san’at va madaniyat rivojiga doir taraqqiyparvar qarashlari keng yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: jadid, usullar, taraqqiyot vakillari, turkiy tillar, jadidchilik harakati.

Annotation. In this article, information is given about the Jadidism movement and its representatives, and the progressive views of the Jadid enlighteners on the development of art and culture are widely covered.

Key words: jadid, methods, representatives of development, Turkic languages, Jadidism movement.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bir qator sharq va musulmon mamlakatlarida vujudga kelgan jadidchilik harakati Turkiston o‘lkasida teran tarixiy ildizlarga egadir. Yurtimiz ulkan ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy ahamiyatga ega ushbu jarayonlardan chetda qolmagani, aksincha, bu harakatning markazlaridan biriga aylanganini ta’kidlash lozim. O‘z zamonining ilg‘or namoyandalari bo‘lgan jadidlar g‘oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma’rifat tarqatish, ta’lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish g‘oyasi bilan maydonga chiqdilar. Shu maqsadda o‘z mablag‘lari hisobidan maktab va teatrlar, nashriyot va kutubxonalar, gazeta va jurnallar tashkil qildilar, qobiliyatli yoshlarni chet ellarga o‘qishga yubordilar. Ularning bu

olijanob tashabbus va harakatlari jamiyat hayotida kuchli aks sado berib, qudratli to‘lqinga aylandi. O‘ylaymanki, tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo‘lgan mintaqamizda uchinchi Renessansni aynan jadid ajdodlarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Afsuski, mustabid tuzum ularning ezgu g‘oya va amaliy harakatlarini to‘la ro‘yobga chiqarishga imkon bermadi. Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma’naviy kuch-quvvat olamiz. Yurtimizda mustabid tuzum davrida siyosiy qatag‘onga uchragan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. 31 avgust – Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni sifatida keng nishonlanmoqda. “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va uning hududiy bo‘limlari faoliyat olib bormoqda. Jadidchilik harakati tarixiga oid ilmiy tadqiqotlar, badiiy asarlar, kinofilmlar ko‘plab yaratilmoqda. Ulug‘ ma’rifatparvarlarimiz nomlari bilan ataladigan yodgorlik majmualari, ta’lim muassasalari, muzeylar, bog‘ va xiyobonlar barpo etilmoqda. O‘tgan uch yil mobaynida O‘zbekiston Oliy sudi tomonidan qatag‘on qurboni bo‘lgan to‘rt yuzdan ziyod vatandoshlarimizning nomlari oqlandi. Ularning aksariyat qismini jadidchilik harakati vakillari tashkil etishi ayniqsa e’tiborlidir. Biz ma’rifatparvar bobolarimizning muqaddas orzularini ro‘yobga chiqarish uchun mamlakatimizda yangi Renessans poydevorini yaratishni strategik vazifa qilib belgilaganmiz. Shu maqsadda ilm-fan, ta’lim-tarbiya, madaniyat sohalarida tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. [1]

Hurmatli prezidentimiz Mirziyoyev Shavkat Miromonovich 2023-yil 6-martdagi Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan xalqarokonferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida shu kabi masalalarga obdon to‘xtalib o‘tdi. Bu albatta quvonarli hol. Sharq mutafakkirlari va jadid ma’rifatparvarlarining san’at va madaniyat rivojiga doir taraqqiyparvar qarashlari hamda olib borilgan isloxatlari, qilingan zahmatli mehnatlari taqsinga loyiq, qadr-qiymati baland. Jadid ziyolilarining san’at va madaniyat sohasiga qo‘shgan ulkan hissasi bugungi kunda yoshlar uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Turkistonda jadidchilik harakati uchunchi Renessansga birinchi qadamdir aslida…

Turkistondagi jadidchilik harakati bu bir tasodif xodisa bo‘lmay, balki hayotimizdagi ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar maxsuldir. Turkiston xalqining boy ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, madaniy taraqqiyotida XIX asrning birinchi choragidagi davr o‘zining nihoyatda sermazmun va inqilobiy suronliligi, g‘oyaviy-nazariy va mafkuraviy harakat shakllarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu holat ijtimoiy taraqqiyotning o‘ziga xos yo‘nalishi edi. Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi. Jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlari Turkistonni o‘rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish, “Usuli qadim” ni inkor etgan holda o‘lkani, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiy yo‘lga olib chiqish, milliy

davlat bunyod etish, konstitutsion, parlament va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat ko‘rish, turkiy tillarga davlat tili maqomini berish, milliy pul birligi, milliy qushin tuzish rus taraqqiyparvarlari, ma’rifatchilarining Turkiston o‘lkasida ma’rifatparvarlik g‘oyalarini tarqatish uchun imkoniyatlar yaratish edi. Demak, Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi asta-sekin bo‘lsada milliy ozodlik mafkurasiga asoslanib bordi. Bu jarayon o‘lkadagi maxalliy xalqning ongiga o‘z ta‘sirini o‘tkaza boshladi. Natijada ular Turkistonda mustaqillik, milliy taraqqiyot uchun, xalqning manfaatlari uchun kurash olib borishga milliy-ozodlik harakati uchun zamin tayyorlashga muvaffak bo‘ldilar. Yerli xalqlar orasida mustamlakachilikka qarshi ma‘rifatchilik g‘oyalari tarqala boshladi, yangi ta’lim-tarbiya shaxobchalari, yangi maktab, maorif, madaniy targ‘ibot, jadidchilik harakati rivoj topdi [2]. Mana shunday sharoitda Turkistonda ko‘plab ma’rifatchilar yetishib chiqdi.

Turkistonda jadidchilik harakati uch soha orqali faoliyat ko‘rsatdi. Bular : maorif (yangicha maktablar ochish, ta’lim usulini yangilash), san’at (badiiy adabiyot, teatr) matbuot. (gazeta jurnallar) Asosiy maqsad millatni, bir tomondan, ilm-ma’rifatli qilish bo‘lsa, ikkinchi tomondan uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg‘unlashuvi natijasida, o‘zligini, o‘z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga yetkazish edi. Turkiston jadidchilari tomonidan ana shu maqsadni amalga oshirish yo‘lida katta ishlar qilindi.

Shu jumladan san’atning teatr sohasi ham o‘z-o‘zidan rivojlanmadi. Jadid ziyolilarining oldida bir qator to‘siqlar, qiyinchiliklar, tazyiqlar bo‘lsada ularning bir maqsad yo‘lidagi harakatlari oldinga qadam tashlashga undadi. Birgalikda katta kuch bo‘lishi mumkinligini o‘z vaqtida tushunib yetishdi va bugungi kelajak avlodga nimadir qoldirishga ulgurishdi. Biz yoshlar ajdodlarimizning davomchilari, ularning orzu umidlari ro‘yobi bo‘lishimiz kerak. Ular boshlagan ishni davom ettirish va ustoz-shogird an’anasiga sodiq qolish bugungi kunning dolzarb masalasi desam adashmagan bo‘laman. Shu kabi ishlardan biri teatr sohasidir…

Bizning o‘lkada teatr qachon paydo bo‘ldi va uning rivojlanishi qaysi davriga to‘g‘ri keladi? O‘zbekiston hududidagi an’anaviy teatr juda qadimiy va boy tarixga egadir. Uning kurtaklari ibtidoiy jamoa davridayoq ov va boshqa mehnat jarayoni aks etgan jangovar va xalq o‘yinlari, tabiat kuchlariga topinish oqibatida yuzaga kelgan marosimlar shaklida namoyon bo‘lgan. Shuningdek, teatrning madaniy-ma’rifiy jihatdan rivoj topgan bosqichi jadid teatrlari XIX asr oxiri, XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Bu davr O‘zbek milliy teatrlarining ko‘p jihatdan shakillanishida katta ahamiyatga ega. 1911-yil Turkiston hududida ilk drama asarlar sahnalashtirilgan. Misol qilib olganda Behbudiyning “Padarkush” spektakli, “Mahramlar” nomi bilan mashhur bo‘lgan A.Samadovning spektakllarini e’tiborga loyiq asar sifatida olish mumkin. Bular ichida “Padarkush” asari yaqqol ajralib turadi, chunki o‘sha davrda uning g‘oyaviy ahamiyati juda katta bo‘lgan. Samarqand shahrida birinchilardan bo‘lib yangi O‘zbek

jadid teatri ish boshladi va uning ochilishida Mahmudxo‘ja Behbudiyning xizmatlari alohida e’tiborga loyiqdir. Behbudiy, Furqat, Avloniy, Hamza kabi ilg‘or ziyolilar rus, tatar va ozarbaijon teatr turuppalari tomoshalariga qiziqish bilan qarab, mahalliy kishilarni ulardan o‘rganishga chaqirdilar. Teatrning jadidlarimiz nigohida qanchalik ahamiyatga ega ekanligini birgina Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyati orqali isbotlab berish kifoya. Masalan, Fayzullo Xo‘jayevning Behbudiyga bergan ta’rifi fikrimizni to‘ldiradi. U shunday degan edi: “Siyosiy, ijtimoiy faoliyati va bilimining kengligi jihatdan Turkistonning o‘sha vaqtdagi jadidlaridan unga teng keladigan kishi bo‘lmasa kerak”. [3] Haqiqatdan ham uning bu fikri to‘g‘ri edi. Behbudiy asarlari teatr sahnalaridan tushmaganligi, asarlarining g‘oyaviy jihatdan yuksakligidan dalolat beradi hamda asarlarining ilmga chorlagani va tarbiyaviy ahamiyati bugungi kunda yoshlar hayotida muhim ro‘l o‘ynayotgani bunga yaqqol misoldir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg‘onishda va ravnaqida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy yo‘l bilan yechish yo‘llarini jadidlar o‘z maqola va asarlarida ko‘rsatganlar. Yoshlarni o‘qishga, bilim olish va ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish, madaniy ma’naviy saviyasini yuksaltirishga chorlaydi. Jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalarining zamonaviy bilimdon, mutaxasislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, ular yurtini obod, farovon etishlariga ishonganlar. Yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat va davlatda munosib o‘rin egallashlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi jadidlarning fikrlari bugungi Yangi O‘zbekistonda namoyon bo‘lib turmoqda.

Bugunda ma‘rifatparvar-jadidchilarning bebaho asarlari, ilmiy, nazmiy va nasriy meroslari ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g‘oyalari o‘zbek xalqining ma’naviyat va ma’rifatini, milliy qadriyatlar va ongini yuksaltirish yo‘lida xizmat qilib, avlodlar qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini tarbiyalab kelmoqda. Mustaqillik tufayli ma’rifatchi-jadidlarning nomlari tiklanayapti, tavallud topgan kunlari tantanali nishonlanayapti, asarlari qayta-qayta chop etilayapti. Ularning dunyoqarashlarida bayon etilgan falsafiy-axloqiy fikrlari xalqimizning madaniy-ma’naviy, qadriyatlar sifatida xanuzgacha saqlanib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev: Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan xalqarokonferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigidan. 2023-yil 6-mart.
2. https://interscience.uz/index.php/home/article/download/940/805/2811.
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy merosi va jadid matbuotini yoritishning dolzarb masalalari. Jadidchilarning ma’rifatparvarlik harakatlari va ularning xalq ma‘naviyatini yuksaltirishdagi o‘rni.

Манзура Юлдашева,
Государственный институт искусств и культуры Узбекистана

К ВОПРОСУ О ПРОДВИЖЕНИИ НАУЧНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОГО НАСЛЕДИЯ АБУ РЕЙХАНА БЕРУНИ

Аннотация. *В данной статье говорится о роли великого мыслителя и ученого-энциклопедиста Абу Рейхона Беруни, внесшего неоценимый вклад в развитие мировой науки и культуры. Изучения и широкой пропаганде научно-просветительского наследия одного из величайших и ярких представителей периода первого Ренессанса.*

Ключевые слова: *культура, наука, наследие, ренессанс, миссия, мыслитель, рукопись.*

Abstract. *This article talks about the role of the great thinker and encyclopedist Abu Rayhon Beruni, who made an invaluable contribution to the development of world science and culture. Studying and widely promoting the scientific and educational heritage of one of the greatest and brightest representatives of the period of the first Renaissance.*

Key words: *culture, science, heritage, renaissance, mission, thinker, manuscript.*

Результатом Возрождения в Центральной Азии являются величайшие достижения в политической, экономической, культурной и духовной жизни общества. В этот период по существу, были созданы политические, юридические науки, новая литература и искусство, медицина и философия, новое эстетическое сознание. Проблема человека впервые так остро была поставлена деятелями Возрождения и всё, что было достигнуто, служило развитию самого человека. Эта эпоха нуждалась в своих творцах, и история дала их. Научный подвиг, который совершили Абу Рейхан Беруни, Фергани, Фараби, Фирдауси, Абу Али ибн Сина, Улугбек, Джами до сих пор удивляет людей и их научные открытия составляют гордость нашей национальной культуры. Своими естественнонаучными и философскими открытиями они совершили переворот в человеческом сознании. Идея совершенной личности испокон веков была заветной мечтой нашего народа, органичной частью его духовности. Впитав философию Ислама, она значительно расширила свое содержание в произведениях великих мыслителей Востока: Абу Рейхан Беруни, Абу Наср-аль-Фараби, Абу Али Ибн Сина, Юсуф Хос-Хожиб, Ахмад Югнаки, Джалалиддин Давани, Алишер Навои и многие другие, которые внесли неоценимый вклад в сокровищницу мировой науки, культуры, просвещения[5].

В целях дальнейшего глубокого изучения и широкой пропаганды научно-просветительского наследия одного из величайших и ярких представителей периода первого Ренессанса, широко известного в мире Абу Райхана Беруни, а также широкого празднования его 1050-летия под эгидой ЮНЕСКО в международном масштабе Президентом Республики Узбекистан Шавкатом

Мирзиёевым в августе 2022 года было издано соответствующее постановление «О широком праздновании в международном масштабе 1050-летия великого мыслителя и ученого-энциклопедиста Абу Райхона Беруни». А также, целью этого постановления является дальнейшее изучение, сохранение и распространение трудов Абу Рейхана Беруни, внесшего неоценимый вклад в развитие мировой науки и культуры своими уникальными произведениями и выдающимися открытиями, установления тесного сотрудничества с ведущими международными научными центрами, проводящими исследования в этом направлении.

В выше указанном Постановлении Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева «О широком праздновании в международном масштабе 1050-летия великого мыслителя и ученого-энциклопедиста Абу Райхона Беруни» предусмотрено следующее: [3]

во-первых, дальнейшая поддержка научных исследований ученых-экспертов в международном масштабе в целях изучения научного наследия Беруни, создания научных, художественно-публицистических произведений, изданий произведений ученых;

во-вторых, учреждение международной премии имени Абу Райхана Беруни в целях награждения лиц и научно-творческих учреждений, внесших огромный вклад в глубокое изучение и популяризацию в мировом масштабе его бесценного научно-просветительского наследия;

в-третьих, организация среди учащихся средних общеобразовательных организаций, академических лицеев и профессиональных школ международной предметной олимпиады имени Абу Райхана Беруни по соответствующей дисциплине в Хорезмской области;

в-четвертых, укрепление материально технической базы Каракалпакского отделения Академии наук и Хорезмской академии Маъмуна, реставрация рукописей и других культурных ценностей, относящихся к научно-творческому наследию мыслителя, создание необходимых условий для их надежного хранения;

в-пятых, налаживание международных туристских маршрутов «Буюк Беруний мероси» по мемориальным комплексам, памятникам и местам поклонения, связанным с его именем, а также строительство в Берунийском районе Республики Каракалпакстан специального комплекса с организацией на его территории деятельности научно-просветительских, культурно-досуговых и туристских объектов;

в-шестых, организация мероприятий, посвященных юбилею Беруни, совместно с зарубежными странами и международными организациями, ЮНЕСКО, включая проведение научных конференций и «круглых столов», в том

числе в посольствах Республики Узбекистан за рубежом, узбекских национальных культурных центрах, обществах соотечественников, в целях широкого изучения и пропаганды его научно-просветительского наследия и гуманистических идей;

в-седьмых, создание художественных, мультипликационных и полнометражных документальных фильмов, телесериалов, посвященных жизни и научно-просветительской деятельности Беруни, и их широкий показ также в зарубежных странах[3].

В целях обеспечения выполнения задач, указанных в данном постановлении, недавно были изданы произведения Беруни, входящие в семитомную серию «Абу Райхан Беруни. Избранные произведения», изданные с 50-х годов XX века. Гениальные труды и научное наследие нашего соотечественника стали достоянием всего человечества, бесценным кладезем, источником мудрости и знаний для новых и новых поколений людей. Это прекрасный материал для новых открытий.

Мировое научное сообщество давно признало, что в древности Туран, Туркестан, Мовароуннахр, ныне называемый Узбекистаном, был одной из колыбелей мировой цивилизации. Наша страна является родиной таких величайших мыслителей, как Ахмад Фергани, Мухаммад Хорезми, Абу Райхан Беруни, Абу Али ибн Сина, Абу Бакр Наршахи, Абу Мансур Мотуриди, Махмуд Замахшари, Каффаль Шаши, Мирзо Улугбек, и многих других, чьи научные труды навсегда вошли в золотой фонд мировой науки и культуры.

Известно, что в апреле 2022 года Исполнительный комитет ЮНЕСКО принял решение о включении в список международных годовщин наследия ЮНЕСКО и празднование в 2022— 2023 годах в международном масштабе 1050-летия Абу Райхана Мухаммада ибн Ахмада Беруни. В решении ЮНЕСКО констатируется, что «Абу Райхан Беруни был великим мыслителем и средневековым ученым-энциклопедистом, астрономом, математиком, философом, географом, этнографом, антропологом, геологом, историком, ботаником, фармакологом и гуманистом, внесшим огромный вклад в развитие мировой науки и цивилизации. Он характеризуется также как признанный в мире межкультурный историк, исследовавший различные календарные системы, историю правителей, героев, политических событий, культур, традиций и морали, которые и ныне служат пониманию различных культур и общих интеллектуальных достижений».

Известный ученый-энциклопедист с мировым именем, Абу Рейхан Беруни – уроженец Хорезма. Он сам перечислил названия своих 113 трудов в «Фихристе» (списке работ, 1035—1036). Из них 70 относятся к астрономии, 20 – к математике, 12 – к географии и геодезии, три – к минералогии и четыре – к картографии. После

этого он прожил еще 13 лет и написал более 50 трудов. Всего этих работ – 163. Но, по данным пакистанского ученого Н. Балуча, количество произведений Беруни составляло более 180. «К сожалению, только 33 его работы дошли до нашего времени», – пишет профессор А. Ахмедов. Будучи ученым-энциклопедистом, Беруни одинаково плодотворно работал в области астрономии, географии, минералогии, этнографии, поэзии и т. д. Мировоззрение, историческое мышление и методы исследования Беруни имели содержание, ориентацию и уникальность, которые сильно отличали его труд от сочинений авторов древности и раннего Средневековья.

Абу Рейхан Махаммад Ахмад аль-Беруний (жил в 973-1048 гг.) был великим Хорезмийским ученым. Он был рожден на юге Хорезма, в городе Кьяте, который позже стал частью Хивинского Ханства. Беруни был сиротой. Он был принят и воспитан известным хорезмийским ученым X-XI столетий Абу Насром ибн Ираком. Уже известный как ученый, Аль-Беруний начал свою карьеру служащего при дворе Хорезмского Шаха в Кьяте. Но позже он должен был эмигрировать в приморский город Кабуса в Вашмшире. В 1004 г. Аль-Беруний вернулся в Хорезм и работал при дворе Хорезмского Шаха Мамуна в городе Гургандж до 1017 г.

Хорезм того периода был местом, где наука и искусство процветали. Была организована группа ученых для работы при дворе Хорезмского Шаха. Среди членов группы были ученые Аль-Беруний, Ибн Ирак, Ибн Сино; философы Абу Сал Мазихий и Абул Хайир Хамар; поэт Абу Мансур ас-Салибий, и другие. В 1017 г. Хорезм был занят отрядами Султана Махмуда Газневи, который захватил Аль-Беруни и взял его в свою столицу Газну. Там Аль-Беруний оставался до последних дней своей жизни и смог посетить свой родной город Хорезм только в 1025 г. Аль-Беруний известен под именем Алборона в Западной Европе. Европейские ученые полагали, что он был испанским монахом.

Аль-Беруний – автор более 113 работ. И только 33 из них сохранились до наших дней. Большинство его работ – о математике и астрономии. В самом первом сочинении «Хронология, или памятники минувших поколений» (1000 год) аль-Бируни собрал и описал все известные в его время системы календаря, применявшиеся у различных народов мира, и составил хронологическую таблицу всех эпох, начиная от библейских патриархов

Работа Беруни "Объяснение признанных и непризнанных индийских наук великими интеллектами", которая больше известна как "Индия" – замечательный памятник науке и культуре. Эта работа – настоящая энциклопедия страны. Во время проживания среди индусов Аль-Беруний изучил санскрит и получил много информации относительно этнографии, географии, биологии, филологии, истории и астрономии из индийских научных источников. Он включил всю эту информацию в свою "Индию". "Индия" была переведена на многие языки,

включая узбекский, русский, французский и английский язык. Трактат был переиздан много раз.

Другая большая работа Беруни – "Канон Маасуд" – связанная с астрономией и математикой. Эта работа посвящена Султану Маасуду, сыну Махмуда Газневи, который правил в 1030-1041 гг. Трактат состоит из 11 книг, содержащих историю и традиции различных наций; информация относительно географии, математики, астрономии и астрологии, комментарии средневековых ученых. Некоторые арабские рукописи остались. Книги были изданы на арабском, узбекском и русском языках. В отличие от других работ Беруни его "Основы звездной науки" были написаны на двух языках: арабском и персидском.

Она содержит 530 вопросов и ответов по геометрии, арифметике, астрономии, географии, естественной астрологии и истории. Великий ученый и крупная общественная фигура Аль-Беруний внес значительный вклад в развитие всемирной науки и культуры.

Факты свидетельствуют о том, что наш регион был одним из древнейших очагов цивилизации, а наследие наших великих предков, внесло большой вклад как в нашу национальную культуру, так и в развитие мировой цивилизации. Археологические, исторические, культурологические исследования свидетельствуют о том, что почти каждый регион Узбекистана, каждый населенный пункт является очагом древнейшей цивилизации. Центрально-Азиатский регион, в том числе территория современного Узбекистана, существовал в истории как древняя колыбель науки, культуры и искусства. Информация об этом также имеется в доисламских источниках. В частности, в «Авесте» выдвинуты передовые для того времени идеи о духовной среде, науке, образовании и воспитании[5].

Выступая 29 декабря 2020 года с посланием парламенту, Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев подчеркнул, что для формирования фундамента нового Ренессанса в стране необходимо создать среду и условия для воспитания новых Хорезми, Беруни, Ибн Сино, Улугбеков, Навои и Бабуров. «Нашей самой приоритетной задачей должно быть создание широких возможностей для молодежи, чтобы она ставила перед собой амбициозные цели и достигала их. Только тогда наши дети станут реальной силой, которая сможет осуществить вековые мечты нашего народа», – заявил президент.

Растущий интерес мирового сообщества, исследователей, специалистов, всех слоев многонационального населения нашей страны к культурным ценностям, является стимулирующим фактором глубоких социально-духовных изменений в республике и одновременно следствием, в то время как естественная тенденция направлена к истории, историко-культурным корням народа, а также к его будущему, в связи с чем в настоящее время наблюдается рост интереса к

культуре и культурным ценностям нашей страны. Современные изменения в сфере культуры связаны, прежде всего, с активными процессами демократизации, политической свободой, культурным ростом и продвижением формирования гражданского общества, формирования новой духовно-нравственной среды[5].

Более 30 произведений Беруни было переведено на разные языки, среди которых английский, русский, немецкий и узбекский. Три научных труда были изданы в оригинале. Множество сочинений Абу Райхана Беруни стало предметом глубоких исследований, которые изложены в научных работах европейских и американских ученых.

Труды Абу Райхана Беруни по истории, этнографии, хронологии, топонимии и другим наукам занимают одно из ведущих направлений в исследовательских работах как ученых Центральной Азии, так и всего мира. Труды и рукописи Абу Рейхан Беруни вошли в золотой фонд библиотек многих стран Европы и Азии – Великобритании, Германии, Испании, России, Франции, Египта, Индии, Ирана и других. Однако не все сохранившиеся сочинения Беруни изучены в одинаковой степени: некоторые из них продолжают оставаться еще в виде рукописей. В результате отдельные стороны многогранной научной деятельности ученого-энциклопедиста не нашли еще достаточного освещения и достойной оценки.

Использованная литература:

1. Беруни Абу Райхан. Памятники минувших дней. Избранные труды. I. -Ташкент: Фан, 1968. – С. 237.
2. Беруни А. Индия: пер. с араб. /Репринт с изд. 1963 г. – М.: Ладомир, 1995.
3. Постановлении Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева «О широком праздновании в международном масштабе 1050-летия великого мыслителя и ученого-энциклопедиста Абу Райхона Беруни». г. Ташкент, 25 августа 2022 г., № ПП-361
4. Розенфельд Б.А. Астрономический труд ал-Бируни «Книга вразумления начаткам науки звезд». Историко-астрономические исследования, XII, 1975, с. 205—226.
5. Юлдашева М. Б. Культура – как основа новой эпохи возрождения //Россия – Узбекистан – Таджикистан. Формирование инновационности проектирования социально-культурных процессов: от идеи до реализации: сб. материалов междунар. науч. конф. /,Челябинск-Бухара,2022 – с.152-164

Abdullayeva Xafiza Olimxo‘jayevna,
O‘zDSMI katta o‘qituvchi

“FOZIL ODAMLAR SHAHRI” VA HUDUDLARNI IJTIMOIY-MADANIY RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekistonda hududlarni ijtimoiy-madaniy rivojlantirish nazariyasi va amaliyotga oid konseptual masalalar muhokama qilinadi.*

Annatition. *This article discusses conceptual issues related to the theory and practice of sociocultural development of the regions of Uzbekistan.*

Kalit so‘zlar. *hudud, ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy rivojlanish, milliy model, taraqqiyot, turmush tarzi, madaniyat, hududlar ijtimoiy-madaniy rivojlanishi.*

Key words*. territory, sociocultural, economic development, national model, development, way of life, culture, sociocultural development of regions.*

Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” konsepsiyasini, ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan, Yangi O‘zbekiston yangi hududlarini ijtimoiy-madaniy rivojlantirish va ularni boshqarishga asos qilib olish mumkin. Forobiy asarida o‘rta asrlarga xos gipotetik yondashuv ustuvorlik qilsa-da, alloma taklif etgan "fozil odamlar shahri" modeli, ayniqsa undagi donishmand rahbari, ma’rifatli kishilar, turli kasb-kor egalari hamkorligiga oid fikrlar hanuz o‘zi ahamiyatini yo‘qotmagan. Shuning uchun, bizning fikrimizcha, Forobiyning “Fozil odamlar shahri” modeli yangi massivlar va hududlarni shakllantirish, boshqarish hamda ijtimoiy-madaniy hayotini yo‘lga qo‘yishga nazariy asos qilib olinishi mumkin. Fozillar shahrining birinchi boshlig‘i shu shahar aholisiga imomlik qiluvchi oqil kishi bo‘lib, u tabiatan o‘n ikkita hislat-fazilatni o‘zida birlashtirgan bo‘lishi zarur. Fozillar shahri hokimi avvalo to‘rt muchali sog‘-salom bo‘lib, o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarishida biror a’zosidagi nuqsoni halal bermasligi lozim. Aksincha. u sog‘-salomatligi tufayli bu vazifalarni oson bajarishi lozim.

(Ikkinchidan), bunday shahar hokimi tabiatan nozik farosatli bo‘lib, suhbatdoshing so‘zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg‘ab olishi, shu sohada umumiy ahvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi zarur. (Uchinchidan), u anglagan, ko‘rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarni xotirasida to‘la-to‘kis saqlab qolishi, barcha tafsilotlarni unutmasligi zarur. (To‘rtinchidan), u zehni o‘tkir, zukko bo‘lib, har qanday narsaning bilinar-bilinmas alomatlarini va u alomatlari nimani anglatishini tez bilib, sezib olishi zarur. (Beshinchidan), u fikrini ravshan tushuntira olish maqsadida, chiroyli so‘zlar bilan ifodalay olishi zarur. (Oltinchidan), u (ustozlardan) ta’lim olishga, bilim, ma’rifatga havasli bo‘lishi, o‘qish, o‘rganish jarayonida sira charchamaydigan, buning sira qochmaydigan bo‘lishi zarur. (Yettinchi), taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha, o‘zini tiya oladigan bo‘lishi, (qimor yoki

boshqa) o‘yinlardan zavq huzur olishdan uzoq, bo‘lishi zarur. (Sakkizinchi), u xaq va xaqiqatni, odil va xaqgo‘y odamlarni sevadigan, yolg‘onni va yolg‘onchilarni yomon ko‘radigan bo‘lishi zarur. (To‘qqizinchi), u o‘z qadrini biluvchi va nomus-oriyatli odam bo‘lishi, pastkashliklardan yuqori turuvchi, tug‘ma oliyhimmat bo‘lishi, ulug‘, oliy ishlarga intilishi zarur.

(O‘ninchi), bu dunyo mollariga, dinor va dirxamlarga ko‘z tikmaydigan (mol-dunyo ketidan quvmaydigan) bo‘lishi zarur. (O‘n birinchi) tabiatan adodatparvar bo‘lib, odil odamlarli sevadigan, istibdod va jabr-zulmli, mustabid va zolimlarni yomon ko‘ruvchi, o‘z odamlariga ham, begonlarga ham ziddiyat qiluvchi, barchani adolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va o‘zi suygan go‘zalliklarni ravo ko‘ruvchi bo‘lishi zarur. O‘zi haq ish oldida o‘jarlik qilmay, odil ish tutgani holda har qanday haqsizlik va razolatlarga murosasiz bo‘lishi zarur. (O‘n ikkinchi), o‘zi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat’iyatli, sabotli, jur’atli, jasur bo‘lishi, qo‘rqoqlik va hadiksirashlarga yo‘l qo‘ymasligi zarur.

Mana shu barcha xislatlarning bir odamda jamlanishi amri mahol, zero bunday tug‘ma fazilatlar sohibi bo‘lgan odamlar juda kam uchraydi va ular nodir insonlardir. Mabodo fozillar shahrida shunday barkamol inson topilib qolsa, unda yuqoridagi fazilatlardan oltitasi, yoki beshtasi kamol topganida ham, u odil va zakovatda benazirligi tufayli fozillar shahriga rahbarlik qila oladi. Ba’zi mahallarda fozillar shahrida bunday odam yo‘q bo‘lib qolganida ham (vafot etganida, yoxud boshqa joyga ketgan vaqtida – M.M.) ana shu imom (hokim) yoxud uning izdoshlari (agar mazkur imomdan keyin birin-ketin shaharga boshliq bo‘lsalar) chiqargan qonun va tartiblarga amal qilinadi.

Avvalgi imom o‘rniga kelgan keyingi rahbarda ham yuqorida aytilgan hislatlar – fazilatlar yoshlikdan shakllangan bo‘lishi zarur. Ana shunda bu keyingi imomda yana oltita fazilat hosil qilinishi zarur:

Birinchi – donishmandlik.

Ikkinchi – avvalgi imomlar o‘rnatgan qonunlar va tartiblarni xotirida yaxshi saqlab qolish va ularga amal qilishi uchun quvvai hofizaga ega bo‘lish.

Uchinchi – agar avvalgi imomlar davridan biror (yoki bir qancha) sohaga taalluqli qonun qolmagan bo‘lsa, bun¬day qonunni o‘ylab topish uchun ijod, ixtiro qilish quvvatiga ega bo‘lish.

To‘rtinchi – hozirgi haqiqiy ahvolni tez payqab olish va kelgusida yuz beradigan, avvalgi imomlar ko‘zda tutmagan voqealarni oldindan ko‘ra bilish uchun bashoratgo‘ylik hislatiga ega bo‘lish. Bu hislat unga xalq farovonligini yaxshilash yo‘lida kerak bo‘ladi.

Beshinchi – avvalgi imomlar o‘rnatgan qonunlarga, shuningdek, avvalgilardan ibrat olib, o‘zi tuzib chiqargan qonunlarga xalq amal qilishi uchun qizg‘in so‘zlash – notiqlik xislatiga ega bo‘lishi.

Oltinchi – zarur hollarda harbiy ishlariga mohirona rahbarlik qilish uchun yetarli jismoniy quvvatga ega bo‘lishi ham jang qilishi, ham sarkarda sifatida jangu-jadalga rahbarlik qilish uchun harbiy san’atni yaxshi bilish.

Mabodo shu xislatlarning barchasini o‘zida jamlagan bir odam topilmasa, lekin ikki kishi birgalashib, shu xislatlarga ega bo‘lishsa (ya’ni biri – donishmand, ikkinchisi – qolgan hislatlar sohibi bo‘lsa) shu ikkovini fozillar shahriga rahbarlikka qo‘yish zarur. Mabodo bir guruh odamlar birgalikda ana shu hislatlarga ega bo‘lishsa (ya’ni – birida bu, ikkinchisida u, uchinchisida yana boshqa hislatlar bo‘lsa) ana shu fozillar guruhini yurt rahbarligiga qo‘yish zarur. Shu guruh a’zolari birgalashib, o‘zaro kelishib harakat qilsa har biri fozil hokim bo‘lishi mumkin. Mabodo biror zamonda fozillar shahrida hokimlik qilayotgan bir yoki bir necha kishida boshqa zarur hislatlar bo‘lsayu, ammo, donishmandlik bo‘lmasa, fozillar shahri yaxshi hokimsiz qoladi, bunday shahar halokatga yuz tutadi.

Ba’zi adabiyotlarda ma’naviyatni madaniyatdan alohida voqelik sifatida talqin qilishga intilish uchraydi, ammo ular ham pirovard natijada madaniyatning universal, kompleks voqelik ekaniga iqror bo‘lishadi. Hududlar “jamiyat” deb atalgan murakkab institutning bir qismi, yo‘nalishidir. Unda ikki--umumiylik va xususiylik mujassam. Umumiylik jamiyat, xalq, millat, davlat va insoniyatga xos belgilarni ifoda etsa, xususiylik “umumiydan farqlananuvchi, o‘zining ichki immanent belgilariga ega, nisbatan alohida mavjud” obyekt dir. Nisbatan alohida-lik xususiyning, bizning misolimizda hududning, bosh belgisidir.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonni taraqqiyot strategiyasidagi yetti ustuvor vazifalarga ijtimoiy-madaniy rivojlanish maqsadi singdirilgan. Ustuvor vazifalar inson qadri uchun tamoyiliga, xalqimizning farovonligini yanada oshirish, inson huquq va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash, faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qurilgani ta’kidlanadi. Bular mohiyatan ijtimoiy-madaniy xarakterga ega talablar va vazifalardir. Shu bilan birga, ustuvor yo‘nalishlarning beshinchisi bevosita ijtimoiy-madaniy taraqqiyotga taalluqli.

U "ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish deb belgilangan. Bu o‘rinda ma’naviy taraqqiyotni ba’zi tadqiqotchilar qilganidek, “ilohiy nur” kabi mifoteologik talqin qilmaslik kerak, u moddiy va ma’naviy boyliklar yig‘indisidir. Shunday keng talqin qilinsa, “ma’naviy taraqqiyot” tushunchasi jamiyat hayoti, real ijtimoiy muammolar, inson qadri, faolligi, turmush farovonligi va axloqiy-ma’naviy imperativlar, qadriyatlar, moddiyat bilan bog‘liq, umuman, moddiy va ma’naviy boyliklar yig‘indisi ekanini to‘g‘ri anglaymiz.

Taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan dastlabki tadbirlar sifatida ijtimoiy himoya tilga olinadi. Unda 2026-yilgacha ehtiyojmand aholi ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan to‘liq qamrab olinishi kerakligi yuklatilgan. Ijtimoiy himoya davlatning sotsial funksiyalaridan biri,u davlatning xalqparvarligi ifodasidir.

Ammo ijtimoiy himoya tekintamoq shaxslarni shakllantirish omili emas, balki ularni ijtimoiy-iqtisodiy hayotga qaytarish, tayyorlash usulidir. U palliativ xususiyatga ega chora. Taraqqiyot strategiyasi hududlarni ijtimoiy-madaniy rivojlantirishni mahallalar bilan bog‘laydi. Ularni faollashtirish uchun 8 ta ustuvor yo‘nalishlar belgilangan. 6-yo‘nalishda "mahalla hududlarida davlat-xususiy sheriklik asosida sport va madaniy inshootlar, ijodiy klublar, bandlikka ko‘maklashish va o‘qitish markazlari, tadbirkorlik obyektlari kabi infratuzilmalar yaratish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilsin", deb ko‘rsatilgan. Bu mahalla hududining ijtimoiy-madaniy rivojlanishiga turki beradi. Shu bilan birga, mahalla institutini hudud ijtimoiy-madaniy rivojlantirishning bosh subyektiga aylantirish haqida bosh qotirish kerak. Mahalla institutini joriy etish va rivojlantirish bosqichlarini o‘rganish ko‘rsatadiki, u hali hududiy muammolarni hal etishga qodir institutga aylantirilmadi, unga mahalliy va markaziy idoralar tazyiqi hamon kuchli. Bugun u oilaviy nizolarni yechish, obodonlashtirishda qatnashadi xolos. Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, madaniy xizmatlar infratuzilmasini yaratish, turar joylar kompleksi barpo etish, yo‘llar va obyektlarni ta’mirlashda u deyarli hech qanday ta’sir o‘tkazolmaydi. Mahallaning yuridik statusini qayta ko‘rib chiqish, uni tashqi tazyiqlardan xalos qilib, hududning chinakam egasiga aylantirish zarur.

Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq mahallalarda yangi institut--yoshlar bilan ishlovchi 9 300 dan ziyod yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etildi. U mahallalarni faollashtirishga xizmat qilishga da’vat etilgan. Joylarda ma’lum bir tajribalar ham to‘plangan. Mahalla--tuman--viloyat--respublika vertikali shakllantirilgan. Ming afsuski, bu borada ham hali aniqlik yetishmaydi. Yoshlar yetakchisining yuridik statusi aniq emas, uning hududlarni ijtimoiy-madaniy rivojlantirishdagi o‘rni va vazifalari, fuqarolar yig‘ini, madaniyat markazlari va bo‘limlari, maktablar, o‘quv yurtlari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan funksional aloqalari doirasi belgilab berilmagan. Umuman, hududlarni ijtimoiy-madaniy rivojlantirish kimning vazifasiga kiradi? Bir qarashda bu vazifani Madaniyat boshqarmalari va bo‘limlari bajarishi kerakdek, ammo ularning bu boradagi huquqiy, moliyaviy, arxitektura-qurilish, sanitariya, yo‘l-transport, iqtisodiy zonalar kabi ko‘plab tizimlar bilan aloqalari oydinlik talab etadi. Shunday aniq me’yor va talablarning ishlab chiqilmagani tufayli ba’zi tarixiy-madaniy obyektlarga qarashli yerlar va binolar tadbirkorlarning xususiy mulkiga aylantirilgan. Mening fikrimcha, ushbu ziddiyatlarga to‘la madaniyat sohasidagi munosabatlarni milliy taraqqiyotimizga muvofiq keladigan qonunlar to‘plami -Madaniyat kodeksini qabul qilish orqali hal etish mumkin. Madaniyat kodeksida hududlarning ijtimoiy-madaniy rivojlanishida munitsipial boshqarish va mahallaning ustuvorlik rolini ta’minlovchi maxsus qonun o‘z o‘rnini topishi darkor.

Taraqqiyot strategiyasida ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarni yangi darsliklar bilan ta’minlash, “bir qadam” tamoyili asosida tibbiy xizmatni yo‘lga qo‘yish kabi, pirovard natijada aholining turmush madaniyatiga ijobiy ta’sir etuvchi ustuvor vazifalar

belgilangan. Mazkur vazifalarning qo‘yilishi va ijrosi xaqida turli, ko‘pincha qarama-qarshi fikrlarni aytish mumkin. Masalan, davlatimiz tibbiy xizmatlar sohasidagi ta’magirlik va korrupsiyani bartaraf etishga urinayotgan bo‘lsa-da, ulardan bu yaqin o‘rtada qutulishimiz dargumon. Qarangki, ta’magirlik va korrupsiyani ayrim fuqarolarning o‘zlari (bunga OAV va internetdan istagancha misollar keltirish mumkin, jon shirin ko‘rinsa kerak-da?!) “qo‘llab-quvvatlamoqda”, shu bois ulardan qutulish juda qiyin kechmoqda. Taraqqiyot strategiyasida hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga oid yangi tartiblar o‘rnatilishi ko‘rsatilgan: 1) barcha tuman va shaxsning muammo va imkoniyatlarini chuqur o‘rganish holda hududlarning taraqqiyot dasturlari ishlab chiqiladi; 2) ushbu dasturdagi vazifalarning bajarilishi haqida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining raisi Jo‘qorg‘i Kengashga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlar xalq deputatlari va Oliy Majlisga hisobot beradi; 3)hududlarni rivojlantirishga oid loyixalar mahalliy jamoatchilik muhokamasidan o‘tkaziladi; 4) mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartishga qaratilgan “yo‘l xaritalari” ishlab chiqiladi; 5)barcha bo‘g‘indagi davlat boshqaruvi organlarining hududni rivojlantirish dasturlari jamoatchilik muhokamasiga qo‘yiladi; 6) har bir tarmoq va hudud bo‘yicha qabul qilingan dasturlar ijrosi yuzasidan rahbarlarning hisobot berish tizimi shakllantiriladi.Ko‘rinib turibdiki, hududlarni rivojlantirish mahalliy organlar, rahbarlar zimmasiga yuklatilgan. Bizning fikrimizcha, bu o‘zgarishlarda aholining ishtiroki loyiha va dasturlarni muhokama qilish, hisobotlarni tinglash bilan chegaralanib qolmasligi zarur.

Mahalliy aholining ishtiroki va mas’ulligini oshirish mexanizmlari shakllantirilishi kerak. Masalan, hududlarda barpo etiladigan obyektlarga mahalla kengashi va arxitektor, ekologiya ekspertizasidan o‘tgandan keyin ruxsat berish tartibini joriy etish mumkin. Umuman, yuqoridagi tashkilotlar har bir hududni ijtimoiy-madaniy rivojlantirish bosh rejasiga ega bo‘lishi lozim. Taraqqiyot strategiyasida bu maqsad sari muhim qadamlar tashlangan, ammo ularni har bir hududning differensial xususiyatlaridan kelib chiqib, real hayotga tadbiq etish oson emas. Bosh maqsadimiz, hududlarni, ulardagi aholini ijtimoiy-madaniy rivojlantirishning bosh subyektiga aylantirish, unda hududiy taraqqiyot uchun mas’ullikni oshirish, har bir fuqaroning o‘z uyi atrofi, ko‘chasi, mahallasi ahvoli, hududiy hayoti uchun jon kuydirishiga erishish zarur. Hududlarni ijtimoiy-madaniy rivojlantirish uchun mas’ulligini sezgan aholi mahalliy organlardan faollikni talab etishi mumkin. Prezidentimizning 2022-yil 19-yanvardagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida yoshlar bilan bog‘liq qator hududiy ahamiyatga ega muammolar kun tartibiga qo‘yilgan. Unda yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish zarurligi ko‘rsatilgan.

Mohiyatan bu Qaror yoshlarning hududiy-madaniy hayotini tubdan takomillashtirishga qaratilgan. Yoshlar yetakchilari ustiga: -madaniyat va san’atni

targ‘ib qilish; -sog‘lom turmush tarzi va sportni ommalashtirish; -axborot texnologiyalardan samarali foydalanishni tashkil qilish; -ma’naviyat va kitobxonlikni targ‘ib qilish; -yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularning huquqiy savodxonligini oshirish;-tadbirkorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash kabi vazifalar yuklatilgan. Ularni tashkil etish va g‘oyaviy-tarbiyaviy ahamiyatini oshirishda avvalo madaniyat muassasalari ishtirok etadi. Busiz aslo mumkin emas. Demak, yoshlar yetakchilariga madaniyat va san’atdan xabardor, bu sohalarda maxsus ma’lumotga ega yoshlar saylanishi darkor.

Hududlardagi ijtimoiy-madaniy hayotdan va muammolardan yaxshi xabardor bo‘lgan yoshlarni mahalliy hokimiyat O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutiga yo‘llanma berish yoki malaka oshirish kursiga yuborish tartibini joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Yoshlar yetakchisining funksiyalari, Prezidentimiz Qarorida ko‘rsatilganidek, Madaniyat markazlari bilan aynan. Ular o‘rtasidagi farq kam. Madaniyat markazlarining tadbirlari keng aholiga, yoshlar yetakchilariniki esa yoshlarga yo‘naltirilgan ; birinchisi Madaniyat vazirligiga, ikkinchisi mahalliy hokimiyatga bo‘ysunadi. Ammo ikkala tizim ham hududni ijtimoiy-madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi. Asosiy funksiyalarining yaqinligi ularni hakorlik qilib ishlashga undaydi. Bizda hokimiyatga yaqin har qanday shaxsni, lavozimni mutlaqlashtirishga intilish mavjud. Esda tutish kerakki, tadbirkorlar bilan ishlashga da’vat etilgan hokim yordamchilari ham, mahallalardagi yoshlar yetakchilari ham aholi va yoshlar o‘rtasida madaniy, targ‘ibiy, tarbiyaviy hamda tashkiliy ishlarni olib boruvchilardir. Ular madaniyat xodimlari tajribasiga tayanishga, ular bilan hamkorlik qilishga majbur. Ushbu ijodiy hamkorlik pirovard natijada hududni ijtimoiy-madaniy rivojlantirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Герберт И. Г. Идеи к философии истории человечества.- Москва: Наука, 1977. С.133 -145, 450-451.
2. Ницше Ф. Сочинения в двух томах. Том 1.-Москва: Мысль, 1990. С.159.
3. Бромлей Ю.В., Продольный Р.М. Создано человечеством. -Москва: Политиздат, 1978. С. 14 -23.
4. Мирзиёев Ш.М. Послание Президента Республика Узбекистан Олий Мажлису. 24 января 2020 года.
5.Ўзбекистон Республикаси Президентнинг Фармони. "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистонни тараққиёт стратегияси тўғрисида"// "Янги Ўзбекистон", 2022, 1 февраль.
6.Ўзбекистон Республикаси Президентнинг Қарори. "Ўзбекистонда миллий маданиятни янада ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"// "Халқ сўзи",2018, 29 ноябрь.
7.Ўзбекистон Республикаси Президентнинг Фармони."Маданият ва санъат соҳасининг жамият ҳаётидаги ўрни ва таъсирини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"// "Янги Ўзбекистон", 2020, 27 май.
8.Обидхўжаев У. Янги ташаббуслар, қулайлик ва имтиёзлар // "Янги Ўзбекистон", 2022, 6 сентябрь.
9.Манба: Абу Наср Фаробий “Фозил одамлар шаҳри” асари. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 159-161бетлар.

Abdurazzakova Dilorom Narmuratovna,
Toshkent shahar “Bilim” Axborot Kutubxona
markazi ERF va O‘Z xizmati MM va yoshlar bilan
ishlash sektori AKT bo‘yicha mutaxassis.
O‘zDSMI sirtqi ta’lim talabasi

O‘RTA ASR SHARQ ALLOMALARI VA MUTAFAKKIRLARINING ILMIY TARIXIY MEROSI VA UNING UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sharq alloma va mutafakkirlarining ilmiy-tarixiy merosi ijodiy faoliyatidagi ta’lim-tarbiyaga oid yondashuvlar, g‘oyalar va qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullarini bilish, hayotda ulardan to‘g‘ri foydalanish muhim xususiyatlardan biri ekanligi ochib berilgan. Shu bilan birga limiy-tarixiy merosimizning uchinchi renessans poydevorini yaratishda, yurtimiz ravnaqini yuksaltirishdagi ahamiyatlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim-tarbiya, odob-axloq, alloma, mutafakkirlar, barkamol inson, insonparavarlik, milliy qadriyat, milliy tafakkur.

Abstract. In this article, it is revealed that the knowledge of educational methods and their correct use in life is one of the important features in the creative activity of the scientific-historical heritage of the scholars and thinkers of the East. At the same time, they talked about the significance of our historical heritage in creating the foundation of the third renaissance, in increasing the development of our country.

Key words: education, manners, intellectuals, thinkers, a perfect person, humanitarianism, national value, national thinking.

Sharq-u G‘arbni o‘zaro bog‘lagan buyuk sivilizatsiyalar tutashgan yurtimiz hududida ilm-fan, madaniyat azaldan rivojlangan. Ayniqsa, o‘rta asrlarda ona zaminimizdan minglab olimlar, shoirlar, buyuk mutafakkirlar yetishib chiqgan. Ularning matematika, kimyo, astronomiya, fizika, tibbiyot, etnografiya, tarix, adabiyot, axloq, falsafa kabi ko‘plab sohalarga oid asarlari Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Shahrisabz, Termiz va boshqa shaharlardagi qadimiy obidalar butun bashariyatning mulki hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish ham davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir”

Sharqning ulug‘ allomalari va mutafakkirlarining kashfiyotlari zamonaviy ilm-fan va taraqqiyot poydevori, jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o‘zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o‘z-o‘zidan yuz bermaydi. Buning uchun avvalo asriy an’analar, tegishli shart-sharoitlar, tafakkur maktabi, madaniy-ma’naviy muhit mavjud bo‘lmog‘i kerak.

Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Sharq mutafakkirlarining asarlarini o‘rganish, tahlil qilish, ularning ijodi va ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarini ta’lim nuqtayi nazardan tadqiq etish muhim amaliy ahamiyatga ega. Ular o‘z asarlarida shaxs ma’naviyati, insonda odob-ahloqning yuksak namunalarini tarkib toptirish, oila, farzand tarbiyasi, halol mehnat bilan kun kechirish, atrof-muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo‘lishga oid qarashlarini bayon qilganlar. Shunday qilib inson va uni tarbiyalash masalalari Sharq mutafakkirlari va allomalari o‘z asarlarida insonning bilim olishi, hunar egallashi, undagi yuksak ma’naviy-ahloqiy sifatlarini ulug‘laydilar va shunday fazilatlarga ega bo‘lishga barchani chorlaydilar. Ma’naviy yuksak, zamonaviy ilm-fanni egallagan, ajdodlarimizning boy ma’naviy merosiga sohib chiqgan avlodni hech qanday tashqi kuch, g‘oya va mafkura aslo o‘z ta’siriga tushura olmaydi. Bunday avlodni voyaga yetkazgan xalqning istiqboli porloq kelajagi esa buyuk bo‘ladi.

O‘rta asrlardagi ilm-fanning taraqqiy etishiga o‘sha davr alloma va mutafakkirlarining o‘rni judayam beqiyosdir. O‘rta asrlar Sharq tarixi shundan dalolat beradiki, madaniyat va ta’lim-tarbiya, adabiyot, san’at va arxitektura sohalaridagi beqiyos yuksalish, ilmiy dargohlarning paydo bo‘lishi, yangidan yangi iste’dodli, bilimli avlodlarning vujudga kelishi va ulg‘ayishi – bularning barchasi, eng avvalo, birinchi o‘rinda iqtisodiyot, hunarmandchilik va savdo-sotiqning jadal rivojlanishi, yangi-yangi karvon yo‘llarining ochilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan.

Sharq dunyosida, xususan Markaziy Osiyo xalqlari hayotida rivojlangan madaniyatning mavjud bo‘lgani haqida qadimgi baqtriya, so‘g‘d, o‘rxun, xorazm yozuvlarida bitilgan yodgorliklar, devoriy tasviriy san’at asarlari va haykalchalar, arxitektura namunalari dalolat beradi.

XI-XII asrlarda asos solingan Xorazm davlati Fors ko‘rfazigacha bo‘lgan hududlardagi qo‘shni xalqlar yerlarni birlashtirgan va xalqaro transport vazifasini bajarib kelgan Buyuk ipak yo‘lining ahamiyati beqiyos bo‘lgan. Buyuk ipak yo‘li nafaqat mintaqalar, hududlar o‘rtasida savdo-sotiq ishini balki davlatlar o‘rtasida axborot almashinuvini ta’minlashga ham hizmat qildi. Qog‘oz va kitoblarning savdoda borligi madaniy qadriyatlarining rivojlanishida muhim vosita vazifasini bajardi. Shu tariqa davlatlararo muloqot va ilmiy tarixiy ma’lumotlar almashinuvi yuzaga keldi.

Bu davrlardagi Sharq allomalari va mutafakkirlarining ilmiy bilim izlanishlari, yutuqlari bevosita Buyuk ipak yo‘li bilan bog‘liqdir. Ma’lumki, o‘sha davrning an’analariga ko‘ra, ma’rifatparvar alloma va mutafakkirlar, faylasuflar, olimlar va shoirlar odatda podshohlik saroylarida yashab, ijod qilganlar.

IX-XI asrlarda Xivada tashkil etilgan Ma’mun kademiyasi va “Baytulhikma”, ya’ni, “Donishmandik uyi” degan nom bilan shuhrat qozongan. Bag‘dod akademiyasi va XV-asrda Samarqandda shakllangan Mirzo Ulug‘bekning ilmiy maktabida o‘z

ijodlari bilan samarali izlanishlar yuritgan, mehnat qilgan bir guruh allomalar va mutafakkirlar butun olamga dong taratdilar. O‘rta asrlarda Sharqning ilm-fan borasidagi rivojida Xorazm Ma’mun akademiyasi alohida o‘rin tutgan. O‘ziga yarasha uslubga ega bo‘lgan katta va ko‘rkam kutubxona, madrasa va hattotlar maktabi kabi bo‘limmalarga ega bo‘lgan bu ulug‘ dargohda yuzdan ortiq allomalar, mutafakkirlar va ilm oluvchi talabalar ilmiy izlanishlar olib borgan. Abu Nasr Ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Xo‘jandiy, Ahmad Ibn Muhammad Xorazmiy kabi qomusiy olimlarning umumbashariy tafakkur rivojiga qo‘shgan hissasi beqiyosdir.

O‘sha davrdagi eng buyuk ulug‘ allomalardan biri Muhammad Muso Xorazmiydir. Butun dunyo foydalanadigan matematika amallari, zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi anashu ulug‘ bobokalonimiz yaratgan qonun-qoidalarga asoslanadi.Butun dunyo olimlari Xorazmiyning ilm-fan rivojiga qo‘shgan ulkan hissasini yuksak e’zozlaydi. Al-Xorazmiy algebra faniga asos soldi, ilmiy ma’lumot va qoidalarni ishlab chiqdi. U astronomiya, geografiya va iqlim nazariyasi bo‘yicha ko‘plab ilmiy asarlar yaratdi. Allomaning dunyo ilm-fani rivojidagi xizmatlari umume’tirof etildi. Uning nomi va asarlari “algoritm” va “algebra” kabi zamonaviy ilmiy atamalarda abadiylashtirildi.

Ulug‘ alloma Ahmad Farg‘oniy “Astronomiya asoslari” nomli asarni yaratdi.Bu asar XII-asrda lotin va ivrit tillariga tarjima qilindi, keyinchalik esa Italiya, Germaniya, Fransiya, Gollandiya va AQSH kabi ko‘plab mamlakatlarda takror va takror nashr qilindi. Bu esa asarning ilm-fan taraqqiyotida naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. XVI-asrda oydagi kraterlardan biriga bobokalonimiz nomi berilgan. YUNESKO qaroriga muvofiq 1998-yilda Ahmad Farg‘oniy tavalludining 1200 yilligi xalqaro miqyosda nishonlandi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Quva va Farg‘ona shaharlarida mutafakkir sharafiga haykallari bunyod etildi. Fargo‘na davlat universitetiga Ahmad Farg‘oniy nomi berildi.

Ahmad Farg‘oniyning amaliy yutuqlaridan biri uning o‘rta asrlardagi asosiy astronomik asbob – usturlob nazariyasini ishlab chiqqani va shuningdek, Nil daryosida “Nilometr” degan, ko‘p asrlar davomida suv sathini o‘lchaydigan asosiy vosita sifatida xizmat qilib kelgan mashhur inshoatni yaratgani bo‘ldi.Ahmad Fargoniy IX-asrda yaratilgan “Astronomiya asoslari” asarida olamning tuzilishi, yerning o‘lchovi haqidagi dastlabki ma’lumotlar, sayyoramizning sharsimon ko‘rinishga ega ekani xususidagi dalillar mavjud bo‘lib, maskur asar XVII-asrga qadar Yevropa universitetlarida astronomiya bo‘yicha asosiy darslik sifatida o‘qitib kelingan hamda buyuk kashfiyotchilar Kolumb, Magellan kashfiyotlari uchun ham ilmiy asos bo‘lib hizmat qilgan.

“Islom olamining eng mashxur faylasufi va qomusiy allomasi hamda insoniyatning eng buyuk mutafakkirlaridan biri” degan buyuk unvonga sazovor bo‘lgan Abu Ali Ibn Sinoning hayoti va faoliyati avlodlarda alohida g‘urur va ehtirom tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Abu Ali Ibn Sino nomi dunyo fani va madaniyati tarixida alohida hurmat va etirofga ega. Doimo yashil bo‘lib turuvchi tropik o‘simlik alloma sharafiga “Avisenniya” deb atalgan. Ko‘plab mamlakatlarda ko‘chalar, tibbiyot muassalariga alloma nomi qo‘yilgan va uning sharafiga medal va mukofotlar ta’sis etilgan. Alloma ilmiy tadqiqot ishlarini 16 yoshida boshlagan va o‘z umri davomida 450 dan ortiq asar yaratdi. Ularning aksariyati avvalo, tibbiyot va falsafa, shuningdek, mantiq, kimyo, fizika, astronomiya, matematika, musiqa, adabiyot va tilshunoslik sohalariga bag‘ishlangan. Biz doim va g‘urur va iftixor bilan e’tirof etamizki, tibbiyot tarixida eng mashhur bo‘lgan “Tib qonunlari” deb atalgan o‘zining bebaho fundamental asari bilan Ibn Sino keyingi bir necha yuz yillar uchun tibbiyot fanlari taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini oldindan belgilab berdi. Hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan amaliy tibbiyot va farmakologiya sohalarining eng muhim usullariga asos soldi.

Abu Rayhon Beruniy insoniyat tarixini birinchilardan bo‘lib bolalarni kichik yoshdan mehnat qilishga o‘rgatib borish, kattalar mehnatini ezozlaydigan qilib tarbiyalash, bolani ilm va kasbga o‘rgatish oilaning diqqat markazida bo‘lish kerakligi haqida fikr bildirgan. Alloma oilada boshlangan mehnat tarbiyasini maktabda ta’lim bilan birga hunar o‘rgatishga bog‘lab davom ettirish lozimligini alohida ta’kidlagan. Ulug‘ mutafakkir mehnat va kasb-hunar vorislik asosida avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tishini sinchkovlik bilan o‘rgangan va insonlarning hunarmandchilik faoliyatini yuqori baholagan.

O‘rta asr sharqning buyuk allomasi Abu Nasr Farobiy o‘zining qator asarlarida ilm va ta’limning muqaddasligi, hushaxloqlik, sadoqat, insoniylik, tarbiya, mehnat va kasb-hunar o‘rganish to‘g‘risidagi falsafiy ilmiy g‘oyalarni ilgari surdi. Masalan: uning “Risola fit tanbih asbob as-saodat” (Baxt-saodatga erishuv yo‘llari haqida risola), “Fozil odamning shahri” va boshqa asarlarida o‘zining yaxshi, mukammal, baxtli jamiyat haqidagi orzularini batafsil bayon qiladi.

O‘rta asrlar sharq alloma va mutafakkirlarining butun bir avlodi haqida so‘z yuritar ekanmiz, Amir Temur va Temuriylar davri deb nom olgan davr haqida, ilm-ma’rifat osmonida bamisoli yorqin yulduz bo‘lib porlab kelayotgan Mirzo Ulug‘bek xususida eslamasdan o‘tolmaymiz. Mirzo Ulug‘bek yurtimizning bir qator shaharlarida madrasalar qurdirgan, Samarqandda o‘ziga xos ilmiy muhit, ya’ni, ilmiy akademiya tashkil etgan. Falakiyot ilmining nazariy va amaliy masalalari to‘liq qamrab olingan Ulug‘bekning “Ziji Ulug‘bek” “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” nomlari bilan shuhrat qozongan bu asarlari 1018 yulduz o‘rni va holati haqida aniq ma’lumotlar berilgan. Uning asarlari lotin, fransuz, ingliz tillariga tarjima qilinib nashr etilgan.

Istiqlol yillarida Mirzo Ulug‘bekning hayoti va faoliyatini o‘rganish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 1994-yil mamlakatimizda “Ulug‘bek yili” deb e’lon qilindi. O‘sha yili Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Parij shahridagi YUNESKO qarorgohida buyuk

allomaning ilmiy-tarixiy merosi va uning ahamiyatiga bag‘ishlangan xalqaro anjuman o‘tkazildi. Yurtimizda Ulug‘bek nomi berilgan tuman, ma’naviyat va o‘quv maskanlari, mahallalar va ko‘chalar ko‘p. Bularning barchasi xalqimizning buyuk allomaga cheksiz hurmatidan darak beradi.

Buyuk ajdodlarimiz yutuqlari – ma’naviy jasorat namunalari. Bu boy merosdan butun bashariyat ravnaqi yo‘lida oqilona va samarali foydalanish – bu siz bilan bizning vazifamiz shuningdek, burchimizdir. Bu borada fidoyi olimlarimizning roli alohida e’tiborga munosib bo‘lib, aynan ularning mehnati va izlanishlari tufayli biz o‘tmishning ilmiy-tarixiy merosini qaytadan o‘rganmoqdamiz. Tarixiy va madaniy merosni asrab avaylash, intelektual salohiyatni rivojlantirish, Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlash, boyitish va ko‘paytirish, uni o‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash – moddiy va taraqqiyot asosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirligi kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi // Xalq so‘zi, 2016, 19-oktabr.
2. Abu Rayhon al-Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. – T. I. / Arabchadan A.Rasulov tarjimasi. Mas’ul muharrir L.Abdullayev. – T.: “Fan”, 1968. – 488-b.
3. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. T.: “O‘qituvchi”, 1994.430 b.
4. Samarqandlik allomalar / Sh.Ziyodov, Q.Mahmudov. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, 2019.

IV SHU’BA
ALLOMA VA MUTAFAKKIRLAR MEROSIDA TARJIMA VA NASHR ISHLARI

Sarvinoz Qodirova,
O‘zDSMI professor

MA’RIFATCHILIK DAVRI KOMEDIYA SAN’ATI

Annotatsiya. Maqolada o‘lkamizda ilk yozma dramaturgiya namunalarining yuzaga kelishi va yevropa rusumida teatr san’ati shakllanishida jadid ma’rifatparvarlarining o‘rni xususida so‘z boradi.
Kalit so‘zlar: teatr, tomosha, og‘zaki dramaturgiya, sahna, pardoz, adabiyot.
Annotation: The article talks about the emergence of the first examples of written drama and the role of Jadid educators in the development of European-style theatrical art in our country.
Keywords: theater, performance, oral drama, stage, makeup, literature.

Rossiya mustamlakasi bo‘lmish Turkiston o‘lkasida 1910-yillardan e’tiboran asta-sekin yozma dramaturgiya namunalari yuzaga kela boshladi. Yozma dramaturgiya, ya’ni jadidlar dramaturgiyasi shakllangunga qadar aynan masxaraboz, qiziqchi va qo‘g‘irchoqbozlarning og‘izdan-og‘izga o‘tib kelgan komediyalari milliy dramaturgiya namunalari hisoblangan. Xalq aktyorlari improvizatsiya, shartlilik, bo‘rttirmaga tayangan holda ma’lum bir syujet asosida qahramonlarning kulgili qiyofalarini gavdalantirganlar. Tomoshalarda nafaqat kulgili holatlar, qiyofalar ustidan kulingan, balki illatlar ham fosh etilgan. Yana bir muhim jihat shuki, mazkur teatr “xalqning marosimlari, urf-odatlari bilan tutashib ketgan ibtidoiy shakldagi teatr emas, balki og‘zaki an’anadagi professional teatrdir” [1. B. 36-37.].

Jadidchilik XX asr jamiyatining ma’naviy yuksalish davri bo‘lgan. Jadidlar madaniyat, adabiyot, san’at, qo‘yingchi, barcha ma’naviy yo‘nalishlarda izchil izlandilar. Ular matbuot, maorif bilan bir qatorda dramaturgiya va teatr san’ati rivojiga jiddiy e’tibor berdilar. Ya’ni jamiyatni, kishilarni ilm-ma’rifatga yetaklovchi jadid dramaturgiyasi jadid teatrini yuzaga keltirdi. Qisqa bir davrda mana shunday katta bir faoliyat doirasini qamrab olish oson bo‘lmagan.

Tarixda jadid adabiyoti, jadidlarning teatrchilik harakati uncha katta bo‘lmagan davrni o‘z ichiga oladi. Zero, jadidchilik harakati davr taqozosi bilan yuzaga keldi va ijtimoiy ziddiyatlar, ma’naviy dunyoqarashlarning inqirozi tufayli juda qisqa umr ko‘rdi. Biroq mana shu qisqa muddatda savodsizlikni tugatish, ma’rifat, ilmu urfon orqali yorug‘likka intilgan, milliy mustaqillik, ozodlik uchun kurashgan ma’rifatparvarlar katta yutuqlarga erishdilar. Teatr sohasida ham shunday bo‘ldi.

Jadidlar teatrni ko‘ngilxushlik qiluvchi maskan deb emas, balki hurmat qilishga arziydigan ma’rifat, ibrat o‘chog‘i deb bildilar. Xalqni tomosha orqali ma’rifatli qilish osonroq kechishini ular yaxshi bilishgan.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, jadidlar dramaturgiyaning turli janrlarida ijod qilganlar. Shu jumladan, komediya janrida ham ilk tajriba jadidlarga tegishlidir. Bizni qiziqtirgan jabha kulgi san’atida ham yigirma yilga yaqin davr ichida jadidlar e’tiborga sazovor qator komediyalar yaratdilar va sahnalashtirdilar. A.Avloniyning “Advokatlik osonmi?”, “Pinak**”**, Hoji Mu’in Shukrullaning **“**Ko‘knori”, Abdulla Badriyning “Ahmoq”, Abdulhamid Majidiyning **“**Boylarning hasrati”, “Istar ko‘ngil”, “Ilondir bu, chayondir bu”, H.H.Niyoziyning “Tuhmatchilar jazosi”, “Kim to‘g‘ri?”, “Qarmoq”, M.Uyg‘urning “Turkiston tabibi”, “O‘n ikki soatlik hokimiyat”, “Fanniy uy” kabi komediyalar shular jumlasidandir. Aksari bir ko‘rinishli bo‘lgan ushbu asarlarda kishilarning kamchiliklari va nuqsonlari ustidan do‘stona kulishdan tortib, ijtimoiy nohaqliklar, zo‘ravonlik va adolatsizliklar ishoralar, kinoyalar, shuningdek, satira tili bilan fosh etildi.

XX asr boshlaridan yaratilgan sahna asarlari, ayniqsa, komediyalarning sahnaviy talqinlari xususida o‘ylar ekanmiz, xalq maydon tomoshalarining qahramonlari ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Ilk dramaturgik asarlar mazmunan sodda, biroq shakli jihatidan tomoshabop bo‘lgan. Albatta, soddalik, jo‘nlik bu komedik va teatrlashgan tomoshalar qahramonlarining ichki dunyosini ko‘rsatishga imkon bermagan. Bu vazifani ijodkorlar o‘z oldilariga maqsad ham qilib qo‘ymaganlar. Bularning hammasini jonlantirish, real qilish xalq aktyorlari – masxara va qiziqlarning mahorati va improvizatsiyasiga bog‘liq edi. Qolaversa, ilk sahna asarlarini yozuvchi muharrirlar dramaturgiyaning qonun-qoidalarini puxta bilmaganlari sababli pyesalar uzundan uzoq monologlar va dialoglar bilan to‘lib ketgan. Natijada sahnalarda xatti-harakat o‘rnida gap ko‘p bo‘lardi. Bu o‘z navbatida tomoshabinni charchatardi. Bunday paytlarda ijrochilar so‘z va harakat to‘qish (improvizatsiya)ga zo‘r berishgan. Aktyor Rahmatxon Ahmedov o‘sha davrni shunday eslaydi: “U paytlar biz, aktyorlar ijro paytida pyesa matnida bo‘lmagan ko‘p narsalarni o‘zimizdan to‘qib aytardik, bu ayb sanalmasdi” [2.]. Bunda yangi o‘zbek teatri aktyorlarining aynan xalq an’anaviy teatri uslublari va vositalaridan foydalanganlari yaqqol ko‘rinadi. Komediyalar ijrosidagina emas, hatto drama va tragediya ijrolarida ham ko‘pincha tashqi vositalar ishga solingan.

Shuni e’tirof etish kerakki, ilk komediyalarda xalq og‘zaki dramasi an’analaridan keng foydalanilgan, xalq masxarabozlari va qiziqchilari repertuarida bo‘lgan mavzular, sajiyalar, qiyofalar, uslublar qo‘llanilgan. Shu sababdan bo‘lsa kerak, dastlabki komediyalar “kulgu” (“kulki”), “muzahhika” deb atalgan. Aynan mana shu “kulgu” asarlar endilikda tomoshabindan ajratilgan sahnada, maxsus qurilgan dekoratsiyalar, umuman teatr muhitida ko‘rsatila boshlandi. Sahnalardagi dastlabki komediyalar

tomoshabinlarda jadidlar orzu qilgan yuksak san’at, ya’ni professional teatrga ko‘nikmalarini hosil qilishi lozim edi.

XX asr 10-20-yillar matbuotini ko‘zdan kechirar ekanmiz, bir narsa e’tiborimizni jalb etadi. U ham bo‘lsa, umuman teatr san’atining ahamiyati, drama va musiqali sahna asarlari, ularning sahnaviy talqinlari xususida oddiy e’lon va xabardan tortib nazariy maqolagacha turli-tuman materiallar uchragani holda komedik spektakllar haqida falon joyda yoki falon teatrda sahnalashtirildi, degan oddiy ma’lumotdan boshqa narsani ko‘rmaymiz. Nima sababdan bunday, degan savol o‘z-o‘zidan tug‘iladi. Nazarimizda, asr boshlarida komediyaga jiddiy munosabatda bo‘linmagan. Komediya spektakllari asosan drama va tragediya oralig‘ida yohud jiddiy asar oldidan ko‘rsatilgan. Buning boisi, bir joyda, sahnaga tikilgan holda, o‘z maishatidan yoki boshqa xalqlar hayotidan olingan jiddiy asarni ko‘rgan tomoshabin zerikib qolmasligi uchun “yengil” hisoblangan komediyalar ko‘rsatilgan. Tomoshabinni tarbiyalash maqsadida, ularni yangi tipdagi teatrga o‘rgatish uchun kulgili asarlarga murojaat etilgan. “O‘zbek tomoshabini, – deb yozadi M.Rahmonov, – asrlar bo‘yi qadimgi qiziqchilik teatri repertuari asosida tarbiya topganidan ular kulgiga juda o‘ch bo‘lardi. Yangi teatr tashkilotchilari shuni hisobga olib, o‘zbek teatrchiligining dastlabki davrida tomoshabinni teatrga qiziqtirish, biron drama yoki tragediya qo‘yilganda kechada bir komediya qo‘yishni ham odatga kirgizgan edilar” [3. B. 317.] .

Jadidlar xalqni ilm-ma’rifatli qilish, mustabid tuzum iskanjasidan qutilishga ko‘maklashish yo‘llaridan biri sahna asarlari yozish va sahnalashtirishda deb bildilar. Natijada yozma dramaturgiyaning ilk namunalari, yevropa shaklidagi yangi teatr yuzaga keldi. An’anaviy teatrda taqlid va hajviya yo‘nalishi yetakchilik qilgan bo‘lsa, yangi teatr repertuaridan milliy dramaturgiyaning drama, fojia, komediya kabi janrlari o‘rin egalladi. Ayni choqda yangi o‘zbek teatri milliy mahdudlikka berilmay, boshqa xalqlarning dramaturgiyasi namunalarini tarjima qilib, o‘z repertuarini boyitdi.

Komediya san’atining birinchi bosqichida milliy dramaturgiya va teatr muayyan tajriba orttirdi, hayotdan olingan mavzular va timsollarni teatr sahnasida aks ettirish, gavdalantirishni o‘rgandi, teatr zallarida kursilarda odob saqlab o‘tirgan tomoshabinlar bilan muloqotga kirishish usullari va amallarini ishlab chiqdi. Bu jarayonda milliy komediya san’ati bir tomondan, an’anaviy kulgi san’ati, masxaraboz va qiziqchilar teatri tajribasiga tayandi, ikkinchidan, yevropa teatri va uning komediya sohasidagi tajribasi va izlanishlaridan ilhomlandi, oziqlandi.

Adabiyotlar:

1. Qodirov M. O‘zbek xalq tomosha san’ati. – Toshkent: O‘qituvchi. – 1981.- B.36-37-bb.

2. Materialы po istorii uzbekskogo teatra. T.6. Zapis besedы s R.Axmedovым. 3-beseda. 19 marta 1957 g. Zapisala A.E.Sandel.

3. Rahmonov M. O‘zbek teatri tarixi (XVIII asrdan XX asr avvaligacha o‘zbek teatr madaniyatining taraqqiyot yo‘llari). – Toshkent: Fan. – 1968. – B. 317.

Xalikulova Go‘zal Erkinovna,
O‘zDSMI professori

YUSUF XOS HOJIB VA MAVLONO JALOLIDDIN RUMIY MASNAVIYLARIDA UMUMINSONIY G‘OYALAR VA ULARNI SAHNA IJODKORLARIDA BADIIY O‘QISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Yusuf Xos Hojib hamda Mavlono Jaloliddin Rumiy masnaviylarini o‘qish, anglash va uni tomoshabinllar e’tiboriga havola etish masalalari ilgari surilgan. Sahna ijodkorlari sanalmiy aktyorlar va rejissyorlarni sahnaviy nutqi ustida ishlashda sahna pedagogi nimalarga ahamiyat qaratishi kerakligi metodika orqali tushuntirilgan. Aktyor va rejissyorlar masnaviylarni badiiy o‘qiy olishi kerakligiga ahamiyat qaratilgan.*

Kalit so‘zlar. *Yusuf Xos Hojib, Jaloliddin Rumiy, masnaviy, badiiy o‘qish, sahna ijodkori, sahna nutqi, sahna pedagogi, umuminsoniy g‘oyalar, badiiy o‘qish, aktyor, rejissyor.*

Annotation. *In this article, questions of reading, understanding and bringing to the attention of the viewer masnavi Yusuf Khoshaji and Mawlan Jalaliddin Rumi were put forward. The method explains to stage art critics what a teacher should focus on on stage when working on the stage speech of actors and directors. The emphasis is on the fact that actors and directors should be able to read masnavi.*

Keywords. *Yusuf Has-Hajib, Jalaliddin Rumi, masnavi, artistic reading, set designer, stage speech, stage teacher, universal ideas, artistic reading, actor, director.*

Kirish. Rejissyor bilan aktyor... Ikki xil tushuncha, biri sahnalashtiradi, biri rol ijro qiladi. Sahna pedagogi ulardagi nutqiy kamchiliklarni bartaraf qilish, sahnaviy nutqini shakllantirishda bir xil pozisiyadan turib mehnat qiladi. Chunki ular kelajakda yaratadigan obrazining nutqiy xarakterini yaratishda, qahramonining chuqur, tizimli fikrlashida va bunga bog‘liq bo‘lgan ko‘plab boshqa muhim jihatlarni o‘zlashtirishda badiiy matn asosiy ahamiyat kasb etadi. Demak, ularning sahnaviy nutqini rivojlantirishda, ayniqsa, badiiy so‘z ustida ishlaganda matnni to‘g‘ri tanlash muhim masalaligi oydinlashadi. O‘rta asr Sharq allomalarining qoldirgan buyuk asarlarini badiiy o‘qish borasida rejissyor hamda aktyorning sahnaviy nutqini tarbiyalashda qanchadan-qancha ijodiy ishlarni amalga oshirish mumkin. Bir umrga nafs tuyg‘usidan, turli kayfu safolardan o‘zini asrab, asrlarga tatiydigan ma’naviy, ma’rifiy, tarbiyaviy kechinmalarini qog‘ozlarga tushirgan buyuk allomalarning she’riy asarlari avloddan avlodga buyuk meros bo‘lib kelayotganining asl sabablarini izlagan har qaysi sahna ijodkori bilimlarini oshirish bilan birga ijro mahorati sirlarini ham chuqur o‘rganib boraveradi.

So‘nggi yillarda ommaviy bayramlarda O‘rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlarining she’riy baytlaridan o‘qishga keng ahamiyat qaratilmoqda. Kamina ishchi guruhda aktyorlarning, boshlovchilarning sahnaviy nutqiga bevosita javobgar shaxs sifatida qatnashib kelaman. Ishlash jarayonida teatr sahnalarida ijod qilib kelayotgan professional aktyorlar bilan qator muammolarga duch kelinadi. Birinchidan,

aktyorlarda tafakkur qilish va xotiraning susayganligi, allomalarning o‘ziga xos nutqini topishda quruq deklomatsiyaga berilib ketishlari, mantiqiy va so‘z urg‘ularni to‘g‘ri qo‘ya olmasligi, ovozdagi mayinlik o‘rniga xirillagan, xastalangan ovozlarning ko‘pligi kishi ko‘nglini ranjitadi. Bu kamchiliklarni bartaraf qilish uchun albatta nutq ustida takror-takror ishlanadi, so‘zlarni mye’yoriga yetkazishda turli usullardan foydalaniladi. Mikrafon bilan ishlash, jestologiya, osanka, yurish-turish barcha-barchasi qayta ko‘rib chiqiladi. Bu jarayonda ishga metodik yondashilmasa natijaga erishish ancha mukul.

Asoyiy qism. Biz buyuk bobokalon shoirimiz Yusuf Xos Hojib hamda shoir va mutafakkir, tasavvuf tariqatining asoschisi Mavlono Jaloliddin Rumiy ijodini hamda ilmiy merosini o‘rganish va bugungi kun sahna ijodkorlariga yetkazish, sahnaviy nutq mahoratini muttassil oshirib haqida so‘z yuritmoqchimiz. So‘nggi yillarda sahna ijodkorlarini tarbiyalashda, ularning tafakkurini kengaytirish, ravon nutqini ta’minlash, arxaik so‘zlarning tub ma’nosini anglash va uni tomoshabinga yetkazishda ancha muammolar mavjud. Filologiya fanlari doktori Ibrohim Haqqul aytganidek, “Insonning axloqiy poklanishi, tafakkur balog‘ati, bir so‘z bilan aytganda, komilligi borasida qadimda ilgari surilgan va asrlar mobaynida o‘zlashtirilib, amal etilib kelingan g‘oya va tushunchalardan yiroqlashish, uzilish holati u yoxud bu tarzda butun bashariyat turmushida ko‘zga tashlanib turibdi. Buning bosh sababi Abu Muin Nasafiy bobomiz ko‘rsatgan nuqson – odamiylik ma’nosidan mahrumiyatning keng quloch yozishi erur. Darhaqiqat, o‘z ilohiy mohiyatini tushunish va mushohada qilishda insoniyat oldinga emas, ortga odimlagani inkor aylash mushkul bir haqiqat. Moddiy va texnikaviy taraqqiyot bashar nafsida yangi-yangi “o‘zan”lar ochdi...” [1. B.5.] Haqiqatdan ham san’atkor degan ulug‘ nomga ega insonlar orasida bo‘layotgan bugungi yaramas holatlar bunga yorqin misol bo‘la oladi. 2016 yildan an’anaga aylanib borayotgan “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy merosida san’at va madaniyat masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyasining o‘tkazilishidan maqsad ham ana shunda.

1016-1018 yillar orasida Sharqiy Turkiston, Yettisuv o‘lkasida dunyoga kelgan Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” “Qudga, ya’ni baxt-saodatga erishtiruvchi bilim” asarini 1069 yilda yozgan. Shoirning yozishicha, ushbu kitob Koshg‘arda tugal qilinib, Mashriq maligi Tavg‘achxon dargohiga keltiriladi. Malik uni yorlaqab, ulug‘lab o‘z (saroyida) Xos Hojiblik (lavozimini) beradi. [2. B.118-119.] Asarning mazmuni, tili va uslubidan kelib chiqib aytish mumkinki, shoir arab va fors tillarini mukammal bilgan, bu tillardagi diniy, ilmiy, badiy adabiyot bilan chuqur tanish bo‘lgan. Bizgacha yetib kelgan bu yozma yodgorlik jahon adabiyotida ham nodir sanaladi. Asarda eng yaxshi insoniy fazilatlar, xususiyatlar asar qahramonlari sifatida ramziylashtiriladi. Shuning uchun juda katta tajribalarga ega shoir Sa’dulla Ahmadning tarjimalaridan doimiy ravishda sahna ijodkorlarining sahnaviy nutqini takomillashtirishda foydalanib kelinadi.

Jaloliddin Rumiy 1207-1273 yillarda yashab ijod etgan dunyoning ulug‘ donishmandlaridan biri sanaladi. Benazir shoir asosan fors-tojik tillarida ijod qilgan bo‘lib, ko‘plab sharq she’riyati asarlarini yaratgan. Uning ruboiy, g‘azal va masnaviylari sharq she’riyatining gultojiga aylangan. Jaloliddin rumiy nafaqat diniy-huquqiy, balki

aniq fanlar sohasida ham yaxshi tahsil olgan, arab, yunon tillarini va “Qur’on”ni, uning tavsirini yaxshi bilgan. Jaloliddin Rumiyning yaratgan asarlari orasida “Masnavii masnaviy” asari inson kamoloti yo‘lidagi islomiy ma’naviyat durdonalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda sahna pedagoglari sahna ijodkorlarini tarbiyalashda ancha mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tishga to‘g‘ri kelmoqda. Chunki ijodkor bo‘laman degan yoshlarning aksariyati kitobdan yiroqligi tufayli tafakkuri sayoz, nutqida ham uchraydigan kamchiliklar talaygina. Audiroriya soatlari kamaygan, mustaqil ishlash uchun soatlar ko‘paygan bir paytda talabalarni mumtoz adabiyotdan bahramand qilish ularning tafakkurini, quvvai hofizasini mustahkamlashga yordam berishini tajribadan o‘tkazmoqda. Ayniqsa, milliy madaniyatimiz, ma’naviy merosimiz bilan yaqinlashgan sahna ijodkori milliy xarakter yaratishida muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy xarakterni anglashda milliy hulq, odob-axloqni yosh aktyorga o‘rgatish o‘ta muhim masala. Chunki tarixiy shaxs obrazlarini yaratish bo‘yicha ko‘nikmalar institutda shakllanadi. Bunda sahna pedagogining o‘zi ham ana shu noyob xislatlarga va chuqur bilimga ega bo‘lishi kerak bo‘ladi.

Dramatik teatr va kino aktyorligi, estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi ta’lim yo‘nalishlarida avvalo kursdagi talabalrni birlashtirish, bir-birini eshitishga o‘rgatish, diqqatni bir joyga to‘plash, fikrlash, so‘zning tub ma’nosini birgalikda topish, unli va undosh tovushlar talaffuzini mukammal o‘rganish, so‘z va mantiqiy urg‘ularni to‘g‘ri qo‘ya olish, ohangdorlikni oshirish, dinamik, musiqiy urg‘ularning farqiga borish kabi qator masalalarda aynan O‘rta asr Sharq allomalar yaratgan asarlardagi masnaviylar, baytlarni badiiy o‘qish orqali tomoshabinga yetkazish maqsadida imtihon dasturlariga kiritish yaxshi natijalarni bermoqda. Xususan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” she’riy asaridagi kompozision yaxlitlik talabani to‘la tasavvurini ishga solishga ko‘mak beradi. So‘z qudratini, ona tilining ichki imkoniyatlarini nozik his qilishga o‘rgatadi.

“Bahor ta’rifi hamda muhtaram, muzaffar, madadkor, haqiqat tayanchi tavg‘och, ulug‘ Bug‘ro Qoraxon Abo Ali Hasan binni Arslonxon sha’nida”, “Bashar qadrini bilim bildirgani”, “Til fazilati, foyda-zararin so‘zlar”, “So‘z egasining o‘zidan uzri”, “Yaxshilar suhbatin yaxshiliklari”, “Bilim, uquv-idrok farqi, nafi bu turur” kabi boblari o‘zbek tilida sof so‘zlash, ravon nutq, keng diapazonga ega bo‘lishga ega bo‘lish bilan birga yoshlarimizni ma’naviy kamolotiga salmoqli hissa qo‘shadi. Filologiya fanlari doktori, professor Boqijon To‘xliyev ta’kidlaganidek, “Yusuf Xos Hojib ijodining g‘oyaviy-badiiy ildizlari hayotbaxsh shashma – xalq dahosining so‘nmas ijodi bilan nihoyatda zich aloqador <...> “Qutadg‘u bilig” hozir jahonning ko‘plab xalqlari tillarida jaranglamoqda. Bu asar o‘zbek, uyg‘ur, qozoq, qirg‘iz va boshqa turkiy xalqlar tillariga ham tadbil qilingan (moslashtirilgan).

Asar rus tiliga, Yevropaning bir qancha tillariga tarjima qilingan <...> Asarning nemis, ingliz tillariga to‘liq tarjimasi bor. Shuningdek, ayrim yevropa tillariga qisman parchalar tarzidagi tarjimalari ham mavjud”. [3.B. 7.]

Matnlar ustida ishlash myetodikasi. Aktyorlarda sahna nutqini o‘qitishda sahna nutqi texnikasi ustida muttassil ishlab boriladi va o‘zlashtirish natijasi albatta she’riyatda tekshiriladi. Bunda albatta masnaviylar, poemalar ustida ishlash yordam beradi. Ovozi ham ishlash jarayonida o‘z-o‘zidan ochiladi. Tafakkur kengayadi. Talabalar lug‘at bilan ishlashga ham o‘rganadi. So‘zlarning go‘zalligi, ishonchliligi, hayotiyligi va yengilligi, ohanglar jilosi uyg‘unlashadi. Masalan, “Qudabg‘u bilig”dan go‘zal baytlarni misol qilib keltiramiz:

Til arslon misoli yotar qafasda,
Bexabar boshini u yer qafasda.
Tilidan tutilgan ne deyar eshit.
Amal qil bu so‘zga, o‘zingga esh et.
Balo keltiradi boshga bu tilim.
Boshimni u kesmay, qilayin tilim.
So‘zingni tiyib yur, boshing yormasin.
Tilingni tiyib tur, tishing sinmasin.

Uquv va bilimning tilmochi, tarjimoni tildir. Kishiga ro‘shnolik, yaxshilik va ezguliklar til tufayli keladi, buni yaxshi bilib olish kerak. Qut-izzatni ham, obro‘-e’tiborni ham kishi til orqali topadi. Agar tilga e’tibor bermasa, uni noo‘rin qo‘llasa, odam boshining yorilishi hech gap emas. O‘ziga esonlik tilagan har bir odam tilidan yaroqsiz so‘zini chiqarmasin. Bilib so‘zlagan so‘z donolik sanaladi. Bilimsizning so‘zi esa o‘z boshiga yetishi mumkin. [4. B.12, 13.]

Aruz vaznining mutaqorib bahrida yozilgan ushbu baytlarni avvalo ifodali o‘qish texnikasiga rioya qilib, ushbu ko‘rinishda o‘qish ham tavsiya qilinadi:Uquv va bilimning tilm**O**chi bu – til
Ochunda ro‘shn**O**lik riv**O**ji bu – til.
Kishilik t**O**l**Y**eyi e’z**O**zi tildan,
Ey kim, ha**Y**o**o**tingga tar**O**zi tildan.
Og‘zing qafasida til – bu n**A**rra sher
Hazir bo‘l bu v**A**hshiy bir kun b**O**shing yer.
Tilidan t**U**tilgan nima deyar Eshit
So‘zimga amal qil, o‘zingga esh et.
B**O**shga balo kelsa tilim b**O**sh unga
Tilimni til avval t**E**gma b**O**shimga
Taning tinim bilmas tiling tinmasi,
Tilingni tiyib yur tishing tinmasi.

So‘z haqidagi baytlar ham bir-biridan go‘zal ifodalangan. Har bir baytda so‘zlash madaniyati, odobi batafsil tushuntiriladi va inson bunga amal qilish kerakligiga chaqiradi:

Ey, xakim, dun**Y**oda bir tilgim s**O‘**z,
O‘zdan s**O‘**ng kelgang**A** / bildirmagum so‘z.
Zak**O**vat der bu nav, S**O‘**zdir ibtid**O**,

Zararga yetmas n**A**f / s**O‘**z ketsa xat**O**.//
O‘likdin tirikka mer**O**sdir bu s**O‘**z
Meros s**O‘**z ustiga ikov yuzma-yuz.
Zak**O**vat ko‘rki – s**O‘**z, til k**O‘**rki s**O‘**zdir.
Odamz**O**d ko‘rki – Yuz, yuz ko‘rki k**O‘**zdir.
Ins**O**nkim, s**O‘**z aytdi – lis**O**n tufayl**I**,
Yaxshi s**O‘**z tufayl**I** // yuzi chiroyl**I**.

Bu usulda ishlash talabani o‘ylashga majbur qiladi. So‘zlardagi qaysi unliga urg‘u tushirib ifodalash kerakligiga ahamiyat qaratadi. So‘z urg‘usida so‘zdagi unli katta harflar bilan belgilanadi, mantiqiy urg‘uda so‘z va jumlalarga bir chiziq tortib belgilanadi. Shunda talabaning ko‘z o‘nggida gavdalangan asosiy so‘z va jumlalar fikrga qarab yo‘naltiriladi. Qayta-qayta ishlash davomida so‘zlar o‘zlashib o‘ziniki qilib olingach, ijroga o‘tiladi.

Mavlono Jaloliddin Rumiyning olti jiltli “Masnavii masnaviy” nomli kitobiga butun dunyo jamoasi qiziqib kelishi, bu kitob bashariyatning najot, umid kitobiga aylanganligi, so‘nggi vaqtlarda Amerika Qo‘shma Shtatlarida tez-tez nashr etilib, eng ko‘p xarid qilinayotgan kitob “Masnaviy” ekanligini ta’kidlagan edi Ibrohim Haqqul. [5. B.5.] So‘nggi yillarda sahna ijodkorlari tarbiyasida Jaloddin Rumiyning baytlaridan foydalanish juda qo‘l kelmoqda. Ayniqsa, til haqida, san’at, ilm ahli haqidagi baytlari insonni hayratga soladi. Ayni bugungi kunga ushbu baytlar juda zarur ekanli bilinadi:

Til temirga, toshga ham o‘xshash erur,
Tildan uchgan so‘z gahi otash erur.
Urma sen toshni temirga bemahal,
Goh maqol aytib, gahi so‘ylab matal.
Ulki zolim qavmlar, ko‘z yumdilar,
So‘z ila olamni ham yondirdilar.
Bir suxan olamni vayron aylagay,
Tulkini o‘rmonda sulton aylagay.

Yoki, nafsni omad sanab o‘qishni, bilim olishni ham chetga surib qo‘ygan kimsalarning holi nima bo‘lishini shunday ifodalaydi.

Yurma nafs xohishiga, nafs kuyiga,
Bur yuzingni do‘sti sodiq so‘yiga.
Chun aqllardin aql quvvat olar,
Nayshakar yonida o‘sgay nayshakar.
Menga nafs makr etdi, nelar ko‘rmadim,
Necha bir toshlarga boshni urmadim.
Vadalar bergay senga ul basma-bas,
Va’dalarga so‘ng o‘zi bergay shikast.
Ul sovuqmas, va’dani issiq qilur,
Qo‘llaringni jodu birla bog‘lar ul.
Boshda qurt erdi, ilon erdi, qaro,

Yo‘lga tushgach, bo‘ldi devu ajdaho...

Jaloliddin Rumiy ilm ahli haqida ham ko‘p ajoyib baytlarni yozgan, uning har bir hikmati bugungi kunda ham o‘z kuchini yo‘qotmagan:

Ilm agar ko‘ngilga singsa, yor erur,
Gar badanga singsa ul, bekor erur.
Ilm Hudan kelmasa bevosita,
Bir bo‘yoqdirkim, ketar bilvosita.
Sen bu yukni yaxshilik birlan tashi,
Yukdan ajralganda shod bo‘lgay kishi.
Ilm yukin eltma havoyi nafs uchun,
Ilm tulporiga migaysen u kun.
Ilm tulporiga sen bo‘lgach suvor,
Qolmagay yelkangda ul yukdin g‘ubor.

Badiiy so‘z ijrochiligida barcha g‘oyalarni yetkazish birgina ijrochi-aktyorning zimmasiga tushadi. Muallifning aytmoqchi bo‘lgan fikrni, asarda ilgari surilgan g‘oyani, asosiy maqsadini tomoshabinga yetkazishda ham uning o‘zi amalga oshiradi. Bu kelajakda spektakl o‘ynash jarayonida rejissyor bilan hamfikr bo‘lib asosiy vazifani bajaradi. Badiiy so‘zda aktyor faqat va faqat so‘zning tub ma’nosi topib gapirish, to‘g‘ri fikrlash ko‘nikmalarini egallaydi. Ilgari surilgan g‘oyani his qilishga o‘rganadi.

Xulosa. “Asar tili aktyorlar nutqi bilan chambarchas bog‘liqdir. Har qanday sermazmun va go‘zal til ham aktyorlarning ijrochilik mahorati tufayligina ta’sirchanlik qudrat kasb etadi. Ijrochi so‘zga ijodiy mehnat jarayoni tarzida yondashib, she’riy matn mazmunini to‘la-to‘kis ochib berishda shakl va mazmun masalasini spesifmk nuqtayi nazardan tahlil qilib, shunga yarasha nutq vositalari izlab topishi va ishga solishi lozim”. [6. B.146] Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarining badiiyligi juda yuqori. Undagi har bir qirra, voqealardagi hayotiylik va shoir xayoli o‘zaro nihoyatda uyg‘un. Jaloliddin Rumiy “Masnavii masnaviy” kitobida tasavvufiy, ilohiy,asotiriy, so‘z, ibora, birikma, atamalarni qo‘llagan. Asarning o‘zbek tiliga Jamol Kamol tomonidan qilingan tarjimasi badiiy ifoda vositalariga to‘la, tushunarli. Asarda ilm, odamiylik to‘g‘risida juda ko‘p fikr bildirgan. Bunday g‘oyalarni targ‘ibotchilari albatta madaniyat va san’at ahli bo‘ladi. Chunki madaniyat san’at ahli odamiy bo‘lsa, u o‘zgani odamiylikka chaqira oladi. Yuqorida tilga olgan Yusuf Xos Hojib hamda Jaloliddin Rumiy masnaviylarini nafaqat mutaxassislar, balki har bir shaxs sevib o‘qishi kerak. Shuningdek, “...ona tili imkoniyatlaridan samarali foydalanish, nutqni til qoidalariga binoan to‘g‘ri tuzish, talaffuzning tiniqligida e’tibor berish, ifodali so‘z tanlash, jumlalarning sodda va qisqaligiga e’tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi”. [7.B.54]

Bugungi kunda ko‘plab tarixiy asarlar sahna yuzini ko‘rmoqda. Tarixiy shaxs obrazlarini yaratish, ular tilidan ibratli masnaviylarni o‘qishga ommaviy tadbirlarda juda katta e’tibor berilmoqda. Bu ishlarni amalga oshirishda rejissyor albatta aktyorlarni teatrdan qidiradi. Teatr aktyori esa ta’lim olish davridayoq allomalarimiz va

mutafakkirlarimiz masnaviylari bilan tanish bo‘lsa ish yengil bo‘ladi, aks holda rejissyor va uning yordamchilariga azob bo‘ladi.

Institutdagi sahna va ekran dramaturgiyasi ta’lim yo‘nalishi talabalari bilan Yozuvchilar uyushmasiga a’zo bo‘lgan yosh shoirlar o‘rtasida integratsiyani kuchaytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ibrohim Haqqul. Hikmat – ko‘ngil chirog‘i// Hikmatlar. Mavlono Jaloliddin Rumiy. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.
2. Bu haqda qarang. Imomnazarov M. Yusuf Xos Hojib (XI asr)// Ma’naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). To‘ldirilgan qayta nashr. –Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.
3. To‘xliyev B. “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga boshlovchi bilim”) asariga yozilgan so‘zboshi. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. –Toshkent: Yulduzcha. 1990.
4. O‘sha manbaga qarang.
5. Mavlono Jaloliddin Rumiy. Masnavii masnaviy. –Toshkent: 2001.
6. Xoliqulova G. Sahna nutqi fanini o‘qitish metodikasi. –Toshkent: Donishman ziyosi, 2023.
7. Xoliqulova G. Oliy ta’lim muassasasi pedagog-rahbarlari kompetenligini takomillashtirishning metodologik asoslari. –Toshkent: Donishman ziyosi, 2023.

Sh.T. Yusupov,
O‘zDSMI dotsenti

JALOLIDDIN RUMIY “MASNAVIY” ASARINING YOSHLAR MA’NAVIYATIDAGI O‘RNI

Annotatsiya. Bugungi kunda shaxsni yuksak ma’naviyat sohibi etib tarbiyalashda Jaloliddin Rumiyning ma’naviy tarbiyaga oid qarashlari muhim vosita rolini o‘tay oladi. Ayniqsa, Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” badiiy-ma’rifiy, axloqiy-ta’limiy qimmatga ega bo‘lgan asarlari umuminsoniy g‘oyalarni qamrab olganligi bilan e’tiborni tortadi. Ushbu maqola orqali buyuk shaxsni asari bugungi kun yoshlarining manaviyatida tutgan o‘rni xaqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ma’naviy-masnaviy, strategik vazifa, globallashuv jarayoni, milliy model, axloqiy-ta’limiy qimmat, so‘fiylik ta’limoti, manaviy taraqiyot, Rumiy g‘oyasi, ulamolar sultoni.

Abstract. Today, Jalaladdin Rumi's views on spiritual education can play an important role in educating a person as a person of high spirituality. Particularly attracting attention are the work of Jalaladdin Rumi “Masnavi Manavi”, which has artistic, educational, moral and educational significance, since it embraces universal ideas. This article will discuss the role of the great person’s creativity in the spirituality of modern youth.

Keywords: Spirituality, strategic task, globalization process, national model, moral and educational value, Sufi ideas, spiritual development, the idea of Rumi, Sultan of Scientists.

Yangi O‘zbekiston – bu ibora Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ilgari surgan va bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga

aylanib borayotgan ezgu g‘oyadir. Bu g‘oya zamirida: bir tomondan, bugungi va ertangi avlodlarimizning “Uchinchi Renessans” poydevorini qo‘yishdek ezgu maqsad-muddaolari; ikkinchi tomondan, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi Uyg‘onish davrlariga asos solgan ulug‘ ajdodlarimiz, alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari; uchinchi tomondan, bunyodkorlik, yaratuvchanlik, har doim o‘qish va izlanishga da’vat o‘z mujassamini topgan. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo‘yib, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqdamiz”.[1]

Aytish joizki, inson ma’naviyatining poydevori uning avlodlari tomonidan yaratilgan asarlarida xam mujassamdir. Bugungi kunda, Jalolliddin Rumiy yaratgan va kelgusi avlodlarga meros sifatida qoldirgan asarlari yosh avlod ma’naviyatining asosiy poydevori qilib belgilansa foydadan xoli bo‘lmaydi.

Dastlab, Rumiy xayoti va ijodi xaqida fikr yuritar ekanmiz, uning ijodi chuqur insonparvarlik, tolerantlik g‘oyasi, millat va xalqlar do‘stligi va yagona diniy etiqod bilan yo‘g‘irilgan bo‘lib, uni o‘rganishda sharq va g‘arb olimlari o‘zlarining salmoqli xissalarini qo‘shdilar. Rumiy xayotiga nazar tashlar ekanmiz, asli o‘rta osiyolik bo‘lgan shayx mavlono Jalolliddin Rumiy Balx shaxrida Muxammad Baxouddin Valad xonadonida tug‘ilgan. Jalolliddin yoshlik chog‘idayoq otasi bilan mog‘ul istelosi tufayli Ko‘niyoga ketishga majbur bo‘lgan. Umrining oxiriga qadar shu shaxarda mudarrislik qilgan, Kichik Osiyoni vatan tutgani uchun Rumiy taxallusini olgan. Rumiyning ilmiy-adabiy merosi fors tilida yozilgan bo‘lib, uning she’riy asarlari, asosan, “Devoni kabir” (“Ulug‘ devon”)ga jamlangan. Devonda g‘azal, ruboiy va masnaviy shakllarida yozilgan uch mingdan ortiq she’rlar bor.

Ilmiy-falsafiy merosi esa olti daftardan iborat "Masnaviyi ma’naviy" asaridan o‘rin olgan, ushbu islomiy-tasavvufiy majmuani "Forsiy Qur’on" deb ham atashgan. Bu asar qariyb 10 yil davomida yozilgan bo‘lib, Mavlono vafotidan to‘rt yil avval 1269 yilda yozib tamomlangan. 27 ming baytdan iborat masnaviy shaklida yozilgan bu asarni olimlar didaktik doston (Ye.E. Bertels), hamosiy (epik) she’rlar majmuasi (T.Purnomdoriyon), irfoniy kitob (R.Nikolson), tasavvuf qomusi (A.Shimmel) kabi sifatlar bilan atashgan. “Masnaviyi sharif”ning qator sharhlari mavjud. Asar musharrihlaridan Obiddin Posho sharhlari mashhur.[2]

Rumiy masnaviysining yoshlar ma’naviyatidagi o‘rnida so‘z yuritar ekanmiz, uni yoshlar qalbiga singdirishda turli yo‘nalishlarda ish olib borilayotganligini kuzatishimiz mumkin. O‘zbekiston tele-radio kompaniyasining “Maxalla” radio-kanali ijodiy xodimlari olti jiltdan iborat Jalolliddin Rumiy “Masnaviy-ma’naviy” asarini sharx va nasriy bayoni bilan salakam to‘rt yil mobaynida efirga uzatdi. Tarjimon,yozuvchi Jamol Kamol tarjimasi bilan berilgan ushbu ma’naviy xikoyatlarning nasriy bayonini jurnalist Umida G‘afforova tayyorladi. Jurnalist bilan suhbatlashar ekanmiz, Masnaviy-ma’naviy

xaqidagi o‘y-fikrlar qanchalik chuqur ekanligini, xar bir xikoya katta bir ma’noga ega bo‘lganini to‘lqinlanib gapirdi.

U. G‘afforova: Dunyo adabiyoti xazinasida shunday muhtasham asarlar borki, ular qachon va qanday siyesiy- ijtimoiy tuzum davrida yaratilganidan qat’iy nazar barcha davrlar, zamonlar uchun o‘z ahamiyatini zarra qadar yo‘qotmaydi. Balki davrlar sisilasida bunday asarlar o‘zining yangidan yangi ma’no mohiyatini ochib boraveradi. Xossatan, buyuk alloma J.Rumiy xazratlarining 6 jilddan iborat “Masnaviyi Ma’naviy” asari bunday e’tirofga eng loyiq ma’naviy xazinadir. “Mahalla” radiokanali tinglovchilariga ushbu asar to‘liq holda nasriy bayoni va imkon darajasidagi ilmiy sharhlari bilan taqdim etildi.

Ushbu jarayon ijodiy jamoa, xususan nasriy bayon va sharhlar muallifi sifatida menda ham juda katta taassurot qoldirdi. Rumiy talqinidagi Masnaviy olamiga mo‘jizali sayohatni baxsh etdi. Forsiy Qur’on deya e’tirof etilgan ushbu asarning bosh maqsadi Insonni sof insoniy obrazda kashf qilishdir. Odamning nima uchun xalq etilgani, uning hayoti va o‘limidagi hikmat nimadan iborat ekani, bu foniy olamga qisqa vaqtga tashrif buyurgan har bir odam nimaga ulgurib qolishi shartligi Masnaviy hikoyatlarida juda ravon va aniq tiniq misollar bilan bayon qilinadi. Hayot to qiyomatga qadar Haq va botil o‘rtasidagi jang ekanini, o‘zini qutqarishni istagan inson Xaqni tanishi, U Zot buyurgan amallarda qoim turishi, shaytonning makrlari va nafsining xiylalariga aldanmasligi bosh g‘oya sifatida taqdim qilinadi.

Sof axloqiy sifatlar tarannum etiladi. Tarbiya masalasiga juda jiddiy qaraladi va bu yo‘lda xar bir odamga bir rahnamo, ustoz kerakligi uqtiriladi. Insonning qadru qiymati Xaqni tanishi, o‘zining kim ekanini anglashi va natijada axloqiy komillikka intilishi, yetishi bilan o‘lchanishini hikoyatlar bilan isbot qiladi. Inson hayotining barcha davrlari mukammal qamrab olingani va bu davrlarda nimalarga e’tibor qaratish, qanday vazifa va burchlarni bajarish shartligi va inson mana shu belgilangan yo‘ldan sadoqat bilan o‘tsagina chin insoniylik nomiga munosib bo‘lishi, xaqiqiy baxtga yetishishi bayon qilib beriladi.

Shunday ekan, ushbu asar va undvgi xikoyatlarni o‘qib o‘rganish, tinglash va xayot tarziga singdirish barcha insonlarga, xossatan yosh avlod vakillariga nihoyatda zarur ilm va zakovat bagishlashiga shubha yo‘q.[3]

Alisher Navoi nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti matnshunoslik va adabiy manbaashunoslik kafedrasi tayanch doktoranti Malikov Akrom Abdusamad o‘g‘li Rumiyning qoldirgan boy asari xaqida quyidagi fikrlarni bildirdi. Jaloliddin Rumiy ijodi yuksak badiiyati bilangina emas, balki mantiq kuchi, falsafiy fikrlarga boyligi bilan ham katta ta’sir quvvatiga ega. Taniqli olim va adib Radiy Fish so‘zlari bilan aytganda, shoirning «mavhum mantiqiy kategoriyalarda emas, balki otashin shoirona timsollar vositasida» talqin etilgan tabiat va jamiyat hodisalarining doimiy o‘sish, o‘zgarishda ekani, eskining yo‘qolib, yangining paydo bo‘lishi –

“dunyoning ziddiyatlar birligidagi ziddiyatlar jangi”dan iboratligi to‘g‘risidagi qarashlari buyuk nemis faylasufi Gegelyushg e’tiroficha, unta dialektik metod yaratishga yordam bergan. Yoki ulug‘ mutafakkir Husn va Ishq tortilishi misolida birinchi bo‘lib olamning asosida o‘zaro tortishish kuchlari yotishi haqidagi fikrni o‘rtaga tashlaydiki, mazkur qonunning chindan-da amal qilishini bir necha asrdan keyin ingliz olimi Nyuton kashf etdi.[4]

San’at va madaniyat soxa xodimlari xam Rumiy ijodiga tez-tez murojat qilishlarining boisi bordir, ayniqsa UzDSMI San’at fakultetining bo‘lg‘usi aktyorlariga Rumiyning ijodiy merosi juda katta ma’naviy ozuqa bo‘lib xizmat qilyapdi. “Saxna nutqi” fani pedagoglari talabalarning nutqiy va fikriy saloxiyatini oshirish uchun xam Rumiy ruboiylaridan foydalanayotganini ta’kidlash o‘rinlidir. Masalan, uchinchi bosqich Qug‘irchoq teatr aktyorlik guruxi talabalarining “Saxna nutqi” fanidan navbatdagi reyting nazoratida Rumiy ruboiylaridan foydalanildi.Bo‘lg‘usi aktyorlarning falsafiy mushoxadasini boyitish, nutqini ravon o‘stirish uchun ushbu ruboiylarni axamiyati nechog‘lik katta axamiyatga ega ekanligini guvoxi bo‘ldik.

Bundan tashqari “Estrada va ommaviy tomoshalar san’ati” kafedrasining uchinchi kurs talabalari Jalolliddin Rumiy xikmatlari asosida “Allegoriya” deb nomlangan spektaklni namoyish etishdi. Prolog saxnasida Rumiy yashab o‘tgan davr shiddatli zamon talabalarning xatti xarakatlari orqali namoyish etilib xarakat va musiqali yechim orqali Rumiy xikmatlari birma bir tomoshabin ko‘z o‘ngida jonlana boshladi. 16 saxnadan iborat bo‘lgan, ya’ni 16ta xikmatlarning xarakatli yechimi talaba yoshlarning ma’naviy olamini boyitishga yordam berdi deb o‘ylaymiz. Masalan, Otabek Ne’matov ijrosidagi beshinchi saxnada “Yaproqsiz qoldim deb, butun shoxlaringni sindirib tashlama, xali bu kunlarning xam o‘z baxori bor...” ko‘rinishi, Ayana Axmedova ijrosidagi yettinchi saxnadagi “Zaxar nima? Zaxar sizning extiyojlaringizdan oshib ketadigan xar qanday narsadir...”, 13chi saxnani o‘ziga xos xarakatli yechim bilan ijro etgan Xusniddin Islomov “Kecha men aqilli edim, shu sabab dunyoni o‘zgartirmoqchi edim, bugun esa donishmandman, endi o‘zimni o‘zgartirish bilan shug‘ulanayapman...” xikmatli so‘zi orqali bugungi kun yoshlari ma’naviy olamiga Rumiy xikmatlari qanchalik mos kelishini ko‘rsatib berdi.

Metodika.

Biz yuqorida aytib o‘tgan Jalolliddin Rumiy asarlari bugungi kunda xam dolzarb ekanligini guvoxi bo‘lmoqdamiz. Ayniqsa can’at va madaniyat soxa xodimlari yosh avlodni tarbiyalashda Rumiy xikoyatlari, ruboilaridan foydalansalar foydadan xoli bulmasligini natijasini ko‘rib turibmiz. Chunki saxna asari yaratilayotgan vaqtda xar bir pedagog talabaning ma’naviy olamini ochib, uni to‘ldirib borishi kerak, ana shu ma’naviy olamni to‘ldirishda Jalolliddin Rumiyning “Ma’naviy-masnaviy”si muxim axamiyatga egadir. Usul va metoddan foydalanishda qo‘l keluvchi amaliy yordam xisoblanadi.

Xulosa.

Rumiy ilmiy merosining pedagogik jihatlarini ma’naviy tarbiya, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, aqliy tarbiya, huquqiy tarbiya, fuqarolik tarbiyasi, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya metodlari bo‘yicha yoritish pedagogik muammo sanaladi. Pedagogik nuqtayi nazardan qaraganda Rumiy asarlari ma’naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida o‘z xususiyatlariga va o‘ziga xos vazifalarga ulardan foydalanishni tashkil etishning shakl va usullariga ega bo‘lib, maxsus tarzda o‘rganishni taqozo etadi.[5]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans: ma’no-mohiyati, zarurati va mushtarakligi” Akmal Saidov, Inson xuquqlari bo‘yicha O‘zbekiston respublikasi Milliy markazi, 2021
2. “Mavlono Jaloliddin Rumiy "Masnaviyi Ma’naviy" asari” ParsToday, 2018
3. Umida G‘afforova bilan suhbat, 2024
4. Akmal Saidov bilan suhbat, 2024
5. “Jaloliddin Rumiy asarlarida yuksak ma’naviyatli shaxs tarbiyasi” Izbullayeva Gulchexra, Toshkent 2016

Isoqtoy Djumanov,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan
yoshlar murabbiysi, O‘zDSMI dotsenti,

O‘RTA ASR SHARQ MUTAFAKKIRLARI TA’LIMOTIDA KOMIL INSON TARBIYASI

Annotatsiya. Mazkur mqolada O‘rta asr Sharq mutafakkirlari ta’limotida komil inson tarbiyasi, uning muhim jixatlaridan biri bo‘lgan umumbashariy g‘oyalar hamda uning nutqiy ifoda tizimlari haqida fikr yuritadi.

Kalit so‘zlar: insoniyat, hayot, ilm, tafakkur, komil, kurash, zamon, dard, dunyo, muammo, fikr, e’tiqod, jamiyat, qadriyat, jarayon, e’tirof, ilmiy, amaliy.

Annotation. In this article, he reflects on the teaching of medieval Eastern thinkers about the perfect human upbringing, universal ideas that are one of his important features, as well as his systems of speech expression.

Keywords: humanity, life, science, thinking, perfect, struggle, Time, Pain, world, problem, thought, belief, society, value, jaraen, confession, scientific, practical.

Insoniyat o‘zining ko‘p asrlik hayot manzilida ulkan sinovlar, sonsiz sanoqsis jangu jadallar, taloto‘plar, bo‘xronlar barobarida ilm va tafakkurning najotkor parvozlari silsilasi bilan yukingan tarzda bosib o‘tdi. Goh yuksaldi, goh tanazzulga yuz tutdi.

Jahonda har soniyada insoniyatni jumboqlarga duchor qilayotgan voqealar, tobora kuchayib borayotgan tizginsiz ziddiyatlar, kulfatlar, mislisiz vayronagarchiliklar olib

kelayotgan urushlar borliqni kunfayakun qilguvchi o‘chirib bo‘lmas urush olovlari oldida ojiz jarohatli sayyoramiz taqdiri, hanuz mavhumligicha qolmoqda.

Jaholat botqog‘iga botgan, vayronagarchilik kabi tuban maqsadlarini o‘ziga aqida qilib olgan, inson hayoti, uning tinch osuda yashash huquqini toptab kelayotgan johil urush olovini yoquvchilar tobora qutirayotganday tashvishga soladi. Ularga qarshi tinchlik yaratuvchilik tamoyillari bilan nafas olayotgan insoniyat umidlari chilparchin bo‘layotganday. Ona zamin, insoniyat taqdiriga yovuz va yot qarashlari bilan hammamizni bezovta qilayotgan notinch voqealar terrorizm, korrupisiya, mafiya, narkotik moddalarning tinimsiz kulfatlari ahloqiy tubanlik, yoshlarning yot ta’sirlarga chalg‘ib qolishi va boshqa ko‘plab g‘ayrinsoniy, g‘ayrioddiy vaziyatlar o‘z kelajagini, tinch osuda hayotini ko‘zlagan har bir inson, har bir millatni chuqur bezovta qiladi.Bu shak shubxasi zamon nafasi va muammolarini teran anglashni, ogohlikni hamda bor vujudi, aqli, tafakkuri, qalbi bilan munosabatda bo‘lishni taqozo etadi.

Insoniyat uchun hayot mamot darajasida muhim bo‘lgan yaratuvchilik va uni madh etuvchi mafkura, milliy g‘oyalar bilan yukungan dunyoqarash, hayot tarzimizni, umrimizning mazmuni, e’tiqodimiz, sadoqatimiz timsoliga aylanish kerak deb bilamiz. Har bir davrning ilg‘or fikrli, umumbashariy g‘oyalar bilan yukingan mutaffakirlari borki ular yaratgan ta’limot o‘z zamonasi, muhiti osha bugungi kunda ham nechog‘li muhim beqiyos qimmatga ega.

O‘rta asr Sharq mutafakkirlari ta’limotida komil inson tarbiyasi g‘oyalari bugungi kunimizning eng dolzarb va e’tiborli aqidalaridan biri ekanligi anglanmoqda. Ular ta’limotidagi komil inson tarbiyasi haqidagi o‘lmas g‘oyalari, bugungi kunimizning yaralariga malham bo‘luchi ta’limot sifatida o‘rganish, umumbashariy ma’naviy taraqqiyot g‘oyalari qudratli kuchini his qilish, falsafiy mag‘zini chaqish va uni yoshlar ongiga singdirishning nechog‘lik hayotiy zarurat sifatida anglash va anglatish lozim bo‘lgan ehtiyoj sifatida ko‘ramiz.

Bu o‘rinda o‘rta asr Sharq mutfakkirlarining dunyo tamaddunida tutgan o‘rinlari, inson ma’naviyatining cho‘qqisi bo‘lgan komil inson tarbiyasi yo‘ldagi zahmatlari, o‘z davrining dardu-dunyosi, muammolari aks etgan hayotbaxsh ma’vo mazmunida hanuz e’tibor va e’tiroflarimizning sarchashmasi sifatida ong va shu’rimizdan o‘rin olgan.

Yetuk mutafakkir olim Abu Nasr Forobiy bugungi kungacha o‘zining asl mohiyati bilan hayotimizning ustivor falsafasi bo‘lib kelayotgan “ Fozil odamlar shahri” asarida shunday deydi: “Til va tushuncha sohibi bo‘lgan tirik zotdan ortiqroq mukammal bo‘lgan biror zot yo‘q”,-(1)

So‘z tilsimlarining teran ma’nolik hususiyati hayotimizning qanchalik ko‘p vazifalarning ijodiy yechimini topishiga daxldordir. Bu esa insondagi botiniy ezgu g‘oyalar so‘z tilsimlari orqali ifodalanib, unda ijtimoiy tafakkur, zamon falsafasi, insonnning komilligin ifoda etuvchi g‘oyalar, ona yurt taraqqiyoti ilmiy nazariy, amaliy asoslarda chuqur yoritilishiga ehtiyoj katta ekanligini anglaymiz. Shu ham ta’kidga

daxldorki, oyoqqa turayotgan bugungi kunida qo‘yilishi va e’tirof etilishiga, nechog‘lik harakat qilmaylik uning ochilmagan jihatlarini yana ko‘proq anglanish lozimligini his etaveramiz.

Navoiyni anglash va undan bahramand bo‘lishdek hayotiy ehtiyoj bilan yukinish anglash va anglatish bugungi kunda ham qanchalar hayotiy ehtiyoj ekanligini his etamiz. “Alisher Navoiy dahosi bilan yaratilgan“Lisonut tayr” dostonida O‘rta asr Sharq mutaffakkirlariini asrlar davomida o‘ylantirib kelgan inson va tabiat mohiyatiga doir murakkab falsafiy masalalar mushohada etilgan. Shoir dostonda insonning ma’naviy kamolotga erishish yo‘lini qushlar boshidan kechgan ramziy sarguzashtlar misolida mohirona tasvirlab bergan.” (2)

Hazrati alloma buyuk mutaffakkir Mir Alisher Navoiy umuminsoniy mezonlarda ham jahonning buyuk siymolari oldidan joy olgan daho. Uni besh asrdan osharoq shoiri zamonlar, shohlar, olimlar, donishmandlar uning beqiyos durlar hazinasidan baxramand bo‘lib kelmoqdalar.

“Butun olamn yaratishdan maqsad inson bo‘lib, u hamma mavjudotlar ichida tengi yo‘qdir. Inson ko‘nglini turli bilimlar hazinasi qildi, va bu tilsim ichida tangri o‘zini yashirdi. Insonning ajoyib jismi bir maxfiy sir hazinasi o‘laroq o‘zida ana shu ganj tilsimini saqlaydi”-deydi Alisher Navoiiy. (3)

“Madaniyat gullab yashnagan Xirotda 20 yil davomida 400 dan ortiq shoir yetishib chiqqan shaharda havaskor shoir ustozidan izn olishi uchun 25 ming baytni yod olishi lozim edi” deyiladi (4.8)

Alisher Navoiiy inson tabiatidagi eng noyob fazilatlardan birini insof deb baholaydi. “ Haqiqiy insonlarda ko‘p fazilatlar bo‘ladi : lekin bular orasida eng sharaflisi insofdir. Insofsiz kishi- inson emasdir. Uning atvorida xatodan boshqa narsa yo‘qdir”,- deydi Alisher Navoiy (12)

“Barcha ko‘ngul durji aro javhar ul,
Barcha og‘iz huqqasida gavhar ul
Garchi xud erur xanjari po‘lod til
Suftidag‘i injulari so‘zni bil.
Til bu chamanning varaqi lolasi,
So‘z duraridin bo‘libon jolasi
So‘zdan o‘lukning tanida rug‘i pok,
Ruh dohi tan aro so‘zdan so‘zdan halok.
Donai dur so‘zni afsona bil,
So‘zni jahon bahrida durdona bil”, deydi Navoiy bobomiz.

Odamni bir og‘iz yaxshi so‘z bilan xursand qilish kerak bo‘lgan vaqtda unga hazina bersang ham , u qaramaydi. So‘z bilan el o‘limdan najot topadi;so‘z bilan o‘lik tan qayta tiriladi. So‘z bilan dinsizlar musulmon bo‘ladi; so‘z bilan hayvon degani insonga aylanishi mumkin.Bir so‘z bilan qancha balolar daf bo‘ladi; qancha boyliku sochsang

ham bunday naf’ga yetishmaydi. Insonga xos konning gavxari , bu-so‘zdir; odamzot gulshanining mevasi ham shu so‘zdir. Kishilarga so‘z bilan naf’ yetkazish qo‘lidan kelmasa , loaqal ko‘nglidagi andeshasi chxshi bo‘lishi kerak.Ko‘ngi odamlarning xursandligidan xursan bo‘lishi krak; ularning ko‘ngli noxush bo‘lsa , tashvishiga sherik bo‘lishi kerak. Kimning xalq g‘amidin g‘ami bo‘lmasa , haqiqiy odam bo‘lsang,uni odam dema

Insoniy hislat va buyuklik aql quvvat va so‘zday uchta hayotiy tayanch ustida tursa so‘z aql va quvvatning takomillashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Barot Boyqobilovday hassos shoir ijodining yetuklik manzillaridan Navoiyning so‘z qudrati, so‘z sehri, so‘zdagi buyukligini katta hayrat va mehr bilan yoritmoqqa intilar ekan o‘zi, o‘qituvchilari va ijrochilar uchun Navoiydagi noyob va bebaho qirralarni kashf etishga intilganday bo‘ladi. Jahondagi hamma millatlar ham tenglar ichra teng, ular bebaho, beqiyos, mo‘jizaviy oliy shon qimmatidagi hazrati insonlar toifasiga dahldordirlar, har bir millat umumbashariy o‘lchamlarda daho darajasiga ko‘tarilgan mutaffakkir olimlari shoiri zamonlarini ulug‘laydilar. Har bir millat o‘zining buyuk insonlarini qanchalar munosib ardoqlasa, ulug‘lasa, uning ilmiy-nazariy, ijodiy mehnatlarini yoki qahramonliklarini hizmatlarini yodida tutsa bu millatning barkamolligi rivojlanishi hamda umuminsoniy taraqqiyot uchun ham ta’sir qilishida ahamiyati katta. Yosh ijodkor ijrochilar buni bor vujudi, borliq olamga bo‘lgan nigohi va munosabati bilan chuqur his qilishi ibrat olishga intilishi hamda buni targ‘ib qila olish burchi va mas’uliyati bilan yondosha olishi uchun ham tanlangan matn qimmati ma’nba bo‘ladi. Millatning donoligi, oliyjanobligi, zakovati, salohiyatini o‘zida mujassam qilgan qator buyuk siymolar qatorida Alisher Navoiydagi o‘zidan so‘nmas nuru-ziyoni aql va qalb ko‘zi bilan his etishga chorlayotganday tuyuladi. O‘rta asr Sharq mutafakkirlari ta’limotida komil inson tarbiyasida qo‘llash yoshlar ongi va qalbiga singdirish, shu o‘lmas umumbashariy g‘oyalarga e’tiqod sadoqat ruhida tarbiyalash vazifalari quyidagicha tizimlanadi.

1. So‘z qudrati va xikmati hamda uning ifodaviy ta’zirchan tizimlari ustida munzam ishlash.
2. O‘rta asr Sharq mutaffakkirlari asarlaridagi shu oliy matlabni yoshlarimizning oliy muddosiga singdirilishi.
3. Yoshlarimizning oliy maqsadi insoniyatni insoniy daho, umumbashariy ijodiyot, aqlu-zakovat komillik manzillari sari yo‘naltirish
4. O‘rta asr Sharq mutaffakkirlari mrsining hayotiyligi ta’sirchanligini mag‘z ma’nosini keng va chuqur his etishga erishish.
5. O‘rta asr Sharq mutaffakkirlaridagi ulug‘vor salohiyat, yuksakliklar, mo‘jizaviy so‘z qudratini ulug‘lash.
6. Millat va Vatanning taraqqiyoti yo‘lidagi buyuk insonlarning noyob faoliyati va ijodiy anglash va shu ruhda kelajak avlodni tarbiyalash.

7. Alisher Navoiyning insoniy baht saodati yo‘lidagi falsafiy qarashlarini jonli so‘z san’ati orqali ifodalash.

8. Alisher Navoiyning Lisonut tayr, «Hazoyin-ul maoniy» asarlarining bebaho hazina, benazir hayot, tiriklik olamiga zid ustomon, dilhoh maddoh, sullohlarni fosh qilguvchi fikrlarini anglash va anglatish.

9. Turli mavzularning berilgan shart-sharoit, muallifning g‘oyasi, muddaosi, asosiy fikr falsafa tuyg‘ulari aniq va chuqur anglanishi, tahlil mulohazalarni yoshlar ongiga singdirish.

10. Bu vazifalar yosh avlodning hayotiy kuzatuvlari, kechinmalarini eslash, qayta uyg‘otish va jonli qiziq ifodalash yo‘llari ahtariladi.

11. Har bir insonga xos holatlar, tafsilotlar kechinmalar, voqealikni chuqur his qila olishi, aniq faol munosabati va bularning ifodasi ta’sirchanligi ustida ishlash.

12. Har bir adabiy asar o‘ziga hos aniqlikda izchil yondashishni va monand voqealar berilgan sharoitlar, qiyoslashlar tafsilotlarning mantiqiy izchil va faol ifodaviy yechimini topish kabi vazifalar e’tiborga olinadi .

13. Yoshlarimizning o‘zi yashayotgan jamiyatni hamma tomonlama teran anglagan, uning yutuqlaridan chin insoniy qalb bilan quvona oladigan, fahrlanib ardoqlab, olqishlay oladigan yurtparvar komil inson bo‘lishi o‘z o‘rnida davr illatlari umuminsoniy qadriyatlarga yot sarqitlar, salbiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi inson tabiatiga yot nuqsonlarga murosasiz kurashchi va tashviqoti targ‘ibotchi bo‘la olishdek burchni yuklaydi.

14. Demak adabiy asar tanlash, tahlil qilish va talabalar bilan ishlash jarayoni shu jihatlarga bo‘ysundirilishi zarur deb bilamiz.

Xulosa qilib aytganda O‘rta asr Sharq mutafakkirlari ta’limotida komil inson tarbiyasi allomalarimiz, mutafakkirlarimiz, katta iste’dod bilan yaratgan, badiiy pishiq va yetuk, voqealari ta’sirli, muallifning g‘oyasi, maqsadi bugungi kunimizga milliy istiqlol g‘oyalariga uyg‘un asarlarni tanlash va ularga yoshlarda haqiqiy mehr, kuchli hohish uyg‘ota olish hamda ular ham ham shunday asarlarni topib tanlay olishi katta kuch va hohish, qunt bilan o‘rganishi kabi vazifalar bilan yuklash lozim.

Bugungi avlod so‘zday ilohiy hazinaning eng noyob mag‘z ma’nosini aql shu’uri bilan tushinishi, qalbi bilan his etishi, qadrlay olishi, so‘zga, hassos so‘zga chechan bo‘lishi va buni hayotiy barkamolligining eng asosiy omillaridan biri ekanini bor vujudi, qalbi, tafakkuri bilan his etishlari kerak.So‘zga mehri, tashnaligi bo‘lmagan inson odamlar u yoqda tursin o‘z yayaqinlariga ham fikr tushuncha berishi ularning ishonchi, hayrihohligi, diqqatini zabt etishi qiyin kechadi.

Nutqiy ta’sirchan ifoda doimo jamiyat taraqqiyotining hamma pog‘onalarida ham go‘zallikning, barkamollikning, komillikning yetakchi sabablaridan biri bo‘lib kelgan. Halqimiz, millatimizning tafakkur-mafkurasi, ma’naviyati, dunyoqarashi ehtimol ikki o‘t orasida murakkab jarayonlar, hayot-mamot uchun tanlanish, o‘zgarish, yuksalish

jarayonida ekan yashash va ijodiy faoliyat tarzimizda zamon ruhi aks etishi lozim.Biz fikrlarimiz har tomonlama ilmiy-nazariy jihatdan yoritmaylik baribir aniq amaliy ijodiy ish jarayoni o‘zining ishlash jihatlari bilan hal qiluvchi natijani beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. (Abu Nasr Forobiy“Fozil odamlar shahri” O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent-2012.
2. Alisher Navoiy “Lisonut tayr” Toshkent 1991 G‘afur G‘ulom nomidagi Nashriyot –matbaa birlashmasi.
3. Alisher Navoiy Hayratul Abror” T.: 1989. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.

Ro‘ziboyeva Guliza Jahongirovna,
O‘zDSMI magistranti
Nishonboyeva Qunduzxon Vahobovna
T.f.n. dotsent

O‘RTA ASR NASAF VOHASINING ALLOMALARI VA ULARNING TARIXIY ME’ROSI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Nasaf vohasidan yetishib chiqqan allomalarning Sharq olamida tutgan o‘rni, ularning nisbalari, bebaho merosi, Nasaf shahrining buyuk alllomalaridan Abul Abbos al-Mustag‘firiy, Abul Haras al-Varsiniy, Abdulhamid al-Kashshiy, Abul Hasan al-Pazdaviylarning haèti va ma’naviyatimiz xazinasiga qo‘shgan hissasi ko‘rsatib berilgan.*

Tayanch so‘zlar: *Sharq, ilm-fan va madaniyat, Movarounnahr, Qashqadarè, Nasaf, Naxshab, jome’ masjid, ―Tarixi Nasaf val-Kashsh‖, ―Al-Ansob‖, ―Nasaf va Kesh tarixi‖, ―Tarixi Samarqand‖*

O‘rta asrlar Sharq madaniyati tarixi avvalo shundan dalolat beradiki, madaniyat va ta’lim-tarbiya, tibbiyot, adabiyot, san’at va arxitektura sohalaridagi beqiyos yuksalishi, ilmiy maktablarning vujudga kelishi, yangiyangi iste’dodli avlodlar to‘lqinining paydo bo‘lishi va voyaga yetishi bularning barchasi, birinchi navbatda, iqtisodiyot, qishloq va shahar xo‘jaligining ancha jadal o‘sishi, hunarmandlik va savdo-sotiqning yuksak darajada rivojlanishi, yo‘llar qurilishi, yangi karvon yo‘llarining ochilishi va avvalambor nisbiy barqarorlikning ta’minlanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Sharq olamida, xususan Markaziy Osiyo xalqlari hayotida rivojlangan madaniyatning mavjud bo‘lgani haqida qadimgi baqtriya, so‘g‘d, o‘rxun, xorazm yozuvlarida bitilgan yodgorliklar, devoriy tasviriy san’at asarlari va xaykalchalar, arxitektura namunalari dalolat beradi.

Prezidentimizning “O‘zining tarixiy, madaniy va intellektual merosini asrabavaylashga, boyitish va ko‘paytirishga, shuningdek, o‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga yetarlicha e’tibor qaratmaydigan, har tomonlama uyg‘un rivojlangan, mustaqil fi krlaydigan, o‘z qarash va yondashuviga, grajdanlik pozitsiyasiga ega bo‘lgan shaxsni kamol toptirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymaydigan har qanday davlat va jamiyat tarix va taraqqiyot yo‘lidan chetda qolib ketishga mahkum ekanini biz o‘zimizga yaxshi tasavvur qilib kelganmiz va yaxshi tasavvur etamiz”, degan fi krlari institutimizining ilmiy va ijodiy ishlar ko‘lamini yanada kengaytirishga, uni rivojlantirishga asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Tarixdan ma’lumki, O‘rta asrlarda Sharq ilm-fanini rivojlanishida Xorazm Ma’mun akademiyasi alohida o‘rin tutadi. Ulkan kutubxona, madrasa, tarjimon va xattotlar maktabi kabi tuzilmalarga ega bo‘lgan bu dargohda yuzdan ortiq allomalar, iste’dodli talabalar ilmiy izlanishlar olib borgani barchaga ma’lum. Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Xo‘jandiy, Ahmad ibn Muhammad Xorazmiy va Ahmad ibn Hamid Naysaburiy kabi qomusiy olimlarning umumbashariy tafakkur rivojiga qo‘shgan hissasi beqiyosdir. Bugun Ibn Sino nomi dunyo fani va madaniyati tarixida katta iz ioldirgan. Ko‘plab mamlakatlarda ko‘chalar, o‘quv va tibbiyot muassasalariga uning nomi qo‘yilgan, alloma sharafi ga medal va mukofotlar ta’sis etilgan. Butun dunyoda buyuk ajdodlarimizning so‘nmas daholariga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o‘rganishga qiziqish hamisha ortib bormoqda. Buning tasdig‘ini esa turli mamlakatlarda ularning hayoti va faoliyati haqida ilmiy va badiiy asarlar yaratilgani, ulug‘ ajdodlarimiz xotirasiga yodgorliklar barpo etilganida ham ko‘rish mumkin. Belgiya va Latviyada Ibn Sinoga, Latviyada Mirzo Ulug‘bekka, Yaponiya, Rossiya va Ozarbayjonda Alisher Navoiyga, Misrda Ahmad Farg‘oniyga o‘rnatilgan haykallar xalqimiz tarixiga chuqur hurmat ifodasi hamdir. O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, dunyo taraqqiyoti va madaniyatiga qo‘shgan bebaho hissasi butun insoniyatning ma’naviy boyligi bo‘lib, uni o‘rganish, tadqiq etish, avlodlarga yetkazish zamonaviy ilm-fan va taraqqiyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Abu Abdulloh Ro‘dakiy, Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Sa’diy, Hofi z Sheroziy, Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ko‘plab buyuk faylasufl ar, shoir va ma’rifatparvarlarning ijodiy merosida donishmandlik va borliq olamni gumanistik anglashning juda ulkan, bitmas-tuganmas xazinasi saqlanib kelmoqda. Dunyo tarixidagi birinchi turkiy tillar lug‘ati bo‘lmish “Devoni lug‘atit-turk” kitobi muallif Mahmud Koshg‘ariy bo‘lib, u o‘z asarida yuksak mahorat bilan to‘plashga erishgan so‘z boyligining tom ma’nodagi oltin zarralarini – turkiy maqol va she’rlarni ham keltirib o‘tgan. Koshg‘ariy turkiy xalqlarning tili, madaniyati, etnografi yasi va folklorining birinchi tadqiqotchisi hisoblanadi. Arab tili grammatikasining asoschisi sifatida tan olingan buyuk tilshunos, adabiyotshunos, geograf va faylasuf alloma – Mahmud Zamahshariy hayotlik davridayoq keng shuhrat qozongan. U, shuningdek,

tarixdagi birinchi ko‘p tilli lug‘at – arabcha-forscha-turkiy lug‘atning asoschisi bo‘lgan. Albatta, biz barchamiz o‘rta asrlarda Sharqda yashab ijod qilgan, o‘sha davr voqealaridan guvohlik beradigan bebaho asarlar yaratgan buyuk tarixchilar avlodiga, eng avvalo, Ahmad ibn Arabshoh, Nizomiddin Shomiy, Sharafi ddin Ali Yazdiy, Hofi zi Abro‘, Xondamir, Abdurazzoq Samarqandiy va boshqa allomalarga o‘zimizning cheksiz hurmat-ehtiromimizni bildirishimiz ham qarz, ham farzdir.

Ma’lumki, milliy o‘zlikni anglash o‘tmishni o‘rganishdan boshlanadi. Mamlakatimizda ko‘p asrlik boy tarixga ega bo‘lgan, sharqning yirik ilm-fan va madaniyat markazlaridan biri sifatida Nasaf shahri azaldan ma’lum va mashhur. O‘zbekistonning eng qadimiy shaharlaridan biri Nasaf (Qarshi) shahridir. Qadimiy èzma manbalarda an-Nasafiy nisbasi bilan bir necha yuzlab olimu ulamolar, buyuk mutafakkir donishmandlarning tabar-ruk nomlari zikr qilingan. Taassuf bilan aytish kerakki, bu allomalarning haèti va qol-dirgan boy ilmiy- ma’naviy merosi sovetlar hukmronligi davrida deyarli o‘rganilmadi. Afsuski, bu ulug‘ zotlarning nomlarini, ularning bebaho merosini hali ko‘pchilik bilmaydi. Qashqadaryo vohasida kamol topgan mana shunday ulug‘ ajdodlarimizning tarixi-ni, faoliyatini, ma’naviyatimiz xazinasiga qo‘shgan hissasini har taraflama o‘rganish, tar-g‘ib tashviq qilish olimlarimiz, birinchi galda, qashqadarèlik zièlilarning burchidir[1]. Shu jihatlarni hisobga olgan holda ushbu maqolada Qashqadarè vohasidan yetishib chiqqan ko‘p sonli allomalardan ayrimlari haqida ma’lumot bermoqchimiz.

Abul Abbos al-Mustag‘firiy X asrning oxiri XI asrning birinchi yarmida Nasafda faoliyat ko‘rsatgan taniqli tarixchi, adib, faqih va muhaddis olim Abul Abbos Ja’far ibn Muhammad al-Mustag‘firiy an-Nasafiy 961 yilda tug‘ilib 1041 yili shu shaharda vafot etgan. U dastlabki bilimni Nasafda olib, so‘ngra yana ilm izlab uzoq yillar davomida Movarounnahr va Xurosonning qator shaharlarida bo‘lgan. Jumladan, u Marv, Saraxs, Nishopur, Buxoro va Samarqand kabi shaharlarda o‘qib, ko‘p taniqli olimlardan saboq olgan. Mana shu sa’y-harakatlar natijasi o‘laroq, al-Mustag‘firiy o‘z davrining mashhur fikh olimi, muhaddisi, muarrixi va filologi sifatida shuhrat qozongan. U hanafiya mazhabi bo‘yicha taniqli faqih sifatida tanilib, juda ko‘p hadislarni to‘plagan va ularni èd bilgan. Bir nechta muarrixlar al-Mustag‘firiy yashagan davr[1] (X asr oxiri – XI asr yarmi)da ―Movarounnahrda unga teng keladigan olim bo‘lmagan», deb uning ilmiy salohiyatini yuqori baholaganlar. Al-Mustag‘firiy 27 èshidan boshlab Nasaf shahridagi jome’ masjidida ma’ruzalar qilgan. Umrining oxirlarida esa Nasaf shahrining bosh xatibi lavozimida faoliyat ko‘rsatgan. U haqda ma’lumot bergan tarixnavislarning aksariyati al-Mustag‘-firiyning ―sohib at-tasonif al-kasira‖ (―ko‘pdan-ko‘p asarlarning muallifi‖) deb alohida ta’kidlagan bo‘lsalar-da, biz hozircha alloma qalamiga mansub o‘nga yaqin asarlarini bilamiz xolos. Uning muhim asarlaridan biri ―Tarixi Nasaf val-Kashsh‖ (―Nasaf va Kesh tarixi‖)dir. Ikki yirik jildan iborat bo‘lgan bu tarixiy asar o‘rta asrlarda Nasaf, Keshda va Movarounnahr mintaqasida yashab faoliyat

ko‘rsatgan ko‘plab olimlar va donishmandlarga bag‘ishlangan[2:123]. Muallif o‘zining ushbu asarida zikr qilgan olimlar va arboblarni sakson toifaga bo‘lib ta’riflagan.

Afsuski, hozirgi ma’lumotlarga ko‘ra, al-Mustag‘firiyning bu qimmatli asari bizning davrimizgacha yetib kelmagan hisoblanadi. Lekin al-Mustag‘firiydan keyin yashagan bir qancha olimlar uning bu asaridagi ma’lumotlardan o‘z ijodlarida samarali foydalan-ganlar. Jumladan, bu kitob al-Mustag‘firiydan bir asr keyin yashagan na- saflik boshqa bir yirik olim Najmiddin Umar Abu Hafs an-Nasafiyning (1068–1142) ―Kitob al-qand fi zikri ulamoi Samarqand‖ (―Samarqand olimlari haqida qanddek (shirin) kitob‖) nomli mashhur asari uchun asosiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qilgan. ―Tarixi Nasaf val-Kashsh‖dan unumli foydalangan olimlardan yana biri Abu Sa’ad Abdul Karim as-Sam’oniy (1113-1167) bo‘lib, u o‘zining ―Al-Ansob‖[4] nomli ulkan asarida keltirilgan ellikka yaqin movarounnahrlik olimlarning tarjimai hollarini bevosita al-Mustag‘firiyning mazkur asaridan olgan. Uning qimmatli asarlaridan yana biri ―Tarixi Samarqand‖ (―Samarqand tarixi‖) bo‘lib[3], ming afsuski, ushbu asar ham bizning davrimizgacha yetib kelmagan.

Al-Mustag‘firiy yashagan davrda islom dinining turli masalalarini teran idrok etib, ilmiy asosda to‘g‘ri talqin qilish alohida ahamiyat kasb etgan. Shu boisdan ham, keng xalq ommasi orasida haqiqiy islomiy tafakkurni shakllantirishda ilm ahllarining o‘rni beqiès bo‘lgan. Shu aqidadan kelib chiqib, alloma al-Mustag‘firiy ham mazkur mavzuga oid bir kancha asarlar yaratgan. Shular jumlasidan, uning ―Kitob fazoil al-Quron‖ (―Qur’on‖ ning fazilatlari haqida kitob‖) asari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bu asar ushbu mavzuga taalluqli dastlabki asarlardan biri sifatida ham g‘oyatda qadrlanadi. Yoki bo‘lmasa, olimning payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning ibratli haèt yo‘llari va ko‘rsatgan mo‘jizalariga bag‘ishlangan ―Daloil an-nubuvvati‖ (―Payg‘ambarlik alomatlari‖), ―Kitob al-xutab an-nabavi‖ (―Payg‘ambarning xutbalari haqida kitob‖), ―Kitob ad-da’vot‖ (―Da’vatlar kitobi‖), ―Kitob ash-shamoil‖ (―Payg‘ambarning shakl-shamoillari haqida kitob‖) kabilarni ko‘rsatish mumkin. Bulardan tashqari, manbalarda keltirilishicha, al-Mustag‘firiyning qalamiga mansub asarlardan ―Kitob al-manomat‖ (―Tushlar haqida kitob‖), ―Kitob ma’rifat as-sahoba‖ (―Sahobalarni bilish xaqidagi kitob‖) va sof adabiètshunoslikka oid[3] bo‘lgan ―Kitob ash-she’r vash-shuapo (―She’r va shoirlar haqida kitob‖) kabi asarlari ham zikr qilinadi. Bu asarlardan ayrimlari bizning davrimizgacha yetib kelgan bo‘lsada, ko‘plari haqida hozircha yo‘qolib ketgan degan fikrlar mavjud. Lekin xalqimizda ―noumid shayton‖ degan azaliy bir hikmat ham bor. Shunga ko‘ra ko‘p buyuk ajdodlarimiz kabi al-Mustag‘firiy yaratgan asarlarning qo‘lèzma nusxalari xorijiy (ayniqsa, Misr, Suriya, Turkiya, Eron, Angliya, Germaniya) mamlakatlar kutubxonalarida saqlanishi ehtimolligi ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Shu bilan birga, ancha-muncha qo‘lèzma asarlar yurtdoshlarimizning qo‘llarida saqlanaètgan bo‘lib, ularning tegishli ilmiy muassasalar tomonidan to‘planib, ilmiy asosda chuqur o‘rganilishi bilan Abul Abbos al-Mustag‘firiy

kabi benazir alloma- larimizning haèti va ular qoldirgan boy ilmiy-ma’naviy meros haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lamiz.

X asrda Nasafda samarali faoliyat ko‘rsatgan yirik tarixchi va muhaddis Abul Haras al-Varsiniyning[6] to‘liq ismi Abul Haras Asad ibn Hamduvayh al-Varsiniy an-Nasafiy bo‘lib, u hijriy 315 milodiy 927 yilda vafot etgan. Nasaf viloyatiga qarashli Varsin qishlog‘idan ilm-fanning turli sohalari bo‘yicha bir qancha olimlar yetishib chiqqanligi haqida èzma manbalarda aniq ma’lumotlar keltiriladi. Abul Haras al-Varsiniy ulardan eng taniqlisi bo‘lib, Nasaf za Movarounnahrning turli shaharlarida uning ko‘pdan-ko‘p shogirdlari faoliyat ko‘rsatganlar. Al-Varsiniyning qalamiga mansub asarlardan to‘rttasi haqida zikr etilgan bo‘lib, ulardan eng muhimi shubhasiz ―Kitob mufaxarat ahl Nasaf va Kashsh‖ (Nasaf va Kesh ahlidan eng fahrli (olim)lar haqida kitob‖) hisoblanadi. Afsuski, bizgacha yetib kelmagan bu asarda, nomidan ham ko‘rinib turganidek, Qashqa vohasining qadimiy shaharlari Nasaf va Keshdan chiqqan ulug‘ zotlarning haèti va asarlari haqida qimmatli ma’lumotlar jam bo‘lgani shubhasizdir. as-Sam’oniy o‘zining ―al-Ansob‖ nomli yirik asarini èzishda al-Varsiniyning ushbu asaridan keng ko‘lamda foydalangan va undan katta-katta parchalar keltirgan. Abul Haras al-Varsiniyning boshqa asarlaridan filologiya masalalariga bag‘ishlangan ―Kitob an-nassob‖[4] (―Nisbalarning o‘rganuvchi olimlar haqida kitob‖), shuningdek, ―Kitob al ajoyib va axbor al-Hasan val-Husayni‖ (―Hasan va Husayn haqidagi xabarlar va ajoyibotlar kitobi‖) kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Abdulhamid al-Kashshiyning to‘liq ismi Abu Muhammad Abdulhamid ibn Humayd al-Kashshiy bo‘lib, u Qur’oni Karimning yirik mufassiri, taniqli hadisshunos, filolog, xanafiyya mazhabi bo‘yicha benazir faqih sifatida shuhrat qozongan. Uning tavallud sanasi hozircha noma’lum bo‘lib, vafoti hijriy 249 (milodiy 863) yilga to‘g‘ri keladi. U fiqhshunoslik sohasida o‘z maktabini yaratgan olim sifatida tanilishi bilan birga hadis ilmida oltin davr hisoblangan X asrda samarali faoliyat ko‘rsatgan ulug‘ muhaddislardan biri sanaladi. Ma’lumki, hadis ilmining sultoni, buyuk vatandoshimiz imom al-Buxoriy IX asrda faoliyat ko‘rsatib, olamshumul ahamiyatga molik asarlarini yaratgan[6]. Yurtimiz-ning qator shaharlari kabi Nasafda yirik hadisshunoslik markazi bo‘lib, shaharda ko‘plab muhaddislar ijod qilganlar. Turli manbalarda keltirilishicha, imom al-Buxoriy bir necha muddat Nasaf va Keshda yashab, bu shaharlardagi muhaddislar bilan yaqin muloqotda bo‘lgan. Jumladan, Sharafuddin Ali Yazdiy imom al-Buxoriyning Keshda bo‘lganligi haqida aniq ma’lumotlar keltiradi. Ehtimoldan holi emaski, deyarli bir vaqtda faoliyat ko‘rsatgan imom al-Buxoriy va Abdulhamid al-Kashshiy o‘rtasida Shahrisabzda qizg‘in ilmiy muloqot-lar bo‘lib o‘tgan. Mashhur tarixchi as-Sam’oniyning èzishicha, Imom al-Buxoriy bir qancha muddat Nasaf shahridagi Baèn mahallasida yashab, shu joydagi jome’ masjidga qatnab, besh vaqt namozlarini bajo keltirgan va o‘z ilmiy faoliyatlarini davom ettirgan. Aynan shu Nasafda yashagan paytida buyuk muhaddisning ilmiy ishlariga èrdam bergan Ofuron

qishlo-g‘ilik èsh hadisshunos Jibriyl ibn Avn al-Ofuroniy bo‘lganligi ham e’tiborga molikdir. Nima bo‘lganda ham Imom al-Buxoriydek buyuk muhaddisning Nasaf va Keshga qadam ranji-da qilganlari o‘sha davrda bu shaharlarda hadis ilmi naqadar yuksak pog‘onalarga ko‘taril-ganligiga dalolatdir.

O‘z davrining yirik olimi darajasiga yetishgan Abdulhamid al-Kashshiyning shogird-lari ham ko‘p bo‘lib, islomiy ilmlarning turli masalalariga oid yettita asar èzganligi haqida manbalarda zikr qilinadi. Mana shu asarlardan eng muhimi payg‘ambar alayhissa-lomning hadislariga bag‘ishlangan ―Musnad al-imom‖ nomli asarini ko‘rsatish mumkin.

Abul Hasan al-Pazdaviyning to‘liq ismi Abul Hasan Ali ibn Muxammad ibn al-Husayn ibn Abdulkarim ibn Muso ibn Iso ibn Mujohid al-Pazdaviy bo‘lib, u hijriy 400 (milodiy 1010) yilda Qashqadarè viloyatining Kasbi tumani hududidagi Pazda (Ko‘hna Fazli) qo‘rg‘onida tavallud topgan. O‘z davrida Movarounnahrning ko‘p shaharlari kabi Nasaf va Pazdani ham[7] zièrat qilgan. Mashhur arab sayèhi Yoqut al-Hamaviy (1178-1229) o‘zining ―Mu’jam al-buldon‖ (―Mamlakatlar qomusi‖) nomli yirik asarida ―Pazda Nasaf-dan olti farsax uzoqlikdagi mustahkam bir qal’a (qo‘rg‘on) bo‘lib, undan yetishib chiqqan allomalardan biri Abul Hasan Ali ibn Muhammad al-Pazdaviydir‖, deb èzgan. Afsuski, uning èshlik yillari haqida manbalarda aniq ma’lumotlar keltirilmagan. U fiqh sohasidagi dastlabki bilimni o‘z otasidan olgan, so‘ngra o‘sha davrda ilm-fan va madaniyat taraqqiy qilgan yirik shaharlardan biri Nasafda o‘z bilimini oshirgan. Har holda u èshligidan yuqori ilmiy-ma’naviy muhitda ulg‘ayib, o‘z zamonasining mashhur olimlaridan biri sifatida tanilgan, ayniqsa, ―fiqh-islom huquqshunosligining barcha masalalari bo‘yicha o‘z davrining imomi‖ degan yuksak nisbaga muyassar bo‘lgan. Taniqli arab tarixchisi Shamsuddin az-Zahabiy (1274 1347) o‘zining ―Siyar a’lom an-nubalo‖ (―Olijanob allo-malar siyratlari‖) nomli qimmatli asarida ―Abul Hasan al-Pazdaviy Imom A’zam Abu Hanifa mazhabida o‘z tariqatiga ega bo‘lgan alloma‖, deb èzgan bo‘lsa, tarixchi Abu Sa’ad as-Sam’oniy esa ―Abul Xasan al-Pazdaviy hanafiya mazhabining Movarounnaxrdagi shayxi bo‘lgan‖, deb ta’kidlagan. Haqiqatdan ham alloma yurtimizda amal qilingan hanafiya mazhabini mukammal va beg‘ubor holda muhofaza etish borasidagi beqiès xizmatlari tufayli[6] barchaning alohida hurmatini qozonib, hatto ―Faxr ul-islom‖(―Islomning fax-ri‖) degan o‘ta sharafli laqabga ham sazovor bo‘lgan. U uzoq yillar Samarqand madra- sala-rida mudarrislik qilgan. So‘ngra Kesh (Shahrisabzda yashagan va 1089 yilda vafot etgan. Ba’zi manbalarda èzilishicha, vafotidan keyin jasadi Samarqandga keltirilib, dafn etilgan.

Abul Hasan al-Pazdaviy qalamiga mansub asarlar islomiy ilmlarning turli sohala-riga bag‘ishlangan bo‘lsada, uning merosida fiqhiy asarlari alohida o‘rin egallay-di.Jumladan, hanafiya mazhabining turli masalalariga oid o‘n bir jildlik ―Al-Mabsut‖, shu mazhab asoschisi imom Abu Hanifaning ―Al-Fiqh al-akbar‖ nomli asariga èzgan sharhi Kur’oni Karim tafsiriga bag‘ishlangan ―Kashf al-astor‖ nomli 120 qismlik asari,

bu taf-sirning har bir qismi ulkan kitobdan iborat bo‘lgan, ―Sharh al-jomi’ al-kabir li-Shay-boniy‖, ―Sharq al jomi as-sag‘ir li-Shayboniy‖, buyuk muhaddis imom al-Buxoriyning ―Al-Jomi’ as-sahih‖ asariga èzgan sharhi, fiqh ilmiga oid ―Fana’ al-fuqaho‖, ―Siyrat al-mazhab fi sifat al-adab‖, ―Risola fi qiroat al-musalliy‖, ―Kitob al-muyassar fi-al-kalom‖, ―Zallat al-qoriy‖, ―Usul al-Pazdaviy‖, ―Al-Amoliy‖ kabilarni ko‘rsatish mumkin. Shu bilan birga Fahr al-Islom al-Pazdaviyning ilmiy ma’naviy merosida ―Usul al- Pazdaviy‖ asari alohida o‘rin egallab, u to‘lig‘icha ―Kanz al-vusul ila ma’rifat al-usul‖ nomi bilan ataladi. Asarda fiqfiy masalalar batafsil holatda sharhlanganligi bois o‘z davrida bu asar juda ko‘pchilik faqihlar tomonidan bir dasturiy qo‘llanma sifatida yuksak baholangan[3]. Al-Pazdaviydan keyin faoliyat ko‘rsatgan ko‘p olimlar unga tayanib asarlar ham yaratganlar. Misol tariqasida al-Pazdaviydan sakkiz yil keyin vafot qilgan mashhur olim Shams ul-aimma as-Saraxsiyning ―Usul al-fiku‖ asarini ko‘rsatish mumkin. Fiqh il-mida mislsiz ahamiyatga molik bo‘lgan bu asarga bag‘ishlanib ko‘plab sharhlar ham bitilgan. Ulardan Solim ibn Ahmad as-Sanadiy, Husayn ibn Ali as-Sam’oniy, Muhammad ibn Mah-mud al-Bobirtiy, Sadr ash-shariy’a al- Mahbubiy, Badriddin Muhammad ibn Shamsiddin, Amir Kotib ibn Amir Umar al-Forobiy, al-Javonfuriy, Alouddin Abdulaziz ibn Ahmad al-Buxoriy kabi olimlar èzgan sharhlar mashhurdir. Ushbu sharhlardan, shubhasiz, Aloud-din al-Buxoriyning ―Kashf ul-asror‖ nomli sharhi eng qimmatlisi hisoblanadi. Shu bois ham mazkur sharh keyingi yillarda Bayrutda to‘rt yirik jildda ikki marta (1994, 1997 yillar) nashr etildi. Muhim manba sifatida al-Pazdaviy asarining qo‘lèzmalari ham jahonning turli mamlakatlarida saqlanadi. Olmon sharqshu-nosi Karl Brokkelman ―Kanz ul-vusul‖ining qo‘lèzma nusxalari Berlin, London, Parij, Dehli, Sankt-Peterburg, Pesho-var, Qohira, Tunis, Istanbul kabi shaharlarda saqlanishi haqida ma’lumotlar keltiradi.

Xullas, o‘rta asr Sharq olamining taniqli olimlarining Nasaf shahriga kelishib, bu yerda ma’lum vaqt ichida istiqomat qilishib, ijod qilishlari ham bu shaharning yuksak salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Naxshab- Qarshi shahrida ilm fan va madaniyat ancha rivoj topib,Markaziy Osièdagina emas, balki Sharq olamida ham o‘z salohiyatiga ega ekan-ligi bilan alohida ajralib turgan. Bu boy merosdan butun bashariyat ravnaqi yo‘lida oqilona va samarali foydalanish – bu siz bilan bizning vazifamiz, siz bilan bizning burchimizdir. Bu borada fidoyi olimlarning roli alohida diqqat-e’tiborga munosib bo‘lib, aynan ularning mehnati tufayli biz o‘tmishning bebaho ilmiy merosini qaytadan kashf etmoqdamiz. Tarixiy va madaniy merosni asrab-avaylash, intellektual salohiyatni rivojlantirish, boyitish va ko‘paytirish, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash – moddiy va ma’naviy taraqqiyoti asosi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev Sh. Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi // Xalq so‘zi, 2016, 19 oktabr.
2. Uvatov U. Nasaf vohasining allomalari. Muloqot//. №5-6. 2006.
3. O‘zbekiston buyuk allomalar yurti. T.: ―Ma’naviyat‖, 2010. B. 123,273.
4. Buyuk yurt allomalari. T.: ―Ma’naviyat‖, 2015.
5. Sa’moniy. Kitob al-Ansob.
6. Maxsudov Davronbek. Qadim Nasaf va uning buyuk allomalari. Sohibqiron yulduzi. 2017
7. Oqilov S. Abu-l-Muin an-Nasafiy va uning moturidiya ta’limoti rivojiga qo‘shgan hissasi (―Tabsiratu-l-adilla‖ asari asosida): Tar. fan. nom.. diss. T.: TIU, 2005.
8. Islomov N. Bo‘riev O. Qarshi-O‘zbekistonning qadimiy shahri. Qarshi. ―Nasaf‖., 2006

Адиба Обланазарова,
магистрантка 1 курса УзГИКа
научный руководитель к.п.н.доцент
Байтураев Тойчибой Досатович УзГИИК
и.о. зав.каф. «Библиотечные фондов и библиографоведения».

Б.В.ЛУНИН БИБЛИОГРАФ ОБЩЕСТВЕННЫХ НАУК УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. *В данной статье были изучены библиографические труды по истории, философии, экономике, праву и по деятельности отдельных ученных Узбекистана. Библиографические указатели данного автора проанализировано по содержанию, читательскому назначение, также определена цели,задачии текущего научно-вспомогательного указателя «Библиография литературы по археологии, истории, этнографии, философии и праву Узбекистана» издаваемой для специалистов общественных наук Узбекистана и Средней Азии для организации научных исследований в этих областях.*

Ключевые слова: *издании, книги, статьи, археологии, этнографии, философии.*

Abstract. *This article examined bibliographic works on history, philosophy, economics, law and the activities of individual scientists of Uzbekistan. The bibliographic indexes of this author were analyzed by content, reader purpose, and the goals and objectives of the current scientific and auxiliary index “Bibliography of literature on archeology, history, ethnography, philosophy and law of Uzbekistan”, published for specialists in the social sciences of Uzbekistan and Central Asia for organizing scientific research in these areas.*

Key words: *publications, books, articles, archeology, ethnography, philosophy*

Доктор исторических наук, профессор, Б. В. Лунина очень кропотливо изучал историю нашего края и составил научно-вспомогательные указатели по изданиям по обшественным наукам Узбекистана и Средней Азии. За свою 75-летнюю научную деятельность Владимирович Лунин подготовил и опубликовал 25 монографий, 50 брошюр и более 600 статей на разнқе темы.

Как специалист по историографии, источниковедению исторических наук он был хорошо знаком научным, научно-популярными, учебными, документальными изданиям, статьям и другим публикациям, на исторические темы, страны, региона. Также он начал отдельно составлять текущий библиографический указатель по истории, экономике, археологии и праву Узбекистана. В Узбекистане Б.В. Лунин в научном журнале АН Узбекистана «Общественные науки в Узбекистане» начал издавать текущий научно воспитательный указатель «Библиографические указатели литература по археологии, истории, этнографии, философии и праву Узбекистана» с годовым учетом издании по археологии, истории, этнографии, философии и праву Узбекистана, изданных на русском, узбекском и других языках стран СНГ. В этом указателе научной литературы была отобрана по содержанию в выборе научных книг и статей в первую очередь учитывалось связанность издании с археологией, историей, этнографией, философией и правом Средней Азии и Узбекистана.

Отобрь издании в указателе ведется по содержанию и по хронологии издании по историко-правовым, историческим, архологическим и экономическим тематикам. В Узекистане находятся древнейшие поселения человечества, такие как Тешикташ, Селунгур, Обирахмат, Афросиаб, Варахша, Кушан, Древний Хорезм, Бактрия, Согд где считаются регионами, где существовали старые традиции государственности. Из истории известно, что в этой области существуют специфические (особенно математика и астрономия), естественнонаучные (география, биология, химия, медицина, фармакология и др.), общественно-гуманитарные (философия, политология, психология, педагогика, этика и др.) в исламских учениях (правоведение, хадисоведение, наука о каламе, мистицизме) жили многие ученые, добившиеся больших достижений и внесшие большой вклад в развитие мировой цивилизации. В даном указаеле дана библиография издании по этим древним памятникам.

Так как тот указатель был предназначен специалистам, научных работникам, исследователям, доктарантам, аспирантам, преподавателям и студентам высших учебных заведений в которых изучаются история, археология, этнография, права и экономика даной страны и региона. Групперовка издании осушествлялась по содержанию издании. Указатель учитвает издании унверсального содержания по истории Узбекистана читателями данных издании могут быт как специалисты, также ими могут пользватся, студенты, учашийся и шерокие круги читателей если издании посвешены архологии Узбекистана то тут читательский адре меняется здесь изучается определенный периуд, определёная культура в отдельном памятнике здесь читателский адрес меняется читателями даных издании могут быт исследователи, научные работники, докторанты, магистранты, студенты даной специальности, внутрии памятников также читательский адрес издании

могут поменятся искусствоведы, нумзматы,антрапологы изучают те разделы указателя в которых имются издании по их интересам.

«История и памятники материальной культуры Кушанского периода в советской литературе» (1968), «История, культура и искусство времен Тимуридов в советской литературе» (1968), «Библиографический указатель литературы по истории Самарканда» (1969). Отбор издании в указателе по отдельным памятника все издании по этой тематике в указателях отбирались по хронологии издании. Эти указатели и по ныне используются ученными разных стран в изучении истории данного региона. Также указатель может быт интересен ученным которые изучают исторические периоды Хорезма, Согда, Бактрии, Кушанской империи с его материальными и духовными культурами.

ВВ указателях имеются интересные издания по археологическим памятникам Узбекистана таким как Далварзинтепе, Халчаян, Айритам, Кампыртепе. Указатель учитвает издании унверсального содержания по истории Узбекистана читателями данных издании могут быт как специалисты, также ими могут пользватся, студенты, учашийся и шерокие круги читателей если издании посвешены архологии Узбекистана то тут читательский адре меняется здесь изучается определенный периуд, определёная культура в отдельном памятнике эздесь читателский адрес меняется читателями даных издании могут быт исследователи, научные работники, докторанты, магистранты, студенты даной специальности, внутрии памятников также читательский адрес издании могут поменятся искусствоведы, нумзматы, антрапологы изучают те разделы указателя в которых имются издании по их интересам.

Литература :

1. Байтураев Т.Д. Библиография изданий ГА Пугаченковой как источник краеведческой библиографии//Вестник Санкт-Петербургского государственного института культуры, 2021.- №2(47).- 170-173.

2. Байтураев Т.Д. Библиография Бабура и Бабуридов// Вестник Санкт-Петербургского государственного института культуры, 172-175

3. Байтураев Т.Д. Региональные, страноведческие и краеведческие издания академика Э.В. Ртвеладзе и библиографирование этих изданий//Библиография и книговедение. 2022.-№5-6.- 206-213.

Pirmuhammad Xolmaxmatov,
O‘zDSMI 2-bosqich magistranti

SHARQ RENESSANSINI TURKIYA ORQALI YEVROPAGA YETKAZGAN OLIM

Annotatsiya. Ushbu maqolada Temuriylar davrining yirik olimlaridan biri bo‘lmish Ali Qushchining ilmiy faoliyati, u tomonidan sharq ilm-fani yutuqlarining Yevropaga qadar yetkazilishi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ali Qushchi, Turkiya, rasadxona, Tabriz, Tajrid, Ayo Sofya

Abstract. This article highlights the scientific activities of Ali Kushchi, one of the great scientists of the Timurid era, and his transfer of the achievements of Eastern science to Europe.

Keywords: Ali Kushchi, Türkiye, observatory, Tabriz, Tajrid, Hagia Sophia

Alouddin Ali ibn Muhammad Ali-Qushchi Samarqandiy (1403-1474) nafaqat Ulug‘bek akademiyasining kenja vakili, Mirzo Ulug‘bek (1394-1449)ning sevimli shogirdi, balki mazkur ilm dargohi yutuqlarini Yevropa va butun jahonga yoygan mutafakkirdir. Ali Qushchi – ikkinchi Sharq renessansining yetuk matematik va astronom olimi, o‘z davrining Batlimusi (Sharq Ptolomeyi) degan yuksak unvonga sazovor bo‘lgan yirik faylasuf alloma. Alouddin Mirzo Ulug‘bek saroyida ovchi qushlarga mas’ul amaldor – Muhammad ismli kishining farzandi bo‘lgan. Otasini “Qushchi” atashgani bois uni “Ali-Qushchi” deyishgan. Ota-onasi vafot etgach, Alouddin Mirzo Ulug‘bek xonadonida tarbiyalanadi.

Shu sababli Ulug‘bek uni “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asarining so‘zboshida “farzandi arjumand” deb tilga olgan. Yosh Alouddin Ulug‘bek akademiyasi olimlarining xizmatini qilib yurib, o‘zi ham ilm olishga harakat qiladi. 1414 yili Eronning Kermon shahriga borib, u yerdagi madrasada uch yil tahsil oladi va 1017 yili Samarqandga qaytib kelib, Ulug‘bekka o‘zi yozgan ilk maqolani taqdim qiladi. Ustozi “Oysimon shakllarni o‘lchashga oid” nomli bu asarni yuqori baholaydi. Alouddin endi Mirzo Ulug‘bekdan tashqari, Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid singari allomalardan ham saboq oladi. 1415-1420 yillari asos solingan Mirzo Ulug‘bek madrasasida esa mantiqchi faylasuf Taftazoniy (1322-1392), Mavlono Ahmad kabi olimlarning shogirdlaridan ilm o‘rganadi. Zehni kuchli bo‘lgani hamma narsani tez va mustahkam o‘zlashtirib boradi.

Matematika va astronomiya asoslarini puxta egallab, hisob-kitob yuritishda akademiya olimlariga ko‘maklashadi. Vaqt o‘tishi bilan akademiyaning komil huquqli a’zosiga aylanadi. U trigonometriya, sferik astronomiya va kasrlar nazariyasiga oid kashfiyotlar qiladi. Ali Qushchi Ulug‘bek madrasasini rivojlantirish, Ulug‘bek rasadxonasini (1424) qurish va faoliyatini yo‘lga qo‘yish, “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” jadvalini tuzish jarayonida faol qatnashadi[3]. Ma’lumki, bu jadvalda samarqandlik astronomlar 38 yulduz turkumiga mansub bo‘lgan 1018 yulduzning aniq

koordinatalarini belgilab bergan. Unda yozilganidek, katalog “hijriy 841-yil muharram oyining 1 kuni (1437 yilning 5 iyul) yakuniga yetkazilgan”.1429-yili rasadxona mudiri G‘iyosiddin Jamshid Koshiy (1380-1429) vafot etadi. Uning faoliyatini davom ettirib turgan Qozizoda Rumiy (1364-1437) 1437 yili olamdan o‘tadi. Shundan keyin mudirlik Ali Qushchiga topshiriladi. Ali Qushchining til bilish salohiyati va muomala madaniyatini yaxshi bilgan Mirzo Ulug‘bek uni 1438-yili Xitoyga elchi qilib yuboradi.

Elchilikda u Xitoyning tabiati, iqlimi, aholisining urf-odat va an’analari haqida fors tilida “Xitoynoma” asarini yozadi.1449-yili Mirzo Ulug‘bek qatl etilgach, toj-taxt uchun kurashlar, turli ig‘vo va fitnalar avj oladi. Abdulatif (1420–1450) ham 1450-yil 8-mayda o‘ldiriladi va taxtga Ibrohim sultonning o‘g‘li Abdulloh (1433-1451) o‘tiradi.

Undan keyin 1451-yili hokimiyatni Mironshohning o‘g‘li Abu Said (1424–1469) qo‘lga kiritadi. U Ali Qushchiga yaxshi munosabatda bo‘lib, homiylik qiladi. Ali Qushchi Nosiruddin Tusiyning “Tajrid” sharh yozib, Sulton Abu Saidga taqdim qildi[6]. Ammo hukmdorning vafotidan (1469) keyin mamlakatda yana toj-taxt uchun kurash boshlanadi.

Mutaassib ulamolar ilm-fanga qarshi xurofotni kuchaytiradi. Ayrimlar akademiyani shayton yo‘liga kirgan deb ayblashga, rasadxonani buzib tashlashga da’vat qila boshlaydi. Shu sababli Ali Qushchi akademiya faoliyatini to‘xtatib, Temuriylar kutubxonasini, Ulug‘bekning asarlarini saqlab qolishga intiladi. 1471-yili bir qancha qarindoshlari bilan Samarqanddan chiqib ketishga majbur bo‘ladi. O‘zi bilan rasadxonada ishlangan qo‘lyozmalar, yulduzli osmon xaritasi va nodir qo‘lyozmalarini olib ketadi. Ali Qushchi avval Tabriz, so‘ng Hirotga boradi. Ayrim manbalarda unga Xoja Ahror Vali yordamlashgani aytiladi, lekin bu ma’lumot tasdiqlanmagan. Tabrizda Ali Qushchining qarindoshlari yashar edi. (Ehtimol, ular Mirzo Ulug‘bek vafotidan keyin Tabrizga ko‘chib ketgandir). Hirotga borganida esa, unga Alisher Navoiy yordam qo‘lini cho‘zadi, hajga borishi uchun Husayn Boyqarodan ijozat-ruxsatnoma olib beradi.

Tabrizda Ali Qushchi hukmdor Oq Quyunli Uzun Hasanning(1453-1479) xizmatiga kiradi. Uzun Hasan Tabriz bilan Istanbul o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash maqsadida uni Turkiyaga, Usmoniylar saltanatining yettinchi hukmdori Sulton Muhammad II saroyiga yuboradi. Ali Qushchi Istanbulda izzat-ikrom bilan kutib olinadi. Chunki, uning shuhrati Kichik Osiyoga o‘zidan oldin yetib borgan edi. Hatto Samarqandda yozgan ayrim asarlari turk tiliga tarjima ham qilingan, turkiyalik olimlar Ali Qushchining “Astronomiya asoslari” kitobining arabcha va forscha nus’halarini o‘qib o‘rganar edi. Manbalarda qayd etilishicha, Sulton Muhammad II Sulton Murod o‘g‘li (1432-1481)ning o‘zi ham adolatparvar, ilmparvar kishi bo‘lgan. Saroyga yirik olim va ulamolarni yig‘ib, ularni nafaqa bilan ta’minlagan.

U Horun Ar-Rashid singari vaqti-vaqti bilan xufya ravishda oddiy xalq dardini eshitish uchun odam orasiga chiqar ekan.

U Ali Qushchini ulug‘ olim sifatida qabul qilib, Istanbulda doimiy qolishini so‘raydi. Olim o‘z risolalarida bunday yozadi: “Sulton meni qabul qilganida kamina bilan so‘zlashish niyati borligi yaqqol ko‘rinib turardi. U o‘ziga atab ilmi riyoziyotdan kitob yozishimni so‘radi. Shunda Sultonda tabiiy fanlarga qiziqish borligini sezdim va qisqa vaqtda ilmi riyoziyotdan kichik kitob yozdim” Ali Qushchi Sultonning taklifni qabul qiladi va qarindoshlarini olib kelish uchun yana Tabrizga qaytadi. Uning 200tacha qarindoshi Istanbulga ko‘chib boradi. 1472-yili Ali Qushchi Ayo Sofiya madrasasi bosh mudarrisi, Ayo Sofiya masjidi boshqaruvchisi etib tayinlanadi, unga 200 oltin tanga miqdorida maosh belgilanadi.

Mavlono Alouddin usmoniylar saltanatida ham dunyoviy, ham diniy ilmlarni rivojlantiruvchi ma’rifiy markaz tashkil etishga kirishadi.

Samarqandda egallagan bilimlari va tajribasiga tayangan holda shogirdlarga ilm o‘rgata boshlaydi. Uning madrasasida ilmning turli sohalarini rivojlantirishga keng yo‘l ochiladi. U kezlari Istanbulda matematika va astronomiyani Ali Qushchidek mukammal biladigan olimlar kam edi. Shu sababli turkiyalik ilm ahli o‘z davrining Batlimusi, Sharq Ptolomeyi deb nom qozongan mutafakkir atrofida jipslashib, uning ma’ruzalarini mehr bilan tinglay boshlaydi. Ali Qushchi ularga matematika va astronomiya fani erishgan yutuqlar, astronomik qiymatlarni o‘lchash metodlari, astronomik kuzatish asboblari, matematik amallarni bajarishning Samarqand maktabiga xos usullari, o‘nli kasrlar, matematik amallarda qo‘llanadigan manfiy (minus) va musbat (plyus) ishoralar mohiyati va trigonometrik funksiyalarni yechishning xilma-xil turlaridan dars beradi.

Bu ulug‘ ustoz haqidagi shov-shuvlar Yevropaga ham yetib boradi. Yevropalik hisobdonlar tajriba olish maqsadida Istanbulga oqib kela boshlaydi. Shunday qilib, Ulug‘bek akademiyasi yutuqlari Ali Qushchi orqali Yevropaga uzatila boshlaydi. Akademik I.Mo‘minov: “Ali Qushchi [asarlari] 16-17 asrlarda Yaqin Sharq mamlakatlarida matematika fanining rivojlanishiga [jiddiy] ta’sir ko‘rsatgan”, deb to‘g‘ri ta’kidlagan. Germaniyalik kossistlar ham Ali Qushchidan o‘nli kasrlar, musbat va manfiy sonlar hamda trigonometrik funksiyalar haqidagi ilg‘or matematik g‘oyalarni o‘rganib ketgan Kossistlar keyinchalik Ali Qushchining musbat va manfiy qiymatlar haqidagi g‘oyasidan ilhomlanib, matematikaga plyus “+” va minus “-“ belgilarini kiritadi.

Ali Qushchi juda ko‘p asarlarini Samarqanddaligida yozgan. Istanbulda ham samarali ijod qilgan. Lekin eng katta xizmati “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”ni, unga yozilgan ko‘plab sharhlarni saqlab qolgani va jahonga yoyganidir. U Samarqand akademiyasi olimlarining matematik, astronomik merosini shogirdlari orqali Yevropaga yetkazib berdi. Turkiyada uning Miram Chalabiydek_buyuk shogirdlari yetishib chiqqan. Ali Qushchi Turkiyada tashkil qilgan maktab ilm sohasida tom ma’noda Sharq bilan G‘arbni, Osiyo bilan Yevropani tutashtiruvchi ko‘prik vazifasini o‘tagan. Samarqandda shakllangan astronomiya va matematika maktablari hamda Ulug‘bekning ilmiy

akademiyasi, bu akademiya zamirida vujudga kelgan ikkinchi Sharq renessansi ta'sirida erishilgan yutuqlarining Turkiyadan Yevropaga yoyilishida Ali Qushchi muhim rol o'ynagan.

Ali Qushchining "Ziji jadidi Ko'ragoniy" sharhi boshqalaridan mukammalligi, tushunarliligi bilan farq qiladi. Bundan tashqari, uning o'zi "Zij"ni turkchaga tarjima qilgan. Bu esa yulduzlar jadvalini Yevropa tillariga tarjima qilishga asos bo'lgan. XVII asrda polyak astronomi Yan Geveliy "Ziji jadidi Ko'ragoniy"ni Yevropada nashrdan chiqargan. Ulug'bek akademiyasining matematika va astronomiya sohasida erishgan yutuqlari Turkiyada keng targ'ib qilindi. Bu yutuqlar sirasiga matematikada o'nli kasrlarni joriy qilish, doiraga ichki chizilgan uchburchaklarni o'lchash metodlari, trigonometrik funksiyalarni yechishning Samarqand matematiklariga xos usullari, π sonining qiymatini aniqlash (Ali Qushchi bu qiymatni 16-raqamgacha aniqlikda hisoblab chiqqan) kiradi. Yevropa π borasida Ali Qushchidan 250 yil keyin undan o'tib ketishga erishdi. Kyolnlik matematik Ludolf van Seylen bu sonni 32 belgigacha aniqladi. Ali Qushchi matematika, astronomiya va tilshunoslikka oid 30dan ortiq asar yozgan. Xususan,"Risola fil hisob" ("Arifmetikaga oid risola") 1425 yili Samarqandda yozilgan bo'lib, unda o'nlik va oltmishlik sanoq sistemalari, muhandislik faoliyatiga oid masalalar yoritilgan.

Uning ayrim nus'halari Leyden kutubxonasida (№1050) va O'zbekiston Fanlar akademiyasi [Abu Rayhon Beruniy nomidagi] Sharqshunoslik institutida (№3356) saqlanmoqda. Ali Qushchining arifmetika, algebra, geometriya, trigonometriya masalalariga oid "Risola al-Muhammadiya fil hisob" ("Muhammadning hisobga oid risolasi"), "Risola fi halli ash-shakl al-hilol" ("Yarim oy shaklidagi figuralarni o'lchash"), "Sharhi miftohil ulum Taftazoniy" ("Taftazoniyning «Fanlar kaliti" asariga sharh"), "Risola dar ilmi hay'at" ("Astronomiyaga oid risola") asarlarida Samarqand olimlarining yutuqlari o'z ifodasini topgan. Ali Qushchining *"Al-Risola al-fathiya"* asari qo'lyozmasidan. Bu asarlarning qo'lyozma va toshbosma nusxalari dunyoning nufuzli fondlarida saqlanmoqda, jumladan, Istanbuldagi Ayo Sofiya kutubxonasida ham. Ali Qushchi Samarqand astronomlari singari Yerning Quyosh atrofida va o'z o'qi atrofida aylanishiga qat'iy amin bo'lgan. Uning fikricha, *yoritqichlarning sharqdan g'arbga qarab harakatlanishi, g'arbga botishi Yer sharining g'arbdan sharqqa qarab harakatlanishi (o'z o'qi atrofida aylanishi) oqibatida ro'y beradi. Bizga shu sababli go'yoki yoritqichlar sharqdan chiqib, g'arbga botayotgandek tuyuladi. Bu suzib borayotgan kemadan turib qirg'oqni kuzatayotgan yo'lovchi holatini eslatadi. Yo'lovchiga kema emas, balki undan qarama-qarshi tomonga qirg'oq harakatlanayotgandek bo'lib tuyuladi.*

Ali Qushchining boy ma'naviy merosi nafaqat Turkiya, balki Yevropa va butun dunyo olimlariga ilmiy, ma'rifiy ozuqa bo'lib xizmat qildi va uning Samarqanddan olib kelgan nodir ilmiy g'oyalari Yevropa renessansiga katta turtki berdi. Olim 1474-yili

Istanbulda vafot etgan va Abu Ayyub Ansoriy masjidi hududiga dafn qilingan. Masjidga kiraverishdagi katta marmar taxtaga “Ali Qushchi – fan odami” deb yozib qo‘yilgan. Fransuz ma’rifatparvar faylasufi Fransua Mari Arue Volter (1694-1778) “Millatlarning holatlari va odatlari haqida” (1753-1758) asarining 3-jildida Ulug‘bek tashkil qilgan ilmiy markazni “tom ma’nodagi fanlar akademiyasi” deb atagan, Mirzo Ulug‘bek, Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari olimlarni esa insoniyatni uyg‘otgan buyuk donishmandlar deb ulug‘lagan.

Tarixiy manbalar shundan shohidlik beradiki, Ali Qushchining avlodlari ham ilm-ma’rifatga katta e’tibor bilan qaragan. Nabirasi Hofiz Ko‘hakiy 1528-yili Hindistonga borib, Zahiriddin Muhammad Bobur bilan uchrashgan. Toshkentda Eski jo‘va yaqinida (hozirgi Paxta va Forobiy ko‘chalari tutashgan joy) madrasa ochgan. So‘z yakunida shuni alohida ta’kidlash lozimki, Samarqand ilmiy akademiyasi g‘oyalaridan oziqlanib voyaga yetgan, Mirzo Ulug‘bek dahosidan ilhomlangan, Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshoniy singari allomalar ta’limini olgan buyuk vatandoshimiz – astronom, matematik, faylasuf Mavlono Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi Samarqandiy Markaziy Osiyoda ro‘y bergan ikkinchi Renessans yutuqlarini Yevropaga qadar yetkaza olgan, musulmon Sharqining muvaffaqiyatlari bilan endi uyg‘onib kelayotgan G‘arbni oziqlantirgan mutafakkir bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Ali Qushchi.* Astronomiyaga oid risola (I.M.Mo‘minov tahriri ostida). T.: Fan, 1968.
2. *Ahmedov A.* Ali Qushchi. https://www.e-tarix.uz/shaxslar/506-cola.html).
3. *Bavrin I.I., Fribus Ye.A.* Starinnыye zadachi: Kn. dlya uchaщixsya.– M.: Prosveщyeniye, 1994.(S.36) 128 s.
4. *Volter.* Filosofskiye povesti. M.: Xudojestvennaya literatura, 1978.
5. *Geveliy, Ya.* Atlas zvyozdnogo neba = Yulduzlar osmonining atlasi/ Red. i vstup. st. akad. AN UzSSR V.P.Щyeglova; Akademiya nauk Uzbekskoy SSR, Ordena Trud. Krasn. Znameni Astronom. in-t.– 3-ye izd., dop.– Tashkent: Fan, 1978.– XLVII+ 66s.
6. *Qodirov B.* Ali Qushchi// http://oyina.uz/kiril/generation/139
7. *Qulmatov Sh., Berdimurodov A.* Samarqand yodgorliklari. – Samarqand: IBXM, 2017. B.186.
8. *Lafasov U.* Ali Qushchi. https://www.academia.edu/41879171/
9. *Matviyevskaya G. P.* Ucheniye o chisle na srednevekovom Blijnem i Srednem Vostoke. Tashkent: Fan, 1967.
10. *Matviyevskaya G. P., Rozenfeld B. A*. Matematiki i astronomi musulmanskogo srednevekovya i ix trudi (VIII–XVII vv.). V 3 t. M.: Nauka, 1983.
11. *Mo‘minov I.M.* Ali Qushchi // O‘zbek Sovet ensiklopediyasi. 1 tom. T., 1971. B.240.
12. *Muhammadkarimov Abdulaziz.* Toshkent allomalari va tarixiy shaxslari (ikkinchi kitob) “Toshkentnoma”. 2009 yil. https://shosh.uz/hofiz-kohakiy/
13. Samarqand tarixi. Birinchi tom. (Mas’ul muharrir I.M.Mo‘minov). Toshkent: Fan, 1971. B.227.
14. *Ulugbek Muxammad Taragay.* Zidji djadidi Guragoni. Noviye Guraganovi astronomicheskiye tablisi / (Vstup. statya, perevod, kommentarii i ukazateli Axmedova A.A.) – Tashkent.: Fan, 1994. 456 c.
15. *Shamsutdinov R., Mo‘minov X.* O‘zbekiston tarixi. – Andijon: ADU, 2011. B.164.

Dilfuzaxon Qo‘chqorova,
O‘zDSMI 1-bosqich mustaqil izlanuvchisi

O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQLARIDA ASL MOHIYAT MASALALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodi va xalq qo‘shiqlarining yaratilish tarixi va mazkur qo‘shiqlarning asl mohiyati haqida fikr yuritiladi. Maqola folklorshunos olima M.Alaviya ilmiy merosiga tayangan holda muallifning shaxsiy qarashlari va kuzatuvlari asosida tayyorlangan.*

Kalit so‘zlar: *Folklor, ohang, xalq qo‘shiqlari, motiv, meros, marosim, odat, aytimlar.*

Abstract. *This article discusses the history of creation of folklore and folk songs and the true nature of these songs. The article was prepared based on the personal views and observations of the author, relying on the scientific heritage of the folklorist scientist M. Alaviya.*

Key words: *Folklore, melody, folk songs, motive, heritage, ceremony, custom, sayings.*

Yangi O‘zbekiston ma’naviy taraqqiyotida o‘zbek xalqining urf-odatlari, an’ana va marosimlariga alohida e’tibor berilishi ma’naviy tiklanish jarayoni jadal kechayotgan hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki yoshlarni yangicha ruhda tarbiyalash, ajdodlarimiz yaratgan qadriyatlar mohiyatini keng targ‘ib qilishda an’ana va marosimlar mohiyatini anglash, ularni chuqurroq tushuntirish va keng omma orasiga yoyish har bir ziyoli qatlamning burchi hisoblanadi.

O‘zbek xalq ijodiyoti o‘ziga xos ko‘p qatlam va seruslub musiqiy merosga ega. O‘z tariximizni, milliy urf-odat va an’analarimizni, ma’naviy badiiy merosimizni atroflicha o‘rganish va undan bahramand bo‘lish har birimizning burchimizdir. O‘zbek xalq qo‘shiqlari xalq og‘zaki ijodimizning qadimiy lirik janri hisoblanadi. Topishmoq, maqol, matal bilan bir qatorda xalq qo‘shiqlarining Mahmud Qashqariyning “Devonu lug‘otit turk” kitobidan joy olishi ham bejizga emas [1].

Bundan ko‘rinadiki xalq qo‘shiqlarining o‘sha olis davrlarda ham rang-barang bo‘lganligi, tarixiy ildizlari juda qadimiy bo‘lganligiga ishora qiladi. Bu borada atoqli folklorshunos olima Muzayana Alaviyaning xalq qo‘shqlarini xalqdan olib, xalqga etkazishda beqiyos o‘rni bor. Qo‘shiq dil tarjimoni, ijodkor xalqimiz: “Kuygan ham qo‘shiqchi, suygan ham qo‘shiqchi, kuygan qo‘shiqchi bo‘lar, suygan o‘lanch bo‘lar” – degan so‘zlarni bekorga aytmagan. Ko‘pchilik o‘ylaydiki qo‘shiq, judayam oson, judayam sodda janr deb, aslida qo‘shiq janri o‘ziga hos murakkab janr hisoblanadi. Muzayana Alaviya “Oq olma, qizil olma” to‘plamida o‘tgan asrning 60-70-yillaridagi qo‘shiqlarni yig‘ish bilan birga ularni chuqur tadqiq qiladi. Bu to‘plamda xalqning eng nodir qo‘shiq namunalari to‘plangan, bizning bitmas tugallanmas milliy merosimiz desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Masalan,

Sen qachon kelding eshikka,
Men bilib oh urmadim.
Chiqqali xilvat topolmay,

O‘ltirib qon yig‘ladim.
Borishing bog‘da ko‘rdim.
Kelishingni ko‘chada.
Arzi hol aytay desam,
Uchramading tor ko‘chada.

Yuqorida ikki qo‘shiqning lirik qahramoni va uning ruhiy holati bizga ma’lum. Erki qo‘lda bo‘lmagan, sevgani bilan ochiq gaplashishi va ko‘rinishi mumkin bo‘lmagan bir muntazir mashuqaning ruhiy holati juda sodda va aniq ifodalangan.

Oq uzum, qora uzumni uzdilar,
Shirasini tog‘oraga suzdilar.
Kimning o‘g‘li, kimning qizi dedilar.
Ikkalasi xolavachcha dedilar.

Daryoning nariyog‘ida uylaringiz,
Oqarib ko‘rinadi bo‘ylariniz.
Ipmidi, ipakmidi kiyganingiz.
Bizdanam ortiqmidi suyganingiz.

Qo‘shiq inson qalbining tarjimoni sifatida uzoq yillar davomida ezozlanib kelingan. Negaki haqiqiy qo‘shiqlarda insoniyatning orzu-umidlarini, or-nomusi, mehru-muhabbati, kelajakga bo‘lgan ishonchi so‘z va ohanglar orqali tinglovchiga etkazilgan. Yer yuzidagi barcha xalqlar hayotini qo‘shiqsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Zero, zukko xalqning qalb to‘ridan chiqgan tafakkur durdonalari uzoq tarixiy jarayoni davomida xalqning ma’naviyatini shakllantirgan. Shu bois xalqning turmush tarzi qo‘shiqlarda ifodalagan.O‘tmishda qo‘shiq matnini xalqning eng donishmand, eng tajribali, eng mashhur shoirlari yozishgan.

O‘zbek xalq qo‘shiqlari to‘rtliklarda rivojlangan. Bu qo‘shiqlar iboraning o‘tkirligi, tilning soddaligi, mazmunning tiyranligi bilan ajralib turadi. So‘z va ohang bir qolipda uyg‘unlashgan bo‘lib, ularni bir-birisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ijrochida ham yuqoridagi xislatlar bo‘lishi kerak. Agar qo‘shiqni ichki his-tuyg‘u, muhabbat, shavq-zavq bilan aytmasa,eshituvchilarning qalbidan joy ololmaydi.

Dardu alam kelibdir,
Mening bechora boshimga.
Soyda o‘rdak suzadir,
Ko‘zdan oqqan yoshimga [1].

Bu qo‘shiq badiiy jihatdan ham yuksakdir. “Ko‘zdan oqqan yoshga o‘rdaklar suzadir”. Bu mubolag‘a qo‘shiqqa alohida ruh beradi. Qo‘shiq xalqning jonli ovozida real hayot bilan bog‘langan holda, qahramon kechinmalariga ulanadi, uning butun mazmuni mehnat, mashaqqat, ijtimoiy turmush bilan bog‘langan. Turmushda sodir bo‘ladigan voqealar, maqsad yo‘lidagi kurashda yuz bergan qiyinchiliklar, g‘am-anduh,

shod-hurramliklar qo‘shiqda o‘ziga xoslikda nomoyon bo‘ladi. Bunday holatni boshqa qo‘shiqlarda ham ko‘rish mumkin. So‘z va ohangni uyg‘unlanishini va ajralmas holga kelishiga sababi, har bir adabiy matn o‘ziga xos ritm, o‘lchovga o‘ziga xos badiiy xususiyatlarga ega.Aynan musiqada ham xuddi shu xususiyatlar o‘z ifodasini topganligini kuzatish mumkin. Shuni alohida ta’kidlash joizki, adabiy musiqiy matn qachonlardir, bir kishi tomonidan yaratilganligi ham bizga tarixdan ma’lum. Bunga bir qator xalq qo‘shiqlari, shoirlarning o‘z she’rlariga musiqa bastalaganlari misol bo‘la olishi mumkin. Bugungi kunga kelib, xalq qo‘shiqlarining ohangdorligi kish qalbiga singib ketganligi uchun bir entikish bilan tinglansa, qo‘shiq matnidagi so‘zlar hozirgi hayotimizdan yiroqday tuyiladi misol uchun: yigit bilan qizning “Qoshingni qaro deydilar” aytishuv qo‘shig‘i. Bu qo‘shiqning kelib chiqish davrini hisobga olsak, qo‘shiq 1916-17-yillarga borib taqaladi. O‘zbek xotin-qizlarining aynan paranji chachvonda yurgan davrlarida, ikki oshiq dillarning bir-biriga talpinishdagi entikishni juda go‘zal o‘xshatishlar bilan tariflanishini kuzatishimiz mumkin. Davr taqozosi bilan balog‘atga etgan, yigit va qizning ichki xis tuyg‘ularini, ayniqsa qiz bolani xayo ibosini paranji ostida xam nafis tariflanishi xalqimizning naqadar donoligidan balki zukkoligidan darak beradi.

Yigit: *Qoshingni qaro deydilar,*
Qoraqosh ukam yor-yor.
Ko‘rsat qoshingni men bir ko‘ray,
Zolim ukamo, yor-yor.
Qiz: *Qoshimni ko‘rib nima qilasiz,*
Siz akajonim yor-yor,
Yana akajonim, yor-yor.
Qaldirg‘ochning qanotini-
Ko‘rmabmidingiz, yor-yor [1].

Ko‘rib turibmizki ikki sevishgan yoshning taqdiri birlashish oldidagi uchrashuv, oshiq yigitning bo‘lg‘usi turmush o‘rtog‘ining oy jamolini ko‘rishga bo‘lgan qiziqishi bu qo‘ shiqda nomoyon bo‘ladi. Qo‘shiq har-xil davralarda kuylanib kelingan. 1990-yillarga kelib bu qo‘shiqni estrada yo‘lida ham kuylashdi, turli davrlarda qo‘shq matniga o‘zgartirishlar kiritishib kuylashgan. Shu bois qo‘shiq o‘z mohiyatini bir oz yo‘qotgan. Xulosa shuki, xalq qo‘shiqlari bekorchi vaqt yoki maishiy mazmunda emas, balki o‘z tarixiga ega, mazmun mohiyati inson ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi ijod mahsulidir. Mazkur ijod mahsulini asl holda o‘rganish, o‘rgatish va ijro etish davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alaviya M. O‘zbek xalq marosimi qo‘shiqlari. – Toshkent: Fan, 1974. – 226 b.
2. Sarimsoqov B. O‘zbek xalq marosim folklori. – Toshkent: Fan, 1981. – 288 b.
3. Jo‘rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. – Toshkent: Navro‘z, 2017.

Jasur Turayev,
O‘zDSMI 1-bosqich magistranti

MADANIYAT VA SAN’AT SOHASIDAGI ZAMONAVIY CHET EL TAJRIBALARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda madaniyat va san’at sohasidagi xorijiy tajribalar, ularning xususiyatlari, madaniyat va san’at muassasalariga aholini jalb etishda xorijiy davlatlarda qo‘llanilayotgan zamonaviy usullar va sohada yoshlarga qaratilayotgan e’tibor xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: madaniyat, san’at, yoshlar, muzey, ta’lim, teatr, muassasa.

Abstract. This article talks about foreign experiences in the field of culture and art in Uzbekistan, their characteristics, modern methods used in foreign countries to attract people to cultural and art institutions, and the attention paid to young people in the field.

Key words: culture, art, youth, museum, education, theater, institution.

Bugungi kunda mamlakatimizda madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish borasida sohaga zamonaviy texnologiyalarni va yangi innovatsiyalarni tadbiq qilish, milliy madaniyatimiz va san’atimizni dunyoga tanitish, yoshlarni san’at va madaniyat muassasalariga keng jalb qilish, aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish, san’at va madaniyat muassasalarining moddiy texnik bazasini yaxshilash va boshqa bir qator masalalarda muammoli holatlarni hal qilish, boshqacha qilib aytganda, yurtimizda madaniyat va san’at sohasini har tomonlama taraqqiy toptirish va bu sohada xorijiy davlatlardan ortda qolmagan bir shaklda faoliyat olib borish borasidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va bu masalalarga yechim topish yuzasidan rivojlangan davlatlarning madaniyat va san’at sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini va tajribalarini puxta o‘rganishga, bu xorijiy tajribalarni milliy madaniyatimizga mutanosib shakllarda tadbiq etishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Quvonarisi shundaki, soha vakillari chet el tajribalarini o‘rganish borasida jadal odimlab bormoqdalar, davlat dasturilariga o‘z takliflarini bermoqdalar va bir qanchasi amaliyotga tadbiq qilinishi boshlab yuborilgan.

Quyida madaniyat va san’at sohasidagi xorijiy davlatlarda tadbiq qilinayotgan ba’zi usullar to‘g‘risida so‘z yuritamiz. Xitoyda muzey tashkil etish an’anasi quyidagicha: Xitoydagi hamma ta’lim dargohlarida muzeylar tashkil etilishiga katta ahamiyat qaratiladi. Bu an’anaga aylangan. Deyarli ta’limdagi har bir jarayon muzey tarixida qoldiriladi. Maktab kim tomonidan tashkil etilganligi va yillar davomida kimlar o‘qishgan, qanday o‘qituvchilar faoliyat olib borgan, maktab hayotida qanaqa muhim voqealar sodir bo‘lgan, barcha ma’lumotlar muzeyda saqlanadi. Har bir o‘tish davrining o‘z tarixi bor. Mana shu tarixni asrab qolishning eng yaxshi varianti joylarda muzey

tashkil etish. Bu ham madaniyatning eng yuqori ko‘rinishi. Ayniqsa, har bir ta’limda tashkil etilgan jurnal orqali ham ko‘proq o‘zlari haqida ma’lumot berishlari mumkin.[1]

Angliyada yoshlarni muzeylarga keng jalb qilish maqsadida muzeylarda dars soatlari tashkil qilish yo‘lga qo‘lyilgan, o‘quvchilarning muzeydagi vaqti zerikarli bo‘lib qolmasligi uchun yangi ko‘rgazma ochilishlarida yoki muzey dars soatlarida har bir o‘quvchi vazifalantirilib, vazifasini ortig‘i bilan bajarishiga ko‘ra baholanadi. Bundan tashqari, muzeylarda har bir o‘quvchi o‘z ko‘rgazmasini tashkil qilishi mumkin. [2]

Turkiyada aholiga madaniy xizmat ko‘rsatishning tizimlari mavjud. U yerda maktab va Oliy o‘quv yurti talabalaridan iborat teatr to‘garaklari aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish uchun shartnoma asosida belgilangan tashkilot va hududlarga jalb qilinadi. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar maktablarida kasalxona va qariyalar uylarida teatr jamoalari bepul xizmat ko‘rsatishadi yoki homiylar yordami asosida spektakllar ijro etishadi. Turkiya davlatida teatrlar faoliyati samaradorligi, aholini teatrga keng jalb qilish uchun har bir teatr o‘z repertuarini mamlakat bo‘yicha reklama qiladi. Teatrlar hududlar bo‘ylab muntazam ravishda gastrollarga chiqishadi va spektakllar ijro etishadi. Mutasaddilar har bir teatr bo‘yicha ish olib borishadi. Narhlar hududlar kesimida belgilanadi.

Turkiyada ham san’atga ixtisoslashtirilgan maktablar mavjud va ular 8 yillik bo‘lib, dars dasturlari maktab mutaxassisliklaridan iborat hay’at tomonidan ishlab chiqiladi. Turkiya ta’lim vazirligi bilan kelishiladi. Fanlarning tanlanishi va mazmuni maktab mutaxassislari kengashi tomonidan hal qilinadi. Musiqa va san’at sohasini tamomlagan o‘quvchi davlat standarti bo‘yicha imtihon topshiradi. Keyingi bosqichga o‘tishi uchun to‘plagan bali asos bo‘ladi.[3] Ko‘pchilik insonlarda biror musiqa asbobini chalishga bo‘lgan qiziqish mavjud bo‘ladi. Biroq inson musiqa chalishni xohlasa-yu, lekin notalarni o‘qishni bilmasa, nima qilishi kerak? Barcha musiqiy asarlarni eshitib yodlab olishning esa iloji yoq, lekin musiqa yozish uchun notalardan tashqari yana biror usul bormi? Bu kabi savollarga Finlandiya davlati antiqa yechim topishgan. Ushbu maqsadda Finlandiya davlatida musiqani o‘rganish usuli o‘ylab topilgan. Bu usul rangli rasmlar orqali notalarni o‘rganish usulidir. Rangli rasmlar orqali notalarni o‘rganish usulida, notalar o‘z ranggi va shakli bilan farq qiladi.

Xususan, turli ranglardan foydalanish, rivojlanishda ehtiyoji bo‘lgan odamlar va bolalarga notalar orasidagi farqni yanada aniqroq farqlay olish imkonini beradi. Bu tufayli ko‘pchilik musiqiy asarlarni ular notalarni odatiy uslubiyat orqali o‘rgangan bo‘lganlaridan ko‘ra tezroq ijro etadilar. Bularning barchasi o‘quvchining

---

1 Xitoy: Ta’lim, madaniyat va taassurotlar. https://olmaliqhayoti.uz/ (sayti)

2 “Müzelerin gençleri çekmesi lazım” https://www.milliyet.com.tr/tatil/arkeoloji

3 To‘g‘onboyeva Z. Madaniyat va san’at sohasini rivojlantirishda xorij tajribasi. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 3 Issue 4 / December 2022

rag‘batlantirilishini kuchaytirishga imkon beradi. Ta’lim olish natijasida o‘quvchida bilim o‘zlashtirish qobiliyati shakllanadi, axborotni qayta ishlash va tahlil qilish jarayonlari hamda mavhumalshtirish mexanizmi ham yaxshilanadi. Avvaliga, rangli rasmlardagi nota savodxonligi uslubi, aqliy faoliyatida nuqsonlari bo‘lgan odamlarni musiqaga o‘rgatish uchun ishlab chiqilmoqda edi, lekin so‘nggi vaqtda ushbu uslubdan maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni ham musiqaga o‘rgatish davomida foydalanish mumkinligi belgilab o‘tildi. Bolalar faqat musiqiy asarlarni ijro etibgina qolamay, balki o‘z asarlarini yaratishdan ham quvonch oladilar. Yaponiyada ushbu uslubdan kunduzgi xizmat markazlariga qatnovchi keksalarga musiqani o‘rgatish jarayonida foydalishga e’tibor bermoqchilar. Nota savodxonligiga o‘rgatishning innovatsion uslubi ham akademik, ham kasb-hunar ta’lim muassasalaring tadqiqot mavzusiga aylandi va bitta doktorlik dissertatsiyasi ushbu uslubga bag‘ishlanadi.

Rangli rasmlar orqali notalarni o‘rgatish uslubi bo‘yicha boshqa mamlakatlar bilan hamkorlik o‘sib bormoqda. Hozirgi paytda ushbu uslub bo‘yicha o‘qitish Estoniya, Italiya, Yaponiya, Iralndiya va Latviya kabi davlatlarda olib borilmoqda.

O‘quv qo‘llanmalari Finlandiyadan tashqari, Yaponiya, Estoniya, va Italiyada ham tayyorlangan va chop etilgan[1]. Qatarda musiqaga ixtisoslashtirilgan maktablar mavjud bo‘lib, ular bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. 1-2-bosqichlar tayyorlov kursi bo‘lib 7-8, 8-9 yoshlarni qamrab oladi. Bunda bola maktabga kelganda to‘g‘ridan to‘g‘ri 1-sinfga qabul qilinmaydi. Unda musiqa nazariyasi va musiqa asboblari to‘g‘risida tayyorlov kursi davomida ma’lumotlar berilib o‘rgatiladi. Shu bilan birgalikda, tayyorlov kursida kamida 5 ta musiqa asbobini o‘rganadi. Har bir musiqa asbobini o‘rganish uchun 8 hafta ajratilgan.

Tayyorlov kursini tugatgandan so‘ng bola 1-sinfga qabul qilinadi. Keyingi bosqichlar 8 kursdan iborat bo‘lib, 9 yoshdan boshlanib, 18 yoshda tamomlaydi va diplomga ega bo‘ladi. Darslar vaqtlari sinflar kesimida o‘zgarib turadi. 45 minutdan 120 minutgacha tashkil etadi. 1-sinfda bitta dastur, 2-3-sinfda bitta dastur, 4-5-sinfda bitta dastur, 6-sinfda bitta dastur, 7-8-sinfda bitta dastur asosida o‘qitiladi. Ixtisoslashtirilgan musiqa maktablarining asosiy shiori “Sizning farzandingiz bizning mo‘jizamiz”. Shu bilan birga, “Biz bitta oilamiz” tamoyili asosida ishlaydi. Ixtisoslashtirilgan musiqa maktablarida bolalar hattoki tayyorlov kursi uchun ham pul to‘lashadi. Birinchi sinfga qabul qilingandan to diplom olgunga qadar ham soatlar kesimida belgilangan to‘lovlarni amalga oshiradi. (https://www.qatarmusicacademy.com.qa/fees shu sayt orqali to‘lovlar to‘g‘risida batafsil ma’lumot olishingiz mumkin bo‘ladi).

Qatar davlatida teatrlar faoliyati samaradorligini oshirish va aholini teatrga keng jalb etish maqsadida teatr marketologlari sahnaga namoyish etiladigan spektakllar

[1] Finlandiyaning 100ta ijtimoiy innovatsiyasi.\Finlandiya qanday qilib Finlandiya bo‘ldi: siyosiy, ijtimoiy va maishiy innovatsiyalar. – T.:”Sharq” 2019. 152-153 b.

ro‘yxatini va doimiy ravishda nafaqat broshyura shaklda, balki elektron shaklda ham internet saytlariga joylaydi. Teatrga kiruvchi asossiy tomoshabinlar yoshlarni tashkil etadi. Agarda teatrga tomoshabinlar bilan to‘lsa, qolgan tomoshabinlar onlayn ravishda spektaklni ko‘rishlari mumkin bo‘ladi. Narhlar hududlar kesimida, shuningdek, onlayn va oflayn tizimida ikki narhda belgilanadi.

Kino va teatr seanslariga kirish chiptalari elektron shaklda saytga joylashtirilgan. Bilet narhlari ko‘rsatilgan. Hattoki, Dohadagi bilet narhlari bir qancha davlatlardagi bilet narhlariga nisbatan arzon yoki qimmatligi ko‘rsatilgan. Kinoga kirish narhi 72 dinor (2 kishilik), teatrga kirish 297 dinor (2 klishilik). Musiqa kurslariga oid ma’lumotlar internet tarmoqlarida doimiy ravishda e’lon qilib boriladi. Musiqa maktablarining saytlarida ham reklamalar asosida turli xil musiqiy kurslarning e’lonlari joylashtiriladi. Ixtisoslashtirilgan musiqa maktablarining to‘lov summalari ham saytlarda yoritilgan. Yuqorida madaniyat va san’at sohasidagi chet el mamlakatlarida tadbiq etilgan ayrim usul va tajribalar borasida ma’lumotlar berdik.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tishimiz mumkinki, bugungi texnologiya asrida zamondan ortta qolmaslik, yurtimizda madanyat va san’at sohasidagi muammolarni ijobiy hal etish bilan birgalikda, sohani taraqqiy toptirish uchun, milliy madaniyatimiz va mentalitetimizga mos keluvchi yoki moslashtirish mumkin bo‘lgan xorijiy tajribalarni saralab, puxta o‘rganish, tadbiq etish, madaniy xizmatlar darajasini oshirishda yangi texnologiyalar va metodlardan foydalanish masalalarida rivojlangan davlatlardan o‘rganishimiz lozim bo‘lgan ko‘pgina tajribalar mavjuddir. Zero, “Ilm va izlanish bo‘lmagan joyda hech qanday rivojlanish, yuksalish va umuman, biror-bir sohaning kelajagi bo‘lmaydi”.[1]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xitoy: Ta’lim, madaniyat va taassurotlar. https://olmaliqhayoti.uz/ (sayti)

2. “Müzelerin gençleri çekmesi lazım” milliyet.com.tr/tatil/arkeoloji

3. Ziyodaxon To‘g‘onboyeva. Madaniyat va san’at sohasini rivojlantirishda xorij tajribasi. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 3 Issue 4 / December 2022

4. Finlandiyaning 100ta ijtimoiy innovatsiyasi.\Finlandiya qanday qilib Finlandiya bo‘ldi: siyosiy, ijtimoiy va maishiy innovatsiyalar. – T.:”Sharq” 2019.

5. A.Nurullayev. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini 2023-yilda amalga oshirishga oid davlat dasturiga takliflar tayyorlashda e’tibor qaratiladigan masalalar.

5. Qatar musiqa akademiyasi https://www.qatarmusicacademy.com.qa/ (sayti)

6. Qatar madaniyat vazirligi https://www.moc.gov.qa/en/culture/cultural-centers/ (sayt)

7. Qatar ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi https://musicloungeqatar.com/e-brochure/ (sayt)

8. https://www.qatarmusicacademy.com.qa/programs/arab-music/arab-academic-music-program (sayti)

9. https://zarnews.uz/uz/post/bilim-olish-azobi-vaqtincha-bilimsizlik-azobi-umrbod (sayti)

[1] https://zarnews.uz/uz/post/bilim-olish-azobi-vaqtincha-bilimsizlik-azobi-umrbod

Davlat O‘rozaliyev,
O‘zDSMI 1-bosqich tayanch doktoranti

TARIXIY HUJJATLI FILMNING CHEKSIZ MUNOZARASI

Annotatsiya. Kino san’ati inson ongi va qalbiga kuchli ta’sir ko‘rsata oluvchi beqiyos qudrat va imkoniyatlarga ega. Uning o‘ziga xosligi shundaki, kino qahramonlarining ichki dunyosi so‘z, kinooperator mahorati orqali gavdalantirilgan o‘y-xayol, yirik, o‘rta va umumiy planlar, rejissyorning ijodiy yondashuvi hamda topilmalari, kompozitorning qahramon tabiatiga monand kuy-qo‘shiq yaratishi va boshqa bir qancha faktorlarda o‘z aksini topadi. To‘g‘ri tanlangan mavzu, g‘oya, muhimi rejissyorlik yechimi kabi umumlashmalar tomoshabinni film davomida ro‘y berayotgan voqea joyiga pinhona yetaklaydi. Hujjatli kino ham ayan shu yo‘sinda yaratilishiga qaramay undan to‘lliq haqqoniylik ham talab etiladi. Ammo bugungi kunda hujjatli filmning ba`zi bir shakllarida bunday haqqoniylik qonunlariga amal qilishning iloji yo‘qligi kuzatilinmoqda .

Kalit so‘zlar: hujjatli film, tarixiy hujjatli film, grafika, cgi, film

Annotation. Cinematography has an incomparable power and potential to strongly influence the human mind and soul. Its uniqueness is that the inner world of movie heroes is reflected in words, thoughts embodied through the skill of the cinematographer, large, medium and general plans, the director's creative approach and findings, the composer's creation of a song similar to the hero‘s nature, and several other factors. Generalizations such as a correctly chosen theme, idea, and, most importantly, a directorial solution, secretly lead the viewer to the place of the event that takes place during the film. Despite the fact that a documentary film is created in the same way, it is also required to be completely truthful. But today it is observed that it is impossible to follow such laws of authenticity in some forms of documentary film.

Keywords: documentary film, historical documentary film, graphics, cgi, film

Badiiy filmdan farqli o‘laroq hujjatli kinoning aksariyat turlarida ma`lum bir syujet va ssenariyni yaratishga yoki topishga bo‘lgan ehtiyoj, aktyorlik san`atining ulkan mahoratiga tayanish, dekoratsiya va grim kabi film faktorlari katta ahamiyatga ega bo‘lmaydi. Hujjatli filmning eng asosiy quroli his-hayajonga, fikr va g‘oyaga boy hamda ayni bir lahzalarda bularning hammasini taqdim etuvchi hayotning o‘zidir. Shunchaki o‘sha mikrosekundlarda o‘tib ketishi mumkun bo‘lgan voqeani vaqtni boy bermay tasvirga olish kerak, xolos. Ammo ana o‘sha “aksariyatga” kirmaydigan “tarixiy hujjatli film”larning misol uchun konstuktiv xilma-xilligi cheksiz.

Kino san`atining ayni rivojlanish davrlarida yaratilgan hujjatli filmlar mavzusi odatda ilmiy faktlar va gipotezalar xalq madaniyatini o‘zgarishiga turtki bo‘layotgan yirik voqealar bo‘lgan. Vaholanki, o‘sha davr hujjatli filmlar yetuk namoyondalari tomonidan film mazmuniga jiddiy falsafiy fikr ham singdirilgan. XIX asr so‘ngi yillari hamda XX asr boshi hujjatli va badiiy kino uchun ayni rivojlanish davri edi. Aynan o‘sha davrda barcha ijodkorlar dunyo bo‘ylab yangi g‘oyalar, tomoshabinlarni lol qoldiruvchi voqealarni izlashga tushishgan. Ya`ni tomoshabinlar e`tiborini tortuvchi

egzotik joylar, turli xil xalqlar etnografiyasi, harbiy harakatlar, texnika olamidagi yangiliklar, tabiiy ofatlar kabi o‘zidan shov-shuv chiqaruvchi mavzular kino ijodkorlarining e`tiborini tortgan edi.

2000 yillarda hujjatli filmlarga e`tibor jahon miqyosida juda ham kuchayadi u faqat hujjatli filmlarni namoyish ettiruvchi telekanallar dunyo bo‘ylab ochiladi. Ularga misol qilib Al Jazeera Documentary Channel, Animal Planet, BBC Four, Canal D, Discovery Channel, Discovery History, Documentary Channel, Historia, Nat Geo larni keltirish mumkin, lekin bu albatta wikipediada kiritilgan ro‘yxatning hammasi emas. Aynan shu yillarda hujjatli film olamida keng tarqalgan fenomen dunyoga keladi. Bu hujjatli filmning “tarixiy” deb nomlanuvchi janri hisoblanadi. Tarixiy hujjatli film dilemmasi hamda unga nisbatan fikrlarning dualizmi hech qachon aniq bir yechimga kelib kamaymagan. Zero taniqli britaniyalik kinorejjisyor ta`kidlaganidak “Badiiy filmlarda rejissyor bu xudoning o‘zidir, hujjatli filmlarda esa xudo bu rejissyordir.” (Alfred Xichkok).

Tarixiy hujjatli filmning eng yirik muammosi uning tasvirga olinish jarayonida emas balki uning asosi hamda negizi bo‘lmish adabiyotda yotadi. Aynan adabiyotlardagi keltirilgan tarixning turli davlatlarda turlicha talqin etilishi bu ijodkorlarning o‘zining subyektiv pozitsiyasini hujjatli filmlarida keltirishga undaydi va bu o‘z o‘rnida ma`lum auditoriyaga turlicha ta`sir qiladi. Chunki butun dunyo bilganidak “Tarix g‘oliblar tomonidan yaratiladi, unda mag‘lublar eslanilmaydi”. Albatta bu holatda har qanday tarixiy hujjatli film bo‘lmasin, uning ma`lum qism auditoriyasi u berayotgan faktik voqea hamda diktorlik so‘zlarini yol’gonga yo‘yadilar.

Tarixiy hujjatli film ham o‘z shaklining tarafkashliklariga ko‘ra ma`lum ssenariynavislik qonunlariga bo‘ysunishi kerak. Albatta unda berilayotgan qadrli informatsiyalardan tashqari u hujjatli bo‘lsada u “film”, ya`ni unda drammaturgiyaning oltin qoidalari (kirish, ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, yechim, yakun) bo‘lishi kerak. Aks holda bulardan birontasi ham bo‘lmagan film yetarlicha faktik ma`lumotlarni yetkazsa ham u oddiy tomoshabin uchun yetarli darajada qiziqarli bo‘lmaydi. Bunday film esa undagi ma`lumotlar qanchalik muhimligiga qaramasdan o‘z auditoriyasini topmaydi. Shuning uchun hujjatli filmlar aynan qahramonlar va hikoyalarda tomoshabinni hissiy jihatdan jalb qilishga intiladi. Bu rishtani yaratishning bir yo‘li tomoshabinlarga filmning sub'ektlari o‘zlariga o‘xshash odamlar ekanligini his qilishdir. Tanishuvni o‘rnatish uchun ushbu konventsiya ko‘p jihatdan taqdimot uslubiga bog‘liq. Ammo hujjatl film olamining o‘z aspektlariga bunday qonuniyat hamda adabiyot asnosida yaratilgan hujjatli film o‘z nomi bilan haqqoniylikka to‘g‘ri kelarmikan.

Rus hujjatli filmi otasi Dziga Vertov maktabiga asosan hujjatli film hech qachon sahnalashtirilgan holda tasvirga olinishi kerak emas. Hamda haqqoniy hujjatli film tasviri o‘sha film davri hamda voqea joyining haqqoniy dublikati sifatida tasdiqlanuchi darajasida haqiqatga ega bo‘lishi kerak deya yuritiladi. Ammo bunday ta`kid hamda

belgilar hujjatli filmning deyarli barcha janr hamda sub janrlariga to‘g‘ri kelsada, bunday sloganlardan bir qancha yillardan keyin yaratilgan hujjatli filmning “tarixiy” hamda “fantastik” janrlari-chi?

Tarixiy hujjatli filmlarni yaratishda bugungi kunda ijodkor hech qanday chegaralar bilan to‘silmagan. Unda yagona qonun bor. Bu filmdagi tarixiy ma`lumotlar hamda ko‘rsatilinayotgan tasvirlar faqat va faqat haqiqatligidir. Misol uchun tarixiy allomalarmizning hujjatli filmini tasvirga olayapmiz deya tasavvur qilaylik. Unda bir tarixiy allomalarimizning rekonstruktiv obrazlarining harakati hamda ular tomonidan aytilayotgan har qanday replika tarixiy adabiytolardan tasdiqlanishi kerak, ikki tarixiy hujjatli film diktor ovozi(narrativlik)ga qurilgan bo‘lsa unda diktorning har bir gapi tarixiy adabiyotlar bilan tasdiqlangan bo‘lishi darkor. Bu yo‘sinda tasvirga olishda ijodkorlar albatta kino grafikasidan ham foydalanishlari mumkin. Chunki tarixiy hujjatli film ko‘rsatayotgan davr hali video ham foto ham kashf qilimagan va hech qanday arxiv materiallar bo‘lmagan davr bo‘lishi mumkin. Yuqorida tarixiy allmomalarimizning misolini bejizga keldirmadim, chunki ularning davrida foto hamda video arxiv materiallar u yoqda tursin, oddiy tasviriy san`atning portret janrini yaratishning ham imkoni bo‘lmagan. Bunday davrni tasvirlashda albatta ishonchli tarixiy adabiyot sifatida yetuk hamda mashxur tarixchining fikrlardan foydalaniladi. Bunday hujjatli film haqqoniy bo‘lishi uchun u “talking head” (intervyu beruvchi) uslubida yaratilib, mana shu intervyu berayotgan mashxur tarixchining har bir ta`kidlagan va fakt deya talqin qilayotgan gaplari asosida ma`lum bir rekonstruktiv kadrlar yoki kompyuter grafikasiga asoslangan muhit yoki CGI lar yaratiladi. Shunda ham hech qanday tarixiy hujjatli film to‘laqonligicha haqqoniy deya ta`kidlab bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Blain Brown. Cinemtography: Theory and practice. -New York, 2002.
2. Meliqo‘ziyev I. Cinematographer’s ability in the creation of graphic image in uzbek historical films. International journal of advanced science and technology, 29 (05), 1554-1567.
3. Abul-Kasimova X. Кино и художественная культура Узбекистана. – T.: “Fan”,-1991.
4. H. Ikromov; O‘zbekiston Davlat san’at instituti. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2009. – 100 b.
5. Киноискусство узбекистана: вчера и сегодня И.М. Меликузиев
6. O‘zbekiston hujjatli kinosi: Mustaqillik davri, 1991-2007 yillar/Tuzuvchi va mas’ul muharrir S. Haytmatova; OAJ O‘zR ilmiy-ommabop va hujjatli filmlar kinostudiyasi, O‘zbekiston badiiy akademiyasi San’atshunoslik instituti. – T.: ART FLEX, 2008. – 116 b.
7. O‘zbekiston san’ati: Globallashuv va milliy o‘ziga xoslik. Yosh olimlarning ilmiyamaliy konferensiyasi materiallari. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2004. – 58 b.
8. https://www.thrillist.com/entertainment/nation/best-amazon-prime-documentaries
9. https://en.wikipedia.org/wiki/Documentary_film
10. https://topdocumentaryfilms.com/

Gulshoda Aliyeva,
O‘zDSMI 1-bosqich magistranti

JALOLIDDIN RUMIY FALSAFASIDA TARBIYA MASALASI

Annotatsiya. Ushbu makolada Shark ulug donishmandi, benazir shoir va betakror mutafakkir Jaloliddin Rumiyning falsafiy va ma’naviy karashlari xamda uning kimmatbaxo asarlarida bayon kilingan purma’no xikmatlari xususida fikr boradi va ulardan namunalar keltiriladi. Bugungi suz kadri arzonlashib borayotgan bir zamonda, Sharkning ilmu donishi, ma’naviyatini kancha kup va xub uzlashtirsak, fikrimiz shuncha ravshan, ruximiz shuncha bardam buladi.

Kalit so‘zlar: Jaloliddin Rumiy, falsafa, tasavvuf, kalb, ishk, Masnaviy, ma’naviy, tafakkur.

Abstract. This article discusses the philosophical and spiritual views of the great sage Shark, unique poet and unique thinker Jalaluddin Rumi, as well as the purmano wisdom expressed in his precious works, and examples of them are given. In today's era of cheap swimming, the more we combine Shark’s knowledge and spirituality, the clearer our thoughts and the stronger our spirit will be.

Keywords: Jalaluddin Rumi, philosophy, mysticism, soul, love, Masnavi, Spiritual, thought.

“Tilingdan oldin qalbingni tarbiya qil,
Chunki so‘z qalbdan kelib, tildan chiqadi”.
Jaloliddin Rumiy

Movaraunnahr – ulug‘ allomalar, aziz – avliyolar yurti. Dunyo xalqlari qolaversa, Musulmon Sharqi Movaraunnahrga o‘zga bir mehr nigohi bilan qaraydi. Uluh allomalari ko‘p bo‘lgan yurt ma’rifatli el hisoblanadi. Unutilgan qadriyatlarni tiklash- allomalar hayoti va ijodi bilan tanishish dillarni poklashga, e’tiqodni mustahkamlashga ko‘mak beradi. Bir-ikki kunda dilni poklash qiyin. Beshikdan qabrgacha o‘qib –o‘rganish, ilm-fan, go‘zal axloqiy sifatlar orqali dilni poklash, e’tiqodni mustahkamlash, uni hayot va ijod ehtiyojiga aylantirish lozim bo‘ladi. Ma’lumki, vatanimiz dunyo sivilizatsiyasi va turli xalqlar madaniyatiga ushbu zaminda tug‘ilib, ta’lim olgan buyuk alloma va mutafakkirlarining ilmiy merosi orqali mazmun bag‘ishlab, hozirgi zamonaviy ilm-fanning ilk poydevorini qo‘ygan va rivojlantirgan. Ana shunday tengsiz avlodlar merosini chuqurroq o‘rganish va jahonga yoyish, ularning ibratli hayot yo‘llari va boy ilmiy-ma’naviy merosini har tomonlama o‘rganib, xalqimizga yetkazish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirildi. Davlatimiz rahbari ayni shu jihatni e’tiborga olib: “Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy- ma’naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim.Avvalombor, milliy ta’lim tizimini ana shunday ruh bilan sug‘orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma’naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur“ (1).

Bu o‘lmas meros egalaridan biri, shoir va tasavvuf ilmining yetuk vakillaridan bo‘lmish faylasuf olim Jaloliddin Rumiydir. Asli Balxda tug‘ilgan ulug‘ alloma va mutafakkirning otasi Bahoviddin o‘z davrida taniqli olim bo‘lgan, Najmiddin Kubroning shogidi edi. Mug‘ullar istilosi tufayli Jaloliddin Rumiy otasi bilan vatandan chiqib ketishga majbur bo‘ladi va Kichik Osiyo (Kuniya)ga borib o‘qiydi hamda mudarrislik qiladi. Jaloliddin ota yurtiga qaytib kelmaydi va o‘zini Anatoliyalik hisoblab, Rumiy degan taxallus oladi. U fors – tojik, arab va turkiy tillarda ijod qilib o‘zining mashhur asarlarini yaratadi.

Jaloliddin Rumiy o‘z davrida Mavlono Rumiy nomi bilan jahonga ham tanilib, G‘arbda Kant, Spinoza, Xegel kabi faylasuflar bilan qiyoslanadi. Jaloliddin Rumiyga rus tarixchisi E.Bertels yuksak baho berib , shunday deydi: “Jaloliddin lirikasi bo‘ sohada bashariyat erishgan eng buyuk yutuqlardan biridir. Agar u G‘arbda kengroq ma’lum bo‘lganida uning nomi jahon adabiyotining Shekspir, Gyote, Pushkin kabi gigantlar qatoriga o‘tishi shubhasiz edi”. (2)

Jaloliddin Rumiyning ijodi Fariduddin Attorning ta’sirida shakllanadi. Fariduddin Attor Nishopurda bo‘lgan chog‘ida Rumiy bilan uchrashadi va o‘zining “Asrornoma” asarini tuhfa tariqasida beradi.Allomaning Shams Tabriziyga bag‘ she’riy devoni o‘sha davrda “Devoni Shams Tabriziy” nnomi bilan mashhur bo‘lgan. Bu devon 30 ming baytdan iboratedi. Jaloliddin Rumiy o‘zining 27 ming baytdan iborat “Masnaviy Rumiy”ini qariyb o‘n yil davomida yozib tugallagan. B u asar Alisher Navoiy so‘zlari bilan aytganda”qoyili masnaviy ma’naviy g‘avvosi bahri yaqin”ligi bilan ajralib turar edi. Navoiy olti daftardan iborat “Masnaviy- ma’naviy” asarini baholab, muallifni ilohiy ishq kuychisi, buyuklikning ko‘z ilg‘amas cho‘qqisi deb ta’riflaydi.

Shoir o‘zining masnaviysida xalq hikoyalari asosida mazmunli, yumorga, badiiyatga boy jonli novellalar yaratgan. Ularda usta adib o‘z asarining qahramonlarini hayvonlar nomi bilan atab, mistik tushunchalarni emas, real g‘oyalarni ilgari suradi, hayotiy voqea va hodisalarga ishora qiladi. Ushbu asar insonni fikrlashga, fikrlash orqali xaqni – Yaratganning tushunishga undaydi. Asar avvalo, inson xaqida siz xaqingizda, men xaqimda, umuman, hammamiz haqimizda.. Bizni o‘zligimizni bilishimiz xaqida bo‘lib, inson ko‘nglida mudrab yotgan umidning qayta uyg‘onishiyu, qad rostlashiga ko‘mak beradi Uning falsafasining asosida bir g‘oya borki, Rumiyni bir millat bir jamiyat yoki bir zamongagina taalluqli qilmay uni hamma uchun va hamma zamonlar uchun qadrli aylagan asos-xazratning sifat va alomatlari emas, balki mohiyatiga – insonning o‘zagiga e’tibor berganligidir.

Chunki, zohir – tashqi ko‘rinishga qarvlganda insonlar har xil, ularning mohiyati, ildizi, tabiati, ehtiyojlari va borar joyi esa mushtarak. Shuning uchun, inson qaysi millat, qaysi jamiyat, qaysi guruh va qaysi zamonga aloqadorligidan qat’iy nazar, o‘ziga tegishli mavzular teran va asosli asosda talqin qilinganidan Rumiy asarlari atrofida go‘yo bir oilaning farzandlariday to‘planishadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, Rumiy ming

yillar davomida to‘planib kelgan Sharq falsafasi va hikmati, islomiy haqiqatlarni omixta etolgan, tasavvuf va falsafani qo‘shib, inson rug‘i dialektikasini ochgan ulug‘ mutafakkirdir. Masalan: Jaloliddin Rumiy hikmatlaridan: Ming yil o‘qisamu, mendan nimani bilding deb so‘rasalar, ”xaddimni bildim” deyman;

Gulning go‘zalligi urug‘idan, insonning husni qalbidandir;
Odamlar suvratini bezasa, sen siyratingni beza!
Odamlar boshqalar aybidan so‘z ochsa, sen o‘z qusuringni o‘yla;
Ey do‘st, men Majnun emasman, ammo chaqirsang cho‘lu-biyobonga boraman!
Ishq azobi tortmagan yurak, yo telbaning, yo murdaning yuragidir;(3).

Jaloliddin Rumiy ayni zamonda buyuk faylasufhambo‘lgan. U “Mavlaviy” nomi bilan ataluvchi tasavvuf maktabining asoschisi ham bo‘lib, faylasufning “Masnaviyi ma’naviy“ (25700 baytdan iborat tasavvufiy-ishqiy asar) va “Fihi mo fihi” (“Ichindagi ichindadir”), (“Unda qanday bo‘lsa, bunda ham shunday”) asarlarida hurfikrlilik va nazariy tafakkur, taraqqiyot muammolari ilgari suriladi. Uning falsafiy dunyoqarashidagi asosiy g‘oya zo‘rlik va zulmni qoralash, haqiqat va adolatni tarannum etishdan iboratdir. Allomaning fikricha, inson o‘z xulqini idora qilishda ozoddir, ya’ni yomon xulqjan qutulib yaxshi xulqqa intiladi.

Xulosa qilib aytganimizda, jahon adabiyotining muazzam siymolaridan biri Jaloliddin Rumiy o‘zidan keyingi Shark va Garb suz san’atiga katta ta’sir utkazdi. Xofiz Sheroziy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mirzo Abdulkodir Bedil kabi buyuk suz ustalari Mavlononi uzlariga ustoz deb bilishgan.Jaloliddin Rumiyning badiiy va falsafiy ilmiy merosi xaliimizning ma’naviy boyligidir, u asrlar osha avlodlarga xizmat qilaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi Uzbekiston strategiyasi. – Toshkent: “Uzbekiston nashriyoti”, 2021-yil. 464 bet.
2. Bertels E. Ocherki istorii persidskoy literaturi. L.: 1928.133b.
3. Rumiy Jaloliddin. Ichindagi ichindadir: Falsafiy-ma’rifiy asar. T.: Yangi asr avlodi, 2013-yil-240 bet.

Feruza Davlatova,
O‘zDSMI 1-bosqich magistranti
To‘ychiboy Bayturaev,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
p.f.n.dotsenti

ABU NASR FOROBIY NASHRLARI VA ULARNING BIBLIOGRAFIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘rta Osiyolik alloma Abu Nasr Forobiy falsafiy, ilmiy qarashlari va uning faoliyatini o‘rgangan olimlarning nashrlari, ular tomonidan tuzilgan bibliografik qo‘llanmalar tahlil qilingan. Bibliografik ko‘rsatkichlar mazmuni, o‘quvchilari, maqsadi va vazifalari bo‘yicha tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar : nashrlar, tipologiyasi, turlari, mazmuni, kitobxonlari

Abstract. This article analyzes the philosophical and scientific views of the Central Asian scientist Abu Nasr Forobi and the works of scientists who studied his work, as well as the bibliographic reference books they compiled. Bibliographic indicators are analyzed by content, readers, topics and tasks.

Key words: genres, typology, types, content, readers.

Forobiy insonparvar mutafakkir sifatida erkinlik, umumbashariy tenglik, o‘zaro hurmat va to‘liq farovonlikka asoslangan kelajak ijtimoiy tuzum timsolini yorqin tasvirlab bergan, u shunday ideal tuzum sari yo‘lni aql, ilm-fan va bilimning g‘alabasida ko‘rgan; Forobiy o‘zaro feodal urushlari, talon-taroj va musodaralarsiz, yolg‘on va adolatsizliklarsiz, tinch va farovon jamiyatni, farovonligi xalq ijodi va o‘zaro yordam asosida barpo etilishini orzu qilgan. Bu mulohazalarning utopik tabiati ularning o‘z davri uchun ulkan progressiv ahamiyatini kamaytirmaydi. Forobiyning radikal g‘oyalari nafaqat Sharq mamlakatlari, balki G‘arb mamlakatlaridagi ilg‘or odamlarning ko‘p avlodlarini ilhomlantirgan. Jumladan, Forobiy g‘oyalari Ibn Sino, Beruniy, Nizomiy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, keyinchalik Bedil, Ahmad Donish va boshqa mutafakkir, yozuvchi va shoirlarning dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatgan.

O‘zbekistonlik yirik olim M.Xayrullayev Forobiyning ulkan ilmiy merosini sinchiklab o‘rgangan olimlardan biri hisoblanadi. U har qanday olimning faoliyatini o‘rganish uchun uning va u haqidagi nashrlarning o‘rganilishi kerakligini yaxshi biladi. Bu olim allomaning nashrlari bo‘yicha ilmiy–yordamchi bibliografiyani tuzganligi bilan ham ajratib ko‘rsatilishi mumkin. Olim barcha mamlakat olimlarining nashrlarini to‘liq o‘rganish uchun Sharqshunoslik instituti, moskvalik va olmaotalik olimlarni ham hamkorlik qilish yo‘llarini qidiradi. Olim Forobiy asarlari qo‘lyozmalarini o‘rganish uchun butun boshli tarjimonlar guruhini shakllantirib ishlarni yuritadi. Bu tarjimonlar guruhi Forobiyning arab tilida yozilgan qo‘lyozmalarini O‘zbekitson fondlarida

borlarini to‘liq tarjima qilib maqsad, vazifasini aniqlash va ularning kitobxonlarga tavsiya qilishni osonlashtirish uchun bibliografik qo‘llanmalar uchun har adabiyotning obzorini berib o‘tgan.

Forobiy zamondoshlaridan keyin hozirgi davrrda Forobiy haqida izlanishlar olib borgan olimlarining izlanishlari uchun ilmiy–yordamchi bibliografiyasini tuzish yo‘lga qo‘yilgan. O‘rta asrlar falsafa tarixini tadqiq etuvchi ijodiy izlanishlar uchun barcha turdagi bibliografik qo‘llanmalarni tuzish uslubiyatini yaratishda mamlakatimiz olimlarni yo‘nalishlarini o‘rganish muhim ahamiyatga egadir. Fan fidoiylari uchun adabiyotlar tavsiyasida ilmiy nashrlarning to‘liq zarur sharoit yaratib berardi.

Ushbu nashr al-Forobiy yubileyiga tayyorlandi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar depozitarida saqlanayotgan al-Forobiyning 18 ta qo‘lyozmasining batafsil ilmiy tavsifi va olimning kam o‘rganilgan risolasining ilmiy tarjimalari berilgan Bu qo‘lyozma nashrlarda metafizika, fizika, mantiq va o‘rta asr falsafa va tabiatshunoslikning boshqa sohalarga oid masalalar o‘rganilganligini alohida ko‘rsatish mumkin. B.V.Lunin o‘zining umumiy falsafiy asarlarini tahlil qilish bilan bir qatorda ijtimoiy-siyosiy hayot muammolari va ijtimoiy tuzilmaning tabiati, axloqi, tarbiyaning vazifalari va shakllari va boshqalarni o‘rganuvchi risolalarini ham alohida ta’kidlaydi (“Kitob qarashlari”, “Ideal fuqaro”, “Fuqarolik siyosati”, “Urush va tinchlik kitobi”, “Jamiyatni o‘rganish bo‘yicha kitob”, “Fazilat etikasi”).[1]

Forobiy faoliyatini o‘rganuvchi bu ilmiy nashrda fanlarni tasniflash, dunyoni ilmiy tushunish, davlat ilmiga katta hissa qo‘shgan O‘rta asrlarning yirik olim-ensiklopedisti, o‘rta asr faylasuf-gumanisti Abu Nasr Forobiyning falsafiy va ijtimoiy-siyosiy g‘oyalari yoritilgan, axloq ta’limoti, tibbiyot, musiqa nazariyasi bo‘yicha nazariy qarashlari sharhlangan va barcha ilmiy izlanishlarni olib boruvchi kitobxonlar uchun mo‘ljallangan. Kitobda Forobiy haqidagi adabiyotlar ro‘yhati va uning alohida risolalarining tarjimalari keltirilgan. U mutafakkir tavalludining 1100 yilligiga bag‘ishlangan bo‘lib, keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan.[2] Monografiyada al-Forobiy falsafasining asosiy muammolari va ularning Sharq peripatetizmi falsafasida yanada rivojlanishi yoritilgan. Mualliflar tarixiy-falsafiy, aksiologik va qiyosiy yondashuvlarga asoslanib, o‘rta asr mutafakkiri g‘oyalarining zamonaviylik bilan ma’naviy bog‘liqligini ko‘rsatadilar, O‘rta Osiyo mamlakatlarida forobshunoslik fanining rivojlanishi natijalarini tahlil qiladilar va umumlashtiradilar.

Ilmiy tadqiqotchilar, aspirantlar, oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari va o‘tmish ma’naviy madaniyati tarixi bilan qiziquvchi barchaga murojaat.

---

1 Фараби-крупнейший мыслитель средневековя: К 1100-летию со дня рождения Абу Насра Фараби / М.М. Хайруллаев. – Ташкент: Фан, 1973.

2 Ал-Фараби и развитие восточной философии/ А.Н. Нысанбаев – Астана: Елорда, 2005. – 325 с.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lunin B.V. O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar tarixshunosligi shakllangan; Biobibliografik ma’lumotnoma. – Toshkent, “Muxlis”, 1974. – 423 b.
2. Байтураев Т.Д. Библиография изданий ГА Пугаченковой как источник краеведческой библиографии/ /Вестник Санкт-Петербургского государственного института культуры, 2021.- №2(47).- 170-173.
3. Байтураев Т.Д. Библиография Бабура и Бабуридов// Вестник Санкт-Петербургского государственного института культуры, 172-175.

E’zoza Eshnazarova,
O‘zDSMI magistranti

SHARQ ALLOMALARI VA MUTAFAKKIRLARINING O‘RTA ASRLARDAGI ILMIY- TARIXIY QARASHLARINING, YOSHLAR AXLOQIY TA’LIM-TARBIYASIDAGI O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada hozirgi kunda yoshlarimizning ta’lim-tarbiya masalasining bugungi kundagi dolzarb masala ekanligi ko‘rsatib berilgan. Bunda sharq allomalari va mutafakkirlarining o‘rta asrlardagi ilmiy merosi, ilmiy-tarixiy qarashlarining yoshlar axloqiy ta’lim-tarbiyasi masalalarining yoritilishida muhim ahamiyatga ega ekanligi, sharqona tarbiyaning falsafiy mazmuni yoshlar tarbiyasida harakatlantiruvchi kuch sifatida qanday na’moyon bo‘lishi haqida sharq mutafakkirlarining tarbiya borasidagi ilm-ma’rifatga oid fikrlari hamda ularning asarlari asosida misollar keltirilib yozilgan.*

Kalit so‘zlar: *sharq mutafakkirlari, madaniyat, ma’naviyat, ma’rifat, ta’lim, tarbiya, axloq, ilmiy meros, komil inson.*

Annotation. *This article shows that the issue of education of our youth is an urgent issue today. In this regard, the scientific heritage of the scholars and thinkers of the Middle Ages, the scientific-historical views are important in illuminating the issues of moral education of the youth, and how the philosophical content of the Eastern education is manifested as a driving force in the education of the youth. examples are given and written on the basis of their thoughts and works.*

Keywords: *Eastern thinkers, culture, spirituality, enlightenment, education, upbringing, morals, scientific heritage, perfect human being.*

Barchamizga ma’lumki hozirgi kunda kelajagimiz poydevori bo‘lgan yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashda, sog‘lom ijtimoiy-ruhiy muhitni yaratib berishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirmasdan turib, xalqimiz hayoti va turmushi yuksalishida hamda mamlakatimiz taraqqiyotida muvaffaqiyatlarga erishish qiyin. Qolaversa, ma’naviyat davlat ahamiyatiga molik masalaga aylandi. Yoshlarimizni ma’naviyatli, madaniyatli, talim-tarbiyasi yuksak yoshlar sifatida ko‘rishimiz uchun avvalo biz yoshlarimizni sharqona axloq-odob va umumbashariy g‘oyalar ruhida kamol topgan inson qilib, tarbiya qilib ulg‘aytirishimiz

lozim. Sharqona axloq-odob va umumbashariy g‘oyalarni ongiga singdirib olgan yoshlar esa yuksak ma’naviyatli, madaniyatli kishilardan hisoblanadi.

Muhtaram Prezidentimiz Toshkentda bo‘lib o‘tgan Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqida “…buyuk ajdodlarimiz bo‘lgan islom olamining mutafakkirlari asarlarini, ularning butunjahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan bebaho hissasini chuqur o‘rganish, teran anglash va keng ommalashtirish alohida ahamiyatga egadir. Bu masala yoshlarda ilm-fanga va ta’lim olishga intilish tuyg‘usini kuchaytirish, barcha jamiyatlarda islom qadriyatlari va madaniyatini to‘g‘ri anglash hamda qabul qilish, dunyoning barcha xalqlariga Islom dinining haqiqiy mazmun-mohiyatini yetkazish uchun muhimdir” deb uqtirgan.

Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasi minbaridan turib ham “Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz” deb, bu fikrni yana bir karra ta’kidladi.

Bundan tashqari Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizning barqaror taraqqiyotiga, qadriyat va urf-odatlarga hamda insonparvarlik g‘oyalariga xavf soluvchi turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi samarali targ‘ibot ishlarini olib borish, aholining ijtimoiy-ma’naviy hayotida bunyodkorlik g‘oyalarini kuchaytirish, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlash maqsadida “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-sonli Qarori [1] qabul qilingan. 2019yil 31dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sonli Qarori [2] e’lon qilinib, 8-bob va 70-banddan iborat uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi ilova qilindi. Shuningdek, ushbu konsepsiyada uzluksiz ma’naviy tarbiyani oilada, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim tizimi, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan hamda band bo‘lmagan yoshlar o‘rtasida amalga oshirish bo‘yicha vazifalar ko‘rsatib berildi.

Ta’kidlash joizki, yoshlar axloqiy tarbiyasida o‘rta asr Sharq mutafakkirlari qarashlarining roli beqiyosdir. O‘rta asrlardagi Sharq uyg‘onish davrining mutafakkirlari – zamonaviy matematika, trigonometriya va geografiya fanlari taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan Muso al-Xorazmiy, algebra faniga asos solgan, ismi-sharifi butun dunyo qo‘llaydigan “algoritm” atamasiga aylangan Al-Xorazmiy, o‘sha davrlardayoq asosiy astronomik asbob – usturlob nazariyasini ishlab chiqqan Ahmad Farg‘oniy, dunyo ilm-fanida birinchilardan bo‘lib dengizlar nazariyasi va

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307- sonli Qarori

2 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059- sonli Qarori.

Yerning sharsimon globusini yaratish yuzasidan o‘ziga xos yangi g‘oyalarni taklif etgan Abu Rayhon Beruniy, eng buyuk mutafakkirlaridan biri, “Tabiblar shohi” unvoniga sazovor bo‘lgan Abu Ali ibn Sinolarning islom sivilizatsiyaga qo‘shgan beqiyos hissalari jahonda e’tirof etiladi.

Bizga ma’lumki, Sharq Uyg‘onish davrida, Amir Temur va Temuriylar davrida ilm–fan va madaniyat yuksalgan davr bo‘lgan. Davoniy ham ushbu davrning ilm–fan va axloqiga ulkan hissa qo‘shgan qomusiy olimdir. U Foniy tahallusi bilan ijod qilgan. Uning she’rlari Eron va Iroqda chop etilgan. Davoniyning eng mashhur asari bu “Axloqi Jaloliy” deb nomlanadi. Mutafakkir o‘z asarida yosh avlodni tarbiyalash va uni yaxshi kasb hunar va malakalarni egallashi to‘g‘risida so‘z yuritar ekan, avvalo inson jamiyatda, atrofdagilar bilan o‘zaro munosabat natijasida kamol topishini uqtiradi.

Yuqorida nomlari keltirilgan allomalarimiz asosan o‘rta asrlarda ilm-ma’rifat yuksak darajaga yetgan "Birinchi hamda Ikkinchi renessans davri"da yashab faoliyat yuritishgan. Bu davrlarda yashagan allomalar tomonidan yaratilgan ilmiy va ma’naviy-ma’rifiy meros jahon ilm-fani taraqqiyoti uchun munosib xizmat qilgan va qilmoqda. Balki shu davrdagi ilm-fan va madaniyatni yuqori chuqqiga chiqqanligi, o‘sha davrda ilm-fan tili bo‘lgan arab tilida yozilgan ko‘plab asarlarni boshqa tillarga, jumladan lotin tiliga hamda boshqa ko‘plab tillarga tarjima qilingani orqali o‘rta asr sharq allomalarining ilmiy asarlari yevropa mintaqasiga kirib borganligi uchun ham nemis olimi Xerler “Sharq Yevropaning muallimidir”[1] bejizga deb bezijga aytmagan.

Ta’lim-tarbiya masalasi islom dinining ham asosini tashkil etadi. Islom dini insonlarni ilmga targ‘ib-tashviq etadi va ma’rifatga yetaklaydi. Biz buni Qur’oni karimning qator oyatlari va ikkinchi muqaddas manba bo‘lgan hadisi shariflarda ilm o‘rganish kerakliligiga oid ko‘rsatamalar berilganligidan ko‘rishimiz mumkin. Xususan, Qur’oni Karimning ilk nozil bo‘lgan oyatining o‘zi ham “Iqro!”- (“O‘qi!”) deb boshlanishi yoki “Ilm izlab Chinga bo‘lsa-da, bor” deyilgan hadislarini misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin.

Mazkur muqaddas manbalar bilan birga ilm-ma’rifati, ilmiy va ma’naviy merosi butun dunyoga mashhur bo‘lgan ulug‘ allomalarimizning pand-nasihatlari va o‘gitlari ham insonni ilmli bo‘lishga va ma’rifatli hayot kechirishga qaratilgan. Mashhur mutafakkir va qomusiy olim, Abu Nasr Farobiy asarlarida ilm-ma’rifatni yuqori darajaga ko‘taradi, uning qarashlari diqqat markazida ilmli, ma’rifatli-ma;naviyatli inson turadi.

Arab tarixchi olimi Ibn al-Qiftiyning aytishicha Abu Nasr Farobiyning “Ihso al-ulum va at-ta’rif” (“Ilmlar sanog‘i va ularning ta’riflari”) degan qutlug‘ kitobi bor. Ibn al-Qiftiy: “Bunday asarni yozishda shu paytgacha Abu Nasrdan hech kim o‘zib ketolmagan, hatto bu xil fikr-mulohazalarni ungacha hech kim ayta olmagan. U kishi

[1] https://www.academia.edu/111782407/OZBEKISTON_RESPUBLIKASI_OLIY_TALIM_FAN_VA_INNOVATSIYALAR_VAZIRLIGI_A_QODIRIY_NOMIDAGI_JIZZAX_DAVLAT_PEDAGOGIKA_UNIVERSITETI

yetishgan darajaga erisha olmagan, bironta ham tolibi ilm yo‘qki, u tutgan to‘g‘ri yo‘ldan foydalanmagan bo‘lsin” [1] deb aytganlar.

Abu Nasr Forobiy o‘zining mashhur “Fozil odamlar shahri” asarida ham ta’lim masalasiga alohida ahamiyat beradi. Xususan u asardagi “Fozillar shahri hokimining fazilatlari haqida so‘z” bo‘limida bunday shaharga hokim bo‘ladigan podshoh o‘n ikki xislatga ega bo‘lishi haqida tuxtaladi. Mazkur xislatlarning oltinchisida hokim (ustozlardan) ta’lim olishi, bilim, ma’rifatga havasli bo‘lishi, o‘qish, o‘rganish jarayonida sira charchamaydigan, buning mashaqqatidan qochmaydigan bo‘lishi zarur” [2], deb ta’lim masalasini ulug‘laydi. Haqiqatdan ham har qanday hokim yoki podshoh o‘zi ilmli va ma’rifatli bo‘lsagina xalqini ham shunday bo‘lishiga sharoit yaratadi, ilm ahlini qadrlaydi va ularga g‘amxo‘rlik qila oladi. Bu esa o‘z navbatida o‘sha jamiyatni yanada taraqqiy etishiga zamin yaratadi. Sharq olamida “Shayx ur-rais”, G‘arb olamida esa “Avitsenna” nomi bilan tanilgan Abu Ali ibn Sinoning qarashlarida ham ta’lim va tarbiya masalasi yuqori o‘rinda turgan. Biz buni allomaning bizgacha qoldirgan ilmiy va ma’naviy merosi orqali bilishimiz mumkin. Allomaning qarashlarida ta’lim va tarbiya masalasida avvalo oilaning o‘rni nihoyatda katta ekanligi, xususan farzand tarbiyasi borasida aqlli onaning zimmasida ekanligini kuzatamiz.

Abu Ali ibn Sinoning “Axloq haqidagi risola”sida ko‘pgina axloqiy xislatlar qatoriga ilm-ma’rifatli bo‘lish kabi fazilatlar haqida ham tuxtalib o‘tadi. Alloma insonlarni kamolotga yetishishlari uchun avvalo ma’rifatli bo‘lishlari kerakligini uqtiradi. Abu Ali ibn Sino asosan yoshlarga ta’lim berishda uning yoshiga ahamiyat berishni, yengildan og‘irga qarab harakat qilishga undaydi. Allomaning fikricha, “Yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, odatlanish natijasida vujudga keladi”, shuning uchuna ham inson tarbiyali bo‘lishi va yaxshi narsalarga odatlanishi zarur.

Husayn Voiz Koshifiyning bebaho axloqiy merosi barkamol avlod tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi. U o‘z asarida bola tarbiyasiga juda katta e’tibor qaratadi. Bolaga iloji boricha yaxshi ta’lim tarbiya berish kerak, shunda u ezgu xislatlarni o‘zlashtiradi. Bolaning ongi beg‘ubor va musaffo, uni zararli illat va salbiy odatlardan saqlamoq lozim, deydi alloma. Koshifiy bolani yoshligidanoq o‘z qiziqishi va qobiliyatiga qarab, biror kasb hunarga yo‘naltirish va unga o‘z ustida izlanishi uchun shart–sharoit yaratib berish lozim deydi. Bunda bevosita ota–ona va muallimning naqadar ma’sul bo‘lishini uqtiradi. Koshifiy komil insonning o‘n xil fazilatlarini keltiradi:

Birinchisi, xayrli ishlarda insonlar bilan nizoga bormaslik;

Ikkinchisi, har qanday holatda ham, his tuyg‘u va ehtirosni jilovlay olish.

Uchinchisi, birovlarning aybini, nuqsonini qidirmaslik.

---

1 Fozil odamlar shahri. Abu Nasr Forobiy. 13-bet.

2 Fozil odamlar shahri. Abu Nasr Forobiy. 245-bet.

To‘rtinchisi, insonlar baxtsizligiga hamdard bo‘lish**.**

Beshinchisi, bir inson ayb ish qilsa, va u o‘z aybiga iqror bo‘lsa, uni kechirmoq**.** ***Oltinchisi***, yordamga muhtoj insonlarga, qo‘ldan kelgancha yordam bermoq.

Yettinchisi, insonlar baxt–saodati uchun g‘amxo‘rlik qilish.

Sakkizinchisi, inson o‘zidagi bor kamchilikni ko‘ra bila olishi va uni tuzatmog‘i.

To‘qqizinchisi, go‘zal xulq odobga ega bo‘lmoq.

O‘ninchisi, shirinsuxanlik va xushmuomalalikdir” [1].

Husayn Voiz Koshifiy “Axloqi Muxsiniy” asarida barkamol inson haqida va u egallashi zarur bo‘lgan ma’naviy–axloqiy go‘zal fazilatlar haqida so‘z yuritadi. Ushbu fazilatlar inson komilligining zamini bo‘lib xizmat qiladi. Alisher Navoiy kishilarga mehr-muruvvat ko‘rsatishga, solih amallarni bajarishga, nafsni tiyishga, kambag‘allarga xayr-ehson qilishga, rahmdil va shafqatli bo‘lishga, doimo xalq g‘amini yeyishga, ular tashvishida yashashga insonlarni da’vat qildi, insoniylik va odamiylikni har narsadan yuqori qo‘yadi:

Odamiy ersang demagil odami, Oniki yo‘q xalq g‘amidin g‘ami [2].

Hazrat Navoiy o‘zining nasriy va nazmiy asarlarida komil inson uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladigan odamiylikka, insonparvarlikning turli jihatlariga e’tibor beradi. Xulosa qilib aytganda, O‘rta asrlardagi komil inson ta’limoti yoshlarimizning ta’lim-tarbiya masalasi, xalqning orzu- istaklari, o‘y- fikrlarini aks ettirgan bo‘lib, undan ko‘zlangan asosiy maqsad xalqni komil inson qilib tarbiyalash, jamiyatga foyda keltirish, turli aqida va toifaga mansub kishilarning ongi-shuuriga ilohiy xislatlar, iymon-e’tiqod, hamida axloq, go‘zal fazilat va xulq-odob qoidalarini singdirish bilan birga nafaqat o‘z zamonasining, bugunning ham ijtimoiy masalalarni o‘z ichiga olganligi bilan bebaho ahamiyatga ega. Ularning asarlarida berilgan pand-nasihatlar yoshlarimizning rivojlanishi, komil inson bo‘lib shakllanishi, kamolotiga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiyaviy, ma’naviy-ma’rifiy bog‘liqlikni ko‘rish mumkin. Buyuk sharq allomalarining yuqoridagi pand-nasihatlari bugungi kun ilm-fani va ta’lim-tarbiya tizimining milliy-ma’naviy negizlarini boyitishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga sharq alloma mutafakkirlarining arab, fors va turkiy tillarda yozilgan didaktik asarlari jamiyatimizning ilm-fan sohasini yanada rivojlanishiga katta ko‘mak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307- sonli Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059- sonli Qarori.

3. Фозил одамлар шаҳри. Абу Наср Форобий / Таржимонлар Абдусодиқ Ирисов, Маҳкам Маҳмудов, Урфон Отажон. Масъул муҳаррирлар М.Хайруллаев, М.Жакбаров. – Тошкент: Янги аср

1 Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy yohud javonmardlik tariqati.– T.,1994–y. 7–b

2 Alisher Navoiy. Hayratul-abror – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989. – 155 b.

авлоди, 2016. – 320 б

4. Alisher Navoiy. Hayratul-abror – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989. – 155 b.

5. Jurayev, S. S. U. (2021). Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida axloq masalasi va uning bugungi kundagi ahamiyati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(3), 11-14.

6. Aliqulov X., Nosirov R., Qodirov M., Omonboyeva R., Ashurov A. Tasavvuf ta’limoti va uning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni. O‘quv qo‘llanma. Andijon. 2005y.36– b.

7. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy yohud javonmardlik tariqati.– T.,1994–y. 7–b.

8. https://www.bukhari.uz/?p=26914

Isfandiyor Xomidov,
O‘zDSMI 2-bosqich tayanch doktoranti

KAYKOVUSNING SAHNA NUTQI FANIGA DOIR QARASHLARI

Annotatsiya. *Maqola aktyor va uning sahna nutqi mahoratini tarbiyalashda muhim manba sanalgan Kaykovusning “Qobusnoma” asarida keltirilgan qimmatli ma’lumotlarga bag‘ishlanadi. Unda aktyorning nutqiy xarakter yaratishidagi “so‘z tug‘ilishi”, “replika”, “tubma’no”, “so‘zdagi ohangdorlik”, “partnyorga munosabat”, “sahnaviy dialog” kabi sifatlarni rivojlantirishda Sharq allomalaridan biri Kaykovus ilmiy merosining ahamiyati haqida so‘z boradi. Bundan tashqari, aktyorlarning sahna nutqi mahoratini boyitishga qaratilgan taklif hamda xulosa bildiriladi.*

Kalit so‘zlar: *spektakl, sahnaviy voqea, sahnaviy dialog, berilgan shart-sharoit, aktyor, partnyor, sahna nutqi, replika, tubma’no, partnyorga munosabat, so‘zdagi ohangdorlik, so‘z tug‘ilishi, nutqiy xarakter.*

Abstract. *The article is devoted to the valuable information contained in Kaikovus' "Nightmare", which is considered an important source for training the actor and his stage speech skills. In it, the significance of the scientific heritage of one of the Eastern scholars, Kaikovus, in the development of qualities such as "birth of words", "replies", "subtext", "melody in words", "relation to the partner", "stage dialogue" in the creation of an actor's speech character is talked about. In addition, a proposal and a conclusion aimed at enriching the stage speech skills of the actors will be presented.*

Key words: *performance, stage event, stage dialogue, given conditions, actor, partner, stage speech, replica, root meaning, attitude to the partner, intonation in words, word birth, speech character.*

Sharq allomalarining ilmiy merosiga nazar tashlar ekanmiz, ularning asosini axloqiy-tarbiyaviy asarlar tashkil etganiga guvoh bo‘lamiz. “Kalila va Dimna” (Panchatantra yoki Besh hikmat), “To‘tinoma” (Shukasaptata yoki To‘tining yetmish besh hikoyasi), “Qutadg‘u bilig” (Baxt-saodatga eltuvchi bilim), “Guliston”, “Bo‘ston”, “Qissai Rabg‘uziy”, “Mahbub ul-qulub”, “Qobusnoma” kabi tarbiya borasidagi fundamental asarlar shular jumlasidandir. Mazkur asarlarni

Yangilanayotgan O‘zbekistonning ta’lim jarayonlarida o‘ta muhim manba ekanligini qayd etgan holda, ularda aks etgan vatanparvarlik, mehnatsevarlik, poklik, rostgo‘ylik jihatlarini ta’lim tizimiga joriy etish zarurligini ta’kidlaymiz. Tabiiyki, bu jarayon har bir tadqiqotchidan o‘zi faoliyat olib borayotgan soha doirasida mavjud muammolarni tahliliy o‘rganib, yechimlarini ilmiy asosda isbotlashni talab etadi.

Shu maqsadda bo‘lajak aktyorlarning individual qobiliyatlarini rivojlantirishda juda qimmatli manba “Qobusnoma” asarida keltirilgan suxandonlik, suhbatdoshga (partnyorga) munosabat, so‘z odobi (so‘z ustida ishlash, nutq texnikasi), so‘zning ma’nosi (tubma’no), so‘zni yetkazib berish (talaffuz yoki diksiya) kabi fazilatlarni shakllantirishga oid ma’lumotlarga tayanamiz.

Kaykovus Unsurul Maoliyning (1021-1098) o‘z o‘g‘li Gilonshohga bag‘ishlab, nasihat sifatida yozgan “Qobusnoma” asari 44 bobdan iborat bo‘lib, 1082-1083-yillarda yaratilgan. Muallif o‘z asarida yoshlarda yuksak axloqiy fazilatlarni tarkib toptirishni istaydi, yoshlarni doimo to‘g‘rilikka, yaxshilikka, adolatlilikka undaydi. Asarda asosan o‘zgalarga nisbatan insoniy munosabatda bo‘lishlik uqtiriladi. Bu ayniqsa aktyorlik san’atida juda muhim bo‘lib, tomoshabinning insoniy tuyg‘ular orqali ta’sirlantirish, dunyoqarashini o‘zgartirishga xizmat qiladi.

Asarning 6-7-boblari so‘z odobi, suxandonlik haqida. Mazkur boblar bugungi kun aktyorining sahna nutqi bilimlari bilan bog‘liq. Sahna nutqi fani aktyorga so‘z ustida ishlashni o‘rgatadi. Negaki, “Qahramonlarning fikran to‘qnashuvlarida, o‘zi va boshqalarning taqdiri uchun kurashda, nihoyat, muddaoga erishishda aktyor uchun so‘z asosiy qurollardan biridir[1]”. Kaykovus asarda farzandiga so‘zlash borasida quyidagilarni uqtiradi: “Ey farzand, so‘zning yuzin va orqasin bilg‘il va ularga rioya qilg‘il, har na so‘z desang yuzi bila deg‘il, to suxango‘y bo‘lg‘aysan. Agar so‘z aytib, so‘zning nechuk ekanin bilmasang qushga o‘xsharsanki, unga to‘ti derlar, ul doim so‘zlar, ammo so‘zning ma’nosin bilmas[2]”.

Ma’nosi shundan iboratki, so‘zni qanday vaziyatda, qay holatlarda aytish mumkinu va mumkin emasligini bilishlik haqida. Misol uchun, aktyorning ijrosi nuqtayi nazaridan yondashsak, motam kayfiyatidagi sahnalarda kulgi kayfiyati bilan so‘zlamaslik yoki quvnoq va kulgi kayfiyatidagi sahnalarda motam kayfiyatida so‘zlamaslik. Aksincha, har bir sahnaning berilgan shart-sharotini his qilib, so‘zlashlikni uqtirmoqda.

Aktyor sahna nutqi qoidalariga amal qilgan holda har bir aytilajak so‘zning kim tomonidan, kim tomonga, nima maqsadda ijro qilinayotganini aniq bilgan tarzda ijro qilishi kerakligini ta’kidlamoqda. Alloma mahoratli aktyorning sahna nutqi haqidagi o‘z fikrlarini qobiliyatsiz aktyorni to‘tiqushga qiyoslagan holda yakunlaydi.

---

1 I.Po‘latov. Sahna nutqi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994. 3-bet (136 bet)

2 Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. 48-bet (224 bet)

Nutqiy xarakter yaratish qahramonning ijrosida so‘z tug‘ilishi, uning intonatsion ifodasi bilan belgilansa, so‘zning tub ma’nosi partnyorga bo‘lgan munosabat va ovoz ohanggidan tushuniladi. Bu jarayonlarni yurtimizda ilk tadqiq etgan olima, o‘zbek sahna nutqi asoschilaridan biri Nazira Aliyeva shunday izohlaydi: “Tahlil uchun kichik-kichik jumlalar olinardida, shu jumlalar grammatik jihatdan, keyin esa mutlaqo ijrochilik yo‘sinida, ya’ni mantiqiy jihatdan to‘la-to‘kis tahlil etilardi. Qilingan tahlil natijasi studentlar orasida muhokama etilib, to‘g‘ri va noto‘g‘ri tomonlari ustidan hukm chiqarilardi. Ayniqsa, mantiqiy urg‘u tushuvchi so‘zlarni topish va ularni bo‘rttirish uslublari masalasiga alohida e’tibor berilardi. Auditoriyada gapdagi asosiy fikrni yorituvchi so‘zni aniqlab olish mashqlari o‘tkazilgach, uyga ham boshqa misollar topib, lingvistik va mantiqiy jihatdan tahlil etib kelish vazifasi topshirilardi[1]”.

Yuqorida Nazira Aliyeva tomonidan keltirilgan sahna nutqini o‘qitish metodikasidagi yondashuvlar Kaykovusning “Qobusnoma”sidagi qarashlar bilan uyg‘un ekanligini kuzatishimiz mumkin.

Kaykovus “Qobusnoma”da so‘zning qiymati haqida quyidagicha fikr yuritadi: “Qay bir so‘zniki bilsang joyini o‘tkarmay aytg‘il, vaqtni zoye qilmag‘il, yo‘q ersa donishg‘a sitam qilg‘on bo‘lg‘aysan. Har so‘z desang rost deg‘il va bema’nilikni da’vo qilg‘uvchi bo‘lmag‘il[2]”. Yuqorida keltirilgan fikrda “sahnaviy dialog” holati aks etganini bilsak bo‘ladi. Tahlil natijasida aktyorning partnyoriga ma’lum replikani o‘z vaqtida, yetarli munosabatda, kerakli ohangda ijro qilishi zarurligi ta’kidlangan. Bundan ko‘rinadiki, agar aktyor ijro vaqtida partnyoriga ma’lum replikaning o‘rniga boshqa bir replikani qo‘llasa, uni chalg‘itgan bo‘ladi. Sahnaviy voqeaning kechmishiga putur yetadi. Natijada, tomoshabin sahnadagi aktyorlarning dialogiga e’tibor bermaydi, eshitmaydi. Spektaklning ta’siri shu joyda yakunlanadi. Aktyorning partnyor bilan ishlashi va dialog hosil qilishi borasidagi qimmatli ma’lumotni Kaykovusning “Kishi faqat nutq so‘zlashni emas, balki boshqalarning so‘zini ham diqqat bilan tinglashi kerak”ligini tavsiya qilgan hikmatlarida topamiz[3].

“Qobusnoma”da bayon qilingan Kaykovus hikmatlari bugungi kun aktyorini tarbiyalashda sahna nutqi fani doirasida dolzarbdir. Zero, “Sahnaviy nutq keng fikr, chuqur mulohaza, o‘z millatimiz tarixiy ildizlarini aniq bilish ularga mehr bilan yondashgan ziyolilardagina yaxshi tarbiyalanadi, jaranglaydi, parvoz etadi.[4]”.

Aktyorlik fazilatlarini shakllantirishda muhim manba “Qobusnoma”da keltirilgan ma’lumotlar asosida “Sahna nutqi” o‘quv adabiyotini tayyorlash taklif etiladi. Unda umuminsoniy sifatlarni o‘zida jam etgan zamonaviy aktyor tarbiyalash prinsipi ustunlik qiladi. Aktyorlik sistemasini yaratgan Stanislavskiyning ham “aktyor etikasi”ga jiddiy

---

1 N.Aliyeva. San’at – mening hayotim. – Toshkent: Navro‘z, 2019. 77-bet (278 бет)
2 Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. 48-bet (224 bet)
3 Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. 43-54-betlar (224 bet)
4 Qodirov R. Talaba-aktyorlar bilan nutqiy xarakter ustida ishlash usullari. // Madaniyat chorrahalari. Toshkent: 2022.№4, 4-8-b.

e’tibor qaratganligini inobatga olsak, “Qobusnoma”ning sahna nutqi etikasiga asos bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Po‘latov. Sahna nutqi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994;
2. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016;
3. N.Aliyeva. San’at – mening hayotim. – Toshkent: Navro‘z, 2019;
4. Qodirov R. Talaba-aktyorlar bilan nutqiy xarakter ustida ishlash usullari. // Madaniyat chorrahalari. Toshkent: 2022.№4, 4-8-b.

MUNDARIJA

I SHU'BA.
O'RTA ASR SHARQ ALLOMALARI VA MUTAFAKKIRLARINING ILMIY TARIXIY MEROSI VA UNING UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDAGI AHAMIYATI

1. **Alimasov V.** // ABU MANSUR AS-SAOLIBIY O'RTA ASR MUTAFAKKIRLARI IJODI HAQIDA……..……..12
2. **Abdunazarova N.** // SHARQ ALLOMALARINING MADANIYATGA OID QARASHLARI……..15
3. **Abdurasulov Sh.** // ALISHER NAVOIYNING "SADDI ISKANDARIY" DOSTONINING O'ZBEKISTON TEATRLARIDAGI TALQINI……19
4. **Samigova G.** //AL-XORAZMIY VA RAQAMLI TARIXNING UYG'UNLASHUVI……24
5. **Кошелева А.** // ДУХОВНОЕ РАЗВИТИЕ КАК ОСНОВА ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ……..…. 28
6. **Курбанова Н.** ФОРМИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ УЗБЕКИСТАНА……...31
7. **Ziyoyeva M**. // ILK RENESSANS DAVRI ALLOMALARI MA'NAVIY MEROSIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARINING PEDAGOGIK TAHLILI……...…..35
8. **Bekmuradova S.** // O'RTA ASR SHARQ ALLOMALARI VA MUTAFAKKIRLARI TARIXIY MEROSINING MILLIY TELEEKRANLARDA YORITILISHI……..39
9. **Nasimov F.** // O'ZBEK KINEMATOGRAFIYASINING SHOH ASARI "ALISHER NAVOIY" TARIXIY BADIIY FILMINING NAZARIY ILMIY TAHLILI……42
10. **Karimova M.** // BÜYÜK FOLKLORCU VE ETNOGRAF OLARAK KAŞGARLI MAHMUD……47
11. **Qurbonova D.** // SHARQ MUTAFFAKKIRLARINING QARASHLARIDA OILAVIY MUNOSABATLAR MADANIYATI……....51
12. **Ravshanova A.** // O'ZBEKISTONDA AMIR TEMUR NASHRLARI BIBLIOGRAFIYASI ……54
13. **Ravshanova M**. // ZAMON QAHRAMONI – O'ZBEK ZIYOLISI……..…57
14. **Ro'ziyeva Z., Ro'ziyeva F.** // IS'HOQXON TO'RA IBRAT ILM-FAN, SAN'AT VA MADANIYAT HOMIYSI…….....62
15. **Samiyev B.** ABU NASR FOROBIYNING DAVLAT BOSHQARUVIGA DOIR IJTIMOIY-SIYOSIY QARASHLARI…….....65
16. **Saydumarova N.** MARKAZIY OSIYO XALQLARINING MA'NAVIY-MA'RIFIY, MADANIY TARIXINI ILMIY O'RGANISH MASALALARI……....69
17. **Ubaytov O**. O'ZBEK MILLIY KUY-QO'SHIQLARIDA SHARQ ALLOMLARI VA MUTAFFAKIRLARI TARIXIY MEROSI VA MILLIY CHOLG'U IJROCHILIGIDAN FOYDALANISH……73

II SHU'BA.
SHARQ MUTAFAKKIRLARI VA JADID MA'RIFATPARVARLARINING SAN'AT VA MADANIYAT RIVOJIGA DOIR TARAQQIYPARVAR QARASHLARI

18. **Abduqodirov F.** // INSON MA'NAVIYATINING SHAKLLANISHIDA SHARQ ALLOMALARINING MUSIQADA TUTGAN O'RNI……....77
19. **Pirmatov Sh.** // MUSIQALI TEATRNING TARAQIYOT BOSQICHLARI. AN'ANA VA YANGI TENDENSIYALAR……..….79

20. Ismoilov X. // YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” ASARIDA ILM-MA’RIFAT VA MA’NAVIYAT MASALALARI……..…….83

21. Umarov M. // MANNON UYG‘UR REJISSURASI…….....86

22. Imamov A. // O‘ZBEKISTON RASSOMLARI IJODIDA BERUNIY OBRAZINING TALQINI…...90

23. Isroilova M. // “O‘RTA ASR SHARQ ALLOMALARI VA MUTAFAKKIRLARI TARIXIY MEROSIDA SAN’AT VA MADANIYAT MASALLARI” (JADID DRAMATURGIYASI MISOLIDA)……...94

24. Lukmanova T. // SHARQNING DONISHI VA GAVHARI TARATGAN ZIYO……101

25. Mamajonov D. // TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI VA MILLIY UYG‘ONISH YO‘LIDAGI FAOLIYATI……..106

26. Hamroyeva I. //ABU ALI IBN SINO – BUYUK QOMUSIY OLIM……..……..110

27. Xudoyev G‘. // QADIM SAMARQAND SHARQ VA G‘ARB ALLOMALARI NIGOHIDA…….114

28. Malikova D. //ABU ALI IBN SINONING MUSIQAGA OID QARASHLARI……..121

29. Umarxodjayev B. // JADIDLARNING SAN’ATGA OID QARASHLARI……126

30. Bobomurodov Sh. // JADIDLARINING MATNI TOPILMAGAN PYESALARI……129

31. Ashirmetova X. // IMKONYATI CHEKLANGAN FOYDALANUVCHILARGA MAXSUS KUTUBXONA-AXBOROT XIZMATINI KO‘RSATISH SOHASIGA NAZAR……..…134

32. Berdiyeva I. // JADID MA’RIFATPARVARLARINING YOSHLAR TA’LIM – TARBIYASIGA OID MA’NAVIY-MA’RIFIY QARASHLARI…….....137

33. Мирсаидова Д. // ВЗГЛЯДЫ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ И СОВРЕМЕННЫХ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ НА РАЗВИТИЕ ИСКУССТВА И КУЛЬТУРЫ И КАК ИСКУССТВО ДУБЛЯЖА ВЛИЯЕТ НА РАСПРОСТРАНЕНИЕ ЭТИХ ВЗГЛЯДОВ……..143

34. Ibodullayev A. // ABDURAHMON JOMIY IJODIDA MAQOM MASALALARI……147

35. Pardayeva M. // TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI VA UNING TUGATILISHINING ASOSIY OMILLARI……..…151

36. Rustamliyeva Sh. // JADID MA’RIFATPARVARLARINING XOTIN-QIZLAR TA’LIMI BORASIDA AMALGA OSHIRGAN ISLOHOTLARI……...154

37. Shobilolova O. // O‘ZBEK MILLIY AKADEMIK DRAMA TEATRIDA JADIDCHILIK HARAKATLARI: KECHA VA BUGUN……158

38. Umarov K. // JADIDCHILIK HARAKATI: O‘ZBEK TEATRI TARAQQIYOTIDA IJTIMOIY-MADANIY JARAYONLAR……..…162

39. Xakimova M., Nishonboyeva Q. // NOMODDIY MADANIY MEROS MILLIY QADRIYAT SIFATIDA…….....165

40. Amondulloyev Z., Vahidov Y. // O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARINI TA’LIM JARAYONIDA QO‘LLASHNING MAQSAD VA MOHIYATI……...170

41. Xudaybergenova M. //ABDURAUF FITRATNING “O‘ZBEK KLASSIK MUSIQASI VA UNING TARIXI” ASARI – MUMTOZ MUSIQANING NAZARIY MEROSI SIFATIDA……173

42. Zariyev J. // O‘ZBEK MA’RIFATINING YALOVBARDORLARI YOXUD BUYUK JADIDLARIMIZ……..175

III SHU’BA.
MARKAZIY OSIYO XALQLARINING MA’NAVIY-MA’RIFIY, MADANIY TARIXINI ILMIY O‘RGANISH MASALALARI

43. Abdujabbarova M., Haydarov X. // O‘ZBEKISTON BADIIY MADANIYATI RIVOJIDA MILLATLARARO MUSHTARAKLIKNING ROLI……..…179

44. Abdurahmonov I. // O‘ZBEKISTON TASVIRIY VA AMALIY SAN’ATIDA MIFO-EPIK HAMDA FOLKLOR MAVZULAR TALQINI…….....184

45.	**Fayziyev T.** // “BOBURNOMA” ASARINING ILMIY-MA’RIFIY, TARBIYAVIY AHAMIYATI……..……..191
46.	**Mavrulova M.** // YOSHLARIMIZNING MA’NAVIY-MADANIY EHTIYOJLARINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB XUSUSIYATLARI…….197
47.	**Turg‘unova N.** // MUQIMIY IJODIGA DOIR……201
48.	**Xakimova M.** // MUTOLAA MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA KUTUBXONA-AXBOROT MUASSASA XODIMLARINING O‘RNI VA ROLI……...……..204
49.	**Музафарова С.** // ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ МУЗЫКИ В ДУХОВНОМ НАСЛЕДИИ СРЕДНЕВЕКОВЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ ВОСТОКА…….....207
50.	**Nishonboyeva Q.** // BURHONUDDIN AL-MARG‘INONIYNING “AL-HIDOYA” ASARI VA UNING TARBIYAVIY AHAMIYATI…….....212
51.	**Махсудзода Ф.** // МЕХРУБОН НАЗАРОВ – ОСНОВАТЕЛЬ ТАДЖИКСКОЕ КУЛЬТУРОВЕДЕНИЕ И ИСКУССТВОВЕДЕНИЕ……....215
52.	**Муминова Х.** // ХАНИФА МАВЛОНОВА – ОСНОВАТЕЛЬ ТАДЖИКСКОЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ ОПЕРЫ В XX ВЕКЕ……220
53.	**Наимова Ф.** // ИССЛЕДОВАНИЕ И ИЗУЧЕНИЕ САДРИДДИН АЙНИ ПРО СТИХИ АЛИШЕРА НАВОИ (НА ПРИМЕРЕ ПИСЕМ К А. ЛОХУТИ)……..226
54.	**Сафаралиев Б., Глазнева Т.** // ОСОБЕННОСТИ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ……..……231
55.	**Степанова Т.** // РЕАЛЬНЫЕ И ВИРТУАЛЬНЫЕ ЛОКАЦИИ ДОСУГА: ВОЗМОЖНО ЛИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ?.....237
56.	**Холов М.**, **Ходжаев Д.** // РОЛЬ КУЛЬТУРЫ И НАЦИОНАЛЬНЫХ РЕМЕСЕЛ В РАЗВИТИИ ЦИВИЛИЗОВАННОГО ОБЩЕСТВА……..242
57.	**Эшонкулов М.** // ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ ТАДЖИКСКОЙ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ….247
58.	**Боронбекова С.** // РОЛЬ АЗИЗА АЗИМОВОЙ В РАЗВИТИИ ТАДЖИКСКОЙ ХОРЕОГРАФИИ……251
59.	**Abduqodirova Sh.** // TARIXIY DRAMALARDA AYOL QAHRAMONLAR IJROSI……....255
60.	**Eshqurbonova A.** // SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MULOQOT MADANIYATIGA OID NAZARIY QARASHLARI……..259
61.	**Mamajonova F.** // RASSOMLAR IJODIDA MUMTOZ ADABIYOT TALQINI……..…263
62.	**Shamuratova N.** // SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MUSTAQIL TA’LIM OLISH HAQIDA ILMIY QARASHLARI……...266
63.	**Сапарбаева С.** // РАЗРАБОТКА ТВОРЧЕСКИХ ПРОЕКТОВ-НАПИСАНИЕ ЛИБРЕТТО СОЗДАНИЕ СЦЕНАРНОЙ И ХОРЕОГРАФИЧЕСКОЙ ДРАМАТУРГИИ…….....269
64.	**Shavkatova G.** // TEATR PEDAGOGIKASINING MA’NAVIYATIMIZ SHAKLLANISHIDAGI AHAMIYATI…….....271
65.	**Suleymanova K.** // BUYUK AJDODLARIMIZNING BOLALIK HAYOTLARI HAQIDA ANIMATSION FILMLAR YARATISH MASALASI……275
66.	**Xakimova N.** // ALISHER NAVOIY ASARLARI O‘ZBEK MILLIY QO‘G‘IRCHOQ TEATRI SAHNASIDA……...277
67.	**Ismanova A.**, **Yuldashev I.** // SAN’AT, MADANIYAT VA O‘ZBEK XALQ ERTAKLARI ORQALI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MILLIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH…..282
68.	**Dovidxonov M.** // ABU NASR FAROBIYDA TIL, MANTIQ VA MADANIYAT O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR……...……..287
69.	**Davlatov O., Mamasolixov A.** // SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MUSIQA SAN’ATIGA OID QARASHLARI……...…….290

70. Abdiyev R. // ZIYORAT TURIZMINING IJTIMOIY-MA'NAVIY TAVSIFI VA XUSUSIYATLAR…..……..294

71. Beknazarova Sh., Bayturayev T. // QADIMGI MADANIYATLAR TARIXIGA OID NASHRLAR, ULARNING BIBLIOGRAFIYASI…….....298

72. Umarova S. // OAVNING JAMOATCHILIK ONGIGA PSIXOLOGIK TA'SIR ETISH USULLARI, SHAKLLARI, VOSITALARI…….....301

73. Normatova G. // SHARQ MUTAFAKKIRLARI VA JADID MA'RIFATPARVARLARINING SAN'AT VA MADANIYAT RIVOJIGA OID QARASHLARI……305

74. Tuyg'unov D. // O'ZBEK TEATR SAHNALARIDA SHE'RIY DRAMALAR TALQINI……...308

75. Xurramov A., Maxmudov A. // SHARQ MUTAFAKKIRLARI VA JADID MA'RIFATPARVARLARINING SAN'AT VA MADANIYAT RIVOJIGA DOIR TARAQQIYPARVAR QARASHLARI……...311

76. Юлдашева М. // К ВОПРОСУ О ПРОДВИЖЕНИИ НАУЧНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОГО НАСЛЕДИЯ АБУ РЕЙХАНА БЕРУНИ……...315

77. Abdullayeva X. // "FOZIL ODAMLAR SHAHRI" VA HUDUDLARNI IJTIMOIY-MADANIY RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI……321

78. Abdurazzakova D. // O'RTA ASR SHARQ ALLOMALARI VA MUTAFAKKIRLARINING ILMIY TARIXIY MEROSI VA UNING UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDAGI AHAMIYATI…….....327

IV SHU'BA.
ALLOMA VA MUTAFAKKIRLAR MEROSIDA TARJIMA VA NASHR ISHLARI

79. Qodirova S. // MA'RIFATCHILIK DAVRI KOMEDIYA SAN'ATI……....332

80. Xalikulova G. // YUSUF XOS HOJIB VA MAVLONO JALOLIDDIN RUMIY MASNAVIYLARIDA UMUMINSONIY G'OYALAR VA ULARNI SAHNA IJODKORLARIDA BADIIY O'QISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI……..……335

81. Yusupov Sh. JALOLIDDIN RUMIY "MASNAVIY" ASARINING YOSHLAR MA'NAVIYATIDAGI O'RNI…….....341

82. Djumanov I. O'RTA ASR SHARQ MUTAFAKKIRLARI TA'LIMOTIDA KOMIL INSON TARBIYASI……345

83. Ro'ziboyeva G.,Nishonboyeva Q. // O'RTA ASR NASAF VOHASINING ALLOMALARI VA ULARNING TARIXIY ME'ROSI…….....350

84. Обланазарова А., Байтураев Т. // Б.В.ЛУНИН БИБЛИОГРАФ ОБЩЕСТВЕННЫХ НАУК УЗБЕКИСТАНА…….....357

85. Xolmaxmatov P SHARQ RENESSANSINI TURKIYA ORQALI YEVROPAGA YETKAZGAN OLIM……...360

86. Qo'chqorova D. //O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARIDA ASL MOHIYAT MASALALARI……..365

87. Turayev J. // MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDAGI ZAMONAVIY CHET EL TAJRIBALARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI……..368

88. O'rozaliyev D. // TARIXIY HUJJATLI FILMNING CHEKSIZ MUNOZARASI……....372

89. Aliyeva G.// JALOLIDDIN RUMIY FALSAFASIDA TARBIYA MASALASI……..…….375

90. Davlatova F., Bayturaev T. // ABU NASR FOROBIY NASHRLARI VA ULARNING BIBLIOGRAFIYASI……....378

91. Eshnazarova E. // SHARQ ALLOMALARI VA MUTAFAKKIRLARINING O'RTA ASRLARDAGI ILMIY-TARIXIY QARASHLARINING, YOSHLAR AXLOQIY TA'LIM-TARBIYASIDAGI O'RNI……...380

92. Isfandiyor Xomidov I. // KAYKOVUSNING SAHNA NUTQI FANIGA DOIR QARASHLARI…385

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 20-martdagi 76-son buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida 2024-yil 7-may kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida o‘tkazilgan “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy merosida san’at va madaniyat masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan.

(Maqolalardagi ma’lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas’uldir)

Mas’ul muharrir:
E.U.Shermanov,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, O‘zDSMI rektori v.b.

Tahrir hay’ati:

S.Jumayev – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor

O.Davlatov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i

Sh.Bobomurodov – Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i

A.Qo‘lqanotov, Sh.Rustamaliyeva, G.Shavkatova – O‘zDSMI doktorantlari